

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

*Professor Yormat TOJIYEV  
tavalludining 80 yilligiga bag ishlanadi*

**“Filologik ta'limdi takomillashtirish  
muammolari”**

**Respublika ilmiy-amaliy anjumani  
MATERIALLARI**

**Toshkent  
«MUMTOZ SO Z»  
2020**

**“Filologik ta’limni takomillashtirish muammolari”** Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Toshkent, O’zMU, 2020.

**Mas’ul muharrir**  
*Filologiya fanlari doktori, professor Hamidulla Boltaboyev*

**Tahrir hay’ati:**  
*F.f.d., prof. N.Rahmonov, R.Sayfullayeva, f.f.n., dots. M.Abdurahmonova,  
f.f.d., dots. v.b. N.Alovutdinova, f.f.b.f.d. D.Azimova, o’qit. S.Isroilova*

**Tashkiliy qo’mita**

**Prof. A.R.Marahimov** – O’zMU rektori, rais

**Dots. H.Saburov** – O’zMU prorekitori, rais o’rinbosari

**Dots. K.Mirzaahmedov** – O’zMU prorekitori, rais o’rinbosari

**Dots. I.Jo’raeva** – O’zMU Xorijiy filologiya fakulteti dekani, a’zo

**Dots. M.Mirsoatova** – O’zMU Jurnalistika fakulteti dekani, a’zo

**Prof. H.Boltaboev** – O’zMU O’zbek filologiyasi kafedrasi mudiri, a’zo

**Prof. N.Rahmonov** – O’zMU O’zbek filologiyasi kafedrasi professori, a’zo

**Prof. M.Qurbanova** – O’zMU O’zbek filologiyasi kafedrasi professori, a’zo

**Prof. S.Normamatov** – TDO’TAU prorekitori, a’zo.

**Prof. R.Mahmudov** – GulDU prorekitori, a’zo.

**Prof. Z.Xolmanova** – TDO’TAU professori, a’zo.

**YALPI MAJLIS**

**(Toshkent sh, O’zMU, Milliy universitet kutubxonasi O’quv zali.**

**2020 yil 20 oktyabr, soat 10.00)**

**Moderator: f.f.d., prof. H.Boltaboev H.**

***Kirish so’zi va tabriklar***

1. Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zMU rektori, prof. A.R.Marahimovning Kirish so’zi.
2. O’zbekiston Respublikasi Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari M.Hojimatov.
3. *Turk Dil Qurumi (Til akademiyasi) raisi Gurer Gulsevin.*
4. O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vaziri maslahatchisi O.Jamoliddinova.
5. O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Til, adabiyot va folklor instituti direktori, prof. N.Mahmudov.
6. Samarqand Davlat universiteti professorı S. Karimov.
7. Farg’ona viloyati Erkin Vohidov nomidagi ijtimoiy fanlarni o’qitishga yo’naltirilgan maktab-internat direktori N.Mannopova.
8. Gulston Davlat universiteti kafedra mudiri, prof. R.Mahmudov.

ISBN 978-9943-5562-1-8

## **PROFESSOR YORMAT TOJIYEV – OLIM, PEDAGOG VA MURABBIY**

### **O'ZBEK FILOLOGIYASINING TAKOMILLASHUVI JARAYONIDA UNIVERSITET TILSHUNOSLIGINING O'RNI**

*H.Boltaboyev,  
O'zMU professori, f.f.d.*

Til insonning tafakkur shakli va millatning borlig'i idir. O'zbekiston davlati va o'zbek millati jahon hamjamiyatida o'z munosib o'rniga ega ekan, bu uning milliy tili shakllanganligidan va davlatchilik asoslari to'g'ri belgilanganidan dalolatdir. Ba'zilar tilni faqat fikrning ifoda vositasi bilib, unga ikkilamchi munosabatda bo'ladilar. Bu fikrning noto'g'riliqi shundaki, inson tili orqali tafakkur qiladi. Milliy tilda fikr qilmagan kishi milliy jihatdan shakllanmagan hisoblanadi. Dunyoning qaysi mamlakatiga e'tibor qaratmaylik, uning milliy tili Davlat Qonuni (Konsitutsiyasi) bilan himoyalanadi. Shunday ekan, oddiy vatandoshdan mamlakat rahbarigacha, huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlar ham, o'z navbatida, "O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligi haqidagi Qonun" himoyasi uchun mas'uldirlar.

O'zbek tilining qadimgi ildizlari miloddan bir necha ming yil avvalgi turkiy qavmlarning tillari bilan bog'lanadi. Oltoy tillari va turkiy tillar oilasining tarkibida bo'lgan o'zbek tili qadimgi ekanini jahon hamjamiyati bir necha asrlar burunoq tan olgan. Bundan ming yillarcha avval Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'oti-t-turk" asarini bitib, milliy tilning qonuniyatlarini asrlar davomida ustivor bo'lganini isbotlovchi fundamental tadqiqot yaratgani va bu tadqiqot hali hech bir millat o'z borlig'ini namoyish qilib ulgurmagan paytda, boshqa til vakillari uchun turkiy (o'zbek) tilini mukammal o'rganish uchun qo'llanma bo'lganini hech kim unutmaydi.

Alisher Navoiy dahosi bilan bu til mag'ribdan mashriqqacha hamma millat va elatlar uchun o'z borlig'ini namoyish qila bilgan, Hazrat "muayyan turk ulusi xud meningdir" deyish bilan o'z asarlari orqali jahon ma'naviyati xazinasidan o'rin olgan milliy tilimizning benazir imkoniyatlarini ko'rsatgan edi. Ayni shu davrda Xuroson mamlakatida Husayn Boyqaro tomonidan turk (o'zbek) tili davlat tili sifatida e'lon qilinganini hujjatlar tasdiqlaydi. XX asr boshlarida yana til siyosati kun tartibiga ko'tarilgan bir paytda 1921-yili Buxoro Respublikasida turk (o'zbek) tiliga davlat tili maqomining berilishi kabi hodisalar bizning milliy tilimiz faqat 30 yil avvalgina davlat tili maqomiga erishgan, degan noto'g'ri tasavvurni rad qiladi.

To'g'ri, mustamlaka davrida, sho'ro rejimi ostida jahonning eng boy tillaridan biri bo'lgan ona tilimiz taraqqiyotiga nisbatan cheklolvar bo'ldi. Biz uchun markazdagi qizil imperiya vakillari Vatan tushunchasini cheklab, "malaya rodina" (kichik vatan) tushunchasini kiritdilar va ikkinchi "katta vatan" sifatida sobiq ittifoqni tanitmoqchi bo'ldilar. Hammaga kundai ayonki, ota bir, ona bir bo'lgani kabi Vatan ham bir bo'ladi, uning katta kichigi bo'lmaydi. Hatto "mening ikki onam bor, ikkisi ham mehribon" degan so'zlarni qo'shiq qilib bolalikdanoq ongimizga kiritib, bizlarni manqurt qilib tarbiyalamoqchi bo'ldilar. Yozuvimizning 70 yil mobaynidagi 3 marta o'zgartirilishi millatni imkon qadar savodsizlik girdobi sari tortish niyatidagi harakat bo'lgani bugun barcha ziyorilarga ayon.

Ona, Vatan, millat yagona bo'lgani kabi milliy til ham yagonadir. Milliy tilning sheri bo'lmaydi. Uning yoniga g'ayri tilini qo'yib, davlat tiliga nisbatan sherikchilik da'vo qilayotgan mushriklar bir paytlar "bilingvizm" (ikki tillilik) shiori ostida bosh ko'targan edilar. Endi mamlakatimizda demokratik islohotlar jadal suratda amalga oshirilayotgan bir paytda yana o'tmishdagi til siyosatini sog'inish milliy taraqqiyotimiz uchun to'siqdan boshqa narsa emas.

Ularning maqsadi milliy va diniy bag'rikengligimizdan foydalanib, yagona milliy tizim taraqqiyotiga rahna solishdir. Bir vaqtlar Boltiqbo'y়i respublikalarini qonga botirgan, Ukrainadagi alg'ov-dalg'ovlarga sababchi bo'lgan hodisa davlat tili haqidagi munozaralar ekanligini unutmaylik. Aslida bu yerda munozara yo'q. Munozara qilmoqchi bo'lganlar davlat matbuoti orqali babs ochib, munozara qilaveradilar. Buning uchun sustkashlik qilmay, hukumat tomonidan "O'zbek tiliga davlat tili maqomini berilganligining 30 yilligini nishonlash to'g'risida" tarixiy Qaror qabul qilingani va o'sha Qarorda ko'rsatilganidek, avval qabul qilingan Qonunga o'zgartirishlar kiritilishi lozimligini bugungi madaniy va ilmiy hayot ehtiyojlari ko'rsatib turibdi.

Mamlakatimiz Prezidentining 2020-yil 20-oktyabrda qabul qilgan "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6084 raqamli Farmoni O'zbek tiliga davlat tili maqomini berilganiga 30 yil to'lishi munosabati bilan 2019-yilda boshlangan davlat miqyosidagi til siyosati ustuvor qilinishining davomidir. Ushbu Farmon bilan yana ikki muhim hujjat "2020-2030- yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiysi" va uni amalga oshirish mexanizmi bo'lgan "...chora-tadbirlar Dasturi"ning qabul etilishi mamlakatda til islohotini amalga oshirish uchun muhim qo'llanma bo'ldi. Endi navbatda "O'zbekistonda Yangi tahrirdagi Davlat tili haqidagi Qonun" e'lon qilinishi kutilyapti. Bir yilning o'zida Prezident va hukumat tomonidan shuncha Farmon, Qaror va dasturlarning e'lon qilinishi, aytish mumkinki, o'ttiz yil davomida sekinlik bilan harakat qilingan til siyosatining amalga oshuvi uchun hujjatli asos bo'la oladi.

O'zbekiston Milliy universiteti tashkil etilgan dastlabki kunlardanoq ona tiliga millat ravnaqining bosh mezoni sifatida qaraldi. Turkiston Xalq universitetining asoschisi va birinchi rektori Munavvar qori Abdurashidxonov universitetda dars berish uchun zamonining eng yetuk alloma va fozillarini to'pladi. "Adabiyot va falsafa" hamda "Sharq tillari" sho'basi (kafedrasi)ga mudirlik qilish uchun Abdurauf Fitratni, dorilmuallimin (pedagogika instituti) ishini yo'lga qo'yish uchun Abdulla Avloniyni universitetga chorladi. Universitet o'z faoliyatini boshlagan 1918-yilning o'zidayoq Fitrat, Shokirjon Rahimiyl va Qayum Ramazon hammuallifligida tayyorlangan "Ona tili" darsligi chop etildi. O'zbek tilining go'zal va boyligini tarannum qilish barobarida uni baxtsizlik girdobidan chiqarish uchun milliy da'vatga aylangan Fitrat domlaning "Tilimiz" maqolasi e'lon qilindi.

1920-yili o'zbek jadid ma'rifatchilar qurgan Turkiston universitetini tez orada markaz – Moskva o'z nazoratiga oldi. O'zbekistonga bir guruh moskvalik va piterlik olimlarni yuborish bilan universitet tashkil bo'lgan sana kechiktirilib, 1920-yili Lenin dekreti bilan hujjatlashtirildi. Milliy o'zanga qurilgan xalq dorilfununi evropalashtirildi, buning natijasida, bir tomonidan, aniq va tabiiy fanlar rivojiga salmoqli hissa qo'shilgan bo'lsa, ikkinchi tomonidan esa, o'zbek tili, adabiyot, tarix va falsafa kabi milliy o'zlikni tanitishga xizmat qiluvchi fanlar Moskvadan turib boshqariladigan bo'ldi. Ayni shu davrdan Fitrat kabi millat fidoyilari yangi tashkil etilgan Buxoro jumhuriyatiga chaqirib olinishi munosabati bilan uning o'rniga rus siyosatini og'ishmay amalga oshirishga bel bog'lagan A.Sa'diy kabi filologlar Turkiston universitetiga joylashtirildi. Qariyb o'n yil davom etgan bunday tartib tufayli Fitratning "O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba. Sarf (1-kitob, 1924), Nahv (2-kitob, 1925)" kabi ilk grammatikalari, "O'zbekcha til saboqligi (1926)" singari fundamental tadqiqotlaridagi ilmiy qarashlar o'zbek tili tabiatiga mos kelmagan grammatik qonuniyatlar hisobiga "boyitildi".

1926-yilda Bokuda o'tkazilgan sobiq ittifoqda yashovchi xalqlarning Turkologiya qurultoyiga V.V.Bartold, S.E.Malov, A.A.Miller, S.F.Oldenburg, R.R.Poppe, A.N.Samoylovich, V.B.Tomashevskiy, K.K.Yudaxin; M.F.Ko'prulu (turk), Paul Vittek (olmon), B.Cho'ponzoda (qrim tatar), A.Boytursun (qozoq) kabi mashhur olimlar qatorida O'zbekistonda borgan 11 vakil (A.Abdujabborov, A.Zohiriy, Elbek, R.Inog'omov, Sh.Rahimiyl, B.Rahmon, I.Sadriy, N.Hakimov, G'.O.Yunusov, N.To'raqulov, X.Xo'jaev)ning 4 tasi Toshkentda Turkiston universitetida

faoliyat ko'rsatayotgan o'zbek tili o'qituvchilari edilar<sup>1</sup>. Qurultoy hujjatlaridan ma'lum bo'lishicha, markaz yagona dini mubini islom va uning muqaddas yozuvi birlashtirgan turkiy xalqlarni o'z yozuvidan adashtirish uchun lotin yozuviga o'tishlari lozimligini nazarda tutgan edi. Bu harakatga nafaqat Markaziy Osiyo va Kavkaz turklari, balki Qrim va Qozon tatarlari, boshqird, tuva, xokas, saqa (yoqut) turklari, balki sobiq ittifoq tashqarisidagi Onado'li va uyg'ur turklarining qo'shilayotgani, lotin yozuvi turkiy xalqlarni o'z yozuvidan ajratish emas, balki yagona yangi yozuv ostiga birlashtirib qo'yayotgani markazni qo'rqtib yubordi. Natijada Birinchi Turkologiya qurultoyining Stenogrammasi rus tiliga o'zgartirilgan holda (to'g'riroq'i, buzilgan holda) tarjima etilib, unda rus mustashriqlarining roli oshirilib, millatparvarlik ruhida aytilgan turk olimlarining chiqishlari stenogrammaga kiritilmay chop etildi<sup>2</sup>.

Bunday "islohotlar" natijasida lotin yozuvi joriy bo'lgan 1930-yillardan boshlab O'zbek tili grammatikasi markaz tavsiyasi bilan o'zgartirilib nashr qilindi. O'zbek tiliga munosabatda ham uni "Sharq fakulteti" tarkibida boshqa sharq tillari qatorida ko'rildi. 1943-yilda "Filologiya fakulteti" nomi bilan rus va o'zbek filologiya bilimlari bevosita markazning jiddiy nazorati ostiga birlashtirildi. Shunga qaramay, O'rta Osiyo ("Turkiston universiteti"ning nomi ham "O'rta Osiyo universiteti" deb o'zgartirildi) universitetida o'zbek tili va adabiyotini qalbdan sevgan, uni millat iftixoriga aylantirgan domlalar oz emas edi. G'ulom Karimov, Subutoy Dolimov, Ozod Sharafiddinov, Umarali Normatov, Abdug'afur Rasulov, Begali Qosimov, Omonulla Madaev... Bu ro'yxatni ancha davom ettirish mumkin. Biroq faoliyati haqida alohida fikr aytilishi lozim bo'lgan Ayyub G'ulomov, Ulug' Tursunov, Siddiq Fuzailov, Yoqub G'ulomov, Miraziz Mirtojiyev, Shavkat Rahmatullaev, Abdug'ani Abdullaev, Karim Nazarov, Iristoy Qo'chqortoyev, Xayrulla Ismatullayev, Farog'at Ubayeva, Yormat Tojiyev, Sayyora Nizomiddinova, Mamlakat Jo'rabyeva, Rahimtoy Begaliyev, Ra'no Sayfullayeva kabi tilshunos olimlarimiz borki, ularning har biri alohida mavzu bo'lishga haqli. Biroq, hozircha, o'zining olimlik salohiyati va insoniylik sifatini uyg'un qilib, yuzlab tilshunos olimlarga murabbiylik qilayotgan, filologiya fanlari doktori, professor Yormat Tojiyev xususida fikr yuritish bilan cheklanamiz.

Professor Yormat Tojiyev 1940-yili Farg'ona viloyati Beshariq tumani Rafqon qishlog'ida tug'ilgan. 1962-yilda ToshDU (hozirgi O'zMU) filologiya fakultetiga o'qishga qabul qilingan. O'qishni tugatgach, shu jamoaning o'zida mehnat faoliyatini boshladи. Yormat Tojiyevni til ilmining sirli dunyosiga olib kirgan, unda o'z shaxsiy ibrati bilan fanga bo'lgan muhabbatni rivojlantirgan, olim sifatida shakllanishiga yetakchilik qilgan inson – bu o'zbek tilshunosligi ilmiga tamal toshini qo'ygan professor Ayyub G'ulomovdir. XX asr o'ziga xos ilmiy maktab yaratgan olim Ayyub G'ulomovning chin, sadoqatli shogirdi, samimiyo do'stlik, ishonch, sadoqat, mehr kabi oddiy insoniy tuyg'ular bu ikki buyuk olim o'rtasidagi ustoz-shogirdlik munosabati uchun zamin bo'ldi. U 1974-yilda Ayyub G'ulomov rahbarligida "Ega ekanlik va ega emaslik ma'nolarini ifodalovchi affiksler sinonimiyasi" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilib, filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasiga ega bo'ldi.

1992-yili "O'zbek tilida affiksal sinonimiya" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyat bilan himoya qilib, filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini egalladi. Doktorlik himoyasi mustaqilligimizning dastlabki yillariga to'g'ri kelganligi tufayli ilmiy ish xulosalari sobiq ittifoq OAKiga yuboriladi. Shu yili O'zbekistonda tashkil qilingan OAK ham ushbu tadqiqotni qabul qilib oladi. Har ikki tashkilot ham Yormat Tojiyev ilmiy tadqiqoti yuzasidan unga doktorlik ilmiy darajasini topshirdi.

<sup>1</sup> 1926-ci il I Bakı Türkoloji qurultayı. Stenoqram materialları, bibliografiya və foto-sənədlər. Tərcümə, ön söz və şərhlərin müəllifləri Prof. Kamil Vəli Nərimanoğlu, əliheydər Ağakişiev. Bakı: Cinar-Çap, 2016. S.441-446.

<sup>2</sup> Первый Всесоюзный тюркологический съезд. 26 февраля 5 марта 1926 г. Стенографический отчет. Баку – АССР, 1926.

Professor Yormat Tojiyev tilshunoslikning barcha sohalari bo‘yicha ilmiy kuzatishlar olib borgan olim. Domla, asosan, *so‘z, o‘zak, negiz* munosabatlari, *o‘zak morfemalarning fonetik tuzilishi, affiks morfemalar*, ularning hosil bo‘lishi, shakl hosil qiluvchi *ergash morfemalar*, affikslarning ko‘p ma’noliligi, affikslarda *omonimiya, sinonimiya, polisemiya* kabi masalalarga bag‘ishlangan tadqiqotlar muallifidir.

Olimning ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash borasidagi faoliyati ham tahsinga sazovor. Bugungi kungacha prof. Yormat Tojiyev ilmiy rahbarligida bir necha fan doktori, o‘ndan ortiq fan nomzodi o‘z ilmiy-tadqiqot ishlarini muvaffaqiyatli himoya qilgan bo‘lsalar, 30 ortiq doktorlik va nomzodlik dissertatsiya mualliflari bevosita domlaning rasmiy opponentlklari ostida olimlik diplomini oldilar.

Bugun 80 yoshlik tavallud ayyomini nishonlayotgan ustoz Yormat Tojiyev o‘zlarining ilmiy va pedagogik faoliyati, mazmunli hayot tarzi, odob-axloq va muamola madaniyati, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik fazilatlari bilan barchaga “ibrat maktabi” namunasi bo‘lyapti, desak xato qilmagan bo‘lamiz.

Hozirgi paytda o‘zbek tili, adabiyoti va ma’naviy qadriyatlarga har doimgidan ko‘ra ko‘proq e’tibor qaratilayotgan ekan, bu mamlakatimizda kechayotgan islohotlar o‘z samarasini berayotganidan darakdir. Ma’naviy hayotimizdagi yevrilishlar davrida O‘zbekiston Milliy universitetining filolog olimlari o‘zlarining pedagogik mahorati va ilmiy tadqiqotlari salmog‘i bilan faol ishtirok etmoqdalar.

## AYYUB G‘ULOMOV – GRAMMATIKA BILIMDONI

*Y.Tojiyev*  
*Filologiya fanlari doktori, professor*

Professor Ayyub G‘ulomovning tilga, tilshunoslikka munosabati grammaticadan boshlangan desak, xato bo‘lmas. 1944-yildayoq “O‘zbek tilida ko‘plik kategoriyasi” yoki 30-40-yillardayoq “O‘zbek tilida kelishiklar”, “O‘zbek tili grammatisasi” (hammuallif) 1-qism, T., O‘zdavnashr, 1943-yil (1960-yilgacha 8 marta qayta nashr qilingan) “O‘zbek tili grammatisasi: 2-qism. Sintaksis, T., O‘zdavnashr 1944- y., “O‘zbek tili morfologiyasiga kirish”, T., O‘zFan, 1953- y. 40-yillarda yoqlangan va kitob holida nashr etilgan “O‘zbek tilida aniqlovchilar” T., O‘zfan-nashr, 1941- y. kabi kitoblar, qo‘llanma va darsliklar buni tasdiqlaydi.

“O‘zbek tilidan programma va metodik ko‘rsatma”dan tortib (T., 1940 y.) “O‘zbek tili ilmiy grammaticasidan materiallar” (qo‘llanma, T., Tun tashriyoti, 1938 y.), “O‘zbek tili grammatisasi” (1-2qismlar, 1939, 1940-yillar, hammualliflikda), “Sintaksis va punktuatsiyadan mashqlar to‘plami” (1941) kabi 30-yillarning oxiri va 40-yillarning boshlarida nashr etilgan monografiyalar, darslik va qo‘llanmalarning o‘ziyoq Ayyub G‘ulomov ilmiy faoliyati, haqiqatan ham, grammaticani o‘rganishdan, ya’ni tilshunoslikning eng murakkab sathini tadqiq qilishdan boshlaganini ko‘rsatib turibdiki. Ana shu davrdagi izlanishlar asosida, to‘g‘riroq‘i, zamirida olimning “Ko‘plik kategoriyasi”, “Fe’l” kitoblari, keyinroq esa “Sodda gap. Hozirgi zamon o‘zbek tili kursi bo‘yicha materiallar” (1955.); “Проблемы исторического словаобразования узбекского” - doktorlik dissertatsiyasi (1955); Morfologiyaga kirish. “Fe’l” (F. Kamol bilan hamkorlikda) “Hozirgi zamon o‘zbek tili” kitobining shu qismlari (1957. 285-302-B, 377-469-B); “Hozirgi zamon o‘zbek tili”. Sintaksis. O‘rta va oliy maktab, 1-nashr, 1961 y., 2-nashr, o‘qituvchi, 1965 y., 3-nashri, 1987 y. (M.Asqarova bilan hamkorlikda); “O‘zbek tili grammatisasi” (1975) 1-kitob so‘z yasalishi, morfologiyaga kirish qismlari: 7-124 betlar. Shuningdek, 5-6, 9-sinflar uchun

yozilgan va qayta-qayta nashr qilingan “O‘zbek tili” darsliklari, o‘nlab maqolalari o‘zbek tili grammatikasi sohasida olim olib borgan teran tadqiqotlardan namunalardir: “O‘zbek tili sintaksisining ba’zi masalalari” (O‘zbek tili va adabiyoti, 1968, №2), “Sifat haqida mulohazalar” (ToshDU ilmiy asarlar to‘plami, 608-chiqishi, 1979 ), “O‘zbek tilida so‘z tartibi” (“Sharq yulduzi”, 1946 y., 4-5 sonlar); “Ko‘makchili konstruksiya haqida” (SSSR FA O‘zbekiston filiali axboroti, 1940 y., №6) kabi maqolalari. Ayyub G‘ulomovning o‘zbek tili grammatikasining hamma qismlari bo‘yicha, ayniqsa, eng dolzarb va murakkab mavzulari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borganligini ko‘rsatadi. Ayyub G‘ulomovning grammatika sohasidagi ishlari, qarashlari ham, so‘z yasalishi sohasidagi tadqiqotlari va qarashlari ham, shuningdek, o‘zbek tilshunosligining boshqa sohalari bo‘yicha olib borgan izlanishlari, xulosalari, jumladan, fonetika, morfemika, morfonologiya, nutq madaniyati, leksikografiya kabi sohalardagi ilmiy qarashlarining har birini e’tibor bilan o‘rganish alohida-alohida tadqiqotlar obyekti bo‘lishi mumkin. Olimning har bir maqolasi, har bir asaridagi xulosalari tilshunoslikdagi ilmiy meros sifatidagina emas, balki nazariy bilimga ega bo‘lish maqsadida ham alohida o‘rganilishi, qayta tadqiq qilinishi lozim. Bu haqda hali ko‘p fikrlashamiz...

Olimning “Fe’l” va “Morfologiyaga kirish” kitoblari ham ustozning ana shunday jiddiy ishlardan bo‘lib, ularni o‘rganmasdan tilshunoslikda faoliyat ko‘rsatib bo‘lmaydi. Bu kitoblardagi chuqur tahlillar, asosli fikrlar hech qachon o‘z qimmatini yo‘qotmaydi: a) ilm bilan shug‘ullanishning yuksak namunasi bo‘lib xizmat qiladi, b) xulosalarning asosliligi bilan ajralib turadi; v) o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlarini juda yaxshi bilganlikdan va olimning ana shu bilimga doim sodiq qolgan holda ilmiy tadqiqotlar olib borganligini, aniqrog‘i, A.G‘ulomovning, ayrim tilshunoslar tomonidan olimning ishlarini chuqur o‘rganmay, to‘g‘rirog‘i, yaxshi anglab, tushunib yetmagan, nozik xulosalarni fahmlamagan holda domla haqida aytilgan fikrlardan qat’iy nazar, o‘zbek tili imkoniyatlarini jiddiy o‘rganishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yanligini (tilshunoslikning asosiy vazifasidir), ana shu imkoniyatlardan kelib chiqqan holda o‘zbek tili grammatikasi hodisalarini o‘zbekona baholaganligini kuzatish mumkin. Har ikki kitobdagagi tahlillar, materiallar va ularni o‘rganishdan chiqarilgan xulosalar bilan tanish bo‘lgan har bir shaxs bunga amin bo‘ladi, deb ishonamiz. Ayyub G‘ulomov, albatta, davrdan, davr sharoitidan kelib chiqqani holda, rus tili, uning boyligi, millatlararo mavqeyini, o‘sha davrda to‘g‘ri baholadi; rus tilshunosligini yutuqlariga tayandi; o‘zbek tili, tilshunosligini jahon tanishi lozimligini ham to‘g‘ri fahmladi. Shunga ko‘ra, rus tili va rus tilshunosligini ma’lum darajada targ‘ib qildi ham. Biroq undagi o‘zbek tiliga mehr, uning imkoniyatlarini o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoq nihoyatda kuchli bo‘lgan.

Zero, hech kim til birliklari imkoniyatlarini nutqda namoyon bo‘lishini Ayyub G‘ulomov-chalik chuqur o‘rganmagan.

U tilga doim sistema (zanjirsimon bir-biri bilan bog‘lanib ketgan tizim, xususiyning umumiyni tashkil etishi – umumiylilik-xususiylik, pog‘onaviylik... kabilarning tizimni tashkil etish) sifatida qaragan. Til tadqiqiga doim formal-funksional jihatdan yondashgan. Olim til hodisalariga falsafiy, mantiqiy kategoriyalar yaxlitligi, bog‘liqligi nuqtai nazarlaridan qaragan va tilga imkoniyat, nutqqa esa voqelik sifatida munosabatda bo‘lgan. Bu narsalar uning ishlarida idrok etilgan holda o‘z ifodasini topgan-ki, buni tushunish, anglash zarur.

Olimning “Morfologiyaga kirish” kitobi (risolasi) 50-yillarning boshlarida yozilgan bo‘lishiga qaramay, olimning grammatik shaklga, grammatik ma’no, grammatik kategoriya, tushunchalariga nisbatan munosabati, qarashlari hamon o‘z kuchidadir. Uning o‘sha davrdayoq shakl yasalishidagi sintaktik va analitik holatlarni farqlaganligi, ayniqsa, shakl yasalishida sintaktik vazifa bajarish yoki bajarmaslik masalasining o‘ta muhimligi haqidagi qarashlari hozirgi kunda to‘la o‘z tasdig‘ini topdi (shakl yasovchilar sintaktik vazifa bajaruvchilar va sintaktik vazifa ba-

jarmovchilarga ajratildi). Xullas, “Morfologiyaga kirish” kitobi hali, ancha vaqtga qadar muhim ilmiy manba sifatida xizmat qiladi va uni o‘rganmaslik mumkin emas.

Olimning “Fe’l” monografiyasi 50-yillarning (XX asr) boshlarida yozilgan bo‘lib, to‘g‘risini aytganda, o‘zbek tilidagi Fe’llar haqida, anchagina kitoblar yozilgan bo‘lishiga qaramay, qamroving kengligi (leksik to‘dalarga ajratish: harakat va holat fe’llari; fe’lning kesimlikka munosabati masalasi – predikativlik holati; undagi ichki va tashqi yasalishga munosabat masalasi; fe’lning gapning asosiy quruvchisi sifatidagi xususiyati, gapning umumiy xarakteristikasini belgilovchi sifatidagi jihat; yasalishi va grammatik shakllariga munosabatlarning jamini qamrab olganligi kabilalar bilan ajralib turadi hamda bu kitobga teng keladigan kitob (ilmiy tahlillarga boyligi jihatidan) yo‘qdir, deyish mumkin. Ana shunga ko‘ra, bu kitob bilan tanishish, uni o‘rganish juda muhimdir. Chunki, yuqorida aytganimizdek, fe’lga bo‘lgan munosabatlarda olimning fikrlari o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas.

Xullas, “Morfologiyaga kirish”, “Fe’l” va boshqa asarlari mashhur tilshunos Ayyub G‘ulomovning grammatika sohasidagi ilmiy qarashlaridan sizni bahramand qiladi, olimning o‘zbek tili grammatikasining yetuk bilimdoni ekanligidan dalolat beradi, bunga sizni ishontiradi, degan umiddamiz.

Muhimi, ustozning ilmiy merosidan bahramand bo‘lganingizdir.

Ma’lumki, 2019-2020 yillarda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev o‘zbek tilining mavqeyini ko‘tarishga alohida e’tibor bera boshladi. O‘zbek tilini targ‘ib qilish, uni o‘qitishni ta’lim tiziminining hamma bo‘g‘inlarida, Oliy ta’limda, o‘rtta va umumta’limda, hatto, xorijda o‘qitilishi masalalariga ham alohida to‘xtalib o‘tmoqdalar. O‘zbek tilining mavqeyini yuqori darajaga ko‘tarish, avvalo, zukko olimlarning bu til doirasida olib borgan tadqiqotlarini, ayniqsa, A.G‘ulomovning tilimiz boyliklarini to‘la ochib berishga bag‘ishlangan ishlarini, kitoblarini, merosini o‘rganish asosida amalga oshirishni unutmaslik kerak. Zero, tilimizning ifoda imkoniyatlarini his ettirish yoshlarda o‘z tillariga hurmat – muhabbatni shakllantiradi, kishilarni bu tilni o‘rganishga da’vat etadi.

## USTOZ HAYOTI – OLAM...

*Sayfullayeva R., O‘zMU professori, f.f.d.*

“Muallim” deganda ko‘pincha o‘qituvchi, ma’lumot beruvchi, umuman, ta’lim beruvchi inson tushuniladi. Aslida bu eng sodda tushuncha. Dastlab “muallim” va “hayot” tushunchalariga bir-biri bilan uzviy bog‘liqlik va tenglik belgilarini qo‘yish mumkin: muallim → hayot, hayot → muallim; muallim = hayot. Agar muallim biror soha mutaxassis bo‘lsa, hayot, umuman, muallim, unda chegara yo‘q, undan odamlar o‘ziga xos va mos ravishda bilim oladilar hamda bu bilimlar nihoyatda rang-barangdir.

Go‘dakligidan inson muallim ta’limiga muhtoj. Bu ta’limning shakllari, tabiiyki, juda ko‘p va xilma-xil. Ta’lim beruvchi har bir inson biz uchun aziz bo‘lishi zarur, chunki ular yordamida hayotimiz yaxshi tomonga o‘zgaradi, ko‘rkamlashadi. Biz birinchi muallimimizni umrbod eslab yuramiz, uning o‘gitlari, nasihatlari yodimizda turadi. Oliy dargohga qo‘ygan ilk qadamimiz, birinchi marta eshitgan ma’ruzamiz, auditoriyaga kirgan birinchi ustoz ham xotiramizdan joy oladi.

Universitetda boshlangan faoliyatim muhtaram ustozlarim bilan bog‘liq. Bularidan biri filologiya fanlari doktori, professor Yormat aka Tojiyevdir. Domlani deyarli 50 yildan buyon taniyman, chunki universitetning filologiya fakultetida o‘qiganman, shu fakultet kechki bo‘lim metodisti, so‘ng o‘zbek tilshunosligi kafedrasи laboranti bo‘lib ishladim. O‘qish va ish jarayonida

domla bilan doimo muloqotda bo'lardik. Zarur holatlarda kafedradagi ish, topshiriqlar bo'yicha Yormat akadan maslahatlar so'rardim.

Ustoz harbiy xizmatdan so'ng sobiq Toshkent davlat universitetini tugatishi bilan o'qituvchi sifatida ishga qabul qilingan. O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov iboralari bilan aytganda, "til ilmining darg'asi" bo'lmish professor Ayyub G'ulomov "O'zbek tilshunosligi" kafedrasi mudiri edi. Bu kafedra mamlakatimizda yetakchi kafedra hisoblanardi. Yormat aka ustoz rahbarligida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyathi himoya qildilar. Kafedramizda yoshi ulug' domlalar ham bor edi. Yormat aka bilan birgalikda nisbatan yosh o'qituvchilar Anortoy aka, Muhammadjon aka, Ismoil aka, Jahongir akalar ishlashardi. Bu domlalar, kafedraga berilgan topshiriqlarni talab darajasida bajarishga harakat qilishardi. Ayniqsa, Yormat aka har bir ishga mas'uliyat bilan yondashganlar. Kafedra mudirimiz va ularning o'rinnbosari dotsent G'ulom aka Sharipovning topshiriqlari so'zsiz bajarilardi. Yormat aka paxta terimida talabalar bilan birgalikda mehnat qilardilar. Yoki zarurat bo'lganda, sabzavotlar yig'ishtirish va yana boshqa turli topshiriqlar a'lo darajada bajarilardi. Ustoz A.G'ulomov tashkiliy ishlar haqida o'yamasdilar, chunki sadoqatli shogirdlari Yormat aka boshchiligidagi yosh o'qituvchilar doim ziyrak turardilar.

Kafedra o'quv ishlariga mas'ul dotsent G'.Sharipov ishga vaqtli kelardilar va kech ketardilar, A.G'ulomovga kafedra uchun zarur ma'lumotlar va bo'layotgan hamda bajarilishi lozim bo'lgan ishlar haqida muntazam axborot berardilar. Yormat aka ishda bo'lsalar, bilingki, kafedradagi darslar va turli mashg'ulotlar haqida bezovta bo'lishmasdi. Hatto tanaffus paytida ham ustoz "Ra'noxon, Yormat qani, chaqiring" derdilar va men Yormat akani boshqa kafedrada shaxmat taxtasi oldida "mot" qilish yo'lini o'ylab turganlarida chaqirib kelardim. Kafedradagi opalarimizning birortalari ma'lum bir sabablarga ko'ra ishga kelmasalar, yo Yormat aka, yo Anortoy aka, yo Muhammadjon aka darsga kirishardi.

Yormat aka dillari bilan tillari bir, ustozga va kafedraga juda sadoqatli shogird bo'lganlari uchun ham hamma yaxshi ko'radi. Hozirgi hayotlari va faoliyatları ham buni isbotlamoqda: ustoz sobiq ToshDU – hozirgi O'zbekiston Milliy universitetiga farzandday sodiqlar. Umid qilamanki, hozirgi talabalarimiz, magistrantlarimiz Yormat akaga xos oliv xislatlardan – ustozlarga hurmat, har bir ishni sidqidildan bajarish, universitet va, mamlakatimiz sharafini yana-da mustahkamlash, rivojlantirish uchun fidoyi bo'lishdek fazilatlaridan ibrat olsinlar!

Ular ham ustozlik maqomiga yetishganda, shogirdlari e'zozida bo'lishsin! Bu dunyo – qaytar dunyodir!

Yormat akaning ko'pchilik havas qiladigan hayotlari shu kafedra bilan: talabalik yillari, o'qituvchilik faoliyati, nomzodlik, doktorlik dissertatsiyalari, ilmiy ishlar bilan shug'ullanish kabi xayrli ishlar bilan bog'liq. Endi o'sha yillardagi qaynoq jarayon, ilmiy ishlar haqida qisqa to'xtalish lozim. Kafedra a'zolari bajargan va tashqaridan kelgan ilmiy ishlar o'qish uchun tarqatilardi. Har bir ishni kafedra mudirimiz o'zları o'qirdilar va fan sohalariga qarab domlalarga o'qish uchun berardilar. Ilmiy ishlar muhokamasi juda qizg'in o'tardi va har bir talabgor kafedraning bu majlisida o'zi qatnashib ishi haqida to'liq ma'lumot berib, savollarga javob qaytarishi lozim edi. Bu "chig'iriq"dan o'tish qiyin, ammo ishi pishiq, ilmi pishiqlarga domlalarimiz doim yordam berishardi, xususan, Yormat aka ham. Savol berishingiz mumkin: "Shunday ekan, nega kafedra a'zolarining ilmiy ishlari himoyasi 10-15 yillarga cho'zilgan?" O'sha paytda tilshunoslikka oid hamma ilmiy ishlar taqdirini uchta olim hal qilardi: ToshDUDA ustozimiz prof. A.G'ulomov, O'zRFA Til va adabiyot institutida sektor boshlig'i prof. F.Abdullayev va Pedagogika institutida kafedra mudiri prof. M.Asqarovalar. Bu uchlik ko'p jiddiy masalalarning yechimini topardi va himoya kengashi ham bitta edi. Shunga qaramay, ustozlar o'z ilmiy ishlarini himoya qilardilar. Yormat aka ham bu "chig'iriq"dan eson-omon o'tdilar va ilm cho'qqisiga

yetdilar, o'zlar Ustoz bo'ldilar! Bu holat yillar davomida o'z ta'sirini ko'rsatardi. Mazkur holat haqida yozganimning sababi shundaki, hozirgi davrda respublikamiz rahbariyati yoshlarimizga ilmiy ish bilan shug'ullanish uchun hamma sharoitlar yaratgan: ilmiy kengashlar hatto har bir viloyatdagi oliy ta'lif muassasalarida ochilgan, tadqiqotchi xohlaganida himoya qilish huquqiga ega, kompyuterda ishingizni bir necha marta qayta ko'rib chiqishingiz mumkin, ishingizni o'qiydigan olimlar ham ko'p va boshqa qator holatlar mavjudki, yoshlarimizdan faqat astoydil harakat kerak, xolos. Biror mamlakatda bunday imkoniyat yo'q!!!

Yormat aka sevimli, e'zozli ustoz, ko'plab shogirdlari respublikamiz turli tashkilotlarida mas'ul vazifalarda ishlamoqdalar. Hozirda atoqli adabiyotshunos olim, professor Hamidulla Boltaboyevning sa'yи harakatlari bilan kafedramizda tilshunos olimlar safi kengaydi va ular orasida Yormat akaning shogirdlari Nodiraxon Alavutdinova hamda Gulchehraxon Keldiyorovalar yoshlarga ibrat bo'lmoqdalar. Ustoz bir necha monografiyalar, 200 dan ko'proq maqolalar muallifidir. Hozirda ham domla tinmay izlanishdalar, shogirdlari bilan o'quv qo'llanma va darsliklar yozishga shay turibdilar. Ustozning odamiyligi oliy darajada, shuningdek, mehnatsevarlik, insonni, oilani qadrlash, mehr-oqibatlilik, sadoqat, ustozlarni e'zozlash kabi qator xislatlari yoshlarimiz uchun nihoyatda yaxshi namunadir. Domlaning mana shu darajaga yetishlarida, oilaning o'rni, rahmatli rafiqalari Dilbarxon opaning hissalari juda katta! Eng avval bolalar tarbiysi, so'ng diqqatni nevaralarga qaratish, uy-ro'zg'or ishlari, qudashilik, ustozga alohida e'tibor berish – hammasiga kuch kerak, mehr kerak, sadoqat va oqibat kerak! Bu kabi go'zal xislatlar opada bor edi. Men opani eng avval ustozni avaylab-asrab yashagan xokisor ayol sifatida bilardim va nihoyatda hurmat qillardim. Hammaga birday mehribon, qator-qator shogirdlarni, mehmonlarni ochiq chehra bilan kutar, doimo dasturxoni tayyor, malham bo'luvchi shirin gaplari kuch berardi.

Domla eng avval mehnatsevarlik, halollik, ilm-fanni sevish, shogirdlarga mehribonlik, ustozlarga sadoqat kabi qator xislatlari uchun doimo hurmatdalar va, o'ylaymanki, ushbu fazilatlar hayotlari davomida ularga quvvat berib kelmoqda! Ustoz hayotining ayrim tomonlarini quyidagi chizmada qisqa tarzda bo'lsa-da, berishga harakat qilamiz:



## USTOZ IBRATI

Z.Xolmanova, ToshDO TAU

professori, f.f.d.

O'tgan asrning 80-yillari... Internet ommalashmagan, uyali telefonlar hali hayotimizga kirib kelmagan, insoniyat mobil to'rlar bilan emas, mehr iplari bilan tutashgan paytlar...

O'zbek filologiyasi fakultetining 409-auditoriyasi bo'lib xotiramizda muhrlangan tahsil xonasida endigina oliv o'quv yurtiga qabul qilingan 1-kurs talabalari yig'ilgan. Yoshlarning quvonchi cheksiz. Negaki ularni kuni kecha mikrafon orqali tantanali ravishda talaba sifatida e'lon qilishib, universitet rektorining o'zlari talabalik baxti bilan birma-bir, qo'l siqib, samimiyl tabrikladilar. Endi esa ...

Auditoriyaga O'zbekiston Miliy universiteti (o'sha vaqtida Toshkent davlat universiteti) O'zbek filologiyasi professor-o'qituvchilari kirib kela boshladilar. Bular – keyinchalik talabalar ongida bir umrga muhrlanib qolgan siymolar: Begali Qosimov, Ulugbek Dolimov, Muhammadjon Qodirov, Muhammadnadir Saidov, Umarali Normatov, Omonilla Madayev, Karim Nazarov, Ra'no Sayfullayeva, Mamlakat Jo'rabyevelar edi. Ustozlar qisqa, ammo mazmunli chiqishlarida universitet nufuzi, professor-o'qituvchilar faoliyati, fakultet doirasida amalga oshirilgan ishlar bilan tanishtirishdi. So'z ilmining sohir bilimdoni, fonetika ilmining ustasi, meditsina ilmidan ham xabardor hamda nemis tilini mukammal egallagan professor, filologiya fanlari doktori ustoz Mirtojiyev so'z olganlarida, dastavval, "Men "katta Tojiyevman", ya'ni Mirtojiyevman, bu domla (professor Yormat Tojiyevga ishora qilib) kichik Tojiyev bo'ladilar" degan edilar hazilomuz.

Ustoz Yormat Tojiyevni ilk bor o'shanda, tanishtiruv darsida ko'rganman. Ustozlar hali-hanuz ongimda o'sha auditoriyadagi turishlari bilan jonlanadilar. Mana, nima uchun tanishtiruv darslari kerak ekan... Bugungi kunda universitet ma'muriyatining tanishtiruv darslarini talab darajasida tashkil qilishga intilishlari, auditoriyaga barcha-professor-o'qituvchilarni imkon qadar olib kirishga qaratilgan sa'y-harakatlarining mohiyatini anglaganday bo'lamon...

Ustoz Yormat Tojiyev boshlariga o'sha vaqtarda urf bo'lgan bejirim bandli, ko'p hollarda ziyorolar kiyadigan shapkada yurar edilar. Yo'laklarda duch kelganimizda salomimizga javoban otalarcha yelkalarimizga qoqib qo'yar edilar. Talabalarga "ona qizim, deb murojaat qilishlari ko'plar uchun rag'bat vazifasini bajargan.

Ustoz bizga darsga kirganlar. Morfologiya, morfemika, affiks va uning turlari haqida sidqidildan bilim bergenlar. Affiksal pelonazm, umuman, pleonazm hodisasining mohiyati haqida ilk bor ustozdan eshitganman. *Yarim→yarmi; singil→singli+si; kichik+kina=kichikkina→kichkina* kabi misollar orqali bir xil grammatick vazifadagi qo'shimchalarning ketma-ket kelishi va buning sabablarini tushuntirganlar. Pleonazmning leksemalarda ham kuzatilishini aytib, talabalarni mustaqil fikrlashga undaydigan misollar keltirar edilar. "*Bosh-oyoq sarpo deymiz*". *Vaholanki, sarpo "bosh-oyoq" degan ma'noni bildiradi. Nimaga ekan? Axbor – arabcha "xabar" so'zining ko'pligi, unga fors-tojikcha – ot ko'plik qo'shimchasini qo'shamiz. Bu ham yetmagandek, -lar qo'shimchasini ham biriktiramiz. Nimaga ekan?* deb mustaqil fikrlashga turtki berar edilar.

"Yangicha yondashuv, mustaqil fikrga e'tibor, kreativlik endigina amalga oshirilmoqda" deguvchilarga "mahoratli ustozlar biz hozirda yangilik sifatida qabul qilayotgan yondashuvlar, usul va metodlarni o'z tajribalarida bundan ancha yillar ilgari namoyish qila olganlar" deyman.

Malakaviy amaliyot davrida Farg'ona vodisida bo'lganmiz. Bir hududdan ikkinchi hududga avtobusda borishga to'g'ri kelgan paytlarda ustoz Yormat Tojiyev yo'l davomida o'z hayotiy tajribalari bilan o'rtoqlashib ketar edilar. Shunday kezlarda ustozdan sholichilik sirlari, ma-

shaqqatli mehnat, sholining suvsevarligi-yu, dehqonlarning suv kechib parvarish qilishlari haqida eshitganman. Ustoz nafaqat ilm va ta'lim sohasida, balki jismoniy mehnat, dehqonchilik borasida ham malakaga egadirlar.

Ustozdan ko'p yaxshilik ko'rganman. Nomzodlik dissertatsiyamni himoya qilish jarayonida yetakchi tashkilot sifatida Andijon davlat universiteti belgilangan. "Shuncha uzoq yo'lga borib ovora bo'lasanmi (yaqin olgan talabalari, shogirdlarini sensirab gapirar edilar), men shu tomonlarga boraman, ishingni olib borib berishim mumkin" deganlar. Professor, fan doktorining endi himoyaga chiqayotgan yosh mutaxassisiga bo'lgan bu tarzdagi munosabati har doim ham kuzatilavermaydi.

Professor Yormat Tojiyev pedagogik faoliyat bilan bir qatorda ilmiy ish bilan shug'ullanildilar. Ustozlarining an'anasi davom ettirib, morfologiya, morfemika, so'z yasalishi borasida yuzlab maqolalar yozdilar, o'quv qo'llanma, monografiya, risolalar yaratdilar.

Taniqli olim, professor Abduhamid Nurmonov ta'kidlaganlaridek, so'z yasalishi Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk»idan tortib Alisher Navoiyning «Muhokamat ul-lug'a-tayn», Fitratning «Sarf» asarlarigacha bo'lgan davrlarda e'tibor qaratib kelingan muammo hisoblanadi. So'z yasalishi alohida hodisa va bo'lim sifatida ilk bor A. G'ulomov tadqiqotlari asosida XX asrning 40-yillarida shakllandi. A.G'ulomov so'z yasalishi hodisasining leksikologiya bo'limiga ko'proq daxldor ekanligini bayon qiladi. A.G'ulom asos solgan so'z yasalishi nazariyasini akademik A. Hojiyev yangi cho'qqiga olib chiqdi. Ma'lum so'z turkumlarining yasalish doirasida qilingan tadqiqotlar o'zbek tili so'z yasalishi haqidagi ta'limotning rivoji uchun muhim hissa bo'lib qo'shildi. Xususan, professor Y.Tojiyev so'z yasovchi qo'shimchalarining polifunksionalligi masalasini, uning affiksal omonimiya bilan munosabatini chuqur tahlil etadi<sup>3</sup>.

Affikslarning ko'p ma'noliligi o'zbek tili taraqqiyotining o'ziga xos jihatlarini yoritadi. Turkiy tillar, umuman, agglyutinativ tillarda affikslar monofunksional xarakterga ega bo'lib, polisemiya keyingi taraqqiyot mahsuli sanaladi. Affikslardagi ko'p ma'nolilikning izohlanishi grammatik ma'nolarning shakllanish jarayoni, morfologik shakllardagi semantik bog'lanishlarni tahlil qilish imkonini beradi.

Affikslardagi omonimiya esa bir xil grammatik shakllarning qo'llanish doirasi, o'rni, turkumi, so'zlarga qo'shilish imkoniyati bilan farqlanadi. Affikslardagi omonimlik morfemalar genezisidagi yaxlitlanish, murakkab jarayonlarning sodir bo'lishi bilan izohlanadi.

Professor Y.Tojiyevning "O'zbek tilida affiksal sinonimiya" (I kitob, T.: Fan, 1981; II kitob, T.:Fan, 1987), O'zbek tilida affikslar sinonimiyasi (T.: Universitet, 1991), "O'zbek tilida affiksal sinonimiya (T.:«Universitet», 1991) ilmiy asarlari o'zbek tilidagi sinonim affikslarning uslubiy-semantik xususiyatlari, affiksal morfemalarning so'zlarga birika olish imkoniyatlari haqida asosli ma'lumot beradi. Shu bilan bir qatorda so'zni ma'noli qismlarga ajratish, morfologik qayta bo'linish, sinxron va diaxron so'z yasalishi masalalariga ham oydinlik kiritadi.

Nutq madaniyati o'zbek tilshunosligi, o'zbek tili ta'limi, o'zbek tilining davlat tili sifatida qo'llanishida muhim ahamiyat kasb etadigan me'yoriy talabdir. Ustoz Yormat Tojiyevning ham-mualliflikda yaratgan "Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari" (T.: O'qituvchi, 1992) kitobi oly ta'lim, umumta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limida nutq madaniyati asoslarini o'zlashtirishda asosiy qo'llanma vazifasini bajarib kelmoqda. Ushbu o'quv adabiyotida nutq sifatlari, nutq madaniyatini shakllantirish omillari, nutqiy kompetensiyaga erishish yo'llari aniq, ilmiy asosda ko'r-satib berilgan. Bu kitob nafaqat o'quv materiali, balki nutq madaniyati masalalariga oid yaratiladigan darslik, qo'llanmalar uchun ham zarur manba sifatida ham xizmat qiladi.

<sup>3</sup> Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б.156.

Professor Yormat Tojiyev talabchan, qat'iyatli, dars jarayoniga mas'uliyat bilan yondashadi-gan, hozirgi o'zbek tili fani asoslarini yosh avlod ongiga turli usullar yordamida muhrlab kelayotgan ustoz pedagog hisoblanadilar. Olimning pedagogik mahoratlari, ustozlik saboqlari, sermashaqqat ilm yo'lidagi mahsuldor faoliyatlari hamkasblar, shogirdlar uchun ibrat namunasidir. Ustoz siyratidagi qat'iyilik, shijoat, iroda, sabr-toqat, mehribonlik boshqalarga saboq bo'lguvchi muhim fazilatlardir.

...Ustoz o'rik ayni gullagan chog'larni yaxshi ko'radilar. Shu lahzalarni tez-tez qo'msaydilar. Hamisha barhayot ustozimiz Omonilla Madayev bilan hamnafas va hamsafar ekanliklaridan anglaymiz buni. Go'zallikni sevadilar va qadrlaydilar. Bunday insonlarning qalbi ham go'zal bo'ladi.

Ustozning yana bir fazilatlari bor... Yaxshisi, bu xislatlari haqida 90 yillik yubileylarida yozaman...

## RAPQONLIK TILSHUNOS OLIM

*Mahmudov R.,  
GulDU professori, f.f.n.*

Yormat Tojiyev 1940-yil 2-fevralda Farg'ona viloyati Beshariq tumani, Rapqon qishlog'ida dehqon oilasida tug'ilgan. Rapqondagi Furqat nomli 26-maktabni 1957-yilda bitirib shofyorlik kursida o'qiydi. 1958-1959-yillarda Sirdaryo viloyati, Guliston shahridagi 9-avtobazada shofyor bo'lib ishlaydi. 1959-1962 yillarda Armiya safida xizmat qiladi. 1962-1967-yillarda Toshkent Davlat Universiteti Filologiya fakulteti kunduzgi bo'limida o'qiydi. 1967-yil universitetni imtiyozli diplom bilan tugatgan Yormat Tojiyev ToshDUNing "O'zbek tilshunosligi" kafedrasida ish boshlaydi.

Filologiya fanlari doktori, professor Ayyub G'ulomov rahbarligida 1974-yilda "O'zbek tili-dagi sifat yasovchi affikslar ma'nodoshligi" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladi.

1992-yilda Yormat Tojiyev "O'zbek tilida affiksal sinonimiya" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan. U ilmiy faoliyatining asosiy qismini so'z tarkibini, o'zbek tili morfemalarini, ergash morfemalarning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishladi. Yo. Tojiyev tilshunoslikning barcha sohalari: fonetika, fonologiya, morfonologiya, morfemika, so'z yasalishi, leksikologiya, morfologiya, sintaksis, stilistika, nutq madaniyati va uslubiyat, notiqlik, jamiyat va til munosabatlari, matn lingvistikasi muammolari bilan jiddiy shug'ullandi va bir qator kashfiyot darajasidagi ilmiy maqolalari, monografiyalari, darsliklari yuzaga keldi. Yormat Tojiyevning "O'zbek tilida ega ekanlik va ega emaslik ma'nolarini ifodalovchi ergash morfemalar ma'nodoshligi" (1981), "Shaxs otlari yasovchi affikslar sinonimiysi" (1987) "O'zbek tilida fe'l yasovchi affikslar sinonimiysi" (1992), "O'zbek tili morfemasi" (1992), "O'zbek tili grammatikasi" (1999), "O'zbek nutq madaniyati va uslubiyati asoslari" (hamkorlikda 1994), "V-IX sinflar uchun diktantlar to'plami" (1996), "Huquqshunos nutqi madaniyati va notiqlik" (2008), "Zamonaviy morfologiya" (2009) kabi o'ttizdan ortiq monografiya, o'quv qo'llannalar, darsliklar, 300 dan ortiq ilmiy maqolalar yaratgan.

Professor Yormat Tojiyev O'zbekiston Milliy Universiteti talabalari, magistrlariga, Abdulla Avloniy nomidagi Respublika o'qituvchilar malakasini oshirish institutida maktab o'qituvchilariga o'ttiz yildan ortiq "Hozirgi o'zbek adabiy tili", "O'zbek tilida so'z strukturasi", "O'zbek tili morfonologiyasi", "O'zbek tilshunosligi tarixi", "Nutq sifatlari", "Tilshunoslikka kirish", "O'zbek tili tarixi", "O'zbek dialektologiyasi" (rus guruqlarida) kabi fanlardan dars olib borgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida

“Nutq madaniyati va notiqlik”, “Yuristning nutq madaniyati”, “Davlat tilida ish yuritish” kabi ko’plab kurslar bo’yicha ma’ruzalar o’qigan.

Professor Yormat Tojiyev “O’zbek tilshunosligi” kafedrasiga 1995-yildan keyin mudirlik qilgan yillarda 14 nafar fan nomzodi, 2 nafar fan doktori dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qildilar, 20 nafar nomzodlik, 10 dan ortiq doktorlik dissertatsiyalar muhokamadan o’tkazildi. Yormat Tojiyev ilmiy rahbarligida 22 ta nomzodlik, 6 ta doktorlik, 42 ta magistrlik dissertatsiyalari himoya qilingan. U yuzdan ortiq dissertatsiyalarga taqriz yozgan, yigirmadan ortiq ishlarga rasmiy opponentlik qildi. O’ndan ortiq xorijiy, ellikdan ortiq mamlakatimiz miqyosida o’tkazilgan ilmiy, nazariy-amaliy anjumanlarda ma’ruzalar qilgan, ko’plab darslik, o’quv qo’llanmalarga mas’ul muharrirlik qilgan.

Filologiya fanlari doktori, professor Yormat Tojiyev 70-yillarda “Ijtimoiy musobaqa g’olib”, 2000-yilda “Xalq ta’limi a’lochisi” ko’krak nishonlari, 2008-yilda O’zbekiston Milliy Universiteti tashkil topganligining 90 yilligi munosabati bilan Prezident Farmoniga muvofiq “Shuhrat” medali bilan taqdirlangan.

Yormat Tojiyev Toshkent davlat universiteti (hozirgi O’zbekiston Milliy Universiteti) da salkam ellik yetti yil faoliyat ko’rsatdi. Universitet filologiya fakultetida 1970-1989-yillarda tarbiyaviy ishlar, ilmiy ishlar, o’quv ishlari bo’yicha dekan o’rinosi, dekan vazifasini bajaruvchi, fakultet kasaba uyushmasi raisi, 40 yildan ortiq kafedra mudiri sifatida faoliyat olib borgan.

Professor Yormat Tojiyev 1993-yildan Toshkent davlat universiteti huzuridagi 10.02.02-o’zbek tili bo’yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasini o’tkazuvchi ixtisoslashgan kengash a’zosi va ilmiy kotibi.

U 2000-yildan O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti huzuridagi 10.02.02 raqami bo’yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasini o’tkazuvchi ixtisoslashgan kengash a’zosi.

2001-yildan O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti huzuridagi dissertatsiyalar mavzularini muvofiqlashtiruvchi kengash a’zosi.

2004-yildan Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi pedagogika fanlari bo’yicha dissertatsiyalar himoyasi uchun ixtisoslashgan kengash a’zosi.

2005-yildan B.G’ofurov nomidagi Xo’jand davlat universiteti huzuridagi KR 737.002.34-raqamli 1 martalik ixtisoslashgan kengash a’zosi.

2007-yildan O’zbekiston Milliy Universiteti huzuridagi Toshkent shahri toponimiylarini tartibga solish hay’atining a’zosi.

2009-yildan O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Til va adabiyot instituti huzuridagi dissertatsiyalarni muhokama qilish bo’yicha seminar kengash a’zosi.

2020-yildan Yormat Tojiyev Guliston davlat universiteti huzuridagi 10.00.01-o’zbek tili, 10.00.02-o’zbek adabiyoti – filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi ilmiy kengash raisi.

Filologiya fanlari doktori, professor Yormat Tojiyev hozirgi kunda mamlakatimizdagagi eng faol, yetuk tilshunos olimdir. Bugungi kunda turli oliy o’quv yurtlarida faoliyat ko’rsatayotgan ko’plab tilshunos, pedagog olimlarning sevimli ustozidir.

## **Adabiyotlar**

1. Yo.Tojiyev, N.Hasanova, H.Tojimatov, O.Yo’ldosheva. O’zbek nutqi madaniyati va uslubiyati asoslari. (ommabop qo’llanma) T., 1994.
2. Yo.Tojiyev, M.Mallaboyev. O’zbek nutqi madaniyati va uslubiyati asoslari. I qism. T., 2006. II qism. T., 2008.
3. Yo.Tojiyev, R.Boboxonov. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. T., 2017.

## **YORMAT TOJIYEV VA O'ZBEK TILIDA MORFEMANING MOHIYATI, MAQOMI MASALASI**

*J.Abdullayev  
GulDU dotsenti, f.f.n.*

Yormat Tojiyev ijodida o'zbek tilida morfema va gap bo'laklarining mohiyati, maqomi masalasi alohida o'rinn tutadi. Har ikki birlikning ilmiy asosli talqini ularning o'zaro bog'lanishi, birikishi, qo'shilishidan yuzaga keladigan birliklar: so'z va gapning mohiyatini ochishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Chunki har qanday butunlik o'z tarkibiy qismlarining aloqalanishi va yangi sifat kasb etishidan hosil bo'ladi. Ammo masalani tushunish va yechishda har xil nuqtayi nazar, g'oyaviy asosdan yondashish tufayli bu boradagi muammolar hanuzgacha o'zining yagona yechimini topgani yo'q (Shu yo'nalihsdag'i tadqiqotlar bor, jumladan, Yormat Tojiyev qarashlari bunga yorqin misol bo'la oladi. Ammo ularning amaliy tatbiqi o'z ijobiy hal etilishini kutmoqda).

Shu sababli hozirda o'zbek tilshunosligida morfemaning kamida 5 xil gap bo'laklarining uch xil talqini hukm surmoqda. Har bir talqin bo'yicha monografiyalar, o'quv qo'llanmalari, ayrimlari bo'yicha darsliklar mavjud ekanligini hisobga olsak, bu ularning har biri uzlusiz ta'lim tizimida o'qitilmoqda, o'quvchi-talabalar ongiga singdirilmoqda deganidir. Talqinlar bir-birini izchil to'ldirib, takomillashtirib borsa, inkor etmasa, ziddiyatlar bo'lmasa, ta'lim uchun buning hech qanday ziyoni yo'q, aksincha, shunday bo'lishi zarur. Biroq, morfema va gap bo'laklari maktabda boshqa, kollej, litseyda boshqa, oliy maktabda yana boshqa o'qitilmoqda, hatto boshlang'ich va yuqori sinflar hamda oliy ta'lim yo'nalihsular bo'yicha farqli holatlar kuzatiladi. Ilmda shunday bo'lgani yaxshi, chunki u shunaqa maydon: har kim o'z nuqtayi nazarini aytishga haqli va har xil qarashlarning bo'lishi odatdagi, tabiiy hol. Fikrlar "jangi"da kimning, qaysi talqinning zo'rliги, kuchi bilinadi.

Biroq, ta'lim tizimida, bizningcha, har xillik va ziddiyatli talqinlarning bo'lishi ijobiy hol hisoblanmaydi. Chunki bu o'qitishning sifati va samaradorligiga salbiy ta'sir qiladi, hatto unga putur yetkazadi, deyish mumkin. Hozirgi o'zbek tili ta'limi, xususan, morfemalarni va gap bo'laklarini o'qitish shunday jarayonni boshdan kechirmoqda. Biz ayni maqlolada morfemaning har xil talqinlari haqida va Yormat Tojiyevning bu masalaga munosabati haqida fikr yuritmoqchimiz. Kuzatishlarimizga qaraganda, o'zbek tilining morfemikasi va morfologiysi yoritilgan o'quv adabiyotlarida morfemaning quyidagi talqinlarini kuzatish mumkin.

1.Morfemani "so'zning eng kichik, bo'linmas ma'noli qismi, ele-menti"<sup>4</sup> sifatida ta'riflovchi va uni o'zak morfema, affiks morfema deb ikkiga ajratuvchi an'anaviy talqini. Ushbu talqin nutqiy birlik – so'zshaklning va yangi yasalgan so'zning eng kichik ma'noli tarkibiy qismlarini alohida nom bilan atab, asos va qo'shimchani bir-biridan ajratish va tushuntirish uchun xizmat qilsa-da, nutq tashqarida – har bir kishining til xotirasi – lisonda yashovchi,saqlanuvchi, asosiy vazifasi yangi so'z yasash yoki so'z shakli hosil qilish bo'lgan lisoniy birlikning mohiyatini qayd eta olmaydi. Negaki, u morfemaga shunday nom bilan atalishi lozim bo'lgan alohida til birligini aniqlash va belgilash maqsadida emas, balki aynan qo'shimchali so'z tarkibini, uning ma'noli qismlarini avvalgisidan, ya'ni so'z tarkibi sifatida ajratilgan o'zak, qo'shimchadan boshqacharoq – rus va Yevropa tilshunosligida hukmon bo'lgan talqinga mos va muvofiq shaklda belgilash natijasida ishlab chiqilgan. Shuning uchun bu talqin (va unga o'xshash, mazmundosh barcha talqinlar) so'z tarkibining morfema termin-tushunchasi kiritilgunga qadar amalda bo'lgan talqinidan prinsipial farq qilmaydi: avval o'zak, qo'shimcha deyilgan bo'lsa, endi o'zak (bosh, yetakchi)

<sup>4</sup> Усмон О., Авизов Б. Ўзбек тили грамматикаси. II бўлим. –Т., 1939. – Б. 46-48. Фуломов А. Ўзбек тилнинг морфем луғати. – Т., 1978. Хозирги ўзбек адабий тили. II қисм. – Т., 1980. – 159 б.; Тожиев Ё. Ўзбек тили морфемикаси. – Т., 1992. – Б. 10.

morfema, affiks (yoki uning ma'nodoshi qo'shimcha, affiksal) morfema deyiladigan bo'ldi. Albatta, morfema termin-tushunchasining kiritilishi til birliklaridan birini bir vaqtning o'zida mohiyatiga mos nom bilan atash va lisoniy birlikligini qayd etish imkoniyatini berdi. Emik – lisoniy birliklar bo'lgan fonema, leksema terminlari qatori morfema termini bilan boyidi: termin uzukka ko'z qo'ygandek o'rniqa tushdi. Shu sababli bo'lsa kerak, uni boshqa termin bilan almashtirish harakatlarining birontasi muvaffaqiyat qozonmadi. Biroq, bu mazkur terminga birktil(ayot)gan barcha mazmunlar ham shunday joyiga tushdi, degani emas. Ta'kidlash joizki, morfemaning mazmun-mundarijasi umumtil emas, muayyan tur-tipdagi til bilan belgilanadi. Boshqacha aytganda, har bir tilning o'z morfemasi, morfemik mazmun-mohiyati bo'ladi. Shu ma'noda *morfema* shaklan xalqaro (termin, atama, nomema), mazmunan milliy ma'noli til birligidir. Shu sababli o'zbek tiliga oid morfemani, garchi ular bir xil nomemaga ega bo'lsa-da, rus tiliga oid morfema bilan tenglashtirib bo'lmaydi.

Inkor qilmaymiz, morfemani so'zning nutqiy namoyon bo'lgan holatidan kelib chiqib belgilaganlar ham o'zbek tili materiallari asosida ish ko'rganlar, ammo ular morfema nutqda namoyon bo'lgunga qadar lisonda, so'zlovchining til xotirasida mavjud bo'lishi, saqlanishiga alohida e'tibor qaratmaganlar yoki buni jiddiy qabul qilmaganlar. Vaholanki, bunday ta'rif lisoniy invariant birlik - morfemaning emas, balki uning nutqda voqelangan ko'rinishlari, morfemaning varianti – morflarga berilishi mumkin, xolos. Chunki morfema yasama so'zda yoki yangi yasalgan so'zda va nutq jarayonida hosil qilinadigan so'z shaklda doim morf sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun *so'zning eng kichik ma'noli qismi* degan ta'rif morfemaning mohiyatini qayd etish imkoniyatiga ega emas. Morfema nutqdan, nutqdagi so'zlardan (keng ma'noda) tashqarida mavjud bo'lgan, o'ziga xos mohiyat – ma'no-vazifali lisoniy birlidir. Unga ana shu mohiyati – ma'no-vazifasidan kelib chiqib va o'zbek tili materiallari asosida ta'rif berish lozim bo'ladi.

2. Morfemaning *so'zning eng kichik ma'noli qismi, elementi* degan yuqoridagi ta'rifidan ancha keyin 90-yillarda va 2000-yillarning boshlarida ishlab chiqilgan "tilning eng kichik, ma'noli birligi bo'lib, boshqa ma'noli qismlarga bo'linmaydigan lisoniy birlik" ta'rif – tushunchasini o'zida mujassam qilgan talqinlari<sup>5</sup> yuqoridagidan prinsipial farq qilib, morfemaning lisoniy birlikligini to'g'ri qayd etadi, ammo uning mohiyati, ma'no-vazifasi nimada? degan muhim va hal qiluvchi savolga aniq javob bera olmaydi. Shu sababli bu ta'rifda ham morfemaning mohiyati to'la ochilmay qolgan.

3. Lisoniy va nutqiy farqlanganlik, ma'noviy tasniflanganlik va bo'linmaslik omiliga ustivor ahamiyat berishning yuqori nuqtasi hisoblangan va Shavkat Rahmatullayev tomonidan ishlab chiqilgan "grammatik ma'noli eng kichik, bo'linmas lisoniy birlik" tushunchasi<sup>6</sup> morfema mohiyatiga ancha yaqin kelgan bo'lsa-da [chunki bunda so'zning o'zak morfema, leksik (lug'aviy) morfema deb kelingan lug'aviy ma'noli asosi morfema emas, asli so'z (leksema) bo'lgani uchun haqli ravishda morfema doirasidan chiqariladi], lekin, baribir, u ham tom ma'nodagi morfemani aniqlash va belgilashga, uni boshqa til birliklaridan uzil-kesil ajratishga ojizlik qildi. Chunki so'z yasovchi morfemani shakl yasovchi morfema singari *grammatik ma'noli birlik* deyish unchalik to'g'ri bo'lmaydi. Morfema, ta'bir joiz bo'lsa, so'z yasovchi ma'noga ega. Faqat bu ma'no semantik emas, funksional ma'no bo'lib, bevosita anglashilib turmaydi, yashirin holda bo'ladi. Lug'aviy ma'noli asos – leksik birlikka qo'shilishi bilan uning leksik ma'no tipidagi, biroq funksional ma'no ekanligi anglashiladi. Xuddi shu narsa uni grammatic shakl emas, so'z yasashga xizmat qilishida o'z ifodasini topadi va natijada yangi lug'aviy ma'noli so'z yasaladi. Demak,

<sup>5</sup> Бу ҳақда қаранг: Неъматов X., Расулов Р. "Ўзбек тили систем лексикологияси асослари". – Т., 1995. – 37 б.; Нурмонов А., Шахобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Т.: Янги аср авлоди. 2001. – Б 46-51.

<sup>6</sup> Рахматуллаев Ш. Тил курилишининг асосий бирликлари. – Тошкент, 2002.

mazkur ta’rif morfemaning mohiyati bilan bog’liq bir jihatni to‘g’ri qayd etib, uni lug‘aviy ma’noli asosdan ajratishga, chegaralashga xizmat qilsa-da, ikkinchi tomonini aks ettirish imkoniyatiga ega emas edi.

4. Morfemaning yuqoridagi ta’riflaridan bir mucha keyinroq, morfemaning yana bir ta’rifi yuzaga keldi va filologlarning asosiy o’quv adabiyotidan o’rin oldi: “Morfemika so’zning nomustaqlar tarkibiy qismlari haqidagi ta’limot. ... So’zning o’zakdan boshqa qismlari esa undan ayricha qo’llanmaydi va ma’no anglatmaydi. Shuning uchun ular morfema deyiladi”<sup>7</sup>. Ko’rinib turibdiki, bu bilan morfemaning lisoniy birlikligi inkor qilinib, nutqiy birlik davridagi holatga qaytilgan. Ta’kidlash joizki, so’zning nomustaqlar qismini morfema bilan bog’lash kerak bo’lsa, uni morfema emas, morf, allamorf, morfemaning varianti deyish kerak bo’ladi. Lekin morf, allamorf yoki morfemaning varianti ularning umumlashtirilgan tipi – umumiylik holidagi morfemaga teng bo’la oladimi? Albatta, yo’q. Demak, bu bilan morfemaning doirasi chegaralangan uning doirasiga faqat qo’shimchalargina kiradigan qilib ifodalangan.

Shu ma’noda ta’rif, haqiqatan, boshqa ta’riflardan farqli ustunlikka ega. Chunki unda o’zbek tilining leksemaning bu kabi hollarda deyarli hamma vaqt bir mustaqil ma’nosini bilan asos bo’lib kelayotgani, o’z maqomini o’zgartirmasligi yaqqol ko’zga tashlanib turishi, anglanishidan iborat o’ziga xos xususiyati hisobga olinib ish tutilgan. Ammo, bu ta’rif ham tabiiy ravishda morfemaning mohiyatini aks ettirish imkoniyatiga ega bo’lmadi. Chunki morfemaning mohiyati so’zning nomustaqlar ma’noli qismi bo’lib kelishida emas, balki ayni vazifasida – uning yangi so’z yasalishi va so’z shakli hosil qiluvchi vosita bo’lib xizmat qilishida – yasovchilik funksiyasida.

5. Morfema masalasi yubilyarimiz – o’zbek tilshunoslarining otaxonlaridan biri – Y.Tojiyev ijodida alohida sahifani tashkil qilishi bor haqiqat. Olimning “O’zbek tili morfemikasi”<sup>8</sup> kitobi bu boradagi salmoqli ishlardan biridir. Uning morfema nazariyasiga aloqador maqolalarida ham dolzarb masalalar ko’tarib chiqilgan. Ulardan birida atoqli tilshunos morfema doirasida olib borilayotgan bahs-munozaralarga munosabat bildirib, masalani ko’ndalang qo’yadi va quyidagi e’tiborga loyiq fikr-mulohazalarni ilgari suradi:

“Xo’sh, morfema til birligimi yoki nutq birligimi? Javob shunday: avvalo, morfema til birligi ham, nutq birligi hamdir. Nega? Chunki morfema tilda invariant kabi xususiyatga ega bo’lgan, imkoniyatlarni umumlashtirgan... til birligi, aslida, so’zning (keyinroq (bu o’rinda bosh morfema haqida fikr yuritilyapti) leksemaning) bir parchasi, so’z yasalishida ishtiroy etuvchi, shakl hosil qilishda qatnashuvchi (juda keng va aniq ma’noda) elementi, bir bo’lagi sifatida tayyor holda mayjud bo’lgan til birligidir. Morfema termini leksemaning (umuman, tildagi tayyor so’zning qismi, parchasi sifatidagi til birligiga hamda uning nutqda namoyon bo’lgan affiks (qo’shimcha)ning qismi, parchasi sifatidagi til birligiga hamda uning nutqda namoyon holatiga nisbatan ishlatilgani ma’quldir.”<sup>9</sup>

Olimning bu qarashlari hayotda, til ta’limida o’z amaliy tasdig’ini topdi. Hozirda morfema termini tadqiqotchi qayd etgan har ikki holatdagi til birligi uchun birday qo’llanmoqda. Bu esa ustoz tilshunos Yormat Tojiyevning amaliy o’zbek tilshunosligining uzoqni ko’ra bilgan yorqin namoyandasini ekanligidan dalolatdir. Uning gap bo’laklari haqidagi kuzatishlari<sup>10</sup> ham hech kimni befarq qoldirmaydigan fikr-mulohazalarga boyligi bilan ajralib turadi. Ular, hech shubhasiz, ulkan salohiyatlari olimning ilmiy haqiqatga va ustoz A.G’ulomov ta’limotiga sadoqat namunasi, o’rnak olsa arzigelik fazilati hisoblanadi.

<sup>7</sup> Сайфуллаева Р. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т., 2009. – 140-б.

<sup>8</sup> Тоҷиев Ё. Ўзбек тили морфемикаси. – Тошкент, 1992.

<sup>9</sup> Тоҷиев Ё. Яна сўз,лексема, сўзшакл, морфема, морфемика ҳақида// Ўзбек тили ва адабиёти. 2008 йил, 6-сон,48-50-бетлар.

<sup>10</sup> Тоҷиев Ё. Ўзбек тилида гап ва гап бўлакларининг мақоми масаласига доир.

### **Adabiyotlar:**

1. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – T., 1995. – 37 b.
2. G'ulomov A. O'zbek tilning morfem lug'ati. – T., 1978.
3. Hozirgi o'zbek adabiy tili. II qism. – T., 1980. – 159 b.
4. Nurmonov A., Shahobiddinova Sh., Iskandarova Sh., Nabiyeva D. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. – T.: Yangi asr avlod. 2001. – B. 46-51.
5. Rahmatullayev Sh. Til qurilishining asosiy birliklari. – Toshkent, 2002.
6. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T., 2009. – 140-b.
7. Tojiyev Yo. O'zbek tili morfemikasi. – T., 1992. –B. 10.
8. Tojiyev Yo. Yana so'z, leksema, so'zshakl, morfema, morfemika haqida // O'zbek tili va adabiyoti. – 2008. 6-son. – B. 48-50.
9. Usmon O., Avizov B. O'zbek tili grammatikasi. II bo'lim. – T., 1939. – B. 46-48.

### **PROFESSOR YORMAT TOJIYEVNING ILMIY MAKTABI**

*H.Hamroyeva O'zbekiston qatta o'qituvchisi, f.f.n.,  
T.Butunboyeva SamDU tadqiqotchisi*

Professor Yormat Tojiyev muqaddas ona tilimizning katta bilimdoni va uning ichki imkoniyatlari, yangi qirralarining ixtirochisi hamda tadqiqotchisi, jonkuyar targ'ibotchisi sifatida ham alohida ehtiromga munosib ustoz. Ma'lumki, til faqat insonlar o'rtaida aloqa vositasi bo'lib gina qolmasdan, ularning olam va odam haqidagi qarashlari va bilimlarini kelajak avlodga yetkazuvchi, inson ongu-shuurida estetik-emotsional hissiyotlar uyg'otuvchi o'ziga xos vositadir. O'zbekiston Qahramoni, atoqli adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov to'g'ri ta'kidlaganidek, "*O'zini o'zbek ziyolisi deb hisoblagan har bir inson faqat til bayramlarida emas, doimiy ravishda ona tilimiz bayrog'imizdek yuksak va pokiza bo'lishi to'g'risida qayg'urmog'i ham farz, ham qarzdir*"<sup>11</sup>.

Har bir davr fan va taraqqiyot oldiga o'zining muayyan talablarini qo'yadi. Professor Yo.Tojiyevning ilmiy, ilmiy-uslubiy maqolalari va o'quv qo'llanmalari, darsliklarida milliy til, davlat tili, til ta'limi, til taraqqiyoti va sofligi kabi masalalar eng yetakchi muammolar bo'lib kelmoqda. Milliy fanlar olamida markaziy o'rinni egallab turgan o'zbek tilshunosligining chinakam ma'noda mustaqilligi til ilmida erkin tafakkur yuritish bilan belgilanadi. Ayniqsa yoshlarni komil insonlar qilib tarbiyalash bosh maqsadga aylangan istiqlol yillarda ularda madaniy nutq ko'nikmasini shakllantirishga jiddiy e'tibor berildi. Olimning mavzuga oid turkum maqolalari va monografiyalarida nutq madaniyati jamiyat madaniy-ma'rifiy taraqqiyotining, millat ma'naviy kamolotining muhim belgisi ekanligi ilmiy jihatdan to'liq asoslangan.Uning keng ko'lamlili tadqiqotlarida so'zning badiiy-estetik vazifasi, sehri, tilimizning ichki imkoniyatlari tayanch manba qilib olingan.

Professor Yo.Tojiyevning fikricha, "O'zbek tilining ifoda imkoniyatlari ba'zi olimlar ta'kidlayotgan darajadan ham ancha yuqori. Hozirgi kunda bu tilning imkoniyatlari haqida gap bor-ganda, odatda,tadqiq etish asosida isbotlangan, ochib berilgan, omma tan olgan jihatlargina nazarada tutiladi. Vaholanki, o'zbek tili birliklarining nutqda qo'llanish imkoniyatlaridan juda kam qismigina, ya'ni ayimlarining ba'zi imkoniyatlarigina ochib berilgan, xolos. Axir, har bir til

<sup>11</sup> Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagи nutqi//O'zbekiston ovozi gazetasi. 21.10.2019; <https://uza.uz>

birligining o'ziga xos nutqda qo'llanish imkoniyatlarni to'la ochib berish, belgilash degan so'z, har bir fonetik birlikning (fonemalar, bo'g' inlar, urg'u, ohang...), morfem birlikning (barcha asos bo'la olish xususiyatiga ega bo'lgan bosh morfemalar, yordamchi morfemalar sifatida baholana-yotgan affikslar – qo'shimalar, so'z tarkibida o'rashib qolgan rudiment xarakteridagi birikmalar, hatto, morfema va fonemalar ham) leksik vositalarning, birikma gap qurilmalarining barcha imkoniyatlari: bir-biri bilan birikish qonuniyatları, ma'no va vazifalari, uslubiy jihatları, konnotatsiyalari, turli xil o'zgarishlarida ochiladigan boshqa qirrali mukammal tadqiq etilishi lozim, deganidir”<sup>12</sup>.

Darhaqiqat, zamonaviy o'zbek tilshunosligi o'ttiz yil ichida o'zbek tilining sath birliklarini shu tilning o'z ichki xususiyatlarini e'tiborga olgan ilmiy jihatdan chuqur o'rganishda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Bu tarixiy muvaffaqiyatlarda professor Yo.Tojiyev ilmiy matabining o'rni va ahamiyati tahsinga sazovordir.Ustoz talabalik davrlaridan to hozirgacha,morfemika, ya'ni so'z yasalishiga oid masalalar bilan jiddiy shug'ullanib kelmoqda. U o'zbek tili materiallari asosida so'z yasalishi bilan bog'liq ziddiyatli muammolarni ancha keng va izchil tahlil qilib berdi. Alloma ustozimiz O.Madayev to'g'ri ta'kidlaganidek, “Olimning ilmiy kuzatishlari sifat so'z turkumini yasovchi qo'shimchalarni o'zbek tilimizdagи murakkab xususiyatlarini o'rganish-dan boshlangan bo'lsa, keyinchalik ot, fe'l turkumidagi affikslar (qo'shimchalar) muammolari bilan jiddiy shug'ullandi. Natijada, 1974-yilda nomzodlik va 1990-yilda “O'zbek tilida affiksal sinonimiya” mavzusida doktorlik dissertasiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Umuman olganda, milliy tilimizdagи so'z yasovchi qo'shimchalar tilshunoslikdagi e'tiborli muammolardan hisoblanadi. ...Yormat Tojiyev ona tilimizdagи deyarli hamma so'z turkumlarining yasalishi yuza-sidan o'nlab, yuzlab misollarga murojaat etdi, ularning tarixiy ildizlarini izohladı, ilmiy jihatdan asosladi.”<sup>13</sup> “O'zbek tilida affiksal sinonimiya (sifat yasovchilar)” (Toshkent, 1981), “O'zbek tilida shaxs otlar yasovchi affikslar sinonimiyasi” (otlarning yasalishi, ot yasovchilar) Toshkent, 1987), “O'zbek tilida affiksal sinonimiya (fe'l yasalishi, fe'l yasovchilar, fe'l shakllari hosil qiluvchilar)” (Toshkent, 1992), “O'zbek tili morfemikasi” (Toshkent, 1992), “O'zbek tili grammatikasi” (Toshkent, 1999) kabi darsliklari chop etildi. Shuningdek, uslubshunoslik sohasidagi izlanishlarini tinimsiz davom ettirib, oliy o'quv yurtlari talabalari uchun “O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari” (hammualliflikda, t., 1992) darsligi nashr etildi. “O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari” (Toshkent, 1994), ”O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari va amaliyoti” (Toshkent, 1994), “O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyati asoslari” (nifilologik fakultetlar talabalari uchun qo'llanma Toshkent, 1996.), ”O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyati amaliyoti” (ommabop qo'llanma, Toshkent, 2003.), “O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari” (to'ldirilgan nashri, Toshkent, 2006.) kabi qator darsliklari, risolalari ilmiy jamoatchilikning va xorijdagi o'zbek tili mutaxassislarining e'tiborini tortdi. Xususan, “Bayonlar to'plami” (5-9-sinflar uchun Toshkent, 1993.), “5-9-sinflar uchun diktantlar to'plami” (Toshkent, 1996.) kabi qo'llanmalar ona tilining imloviy va uslubiy xususiyatlari bilan qiziqqan va shug'ullanayotgan umumta'lim maktablari o'qituvchilari hamda o'quvchilari uchun muhim manba hisoblanadi. Shuning barobarida o'zbek tili stilistikasi, nutq madaniyati muammolari ham olim tadqiqotlarining asosini tashkil qiladi. Bu darslik, risola va o'quv qo'llanmalarning har biri ulkan ilmiy-amaliy va madaniy-ma'rifiy qimmatga ega ekanligini alohida ta'kidlashni istardik.

Atoqli adabiyotshunos olim, filologiya fanlari doktori, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi, professor Umarali Normatovning fikricha, “Avvalo, Yormatjon ustoz tanlashda adashmadidi. Tilshunoslik bobida bu sohaning piri Ayyub G'ulomov, adabiyotshunoslik

<sup>12</sup> Tojiyev Yo. Adabiy tildan foydalanishga munosabat masalalari. O'zbek tilshunosligi mamlakatimiz innovatsion taraqqiyoti ko'zgusida. T.2011. 132-133-b

<sup>13</sup> Madayev o. “Nasrulloyi”ga shaydo olim. Universitetda muhrlangan lahzalar “Sharq” t.2019. 203-204-b.

bobida esa bu sohaning chin qahramoni Ozod Sharafiddinov etagini mahkam tutdi. Shunday yo'l tutib, kam bo'lmadi. Eng muhimi, har ikki ustozga hayotligida ham, va vafotidan keyin ham cheksiz sadoqatini namoyon etdi, namoyon etishda davom etayotir. Yormatjon do'st tanlashda ham adashmadi. Uning sadoqatli do'stlari ko'p. Ammo do'stlari bir safga tizilsa, eng oldinda Omonulla turadi. Hayot sinovlaridan o'tgan bunday do'stlikka havas qilsa arziydi”<sup>14</sup>.

Janubiy Koreyalik Kim Byong Il professor Yo.Tojiyev rahbarligida “Sifat yasovchi affiks-lar, yasama sifatlar ma'nodoshligi” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Ustozning olijanob insoniy fazilatlari, olim sifatidagi xolisligi va talabchanligi sababli ular o'rtasidagi ilmiy muloqot do'stona munosabatga aylandi. Koreyalik tadqiqotchining ongu shuurida o'zbek tilshunosligining ulkan namoyandasasi, o'zbek milliy qadriyatlarining bilimdoni Yormat muallim timsolida o'zbek xalqiga, o'zbek tiliga kuchli mehr-muhabbat va ehtirom uyg'ondi. Kim Byong Il ona yurtiga qaytgach ustozining maslahatlari va tavsiyalariga binoan “Koreyscha-o'zbekcha lug‘at”, “Koreyscha-o'zbekcha so'zlashgich”lar tuzdi. Bugun O'zbekistoniga kelayotgan har bir koreyalik sayyohning cho'ntagidan mazkur lug‘at joy oladi. Xorij mamlakatlarida yangilanayotgan O'zbekistonning do'stlari va birodarları soni ko'payishida ham atoqli tilshunos olim, shogirdparvar ustoz Yormat Tojiyevning xizmatlari beqiyos. Ustoz O'zbekiston Milliy universiteti professori, Guliston davlat universiteti huzuridagi ixtisoslashgan ilmiy kengash raisi sifatida mamlakatimizda yosh filolog kadrlar tayyorlash ishiga katta hissa qo'shib kelmoqda. Uning shu paytgacha 200 dan ortiq ilmiy ishlari e'lon qilingan.

Muhtaram Prezidentimizning “Bizning yoshlar, albatta, boshqa tilni bilish uchun sa'y-harakat qilsinlar, lekin avval o'z ona tilini ko'zlariga to'tiyo qilib, ehtirom ko'rsatsinlar. Zero, o'z tiliga sadoqat – bu vataniy ishdir”<sup>15</sup>, degan so'zlar yangilanayotgan O'zbekistonning oliy maqsadiga aylangan. Professor Yormat Tojiyev hamkasblari va shogirdlari bilan hamkorlikda ona tiliga sadoqatdek vataniy ish o'sib kelayotgan yosh avlodning vijdoni e'tiqodiga aylanishi uchun fidokorona mehnat qilmoqda. Binobarin, “Ta'lif tizimining, hech istisnosiz, barcha bo'g'inlarida, barcha bosqichlarida lug‘at bilan ishlashga, yoshlarning so'z boyligini oshirish, nutq maddaniyatini shakllantirishga jiddiy e'tibor berish shu kunning eng asosiy vazifalaridan biri bo'lmoqda. Chunki, barkamol inson, yuksak ma'naviyat shaxsning tilga bo'lgan munosabatida, nutqida ham namoyon bo'ladi.”<sup>16</sup>

## Adabiyotlar

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagи nutqi//O'zbekiston ovozi gazetasi. 21.10.2019; <https://uza.uz>.
2. Sharafiddinov O. Tanlangan asarlar. -T.: Sharq, 2019. -B.220.
3. Tojiyev Yo. Adabiy tildan foydalanishga munosabat masalalari//O'zbek tilshunosligi mamlakatimiz innovatsion taraqqiyoti ko'zgusida. -T., 2011. – B.127.
4. Normatov U. Bir zamin, bir dargoh farzandlarimiz//Til ilmiga sadoqat.-T.,2010. –B.72
5. Madayev O. “Nasrulloyi”ga Shayxdo olim /Universitetda muhrlangan lahzalar -T.:Sharq, 2019. – B.203-204.

<sup>14</sup> Normatov U. Bir zamin, bir dargoh farzandlarimiz. Til ilmiga sadoqat.t.2010. 72-b.

<sup>15</sup> Prezident Shavkat Mirziyoyevning o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagи nutqi//O'zbekiston ovozi gazetasi. 21.10.2019; <https://uza.uz>.

<sup>16</sup> Tojiyev Yo. Adabiy tildan foydalanishga munosabat masalalari. O'zbek tilshunosligi mamlakatimiz innovatsion taraqqiyoti ko'zgusida. t.2011. 218-b.

## **NAZARIY VA AMALIY TILSHUNOSLIK MASALALARI**

### **TIL “MEN” VA OLAM BIRLASHADIGAN MUHITDIR**

*N.Rahmonov,  
O'zbekiston universiteti professori, f.f.d.*

#### **1. Lug'atchilik -o'zbek tilining ravnaqi uchun bir omil.**

O'zbek tili turkiy tillar orasida so'zlashuvchilar nufuzi hamda bu tilda yaratilgan yozma yodgorliklari miqdori ko'pligi bilan ajralib turadi. Qolaversa, qadimgi va eski o'zbek tilidagi yozma yodgorliklarning geografiyasi ham keng. Shuningdek, o'zbek xalqi qadimdan yashab kelayotgan Turonzamindan topilgan turkiy yozuvi yodgorliklari ham millatimizning ma'naviyati va tarixdagi mavqeyi yuksakligini yana bir bor dalillaydi. Qolaversa, eski o'zbek tilidagi ayrim yozma manbalarning turli Yevropa tillariga tarjima qilinishi natijasida turli mamlakatlarda o'zbek tili, xususan, eski o'zbek tili haqidagi tasavvurlar anchagina teranlashdi, kengaydi. Darvoqe, tilimizning ravnaqi va tashqarida e'tirof etilishi uchun eski o'zbek tilidagi asarlarning Yevropa tillariga qilingan tarjimalari ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, XVIII asrning boshlarida Abulg'ozzi Bahodirxonning "Shajarayi turk" asari rus tiliga va rus tili orqali hamda asliyatdan lotin, fransuz, nemis va boshqa bir qator tillarga tarjima qilinishi natijasida yevropaliklar eski o'zbek tilidagi manbalardan, o'zbek tilining boyligidan xabardor bo'ldilar. Qolaversa, Abulg'ozzi bu asarini turkiy tilning butun boyligini ko'z-ko'z qilish uchun alohida muhabbat bilan yozgani ma'lum. Bu singari asarlar eski o'zbek tilining soddaligi, nafisligini yaqqol ifodalab turgani uchun ham xorij olimlarining e'tiborini tortgan.

O'zbek tilining turli janrga mansub asarlarida shunday so'zlar va iboralar borki, ularni eski lug'atlarga qiyoslash katta samara beradi. Bunday qiyoslash tilimizning ildizi chuqurligi bilan geografik hududi ham kengligini dalillash uchun xizmat qiladi. Bir misol keltiramiz. O'zbek folklori asarlarida "eng solmoq" iborasi bor. Bu ibora – ishga kirishmoq, tirishib harakat qilmoq ma'nosini ifodalaydi. Shu ibora XIII-XIV asrlarda Misr mamluklar davlatida yashab ijod qilgan Abu Hayyonning "Attuhfatuz zakiyatu fillug'atit turkiya" (Turkiy til (qipchoq tili) haqida noyob tuhfa) nomli asarda keltirilgan. Yoki hozirgi o'zbek tilida qo'llanuvchi *ko'rsatti, ko'rguzdi, ko'r-gazdi* kabi bir so'zning turli variantlari ham aynan o'sha lug'atdan joy olib eski o'zbek tilidagi so'zlarning yozma shakllari qatorida og'zaki shakllari ham adabiy tilni boyitish uchun asos bo'ldi. Agar o'sha davrlardagi Misr mamluklar davlatining etnik tarkibi qipchoq qavmidan iboratligini va mo'g'ullar istilosini davrida O'rta Osiyodan ko'plab qipchoqlar Misrdan panoh topganini e'tiborga olsak, yuqoridagidek iboralar va so'zlarning tarixi hamda bir o'lkadan ikkinchisiga ko'chgani birmuncha oydinlashadi, ya'ni eski o'zbek tilining qipchoqcha so'z va iboralari O'rta Osiyo qipchoq qavmlari bilan birga Misr mamluklar davlatiga kirib borgan.

So'z mamluklar hukmronligi davridagi eski o'zbek tilining ma'naviy boyligi bo'lgan lug'atlar haqida ketar ekan, keyingi davr turkologlarining lug'atlarida "Attuhfa" lug'atidagi singari o'zbek tiliga mansub so'zlar va iboralar uchraydimi degan savol tug'ilishi mumkin. Biz o'rta asrlardagi "Badoyi al-lug'at", "Abushqa", "Sanglox" kabi lug'atlarni nazarda tutmayapmiz. Bu lug'atlar chig'atoj tilidagi leksik qatlamni qamrab olgani ilm ahliga ma'lum bo'lgani uchun ular haqida to'xtalishni lozim topmadik. Qolaversa, bu lug'atlar haqida o'zbek olimlari Botirbek Hasanov, Ergash Umarovlar jiddiy tadqiqotlar olib borganlar. Bizni ko'proq jahonshumul turkolog V.V.Radlovning 8 jilddan iborat "Turkiy shevalar lug'atini tuzish tajribasidan" (Орыт словаря түркискі нәрсөній) qiziqtirgani uchun shu lug'atga e'tibor qaratamiz. Bu lug'atga V.V.Radlov yarim asr umrini sarflagan. Yana u kamtarlik bilan "lug'at tuzish tajribasidan" deb

aytgan edi. Lug‘at qadimgi turkiy til hamda V.V.Radlov yashagan va ilmiy faoliyat olib borgan XIX asrdagi jonli turkiy tillarni va leksik qatlamni qamrab olgan. Aksariyat turkiy tillarga – oltoy, turk, yoqt, qirg‘iz va qator turkiy dialektlardagi so‘zlar mazkur lug‘atga kiritilgan va dialektal so‘zlarni ana shu lug‘atdan topish mumkin . Shuningdek, qadimgi turkiycha so‘zlarning orxun alifbosida, eski uyg‘ur-turk yozuvida, manchjurcha so‘zlarning manchjur yozuvida berilgani V.Radlovning katta maqsadlarining debochasi edi. U turkiy tillarning kelib chiqishida oltoy nazariyasini o‘zi to‘plagan so‘zlar asosida dalillash edi. Oltoy nazariyasiga ko‘ra, turkiy tillar miloddan avvalgi V asrgacha yagona oltoy tilida mujassamlashgan. «Radlov bu lug‘atini turkiy tillarni qiyosiy o‘rganish bo‘yicha katta tadqiqotining debochasi sifatida boshladi. Muallifning niyati bo‘yicha tadqiqot lug‘at matni va qiyosiy grammatikadan iborat bo‘lishi kerak edi. U lug‘at matnini tuzdi, ammo qiyosiy grammatikani yozishga ulgurmadi. Bugungi kunda garchi rus turkologiyasida Radlovning g‘oyalari amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, O‘zbekistonda bu sohadagi ishlar yo‘q, hisobi. So‘zimiz avvalida aytiganidek, turkiy tillar orasida o‘zbek tili yozma yodgorliklarga boy bo‘lib, uzlusiz ravishda turkiy tillarning hamma bosqichlarini bosib o‘tgan. Shu bois Radlov boshlagan turkiy tillar lug‘atini mukammallashtirish va qiyosiy grammatikasini yaratish uchun materiallar yetarli. Qolaversa, eski o‘zbek tiliga, xususan chig‘atoy tiliga mansub so‘zlarni Radlov lug‘ati so‘zları orasidan ajratib olib alohida qiyosiy lug‘at tuzish ham bugungi kunda o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Radlov lug‘atining eski va jonli o‘zbek tiliga munosabati haqida tasavvur hosil qilish uchun ayrim kuzatishlarimizni o‘rtaga tashlaymiz. Lug‘atda asosan turkiy so‘zlar berilgan. Masalan, birinchi jilddagi ilk so‘z **o‘(v)** bo‘lib, qaysi turkiy tillarda bu so‘zning qo‘llanishiga ham havolalar berilgan. “Qissai Sayfulmuluk” dan bir misol ham berilgan: *Saypul Muluk o(v)g‘a chiqqandin kin...*

V.Radlovning bu lug‘ati chop etilganiga bir yuz o‘ttiz yil bo‘ldi. U ellik yil davomida lug‘at ustida ish olib borganini ham inobatga olsak, yaqin bir yuz sakson yildan oldingi turkiy tillar va dialektlarning holatini o‘zida ifoda etadi. Radlovning mazkur lug‘ati turkiy tillarning tom ma’-nodagi qiyosiy lug‘ati bo‘lishi uchun kelgusida o‘zbek tilidagi tub turkiycha so‘zlar va chig‘atoycha so‘zlar asosida qiyosiy lug‘at tuzilsa, o‘ylaymizki, o‘zbek tilining lug‘at tarkibi boyiydi. O‘zbek tilidagi umumturkiy so‘zlar ham qiyosiy lug‘atlarda o‘z ifodasini topadi. Radlovning bu lug‘atiga material sifatida Sibirdagi va O‘rta Osiyodagi turkiy xalqlarning tili va dialektlari xizmat qilgan. Shu boisdan eski o‘zbek tilidan boshlab shu kungacha davom etib kelayotgan ayrim arabiya va forsiy so‘zlar ham lug‘atda bor. Bu so‘zlar turk tilidan lug‘atga kiritilgan. O‘scha arabiya va forsiy so‘zlarni asli chig‘atoychada ko‘p ishlatilgan so‘zlar sifatida qarash kerak. Masalan, *sadoq*, *soddadil*, *sadaf* kabi so‘zlarni misol sifatida keltirish mumkin. Chamasi, Radlov turkiy so‘zlarni lug‘atga kiritishni va tom ma’nodagi turkiycha lug‘at tuzishni maqsad qilgan. Ammo arab va forsiy so‘zlarining lug‘atdan joy olganidan tasavvur qilish mumkinki, chig‘atoy tilining mavqeyi, ya’ni eski o‘zbek tilining mavqeyi O‘rta Osiyo turkiy tillari orasida baland bo‘lgan. Zotan, chig‘atoy tili nafaqat O‘rta Osiyoda faoliyat ko‘rsatgan, balki Oltin O‘rda adabiy tili, mamluklar davlatidagi adabiy til tom ma’noda chig‘atoy tilidan iborat bo‘lgan. Radlovning mazkur lug‘ati asosida turkiy tillarning qiyosiy lug‘ati amalga oshiriladigan bo‘lsa, tilimizning lug‘at tarkibi boyishini kuzatgan va turkiy tillar orasidagi mavqeyini ko‘rgan bo‘lar edik. Va keng om-maga tushunarsiz bo‘lgan arabiya va forsiy so‘zlar o‘rnini turkiy so‘zlar egallashi haqida tavsiyalar ishlab chiqish imkonи bo‘lardi. Lug‘atlar o‘zbek tilining boyligini ko‘rsatib qolmaydi, balki xal-qimizning tarixiy va madaniy aloqalarini ko‘rsatadigan dalillardan biri sifatida ham xizmat qiladi. U manchjurcha so‘zlarni shunchaki kiritmagan, balki turkiy tillarning qiyosiy lug‘atlariga material sifatida foydalanish uchun kiritgan. O‘tgan asrning o‘rtalarida turkologiya ilmida V.Radlovning mazkur lug‘atiga turlichalik munosabatlar bo‘lgan edi.

Mazkur lug‘at Rossiya va Turkiyada jahon turkologiyasining katta yutug‘i sifatida baho-langan. XX asrning birinchi choragida Radlovning mazkur lug‘atini turk tiliga tarjima qilib chop ettirish uchun Istanbulda komissiya tuzilgan. Ammo rus turkologiyasida o‘zbek tilining katta bilimdoni akademik A.N.Samoylovich, turk olimi Zaki Validiy To‘g‘on komissiyaning bu taklifiga qarshi chiqqanlar. Buning o‘rniga o‘sha paytdagi turk va rus turkologlari va boshqa mamlakat turkologlarini jalb qilgan holda, hamkorlikda Radlovning lug‘atidagi kamchiliklarini tuzatish, qayta ishslash yangi yig‘ilgan materiallar bilan to‘ldirish haqida fikrlar bildirilgan. Eng to‘g‘ri va mantiqli fikr mana shu edi. Maktubning qolgan qismi mazmunidan anglashilishicha, A.Samoylovich tashabbusni qo‘lga olib, V.Bartoldga Radlov lug‘atini qayta nashr etishni Rossiya Fanlar Akademiyasi o‘z zimmasiga olishini ta’kidlagan. A.N.Samoylovichning tashab-busi mantiqan to‘g‘ri va xolis edi. Ammo o‘sha rejalar amalga oshmay qoldi. Agar amalga osh-ganda, shubhasiz, o‘zbek tilidagi turkiy so‘zlar ham albatta o‘sha lug‘atdan joy olishi aniq edi.

V.Radlovning lug‘atida so‘zlikning turkcha tarjimasi o‘rni-o‘rni bilan berilgan. Agar bu lug‘at Turkiyada tarjima qilinib , o‘sha erda chop etilganda edi, Sobiq Ittifoq hududidagi turkiy tillar, jumladan, o‘zbek tilidagi turkiy so‘zlar mazkur lug‘atning turkcha tarjimasidan o‘rin olol-masligi mumkin edi. A.Samoylovichni har doim – butun ilmiy faoliyat davomida o‘zbek tilining ravnaqi qiziqtirib kelgan. Shu bilan birga Turkiston o‘lkasidagi tarixiy hujjatlar, o‘zbek adabiyoti tarixiga oid manbalar, masalan, Bobur “Devon”i qo‘lyozmasi uning ilmiy faoliyatida asosiy o‘rin egallagan edi.

## **2. Ona tiliga xiyonatni til egalari kechirmaydi**

O‘zbek tilining ilmiy tahliliga xorijda – Sharqda, shuningdek, G‘arbda ham yuqoridagidek azaliy e’tibor susaymagan. Ayniqsa, A.N.Samoylovich V. V.Bartoldga yozgan xatlaridan birida o‘zining qisqa muddatdagi rejasini quyidagicha bayon qiladi: “Uchta grammatikani – qrim-tatar, o‘zbek, usmonli-turk tillari grammatikasini yozib tugatganidan keyin, asosiy e’tiborni turkiy tillarning qiyosiy grammatikasiga oid ishga qaratmoqchiman. Bu haqda bir paytlar Goto (fransuz tilshunosi – N.R.) menga taklif bergen edi”. O‘zbek tilining ravnaqi va xalqaro miqyosdagi shon-shuhrati uchun boshqa millatga mansub olimlarning bu qadar jon kuydirishi odamni quvontiradi. Ammo o‘z millatimizga mansub odamning o‘zbek tilining tarixi, bugungi holati to‘g‘risida al-moyi aljoyi so‘z yuritishi ba’zan odamni hayron qoldiradi, hatto g‘azablantiradi. Men internetdan oлган bir ma’lumotni shu o‘rinda keltirib o‘tishni lozim topdim.

Moskva davlat universiteti qoshidagi Osiyo va Afrika institutining Markaziy Osiyo va Kavkaz kafedrasi professori, o‘zbek tili muallimi Tair Maxamatov Sputnik muxbirini bilan qilgan suhabatida o‘zbek tili rivojida rus tilining ahamiyati haqida so‘z yuritib, quyidagilarni bayon qiladi. “O‘zbekistonda chop etiladigan gazeta va jurnallarni varaqlasak, o‘zbek tiliga rus tili or-qali kirgan ko‘plab lotincha terminlarni uchratamiz. O‘zbek tili forsiy, eski turkiy, arab va lotin tillarining ijodiy sintezi asosida shakllandı. Masalan, o‘z vaqtida “samolyot” so‘zidan voz kechib “tayyora” deb aytadigan bo‘ldik. Ammo bu be’manilik ekanini keyin tushunib yetdik va yana “samolyot” so‘ziga qaytdik”.

Mahamatovning qarashicha, O‘zbekiston Respublikasi bu singari qonunlari bilan (Davlat tili to‘g‘risidagi qonun nazarda tutilyapti – N.R.) tenglikni, bir xillikni shakllantirishga harakat qilayotganini tamomila tabiiy deb hisoblaydi. Ammo Mahamatovning fikricha, bir necha tillarni qabul qilish eng to‘g‘ri qaror bo‘lardi.

T.Mahamatov gapida davom etadi:”Men Toshkentda bo‘lib turaman, IIV tizimida, Xalq ta’limi vazirligida va boshqa sohalarda ishlaydigan rus millatiga mansub mutaxassislar bilan uchrashaman. Ular rus tilida so‘zlaydilar, O‘zlarining hujjatlarini ham rus tilida yozadilar. Eng to‘g‘ri variant – davlat tili sifatida uchta tilni: o‘zbek, rus va ingлиз tillarini kiritishdir.

O'zbekistonda tojiklar ham borligini nazarda tutsak – ular aholining kamida 50 foizini tashkil qiladi, jumladan, Buxoro va Samarqand viloyatlarida bunday sharoitda hech bo'limganda, viloyatlar darajasida tojik tilini ham qoldirish kerak. Agar biz qo'shnilar bilan do'st bo'lib yashashni istasak, bu juda to'g'ri qaror bo'ladi".

Maxamatovning bu gaplarini o'qib, sog'lom fikrlaydigan, vujudida o'zbek qoni oqayotgan odam o'zining ona tili taqdiri to'g'risida bunday fikrashi, ma'nisiz-tutruqsiz, kurakda turmaydigan takliflarni berishi biron qolipga sig'maydi. Uning davlat tili to'g'risidagi qarashlari alah-sirashdan boshqa narsa emas. U o'z maqsadini "Agar biz qo'shnilar bilan do'st bo'lib yashashni istasak" degan gapida ishora qilayotganday bo'ladi, Samarqand va Buxoroda til muammosi davlat tili darajasida hech qachon ko'tarilmagan bo'lsa-da, til bahonasida o'zbek xalqi bilan qo'shni xalqlar o'rtasiga adovat urug'ini sochishga o'zining g'arib fikrlari orqali da'vat qilayotgani aniq ko'rinish turibdi. Asrlar davomida hamjihatlikda yashab kelgan xalqlarni bir-biriga dushmanlashtiradigan ikki narsa bor. Birinchisi – bir xalqning ona tiliga bepisandlik bilan qarash yoki tilni haqoratlash, ikkinchisi – bir millatning dinini yerga urib o'zinikini yuqori ko'tarish. Mahamatov janoblari garchi o'zbek tili bo'yicha professor lavozimida ishlasa ham, nazariy bilimi haminqadar, juda nochor ekani uning o'zbek tilining tarixiy shakllanishiga oid qarashlarida o'zini ko'rsatib turadi, gaplaridan ma'lum bo'ladi. Lotin tili o'zbek tilining shakllanishiga aslo ta'sir etmagani hamma tilshunoslarga ayon. Bizningcha, Toir Mahamatov o'zbek tiliga boshqa tillardan so'z o'zlashishini nazarda tutgan, chamasi. Ammo so'z o'zlashishi va o'zbek tilining tarixan shakllanishi tamomila boshqa tushuncha va hodisalardir.

Yuqorida men aytib o'tgan turkolog A.N.Samoylovich o'zbek millatiga yoki biron turkiy qavmga aslo aloqador emas. Uni o'zbek tilining boyligi o'ziga jalb qilgan. A.N.Samoylovich 1925-yili V.Bartoldga yozgan yana bir xatida Istambulda amalga oshiradigan ishlari va rejalar haqida so'z yuritib, quydagilarni yozadi: "Turkologiya institutida ko'p vaqtimni o'tkazaman. Bu yerda bo'lqanimda o'zimni xuddi uydagiday his qilaman. Turkologiya institutining asosiy tarkibi hozircha Ko'purilizodadan, qrim-tatar millatiga mansub kutubxonachidan, boshqird millatiga mansub kutubxona yordamchisidan va qorovuldan iborat. "Qarangki, Ko'purilizoda – butun boshli Turkologiya institutining mazmuni. Ilmga ana shunday yondashuv turkologiyaning poydevori bo'lgan turkiy tillarga doimo hurmat bilan munosabatda bo'lishni taqozo qiladi.

### **3. Turkologiya – o'zbek tili ravnaqi uchun asosiy omil**

Madaniy-tarixiy aloqalar tillarning boyishi uchun muhim omillardan biridir. Masalan, slavyan tillarida bir qator turkiycha so'zlarning borligini bilamiz: *kirpitch*, *ayva*, *yopinchiq*, va h. Yoki kelib chiqishi turkiycha bo'lgan slavyan tilidagi bir qator familiyalar ham turkologiya uchun, jumladan, o'zbek tilshunosligi uchun yangilik emas. Slavyan tillariga oid yozma yodgorliklarda bu so'zlarning mavjudligi bugun yangilik bo'lmay qoldi. Qolaversa, mashhur rus turkologi N.A.Baskakovning 1974 yili nashr etilgan "Sharqiy slavyan tillarida turkiycha so'zlar" (Tyurkizmy v vostochno-tyurkskix yazylax) nomli kitobi, yana uning 1979-yili chop etilgan "Turkiyadan kelib chiqqan ruscha familiyalar" (Russkie familii tyurkskogo proisxojdeniya) nomli kitoblari bizning bu sohadagi g'ira-shira tasavvurlarimizni to'ldiradi. "Sharqiy slavyan" degan nom rus, ukrain va belorus xalqlari va ularning tillariga nisbatan qo'llanadi. N.A.Baskakov slavyan, jumladan, rus tilidagi turkiycha so'zlarning hammasini o'rganib, bizga taqdim qilgan, degan qarashlardan voz kechish kerak. Slavyan tillaridan joy nomlari, suv obyektlari, qushlar va hayvonot olami nomlarining turkiycha variantlari ham borki, N.A.Baskakovning ishlarini davom ettirib ularni ham o'rganish, shu tariqa o'zbek tilshunosligining obyektini kengaytirish zarurati bor. Bu jihatdan XVIII-XIX asrdagi rus sharqshunoslarining ishlari ibratlidir. Ular o'z tadqiqot rejalariga rus tilidagi turkiy so'zlarni va o'z navbatida turkiy tillardagi ruscha so'zlarni

o'rganishni zarurat sifatida kiritganlar. Jumladan, XVIII asrda faoliyat yuritgan V.N.Tatishchev, V.Tuzovning ishlari bu jihatdan diqqatga sazovor. Masalan, V.N.Tatishchev "Leksikon" (1793) nomli kitobda o'sha davr ilmiy tahlil darajasida kelib chiqishi turkiycha bo'lgan anchagina so'zlarning talqinini keltirgan. Umuman, bu davrdagi turkiy tillarni, xususan, o'zbek tilini Rossiyada o'rganishga rag'bat kuchli bo'lgan.

Shunday bo'lgani holda, XX asrda A.N.Kononov, S.N.Ivanov, A.M.Shcherbak kabi olim-larning zamonaviy o'zbek tili, o'zbek tili tarixiga oid qo'llanma, darslik va monografiyalari bizning tilimizni Rossiyada o'rganishga katta hissa bo'lib qo'shilganini alohida qayd etishni istar edik. Bugungi kunda yuqorida nomlari keltirilgan turkologlar qatorida Rossiyada o'zbek tiliga muhabbat bormi degan savol tug'iladi.

Qadimgi slavyan yozma yodgorliklari ma'lum bir davrda turkiy tillarning ravnaqini ko'r-satishga asosiy dalillardan biridir. O'tgan asrnинг 60-70-yillarida qozoq shoiri va olimi O'ljas Sulaymonov slavyan xalqlariga mansub "Igor jangnomasi"ni tadqiq etib, bu noyob yodgorlik asli Dashti Qipchoq xalqining (Shayboniyxon Dashti Qipchoqda o'zbek davlatiga asos solgan Abulxayrixonning nabirasi edi) badiiy tafakkuri mahsuli ekanini, bu epik yodgorlikni turkiy tildan slavyan tiliga ag'dargan tarjimonning qadimgi turkiy tilni – eski o'zbek tilini bilish dara-jasi va tarjima jarayonida ko'p xatolarga yo'l qo'yanini chuqur tahlil qilgan edi.

Shu o'rinda "Igor jangnomasi" yaratilgan o'lka Dashti Qipchoq ekanini va Oltin O'rda davlati Dashti Qipchoq zaminida paydo bo'lganini aytib o'tishimiz kerak. Mirzo Ulug'bek "To'rt ulus tarixi" asarida O'zbekxonning o'g'li Jonibek xon hukmronligi to'g'risida so'z yuritar ekan, uning xudojo'y odam, insonlardagi fazilatlarni qadrlaydigan hukmdor ekanini aytadi. Oltin O'r-dani Dashti Qipchoq nomi bilan ataydi. O'zbekxonning hukmronligi yillarida "**o'zbekiyon**" degan termin tarixiy asarlarda ilk bor uchraydi. XIV asrda yashagan fors tarixchisi va geografi Hamdulloh Qazviniy Ozarbayjonga yurish qilgan O'zbek xonning askarlarini "**o'zbekiyon**" deb ataydi. Bu voqeа 1355-56 yillarda bo'lgan edi. Qazviniy Oltin O'rdati "mamlakati O'zbek" de-gan nom bilan yuritgan. "**O'zbekiyon**" degan nom jamiki Oltin O'rda aholisining umumiyl nomi ga aylanib qoldi. Shuning uchun ham Abulg'izi Bahodirxon "mamlakati O'zbek" nomini Oltin O'rdatining hamma hududiga nisbatan ishlatgan edi.

"Igor jangnomasi"ni matnidagi qipchoq tiliga mansub ko'plab so'zlarning turkiycha ekanini O'.Sulaymonov izohlab bergen. Masalan, asar qahramoni Vsevolodning jangovarlik layoqati *buytur* so'zi orqali ifodalishini izohlaydi. Bu yodgorlikni ko'chirgan kotib mazkur o'zbekcha so'zning slavyancha ekvivalentini topa olmagani uchun o'zbekcha *botir* so'zini slavyancha talaffuz bilan *buytur* tarzida qo'llagan. Bu so'zning rus tilida O'.Sulaymonov talqiniga hamohang ma'nosini izlab "Vikipediya"ga murojaat etdik. "Vikipediya"da *baytur* botir, jangovar ma'nolarini ifodalashi qayd etilgan. *Bayturov* familiyasi o'zbekcha *Botirovga* teng kelishi to'g'risida ham ayrim izoh va sharhlar bor.

Yoki O'.Sulaymonov mazkur kitobida keltirgan bir qator umumturkiy so'zlarning shumer yozma yodgorliklarida (miloddan oldingi IV ming yillik boshlari) **ada** (ota), **ama** (ona), **tu-** (tug'moq) kabi bir qator so'zlarning uchrashi haqida keltirgan misollar va ularning talqinlari ham ancha yillardan beri turkologiyada munozara bo'lib keladi. Kimdir, shumer tili turkiy tillarga qarindosh bo'lgani uchun umumturkiy so'zlar bor deb aysa, kimdir, so'zlarning fonetik qiyofasidagi bir xillik va ma'no jihatdan o'xshashligi tasodifdir, qarindoshlik yo'q, deb qaraydi. Shuni inobatga olish kerakki, ot turkumiga mansub so'zlarning o'zigma ma'nodosh bo'lsa, bu har ikkala tilning qarindoshligiga shubhalanishga o'rin bo'lishi mumkin. Ammo fe'l turkumiga oid so'zlarning (yuqorida tu- tug'moq fe'li singari) ma'no jihatdan o'zbek tilidagi yoki boshqa turkiy tildagi so'zga shakl va ma'no jihatdan uyg'unligi tillarning qarindoshligini dalillashga xizmat qiladi.

O'zbek adabiyoti tarixiga oid matnlarda hali keng ommaga tushunarli bo'lmanan, tushunish uchun lug'at talab qilinadigan so'zlarni mualliflar matn ichida, o'z o'rniда so'zning tarjimasini berishi yoki talqin qilishi anchagina muammolarning oldini oladi. Masalan, Oltin O'rda o'zbek adabiyotiga mansub "Qisasi Rabg'uziy", "Nahjul-farodis" nomli asarlar shu jihatdan diqqatni tortadi. "Nahjul-farodis" milodiy 1358-yili yozilgan. Bu to'g'rida asarning nihoyasida aytilgan. Kitobni ko'chirgan kotibning aytishicha, "Nahju-l-farodis" muallifi kitobni yozib tugatgach, oradan ikki kun o'tib, "dorulfanodan dorulbaqoga rixlat qilgani", bu kitobdan ko'p allomalar foydalangani bayon qilingan. Kotibning bu ma'lumotidan kitob o'z davrida anchagina mashhur bo'l-gani ko'rindi. Bu ma'lumotlar ham muhim, ammo bunisidan ham muhimi, "Nahjul-farodis"ning til xususiyatidir. Asar asosan turkiy so'zlar zaminiga, o'zbek tili tarixida keng istifoda etilgan so'zlar zaminida paydo bo'lgan. Zotan, Oltin O'rdada diniy madaniyat, xususan islom bilan bir qatorda turkiy adabiyotga va turkiy adabiy tilga e'tibor kuchaydi. Garchi bu davrdagi adabiyot – turkiy adabiyot, til – turkiy til deb yuritilan bo'lsa ham, turkiy tilli xalqlar orasida alohida mavqe tutgan har bir o'zbek kitobxoniga Oltin O'nda adabiy muhitida yaratilgan asarlar bugungi kunda ham juda yaqin. Oltin O'nda madaniy muhitida eski o'zbek adabiy tilining z-guruhidagi adabiy til amalda ekani va y-guruhi adabiy tiliga o'tish jarayoni davom etayotgani kuzatiladi. Bu til *o'g'uz-qipchoq turkiy adabiy tili* deb yuritiladi.

"Nahjul-farodis" Oltin O'rdaning asosiy aholisi hali arab va fors tillarini umuman bilmagan mo'g'ullarni mo'ljallab yozilgani va ularga islom yo'lini ko'rsatishga qaratilgani uchun ularga tushunarsiz so'zlar izohlab borilgan. Arabiy-forsiy so'zlardan imkon qadar mazkur asarda deyarli foydalanishdan muallif voz kechgan. Ayni paytda ommaga tushunarsiz so'zlarni, iboralarni, hadislarni matn ichida eski o'zbek tilida sharhlash Oltin O'nda adabiyotiga xos bo'lib, "Qisasi Rabg'uziy" va "Nahjul-farodis"da uchraydi. Bizning kuzatishimizcha, turkiy tildagi boshqa asarlarda uchramaydi. "Nahjul-farodis"dan olingan quyidagi misolga e'tibor beraylik. Biz arabcha hadisni keltirmasdan faqat eski o'zbek tiliga muallif qilgan tarjimasini beramiz:

*Payg'ambar a.s.qa Mustafa at berildi. Mustafa arab tilincha odrulmish temak bolur* (Arabcha hadisning mazmuni: Imom Bag'oviy rahmatullohi "Mashobih" degan kitobida quyidagi hadisni keltirgan. Payg'ambarimiz as. shunday aytgan ekan: Tangri taolo Ismoil payg'ambar o'g'illaridan Quraysh qabilasini tanlab oldi. Yana Quraysh qabilasidan Hoshim degan odamning o'g'illarini tanlab oldi. Yana o'sha Hoshim degan odamning o'g'illari orasidan meni tanlab olib, o'rta ga chiqardi. Shu sababdan Payg'ambar a.s.qa Mustafon ismi berildi. *Mustafon - arab tilida tanlab olgan ma'nosini bildiradi.*

Quyidagi diniy istilohlarga asar muallifi matnda bergen o'zbekcha izohlar ham diqqatga sazovordir: *Amri ma'ruf ma'nisi edgulukka buyurmaq bo'lur taqi nahyi munkar ma'nisi yaman-liqdan yig'maq bo'lur – Amri ma'rufning ma'nosini yaxshilikka undash bo'lur, yana nahyi mun-karning ma'nosini yomonlikdan qaytarish bo'lur.*

Yoki "Qisasi Rabg'uziy"dan olingan quyidagi hikoyatda ham yuqoridagiday usulni ko'ramiz: *Umar raziyallohu anhu aydi: "Qaydin kelding?" teb. Aydi: "Iroq elindin, ya ni Iroqdin keldim". So'rdi: "Ne sino'at" bilursan?" Aydi: "**Hobikman**". Arab tilincha bo'zchi bo'lur.* Yana so'rdi: «Na ishlarga kelding?» Aydi: «O'granu keldim, ya ni ilm o'rgangani keldim».

Birinchi misolda muallif Mahmud Ali ibn as-Saroyi oyatning tarjimasini, ikkinchi misolda diniy istilohning o'zbekcha talqinini, uchinchi misolda esa Rabg'uziy so'zning talqini va izohini beryapti. Har uchala misolda ham bir maqsad qo'yilgan – asar matnini kitobxonga lug'atsiz va kimgarningdir talqinisiz tushunarli qilib yetkazishdir. «Uyimda bir mushugim bar. Bu go'shtlarning g'uddalarini yig'ib bizning mushukka olib borg'il deyar erdi, **g'udda teb etning bezlarina ayturlar** (216 b.)

Asar muallifining talqinidan ko'rindiki, u asarni yozish jarayonida, bir tomondan, keng ommani nazarda tutgan, ikkinchi tomondan, Rabg'uziy ham, Mahmud Ali ibn as-Saroyi ham turkiy tilga, ya'ni eski o'zbek tiliga bo'lgan muhabbatini namoyish qilganlar. Muallifning bu maqsadini asarda keltirilgan arabcha oyatlarning o'zbek tilida berilgan tarjimasi ham dalillaydi. Deyarli "Nahjul-farodis" bilan bir davrda va bir o'lkada yaratilgan "Qisasi Rabg'uziy"da keltirilgan arabcha oyatlarning o'zbekchasi berilmagan, ammo yuqoridagiday arabcha so'zlarning tarjimasi berilgan, xolos.

O'rni kelganda aytish kerakki, har ikkala ijodkorning matnni tushunishda keng ommani nazarda tutib shu yo'lni tanlaganidan biz saboq chiqarishimiz kerak. Bugungi kunda gazeta va jurnallarda omma tushunmaydigan so'zlarni qalashtirib tashlayotgan jurnalistlar, mualliflar Rabg'uziy bilan Saroyidan o'rgansalar ma'qul ish bo'lardi. Masalan, turli rasmiy hujjatlarda, om-mammiy axborot vositalarida *monitoring qilmoq* degan ibora ko'p gapiriladi, ammo omma monitoring nima ekanini tushunadimi? Yo'q tushunmaydi. Bu so'zning ruscha "Vikipediya"da batafsil izohi berilgan. O'zbekchaga tarjima qilsak, "doimiy ravishda kuzatib borish" ma'nosini bildiradi. SHu iborani monitoring qilmoq iborasi o'rniga kiritsak, maqsadga erishish mumkin-ku! Faqt hafsala kerak.

Yuqoridagi har ikkala asarning asosan sof turkiy so'zlardan iborat ekani xuddi Qoraxoniylar sultanati mahsuli bo'lgan "Qutadg'u bilig"ni eslatadi. "Qutadg'u bilig"da ham olti mingdan ortiq so'z qo'llangan holda, shundan yuzga yaqini arab va fors so'zları, qolgani turkiy so'zlardir. Zotan, "Qutadg'u bilig" Qoraxoniylar sulolasida amal qilgan xon yoki xoqoniya tiliga asoslangan bo'lsa, Oltin O'rda turkiy adabiy tili, bir tomondan, Qoraxoniylar davri adabiy tilining davomi, ikkinchi tomondan, qipchoq va o'g'uz tillari Oltin O'rdada yagona adabiy tilning shakllanishiga xizmat qildi. Qoraxoniylar sulolasidagi xon tili Oltin O'rda adabiy tiliga ta'sir etganini ham e'tirof etishimiz kerak. Zotan "Qutadg'u bilig" Oltin O'rdada ma'lum va mashhur bo'lganini ko'rsatadigan dalillar bor. Jumladan, Oltin O'rdaning ma'muriy markazlaridan biri Saroychiqda (Urol daryosi yaqinida) arxeologik qazuvlар natijasida bir xum topilgan. Xumga "Qutadg'u bilig"dan bir parcha bitilgan ekan. Bu kichik dalil Oltin O'rdaga Qoraxoniylar sulolasidagi turkiy tilning ta'sirini hamda mavqeyini ko'rsatishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, Oltin O'rda davlatidagi turkiy adabiy til mavqeい jihatdan o'zidan oldingi Qoraxoniylar davridagi adabiy tildan mavqe jihatdan birmuncha yuqoriq ekani ko'rindi. Misrda 1250-yildan 1516-1517-yilgacha hukm surgan Misr mamluklar davlatida ham eski o'zbek tili hukmron tilga aylangan edi. Sayfi Saroyining "Guliston bit-turkiy" asari va uning zamondoshlari asarlari Oltin O'rdadagi eski o'zbek tilining davomidir. Kelgusida Oltin O'rda adabiy tili haqida maxsus tadqiqotlar olib borilishi kerak. Zotan, u davlatda amalda bo'lgan til eski o'zbek tilining aynan o'zi, ya'ni Oltin O'rdada va Misr mamluklar davlatida yaratilgan asarlarga ko'proq biz, o'zbek xalqi da'yogarmiz. Sayfi Saroyining "Guliston bit-turkiy" asarining va uning Misr mamluklar davlatida ijod qilgan zamondoshlarining asarlari tili fikrimizga dalildir.

## TURKOLOGIYADA E'TIBORDAN CHETDA QOLGAN ABDURAUF FITRATNING "QUTADG'U BILIG" MATNI NASHRI (1928)

*Timur Kocaoglu (Temur Xo'ja o'gli)  
Michigan Universiteti (AQSH) professori*

O'zbek Turkshunos olimi Abdurauf Fitrat (1886-1928) 1927-yildagi "Eng eski turk adabiyoti namunalari" nomli asarida Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'oti-t-turk" asaridagi adabiy parchalarni, 1928-yildagi "O'zbek adabiyoti namunalari" asarida esa qadimgi turk doston-

lari va O'rxun yozuvidan “Boburnoma” asarigacha ko'plab turkiy adabiyot namunalari qatorida “Qutadg'u bilig” asaridan 80 baytlik parchani 1923-1928-yillar orasida ishlatilgan “Yangi alifbo” deb otalgan o'zbek tili talaffuziga moslashtirilgan arab alifbosiga asoslangan yozuvda nashr qilgan edi. Fitratning “O'zbek adabiyoti namunalari” asari haqida ko'plab maqola va asarlarda ma'lumot berilib kelingan bo'lsa-da, “Qutadg'u bilig” matni bo'yicha ilmiy ish olib borgan olimlar negadir Fitratning bu asaridan tanlagan 80 baytlik matni ustida to'xtalmagan va uni tekshirib u haqda ma'lumot berishmagan. Holbuki, Fitratning o'sha 1928-yilidagi matn nashri o'zidan oldingi H.Vambery va V.Radlov yoki Fitratdan keyingi R.R.Arati (1947) va S.E.Malov (1948, 1951) kabi olimlarning nashrlaridan ba'zi jihatlardan yanada mukammalroqdir. Bu masalaga ham bugungacha biron kishi to'xtalib, Fitratning nashrini boshqa olimlarning nashri bilan solishtirgan emas.

Ushbu ma'ruzamda men Fitratning 1928-yilda “O'zbek adabiyoti namunalari” asaridagi “Qutadg'u bilig”dan keltirilgan 80 baytning faqat 10 baytini R.R.Arati 1947-yilidagi matn nashri bilan muqoyasa qilaman. Bu ma'ruzamdan keyin boshqa bir maqolamda esa, Fitratning o'sha 80 baytlik matnnini turkshunos Aratdan tashqari O'zbekistonda nashr etilgan ayrim “Qutadg'u bilig” matnlari bilan qiyoslashni ham ko'zda tutmoqdaman.


Navbatdagi solishtirishda shunday usulni qo'llayman: Fitrat matn nashrida “Qutadg'u bilig”-ning faqatgina Toshkent (Farg'ona) qo'lyozmasidan foydalangan, uni Vena va Qohira qo'lyozmlari bilan solishtirmagan. Shu sababdan bu ma'ruzada har bir bayt uchun oldin uning Toshkent qo'lyozmasidagi baytning surati, undan keyin Fitratning “O'zbek adabiyoti namunalari” asaridagi arab yozuvidagi transkripsiya matnining surati va uning hozir O'zbekistonda turkiy matnlar uchun ishlatilayotgan ilmiy transkripsiya alifbosiga yaqin bir lotin alifbosidagi transkripsiya va uning o'ng tomonida esa R.R.Arati 1947-yilidagi matn nashridagi baytning surati beriladi. Har bir baytning ostidagi “Izohlar” bo'limida shu muqoyasa to'g'risidagi mulohazalarimni yoza man (mening bu matnimdagи lotin transkripsiym o'zbek olimi Qosimjon Sodiqovning 2010-yildagi “Qutadg'u bilig”ning uyg'ur yozuvli Hirot nusxasi” asaridagi lotin transkripsiyasiga juda o'xshash bo'lsa-da, undan bir-ikki harf ayrıldi (Sodiqov 2010, s. 29-74).

Fitrat qo'llagan arab yozuvidagi unli tovushlarning harflari o'rniga qaysi lotin harflari ishlatilgani quyidagi jadvalda ko'rsatiladi:

Arab	Lotin	Izoh
ا	a	Til orqa keng Boshda ل او رتادا-وزردا /
ه	ä (ə)	keng a (til oldi keng)
ي ئى	é (e)	Yopiq e (til oldi او رتا keng)
ى	i - i	i (ى - ىل) til orqa tor (yo 'g'on) i til oldi tor (ingichka)
ي	y	yonma-yon ikki nuqtali ye harfi y unsiz tovushi
و او	o	Boshda – او رتада Til orqa او رتا keng (yo 'g'on)
نو انو	ö	Boshda – او رتада Til oldi او رتا keng (ingichka)
ف اف	u	Boshda – او رتада Til orqa tor (yo 'g'on)
نۇ انۇ	ü	Boshda – او رتادا Til oldi tor (ingichka)

Fitrat 1921-1928-yillardagi “Qutadg‘u bilig”dagi ذ (zal) harfini aynan olgan:

“Qutadg‘u bilig”da	Fitratda	Lotin transkripciyasida
ذ	ذ	z



تۇغاردىن ئاساكلىي اوىنلەر زىلە  
ئازۇن تىنگىكە تاچتى ئوشتماخ يولى

Fitrat 1928, s. 79

tuğardin<sup>1</sup> ésä käldi<sup>\*</sup> öñdün<sup>2</sup> yéli  
ajun étgüka<sup>3</sup> açtı ustmax yoli

Arat 1947, s. 23

61 toğardin ese keldi öngdün yili  
ajun itgüke açtı ustmax yoh

Izohlar:

\* **käldi** KB Toshkent qo‘lyozmasida: bu so‘z ڭلدى deb yozilgan. Fitrat birinchi bo‘g‘inda (hijoda) yopiq e unli tovushi uchun ڭلدى (kéld) yozish o‘rniga ڭلدى keldi deb keng ä bilan yozgan bo‘lishiga qaramay, keyin 0273 sonli baytda bo‘lsa **yopiq** é bilan yozgan: ڭلدى käldi:

مەسىل كېلدى تۇر كەچە مۇڭار مەڭزەتۇر

“mesel käldi (كېلدى) türkçe muñar meñzetür”

Shu sababdan bu baytdagi ڭلدى yozilgani matbuotdagı bir imlo xatosi bo‘lishi mumkin?

Fitrat doimiy ravishda “Qutadg‘u bilig”dagi yopiq é larni ko‘rsatgan bo‘lsa, tatar-turk olimi Arat esa, yopiq é larni umuman qabul qilmagani tufayli o‘zining matn nashrida yopiq e o‘rniga yo keng e [ä] yoki i unli tovushini ko‘rsatuvchi harflarni ishlatgan: ese (äsä), käldi (käldi), yili, itgüke (itgükä). Qadimgi va zamonaviy barcha turkiy adabiy tillarda mavjud bo‘lgan yopiq e tuvushini ko‘rsatmaslik albatta to‘g’ri emas, lekin Turkiyadagi olimlarning bir qismi buni ishlatmaydi.

Bu tiloldi yopiq é masalasida V.Radlov bilan S.E.Malov ham o‘z matn nashrlarida yopiq e [é] o‘rniga faqat keng ä harfini ishlatishgan:

V. Radlov, 1910, s. 17:

Тоңардын ۆзä käldi öndin jäli,  
Ацун ăткүгä ачты уңмак јолы.

S. E. Malov, 1951, s. 240:

N, 15; W, 123-6

Säväg savéy ydty baýyrsaq ädi<sup>10</sup>,  
Budunda talusy,<sup>11</sup> kişidä kädi!

Fitrat domla esa, 1923-1932- yillar orasidagi ilmiy matn nashrlarida bu yopiq e ni ishlatgan. Bu ham Fitrat domlaning 1928-yildagi “Qutadg‘u bilig”dan 80 bayt bergen nashrining turkshunoslik jihatidan ahamiyatga ega ekanligini isbotlaydi.

Toshkent qo‘lyozmasida: 9b /11

يغىز بىپار تولىي كافوزكىت بىلەن ئەلتىلار دىنيا كوركىنلىتىپ

Fitrat 1928, s. 79

باغىز بىپار تولىي كافوزكىت كېتىپ  
بەزەنمەك تىلەر دۇنيا كوركىن ئىتىپ


Fitrat (Transkripsiya)  
yağız yér yípar toldı kafur kétib  
bezänmäk tilär dunya körkin<sup>1</sup> étib

Arat 1947, s. 24  
64 yağız yir yípar toldı kafur kitip  
bezenmek tiler dünya körkin itip

*Izohlar:*

Turkshunos olim Aratning barcha yopiq e [é] lar o'rniga keng e [ä] yoki tiloldi tor i transkripsiya harflarini ishlatishi ham "Qutadg'u bilig" matni hamda umumiy Qoraxonlilar davri turk tilining fonetikasiga to'g'ri kelmaydi. Shu sababdan Arat matnidagi bu xatoliklar aslida uning transkripsiyasini transliterasiyaga, ya'ni fonemalerning tovushlarni emas, faqatgina harflarning arab alifbosidan lotin alifbosiga ko'chirilib yozilishiga aylantiradi: *yir*, *kitip*, *itip* sing'ari. Arat transkripsiya matni yana bir jihatdan xatoliki, u ham bo'lsa, **-ib** qo'shimchasini Turkiya turk tilida bolgani kabi **-ip** deb yozganidir: *kitip*, *itip* kabi. Fitrat esa bularni arap alifboli transkripsiyasida to'g'ri yozgan: **كېتىپ** kétib, **ئىشىپ** étib.

Toshkent qo'l yozmasida: 9b /12



Fitrat 1928, s. 79

ئىرەنچىك قىشىغ سۇردى يازقى ئەسىن  
yarۇc ياز بانا فوردى دەولەت ياسىن


Fitrat (Transkripsiya)  
érinçig kişiğ sürdi yazqı äsin  
yaruq yaz yana qurdı dävlät yasin

Arat 1947, s. 24  
65 irinçig kişiğ sürdi yazqı esin  
yaruk yaz yana kurdu devlet yasin

*Izohlar:*

Fitratning bu birinchi misra oxiridagi **äsin** نەسىن yozgani xatoli, keng ä o'rniga yopiq e ishlatishi kerak edi: **ésin** ئېسىن (esin). Arat ham bu sözni keng e (ä) bilan yozgan: **esin** (ä).

Toshkent qo'l yozmasida: 9b /13



Fitrat 1928, s. 79

ياشىق ياندى بولغاى بانا تورنمگە  
بالىق قۇذرۇقىندىن قۇذى بۇرنىگە

Fitrat (Transkripsiya)  
yaşıq yandı bolgay yana ornıǵa  
balık qudrıqındın quzı burnıǵa

Arat 1947, s. 24  
66 yaşık yandı bolgay yana ornıǵa  
balık kuđrukındın kozi burnıǵa

*Izohlar:*

Turksuhunos olim Arat misra oxirlaridagi **ornıǵa** va **burnıǵa** so'zlarini xatoli yozgan, bu so'zlar Fitrat domla yozgani kabi **ornıǵa** (o'rnig'a) va **burnıǵa** (burnig'a) yozilishi kerak edi. Biroq Aratning to'g'ri ravishda **qozi** (qozi) yozganini negadir Fitrat domla **quzi** (quzi) deb xatoli yozgan.

Toshkent qo'lyozmasida: 10a /1



Fitrat 1928, s. 79

قۇرىمىش ياغاچلار تۇناندى ياشىل  
بەزەندى يېپۇن، ھال، سارىخ، كوك، قىزىل،

Fitrat (Transkripsiya)

qurımısh yağacıclar tunandı yaşıl  
bázandi yipün al sarıg, kök, kızıl

Arat 1947, s. 24


67 құриміш үйғаçлар тонанды яшіл  
безенди үипүн ал сарыг көк қызыл

Izohlar:

Turkshunos olim Arat **үйғаç**, Fitrat domla esa, uni **yağac** deb yozgan. Agar bu so'zning talaffuzi **üyğac** bo'lsa edi, unda "Qutadg'u bilig"da bu so'z qo'sh "y" harfi bilan yozilar edi.

U yerda Fitrat domlaning بە زەندى **bázandi** deb dastlabki bo'g'inda keng ä yozishi xatolidir, shunday yozishi kerak edi: بېزەندى. Arat ham buni keng e (ä) bilan yozgan.

Toshkent qo'lyozmasida: 10a /2



Fitrat 1928, s. 79

ياغىز يەر ياشىل تورقۇ يوزگە يادى  
خەناتى ئارقىشى ياذتى تافغاچ تەنندى

Fitrat (Transkripsiya)

yağız yér yaşıl torqu yüzkä badi  
xıtay arqısı yazdı tafğaç ézi


Arat 1947, s. 24

68 yağız yır yaşıł torķu yüzke badi  
hiṭay arķısı yađtı taύgaç eđi

Izohlar:

"Qutadg'u bilig"daki arapça ف f harfini Aratning lablanmagan w (v) transkriptsiya harfi bilan **tawğaç** deya yozgani to'g'ridir, Fitrat esa, buni f harfi bilan yozgan: **tafğaç**. Fitratning ikkinchi misradagi **yazdı** trankriptsiyasi esa to'g'ridir. Fitratning **ézi** deya ʐ bilan yozganini Arat esa ɖ bilan **eđi** (ädi) deb yozgan. O'sha yerda Arat yana keng ä ni ishlatgan.

Toshkent qo'lyozmasida: 10a /3



Fitrat 1928, s. 80

بازى، ناغ، بىر، ئوبى نوشەندى ياذدې  
ئەتىندى فولى، فاشى كوك، ئال كەذدې

Fitrat (Transkripsiya)

yazı, tağ, yér, oprı töşändi yazılıb  
étindi qoli, qaşı kök, al käzib

Arat 1947, s. 24


69 yazı taǵ ḫır oprı töşendi yađıp  
itindi կոլի կաշի kök al keđip

Izohlar:

Arat Toshkent qo'lyozmasida **yér** deb o'qilishi kerak bo'lgan so'zni, boshqa nusxalarga qarab **qır** deb yozgan, Fitratning **étindi** deb to'g'ri yozgan so'zini Arat **itindi** deya xatoli yozgan. Lekin

Fitrat ikkinchi misra oxiridaki til oldi tor é (e) bo'lishi kerak sözni esa **käzib** deya tiloldi keng ä bilan xatoli yozgan.

Toshkent qo'lyozmasida: 10a /4



Fitrat 1928, s. 80

تۇمان نۇ، چېچەكلىر بەزەلدى كولە  
يىپار تولدى كافور ئازون يىن بىلە

Fitrat (Transkripsiya)

tümän tü, céçäklär yazılıdı külä  
yipar toldı kafur ajun yız bilä


Arat 1947, s. 24

70 tümen tü çiçekler yazılıdı küle  
yipar toldı kafur ajun yid bile

*Izohlar:*

Bu yerda ham Fitrat va Arat o'rtasida z bilan d transkripsiya farqi bor.

Toshkent qo'lyozmasida: 10a /5



Fitrat 1928, s. 80

سەبا يېبلى قوبى قارانغۇل يىندىن  
ئازون بارچا با ترىو يىپار بوردىكىن

Fitrat (Transkripsiya)

Arat 1947, s. 24


saba yéli qobti qaranful yidin  
ajun barça bütürü yipar burdi kin

71 şaba yili köptü qaranfil yıldın  
ajun barça bütürü yipar burdi kin

*Izohlar:*

Fitratning Markaziy Osiyo turk talaffuziga ko'ra "qaranful" deb o'qiganini Arat *qaranfil* deya Anatoliya turk tiliga mos yozgan. Yana Arat *qob-* fe'lini Anatoliya turk tiliga muvafiq "p" bilan **qop-** deya va yél sözini da **yil** deb xatoli o'qigan.

Toshkent qo'lyozmasida: 10a /6



Fitrat 1928, s. 80

قاز، نوردەك، قۇغۇ، قەل، قالىقىن بودى  
قاقيلا يوقىنار يوقارى قۇذى

Fitrat (Transkripsiya)

Arat 1947, s. 24

Qaz, ördäk, quğu, qıl qalıqıg budı  
qaqlayu qaynar yoqaru quzı

72 kaz ördek ķuǵu ķıl қalıqıg tudi  
ķaķılayu ķaynar yoqaru ķođı

*Izohlar:*

Fitrat faqat Toshkent qo'lyozmasiga asoslangani uchun bu matndagi "budı" so'zini olgan, Arat esa, "Qutadg'u bilig"ning boshqa qo'lyozmalariga qarab "tudi" so'zini kiritgan. İkkinci misra oxiridagi **quzı** so'zida Fitrat va Arat o'rtasida z bilan d transkripsiya farqi bor.

### **Xulosa:**

O'zbekistonning dastlabki yirik turkshunos olimi Abdurauf Fitrat 1938-yilda otib o'ldirilganidan keyingi qatag'on paytida uning nomi va asarlari 1985-yilgacha man' qilingani tufayli Sovet Ittifoqida va chet ellardagi turkshunos olimlar Fitratning 1928-yildagi mazkur asarida "Qutadg'u bilig"dan 80 baytning matnnini ishlab chiqqanidan xabarsiz qoldilar. Bu ma'ruzadagi asosiy maqsad olimlarning e'tiboridan chetda qolgan bu ilmiy ishga diqqatni jaib qilib, 1928-yildagi bu matnning qanday ahamiyatga ega ekanligini bildirishdir. Bir boshqa maqolamda Fitratning bu 80 baytlik to'la matnnini "Qutadg'u bilig" borosidagi boshqa matn nashrlari bilan solishtirmoqchiman. Fitratning matni bundan 92 yil oldin nashr qilingan edi. Shu buyuk turkshunos olimimiz 1938-yilda o'ldirilmaganida, balki "Qutadg'u bilig"ning to'la matnnini ham ishlab chiqqan bo'lar edi. Uning aziz xotirasi oldida bosh egaman.

### **Manbalar**

1. Arat Reşir Rahmeti. *Kutadgu Bilig I: Metin*. İstanbul: Milli Eğitim Basımevi, 1947.
2. Boltaboyev Hamidulla. *Fitrat va jadidchilik*. Toshkent: O'zbekiston Milliy Kutubxonasi Nashriyoti, 2007.
3. Fitrat Abdurauf. *O'zbek adabiyoti namunalari*, I. cild. Toshkent-Samarqand: O'znashr, 1928. [Shu nom bilan O'zbek kiril alifbosida qayta nashrini tayyorlovchi: Orzigel Hamroyeva. Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2013].
4. Kocaoğlu Timur. Türkistanlı Bilgin Abdurrauf Fitrat'ın Türkoloji Sahasındaki Unutulmuş Eserleri / *Türk Dili Araştırmaları Yılığı Belleten 1982-1983*. Ankara: Türk Dil Kurumu, 1986; s. 101-112.
5. Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. Текст и исследование. Москва-Ленинград: Издательство Академии наук СССР, 1951.
6. Sodiqjon, Qosimjon. "Qutadgu Bilig"ning uygur yozuvli Hirot nusxasi. Toshkent: Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti, 2010.
7. Radloff, W. *Das Kutaku Bilik des Jusuf Chass-Hadschib aus Bälasagun. Theil II: Text und Übersetzung nach den Handschriften von Wien und Kairo*. [II. Lieferung: p. 95-185 der Wiener Handschrift]. St. Petersburg: Commissionaire der kaiserlichen Akademie der Wissenschaften, 1910.
8. Vámbéry, H. *Uigurische Sprachmonumente und das Kudatku Bilik. Uigurischer Text mit Transsscription und Übersetzung nebst einem uigurisch-deutschen Wörterbuche und lithografirten Facsimile aus dem Originaltexte des Kudatku Bilik*. Innsbruck: Druck der Wagner'schen Universitäts-Buchdruckerei, 1870.

## **O'ZBEK TILINING XALQARO MIQYOSDA MAVQEYINI OSHIRISH MUAMMOLARI**

*Qurbanova M.,  
O'ZMU professori, f.f.d.*

Bugun davlat tili, tilning o'qitilishi, tilshunoslikning ilmiy-amaliy ahamiyati kabi masalalar siyosat darajasiga ko'tarildi. Prezidentimiz haqli ravishda ta'kidlaganidek, bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada avvalo o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir.<sup>17</sup>

<sup>17</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" ning farmoni. Toshkent shahri, 2019- yil 21-oktabr

Biz esa ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan beba ho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylash, uni boyitish, nufuzini oshirishni o'zimiz uchun eng ustuvor, uzviy davom etadigan yuksak maqsad deb bilishimiz va bu masalaning ahamiyati hech qachon e'tiborimizdan chetda qolmasligi zarur.<sup>18</sup> Jadid ma'rifatparvarlarimiz o'zbek tilining taqdiriga, o'qitilishiga, alifbo, imlo, so'z o'zlashtirish, atamalarni ishlab chiqish masalalariga alohida e'tibor qaratgan edilar. Chunki buyuk ma'rifatparvar Abdulla Avloniy so'zlari bilan aytganda, "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurg'on oyinai hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur".<sup>19</sup>

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi bilan tilimizning siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy hayotimizda davlat tili sifatidagi o'rni kuchaydi, xalqaro minbarlarda yangray boshladi. Ayniqsa, yaqinda bo'lib o'tgan BMTning oxirgi Sessiyasida Prezidentimizning O'zbek tilida ma'ruza qilishlari katta tarixiy voqeа bo'ldi va xalqimizning asriy orzularini ro'yobga chiqardi.

2019-yil 22-oktabrda Prezidentimizning "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonining e'lon qilinishi beixtiyor qalbimizda iliq hislarni uygotish bilan birga biz tilshunoslarga yuksak mas'uliyat yukladi. Bu farmon biz uchun dasturulamal hisoblanadi. Ushbu farmon asosida Davlat tilini rivojlantirish Departamentining tashkil etilishi o'zbek tilining respublika miqyosida nufuzini oshirishdagi dastlabki qadam bo'ldi. Bu farmonda atamalar komissiyasini tashkil etish, 2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish konsepsiysi va davlat dasturi loyhalarini ishlab chiqish kabi qator dolzarb masalalar batafsil yoritilgan.

Bugungi kunda o'zbek tilining rivoji uchun qator ishlar amalga oshirilmoqda, ammo hali qilinishi lozim bo'lgan ishlar talaygina. Ulardan biri-o'zbek tilining xalqaro miqyosda nufuzini oshirishdir.

O'zbek tilini xorijliklarga o'rgatish bo'yicha darajali maxsus darsliklar, lug'atlar yaratish. O'zbek tilini raqamlı tizim asosida o'rganishga jiddiy e'tibor qaratish, buning uchun albatta tizimli maxsus elektron lug'atlar tashkil etish zarurati mavjud. «...Ilmiy va ijodiy izlanishlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ular uchun zarur shart-sharoitlar yaratish vazifa»<sup>20</sup>sining belgilanganligi boshqa fan sohalari qatori tilshunoslikda ham tadqiqotlar olib borishga keng imkon yaratmoqda. Zero, milliy tilimizning rivoji, "yosh avlodga puxta ta'lif berish, ularni jismoniy va ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalash"<sup>21</sup>da katta ahamiyatga ega ekanligi bu boradagi izlanishlarni yanada mukammallashtirish zarurligini ko'rsatadi

Korijliklar uchun maxsus davriy lug'atlar yaratish zarur. Chunki tilimizda qo'llanadigan so'zlar davriy rivojlanishda o'zgarib boradi. Har bir davrda yaratilgan asarlar bevosita bir-biridan farqli lug'at boyligiga ega. Bu o'sha davrda yaratilgan asarlarni mutoala qilish jarayonida katta yordam beradi. Bugungi kunda o'zbek tilida maxsus korpus lingvistikasiga bo'lgan qiziqishning ortishi hamda tadqiqotchilarimizning ma'lum darajada erishgan yutuqlari biz uchun quvonarli, albatta. Ammo, bu amalga oshirilgan ishlar bamisol dengizdan tomchi.

Maktab o'quvchilari uchun nashrdan chiqarilgan maxsus izohli lug'atchalar ko'pchilik yurtdoshlarimiz tomonidan iliq kutib olindi. Chunki nafaqat xorijliklar, balki, yurtimiz maktab ta'limida ham til ta'limi metodikasini tubdan isloh qilish zarurati mavjud. Bugungi kunda chet tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqish va e'tibor davr talabi. Ammo biz o'z ona tilini mukammal

<sup>18</sup> O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2016-yil 13-maydag'i "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi PF-4797-sonli Farmoni.

<sup>19</sup> Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar.1-jild. Toshkent, "Ma'naviyat",2009.36-bet

<sup>20</sup> O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2016-yil 13-maydag'i "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi PF-4797-sonli Farmoni.

<sup>21</sup> O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2016-yil 13-maydag'i "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi PF-4797-sonli Farmoni.

bilish, undagi ma’no nozikliklarini farqlash, badiiy asarlar mutolaasi orqali lug’at boyligini o’stirish hamda fikrlarini yozma va og’zaki ravon ifodalay olish ko’nikmasini shakllantirish har bir insonga o’zga tilni o’rganishda bevosita mayoq vazifasini o’tashini hech qachon unutmashligimiz lozim.

Biz o’zbek tilining xalqaro miqyosida nufuzini oshirishni ustuvor vazifa deya belgilar ekanmiz, bu borada quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

1. Xalqaro miqyosida o’zbek tilini rivojlantirish uchun ta’limni davlatning asosiy kuchi sifatida qarab, nafaqat til ta’limi balki ta’limning barcha sohalarining rivojiga jiddiy e’tibor qaratish zarur. Zero qaysi mamlakatning ta’lim tizimi va rivojlanishi yuqori o’rinda bo’lsa, beixtiyor o’sha mamlakatga va uning tilini o’rganishga bo’lgan qiziqish sezilarli darajada ortadi. Har qanday harakat ehtiyoj asosida amalga oshadi.

2. Turizm sohasini rivojlantirish orqali yurtimizga tashrif buyurgan sayyoohlarga betakror san’atimiz, madaniyatimiz, urf-odatlarimiz va albatta tilimizni targ’ib qilishimiz lozim. Xorijda bizning davlatimizga, uning tarixiy yodgorliklariga, madaniyatiga qiziqish juda katta, ayniqsa, islam davlatlarida. Ular bizning buyuk allomalarimizning maqbaralarini ziyorat qilishni, tavof qilishni hayotining mazmuni deb biliшади.

3. Nodir asarlarimizni chet tillariga tarjima qilib xorijliklarning bu yurt allomalari asarlarini asl holida o’rganishga, ya’ni o’zbek tilida o’qishga qiziqish uyg’otish zarur.

4. Mamlakatimizda faoliyat ko’rsatayotgan xalqaro universitetlarda o’zbek tilini o’qitish masalasi alohida davlat nazoratiga olinishi kerak. Bu ilm maskanlarida davlat tilini o’qitish bo’yicha alohida dastur yaratilishi va xalqaro kredit-modul tizimiga moslashtirilishi kerak.

5. Jahondagi o’zbek tili markazlari bilan aloqalarni kuchaytirish, ularni o’quv adabiyotlari va mutaxassislar bilan ta’minlashimiz, xorijda o’zbek tili targ’iboti va tadbiqi bilan shug’ullanayotgan mutaxassislar bilan yaqindan hamkorlik qilishimiz, ular uchun qulay imkoniyat va imtiyozlar yaratishimiz kerak. Shu o’rinda hozirda o’zbek tili AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Shvetsiya, Yaponiya, Turkiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Hindiston, Rossiya, Ukraina, Ozarbayjon, Afg’oniston, Qozog’iston, Turkmaniston, Qirg’iziston, Tojikiston kabi davlatlarda o’rganilyapti. Keyingi 2 yil davomida Turkiyaning Niyde Umar Xolisdamir universitetida o’zbek tili va adabiyotidan dars berish davomida bu sohada qilinishi kerak bo’lgan vazifalarimiz ancha ekanligiga bevosita guvoh bo’ldim.

6. Xorijiy tillarni o’rganishga munosabatni to’g’ri shakllantirishimiz lozim. Bu borada ham qator muammolarimiz bor. Har qanday xorijiy til ona tili asosida o’rganilishi kerak.

## ДРЕВНИЕ ТОПОНИМЫ ТЮРКСКИХ ЯЗЫКОВ

Ескеева М., проф., Мусабекова У., доц.  
ЕНУ имени Л.Н.Гумилева (Казахстан)

**Аннотация:** В статье проводится историко лингвистический анализ географических названий, которое позволяет сделать вывод, что тюркская топонимия региона складывалась в течение многих веков, так как в ее лексический состав входят названия, по своему происхождению относящиеся к разным историческим периодам, что свидетельствует о бурной истории этого края, о пребывании здесь разных племен и народностей. Тюркская топонимия, являясь частью топонимической системы тюркоязычных народов, показывает не только историю формирования тюркских языков, но и историю расселения нынешних тюркских народов.

*Ключевые слова:* этнолингвистические пласти, этнокультурные, многослойная стратиграфия, семантические группы.

*Annotation:* The article presents the historical and linguistic analysis of the local geographical names, which lets to make a conclusion that Turkic regional toponymy evolved over many centuries, as its lexical structure includes names, the origin of which relate to different historical periods, and it indicates the remarkable history of this region, the existence of various tribes and folks. Turkic toponymy, being a part of toponymic system of Turkic folks, shows not only the history of forming Turkic languages, but also the history of settlement of modern Turkic folks.

*Key words:* ethno-linguistic layers, ethno-cultural, multilayer stratigraphy, semantic groups.

Топонимы наиболее устойчивые знаки, которые почти не подвержены изменениям, часто сохраняются в одном и том же виде веками и даже тысячелетиями. Среди актуальных проблем современной тюркологии видное место занимает изучение собственных географических имен. Исследование исторических топонимов укрепляет взаимное сотрудничество тюркских народов в общетюркской духовно-культурной модернизации.

Часто топонимика является основным источником наших знаний о древних языках, также ценным историческим свидетельством, позволяющим судить об этнической принадлежности их носителей. Необходимость научного изучения всех типов собственных имен получила в настоящее время всеобщее признание, и современный этап развития мирового языкоznания характеризуется бурным ростом ономастических изысканий. Определенный интерес в научном плане представляет тюркские топонимы. Топонимическая система формировалась в сложных исторических и лингвистических условиях. Места проживания родственных и неродственных этносов, язык и этнокультура которых не могла не оказать влияния не только на возникновение и развитие современной топонимии тюрков, это также нашло отражение и на уровне общей лексики проживающих людей в этом регионе. Научно-теоретические положения, труды разработанные такими видными учеными, как Н.А.Баскаков, В.А.Никонов, В.А.Серебренников, А.В.Суперанская, Э.М.Мурзаев, Г.Ф.Саттаров, Ф.Г.Гарипова, С.К.Караев, В.Ф.Барашков, Т.Ж.Жанузаков, О.Т.Молчанова, А.А.Камалов.

Топонимическая система формировалась в течение тысячелетий в сложных географических, исторических и лингвистических условиях, поэтому она неоднородна по происхождению и времени возникновения. Рассматривая историю формирования и развития этнического состава населения, начиная с античности и завершая сегодняшним временем, можно выделить такие этнолингвистические пласти тюркских топонимов изучаемого региона: в который входят булгарские и кыпчакские названия, также географические названия, образованные от арабо-персидских заимствований.

Тюркская топонимия преобладает повсеместно, то географические названия иноязычного происхождения часто имеют ареальный характер и немногочисленны. Наиболее древним из опознаваемых топонимических пластов является пратюркский, куда входят названия, образованные от географических терминов: древнетюркский – *сув/сүг* (древ, варианты *са-ша-шу*), др. тюрк, *суб*, *сув* "вода, река"; в древних языках *ша-шу-са-со* "вода, река, ручей, промоина, балка"; совр. ненец, *се* "промоина; река, вытекающая из озера"; манси *шоши* "ручей", ханты *сав* "речка, ручей". р. Атса < Атса – *ат* "лошадь" + *са* "вода", "вода для лошади, водопой", н.п. Акшуат < *ак*"белый" + *шуат* (>*суат* - казах, "водопой"), "белый, т.е. чистый водопой"; р., н.п. Шемурша – тюрк, *чамур* (>*шамур*, *шемур*) "грязь, *ил*" + *ша* "вода", "грязная, т.е. мутная вода или река". В основе первого компонента топо-

ним *Елаур*/Ялаур лежит древнетюркское слово эл – "государство, союз племен, народ", которое с булгарского периода начало употребляться в значении "село" (ср. с. Нугай иле, Тай иле). Др.турк. *кыр*"плоскогорье"; в других тюркских языках – "возвышенность, степь, иоле, хребет горы, гора, грань, край, равнина". Монг. *кира* "грань, край чего-то; берег, опушка леса". Фин.- угор, *кыр* "степь, открытое место, возвышенность, горка, берег"; общеперм. *кур* "гора". *Саур* (вар. шнур) (букв, круп лошади), "округлые вершины, холм, скалы в горах"; *ак + саур* - "белая вершина или белая гора". Топонимы с термином *саур* встречаются в Казахстане и в других тюркоязычных регионах страны; *Сунгур* (вар. сенгир-сенхур) – "утес, скалистый мыс, кругой обрыв, сложенный коренными породами (турк.); предгорье, окончание горного остига"(кирг.). В современных языках *саур* нет, но в булгарском языке лексема *саур/шар* означала: "болото, болотистая местность, топъ". В современном тюркском языке *саз* "болото", мансиjsком *саp* "маленькое болото", *саpч* "большое болото, море". От древнетюркского *алац* "плоский, ровный" происходит географический термин *алан* – "поляна, прогалина, перелесье; равнина, луг, пастьбище". В западном диалекте вместо *алан* употребляется слово *ялан*. Как видно из значений терминов *алан* – *ялан* – *елань*, все они восходят к древнетюркскому *алац*. В древнетюркском языке *ой* "овраг, низина". В говорах западного диалекта употребляется слово *уй* древнетюркского происхождения, которое восходит к алтайской языковой общности, так как в монг. *ой* "заросли кустов", тунгусо-манчжур. *ой* "болото", *ойо* "оболочка, поверхность чего-то, внешняя сторона". В тюркском языке этот географический термин самостоятельно не употребляется, он сохранился лишь в многочисленных гидронимах и топонимах. В древнетюркском *бур* "собирать в складки", монг. *бори* "склон, косогор", *боори* "возвышенность, холм", тунгусо-маньчжур. *бори* "каменная горка". Меняется значение термина по мере расширения ареала. Гидронимы с данным термином показывают геоморфологические особенности берегов водных объектов: их сморщенность, наслаждение береговых пластов друг на друга. Общеалтайским наследием считается и термин *кул / кол* / гол, который сохранился в некоторых говорах среднего и западного диалектов тюркского языка. В древнетюркском языке *гол* "долина, низменность, лощина", монг. *гол* "река, пойменная долина, овраг", тунгусо-маньчжур. *гол* "река". Таким образом, формирование тюркской топонимии началось в глубокой древности, когда в лексическом составе было немало родственных слов. Основным, преобладающим, в тюркской топонимии является тюркский пласт географических наименований. Тюркская топонимия в современном ее состоянии представляет собой обширную по лексическому составу, с многослойной стратиграфией и разнообразными типологическими универсалиями систему, формирование которой происходило под влиянием различных этнокультурных факторов на протяжении длительного периода. Алт. нариц. *чирик* "гнилой". Также можно предположить, что название - фамильного происхождения: в документах упоминается *Чириков*. Топоним, который возник на основе др. тюрк. *чебер* или монг. *чебер* "красивый, красавец". В топониме Иске Атлаш до нас дошло древнетюркское название игры. В словаре М.Кашгари (XI в.) *атлаш* означает "играть в азартную игру, поставив на коня". В древнетюркском языке *ар* "рыжий, бурый, красноватый", *буга* "бык", отсюда *Арбу га* "бурый бык". Также это может быть традиционным древнетюркским мужским именем с другим значением *ар* "мужчина, человек", тогда *Арбуга* "мужчина (сильный), как бык". В народе *шихан* – это небольшие, отдельно стоящие орографические объекты, которые выступают на ровном месте. Наверно, поэтому за ними закрепилось глагольное название *шихан*, в котором, как видно, сохранилась древнетюркская форма языке слову *шихан* соответствует глагол *чыккан* "вышел", причастие *чыккан* "вышедший". А в таком значении слово *шихан* существует в современном алтайском языке, лексический состав которого наиболее близок

древнетюркскому языку. Старотюркский *Тоба* – речка, кыпч. *тоба* "озеро; пучина, омут". Этот гидрографический термин, сохранившийся, в основном, в диалекте тюркского языка, в настоящее время является архаизмом, топонимов с данным термином встречается очень мало. Слово *тоба* в различных вариантах отмечается не только в тюркских, но и в других языках. Например, топонимы с термином *тба*, *тобо*, *това* "озеро, глубокая вода" встречаются и в Грузии, Дагестане. В кыпчакском языке встречается географический термин *йаз* – *уйас* "низменность, низина". Кыпчакский под пласт богато представлен антропонимами и географической номенклатурой, а булгари兹мы – географическими терминами. Арабо-персидские заимствования и образованные от них географические названия. Тюркский язык испытал сильное влияние арабского и персидского языков. Оно оставило свой отпечаток прежде всего в лексической структуре тюркского языка, которая располагает значительным числом арабских и персидских заимствований, количество которых учеными еще не установлено. Если рассмотреть заимствования на топонимическом уровне, то среди них можно обнаружить большое количество антропотопонимов (с. Абдулла, с. Муратовка, с. Муса) и этнотопоним (с. Араповка (<имя Арапшаотн. араб).

Исследования топонимов показывают, что преобладающее большинство названий образовано на базе тюркского языка, который охватывает и диалектные слова. В топонимии преобладают диалектизмы, синонимичные литературным словам, т.е. собственно лексические диалектизмы. Среди них есть и архаичные (абал, чичин, чук, тоба, маш, каш, курмыш), которые в настоящее время в языке не употребляются, но они показывают историю развития тюркского языка и его связь с другими языками. Таким образом, тюркская топонимия представляет собой результат многовековой этнической и культурной истории тюркского народа и его взаимоотношений с другими тюркскими и нетюркскими народами. С целью выявления лингвистической сущности топонимической системы и принципов номинации топонимы подвергаются определенному научному анализу. Большое значение при этом отводится лексико-семантической классификации топонимов, которая в зависимости от характера топонимического материала, целей и задач исследования может быть разных видов. По характеру основ названия населенных пунктов региона мы разделили на две группы: первое, ойконимы апеллятивного происхождения, то есть названия, содержащие термины постоянных поселений, типов жилища, а также наименования с апеллятивами религиозно-культового и социального содержания, названия – символы; второе, ойконимы онимического происхождения: антропоийконимы, этноийконимы, топоийконимы.

К ойконимам апеллятивного происхождения относятся: а) названия с этнокультурными апеллятивами как Иске авыл, Юрткуль, Нугай иле, Чардаклы, Базарный Сызган, Зеленый Курган и др.; б) названия с историко-культурными апеллятивами-Карабаевка, Карамзинка, Бекетовка, Бекшанка, Азат, Арчиловка; в) топонимы, имеющие отношение к флоре и фауне – Карамалы, Сакускай (<диал. сак - лит. усак "осина"). Анализ названий населенных пунктов области показывает, что наименования данной подгруппы для тюркской топонимии не характерны и являются малочисленными. Ойконимы онимического происхождения включают в себя: *антропоийконимы* – Аксакова, Курмаевка, Скугареевка Кубра, Кундюковка, Киндяковка (< др.турк, киндик "пупок" > турк, фам. Киндиков); *этноийконимы* – Барановка (< турк. эти. баранджар), Тагай, Калны, Парау, Найман, Сабакай; *топоийконимы* – Сулаки (< турк, сулак - "болотистый, водянистый"), Ермаки (< турк, ермак "балка, промоина"), Ерыклинск (< турк, ерык "овраг, балка, проток, рукав реки"). Целесообразно сказать, что в данном регионе номинация от топонимов и антропонимов является ведущей, как в целом, в тюркской ойконимии. При

семантическом анализе существующих в науке классификаций гидронимов мы решили остановиться на универсальной классификации топонимов по мотивам и характеру номинации [3, с.42]. На основе этой классификации любая топонимическая система делится на три подсистемы:

- 1) названия, отражающие собственные признаки географического объекта;
- 2) названия, выражающие отношения между объектами;
- 3) названия, отражающие отношения человека и общества. Как отмечает, С.Ш.Камолиддин "внутри каждой подсистемы топонимов выделяются группы и подгруппы единиц, которые образованы в соответствии с характером номинации. В этой части вполне могут быть новые обозначения отдельных групп и подгрупп, но указанные выше три принципа классификации являются универсальными, ибо могут быть применены ко всем языкам и топонимии любой территории":

Характеризующие объект в целом, которые состоят из географических терминов – р. *Ерик* (< тюрк, *ерик* "залив, старица, глухой проток"), реки *Чилим*, *Чильча*, *Цильна* (др. форма *Чильна*) (< тюрк, *чиль* "канавки, эрозионные борозды, небольшие овраги, русло"); 2) показывающие отдельные признаки объекта – р.Теренъгулька, р. Кока (<др.турк. *кок* "синий, голубой"), р.Борла (< тюрк, *бор-бур* "мел" + -ла (<-лы) -"меловый"). Топонимы, которые указывают на межобъектные отношения: а) материнский-дочерний объект - реки Большая Сарка, Малая Сарка; б) перенос названия на разнородные объекты – р., н.п.Кулатка ; в) отношение друг к другу – кол. Кое башы коесы "колодец, начало колодцев". Группа, которая состоит из: *антропогидронимов* – кол. Хорда коесы, р. Ази елгасы ; *этнотопонимов* – родн. Урыс казыган ("русский прорыл"), р.Чуваш елгасы и названий, содержащих опосредствованное указание на материальную и духовную культуру народа – оэ.Казыткан ("вырытый"), р. Птичник елгасы ("река птичника"). На основе анализа гидронимов тюркского народа можно сделать следующие выводы, что названия, отражающие собственные признаки географических объектов, в гидронимии региона занимают ведущее место. Это говорит о том, что характер номинации зависит от вида географического объекта и от его величины. Например, названия крупных рек в большинстве своем образованы от древних географических терминов, которые характеризуют объект в целом или отражают отдельные физические свойства водного объекта, а мелкие водные объекты, как колодцы, родники и речки, носят названия, показывающие отношения человека и общества с географическими объектами. Среди тюркских топонимов самыми сложными в этимологическом плане являются названия рек, что говорит об их очень древнем происхождении. Историко-лингвистический анализ местных географических названий позволяет сделать вывод, что тюркская топонимия региона складывалась в течение многих веков, так как в ее лексический состав входят названия, по своему происхождению относящиеся к разным историческим периодам, иноязычные, что свидетельствует о бурной истории этого края, о пребывании здесь разных племен и народностей. Исследование тюркской топонимии региона дает неопровергимые факты, что древние топонимы в большинстве своем этимологизируются на основе древнетюркского и других тюркских языков, где сохранились древние географические термины, формы слов, многие из которых уже не употребляются в современном языке. Тюркская топонимия, являясь частью топонимической системы тюркоязычных народов, показывает не только историю формирования тюркских языков, но и историю расселения нынешних тюркских народов. Географические названия древнетюркского периода возникли не случайно, а в связи с законами развития общества, и в них отразились своеобразие событий того или иного исторического периода, материальная и духовная культура народа, а также особенности окружающей среды, природы, животного мира.

Многие из древнетюркских топонимов содержат в себе лексические элементы иноязычного происхождения, обусловленные лингвокультурными контактами с другими народами. В временных и пространственных представлениях древних тюрок топонимы играли немаловажную роль в их жизни, в древнюю эпоху в топонимах был заложен огромный смысл. Одна часть топонимов является собственно тюркскими, которые были образованы на основе исконно тюркских слов и этнонимов. Некоторые топонимы были заимствованы из других языков древними тюрками и позже полностью освоены и воспринимаемы как собственная топонимическая номенклатура.

### Литература

1. Баскаков А.Н. К этимологии собственных тюркских имен в русских летописях антропонимии узов (огузов) – черных клубков// В кн.: Теория и практика этимологических исследований. – М., Наука, 1985. – С.30-34.
2. Сизова Е.А. К проблеме классификации топонимических единиц //www.pglu.ru/lib/publications/University\_Reading/2011/V/uch\_2011\_V\_00043.pdf
3. Камолиддин С.Ш. Древнетюркская топонимика Средней Азии. –Ташкент, 2006. – 191 с.
4. Подольская Н.В. О развитии отечественной топонимической терминологии /В кн.: Развитие методов топонимических исследований. – М., 1970. – С.46–55.
5. Джанузаков Т. Развитие тюркской ономастики в ССР// В кн.:Тюркская Ономастика. – Алма-Ата: Наука, 1984. – С.13-33.
6. Попова В.Н. Структурно-семантическая природа топонимов Казахстана (сравнительно-историческое исследование): автореф. ...док. филол. наук. – Алматы, 1997. – 61 с.
7. Blanar V. The Problem of a system of personal names// Onomastica. –Woclaw-Warszawa-Krakow, 1970. – Z.1-2. – S.60-75.

## O'ZBEK TILINING TURKIYADA TARG'IBOTI

*Oynur O'z O'zjon,  
Anqara universiteti (Turkiya) professori*

Avvalambor, sizlarni O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 31 yil to'lishi bilan chin ko'ngildan tabriklayman.

Barchangizga ma'lumki, Turkiya Respublikasi O'zbekistonning mustaqilligini birinchi bo'lib tan olgan qardosh davlatdir. Bu esa, aloqalarimizning uzoq yillarga tayanishidan dalolat beradi. Mustaqillikka erishgandan keyin, o'zbek tilidan foydalanish va uning dunyo bo'ylab o'rgatilishida alohida bir ahamiyat kasb etdi. Tilga berilgan e'tibor o'tmishdan bugungacha yetib kelgan, madaniyat ko'prigi deb hisoblangan maqollarda ham o'z ifodasini topgan. Birgina tilga e'tibor-elga e'tibor maqoli ham tilga berilgan e'tiborning davlatning kelajagi uchun naqadar ahamiyatga ega ekanligining yaqqol dalilidir.

O'zbekistonda o'zbek tilining davlat tili maqomi uchun qo'yilgan bu qadam, o'tmishdan bugungi kungacha shakllanib kelgan o'zbek tilining O'zbekistondan tashqarida o'rgatilishiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Shu jumladan, O'zbekistonning o'zbek tiliga bergan e'tibori Turkiyada ham o'z aksini topdi. Turkiy davlatlarning, jumladan, O'zbekiston mustaqilligini qo'lga kiritishi bilan Turkiya Respublikasining prezidenti farmoni bilan 1992-yilda Turkiya Respublikasining ilk universiteti bo'lgan Anqara Universitetida, Turkiya Respublikasining asoschisi Otaturk tomonidan qurilgan Til, Tarix-Jo'g'rafiya fakultetida Zamonaviy Turkiy Tillar va Adabiyotlari bo'limi ochildi.

Bo'lim ochilgach 1992-yilda Turkiy davlatlardan olimlar bo'limga taklif qilindi. O'zbekistondan hurmatli olim, keyinchalik dissertatsiya rahbarim bo'lgan professor Irystoy Qo'chqortoyev tashrif buyurdilar. U kishi bakalavr, magistratura, doktorantura talabalariga o'zbek tili grammatikasi va leksikologiya fanlaridan darslar berdi, bo'limimizda ilmiy kadrlar tayyorlashda katta hissa qo'shdi.

Toshkent Davlat Universitetida birinchi marta Turkologiya bo'limiga asos solgan va uzoq yillar davomida bo'lim boshlig'i vazifasini bajargan professor Irystoy Qo'chqortoyev, bizning bo'limimizning ilmiy kadrlarini tayyorlashda ham katta fidokorlik ko'rsatdi. Ikki bo'lim talabalari orasida tajriba almashinuvini yo'lga qo'yishga harakat qilgan ustozimiz, Anqara Universiteti va Mirzo Ulug'bek nomidagi Toshkent Davlat Universiteti orasidagi ilmiy hamkorlik bitimining tasdiqlanishi uchun ham ko'p harakat qildilar. Magistraturani bitirgandan keyin ham amaliyot o'tash, ham O'zbekistonda qilinayotgan ilmiy ishlarni yaqindan o'rganish uchun ustozimning sa'y-harakatlari natijasida bir oy O'zbekistonga borishga tuyassar bo'ldim. Mustaqillikdan keyin ikki davlat o'rtaida imzolangan bitim orqali bunday imkoniyatga ega bo'ldim.

Bo'limimiz faqatgina o'ziga emas, balki, Turkiyada o'zbek tili bo'yicha ishlaydigan mutaxassislarni tayyorlashda ham asosiy o'rinni egallab keladi. Bo'limimizda ozarbayjon, turkman, qozoq, qirg'iz, xakas, yoqut, tuva kabi turkiy tillar bilan birga o'zbek tili ham o'rgatilmoqda. Bo'limimizda o'zbekchaning fonetikasi, morfologiyasi bilan bir qatorda, o'zbek tili sintaksisi, o'zbek adabiyoti, o'zbek dialektologiyasi, o'zbek xalq og'zaki ijodi ham fan sifatida o'rgatilib kelinmoqda.

Bo'limimizda bakalavr, magistratura va doktorantura darajasida o'zbekcha bilan bog'liq dissertatsiyalar tayyorlandi, tayyorlanmoqda. Birinchi magistratura dissertatsiyasi kaminaning "O'zbekcha va hozirgi uyg'urcha orasidagi fonetik o'zgarishlar" (Anqara, 1994, XII+226), ilk doktorlik dissertatsiyasi esa, "O'zbekchada ot so'z turkumi" (Anqara Un., 1999, XXXII+669) mavzusida yoqlangandir. Keyinchalik esa, hozirda bo'limimizda dotsent lavozimida dars berib kelayotgan hamkasbimiz Oyxon Chelikboy "Go'ro'g'lining tug'ilishi dostonining o'zbekchadagi varianti" mavzusida magistratura dissertatsiyasi yoqlaganlar. Rahmatli dissertatsiya rahbarim Irystoy Qo'chqortoyev tayyorlagan mutaxassislarning o'zlari ham endilikda o'zbek tili bo'yicha magistratura va doktorantura talabalarini yetishtirmoqdalar. Jumladan, bizning bo'limda ham quyidagi dissertatsiyalar tayyorlangan va muvaffaqiyatli himoya qilingan:

- Farid Said Mahmud, "Afg'oniston o'zbekchasida qo'shma otlar", Anqara Universiteti, 2012, (Rahbari: Oynur O'z O'zjon).
- Asliddin Nizomiddin, Sabzon qo'shiqlari, Anqara Universiteti, 2012, (Rahbari: Oynur O'z O'zjon).
- Erxon Giray, "Pirimqul Qodirovvning romanlarining tadqiqoti", Anqara Universiteti, 2016, (Rahbari: Oynur O'z O'zjon).
- Yuqoridagi dissertatsiyalardan tashqari bo'limimizda o'zbek tili bilan bog'liq yana bir qancha dissertatsiyalar tayyorlanmoqda.

Bo'limimizda ilk kunlaridanoq talabalarning ilmiy tomondan rivojlanishining shakllanishini qo'llab-quvvatlaydigan maqolalar tayyorlanib kelinmoqda. O'zbek tili grammatikasining bir qator muammolari bilan bog'liq maqolalari Turkiyaning asosiy журнallarida bosildi, milliy va xalqaro simpoziumlarda ma'ruza qilindi. O'zbek adabiyotining ko'zga ko'ringan shaxslarini Turkiya ilm dunyosiga tanitish maqsadida "O'zbek adabiyotidan saylanma I-II-III-IV" maqolalar to'plami bosildi. I. Qo'chqortoyev, Aynur O'z O'zjon "O'zbek adabiyotidan saylanmalar", Turk Dunyosi Til va Adabiyot journali, 2-son, Kuz, 318-349, Anqara, (1996); I. Qo'chqortoyev, Aynur O'z O'zjon "O'zbek adabiyotidan saylanmalar II", Turk Dunyosi Til va Adabiyot journali, 6-son, Kuz, 573-610, Anqara, (1996); I. Qo'chqortoyev, Aynur O'z O'zjon "O'zbek adabiyotidan

saylanmalar III”, Turk Dunyosi Til va Adabiyot jurnali, 8-son, Kuz, 312-359, Anqara, (1999); I. Qo‘chqortoyev, Aynur O‘z O‘zjon “O‘zbek adabiyotidan saylanmalar IV”, Turk Dunyosi Til va Adabiyot jurnali, 10-son, Kuz, 391-437, Anqara, (2000).

Bo‘limimizda shuningdek tarjima asarlari ham bosildi. O‘zbek yozuvchilarining hikoyalari Turkchaga o‘girildi. O‘zbek adabiyotining mashhur yozuvchilaridan biri bo‘lgan Said Ahmadning “Kelinlar qo‘zg‘oloni” asari turk tiliga tarjima qilinib, 1997-yilda bosildi. (Aynur O‘z O‘zjon, I. Qo‘chqortoyev; “Kelinlar qo‘zg‘oloni” (Gelinlerin İsyani), Ecdad yayinlari, Anqara, 1997. Bundan tashqari, o‘zbek xalq ijodining gultoji bo‘lgan Alpomish dostoni 2000-yilda turk tiliga tarjima qilindi. (Aynur O‘z O‘zjon, Shimshak Jonpo‘lat; Anqara, 2000). Bundan tashqari, o‘zbek adabiyotining Abdulla Qahhor, Uyg‘un, Botu, Zulfiya kabi shoir va yozuvchilari bilan bir qatorda 40 ijodkorning hayoti va asarlaridan saylanmalar nashr qilindi. (Turkiyadan tashqa-risidagi Turkiy adabiyotning antologiyasi: o‘zbek adabiyoti, 15-II, Madaniyat Vazirligi, Anqara, 2000).

O‘zbek tili bilan bog‘liq darslar va qilingan tajribalar turli maqolalar va kitoblarda jamlandi. Xalq og‘zaki ijodining eng kichik turlaridan biri bo‘lgan va hayot qomusi deb baholangan madaniyat xazinasi maqollarimiz ham kitob qilib bosildi. 2009-yilida “Xotin-qizlar bilan bog‘liq o‘zbek maqollari” kitobi bosildi. Kitobdan tashqari o‘zbek maqollari bilan bog‘liq o‘ndan ortiq maqolalar chop etildi. O‘zbek maqollaring turkcha nashri chiqish arafasidadir. (Oynur O‘z O‘zjon, 2009.) Xotin-qizlar bilan bog‘liq o‘zbek maqollari, Grafiker NashriyotUyi, Anqara. (ISBN: 978-975-6355-29-9)

Taniqli tilshunos olim Iristoy Qo‘chqortoyev sakkiz yil davomida Anqara Universiteti Til va Tarix-Jo‘rafiya Fakulteti Zamonaviy Turkiy Tillar Bo‘limida ishlab, son-sanoqsiz talabalarga ustozlik qildi. O‘z ilmiy ishlarini ham davom ettirgan ustozimiz, juda ko‘p maqolalar yozdi. Olimning maqolalari shogirdlari tomonidan tavalludining 80-yilida to‘plam sifatida nashr qilindi. (Oynur O‘z O‘zjon, 2018, Professor Iristoy Qo‘chqortoyevning Turkiyadagi ilmiy merosi Turk tili Tashkiloti, Anqara). Bundan tashqari, Zamonaviy Turkologiya Tadqiqotlari (MTAD) jurnalining 2016-yili sentabr soni Iristoy Qo‘chqortoyevning tavalludining 80 yilligiga bag‘ishlandi. Olimning shogirdlari tomonidan tayyorlangan bu sonda o‘zbekcha bilan bog‘liq maqolalar o‘rin oldi. <http://mtad.humanity.ankara.edu.tr/XIII-3Eylul2016.php>.)

Anqara Universiteti Til va Tarix-Jo‘g’rafiya fakulteti Zamonaviy turkiy tillar va adabiyotlari bo‘limi O‘zbekiston bilan ilmiy hamkorlik qilib ilmiy yig‘ilishlar tayyorladilar. 2006-yilda O‘zbekiston Respublikasi Anqara Elchixonasi bilan birqalikda “Buyuk O‘zbek shoiri davlat arbobi Alisher Navoiy tavalludining 565 yilligi” bulardan biridir. Bu ilmiy yig‘ilishda Alisher Navoiyning ijodi har tomonlama qalamga olindi.

2009-yilda Fanlar Akademiyasi qoshidagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik Instituti bilan hamkorlikda “O‘tmishdan bugungacha O‘zbekiston: Temur davri va so‘ngrasi manbalar tadqiqotlari” simpoziumi bo‘lib o‘tdi. Bu simpozium Toshkent shahrining 2200 yilligiga ham bag‘ishlandi. Bu simpoziumda yetuk olimlar qatnashib, Temuriylar davri bo‘yicha qiziqarli ma’ruzalar qilishi.

Anqara Universiteti Til va Tarix-Jo‘g’rafiya fakulteti Zamonaviy turkiy tillar va adabiyotlari bo‘limidagi tajribalar boshqa universitetlarda ham bu bo‘limning ochilishiga tamal toshi bo‘ldi. Anqara universitetidan keyin G‘oziy universiteti Fan-Adabiyot fakulteti ichida 1992-yili Zamonaviy Turkiy tillar va Adabiyotlari bo‘limi ochildi. 1993-1994-o‘quv yilida uchinchisi bo‘lib esa, Mug‘la Sitqi Ko‘chman Universiteti Fan-adabiyot fakultetiga bog‘liq ravishda Zamonaviy turkiy tillar va adabiyotlari bo‘limi ochildi. Bu uch universitetdan tashqari hozirgi vaqtida Turkiyaning bir qancha universitetida ham bunday bo‘lim ochildi. Bu universitetlarda o‘zbek tili darslari 1 yoki 2 semestr davomida o‘qitilmoqda. O‘zbek tili bilan bog‘liq dissertatsiyalar yozilmoqda, ilmiy maqolalar va kitoblar tayyorlanmoqda.

Shu kunlarda ham aloqalarimiz kun sayin ortib, yaxshilanib bormoqda. 2019-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qaroriga muvofiq tashkil qilingan “O'zbekistonga oid chet eldag'i madaniy merosni o'rganish” markazi va O'zbekistondagi Islom Madaniyati Markazi bosh-qaruvchilaridan tashkil topgan ishchi guruh ham universitetimiz, ham fakultetimizga tashrif buyurdi. Fakultet kutubxonasida saqlanayotgan O'zbekistonga tegishli qo'lyozma asarlar bilan tanishib, kutubxona nashriyoti tomonidan bosilgan qo'lyozmalar katalogidan nushalar olishdi. Bundan keyin kutubxona arxiv bilan yaqindan aloqa qilishga kelishib olishdi.

O'zbekistonda o'zbek tiliga berilgan e'tiborning natijasi sifatida chet elda ham o'zbek tilining bir ilm sohasi sifatida universitetlarda o'qitilishi, mutaxassislar va talabalar almashinuvini yo'lga qo'yishni zaruriyat holiga keltirgan. O'zbekistonning yetakchi universitetlari bilan Mavlono Almashinuv Dasturi doirasida bitimlar imzolandi. Bo'limimizda Toshkent Davlat Alisher Navoiy nomidagi O'zbek Tili va Adabiyoti Universiteti bilan bitim tuzildi. 2020 yildan boshlab, talaba va ustozlar o'rtaida almashinuv yo'lga qo'yiladi. Bundan tashqari, hozirda O'zbekistonning boshqa yetakchi universitetlari bilan bu dastur bo'yicha hamkorlik qilish uchun muzokaralar olib borilmoqda. O'ylaymizki, bundan keyingi aloqalarimizda bu universitetlarning soni ham ortib boradi.

Xulosa o'rnida shuni aytmoqchi edimki, o'zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi munosabati bilan sizlarni yana bir bor chin yurakdan qutlayman. Bunday tadbirlar O'zbekiston-Turkiya aloqalarining yana ham rivojlanishiga katta hissa qo'shadi degan umiddaman.

## **O'ZBEK TILI AFFIKS MORFEMALARINING PAYDO BO'LISH YO'LLARI HAQIDA**

*A.Berdialiev,  
Xo'jandDU (Tojikiston) professori, f.f.d.*

**Annotatsiya.** Maqolada so'z morfem tarkibida nolug'aviy ma'no va vazifa bilan qo'llanuvchi lisoniy unsurlar va ulaning so'z morfem tarkibida lug'aviy ma'noga ega bo'lgan unsurlarga “lisoniy hamrohligi” xususida fikr yuritiladi. Affiks deb ataluvchi bunday lisoniy birliklarning paydo bo'lish yo'llari haqida ma'lumot beriladi.

**Tayanch so'z va iboralar.** Affiks, morfema, o'zak, so'z yasash, shakl yasash, tizim, affikslar tizimi, so'z yasovchi affikslar, shakl yasovchi affikslar, affiksoid va b.

Affiks morfema – o'zakka nisbatan ikkilamchi lisoniy birlik. Shu bilan bir qatorda, u o'zak ma'nosining lisoniy mohiyatini belgilaydi: a) o'zak ma'nosini zamirida yangi ma'noli lug'aviy birlik yasaydi; b) o'zakka har xil grammatik “tus” beradi; v) o'zak ma'nosidan anglashilgan tu-shunchaga so'zlovchining pragmatik xarakterdagi turlicha munosabatini bildiradi<sup>22</sup>. Shu jihatdan affiks morfemalarni kiyimga o'xshatish mumkin: jussa (inson tanasi) bo'lmas ekan, kiyimga ehtiyoj sezilmaydi. Shaxsning jinsi, erkak yoki ayolligi, tashqi ko'rinishi uning kiyimi orqali bilinadi. Kiyimning turiga qarab, yilning qaysi mavsumi ekanligi seziladi va b. Ijtimoiy hayotda kiyim inson uchun qanday ahamiyatli va zarur bo'lsa, affiks morfemalar ham o'zak morfema uchun shu darajada zarur va ahamiyatlidir.

Mazkur maqolada lisoniy ahamiyati o'zak morfemalardan kam sanalmaydigan affiks morfemalar tizimining shakllanishi, aniqrog'i, affiks morfemalarning vujudga kelish yo'llari haqida fikr yuritish maqsad etilgan.

<sup>22</sup> Ўзбек тили грамматикаси. 1-жилд. – Тошкент, 1975; Ҳожиев А. Ҳозирги ўзбек тилида сўз ясалиши. – Тошкент, 1978; Ҳожиев А. Ҳозирги ўзбек тилида форма ясалиши. – Т., 1979; Ўзбек тили морфем лугати. – Тошкент, 1977 ва б.

Tabiiy va ijtimoiy hodisalar borki, ular qaysidir yo'llar bilan nimadandir paydo bo'ladi. Fanga tegishli hodisalar ham bu umumiy qoidadan chetda emas, albatta. O'zak morfemalarning paydo bo'lishi aniq. Ular so'zlardan paydo bo'ladi. So'zning lisoniy xususiyatlaridan biri – bu ularning o'zak maqomida ham qo'llana olishidir. Biroq affikslarning paydo bo'lishi unday emas.

Affiks morfemalarning vujudga kelish yo'llari, so'zlarniga qaraganda, ko'p va rang-ba-rang<sup>23</sup>. Xususan, o'zbek tilida affiks morfemalar quyidagi yo'llar bilan paydo bo'lgan.

**I. Mustaqil ma'noli so'zlardan paydo bo'ladi.** Tildagi lug'aviy birliklarning ayrimlari, vaqtlar o'tishi bilan, ma'no jihatdan o'zgaradi. Bunga ularning fonetik jihatdan sezilarli darajada o'zgarishi sabab bo'ladi. Bora-bora bunday so'zlar affiks qiyofasini oladi.

Bunday affikslarga quyidagilar kiradi:

**-m, -miz:** ona-m//ona-miz, oila-m//oila-miz, dala-m//dala-miz. Bu affikslar otlarning birinchi shaxs egalik ma'nosining birlik (**-m**) va ko'plik (**-miz**) shakllarini hosil qiladi. Ularning **-m** shakli **MEN**, **-miz** shakli **BIZ** olmoshlarining affikslashgan muqobillaridir.

**-M, -miz** qo'shimchalari undosh bilan tugagan so'zlarga **-I-** interfaksi yordamida birikadi: **kitob I m // kitob I miz, uy I m // uy I miz, maktab I m // maktab I miz, ish I m // ish I miz** va b.

**- jak:** keljak, borajak. Bu affiks "vaqt" ma'nosidagi "chog" (**kelar chog i, borar chog i**) so'zining qo'shimchaga aylangan shakli;

**- digan:** boradigan, keladigan, o'qiydigan. Bu morfema "turmoq" so'zining (borib turgan, kelib turgan, o'qib turgan) affiksga aylangan shakli;

**- iz:** o'qingiz, boringiz, kelingiz. Bu affiks fe'llarning 2-shaxs ko'pligi shakli bo'lib, "siz" olmoshining qo'shimchaga aylangan muqobilidir: **o'qying siz (o'qingiz), boring siz (boringiz), keling siz (kelingiz)**;

Fe'llarlarning 1- va 2-shaxs-son qo'shimchalari **-man, -san, -miz, -siz** ham **men, sen, biz, siz** kishilik olmoshlarining affikslarga aylangan muqobillaridir: **o'qiymen, o'qiysan, boraman, bora-san; o'qiymiz, o'qiysiz, boramiz, borasiz** va b.

**II. Affiks morfemalarning o'zidan paydo bo'ladi.** Affiks morfemalar tarkibidagi tovushlardan biri boshqa tovush bilan almashinadi va natijada shu affiksga vazifadosh boshqa affiks vujudga keladi:

**-ch 1:** *qirg ich, savagich.* Bu affiks kichraytish ma'nosidagi so'z yasovchi -cha qo'shimchadan hosil bo'lgan (uning ikkinchi tovushi "**a**" tushib qolgan).

**-ch 2:** *quvonch, sevinch, ishonch* va b. Bu affiks yuqoridagi "**-ch 1**" affiksiga omonim bo'lib, fe'llarning harakat nomi (infinitiv) shaklini hosil qiluvchi "**-sh/-ish**" qo'shimchasining fonetik o'zgarib, "**-ch**" (*ish-ch*)ga aylanishi natijasida vujudga kelgan: *tinish – tinch, quvonish – quvonch, ishonish – ishonch, sevinish – sevinch, tayanish – tayanch, suyanish – suyanch, sog'inish – sog'inch*.

**-qin:** *toshqin, bosqin.* Bu affiks *qirg in, so lg in, turg in* so'zleri tarkibida keluvchi **-g in, -gin** qo'shimchalarinin tovush o'zgarishidan hosil bo'lgan.

**III. Affikslarning o'zaro qo'shilishidan hosil bo'ladi:**

**-dosh:** *yo ldosh, maslakdosh, fikrdosh.* Bu affiks fe'l yasovchi **-la** fe'lning birgalik nisbati yasovchi **-sh (-la+sh)** affikslarning qo'shilishidan yasalgan;

<sup>23</sup> Бердиалиев А. Словообразующие сложные аффиксы в узбекском языке. Автореф.канд. дисс.... – Ташкент, 1970. – С. 24; Бердиалиев А. Қўшма аффиксларнинг пайдо бўлиш йўллари ҳақида//Ўзбек тили ва адабиёти. 1969. №6; Бердиалиев А. – чилик аффикси ҳақида// С.М.Киров номидаги Ленинобод давлат педагогика институти илмий асарлари. – Ленинобод, 1970; Бердиалиев А. Фонетик ўзгаришлар таъсирида пайдо бўлган қўшма аффикслар//Ўзбек тили ва адабиёти. 1970. №3; Мирзакулов Т.У. Сложные формообразующие аффиксы в узбекском языке. Автореф. канд. дисс. – Ташкент, 1980; Тоғиев Ё. Ўзбек тили морфемикаси. – Тошкент, 1992; Тоғиев Ё., Назарова Н., Тоғиева Г. Ўзбек тилидаги эргаш морфемаларнинг семантик-стилистик хусусиятлари (Аффиксал маънодошли). – Тошкент, 2012; Жўрабоева М. Ўзбек тилида аффиксал омонимия. – Тошкент, 1975.

**-lan, -lash, -lat:** *shakllan(moq), qurollan(moq), Shayxlan(moq); birlash(moq), bellash(moq), suhabatlash(moq); shug ullan(moq)* va b. Bu affikslar fe'l yasovchi “**-la**”ga nisbat yasovchi **-n, -sh, -t** qo'shimchalarining qo'shilishidan paydo bo'lgan;

**-sira:** *suvsira(moq), begonasira(moq)*. Bu morfema fe'l yasovchi **-si** va **-ra** affikslarining qo'shilishidan hosil bo'lgan va b.;

**-chilik:** *qassobchilik, tirikchilik, sherikchilik, qishloqchilik, dehqonchilik* va b. Bu murakkab affiks ot yasovchi **-chi** va **-lik** qo'shimchalarining birikuvidan hosil bo'lgan;

**-garchilik:** *insongarchilik, isrofgarchilik, odamgarchilik, yurtgarchilik* va b. Bu murakkab affiks uchta ot yasovchi qo'shimchaning birikuvidan tashkil topgan: **-gar, -chi, -lik**.

**-dorchilik:** *mehmondorchilik, mezbondorchilik, mulkdorchilik* va b. Bu murakkab qo'shimcha ham uch ot yasovchi affiksning qo'shilishidan tashkil topgan: **-dor, -chi, -lik**.

**IV. Boshqa tillardan o'zlashadi.** Fors-tojik tilidan o'zlashgan **ser-** (*sersuv, serish*), **-go ý** (*maslahatgo ý*), **-kash** (*mehnattash*), **-soz** (*uysoz*), **-do ž** (*etikdo ž*), **no-** (*nojins, nohaq*), **be-** (*beish, bemaza*), **-xo r** (*sutxo r, o txo r*) va b.

**V. Ayrim so'zlarning qo'shimcha vazifasiga ko'chishi yo'li bilan affiks morfemalar vujudga keladi.** Bunday unsurlar so'z bilan qo'shimcha oralig'ida “qalqib” turadi: mustaqil so'z sifatida ham, affiks sifatida ham ishlatalaveradi. Masalan. 1. *Opam shaharda besh xonadan iborat uyda yashaydi* 2. *Bugun dadam ishxonasida navbatchilik qilarkan*. Keltirilgan bu ikki gapning birinchisida “*xona*” lug'aviy ma'nosini saqlab, mustaqil so'z vazifasida ishlatalgan. Ikkinchi gapda esa, u “*ishxona*” so'zining tarkibida qo'shimcha (affiks) vazifasida kelgan.

Ham so'z va ham qo'shimcha vazifalarida kela oladigan bunday lisoniy birliklarni odatdag'i (rasmiy) affikslardan farqlagan holda, **affiksoid** deyiladi.

Affiksoidlarning ba'zilari boshqa tillardan ham o'zlashadi. Masalan, so'z bilan qo'shimcha oralig'ida qalqib yuruvchi **xon, jon, zoda, xo ja, noma, xona** va b. o'zbek tiliga tojik-fors tilidan o'zlashgan. “Niso” (arab tilida “ayol” ma'nosini bildirgan) so'z-affiksi esa, arab tilidan o'tgan. Ham mustaqil so'z, ham affiks xarakteridagi lisoniy unsurlarga (affiksoidlarga) quyidagilar kirdi:

**-oy:** *Sanamoy, Qo ýsinoy, Tursunoy* va b.;

**-bibi:** *Rohatbibi, Sanambibi, Oyshabibi* va b.;

**-boy:** *Mingboy, Sultonboy, Karimboy, Tojiboy* va b.;

**-xona:** *ishxona, darsxona, molxona, o tinxona, xashakxona*;

**-poya:** *sholipoya, g o zapoya, arpapoya, makkapoya, jo xoripoya* va b.;

**-jon:** *Ahmadjon, Rustamjon, Latifjon*;

**-noma:** *salomnoma, rahmatnoma, rag batnoma, ishonchnoma*;

**-bek:** *Salimbek, Jasurbek, Shodmonbek* va b.;

**-xo ja:** *Umarxo ja, Sultonxo ja, Ulug xo ja* va b.;

**-xon:** *Dilbarxon, Xayrixon, Toshxon, Jamilaxon, To raxon, Jo raxon*;

**-poya:** *sholipoya, bedapoya, arpapoya, g o zapoya*;

**-zoda:** *Ahmadzoda, Rasulzoda, Anvarzoda, Sobirzoda* va b.;

**-niso:** *Qumriniso, Husniniso, Oyniso, Huriniso, Nuriniso, Zulfiniso, Noriniso*<sup>24</sup> va b. .

So'z va affiks oralig'ida ish ko'rvuchi lisoniy birliklar o'zbek tilida anchagina. Ularning amali turli xil lisoniy shart-sharoitlar bilan bunday lisoniy shart-sharoitlarni o'rganish va tasriflash alohida mustaqil tadqiqot obyektiidir.

<sup>24</sup> Бердиалиев А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Морфемика. Сўз ясалиши. Морфонология. Университет ва педагогика олий ўқув юртлари филология факультети талабалари учун ўқув қўлланма. – Хужанд, 2015. 24-27 б.

## **Adabiyotlar**

1. Berdialiyev A. Qo'shma affikslarning paydo bo'lish yo'llari haqida // ?zbek tili va adabiyoti. 1969. №6.
2. Berdialiyev A. Slovoobrazuyushie slojnie affiksi v uzbekskom yazike. Avtoref. kand. diss.... – Tashkent, 1970. – S. 24.
3. Berdialiyev A. – chilik affiksi haqida // S.M.Kirov nomidagi Leninobod davlat pedagogika instituti ilmiy asarlari. – Leninobod, 1970.
4. Berdialiyev A. Fonetik o'zgarishlar ta'sirida paydo bo'lgan qo'shma affikslar // O'zbek tili va adabiyoti. №3. 1970.
5. Berdialiyev A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Morfemika. So'z yasalishi. Morfonologiya. – Xujand, 2015.
6. Jo'rabyeva M. O'zbek tilida affiksal omonimiya. –Toshkent, 1975.
7. Mirzakulov T.U. Slojnie formoobrazuyushie affiksi v uzbekskom yazike. Avtoref. kand. diss.... – Tashkent, 1980.
8. Tojiyev Y. O'zbek tili morfemikasi. –Toshkent, 1992.
9. Tojiyev Y., Nazarova N., Tojieva G. O'zbek tilida ergash morfemalarning semantik-stilistik xususiyatlari (Affiksal ma'nodoshlik). – T. 2012.
10. O'zbek tili grammatikasi. 1-jild. – Toshkent, 1975.
11. O'zbek tili morfem lug'ati. – Toshkent, 1977.
12. Hojiyev A. Hozirgi o'zbek tilida so'z yasalishi. – Toshkent, 1978.
13. Hojiyev A. Hozirgi o'zbek tilida forma yasalishi. – Toshkent, 1979.

## **SONLARNING RIVOJLANISHIGA DOIR BA'ZI NAZARIY QARASHLAR XUSUSIDA (HIND-ORIY TILLARIGA OID SONLAR MISOLIDA)**

*S.Nurmatov,  
ToshDSHU dotsenti, f.f.n.*

Mazkur maqolada hind-oriy tillaridagi sonlarga xos leksemalarning rivojlanishiga doir ilmiy-nazariy qarashlar tahlil qilinadi. Tilshunos oilmlarning ilmiy-nazariy qarashlariga muvofiq ularning o'ziga xos lisoniy xususiyatlari atroflicha o'rganiladi.

Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, sonlarga xos leksik birliklar har bir tilda o'ziga xos ravishda shakllangan va rivojlangan. Olimlar sonlarning o'ziga xos jihatlarini uzoq yillardan beri o'rganib kelmoqdalar. Lekin, u barcha tillarda bir xil ishlangan emas. Hatto, u ba'zi tillarda umuman tadqiq etilmagan. Tilshunos olim A.E.Sprunning ta'kidlashicha, sonning tuzilishi hamma tillarda bir xil emas. Son boshqa so'z turkumlariga nisbatan turg'un, o'ziga xos xususiyatga ega. Buni u shunday ta'kidlaydi: "Son so'z turkumining voqelanishi har bir tilning tabiatidan kelib chiqadi"<sup>25</sup>. Shunga ko'ra mazkur maqolada hind-oriy tillariga xos bo'lgan ba'zi tillardagi sonlarning rivojlanishiga doir nazariy qarashlar tahlili amalga oshiriladi.

Hind tilshunos olimlarining ilmiy-nazariy qarashlariga ko'ra hind-oriy tillaridagi sonlarga xos leksemalar qariyb uch ming yildan ortiq davrdan beri shakllanib rivojlanib kelmoqda. Hozirda Janubiy Osiyo mintaqasida keng tarqalgan hindiy, urdu, bengaliy, nepaliy, panjobiy, marathiyl kabi 20 ga yaqin tillardagi sonlarga xos leksik birliklarning barchasi qadimgi hind-oriy tillaridagi sanskrit tilidan ba'zi fonetik o'zgarishlarga uchragan holda shakllanib rivoshlanib

<sup>25</sup> Супрун А.Е. Числительное // Лингвистический энциклопедический словарь. - М.: Научное издательство Большая Российская энциклопедия, 1992. -С. 584.

kelgan. Jumladan bu haqida tilshunos olim Dhirendra Varma shunday deydi: “Yangi hind-oriy tillaridagi sonlarga oid leksemalar qadimgi hind-oriy tillariga xos bo’lgan sanskrit tilidan shakllanib rivoj topa boshlagan. Sonlarga oid leksemalar o’rta hind-oriy tillariga oid paliy, prakrit va apabharanshalar ta’siri ostida rivoj topgan”<sup>26</sup>. Masalan, hindiy tilidagi birliklarga oid *ଦେବୀ do* “ikki” ma’nosini anglatuvchi sanoq soni sanskrit tilidagi *ଦେବୀ dva* shaklidan rivoj topgan. Boshqa yangi hind-oriy tillarida, jumladan bengal tilida *ଦୁଇ dui*, marathiyl tilida *दोन don* kabi shakllarga ega. Demak, yangi hind-oriy tillariga kelib ularning rivojlanishida morfonologik hodisasi yuz bergen.

Hind-oriy tillariga xos bo’lgan bengal tilidagi sonlarning rivojlanishiga doir nazariy qarashlar tilshunos olim Suniti Kumar Chatterjiy asarlarida ham batafsil yoritilgan. Jumladan, u birliklarga oid “ikki” sanoq soni haqida shunday deydi: “Ikki”, ya’ni *ଦୁଇ dui* soni o’rta hind-oriy tillaridagi *ଦେବୀ dve* shakli orqali rivojlangan”<sup>27</sup>. Olimning fikricha qadimgi hind-oriy tillariga xos *ଦେବୀ dve* neytral shakli hosil bo’lgan va bu shakl g’arbiy Ashoka yozuvlarida qo’llanilgan. *ଦୁଇ dui* shakli esa, prachya va magadhiyning bengal tilida saqlanib qolgan shakli hisoblanadi. E’tiborli jihat shundaki, bunday shakl magadhiy tilining boshqa ko’rinishlarida ham uchraydi. Yangi hind-oriy tillarining boshqa ko’rinishlari sharqiy shevadan farqli ravishda shakllangan. Xususan, bu shakl g’arbiy hindiy va panjobiyda *ଦେବୀ do*, marathyida *दोन don* ko’rinishida rivojlangan<sup>28</sup>.

Ba’zi son turlari yasalganda, *ଦେବୀ do* shakli o’z ko’rinishini o’zgartiradi. Masalan, “ikkinch” tartib sonida *ଦେବୀ do* o’z shaklini *ଦୂର୍ଦ୍ଵୀ duu* ga o’zgartiradi, *ଦୂର୍ଦ୍ଵାରା dosraa* emas, *ଦୂର୍ଦ୍ଵାରା duusraa* shakliga ega bo’ladi. *ଦେବୀ do* “ikki” sanoq sonidan qosh’ma so’zlar yasalganda ham *ଦେବୀ do* o’z ko’rinishini ba’zi hollarda o’zgartirsa, ba’zi hollarda o’z shaklini saqlab qoladi. Jumladan, *ଦୋତଳା dotalla* “икки қаватли” (Bu yerda *ଦେବୀ do* “икки”, *ତଳା tallaa* esa “қават” ma’nosini anglatmoqda. Ushbu misolda *ଦେବୀ do* o’z shaklini saqlab qolgan). *ଦୁଧାର dodhar* “икки тифли, ики томони ўткир” (Bu yerda *ଦୂର୍ଦ୍ଵୀ du* “икки”, *ଧାର dhaar* “тиф, ўткир уч” ma’nolariga ega. Mazkur misolda *ଦେବୀ do* o’z shaklini *ଦୂର୍ଦ୍ଵୀ du* ga o’zgartirgan).

O’nliklarga oid sonlarning rivojlanishiga doir olimlarning turli qarashlari ham o’rganib chiqildi. Ualarning nazariyalarida bir-biriga hamohang va farqli jihatlar borligi ham kuzatiladi. Jumladan, yirik tilshunos olim Bholatath Tivariyning fikriga ko’ra *ଆସିଏସ୍ସୀ assii* “sakson” ma’nosini anglatuvchi leksema, vedik sanskrit tilida *ଆଶିଇଟି ashiti*, sanskrit tilida ham *ଆଶିଇଟି sashiiti*, o’rta hind-oriy tillariga xos bo’lgan paliy tilida *ଆସିଇଟି asiiti*, prakrit tilida *ଆସିଇସ୍ୟେ asiii*, apabharansha tilida *ଆସିଏସ୍ସୀ asii*, *ଆସିଏସ୍ସୀ (assii)*, yangi hind-oriy tillariga xos bo’lgan hindiy tilida *ଆସିଏସ୍ସୀ assii* shaklida rivojlangan<sup>29</sup>. Dhirendra Varma *ଆସିଏସ୍ସୀ assii* “sakson” sonidagi *ସ (s)* tovushining ikki marta qaytarilish hodisasini, panjob tilining ta’siri natijasidadir, deydi<sup>30</sup>.

<sup>26</sup> ଧିରେନ୍ଦ୍ର ଚର୍ମା -ହିନ୍ଦୀ ଭାଷା କା ବିକାସ। -ଦିଲ୍ଲୀ, 1962. -ପୃଷ୍ଠ 266.

<sup>27</sup> Chatterji S.K. The original and development of Bengali Language. Volume two. -Culkutta, 1975. -P. 793.

<sup>28</sup> ଉଦ୍‌ୟନରାଯାନ ତିବାରୀ - ହିନ୍ଦୀ ଭାଷା କା ଉଦ୍‌ଗମ ଓ ବିକାସ। -ପ୍ରଯାଗ, 1950. -ପୃଷ୍ଠ 214.

<sup>29</sup> ଭୋଲାନାଥ ତିବାରୀ - ହିନ୍ଦୀ ଭାଷା। -ଇଲାହାବାଦ, 1972. -ପୃଷ୍ଠ 595.

<sup>30</sup> ଧିରେନ୍ଦ୍ର ଚର୍ମା -ହିନ୍ଦୀ ଭାଷା କା ବିକାସ। -ଦିଲ୍ଲୀ, 1962. -ପୃଷ୍ଠ 271.

Yuqoridagi misollardan ko'rindiki, **आसी** *assii* shakli apabharansha tilida ham o'z aksini topgan. Fikrimizcha, ushbu sonning bunday holatda saqlanishiga haqiqatan ham panjobchaning ta'siri kuchli bo'lgan. E'tiborli jihat shundaki, boshqa sonlar bilan birikkanda **आसी** *aasii* shakli qo'shiladi. Jumladan, **बयासी** *bayaasii* "sakson ikki", **तिरासी** *tiraasii* "sakson uch", **पचासी** *pachaasii* "sakson besh", **छियासी** *chiyaasii* "sakson olti" va hokazo. Bu sonlarga xos leksemalarning barchasida **आसी** *aasii* sakson ma'nosini anglatib kelmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi umumiylar xulosalarni keltirishimiz mumkin.

Hind tilshunos olimlari hind-oriy tillariga oid sonlarning rivojlanishiga doir fikr-mulohazalarini berishlari bilan birgalikda, ularning shakllanish bosqichlariga ham alohida e'tibor qaratgan.

Tilshunos olim S.K.Chatterjiy bengal tili nuqtayi nazaridan kelib chiqib hind-oriy tillaridagi sonlarning rivojlanishiga doir o'z ilmiy-nazariy qarashlarini ko'rsatib o'tgan. Boshqa tilshunos olimlarning fikrlaridan farqli ravishda, u sonlardagi fonetik o'zgarishlarni ham atroficha ochib bergen. B.Tivariy, U.Tivariy, D.Varma kabi tilshunos olimlar esa sonlarning shakllanish bosqichlariga alohida e'tibor qaratishlik bilan bir qatorda, sonlarning ma'no turlariga ham o'rin ajratgan.

Tilshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlariga muvofiq sonlarga xos leksemalar qadimgi hind-oriy tillaridan to yangi hind-oriy tillarigacha bo'lgan davrda rivojlanishlari jarayonida ularda morfonologik hodisasi yuz bergen.

Sonlarga xos ba'zi leksemalardagi tovushlar o'zgarishi natijasida qadimgi til qoldiqlari nisbatan kam saqlangan. Qadimgi hind-oriy tillariga xos sanskrit tilidagi shakllar o'zgarishi natijasida, ulardagi ba'zi tovushlar yangi hind-oriy tillari davriga kelib o'z xusussiyatini yo'qotgan.

### **Adabiyotlar**

1. Супрун А.Е. Числительное // Лингвистический энциклопедический словарь. -М.: Научное издательство Большая Российская энциклопедия, 1992. -Б. 582-584.
2. Chatterji S.K. The original and development of Bengali Language. Volume two. -Culkutta, 1975.
3. उदयनरायान तिवारी - हिन्दी भाषा का उद्गम और विकास। -प्रयाग, 1950.
4. धीरेंद्र वर्मा -हिन्दी भाषा का विकास। -दिल्ली, 1962.
5. भोलानाथ तिवारी - हिन्दी भाषा। -इलाहाबाद, 1972.
6. हरदेव बहरी। भाषा का विकास। -दिल्ली, 1992.

## **O'ZBEK TERMINOLOGIYASI MASALALARI**

*M.Ahmedova, TATU dotsenti, p.f.n.*

Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy hamda ilmiy-texnik tub o'zgarishlar davrida yangi fanlar va tushunchalar yuzaga kelmoqda. Jumladan, o'zbek tilida ham yangi terminlar paydo bo'lmoqda, ilgaridan ishlatib kelingan qator leksemalar yangi ma'nolar kasb etmoqda. Shu boisdan, leksikologiya, xususan, terminologiya oldida qator muhim masalalarni yechish vazifasi turibdi.

Bugungi kunda terminologyaning amaliy va nazariy masalalarini yanada chuqurroq o'rganish, terminlar yaratish va ularni qo'llashni til qonuniyatlari asosida tartibga solish davlat aha-

miyatiga molik muammoga aylandi. Shuning uchun ona tilimizning turli terminologik tizimlarini yanada teranroq tadqiq etish, ularni terminologiyaning xilma-xil masalalari bo'yicha atroficha tadqiq qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Respublikamiz mustaqil deb e'lon qilingandan keyin, bu sohadagi ahvol butunlay o'zgardi. Tashqi iqtisodiy aloqalar yanada rivojlanib ketdi. Dunyoning juda ko'p mamlakatlari bilan xilma-xil aloqalarga keng yo'l ochildi. Bu omillar o'zbek tilida yangi-yangi terminlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

Shu boisdan, fan va texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida sohaviy terminlarni tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaliy, ayniqsa, nazariy masalalarni hal etish uchun fanning har bir sohasi terminlari tizimini, ularning yasalish qonunlarini, shakllanish manbalarini, umumtilda qo'llanish doirasini, mazkur tizimda ro'y berayotgan kamchiliklarni va ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlash kabi qator masalalarni o'rganish zaruriyati paydo bo'ldi.

Hozirgi bosqichda, ya'ni yuqori saviyadagi ilmiy-texnik inqilob davrida ishlab chiqarish, fan va texnikaning barcha sohalarida yangidan-yangi narsa, predmet va tushunchalar paydo bo'la boshladi. Bu hol til lug'at tarkibining salmoqli ravishda boyishiga olib kelmoqda. Binobarin, termin muammosi hozirgi leksikologiyaning asosiy masalalaridan biri bo'lib qoldi.

"Terminlar paydo bo'lib qolmaydi", aksincha, ularning zaruriyati anglangan holda "o'ylab topiladi", "ijod qilinadi".

Yuqorida terminshunoslarning terminning asosiy vazifasi va xususiyati haqidagi, ya'ni terminlarning nominativligi yoki definitivligi haqidagi fikrini keltirdik. Terminologik birikmalarning ko'p leksemaliligi, ya'ni ular komponentlarining soni nechtagacha bo'lishi keyingi yillarda terminshunoslarning diqqat-e'tiborini jalb etib kelmoqda. Haqiqatan ham keyingi yillarda miqdoran ortib borayotgan ko'p komponentli birikma terminlar tushuncha mazmunini to'laroq ifodalashga xizmat qilsa-da, ularni amalda qo'llash va esda saqlab qolish ancha noqulaydir. Aslini olganda, bunday terminlar ikki, nari borsa uch, to'rt komponentdan iborat bo'lishi lozimki, natijada, birikma terminlarning komponentlari, tegishli belgilarni to'laroq aks ettirish maqsadida, aniqlovchilar, sifatdoshli o'ramlar qo'shish orqali hosil qilinishi lozim.

Har bir sohaning, tarmoqning termini borki, u o'sha soha, tarmoq doirasida qo'llanadi, aniqroq qilib aytganda, kasb-hunar egasining nutqini shakllantiradi, o'zaro nutqiy muomala uchun shart-sharoit yaratadi.

Bu o'rinda shuni qayd etish lozimki, muayyan kasb-hunar yoxud mutaxassislikka ega bo'lgan kishilar ko'pincha u yoki bu sohaning o'ziga xos spetsifik terminlari bilan ish ko'radi.

O'zbek tilshunoslida terminlarni o'rganish, ularni tartibga solish, terminologik lug'atlar tuzish kabi qator chora-tadbirlar XX asrning 20-yillari o'rtalaridan boshlangan.

Zero, ayrim leksikografik ishlarni hisoblamaganda, o'zbek tilini ilmiy asosda o'rganish, hozirgi o'zbek tilshunoslarning fan sifatida yuzaga kelishi ham shu davrdan boshlangan. Albatta, terminlarni o'rganish ehtiyoji o'z-o'zidan kelib chiqqan emas, barcha bilim sohalari bo'yicha o'zbek tilida ta'lif berishni yo'lga qo'yish, bilim sohalarining sezilarli darajada rivojlana borishi, ilmiy tafakkur doirasining kengayishi, sobiq ittifoqdagi milliy tillar, jumladan, o'zbek tili lug'at tarkibining boyib borishi, binobarin, tilda terminlarning ko'payib borishi ularni (terminlarni) har tomonlama o'rganish va tartibga keltirishga turtki bo'lgan edi.

O'zbek tilshunoslida turli fan sohalariga oid terminologik tizimlarni lingvistik jihatdan har tomonlama ham ilmiy, ham amaliy o'rganish, asosan, 1950-yillardan keyin izchilroq tus ola boshladi; termin va terminologiyaning nazariy masalalariga bag'ishlangan maqolalar, ayrim fan sohalarini terminlarini lingvistik jihatdan tahlil etishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari yuzaga keldi, mukammal terminologik lug'atlar yaratila boshlandi.

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" lug'ati, inqilobgacha yaratilgan bir qancha lug'atlar, o'zbek adabiyoti vakillari, xususan, Alisher Navoiy, Bobur va boshqalarning badiiy, ilmiy-badiiy asarlari o'zbek terminologiyasining rivojlanishida o'ziga xos o'rinn tutgan manbalar hisoblanadi.

Bugungi kunda terminologiyaning amaliy va nazariy jihatlarini yanada chuqurroq o'rganish, termin qo'llashni tartibga solish davlat ahamiyatidagi masalaga aylandi.

O'zbekiston Respublikasining Davlat tili haqidagi Qonuni qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Respublika terminologiya qo'mitasining ish boshlashi, terminologiya masalalariga bag'ishlab Respublika miqyosida bir necha ilmiy-amaliy, ilmiy-nazariy konferensiyalarning o'tkazilganligi fikrimizning yaqqol dalilidir.

### **Adabiyotlar**

1. Husanov N., Mirahmedova Z. Mutaxassislik tili. T.: TMI, 2003.
2. Xolmonova Z. Adabiy tildan ma'ruzalar umumlashmasi. - T.: O'zbekiston, 2013, 250 b.
3. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari, - T.: Fan, 1992, 254 b.
4. Ahmedova M.X, Gayubova K.A. O'zbek tili. - T.: TATU-Aloqachi, 2019.

## **MORFOANALIZATOR TUZISHDA AXBOROT BAZASI VA TAHLIL DASTURLARINING AMALIY AHAMIYATI**

*B.Mengliyev,  
ToshDO TAU professori, f.f.d.,  
Sh.Xamroyeva, doktorant, f.f.n.*

*Annotatsiya.* Maqolada ma'lumotni axborot-qidiruv tizimida qayta ishslashda lingvistik ta'minotning tutgan o'rni, ularning amalda qo'llanishi masalasi muhokama qilingan. Shuningdek, kompyuterda tabiiy tilga ishlov berishi lingvistik ta'minotning ahamiyatiga asoslangan. Lingvistik ta'minotning asosini tashkil etuvchi axborot bazasi va tahlil dasturining ahamiyati ko'rsatib berilgan.

*Kalit so'zlar:* lingvistik ta'minot, kompyuter lingvistikasi, morfologik analiz, axborot-qidiruv tizimi, axborot bazasi.

*KIRISH.* Kompyuter lingvistikasida ma'lumotlarni axborot-qidiruv tizimida qayta ishslash masalasi asosiy o'rinni egallaydi. Bu mashina tarjimasi, morfologik analizator, nutq sintezatori, til korpusi kabi barcha yo'nalishlar uchun bir xilda ahamiyatli. Ushbu yo'nalishlar barchasi lingvistik va dasturiy ta'minotga ehtiyoj sezadi.

*ASOSIY QISM.* To'liq matnli korpuslar bilan ishslash uchun "Korpusni boshqarish tizimi" ishlab chiqilgan bo'lib, olimlar "DiktUM-1" dasturiy vositasini korpus lingvistikasi vositalari majmui sifatida baholashadi [1;4]. Korpus birliklarini tahlil qilish va boshqarish "DiktUM-1" tizimi bilan amalgalashiriladi. Uning asosiy afzalligi matn va lug'atlardan olingan ma'lumotni manipulyasiya qiladi, tahlil o'tkazadi, leksikografik ishlovni amalgalashiradi. Tizim avtomatik ravishda matn/birlikni material manbai, uning hajmi, janri, nashr sanasini marker bilan belgilaydi. So'z shaklni grammatik, leksik, morfem va boshqa kategoriylar asosida markerlaydi.

Tabiiy tilga ishlov berishda avtomatik markerlash/tahlil qilish dasturlarining amaliy ahamiyati keng. Masalan, shunday tizim yordamida "Gazeta matnlari korpusi" materiallari asosida gazeta matnlari janriy tasnifi tamoyillari (jumladan, turli publisistik janrlarning tipik xarak-

teristikasi) ishlab chiqiladi; shu asosda janriy tasnif amalga oshiriladi. Bu esa ma'lum matn, turli janr, manbalarning taqsimlanishini ko'rsatuvchi ma'lum bir profilni topishga, matnda birlikni qo'llashning o'ziga xosligini kuzatishga sharoit yaratadi. Bunday amaliyotning o'tkazilishi avtomatik ravishda so'z shakl, lemma, asos va morfem modellarning alfavitli-chastotali, chastotali-taqsimlovchi (rus. *chastotno-raspredelitelnye*) lug'atlarning shakllanishiga olib keladi [1;6]. SHuningdek, DikTUM-1 tizimining ichki sistemalari ham mavjud:

1. *Morfo-Analizator* leksemalarni morfologik tahlil qilishga moslashgan.
2. *SegmMorf* so'zshakllarni morfologik tahlil qiladi.
3. *Lintez* matn birliklarini semantik markirovka qiladi; matnning mazmuniy tahlilini amalga oshiradi.
4. *PsiAn* semantik-psixologik tahlil qiladi.
5. *Lintez* kalit so'z va birikmalarni tanlaydi, avtomatik tarzda matnning tezaurusini shakllantiradi.
6. *Janr* kvantativ-stistik tahlil olib boradi.

*Grammatik kategoriylar to'liq tavsifining morfoanalizator tuzishdagi ahamiyati.* “RCO Morphology” morfologik analizatori tuzuvchisi A.Ermakov morfologik analizatorning ahamiyati haqida shunday fikrlarni keltiradi [2; 4]: “Zamonaviy dunyo haddan tashqari ko'p ma'lumotlar bilan to'lmoqda. Shuning uchun so'zlarni qayta ishlash masalasi, ayniqsa, internet materiallarining doimiy o'sishini hisobga olsak, juda dolzarb bo'lib qolmoqda”. A.Ermakov morfologik analizatorning amaliy ahamiyati sifatida axborot-qidiruv tizimlarida so'z shaklning aniq analiz-sintezini amalga oshirish ekanligini ta'kidlaydi. “RCO Morphology” morfologik analizatorida analizator joylashgan internet sahifasida [3] turli tahlillarni amalga oshirish mumkin. Bunda amaliy ahamiyatga erishish maqsadida “RCO Morphology” analizatorida algoritmlarning yana bir toifasi ishlab chiqilgan, kutubxonaga kiritilgan, u so'z qidiruvini shakllantirish va kiritish qoidalariga asoslangan; so'zlarni juda yuqori darajada ishonchilik bilan tahlil qilish, mavjud algoritmlarni mukammallashtirishni ta'minlaydi, bu esa matndagi so'z tabiatini haqida turli farazlarni yaratishga imkon beradi. Ikki bosqichda algoritmlarni takomillashtirish bilan bir qatorda, morfologik lug'atni doimiy ravishda tuzatish va kengaytirish ishi olib borilgan. Bugungi kunda morfologik analizatorning aniq ishlashi uchun morfologik lug'atda taxminan 100000 so'z (shuningdek, taxminan 3-4 million so'z shakli) bo'lishi kerak [2]. Natijada lug'at doimiy ravishda yangilanib boriladi. Masalan, “RCO Morphology” analizatori ma'lumotlar bazasini to'ldirish va tuzatish davomida faqat fe'llar orasida 3000 dan ortiq so'z shakllari o'zgartirilgan.

Morfologik analizator tuzishda asosiy ish lingvistik qoidalar tizimini kengaytirish, sozlash, shuningdek, lug'atagi xatoni bartaraf etishda ko'p mehnat resursi talab qilinadi. Morfologik analizatorga til leksikasining yuqori chastotali so'zлари, tilda mavjud bo'lgan har qanday so'zni qayta ishlashga oid qoidalar majmuyini ishlatadigan algoritm kiritilishi kerak. Bundan tashqari, morfoanalizatorda turli taxminlarni inobatga olgan holda so'z tahlili haqidagi farazlarni yaratishga imkon beradigan moslashuvchan sozlama bo'lishi talab etiladi. Bu esa modulni so'z grammatik shaklining imlo bilan bir-biriga to'g'ri kelganda omonimiyanı bartaraf etish vositalari bilan birga ishlatishga imkon beradi. RCO Morphology analizatori Windows uchun dinamik kutubxona (DLL) sifatida etkazib beriladi. Ushbu analizator so'zni yuqori aniqlikda qayta ishlashni talab qiladigan axborot-qidiruv hamda tahlil tizimi ishlab chiquvchilariga mo'ljalangan. Modul quyidagi afzallikka ega: (1) so'z shaklning barcha grammatik xususiyatini (so'z turkumi, grammatik ma'nolari va h.); (2) leksik-semantik toifani (ism, familiya, tashkilot, geografik nom) aniqlash, (3) so'zning turli grammatik shakllarini me'yoriy holatga keltirish, (4) barcha grammatik shakllarni aniqlash orqali imloni tekshirish. Ammo morfologik analizator 3-4 million so'z-shakldan iborat lug'at/ma'lumotlar bazasi kabi bunday talab faqat flektiv til analizatorlariga xos.

Agglyutinativ tillarda aniq tahlilni amalga oshirish uchun “o’zak va qo’shimchalar lug’ati”, o’zak va qo’shimchalar qo’shilishi natijasida hosil bo’ladigan fonetik o’zgarish, umumiy qonuniyatlar “grammatik lug’ati” talab etiladi. Agglyutinativ tillarning morfologik analizatori uchun 3-4 million so’z shaklni ma’lumotlar bazasiga kiritish yoki so’z shakllar lug’atini tuzishga ehtiyoj yo’q.

**XULOSA.** Xulosa o’rnida aytish lozimki, morfologik analizator tuzishda asosiy ish lингвistik qoidalar tizimini ishlab chiqish, lug’atdagi xatoni bartaraf etishda ko’p mehnat resursi talab qilinadi. Shunday mehnatni qisqartirish va avtomatik tahlilni amalga oshirish uchun avtomatik tahlil vositalari talab qilinadi. Morfologik analizatorga til leksikasining yuqori chastotali so’zlari, tilda mavjud bo’lgan har qanday so’zni qayta ishlashga oid qoidalar majmuyini ishlatadigan algoritm kiritilishi maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, morfoanalizatorda turli taxminlarni inobatga olgan holda so’z tahlili haqidagi farazlarni yaratishga imkon beradigan moslashuvchan sozlama bo’lishi talab etiladi. Bularning barchachi axborotni avtomatik tahlil qiluvchi tahlil vositalari tomonidan amalga oshiriladi. O’zbek tili so’zshakllarini avtomatik tahlil qiluvchi tahlil vositasi yaratilsa, til korpusi, avtomatik tarjima, elektron lug’atlar yaratish uchun ma’lumotlarni tahlil qilish va qayta ishlash jarayoni avtomatlashtiriladi.

### **Adabiyotlar**

1. Амиева А.М., Филимонов В.В., Сергеев А.П., Трасов Д.А. Инструменты корпусной лингвистики // <https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/36257/1/ittsm-2016-34.pdf>
2. Ермаков А. Морфологический анализатор – основа поисковых систем // <https://www.kv.by/archive/index2004154301.htm>
3. [www.rco.ru/product.asp](http://www.rco.ru/product.asp).

## **TIL – MILLATNING BORLIGI VA BIRLIGINING BOSH BELGISI**

*O’Islamov,  
O’zSMI, f.f.n.*

Alisher Navoiyning nutq madaniyati va odobi haqidagi qarashlarini to’g’ri tushunish va talqin qilish uchun uning umuman til, nutq, tilga munosabat haqidagi qarashlarini teran anglo-moq lozim bo’ladi. Chunki insonning ma’naviy kamolotga erishuviga, jamiyatning madaniy-ma’rifiy rivojida ona tilining o’rni favqulodda muhimdir. Til milliy ma’naviyat, ma’rifat va madaniyatning eng xolis va xira tortmas ko’zgusidir. Demakki, millatning borligi va birligining bosh belgisi tildir<sup>31</sup>.

Alisher Navoiyning lингвistik qarashlari doirasi nihoyatda keng bo’lib, ular orasida til, tilning paydo bo’lishi, til birliklari, nutq birliklari, nutqning lisoniy sifatlari, ayniqsa, badiiy tilning roli haqidagi mulohazalari asosiy o’rin tutadi. Chunki ular Navoiyning lisoniy muloqotning kommunikativ talablari, nutq madaniyati va odobi haqidagi qarashlarini to’g’ri talqin qilishga yordam beradi.

Navoiy o’z asarlarining ba’zi o’rinlarida tilning ijtimoiy ahamiyati haqida fikr yuritib, tilning paydo bo’lishi haqidagi o’z mulohazalarini bildiradi. Uning “Layli va Majnun” dostonida yozi-shicha, inson paydo bo’lgan davrlarda u hamma narsani ko’rar edi-yu, ammo gapira olmasdi, chunki “Anglar so’z edi-yu munda yo’q so’z”. (“Layli va Majnun”, 30-bet) Shu sababli Olloh eng avvalo, ibtidoda “so’z”ni, ya’ni tilni yaratdi va insonga bu ne’matni taqdim qildi:

<sup>31</sup> Махмудов Н. Ўқитувчи нутки маданияти. – Тошкент, Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009, 3-бет.

Bas avvalg'i sado so'z o'lg'ay,  
Har savtqa ibtido so'z o'lg'ay.

(“Layli va Majnun”, 30-bet)

Demak, tabiatdagi eng birinchi tovush (“sado”) so’z bo’lgan va u ibtidoning boshlanishidir.

Navoiy tilning paydo bo’lishini o’z davrida keng tarqalgan diniy nuqtayi nazar, ya’ni “olamning hamma narsaning boshlanishi (avvali) hamda oxiri so’z, ya’ni tildir” deyilgan e’tiqodga tayanadi. U “Sab’ai sayyor” dostonida yozadi:

So’zga bas vasf budurur mujmal,  
Kim, nekim avval, ul anga avval.

So’z kelib avval jahon so’ngra,  
Ne jahon, qavn ila makon so’ngra.

Har kishi dahr aro hayot topib,  
So’ngg’i dam so’z bila najot topib.

Avvalu oxiringg’ a solg’il ko’z,  
Bil ham avval so’zu ham oxir so’z.

(“Sab’ai sayyor”, 31-bet)

Ko’rinadiki, Navoiy hamma narsaning ibtidosi, boshlanishiga sabab ham so’z (til) va barcha narsaning oxiri ham so’z deb biladi. Demak, so’z jahondan, makondan oldin yaratilgan va so’z orqali inson hayot va najot topgan, dunyoning oxiri ham so’z bilan tugaydi. Aytiganlar orasida insonning so’z tufayli hayot va najot topgani xarakterlidir, chunki so’z (til) paydo bo’lgach kishilar gaplashadigan, fikr almashadigan bo’ldi, jahon sirlarini, bir-birini tushunadigan bo’ldi, chunki atrofidagi narsalar, ob’ektlar, hodisalarga, his-tuyg’ulariga nomlash imkoniyati tug’ildi, nom esa turli, bir tipli narsalarni farqlash, idrok qilish imkoniyatini berdi. Navoiyning tilni so’z deb atayotganida ham ma’lum hikmat bor. Chunki insonlar dastlab qo’llagan lisoniy birlik so’zdir, nomdir. Mana shu so’zlardan foydalanib so’z birikmali, gap tuzish, gap orqali esa nutq yaratish (so’zlash) imkoniyati yuzaga kelgan. Shu sababli Navoiy kishi jismi va ruhining ajralmas qismi, hosilasi so’z deb biladi. Uning ta’kidlashicha, so’z bo’lmaganida inson ajab balolarga duchor bo’lardi, uning nutq bulbuli, ovozsiz bo’lur edi:

Jism bo’stonig’ a shajar so’zdur,  
Ruh ashjorig’ a samar so’zdur.

Bo’lmasa so’z ajab balo bo’lg’ay,  
Bulbuli nutq benavo bo’lg’ay.

(“Sab’ai sayyor”, 31-bet)

Yuqoridagi satrlardan shuni anglash mumkinki, Navoiy tilning paydo bo’lishini diniy aqidaga bog’lab izohlasa-da, til, nutqning ijtimoiy qimmati, inson hayotida tutgan o’rnini to’g’ri bisholaydi, chunki so’z (til) insonni boshqa jonzotlardan farqlaydi, insonning obektiv olamni anglashiga, bir-biri bilan fikr almashishiga imkon yaratadi. Inson tili bo’lmaganida bular yuzaga kelmas edi.

Shunisi ham borki, Navoiyning til (so’z)ning paydo bo’lishi haqidagi fikrlarida uning tilga muhabbatli balqib turadi, bu hurmatni u badiiy til bilan ko’tarinki ruhda bayon qiladi.

Tilshunoslikda Navoiyning til (so’z)ning paydo bo’lishi haqidagi diniy, falsafiy fikrlarini turli nuqtayi nazarda talqin qilishlar uchraydi. Sho’rolar davrida yozilgan maqolalarda bu fikrlar

ateizm nuqtai nazaridan baholansa, mustaqillik davrida yozilgan ishlarda u realistik, xolisona ruhda talqin qilinmoqda.

Navoiyning tilning paydo bo'lishi yuzasidan mulohazalarining falsafiy-badiiy asosini yanada qoniqarliroq izohlashga intilish maqsadida shoirning "Hayrat ul-abror" dostoniga murojaat qilamiz. Navoiy qarashicha, so'z hatto olamni yaratish vositasi bo'lganligini quyidagicha ishora orqali bildiradi:

Qaysi nasim ulkim erur gulfishon,  
Barcha gulu nastarin andin nishon.

Bu ikki yaprog'in qachon zufunun,  
Bir-biriga qo'ysa bo'lur "kofu-nun".

Dahri muqayyad bila ozodasi,  
Barcha erur "kof" ila "nun" zodasi<sup>32</sup>.

Baytlardan anglashiladi, "Kof" va "Nun" qo'shilsa arabcha "Kun" (Yaral) so'zi hosil bo'ladi. Rivoyatga ko'ra, Olloh "Kun" deganda butun olam yuzaga kelgan, demak butun olam shu qudratdan iborat so'z tufayli vujudga kelgan, deydi. Bu fikrni "Layli va Majnun" dostonining so'z gavhari vasfiga bag'ishlangan bobida yanada rivojlantiradi.

Hozirgi mavjud bo'lgan narsalar, olam hatto borliq va yo'qliq haqida tasavvur bo'limgan bir paytda dastlabki yaratilish shabadasi vujudga tomon qo'zg'aldi. Insof bilan nazar tashlagan har bir kishi anglar edi-yu, lekin so'zning o'zi yo'q edi.

"Kun" amri zohir bo'lgan chog'da "fakun" (borliq) shovqini ham paydo bo'ldi. Demak, birinchi sado so'z ekan, har qanday qo'shiqning ham (olamning) boshlanishi so'zdur<sup>33</sup>.

Alisher Navoiyning fikricha, "So'z gavharining sharafi" balandligi sabab uning butun olam qudrati tarafidan tuhfa etilganidadir. U "to'rt sadaf gavharining durji" – ya'ni to'rt unsur bo'lgan inson zotining bosh xususiyatini belgilaydi. Inson nutqi bilan inson, nutq uni barcha narsadan afzal etadi<sup>34</sup>. Shuning uchun ham milliy hamiyat, umuminsoniy qadriyat va milliy o'zlik idrokinning barqarorligi, milliy ong va tafakkur, milliy g'urur va iftixor, Vatanga teran muhabbat va istiqlolga adoqsiz sadoqat kabi ma'naviy kamolotnnig o'zagini tayin etuvchi tushunchalarni tildan, xususan ona tilidan ayro holda tasavvur ham etib bo'lmaydi. Shuning uchun ham alloma ajdodlarimiz tilni ana shu mo'tabar tushunchalarni inson shuuriga muhrlamoqning eng ta'sirchan vositasi deb bilganlar. Bu vositadan unumli va o'rinli foydalamoq uchun, avvalo, insonda til tuyg'usi tarbiyasi tugal bo'lishi, ya'ni ona tilining mohiyatini faqat aql bilangina emas, balki ichki hissiy sezgi bilan ham idrok etish ustuvorlanishi lozim<sup>35</sup>.

<sup>32</sup> Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. – Тошкент, 1991, 57-бет.

<sup>33</sup> Абдуллаев Ё. Алишер Навоий сўз таърифида // Алишер Навоий таваллудининг 560 йиллигига бағишиланган мақолалар тўплами. – Термиз ДУ, 2001, 8-бетлар.

<sup>34</sup> Мухиддинов М. Сўз гуҳарига эрур онча шараф // Мулокот, 2004, 3-сон, 13-бет.

<sup>35</sup> Махмудов Н. Ўқитувчи нутки маданияти. – Тошкент, Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009, 17-бет.

# KORPUS LINGVISTIKASINING SHAKLLANISH TARAQQIYOTI

*M.Abdurahmanova  
O'zMU dotsenti*

*Ishonarli lingvistik ma'lumotlar  
katta massivli matnlar majmuasidangina olinishi mumkin  
R.G.Piotrovskiy*

Jahon tilshunosligi va turkologiyada amaliy lingvistika, kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi muammolariga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Ma'lumki, Korus lingvistikasining rivojlanishi, milliy tildagi ma'lumotlar bazasini shakllantirish, tilning lug'at boyligini kengaytirishda asosiy omillardan hisoblanadi. Xalqaro tillar sanalgan ingliz, ispan, xitoy, arab, fransuz, rus tillarining milliy korpusidan tashqari, nemis, polyak, ukrain, chex, slovak, serb, xorvat, bosniya, bolgar, makedon, shotland, niderland, shved, dat, norveg, island, portugal, rumin, litva, latish, grek, arman, osetin, alban, hind, xet, fin, ural tillari, eston, venger, udmurt, gruzin, lezgin, buryat, mo'g'ul, ivrit, qalmiq, yapon, turk, tatar, boshqird, qrim-tatar, qozoq tillari korpuslari mavjud.

V.Zaxarov "Matnlarning lingvistik korpusi katta, elektron ko'rinishda taqdim etilgan, bir-lashtirilgan, tuzilgan tagged, muayyan lingvistik muammolarni hal qilish uchun mo'ljallangan til ma'lumotlarining filologik jihatdan vakolatli qatori" deb ta'riflaydi. Korpus bu tilning tanasidir. Tilning tanasini chuqurroq o'rganishda nafaqat tilshunoslar balki dasturchilarning ham o'rni beqiyosdir. Shunga ko'ra, so'nggi yillarda tadqiqning korpus metodidan foydalanishga qiziqishning kuchayishiga matnlarning katta massivini qayta ishlash imkonini beruvchi kompyuter texnologiyasining kirib kelishi sabab bo'ldi. Korpus sohasidagi asosiy tadqiqotlar XX asrning o'rta-ralida paydo bo'la boshlandi. Ilk bor korpus matnlari bolaning nutqini o'rganishda, til o'rgatishda va og'zaki nutq grammatikasini o'qitishda foydalanildi. 50-yillarda Noam Xomskiy konsepsiysi ustunlik qila boshladi. Ushbu yo'naliш nutqiy qo'llanishni emas, tilni o'rganish lozim, degan g'oya ilgari surardi. Chunki tilda nutqiy qo'llanish son-sanoqsiz, ularni o'rganish befoyda. Til mohiyati, imkoniyatini ifodalaydigan qonuniyatlar esa sanoqli, demak, ularni tadqiq etish mumkin va maqsadga muvofiq, deb hisoblangan. Bundan tashqari, aksariyat olimlar tilni tadqiq etishda introspeksiya (o'z-o'zini kuzatish), tabiiy faktga tayanish usuli doim ham aynan bir xil natija beravermaydi, degan fikrga tayangan. Natijada tilshunoslikda ratsionalistlar (Xomskiy tarafdonlari) va empiriklar (korpus lingvistlari) armiyasi vujudga keladi. Mashhur korpus lingvistikasi mutaxassis Toni Mak-Enneri Edinburg ham empirik fakt, introspeksiyadan, ham tabiiy, sun'iy faktdan foydalanish lozimligini uqtiradi. Korpus lingvistikasi nazariy hamda amaliy bilimlarga asoslanadi. Korpusni tuzish (qog'ozlarda-kartoteka), o'rganish korpus lingvistikasi sohasi rivojlanishidan ancha oldin XVIII asrlarda boshlandi (Teologiya-bibliyaga oid tadqiqotlar, lug'atlar (Johnson, Oxford English Dictionary, Webster Dictionary), tillarni o'qitish (1921), Kvirk korpusi (Survey of English Usage). Inglizcha *Corpus linguistics* atamasi ilk marta 1984-yilda qo'llangan. Birinchi korpus Buyuk Britaniyada paydo bo'lgan. Rossiya ushbu atama korpus lingvistikasi mutaxassis - mashhur xalqaro ingliz tili korpusi (International Corpus of English) asoschisi Sidni Grinbaum ma'rzasidan keyin (Moskva, 1996) kirib keldi. Faqat kompyuter asrigacha bo'lgan korpus noelektron shaklda bo'lganligi, ma'lumotlarni korpusdan topishning avtomatlash-maganligi bilan xarakterlanadi. Korpus lingvistikasida bu davr raqamli texnologiya asrigacha bo'lgan davr sanaladi. Mashhur tilshunos Panini (4-asr) tomonidan tuzilgan qadimgi hind grammatikasi shaklan noelektron, mohiyatan korpus metodiga asoslanganligi ta'kidlanadi. Miloddan oldingi 5-4 asrlarda bu korpus folklor shaklida og'izdan og'izga ko'chib kelgan. Kompyuter asri-

gacha bo'lgan ko'plab korpuslar ham turli diniy muqaddas kitoblar bilan bog'liq. Ular orasida eng mashhuri Injil matnlari, ular atroflicha tadqiq etilganligi bilan ajralib turadi. Injilga asoslangan she'rlar ko'rsatkichiga ega so'zlar ro'yxati *simfoniya* yoki *konkordans* degan nom bilan ma'lum bo'la boshladi. Bunday korpus ilk marotaba XIII asrda paydo bo'ldi. Kompyuter asri-gacha bo'lgan korpus lingvistikasining yana bir davri XVIII-XIX asr, bu leksikografiya taraqqiyoti, lug'atlar yaratilishi bilan bog'liq. Bugungi kunda mashhur sanalgan lug'atlarning aksariyatini muallif illyustrativ korpus sanalgan kartotekaga asoslanib tuzgan. Bu korpuslar "Kartoteka" yoki "Lug'at bo'limi" deyiladi. Bunday kartoteka bilan ishlash natijasida Webster lug'ati (1828), V.Dalning "Buyuk rus tilining izohli lug'ati" dunyo yuzini ko'rdi. XIX-XX asrlarda xorijda shakllangan bu tamoyilni korpus lingvistikasi o'z metodologiyasiga aylantirdi. Zero, korpus lingvistikasining predmeti – til me'yori emas, odatiy, rasmga aylangan til. Shved olimi O.Espersen (1946) birinchilardan bo'lib, preskreptiv (me'yoriy) grammatikadan deskriptiv (tafsify) grammatikaga o'tish haqidagi nazariyani e'lon qildi.

#### Asosiy korpuslar

- 1961-yil: Braun korpusi (AQSH), 1 mln. so'z (15 ta janr asosoda tuzilgan)
- 1970-yil: LOB (Laankaster Oslo Bergan.J.Lich) korpusi (Buyuk Britaniya va Norvegiya kompyuter markazi), 1 mln. so'zdan iborat ( korpus uchun matnlar kitob va gazetalardan olingan). Ilk bor kompyuterda razmetkalsh metodi qo'llangan.
- Rus tilining birinchi katta korpusi -Uppsala rus tili korpusi (Shvetsiya), 1 mln. so'zdan iborat (1960-1988-yilgacha bo'lgan badiiy matnlar, 1985-1988-yilgacha bo'lgan axborot matnlaridan tuzilgan).
- Rus tilining birinchi ochiq korpusi 1999-yil (Germaniya) Tyubingen korpusi, 14 mln. so'zdan iborat.
- Rus tilining milliy korpusi, 140 mln.
- Oxford English corpus, 2 mlrd.

2000 yillar:

- American National Corpus (Amerika milliy korpusi) – 100 million so'z.
- Zamonaviy Amerikancha ingliz tili korpusi (Corpus of Contemporary American English) – 400 million so'z.
- Rus tili milliy korpusi – 140 million so'z.
- Gigaword corpora: ingliz, arab, xitoy tillari – 2 milliard so'z.
- Oxford English corpus (Oxford ingliz korpusi) – 2 milliard so'z.

Korpusning ijtimoiy ahamiyati – keng qamrovlidir. Korpusdan lingvistik, etnopsixolingistik tadqiqotlarda, ona tili va adabiyoti, xorijiy til ta'limida, matnga avtomatik ishlov berish, tarjima dasturlarini tuzishda foydalanish mumkin. Korpus – tilshunos, tarjimon, o'qituvchi, dasturchi, jurnalist, muharrir, umuman, kundalik faoliyati jarayonida "ish quroli so'z bo'lgan" har qanday kishi uchun zamonaviy axborot vositasining bir ko'rinishi. Demak, korpusning paydo bo'lishi, rivojlanishi ikki bosqichdan iborat. Birinchi davr korpusi – kartotekalar to'plamidan iborat, garchi bugungi korpus ko'rinishida bo'lmasa-da, lingvistik tadqiqot uchun material vazifasini o'tagan. Ikkinchi davri- Kompyuter asrida esa ular elektron shaklga kirdi, dasturlashtirildi.

#### Adabiyotlar

1. Захаров В.П. Богданова С. Корпусная лингвистика. Учебное пособие. – Санкт-Петербург, 2020.
2. <https://postnauka.ru/video/7783>. Плунгян В. Корпусная лингвистика // ПостНаука [Электронный ресурс]. 2013.

3. Ҳамроева Ш. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари. Монография. – Т., 2020.

4. Ҳамроева Ш. Корпус лингвистика атамаларининг қисқача атамалар лугати. Тошкент, 2018.

## MORFEMANING LISONIY O'RNI

A.Uralov, f.f.n (PhD)

Ayrim adabiyotlarda morfemani nutqiy birlik deb qaralsa, ayrimlarida esa lisoniy birlik deb talqin etiladi. Morfema – tilning eng kichik ma'noli qismi, deyilishi unga til qurilishining tarkib topdiruvchi birlik deb qaralishidadir. Misol tariqasida ko'radigan bo'lsak, "dasturchi" so'zini ikki morfema ajratish holatini olish mumkin. Bunda "dastur" asos morfema, -chi qo'shimcha sifatida qaralgan. Shuni unutmaslik kerakki, bu yerda "dastur" asos morfema sifatida qaralishi bu nutq birligiga tegishlilik nuqtayi nazaridan belgilanadi, binobarin "dastur" birligi nutqiy birlik sifatidagina morfema hisoblanib, tilshunoslikning leksikologiya hamda morfemika bo'limlarida leksema sifatida qaralishi lozim. -chi morfemasi esa har qanday bo'limda ham morfema bo'lib xizmat qilaveradi.

Umuman olganda, morfem tahlil jarayonida har qanday so'zni tarkibiy qismlarga ajratganimizda leksema+morfema(lar)ga ajratish to'g'ri qaror hisoblanadi. Garchi leksema tarkibida morfema mavjud bo'lмаганда ham (nol ko'rinishga ega bo'lishi ham mumkin) bu qonuniyat o'z ijrosini topadi.

So'zning ayrim qo'shimcha – morfema (forma) olmagan ko'rinishi paradigmada, shakllangan ko'rinishlar ichida, o'zining maxsus qo'shimcha – affiks (forma) olmaganligi bilan ajralib turadi. Bu nol forma sanaladi: bosh kelishikdagi, birlikdagi: ot (*govun* – *govunni*, *govunga*, *govundan...*); buyruq *mayli*, II shaxs birligidagi fe'l (*qol* – *qolay*, *qolsin*, *qolinglar...*).

Tilning boshqa hodisalarida bo'lgani kabi, so'z shakllarining tarixiy yo'li ham ayrim o'zgarishlarni ko'rsatadi: 1. Qadimgi vosita kelishigi analitik shakl bilan almashgan (*kuzin* — *kuz bilan*); bu kelishik o'z paradigmasidan ajralib, shu o'z ko'rsatkichi bilan qotgan, bu qaratqich bilan kelgan so'zlarning bir qismi ravishga ko'chgan (*yozin-qishin*, *ertan-kechin* kabi). Bu o'rinda grammatik shaklning so'zga o'tishi (leksikalizatsiyasi) hodisasini ko'ramiz (qiyoslang: ayrim hollarda buning aksini ko'ramiz: *sari* so'zi ilgari "taraf" ma'nosida bo'lib, turlangan ham. keyin tamoman o'zgarmaydigan bo'lib, shaklan so'zga aylangan. Bu grammatikalizatsiya hodisasidir). 2. *Baxtimizga*, *olg'a*, *aftidan*, *chindan*, *to'satdan* kabi modal so'z va ravishlarda ham kelishik va egalik shakllarining qotishi, shu formada so'zning maxsuslanishini ko'ramiz. Bular endi shu holatida paradigmanning bir shakli – ko'rinishi sanalmaydi. 3. Egalik affiksining *belgi* tipidagi ish otlariga qo'shilib, predikativlik affiksi vazifasida qo'llanishi (bu eski o'zbek tilida uchraydi) hozirgi o'zbek tili normalariga tamoman zid (qiyoslang: qaratqich kelishigi ko'rsatkichida: *sening* – «*seniki*» ma'nosida).

So'z va morfema yoki leksema va morfema tushunchalari ko'p holatda bahs-munozaralar keltiradi. So'zning morfologik tarkibini tekshirish so'z va morfemaning (ayrim adabiyotlarda o'zak morfema va affiksal morfema), o'zak va negizning munosabatini aniqlash va morfemalarining turli tildagi tuzilishi va klassifikatsiyasi kabi hodisalarni o'z ichiga oladi. Turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilida ham leksema va morfema bir-birini doimo taqazo etadi. So'zning tarkibini grammatik jihatdan tekshirganimizda, unda ma'lum ma'no anglatadigan qismlarni, bu qislarning o'zaro bog'langanligini ko'ramiz. So'zning morfologik tarkibi uning ayrim ma'noga ega bo'lgan shunday grammatik elementlardan tashkil topishi – grammatik qismlarga bo'linishidir.

So‘zning bunday bo‘linmas, eng kichik qismlari morfema sifatida tan olinadi. So‘zning morfologik tarkibi, morfemalarga ajralish xususiyati, shuni ko‘rsatadiki, uning orasidagi bu elementlar leksema va morfemadan iboratdir.

Til birliklarining eng muhimlaridan biri bo‘lgan morfema so‘zning minimal, eng kichik ma’noli qismidir. Chunonchi, bola-lar-imiz-ni. Bu morfologik birlik ma’nosini yo‘qotmay turib qismlarga ajralmaydi: undan keyingi bo‘linish (bo‘g‘inlarga va ayrim fonemalarga ajralish) morfologik strukturali emas, balki fonetik xususiyatni ko‘rsatadi: tovushlar so‘z ma’nosini farqlashga xizmat qilsa ham, lekin ma’no bilan bevosita bog‘lanmaydi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, til hodisalarining ma’no bilan bog‘liqligini bevosita bildiradigan – ma’no beradigan, bu bog‘lanishning chegarasini ko‘rsatadigan eng kichik bo‘lak morfemadir.

Morfemani “so‘zning eng kichik ma’noli qismi” deb nutqdan kelib chiqib ta’riflashdan ko‘ra “tilning eng kichik ma’noli birligi” deb ta’riflash to‘g‘iroq; lekin “eng kichik ma’noli birlik” deb leksik birlikni ham qamrab olish noto‘g‘ri. Morfemaning asosiy belgisi – grammatik ma’no ifodalovchi birlik ekani ta’rifga kiritilishi lozim. Shunda “lug‘aviy morfema”, “o‘zak morfema” tushunchalari va terminlaridan voz kechiladi, bular o‘rniga *leksema* terminining o‘zi ishlataladi. Ayni vaqtda “qo‘sishimcha (umumlashma, affiksal, grammatik) morfema” tarzidagi izohlardan faqat “grammatik” izohining o‘zi yetarli bo‘ladi. Shu sababli morfemani til qurilishidagi grammatik ma’noning u ifodalaydigan eng kichik birligi deyish mantiqan to‘g‘ri.

### **Adabiyotlar**

1. Bahriiddinova B.M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili (o‘quv uslubiy majmua) – Toshkent, 2016.
2. Hojiyev A. O‘zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so‘z yasalishining nazariy masalalari. – T.: Fan, 2010.
3. Mengliyev B., Bahriiddinova B. O‘zbek tilining so‘z tarkibi o‘quv lug‘ati. – T.: Yangi asr avlod, 2009.
4. O‘zbek tili grammatikasi. I jild. – T., 1975.
5. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. – T.: Universitet, 2006.
6. Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek tili. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2007.
7. Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. – T.: 2010.
8. Tojiyev Y. O‘zbek tili morfemikasi. – T., 1992.

## **ONOMASIOLOGIK TERMINOLOGIYADA GIPERONIM-GIPONIMIK MUNOSABATLAR**

*I.Ermatov,  
GulDU dotsenti, f.f.n.*

*Annotatsiya.* Mazkur maqola o‘zbek tilshunosligi muammolariga, xususan, til sathlari va ularning birlklari tizimiga xos giperonim va giperonimik, giponim va giponimik munosabatlar, ularning o‘zbek tili leksikologiya, xususan onomastika tizimiga xos amaliga alohida e’tibor qaratilgan. Tilshunoslik terminlari maqolaning illyustrativ materiali sifatida xizmat qiladi.

*Kalit so‘zlar:* Lisoniy birliklar, paradigmatica, sintagmatika, giperonim, giperonimik munosabat, giponim, giponimik munosabat, onomastika, antroponomika, toponomika va b.

Tilning leksik-semantik darajasi birliklarining tizimli o‘zaro munosabatlarining bir turi – bu giponimiya. Tilning leksik tizimidagi ushbu munosabatlarning holati to‘g‘risida turli xil nuqtai nazarlarni hisobga olgan holda, biz juda keng tarqalgan, ko‘plab tadqiqotlar bilan tasdiqlangan, giper-giponimik munosabatlar leksik birliklarining eng muhim umumiy bog‘lanishlari soniga tegishli ekanligi haqidagi xulosaga murojaat qilamiz. Mantiqiy va semantik bog‘lanishga asos-

langan giponimiya, individual semantik maydonlar (guruqlar) ierarxik tuzilishini va tilning leksik tizimini bir butun sifatida, tilning lug'aviy tarkibini tuzadigan asosiy aloqadir.

Lisoniy birliklar, tilning qaysi sathiga qarashliligidan qat'iy nazar, ma'lum bir lisoniy munosabatlar asosida o'zaro bog'lanadi. Bunday lisoniy munosabatlar asosan ikki xil bo'ladi. Birinchisi paradigmatica (paradigmatik munosabatlar), ikkinchisi sintagmatika (sintagmatik munosabatlar) deb ataladi<sup>36</sup>.

Paradigmatik munosabatlar asosida paradigma, sintagmatik munosabatlar asosida sintagma (va sintagmatika) tushunchalari yotadi. Paradigmatika va paradigmatica munosabat, sintagmatika va sintagmatik munosabatlar tushunchalari fransuz va shvesar tilshunosi F. de Sossyur ta'limoti tufayli fanga ma'lum bo'lgan<sup>37</sup>.

Paradigma va paradigmatica tushunchalari asosida tilning, har bir sath birliklariga xos giperonim, giponim tushunchalari va ularning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, ierarxiyalik xususiyatlari belgilanadi.

Paradigma va paradigmatica munosabatlar tufayli til sathlari va ularning sistem tavsifi belgilanganidek, giperonim va giponim tushunchalari, ularning o'zaro munosabatlari tufayli paradigma va ularni tashkil etuvchi uzviy birliklar tavsifi belgilanadi.

Til unsurlarining giperonimik-giponimik bog'lanishlari turlicha qurshovlarda amalga oshadi. Bu qurshovlar biri-boshqasini hosil qilish xususiyatiga ega bo'ladi. Boshqa giponimik qurshov hosil qila olmaydigan til birliklari o'zidan yirikroq giperonim(lar) doirasida tutashadi. Nisbatan yirik giperonimlar o'zidan quyi giperonimlar va ulardan yana quyiroq (minimal) giperonimlar uyushmasidan tashkil topadi. Giponim xarakterini kasb etgan eng kichik (minimal) lisoniy unsurlar unga nisbatan yirikroq, o'rtacha kattalikdagi giperonim-giponimlar o'ziga nisbatan yana boshqa yirikroq gipero-giponimlar va hokozo izchillikdagi gipero-giponimlar tarkibiga uning tarkibiy unsurlari sifatida o'rasha boradi. Shuning uchun ham har qanday yirik, maksimal, giperonimlar o'ziga xos paradigmalar xarakterini kasb etib, o'ziga nisbatan quyi gipero-giponimlar hosilasi, uyushmasi, maqomiga ega bo'la boradi. Bu va bunga o'xshash xususiyatlar til tizimining ierarxiya va ierarxiyalı munosabatlar hodisasi bilan aloqador tushunchalar hisoblanadi.

To'plamni kattaroq guruhlarga, bunday guruhlarning o'zini ichki turlarga, turlarni ichki xillarga, xillarni navlarga, navlarni ko'rinishlarga bosqichma-bosqich bo'lish hamda to'plamni o'xshash va farqli belgilar asosida ichki guruhlarga ajratish orqali giperonimik-giponimik munosabatlar yuzaga keladi.

Masalan, leksikologiyaning onomastika tarmog'iga nazar tashlasak, ular uch a'zodan iborat mikrotizimga ega: *antroponimika, toponimika, etnonimika*.

Bu mikrotizim o'z navbatida quyidagi guruhlarga ajraladi. Onomastikada leksikaning atoqli otlar tizimi o'rganiladi. Atoqli otlar o'z navbatida bir necha turlarga bo'linadi. Masalan: kishi ismlari, familiyalari, laqab va taxalluslari; joy nomlari; jilg'a, ko'l, daryo, dengiz va okean nomlari; samoviy planetalar va ularning nomlari; har xil tashkilot va idora nomlari va boshqalar atoqli otlar tizimini tashkil qiladi. Shuning uchun onomastika ham yuqorida ko'rsatilgani kabi ichki guruhlarga ajraladi.

*Antroponimika* – onomastikaning bir bo'limi bo'lib, u kishi ismlari, familiyalari, laqab va taxalluslarini o'rganadi. Shuning uchun ism, familiya, laqab, taxallus – barchasi *antroponimlar* deyiladi. Antroponimlar ikki xil bo'ladi: *real antroponimlar* va *noreal antroponimlar*. Real antroponimlarga hayot va turmushda mavjud bo'lgan shaxslar, muassasalar va narsa-hodisalar bilan bog'liq nomlar kiradi: *Otabek, Mashhura, Olimov; Oybek (Muso Toshmuhammad o'g'i)*,

<sup>36</sup> Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование. – М.: Наука, 1977. – С. 79-80.

<sup>37</sup> Соссюр Ф.де. Труды по языкоznанию. – М.: Прогресс, 1977. – С. 56-57.

*Muhammad Yusuf (Muhammadjon Yusupov); Guliston davlat universiteti, Qarapchi mahallasi, Mirzo Ulug'bek ko'chasi; "Yangi Sirdaryo" (gazeta nomi) va boshqalar. Noreal antroponomislarga tushunchalarining nomi kiradi: Olloh, Parvardigor, Farishta, Pari, Alvasti, Dev va boshqalar.*

Antroponomislarga alohida shaxslarning ismi, laqabi, taxallusi kirsa, guruhiy antroponomislarga esa bir oila a'zolari, qarindosh-urug'larning umumiylari, bir guruh yoki tabaqaga qarashli shaxslarga xos atoqli otlar kiradi.

*Antroponimika, toponimika, etnonimika terminlari onomastika giperonimining giponimlari bo'lsa<sup>39</sup>, real antroponomislarga noreal antroponomislarga termini antroponimika giperonimining giponimlaridir. Individual antroponomislarga guruhiy antroponomislarga termini ham antroponimika termini giperonimining giponimlaridir.*

Yuqorida keltirilgan misolimizda *real antroponomislarga*, *noreal antroponomislarga*; keyingi keltirilgan misolimizda *individual antroponomislarga*, *guruhiy antroponomislarga* terminlari munosabatidan giponimiya paradigmasi hosil bo'ladi. Bu terminlarning biri boshqasiga nisbatan giponimdosh lug'aviy birliklar hisoblanadi.

Leksikologiyaning joy nomlari tizimini o'rghanuvchi tarmog'i *toponimika* deb ataladi<sup>40</sup>. Toponimika urug', xalq yoki millat nomi bilan ataluvchi *etnotoponimlar* (Mang'it, Qipchoq, O'zbek va b.); kishi ismi, nasabi, taxallusi yoki laqabi bilan ataluvchi *antrotoponimlar* (Sharof Rashidov, Sobir Rahimov, Oxunboboev va b.); hayvon, qush, parranda yoki biror-bir jonivor nomi bilan ataluvchi *zootoponimlar* (Baliqchi, Tuyatepa, Qulonli va b.); o'simliklar nomi bilan ataluvchi *biotoponimlar* (Yakkatut, Jiydali, O'rikzor va b.). *Etnotoponimlar, antrotoponimlar, zootoponimlar, biotoponimlar* terminlari *toponimika* giperonimining giponimlari hisoblanadi.

Keyingi bu guruhlar ham o'ziga xos "ichki" giperonim xarakterini kasb etib, ularning har biriga xos ma'no va vazifasini o'zida mujassam etgan giponimlarga ajraladi.

*Toponimlar* giperonimligining ko'lami bular bilan cheklanmaydi, albatta. Bu topominlarning har biri o'ziga xos oraliq giperonimlar xarakterini kasb etib, joy nomi, suv nomi, tog' nomi, dala nomi va shu kabi nomlar asosida yana boshqa giponimlarni o'z ichiga oladi. Nomlangan ob'ektning geografik turiga ko'ra toponimlar:

- a) *oykonimlar* (turar joy ma'nosida): qishloq, guzar, ko'chalar nomi;
- b) *polisonimlar* (shaharlar nomi): Guliston, Yangier, Shirin va b.;
- v) *gidronimlar* (suv ma'nosida): Sirdaryo, Amudaryo, Chirchiq va b<sup>41</sup>;
- g) *oronimlar* (tog' ma'nosida): Pomir tog'lari, Chotqol tog'lari, Qurama tog'lari va b.;
- d) *agrotonimlar* (dala ma'nosida): Qo'shtol, Quroqzor, Sultonhovuz va b.;

*Oykonimlar, polisonimlar, gidronimlar, oronimlar, agrotonimlar* terminlari *toponimika* giperonimining giponimlaridir.

Onomastika bu ichki turlari, tarmoqlari bilan cheklanmaydi. U yana boshqa ichki turlarga, tarmoqlarga bo'linib ketaveradi.

Xullas, giperonimik va giponimik munosabatlar til birliklarining funktsiyaga kirishuvini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. Shunisi ham borki, giperonim va giponim hodisalari biri boshqasi bilan qanchalik uzviy bog'lilikka ega bo'lishidan qat'iy nazar, ular ierarxiya jarayoniga ko'ra o'zaro farq qiladi.

## Adabiyotlar

1. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985.

<sup>38</sup> Бердиалиев А., Хидиров Р. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Хужанд: Раҳим Жалил, 2013. – Б. 36.

<sup>39</sup> Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Т.: Fan, 2013. – В. 116.

<sup>40</sup> Бердиалиев А., Хидиров Р. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Хужанд: Раҳим Жалил, 2013. – Б. 37.

<sup>41</sup> Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Т.: Fan, 2013. – В. 40.

2. Бердиалиев А., Хидиров Р. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Ҳожанд: Раҳим Жалил, 2013. – 208 б.
3. Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – T.: Fan, 2013. – 144 b.
4. Соссюр Ф. Труды по языкоznанию. – М.: Прогресс, 1977. – С. 56-57.
5. Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование. – М.: Наука, 1977. – С. 79-80.

## “CHEKSIZ” SO‘ZINING CHEGARASI BORMI?

*F.Abdujabbarova,  
TDPU f.f.nomzodi.*

*Men seni o’ylayman, o’ylarim cheksiz  
Shunday cheksiz bo’lsin baxtli kezlarling  
Asqad Muxtor*

Ma’lumki, she’riyat poetik janr bo’lib, insonning ichki his-tuyg’ulari, nozik kechinmalari, ruhiy holat, kayfiyat chizgilarini olib beruvchi ajib badiiy ijod turlaridan biri sanaladi. Shuning uchun bo’lsa kerak, bu janrda nozik tashbehlar, nafis istioralar, bir so’z bilan aytganda, o’zbek tilining butun lug’at boyligi o’zining kamalak rangi jilosini ko’rsata oladi.

“She’r” degani aslida “shuur”so’zi bilan o’zakdosh bo’lib, inson ongiga, sezimlariga ta’sir etuvchi kuch demakdir. Shoир esa she’r vositasida shuurni uyg’otuvchi, tarbiyat etuvchi ijodkor sanaladi.

Haqiqiy she’r iztirobdan, darddan tug’iladi. She’riyatda lirik “men” orqali kechinmalar silsilasi: buyuk ishq, sog’inch, iztirob va burch kabi chizgilar ifoda etiladi.

Inson qalbining ruhiyat chizgilarini kuzata turib, **cheksiz** so’zi she’riyatda qanday kechinmalar tarjimoni bo’lgani haqida, aynan shu his-tuyg’ularda mavjud chegara xususida so’z yuritishni joiz topdik.

O’zbek adabiyoti poetikasida ham **cheksiz** so’zi ayni shu ma’nolarda qo’llanganmi? Inson hayoti ma’lum bir chegarada tug’ilish va o’lim orasida bir umrni tashkil etishi ma’lum. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, poyonsizlik bir umr oralig’ida bo’lishi mumkin. Chunki haqiqiy cheksizlik tabiat qonunlarida mavjud emas, shuningdek, his- tuyg’ularga ham xos xususiyat emas. Fikrimizni ilmiy asoslash maqsadida “cheksiz va cheksizlik” so’ziga o’zbek tilining izohli lug’atida berilgan ta’rifni keltiramiz:

**Cheksiz**<sup>1</sup> – 1. Cheki, chegarasi, oxiri, poyoni yo’q; poyonsiz, bepoyon. Cheksiz fazo. Cheksiz paxta dalalari. Cheksiz miqdor (mat.) mm Bir ozdan keyin Qumri cheksiz dashtga ishora qildi. *Mirmuhsin*.

2. Ko’chma. Cheklanmagan, juda katta; bitmas-tuganmas; benihoya; chuqur. Cheksiz sadoqat. Cheksiz imkoniyatlar. mm Ayaning dardli ko’zlarida cheksiz alam, lablarida unsiz ta’na. O.Yoqubov, Diyonat .

**Cheksizlik** 1. Cheksiz bo’lishlik, bepoyonlik. Osmonning cheksizligi. *Sadoqatning cheksizligi. 61*

2 ma’no. Cheksiz miqdor. *Cheksizlikka intiluvchi son.*

Cheksiz atamasi matematika fanida to’plam tushunchasiga nisbatan ishlataladi<sup>2</sup>. Elementi abstrakt tushunchalar bo’lgan to’plamlar cheksiz bo’lishi mumkin. M: natural sonlar to’plami kabi.

*Real ob'ektlardan tuzilgan to'plamlar cheksiz bo'la olmaydi. Bundan yer yuzida cheksiz to'plamga misol yo'q degan xulosa kelib chiqadi.*

*Adabiyotda cheksiz atamasining qo'llanishi insonning olamni qabul qilish imkoniyati bilan bog'liq. Yer kurrasi, koinotga nisbatan insonning bir zarra kabi ekanligi, tiganmas o'yru xayollar, kechinmalarni cheksiz, tubsiz, bepoyon deb qarash lirik bo'rttirish sanaladi.*

*Quyida o'zbek she'riyatida cheksizlik ma'nosiga ishora beruvchi she'riy parchalarni tahvilga tortamiz.*

Tun bo'lsa bu **cheksiz** olam chirog'i,  
Ko'rinar to'lin oy va uning dog'i<sup>3</sup>.

Shoir G'ayratiyning bu she'riy misralarida tun butun borliqni qoplagani uchun cheksiz ta'rifi beriladi, bu yerdagi cheksiz so'zida ikki yoqlama chegara mavjud, bir tarafdan vaqt doirasida, ikkinchi tomondan ma'lum hudud oralig'i belgilanadi.

O'zbek tili leksikasida, cheksiz so'zini ma'nosiga sinonim bo'lgan behad, so'ngsiz, mangu so'zlar ham qo'llana oladi.

Nozik didli, nafis hissiyotlarni o'zgacha jo'shqinlik aralash mahzunlik, olovli ishq bilan kuylovchi Zebo Mirzo she'rlari<sup>4</sup>da bu so'zlarni barchasini kuzatish mumkin.

Nega keldim bu yo'llarga men,  
Axir dilda na his, na havas.

**Nechun mangu Ishq Ehtiyoji,**  
Nechun sevgi abadiy emas. ("Nega")  
Yashayxman eng **so'ngsiz** dardlarining bilan,  
Hech kim yuragimga bo'lolmas qozi!  
Hali mudrab yotgan dunyolaringni  
Uyg'otib uchadi ruhim ovozi!

\*\*\*

Hech qisi yo'q,  
Yashab ketaman!  
Sizdan yorug', Sizdan balandroq,  
Nasib ekan **so'ngsiz** o'limni  
Tirik vujud bilan ko'tarmoq.

(“Vatan”)  
Qoldirmoqqa urinmang, illo,  
Boqmang ilhaq, intiq, g'amangiz.  
Menga **behad** yolg'on tuyular,  
Ishqqa o'xshab ketgan ta'mangiz.

*Keltirilgan misollardagi **mangu, so'ngsiz** so'zlaridagi ma'no lirik qahramonning o'z muhabbati iztiroblarini noma'lum vaqtgacha unuta olmasligini ko'rsatuvchi vosita sifatida keltirilgan bo'lsa, **behad** so'zi esa kuchaytiruvchi vazifasini o'tagan. Bu so'zlarni ma'nosida cheksizlikka ishora yaqqol ko'rinish turgan bo'lsa ham, chegara mavjud degan fikrni inkor qilmaydi.*

Shoira ijodini kuzatish jarayonida, cheksiz, davomiy, **mangu** ma'nosini ma'lum darajada anglatuvchi, cheksizlikka yashirin tarzda ishora qiluvchi **ming yillik** tushunchasi salmoqli o'rin egallaganligini guvohi bo'ldik.

Ko'zlarim tubida nur yodi bor,  
Titraydi ko'ksimda **ming yillik** isyon.

Tavba eshigida bir o'zimman,  
 Och eshigingni, osmon!  
 Nigohingiz panohlarida  
 Oydindagi maysadek o'ssam.  
 Nafasingiz titroqlaridan  
 Oqib ketsa **ming yillik g'ussam.**

Ming yillik tushunchasi aniq o'z chegarasiga, vaqt oralig'iga ega bo'lsa ham, lirik qahramon kechinmalari uzoq davom etayotganligi, qachon tugashi noma'lum ekanini, o'sha iztiroblar naqadar qayg'uli bo'lishiga qaramay, shu qadar sevimli ekanini, cheksizlikka daxldor bo'l mish tuyg'ularning rango-rang jilvasini ko'z-ko'z qilayotgandek tuyuladi.

Meni sog'in,  
**Ming yil** yasha,  
**Ming yil** sog'in.  
 Sevgim qattiq,  
 Qattiq hajru azobim ham.  
 Betaskin kut, bir umr kut,  
 Meni senga qaytarmasin qodir Egam!

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, cheksizlik so'zi ma'nosida chegaraga ishora bor, ammo bu fikrni inson his-tuyg'ulari, uning cheksiz iztiroblariga qiyoslaganimizda esa aniqlikdan mavhumlikka, chegaradan cheksizlikka yuz burishi mumkinligiga guvoh bo'lamiz, natijada qalbning nozik kechinmalari sir-sinoati qarshisida hayratda qolishimiz tabiiy.

## O'ZBEK TILIDA TERMINLAR PRAGMATIKASI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALASI

*B.Suyunov,  
O'zMU, f.f.n.*

O'zbek tilining davlat tili martabasi (statusi)ga ega bo'lishi ma'naviy-madaniy hayotimizda ulkan voqeа bo'lib, til muammolarini hal etishda, o'quv-idora va boshqaruv ishlarini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega. O'zbek tilining davlat tili sifatidagi taraqqiyotini ta'minlash uchun har birimiz mas'ulmiz.

Muhtaram Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, "Globalashuv sharoitida milliy tilimizning sof-ligini saqlash, uning lug'at boyligini oshirish, turli sohalarda zamonaviy atamalarining o'zbekcha muqobilini yaratish, ularning bir xil qo'llanishini ta'minlash dolzarb vazifa bo'lib turibdi".<sup>42</sup>

2019-yilning 4-oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni qabul qilinganligining 30 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi PQ-4479-son qarori qabul qilinishi mamlakatimizda davlat tilini yanada rivojlanish, uning xalqaro nufuzini oshirish va bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlarini qo'llab-quvvatlashni ko'zda tutadi.

Binobarin, mazkur Qarorda mamlakatimiz ta'lim tizimida davlat tili sifatida o'zbek tilining qo'llanilish doirasini yanada kengaytirish, ona tilimizni xalqaro miqyosda muomala va aralashuvning faol vositasiga aylantirish, o'zbek tiliga yetishib kelayotgan yosh farzandlarimizning mehr-muhabbati va qiziqishini oshirish, ayni paytda, tildagi ilmiy termin va tushunchalarni to'g'ri tizimlashtirish hamda ularni amaliyotga keng tatbiq etish kabi muhim vazifalar belgilab berilgan.

---

<sup>42</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019-yil 21-oktabr kuni o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 30 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagи nutqidan

Bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy hamda ilmiy-texnikaviy sohalarda ro'y berayotgan tub o'zgarishlar va yangilanishlar jarayoni tabiiy ravishda, avvalo, o'zbek tili leksikasida o'z aksini topmoqda. Bu esa, ayni paytda, jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda, yangi-yangi so'z, tushuncha va terminlarni yuzaga keltiradi.

Shu bois, o'zbek tili terminlari tizimini yanada teranroq tadqiq etish, xususan, terminologiyaning nazariy va amaliy jihatlarini ilmiy asosda chuqurroq o'rganish, tilda terminlar pragmatikasi va uni har tomonlama takomillashtirish masalasi hozirda muhim va jiddiy ahamiyat kasb etmoqda.

Termin va uning muhim belgi-xususiyatlari haqida fikr yuritilib, ta'rif berilar ekan, bizningcha, avvalo uning ilmiylik xususiyatini qayd etish va ayni xususiyatning dominant ekanligini ta'kidlash joiz. Chunki termin, dastavval, ilmiylik xususiyati, ya'ni semasiga ko'ra ajralib turadi.

Bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tibbiy va savdo-sotiq sohalariga shiddat bilan kirib kelayotgan va muomalaga muqim o'mashib borayotgan turli xorijiy so'z va terminlar, ayni paytda, o'zbek tilining lug'at fondi, leksikasi hamda terminologiyasini ham rivojlantirib borishni taqozo etadi.

Hozirgi davr bizdan, *avvalo* ana shunday xorijiy so'z va terminlarning o'zbekcha muqobilini topish, uni kundalik aloqa-aratashuv hamda muomalaga kiritishni, *ikkinchidan*, tilimizda mavjud bo'lgan so'z va terminlarni faollashtirish, turli xil tushunarsiz va mantiqsiz xorijiy til elementlarining o'rniga o'zbek tili so'zlarini keng qo'llashni, *uchinchidan*, bu borada olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarini yanada jadallashtirish va muvofiqlashtirishni talab etmoqda.

Termin predmet, voqeа-hodisalar haqidagi tushunchaning aniq va turg'un ifodasıdır. Terminga fan va texnikaga oid tushunchalarni ifodalovchi so'zlar va iboralargina emas, shu bilan birgalikda, ma'lum kasb-hunarga oid so'z va iboralar ham kiradi. Terminni termin bo'lmagan so'z va iboralardan farqlash uchun uning o'ziga xos xususiyatini bilish kerak. Bu xususiyatlar asosan ikkita:

*Birinchidan*, termin bir ma'noli (monosemik) so'z yoki ibora bo'ladi, u ko'chma ma'noda qo'llanmaydi.

*Ikkinchidan*, termin ma'lum bir sohada (ma'lum bir fan yoki kasb-hunarda) qo'llaniladigan so'z yoki ibora sanaladi.

Terminlar yuqorida aytilganidek, fan va texnikaga oid, shuningdek kasb-hunarga oid tushunchalarni ifodalab keladi. Mana shu jihatdan terminlarni ikki turga, ya'ni kasb-hunarga oid terminlar (1) va ilmiy terminlar (2)ga ajratish mumkin.

### 1) Kasb-hunarga oid terminlar:

Mamlakatimizda ko'p zamonlardan beri turli kasb-hunar tarmoqlari rivojlanib keladi. Masa-lan, ovchilik, chorvachilik, kulolchilik, duradgorlik, haykaltaroshlik, rassomchilik, etikdo'zlik kabi. Shuning uchun o'zbek tilida kasb-hunar leksikasi doirasi keng bo'lib, ko'pgina terminlarni o'z ichiga oladi.

Bunday terminlarga quyidagi sohalardan misollar keltirish mumkin:

1. Kulolchilik terminlari – *taksir* (bo'yoq), *bulbulzor* (naqsh turi), *gilbo'ta* (oq tusli loy) va b.
2. Etikdo'zlik terminlari – *bigiz*, *dastak*, *qolip*, *shoncho'p*, *poshna* va b.
3. Suvoqchilik terminlari – *andava*, *zuvola*, *poxsa*, *mo'ri*, *suvoq* va b.

### 2). Ilmiy terminlar:

Fan, texnika, san'at, adabiyot va madaniyat sohalarida maxsus qo'llaniladigan bir ma'noli so'zlarga ilmiy terminlar deyiladi.

Har bir fan o'ziga xos ilmiy terminlarga ega, masalan:

1. Tilshunoslik terminlari – *fonetika*, *tovush*, *fonema*, *urg'ün*, *bo'g'in*, *ega*, *kesim* va hokazo.
2. Adabiyotshunoslik terminlari – *mubolag'a*, *sifatlash*, *anafora*, *roman*, *g'azal* kabilar.
3. Tibbiy terminlar – *patalogiya*, *epidemiya*, *statsionar*, *narkoz*, *koronavirus* va boshqalar.
4. Tarixga oid terminlar – *era*, *jamiyat*, *urug'*, *davlat*, *millat* va shu singari.
5. Falsafiy terminlar – *ong*, *borliq*, *materiya*, *ideologiya*, *obyekt*, *subyekt* va hokazo.
6. Kimyoga oid terminlar – *atom*, *natriy*, *simob*, *vodorod* va boshqalar.
7. Matematik terminlar – *aksioma*, *kvadrat*, *plyus*, *minus*, *teorema* kabilar.

8. Harbiy sohaga oid terminlar – *batalon, armiya, general, komandir, leytenant* va shu singari.

O'zbek tilidagi ilmiy terminlar asosan ikki yo'l bilan hosil bo'lgan:

a). O'zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida – *paxta, tuyoq, aniqlovchi, qizamiq, turoq, tuyuq* kabilar.

b). Xorijiy tillardan termin qabul qilish asosida – *fizika, televizor, assimilyatsiya, geografiya, fonendoskop* singari.

Xulosa shuki, terminlar ilm-fan, texnika va san'atning faol leksik quroli sifatida tilning leksik qatlamida alohida e'tiborga molik, fan taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan hamda qator o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turuvchi so'z va so'z birikmalaridir.

Avvalo, tildagi terminlarning o'zbekcha muqobillarini amalda qo'llash (*agar mavjud bo'lsa*), ikkinchidan, xorijiy terminlarning o'zbekcha muqobillarini yaratish (*agar mavjud bo'lmasa*) va barcha tegishli sohalarda bir xilda ishlatalishini ta'minlash davlat tili haqidagi qonun talabidir. Masalan, *imlo* – orfografiya, *bekat* – ostanovka, *imtihon* – ekzamen, *sinov* – zachot, *bo'lim* – seksiya, *tahlil* – analiz, *devonxona* – kanselyariya, *shevashunoslik* – dialektologiya kabi so'zlarning birinchilarini tilimizda keng ko'lama qo'llash maqsadga muvofiq.

## РЕКЛАМНЫЙ ТЕКСТ – КАК ЯВЛЕНИЕ СОЦИОКУЛЬТУРНОГО ХАРАКТЕРА

*Н.Бекмухамедова,  
ст. преп. НУУ*

Реклама – одна из самых динамичных структур сегодняшней коммуникации, поскольку воздействие на потенциального потребителя требует постоянного обновления как формы, так и содержания рекламных текстов.

Рекламный текст, возникнув в экономической среде как средство привлечения внимания покупателей и продвижения товара на рынке, стал явлением социокультурного характера, отражающим изменения, происходящие в языке и дающим представление о тендерной картине мира социума. Как языковое явление рекламный текст отражает изменения в языке быстрее всех остальных типов текста. В рекламном тексте воспроизводятся тендерные роли внутри социума, исследуя которые возможно проникнуть в культуру, в специфику национального сознания и национальной картины мира. Построение речевого портрета тендерной языковой личности социума возможно в рекламном тексте, а не только в художественном. Кроме этого, в рекламном тексте языковой портрет более динамичен, он ярче передает изменения в его презентации в языковой картине мира на разных этапах развития общества.

Гендерные исследования, проводимые на протяжении последних десятилетий XX века и первого десятилетия XXI века, являются одним из новых и актуальных направлений лингвистики. Рассмотренный в лингвистической гендерологии с позиций антропоцентрической парадигмы язык рекламных печатных текстов, как составляющий органичную часть лингвистической картины мира, предстает как метаязык, который, находясь в постоянном развитии, фиксирует языковые новообразования в специфической, обладающей собственной стилистикой, особенностями лингвистическими параметрами форме, которая будет изменяться так же быстро, как меняется социум, оставаясь важнейшим источником научно-практической информации, ценность изучения которой навсегда сохранит свой непреходящий характер.

Рекламный печатный текст является лингвистической единицей, порождаемой в процессе речевой деятельности адресанта с целью передачи максимума информации адресату

в предельно сжатой форме при помощи вербальных и невербальных средств, содержащей социокультурный и тендерный аспект, отражающей культурологические особенности социума. Как продукт речевой деятельности, текст рекламы порождается и функционирует в определенном социальном контексте, отражая распределение тендерных ролей в социуме.

Рекламный текст не только содержит информацию о продукте, он является коммуникационным звеном между адресантом и адресатом. Основная цель его задана экстравербально – способствовать приобретению товара. Реклама товаров создается на подчеркивании тендерных характеристик. Она может быть как гендерно нейтральной, обладающей одинаковыми средствами построения текста как для мужчин, так и для женщин, так и существенно различаться с точки зрения наличия тендерных стратегий. В этом случае тендерный аспект приобретает значение в рекламном тексте в зависимости от того, кто является адресатом рекламы – мужчина или женщина.

Главная задача адресанта рекламного текста – привлечь внимание адресата и оказать сильное воздействие. В этой связи реклама считается и наукой, и искусством. Авторы рекламного текста стремятся создать социально-психологическую установку – внутреннюю психологическую готовность адресата к выполнению необходимых адресанту действий (приобрести товар или воспользоваться услугой). С этой целью они создают идеальный образ, к которому стремятся покупатели, пытаясь его помощью достичь удовлетворения внутренних запросов личности. Чем ярче представлен образ в тендерном отношении, тем быстрее он воздействует на адресата.

Рекламный текст способен формировать черты идеальной тендерной личности. Покупатели – мужчины и женщины – стремятся с помощью-приобретаемых товаров соответствовать созданному в рекламном тексте идеальному образу. Именно тендерный фактор создает условия для наиболее полной идентификации человека, как носителя языкового сознания, модифицируемого в рамках печатного текста. Сами по себе выразительные средства, используемые в рекламном тексте без опоры на тендерные различия реципиентов, не могут в полной мере обеспечить решение главной задачи рекламного текста – побудить к покупке. Именно учитывая тендерные различия реципиентов разных полов, рекламный текст достигнет максимальной степени воздействия на адресата. В психолингвистическом аспекте гендерно-маркированный рекламный текст формирует черты идеальной языковой личности мужчины и идеальной языковой личности женщины социума, воздействуя на их сознание с помощью тщательного отбора языковых и невербальных средств, дифференцированно представляя рекламируемый товар.

В рекламном печатном тексте в социокультурном плане отражается картина распределения тендерных ролей в структуре социума. Тендерная направленность рекламного текста, социальная и культурная принадлежность его адресатов определяют тематические, лексические и стилистические характеристики рекламного текста.

Рекламный текст представляет собой набор лексических единиц, в котором закодирован определенный тендерный стереотип. Она, представляющая собой манипулятивную коммуникацию, имеет целью воздействовать на реципиента таким образом, чтобы побудить его к нужным манипулирующему действиям. Процесс рекламного воздействия на потребителя иллюстрирует известная формула Дж. Лунда AID(C), согласно которой рекламный текст должен привлекать внимание (attention), удерживать интерес (interest), вызывать желание (desire), добиваться доверия (confidence) и требовать покупательного действия (action). Реализация функции воздействия связана с внедрением в сознание потребителя определенного набора представлений о товаре и фирме-производителе.

Таким образом, важнейшим критерием успешности рекламы является то, что она строится с опорой на лингво-ментальные особенности мужчин и женщин, поскольку именно благодаря учету ценностных ориентиров можно спрогнозировать необходимые ассоциации у человека. При манипуляции главным инструментом является язык.

## **ПОДГОТОВКА СПЕЦИАЛИСТОВ В НЕЯЗЫКОВОМ ВУЗЕ ПОСРЕДСТВОМ ЧТЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ОРИЕНТИРОВАННЫХ ТЕКСТОВ НА РУССКОМ ЯЗЫКЕ (РКИ)**

*X. Сагдулаева,  
prep. ВАУ*

В неязыковых вузах предмет «Русский язык» является неотъемлемой частью подготовки будущих специалистов, которая органически связана с их профессиональной деятельностью. В настоящее время изучение русского языка является средством совершенствования специальных знаний. Умение получать информацию из различных источников становится важным критерием успешной профессиональной деятельности специалистов, работающих в условиях глобализации мирового сообщества.

В связи с этим умение читать и понимать тексты на русском языке является одним из главных требований к уровню подготовки специалистов, предъявляемых в программах по иностранным языкам всех высших профессиональных учебных заведений Республики Узбекистан.

Одним из аспектов профессиональной подготовки студентов неязыковых вузов является обучение чтению тестов на русском языке по специальности. В этой связи большое значение имеет содержательная сторона учебных материалов, предназначенных для чтения, поэтому вопрос обучения профессионально-ориентированному чтению тесно связан с задачей отбора текстового материала. В настоящее время в Республике ощущается большая нехватка учебных и методических материалов на русском языке для учащихся, для которых русский язык является неродным. Эти учебные пособия и учебники должны иметь профессиональную направленность или узкую специализацию. Материалы должны представлять интерес для обучаемого и иметь ценность для усвоения определённой специальности. Тексты, которые готовят для изучения, должны обладать достаточно высоким уровнем информативности и новизны.

В неязыковом вузе работа над профессионально-ориентированными текстами должна быть как основной целью, так и главным средством и содержанием занятий по русскому языку, так как только таким путём можно глубоко изучить подъязык соответствующей отрасли науки или техники. Обучение чтению на русском языке способствует развитию у студентов качеств, предусмотренных квалификационными характеристиками специалиста.

В современной методике преподавания русского языка как иностранного различают несколько видов чтения: аналитическое чтение, подготовленное чтение – чтение со словарем, неподготовленное чтение – чтение без словаря, просмотровое, поисковое, изучающее, ознакомительное. В практической работе по обучению русскому языку как иностранному преподаватели используют все виды чтения, однако наибольшей подготовки требуют ознакомительное и изучающее чтение.

При чтении текста с целью ознакомления предметом внимания читающего становится всё произведение, статья, книга. Задача ознакомительного чтения - понять текст без

предварительного анализа лексики, грамматических форм. Конечно, такое понимание должно происходить на базе уже изученного материала. Для осуществления целей обучающего чтения бывает достаточным понимание 70% текста. Ознакомительное чтение предполагает догадку (доказано, что текст на иностранном языке можно понять, если в нем есть до 30% новых слов, а 10% новых слов вообще не влияют на понимание содержания текста). Для ознакомительного чтения обычно предлагаются следующие задания: найдите в тексте основную мысль, подтверждающую заголовок; разделите текст на смысловые части; составьте план текста; перескажите содержание текста по плану.

Изучающее чтение - это один из главных видов чтения, используемых при изучении русского языка как иностранного. Целью изучающего чтения является максимально полное восприятие и понимание читаемого текста. Чтение происходит в более медленном темпе и сопровождается перечитыванием отдельных фрагментов текста.

Изучающее чтение предполагает предварительную работу над текстом, а также целую систему упражнений и заданий, связанных с различными уровнями понимания текста после его прочтения. Рекомендуется использовать речевые упражнения для изучающего чтения, которые делятся на предтекстовые, притекстовые, послетекстовые.

Предтекстовые - это упражнения, направленные на построение предложений по теме, умение закончить предложение и т.д.

Притекстовые определяют коммуникативную установку, цель чтения. Задания должны быть сформулированы следующим образом: «Определите основную мысль текста», «Ответьте на поставленные вопросы», «Найдите фразы, подтверждающие заголовок».

Послетеекстовые упражнения направлены на проверку понимания прочитанного. Как известно, выделяются четыре уровня понимания: первый - общее, поверхностное восприятие - ответы на вопросы типа «да / нет». Второй уровень - понимание смысловых связей текста. Здесь могут быть предложены вопросы, требующие развернутого ответа («согласитесь или опровергните мнение», «составьте вопросы»). Третий уровень - понимание того, как изложены в тексте основные мысли (найти описания человека, обстановки, выписать существительные, прилагательные и т.д.). Четвертый уровень - понимание основного смысла текста, главной его мысли. Необходимо определить количество смысловых частей, дать им название, в каждой из них выделить главную мысль, объяснить выбор автором названия, предложить свои варианты названий.<sup>43</sup>

На первом этапе обучения русскому языку в неязыковом вузе чтение входит в комплекс задач, связанных с практическим владением русским языком, и выступает как цель и как средство обучения, расширения знаний и развития других речевых умений. При этом этапе обучения необходимо использовать тексты социальной направленности, научно-популярные, страноведческие, содержащие достаточное количество форм и конструкций, характерных для русского языка. При изучающем чтении текстов предлагаются серия различных упражнений, которые соответствуют вышеперечисленным этапам работы с текстом.

Наряду с изучающим чтением на начальном этапе обучения русскому языку необходимо комбинировать с таким видом чтения, как ознакомительное чтение. Правильное распределение времени занятий между изучающим и ознакомительным видами чтения способствует гармоничному развитию навыка чтения у бакалавров. Второй этап предпо-

<sup>43</sup> Лупиногина Ю.А., Зарочинцева И.В. Обучение чтению иноязычных текстов студентов неязыковых вузов. Волгодонский инженерно-технический институт - филиал Национального исследовательского ядерного университета «МИФИ». 2015.

лагает обучение поисковому и просмотровому видам чтения, что также не исключает такие виды, как изучающее и ознакомительное.<sup>44</sup>

Также одной из важнейших задач, стоящей перед преподавателями, является формирование умения самостоятельной работы с текстом на русском языке для извлечения, обработки и накопления информации, необходимой для профессиональной деятельности. Целью организации самостоятельной работы является развитие умения чтения профессионально-ориентированных текстов.

Таким образом, профессионально-ориентированное обучение посредством чтения, соответствующее социальному заказу и основным требованиям методики подготовки специалиста, направлено на формирование профессионала, способного не только владеть определенной суммой знаний, но и умением их творчески применять в современной практической деятельности.

## **TIL BOR EKAN – MILLAT BOR**

*S.Xolmirzaeva,  
ToshDAU dotsenti, f.f.n.*

Til har bir millat madaniyatining o'zagidir. Xalq taqdiri til taqdiri bilan bog'liqdir. Demak, tilni asrash, rivojlantirish, uning sofligi uchun kurash – bu, eng avvalo, millatni yuksaltirishdir.

O'zbekiston taraqqiyotining bugungi yangi bosqichini – milliy-ma'naviy qadriyatlarning e'tibor, e'zoz, qadr topgan davri deyishimiz mumkin. O'zbek tilining jamiyatdagi o'rni va nufuzini oshirish bo'yicha qilinayotgan keng ko'lamli ishlar, atoqli adiblarimiz nomlari bilan atalgan ijod muktablarining barpo etilishi, Adiblar xiyobonining ochilishi shular jumlasidandir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek tilining davlat sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5850-sonli Farmonining qabul qilinishi mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash maqsadida qilingan muhim ishdир. Bunda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun – 21-oktyabr sanasi "O'zbek tili bayrami kuni", deb ma'qullandi hamda Davlat tilini rivojlantirish departamentining tashkil etilishi tasdiqlandi va bajaralishi zarur bo'lgan bir qancha muammolar o'rtaga tashlandi.

O'zbekistondagi oliy o'quv yurtlarida, shu jumladan, Toshkent davlat agrar universitetida "O'zbek tili va adabiyoti" kafedralarining ochilishi va o'zbek tili bo'yicha dars soatlarining ko'-paytirilishi, soha bo'yicha yangi fanlarning kiritilishi bu borada qilinayotgan ishlarning yaqqol misolidir. Shulardan biri milliy hamda rusiyabzon guruhlarga va sirtqi ta'lim talabalariga "O'zbek tilining sohada qo'llanishi" nomli yangi fanning kiritilishidir. Bu fan doirasida lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosining imlo qoidalari, og'zaki va yozma nutq me'yorlari, ilmiy asoslangan yangi so'z va atamalarning iste'molga kirib kelishi talabalarga o'rgatiladi. Bu esa, o'z navbatida, talabalarda davlat tilini chuqurroq o'rgatish, davlat tilining sofligini saqlash, uning qoidalarni buzilishi bilan bog'liq holatlarni muntazam va har tomonlama bartaraf etish imkonini beradi.

Davlat tilini rivojlantirish va davlat tilining amal qilishi bilan bog'liq muammolarni aniqlash shu millatning har bir vakilini o'ylantirishi kerak. Eng avvalo, barcha tashkilot va korxonalardagi hujjatlar davlat tilida yuritilishi shart. Bu ishga o'ta mas'uliyat va talabchanlik bilan, zaruriy ehtiyoj sifatida yondashish zarur. Talabalarga (nofilologik oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan) imlo qoidalari, yozma nutqning o'ziga xos tomonlari, adabiy tilning me'yorlari, albatta, darslarda

<sup>44</sup> Ревякина Т.Л., Щур В.В., Федотова Н.В. Чтение как аспект обучения на занятиях по РКИ. Воронеж, 2013. Военный учебно-научный центр Военно-воздушных сил Военно-воздушная академия им. проф. Н.Е.Жуковского и Ю.А.Гагарина.

o'tilishi zarur deb hisoblayman. Adabiy tilning asosini belgilovchi omil adabiy til me'yorlaridir, chunki ularsiz adabiy til tushunchasi o'z mohiyatini yo'qotadi. Til o'zining ijtimoiy tabiatiga ko'ra, jamiyat rivoji bilan birga takomillashib borar ekan, tilning me'yorlari ham o'zgarib, mu-kammallahishib boradi.

Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga o'zgarishlar kiritilganligi (06.05.1995 y.) to'g'-risidagi qarorga ham 25 yil bo'ldi. Lekin hanuzgacha bu borada holat qoniqarli emas. Ko'p vaziyatlarda kirill alifbosidagi harflar bilan chalkashtirib yoziladi, ayniqsa, "yo"lashgan unlilarni, o'zlashma so'zlarni yozishda ko'p xatoliklarga yo'l qo'yiladi.

Davlat tilining sofligi uchun kurash muammosi doimo asosiy masalalardan bo'lib kelgan. Nutq jarayonini nazorat qilmaslik, tilga mas'uliyat bilan yondashmaslik, til madaniyatiga yot bo'lgan lug'aviy birliklarni, noo'rin kirgan chet so'zlarni qo'llash, so'zlarni buzib ishlatish, so'z va iboralarni noto'g'ri qo'llash kabi holatlar ko'p uchrab turadi.

Talabalar hujjat turlariga(ariza, tushuntirish xati, bildirgi, tarjimai hol va boshqalar) namunalar yozganda, ularda quyidagi kamchiliklarni uchratish mumkin: lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini mukammal bilmaslik; yozma nutqning sayozligi; adabiy til me'yorlariga rioxha etmaslik; uslublar o'rtasidagi farqlarni anglamaslik; yozma nutqning sofligiga amal qilmaslik; uslubiy jihatdan so'z tartibining buzilishi; matn mantiqiyligining buzilishi; rasmiy ish qo'g'ozlar uslubining grammatik va leksik tomonlarini hisobga olmaslik.

Bartaraf etish yo'llari quyidagicha: imlo qoidalarini to'liq egallash; o'z ustida ishlash, o'z og'zaki va yozma nutqini doimiy nazorat qilish; nutqiy uslublarni to'liq farqlash; hujjat turlarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish; so'zlashuv uslubining qo'llanilishiga yo'l qo'ymaslik.

Talaba – yoshlarda aytib o'tilgan kamchiliklarni uchramasligi uchun, davlat tilining imkoniyatlaridan to'liq va to'g'ri foydalanishga erishishlari uchun ta'lif muassasalari o'qituvchilari davlat tilini yuqori darajada o'rgatishlari, ularda o'z ona tiliga bo'lgan mehrini yanada kuchaytirishlari, ularni ziyoli, madaniyatli, yurtparvar, bilimli, savodli qilib tarbiyalashlari kerak.

### **Adabiyotlar**

1. Abdullayev Y. Hamrohim. Toshkent: O'qituvchi, 1996.
2. Aminov A., Madvaliev A. va boshqalar. Ish yuritish, Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2014.
3. O'zbek tilining imlo lug'ati. Toshkent: O'qituvchi, 2005.
4. Xolmirzayeva S. Nutq madaniyati (uslubiy qo'llanma), Toshkent: ToshDAU, 2019.
5. Xolmirzayeva S. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi va imlosi kursining ishchi dasturi va uslubiy ko'rsatmalar (uslubiy qo'llanma), Toshkent: ToshDAU, 2004.

## **СТАРОСЛАВЯНИЗМЫ, ВСТРЕЧАЮЩИЕСЯ В ИСТОРИКО-ЛИНГВИСТИЧЕСКОМ ИСТОЧНИКЕ XVII ВЕКА «ВЕСТИ-КУРАНТЫ»**

**A.X.Бабарахимова,  
prep. BOY**

До наших дней дошло большое количество памятников письменности. Среди них выделяется по своей лингвистической значимости группа текстов, так называемых «Вести-Куранты». Лингвистическая ценность «Вестей-Курантов» огромна: в них не только зафиксированы активные процессы, свойственные русскому языку этого периода, но и в полном объёме в одном источнике изложены самые различные вести из всех стран Западной Европы.

В качестве объекта исследования выбраны старославянизмы, встречающиеся в «Вестях-Курантах».

Вести-Куранты – это памятник письменности, представляющий собой лингвистический источник разнообразный в жанровом отношении. Это, во-первых, грамотки-письма, адресованные определенному лицу, содержащие, наряду с вестями, личные просьбы и высказывания, во-вторых, собственно вести, именуемые «вестовыми печатными листами», «вестовыми перечневыми письмами» или просто «письмами».

Исследуемый нами сборник «Вестей-курантов» содержит вести, которые шли из разных зарубежных мест и городов, иногда даются тексты, не содержащие вестей, но связанны с деятельностью лиц, доставлявших эту информацию.

Такие виды сообщений, как письма, трактаты и памфлеты были обычными в иностранных газетах XVII века. Таким образом, все документы освещают некоторые стороны организации информации Московского государства.

В анализируемых памятниках письменности нашла отражение политическая и экономическая жизнь европейских стран. Например, в сороковые годы XVII века активную роль играет Швеция. В союзе с Францией шведы наносят поражение Австрийской империи. В «Вестях-Курантах» даются подробные сообщения об этом. В сообщениях из Англии можно прочитать о войне сторонников парламента, или как называют их в курантах, – «соемных людей». В документах имеются вести о боях французов с испанцами, о действиях венециан, о заключении военных союзов и т.д.

По имеющимся данным можно отметить, что к середине XVII века Россия уже располагала широкой корреспондентской сетью.

Что касается авторства или имен «вестовщиков», от которых получали новости, обычно оставались неизвестными.

В грамотках вестовщиков излагались их собственные наблюдения, а также различные сообщения из устных и письменных источников. Новые сообщения отбирались и интерпретировались.

Переводам в Посольском приказе предпосыкались краткие заголовки-аннотации. Однако почерк заголовка и вестей всегда был одним и тем же. В первых строках сообщений всегда отличалось с чего сделан перевод – с печатных немецких листов или немецкой грамотки, с перечневого вестового письма, с латинского листа или письма и т.д.

Заголовки-аннотации, содержащиеся в документах, имеют ценные данные для изучения «Вестей-Курантов». По этим данным можно составить представление о путях получения информации и ее характере, о времени, необходимом для доставки вестей в Посольский приказ.

Вести во многих случаях представляли собой ни что иное, как переводы иностранных газет. Однако нельзя сказать, что переводы были точными. Нередко это были фрагментарные, порою вольные изложения, опускались некоторые подробности, отдельные имена, названия городов.

По данным историков XVII век оказался на рубеже двух крупных эпох развития России – эпохи феодализма и капитализма. С своеобразные процессы затронули и литературный язык этой поры. XVII век является начальным периодом становления русского национального языка. Языковая картина Московского государства XVII века многими лингвистами определяется как «двуязычие». Книжный язык резко отличается от живой, народной речи в силу их функциональной разграниченности. Интересно мнение академика В.В.Виноградова о языке этого периода: «В середине XVII века в традиционную книжную культуру речи врывается сильная широкая струя живой устной речи и народнопоэтического творчества, двигающаяся из глубины стилей общества. Обнаружи-

вается резкое смешение и столкновение стилей в кругу литературного выражения»<sup>45</sup>. Стиль и язык памятников деловой письменности, в том числе и «Вестей-Курантов» выделяется из множества разновидностей письменного языка. Начиная с XVII века деловая речь подвергается обработке и складываются элементы грамматической и лексической системы русского языка.

В «Вестях-курантах» широко представлена иноязычная лексика, сопровождающаяся в текстах пояснениями и толкованиями. Однако особый интерес представляет лексика старославянского происхождения, разнообразная в тематическом плане.

Анализ лексики вестей XVII века связан с рядом проблем, среди которых важной является проблема классификации лексики. Самой распространенной является классификация по тематическим группам.

«Вести-Куранты», как и другие деловые документы, содержат большой материал для решения вопросов исторической лексикологии. Сборник «Вестей-Курантов» дал возможность изучить состав его лексики, который можно подразделить на такие тематические группы как: религиозная, общественно-политическая, слова с отвлеченным значением, некоторые термины родства и др.

## DAVLAT VA DAVLAT TILI AJRALMASDIR

Z.Tohirov,  
O'zbekiston Moliyati Universiteti dotsenti, f.f.n.

“Moziyga qaytib ish ko'rmoq xayrlidir”, deganlaridek buyuk adib Abdulla Qodiriy, men ham so'zimni moziydan boshlamoqchiman. Turkiy xalqlar bugungi kunda 26 davlat hududida va jahonning turli mamlakatlarida istiqomat qilmoqdalar. Tarixan bu xalqlar, elatlarning tillari umumiy bo'lgan. Buni Dulbarjin yodgorliklari, Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk”, Yusuf Hos Hojibning “Qutadg'u bilig”, Sohibqiron Amir Temurning tuzuklari, Nizomiddin Amir Alisher Navoiyning asarlari, xususan, “Muhokamat ul – lug'atayn” kabi nodir asarlar, manbalar asoslab turibdi.

XII-XIV asrlarda turkiy til davlat tili sifatida Misr, Suriya kabi arab mamlakatlarida katta maqomga ega bo'lganligi tarixdan ma'lum. Turkiy til shu til egalari keng tarqalgan hududlardagina emas, balki bir qator arab mamlakatlarida ham keng tarqalgan. Masalan, abbosiyalar (1169-1250), mamluklar (1250-1517) sulolari davriga to'g'ri keladi. Ana shu davrlarda turkiy tilning ajralmas qismi bo'lgan, hozirda o'zbek tili deb atalmish tilning ahamiyati shubhasizdir. Bugunga kelib, o'zbek tili turkiy tillar orasida eng takomillashgan, me'yorlashgan, grammatic jihatdan yuksak darajada sayqallashgan tildir.

Bu tilning so'z boyligi, so'zlar ma'nosidagi nafosat, jozibadorlik, nozikliklar XV asrda Alisher Navoiy hazratlari tomonidan mahorat bilan ochib berildi. Ul zot turkiy o'zbek tilini, ta'bir joiz bo'lsa, “razolat botqog'idan she'riyat osmoniga” olib chiqa bilganlar.

Turk nazmida chu tortib men alam  
Ayladim ul mamlakatni yakqalam.  
Olibmen taxtu farmonimg'a oson,  
Cherik chekmay Xitudin to Xuroson.

Alisher Navoiyning “Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz” degan hikmatli so'zlari bugungi kunda aforizmga aylanib ketgan. Albatta, turkiy o'zbek tili Zahiriddin Muhammad Bobur va

<sup>45</sup> Виноградов В. В. Основные проблемы изучения образования и развития древнерусского литературного языка. – М., 1998.

boshqa mumtoz ijodchilar tomonidan sayqallanadi va xalqimiz nutqiga yanada yaqinlashadi. Lekin, afsuski, XIX asr 60-yillarda Turkistonning chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi, undan keyin XX asrning ikkinchi 10 yilligidagi oktyabr davlat to'ntarishi bizning xalqimiz tarixida salbiy oqibatlarga olib keldi. Dinimiz, madaniyatimiz, ma'naviyatimiz, ayniqsa, tilimiz, qattiq zarbaga uchradi.

Mutelikdan qutilish uchun 1985-yillardan xalqimiz tarixida yangi uyg'onish davri boshlandi, desak mubolag'a bo'lmaydi. To'g'ri, avvalari ham ozodlik uchun urinishlar bo'lgan, 20-30 yillarda. Ammo, istibdod ustunlik qilgan.

1989-yil 21-oktyabrd "Davlat tili to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi xalqimiz hayotida olamshumul ahamiyatga molik bo'ldi. Tilimizga Davlat tili maqomining berilishi nur ustiga a'lo nur bo'ldi. Xalqimiz nima uchun til mustaqilligi uchun kurashdi? Nima uchun uning Davlat tili bo'lishligini talab qildi? Vaholanki, yurtimizda sho'rolar hukmronligi vaqtida ona tilimizning ijtimoiy hayotda qo'llanish doirasi juda cheklanib qolgan edi.

Davlat tiliga O'zME da shunday ta'rif beriladi: "Muayyan mamlakatda qonun chiqarish, ijroiya va sud hokimiyatlarida ish yuritish uchun rasmiy belgilangan til".

Mazkur qonun o'zbek xalqining milliy ongingin rivojlanishida, mamlakatning mustaqillikka erishishida, madaniy merosning tiklanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Lekin, yurtimizda yuz berayotgan jarayonlar, lotin alifbosiga asoslangan yozuvga o'tish vazifasi til bilan bog'liq islohotga zarur o'zgarishlar qilishni, xususan, qonunga o'zgartishlar kiritishni taqozo etadi. Respublikamiz hali sobiq ittifoq tarkibida ekanligida qabul qilingan qonun matni yangi tahrirdan chiqarildi. Shunday qilib, 1995-yil 22-dekabrd O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'g'risida"gi qonunining tahrirdagi matni qabul qilindi. O'zbek tilining yurtimiz hududida davlat tili sifatida amal qilishining huquqiy asoslari qat'iy belgilab qo'yildi.

Davlat tilini o'rganish barcha boshqa millat vakillari (umuman, tilni o'rganuvchilar) uchun pulsiz amalga oshiriladi (4-modda). O'zbekistonda yashovchi boshqa millat va elatlarning tillari hurmatda bo'lishi ta'minlanadi.

Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o'zbek adabiy nutqining ilmiy qoida va me'yorlariga amal qilinishi belgilab qo'yiladi (7-modda).

Mahalliy hokimiyat va boshqaruv idoralarining hujjalari respublika Davlat tilida qabul qilinadi va e'lon qilinadi (8-modda).

O'zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslar o'z millatidan qat'i nazar o'z ismini, ota ismi, familiyasini milliy-tarixiy an'analarga muvofiq yozish huquqiga egadirlar (15-modda).

Qonunda yana shu hol qayd etilganki, mamlakatdagi har bir millat va elatning erkin rivojlanishi demokratik va baynalmilal tamoyillar asosida boradi.

Tilshunos sifatida alohida aytishni istardim: "Davlat tili to'g'risida"gi qonun o'zbek tilshunosligining rivojida muhim omil bo'ldi. Sobiq tuzum vaqtida rus tilshunosligiga tayangan holda (bunda qaysidir darajada majburlik ham yo'q emasdi) rivojlangan tilshunosligimiz tasviriy tilshunoslik edi. Rus tiliga xos qonun-qoidalar tadbiq etilardi. Masalan, alifbo shunday bo'lgan. Bungunga kelib tilshunosligimiz o'z ona tilimiz ichki qonuniyatlariga asoslangan xolda tahliliy tilshunoslik sifatida takomillashmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash o'rinniki, mamlakatimizda millatlararo yuritilayotgan oqilona siyosat tufayli ta'lim-tarbiya ishlari o'zbek tilidan tashqari tojik, qozoq, qirg'iz, turkman, rus tillarida ham amalga oshirilmoqda. Milliy markazlar erkin-u emin faoliyat ko'rsatishlari uchun yetarli imkoniyat berilgan va sharoit yaratilgan.

Ma'lumki, "Davlat tili to'g'risida"gi qonunga binoan o'tgan vaqt mobaynida o'z tilimiz, o'z uyimizda mustahkam huquqiy asosga, Davlat tili maqomidek yuksak darajaga ega bo'ldi. Endilikda ona tilimiz davlat, hokimiyat idoralarida, xullas, xalq hayotining barcha sohalarida ilm-

fan bo'ladimi, ta'lif-tarbiya bo'ladimi, tibbiyot, madaniyat, san'at, sport, qurolli kuchlar, siyosat sohalarida bo'ladimi, faol qo'llanilmoqda.

"Davlat tili to'g'risida"gi qonun qabul qilinganiga 30 yil to'lishi munosabati bilan Prezidentimiz Shavkat Mirmonovich Mirziyoyevning til bayramini keng nishonlash to'g'risidagi qarorlari ayni paytida qabul qilindi. Qarorga asosan ommaviy-ma'rifiy chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Unga ko'ra, O'zbekiston hamda Qoraqalpog'istonndagi barcha shahar, tumanlarda, xususan, Toshkent shahrida bayram tantanalari tashkil qilindi. Umumta'lim maktablarida tilga bag'ishlangan insholar tanlovi o'tkazildi, o'zbek adabiy tilining asoschisi Nizomiddin Amir Alisher Navoiyning Milliy bog'dagi va yurtimizning boshqa viloyatlaridagi haykallari poyiga gulchambarlar qo'yildi, boshqa bir qator madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazildi va o'tkazilmoqda.

"O'zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari" mavzuida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, "O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari" mavzusida respublika konferensiylari o'tkazildi va muntazam o'tkazib borish nazarda tutildi.

O'ylaymanki, avvalo, Prezidentimizning Davlat tiliga bo'lgan yuksak e'tibori va ular qarorida belgilab berilgan tadbirlar respublikamiz jamoatchiligining, umuman, butun xalqimizning o'z ona tiliga bo'lgan faxrlanish tuyg'usini yanada oshirdi, o'zbek tilshunosligining rivojlanishini yangi bosqichga ko'tarishga ilm ahlini ruhlantirdi, tilimizning maqomini mustahkamladi.

So'zimning yakunida yana shuni ta'kidlashni istardimki, Ona tilimizning Davlat tili maqomiga to'liq erishishi quyidagi nazariy asoslarga bog'liq. Birinchidan, funksiyaviy uslubiyatga; ikkinchidan, terminshunoslikka; uchinchidan, adabiy tahrirga.

Nazariy asoslardan tashqari Davlat tili ma'muriy asoslarga ham ega bo'lish kerak. Shunday asos bo'lib, har bir tashkilot, muassasa, korxona kafe, do'kon, bozor va fermer xo'jaliklari va boshqalarning rahbarlari, ya'ni shu dargohlarning birinchi shaxslari zimmasiga o'zdari tasarrufidagi, yuqorida nomlari qayd etilgan obyektlarda ona tilimizning Davlat tili maqomiga to'liq erishuvida faqat mas'uliyatnigina emas, balki javobgarlikni ham yuklash shart.

Vazirlar mahkamasi, viloyat, tuman hokimiyatlari o'z vakolatlari doirasida bu masalaning to'liq hamda mukammal amalgal oshirilishi ustidan qatiy nazarat olib borishlari shart.

## **NUTQIY AKT VOQEYLANISHIDA MAQOLLARNING TUTGAN O'RNI MASALASI**

*A.Ahrorov,  
GulDU o'qituvchisi*

XX asr boshlarida nutqning shakllanishi, shuningdek, o'zaro aloqa jarayonida til birliklarning qo'llanishi bilan bog'liq masalalar, asosan, nutqni til bilan taqqoslashda, ma'lumotlarni saqlash va yetkazishga mo'ljallangan belgilarning samarali tizimi sifatida tadqiq etildi. O'tgan asrning ikkinchi yarmida til haqidagi tushunchalarning faoliyatga bog'lanishiga ko'proq e'tibor berila boshlandi. Tilga so'zlovchi va tinglovchining o'zaro ta'sir turi sifatida qarash kuchaydi. Boshqacha aytganda, tilning so'zlovchi va tinglovchi munosabatisiz mavjud bo'la olmasligi, ularning bir-biriga ta'sirisiz, munosabatisiz nutqning o'zi ham mavjud bo'la olmasligi masalasi idrokdan, amaliy faoliyatda namoyon etilishga yuz tutdi. Nutqiy faoliyat subyekti psixologik va ijtimoiy tavsiflarni yetkazuvchi sifatida o'rganishga kirishildi. Ma'lumki, til va nutqqa nisbatan bunday yondashuv asosida nutqiy aktlar nazariyasi yotadi.

O'zbek tilshunosligida nutqiy aktlar va ular haqida bildirilgan fikrlar bo'yicha bir qator ishlar tilga olinadi<sup>46</sup>. Tilshunos olim Sh.Safarov nutqiy akt tushunchasi mohiyatini quyidagicha izohlaydi: "Tilning mavjudligi insonlarning so'zlash yoki yozish harakatlarini bajarishi bilan bog'liqdir. Bu harakatlarning bajarilishi jarayonida lisoniy birliklar (birinchi o'rinda – gap) asl ma'nosidan tashqari, tasdiqlash, buyurish, ogohlantirish, va'da berish kabi mazmunni ifodalash imkoniyatini namoyon qiladi. Bu ma'nolar so'zlovchi shaxs tomonidan bajarilayotgan nutqiy faoliyat natijasidir. Demak, nutqiy akt so'zlovchining ma'lum muhitda, aniq maqsadda tinglovchiga lisoniy murojaatidir" <sup>47</sup>. Maqollar ham tasdiqlash ("Do 'sting ham til, dushmaning ham til"; "So 'zning boyligi, odamning chiroyligi"), buyurish ("Aytar so 'zni ayt, aytmas so 'zdan qayt"; "Nonni katta tishlasang ham, gapni katta gapirma"), ogohlantirish ("Mushugingni "pisht" dema, mehmoningga tegar") kabi mazmun ifodalab, shu mazmunli matnlarni, nutqiy aktlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

*Keyin kelinposhshaning oyoq-qo li chaqqon emasligi, latta-puttaga o'chligi, kir yuvganda teskari siqishi, xullas, nimaiki aybi bo lsa, hammasi doston bo ldi. Elmira hasratini kimga aytishni bilmasdi. Ota-onasiga gapirsa, o'zing pishirgan oshni o'zing ich, deyishi turgan gap* (O'.Hoshimov "Nur borki, soya bor", 128-bet).

Keltirilgan matnda norozilik ottenkasi tanbeh aktini, tanbeh mazmunli matnni shakllantiradi. Matnda qo'llanilgan "chaqqon emaslik", "latta-puttaga o'chlik", "kirni teskari siqish" birikmalari norozilikni ifodalab, keltirilgan maqolning tanbeh mazmun ifodalashini ta'minlagan va bu matnda shunday mazmunini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Har bir til vositasi muloqot jarayonida qo'llanilar ekan, u ma'lum maqsad ro'yobi uchun xizmat qiladi. Maqollar ham til vositasi sifatida muloqot samarasini ta'minlash uchun nutqda voqelantiriladigan va gap, birikma tarzida xalqning lisoniy ongida mujassamlashgan til belgisi sifatida barqarorlashgan, keyingi til taraqqiyoti davomida tayyor "til materiali" sifatida namoyon bo'luvchi vosita sifatida qarash mumkin bo'lgan birlikka aylangan:

"Pichoqni oldin o'zingga ur, og'rimasa birovga ur":

– Xudo seni sinayotgan edi. Sen boshqalarning boshiga ofat toshlari yog 'dirib kun ko 'rding. Endi bu toshlarni o'zing ham bir totib ko 'r-chi? "Pichoqni oldin o'zingga ur, og'rimasa birovga ur", degan hikmatni eshitmaganmisan? Sen bu hikmatga amal qilmading. Pichoqni avval birov-larga urib, lazzatlanding. Endi esa pichoq etingni sal tilib ketsa, voy-voylab o'tiribsan... (T.Malik "Shayxtanat", uchinchi kitob, 128-bet).

Maqollarning yana shunday o'ziga xos jihat borki, nutqiy aktning yuzaga chiqaruvchi bosh omili ham bo'lishi, ya'ni nutqiy akt mazmun-mohiyatini shakllantiruvchi, matndagi asosiy vazifani, mazmunni ifodalashi mumkin. Xuddi shuningdek, maqol ifodalagan mazmun orqali nutqiy akt ko'rinishlari yuzaga keladi. Bu holat qo'yidagi maqollarda o'z ifodasini topganligini kuzatamiz:

"Egasini siylasang itiga suyak tashla":

*Nima qilsin? Quruqdan-quruq boraversinmi? Har kim o'z obro'siga yarasha ish tutishi kerak. Gilam oborsa chol nazariga ilmaydi. Magnitofon oboray desa chol odam uni nima qiladi? Tilla soatmi? U ham bo lmaydi. Arzimagan narsa. Shunday narsa oborsinki, Rahimovning qu-log iiga yetsin. Yaqin odamlarimni ham qadrlayapti, desin. Egasini siylasang itiga suyak tashla,*

<sup>46</sup> Боймираева С. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив -прагматик мазмунини шакллантирувчи омиллар. Фил. фан. док...дисс. автореф. – Тошкент, 2010; Тоирова Г. Нуткий мулокот ситуатив прагматик система сифатига. фил. фан. ном...дис. афтореф. – Тошкент, 2011; Сафаров Ш., Тоирова Г. Нуткнинг этносоциопрагматик таҳлил асослари. – Самарқанд: СамдЧТИ, 2007; Пардев З. Прагмалингвистика. – Самарқанд, 2013; Ҳакимов М., Фозиева М. Матннинг прагмасемантик тадқиқи // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2013; Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент, 2013. – 176.

<sup>47</sup> Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: ЎзМЭ нашриёти, 2008. – Б. 77.

*deb bekorga aytishmagan* (S.Ahmad “Jimjitlik”, 225-bet). Maqol maslahat mazmunini ifodalagan matnni, nutqiy aktini shakllantiradi.

Maqollarning maslahat nutqiy akti, tanbeh nutqiy akti, haqorat nutqiy akti, tabrik nutqiy akti va bu nutqiy aktlarda qo’llanilish o’rni va vazifasi, pragmatik talqini kabi masalalar alohida tadqiqotlarni talab qiladi.

### **Adabiyotlar**

1. Boymirzaeva S. O’zbek tilida matnning kommunikativ-pragmatik mazmunini shakllantiruvchi omillar: Fil. fan. dok...diss. avtoref. – Toshkent, 2010. – 49 b.
2. Hakimov M. O’zbek pragmalingvistikasi asoslari. – Toshkent, 2013. – 176 b.
3. Hakimov M., G’ozieva M. Matnning pragmasemantik tadqiqi // O’zbek tili va adabiyoti. – 2013. – № 5. – B 79-82.
4. Pardayev Z. Pragmatik lingvistika (o’quv-uslubiy qo’llanma). – Samarqand, 2013. – 104 b.
5. Safarov Sh. Pragmalingvistika – Toshkent: O’zME nashriyoti, 2008. – 318 b.
6. Safarov Sh., Toirova G. Nutqning etnosotsiopragmatik tahlili asoslari. O’quv qo’llanma. – Samarqand: SamDChTI, 2007. – 39 b.
7. Toirova G. Nutqiy muloqot situativ pragmatik sistema sifatida: Fil. fan. nom...diss. aftoref. – Toshkent, 2011. – 32 b.

## **КУЛЬТУРНЫЕ КОНЦЕПТЫ В УЗБЕКСКОЙ ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЕ МИРА**

**3. Р. Джураева,  
преп. БухДУ**

В последнее время в мировом языкоznании все больше внимания уделяется лингвокультурологии и когнитивной лингвистике. Большое количество публикаций, так или иначе затрагивающих проблему «язык и культура», свидетельствует об актуальности изучения явлений языка в их соотнесенности с его кумулятивной функцией.

Основные концепты узбекской культуры становятся объектом не только культурологического, но и филологического исследования. Особый интерес представляет изучение концептов на пословичном материале, так как речь в данном случае идет о национальном видении мира и способах его языковой презентации.

Как справедливо отмечает Б.М. Жураева, «в последние годы в узбекском языкоznании, то есть в период возрождения национальных ценностей, от говорящего требуется глубокое усвоение языка, в частности узбекского языка, имеющего статус государственного; лаконичное, обоснованное, образное и эффектное выражение мысли. Поэты, писатели и ораторы независимо от возраста, если хотят обосновать или укрепить мысль, то обязательно обращаются к пословицам» [1].

В когнитивной лингвистике термин «концепт» является базовым. Этот термин заимствован когнитивной лингвистикой из логики. Проблема определения концепта в целом не является новой для лингвистики [2].

В современной научной парадигме термин «концепт» воспринимается неоднозначно. Наиболее полным является исследование концепта, проведенное З.Д. Поповой и И.А. Стерниным. Под концептом ученые понимают «глобальную мыслительную единицу, представляющую собой квант структурированного знания» [3].

В каждой языковой картине мира существует совокупность семантически нагруженных слов (культурные концепты, ключевые слова), называющих узловые точки в картине

мира. Культурная модель, порождающая соответствующие тексты, языковые стереотипы и новые значения, формирует состав словаря культурно-языковой картины мира.

Анализ показал, что именно в культурных концептах выражается картина мира узбеков – система наиболее общих миропредставлений носителей данного языка. Язык в наибольшей степени выражает этнические особенности восприятия действительности. Исследование культурных концептов узбекской языковой картины мира способствует выявлению этнических особенностей стиля мышления узбеков как образа культуры, являющегося одним из аспектов духовной культуры. Менталитет узбекского народа отражается именно через ключевые культурные концепты, благодаря которым можно составить представление носителей данной лингвокультуры об окружающем мире.

Пословицы и поговорки составляют неотъемлемую часть словарного состава языка языковой картины мира. В узбекской языковой картине мира данный пласт лексики отражен в работах П.Бакирова, Б.Жураевой, М.Садридиновой, Х.Абдурахмонова, А.Маматова, А.Журахонова и др.

Культурные концепты, реализуемые в паремиях посредством ключевых слов, объединяют понятия, представления, образы, приоритеты, стереотипы и оценки, отражающие специфику национального менталитета и мировосприятия, а также системы социокультурных отношений, традиций, обычаяев, характерные для узбекской культуры. Понятийные сферы содержат значительный объем этнокультурной информации, облашают когнитивной направленностью в художественных текстах при описании человека и окружающей его действительности [4].

У каждого народа, у каждой семьи свои обычаи, традиции. В узбекской языковой картине мира концепт «урф-одат» (традиция, обряд, обычай) является одним из основных концептов. «Урф-одат» в древнем узбекском обществе означал традиционно установленные нормы и правила, подлежащие неукоснительному соблюдению. Например, Bir qilgan – madad,

*Ikki qilgan – odat* (Один раз сделал – помочь, два раза сделал – традиция). Dard ketar, odःat qolar (Боль уйдет, привычка останется). *Tarki odat – amri maҳол* (Отказ от помощи невозможен).

Одним из национально и культурно значимых концептов узбекской языковой картины мира является концепт «нон» (хлеб). Концепт «хлеб» несет в себе не только смысл естественного жизнеобеспечения, но и символы духовного образа жизни народа. *Хлеб – это хлеб, хлебные крошки – тоже хлеб. С неба лепешики не сыплются.*

Терпеливость (сабрлик) – одно из лучших качеств узбекского народа. Для узбекского менталитета характерно стремление не афишировать испытываемые чувства, проявлять скромность и умеренность в выплескании наружу чувств и переживаний, самообладание. В связи с этим усиливается роль концепта «сабрлик» в традиционной системе ценностей узбекской лингвокультуры. Подтверждением может служить следующая узбекская пословица: Odob bilan baxt topilar, Sabr bilan – taxt (Счастье в вежливости обретается, в терпении – трон). Sabr tagi – sari oltin (Дно терпения – золотое).

С древнейших времен наш народ считался очень терпеливым, сдержаненным, при любых обстоятельствах он держался достойно. В народе считается, что только терпеливый человек достоин уважения. Sabr tog'ni yiqitar (Терпение гору разрушает). Sabr – umr xazinasi (Терпение – сокровище жизни). Sabr – shodlik kaliti (Терпение – ключ к счастью).

Высоко ценится узбеками понятие «скромность». Скромность – основное качество узбеков, которые считали и считают, что только терпеливый и скромный человек может быть счастливым. Камтар бўлдинг – гавҳар бўлдинг (Скромный человек – жемчужина).

Камтар бўлсанг, обрў ортар, Манман бўлсанг, энса қотар (Если вы скромны, ваша репутация будет расти, Если вы высокомерны, ваша шея будет твердой). Камтар бўлсанг, ош кўп, Манман бўлсанг, тош кўп. (Если будешь скромный, то еды много, Если будешь высокомерным, то камней много).

Важнейшей задачей современного языкоznания является осмысление языковых фактов через призму концептуального анализа ключевых понятий, формирующих языковую картину мира. К таким понятиям относится концепт «бахт» (счастье). Avvalgi baxtim – gul baxtim, Keyingi baxtim – suvga oqdim (Мое предыдущее счастье – мое цветочное счастье, мое следующее счастье – утекло в воду). Baxt kulgu bor uygа kirar (Счастье входит в тот дом, где звучит смех).

В узбекской языковой картине мира концепт «бахт» («счастье») является одним из основных культурных концептов. Счастье каждый понимает по-своему. Оно может благоприятствовать человеку и отворачиваться от него. Умный сын – счастье, глупый сын – горе. Счастье – состояние человека, соответствующее внутренней удовлетворенности условиями своего бытия. Baxt – sandiqda, kaliti – osmonda (Счастье – в сундуке, ключ – на небе).

В узбекских пословицах условием счастья признается труд. Счастье является результатом труда, личных заслуг человека. Для того, чтобы стать счастливым, необходимо трудиться. *С умом возьмешься – трудное легким станет.* Образная составляющая концепта «акл» («ум»), отраженная с помощью узбекских народных пословиц и поговорок, обладает ярко выраженной национальной спецификой. Aql aynimas, oltin chirimas (Ум не исчезает, золото не гниет). Aql aqldan quvvat olar (Ум черпает силу из разума). Aql bilan odob egizak (Ум и воспитанность – близнецы). Aql bozorda sotilmas (Ум на базаре не продается). В пословицах и поговорках во многих случаях «ум» проявляет себя как антипод глупости.

Итак, под культурными концептами, выявленными на материале паремий, понимаются концептуализированные в национально-культурной и индивидуально-авторской языковой картине мира понятия, имеющие, помимо понятийных составляющих, образные, семантические, ассоциативные приращения. Пословицы и поговорки составляют неотъемлемую часть словарного состава языка, отражающую специфические особенности многосторонней материальной и духовной культуры узбекского народа, его национальный менталитет.

Культурные концепты, выявленные на материале узбекских народных пословиц и поговорок, представляют интерес не только в структурно-семантическом плане, но и в лингвокультурологическом, так как пословицы и поговорки являются носителями национально-культурной информации узбекского народа.

## Литература

1. Воробьев В.В. Лингвокультурология. – М.: Наука, 1997. – С.44–56.
2. Жураева Б.М. Лингвистические основы и прагматические свойства формирования узбекских народных пословиц/ автореферат диссертации на... степени доктора наук (DSc). – Самарканд, 2019. – 32 с.
3. Попова З.Д., Стернин И.А. Очерки по когнитивной лингвистике. – Воронеж: Истоки, 2002. –165 с.
4. Самситова Л.Х. Концептуальная оппозиция «добро- зло» в башкирской языковой картине мира (на материале пословиц и поговорок) // Вестник БГПУ им. М. Акмуллы, № 3(14), 2007. - С. 103 - 110.

## BADIY MATNDA RANG BILDIRUVCHI LEKSEMALAR PRAGMATIKASI

S.İsrailova,  
O'zbekiston Moliyaviy Universiteti o'qituvchisi

XIX asrdan boshlab, til va madaniyat muammosi borliqning inson ongida aks etishi va tafakkurning antroposentrik prinsipiga tayanuvchi hodisa sifatida ko'plab soha mutaxassislari – faylasuflar, tilshunoslar va madaniyatshunoslar diqqat markazida bo'ldi. Insoniyat tarixida rang-larning turli ramziy ma'nolari bo'lib, ular ma'lum jamiyat guruhlarining etnik, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotidagi u yoki bu haqiqatlarni aks ettirgan.

Sifat so'z turkumini va uning ichiga kiruvchi rang bildiruvchi so'zlarni pragmatik jihatdan tahlil qilish hamda o'rganish o'zbek tilida deyarli amalga oshirilmagan. Ammo pragmatik maz-munni tushunish va tahlil qila olish ham o'quvchidan zakiylikni talab qiladi. Pragmalingvistika nuqtayi nazaridan e'tirof etadigan bo'lsak, qachon, qayerda, kimga, nimani, qanday gapirishni o'quvchi bilishi va yaxshi anglashi lozim.

Lisoniy faoliyatning pragmatik xususiyatlari, bu xususiyatlarni yuzaga keltiruvchi omillarni o'rganish tilning ijtimoiy mohiyatini aniqlash uchun muhimdir. Bu lisoniy muloqotning ijtimoiy va ruhiy-psixologik qonuniyatlar bilan moslashgan holda ro'yobga chiqishini va shu asnoda til tizimi rivojlanishini tasdiqlovchi dalillar topish imkonini beradi. Pragmatika uchun inson bel-gidan nima uchun (qanday maqsadda) foydalanadi va bu qanday (qay yo'sinda) bajariladi kabi masalalar muhim bo'lsa, unda beixtiyor belgilarning o'zaro birikib, lisoniy struktura tuzishi (sintaksis) hamda ushbu belgililar tuzilmasi ulardan foydalanuvchilar xohishidagi ma'noni ifodalash mumkinligi (semantika) haqidagi savollar ham pragmatik tahlil qamroviga o'ta boshlaydi.

Rang bildiruvchi leksemalarning pragmatik xususiyatlarini ochib berish va uni matn hamda diskursda ko'rsata olish, ulardagi pragmatik mazmun qanchalik darajada ifodalangan va buni o'quvchi qay darajada tushunmoqda, mana bularni ochib berish dolzarb masaladir.

Rang bildiruvchi leksemalar o'zining semantikasi, stilistikasi, lingvokulturologiyasidan tash-qari pragmatikasining go'zalligi va ma'no chuqurligi bilan ham ajralib turadi. Aynan matnda bu holatlar yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Dastavval, rang-tus sifatlari orasida badiiy ijodda eng faol leksemalardan bo'lmish, *oq* va *qora* sifat leksemalari xususida to'xtalmoqchimiz. E'tibor beradigan bo'lsak, ko'pchilik "qora deyilganda "oq"ni tilga olishadi. Bir-biriga qiyosan ishlat-tiladigan bu ranglar xuddiki yaxshilik va yomonlik obrazlarida jonlanadi. Xalqimizning "Oyning o'n beshi qora bo'lsa, o'n beshi oq", "ichi qora", "yuzi qora", "ko'ngli oq" kabi maqol va fra-zalarda ham buni ko'rish mumkin.

– Aybim "qora" bo'lganimmi? Nahotki to'rtta bola tug'ib ham shu gapni eshitsam?

– Ko'p gapirma (So'zlashuv nutqidan)

Bu dialogda "qora" leksemasi qo'llangan. Lekin e'tibor bersak, "qora" bu yerda rang ma-nosida emas, balki butunlay boshqa ma'noda keladi. Buning uchun avval "qora" so'zining semantikasiga ko'z tashlash maqsadga muvofiq. *Qora* sifat leksemasi nutqda faqat predmetning rangini ko'rsatish maqsadida qo'llanganda, emotsional-ekspressivlikdan xoli bo'ladi, uning va-zifikasi rang to'g'risida xabar, ma'lumot berish bilangina cheklanadi. Nafaqat qora sifat leksemasi, balki barcha rang-tus sifatlariga ham xuddi shu fikrni aytish mumkin. Masalan, *qora qalam, oq daftар, moviy osmon, ko'k ruchka, qizil qon* va hokazo. Bu birikmalarda biz hech qanday uslubiy ma'no xususiyatlariga duch kelmaymiz. Chunki bunday birikmalar uslubiy bo'yoqdorlikdan xoli hisoblanadi. Biroq bu sifat leksemali birikmalarning hokim bo'lagi o'zgarsa, sifat leksemalarning ma'no qirralari ham o'zgarishga yuz tutishi, yana ham aniqrog'i uslubiy ma'no kasb etishi mumkin. Masalan, *qora o'tmish, oq ko'ngil, moviy havo, qizil dunyo* kabi.

“*Qora*” leksemasi qadimgi turkiy tilda “*belgi*”(rang) tushunchasini ifodalagan. Ko‘chma ma’nolarda kelib, 1) “*baxti qora*”, “*g’amgin*”; 2) “*og’ir*”; 3) “*yomon*”; 4) “*oddiy*”, “*past navli*”, “*qo’pol*”; 5) “*siyoh*”, “*rang*” tushunchalarini anglatgan. Eski o’zbek adabiy tili davriga kelib, “*qora*” leksemasining semantik strukturasida kengayish yuzaga keladi. “*Qora*” hozirgi o’zbek tilida o’n besh xil ma’noda qo’llanadi. Ellikka yaqin yasama va qo’shma leksemalarning shakllanishi uchun asos bo’lgan. Leksemaning hozirgi o’zbek adabiy tilidagi “*shaxmat donalari*”, “*o’qimagan*”, “*savodsiz*”, “*ko’ngilsiz, noxush*”, “*noto’g’ri, aybdor*” semalari eski o’zbek adabiy tilida kuzatilmaydi. Bu esa leksema semantik strukturasining kengayib borishi bilan belgilanadi.

— *Yuklaridan qora dori chiqqanmish, – deb izoh berdi.*

*Bu gapdan so’ng Asadbekdan bir necha soniya sado chiqmadi...*<sup>48</sup>

Bu keltirilgan misolga nazar solsak, “*qora*” so’zining pragmatikasi namoyon bo’lmoqda. “*Qora dori*” birikmasida aslida dorining rangini emas, balki butunlay boshqa ma’noni kuzatamiz. Aslida bunaqa dorining mavjud emasligini, aksincha, bu og’u, bu narkotik modda ekanligini, uning natijasida ko’p insonlarning hayoti barbod bo’lishini, uning ishlari “*qora*” ekanligini bilishimiz mumkin. Balki shuning uchun ham bu zahar “*qora dori*” deb atalar.

Yana quyidagi misolda ham shuni ko‘rish mumkin:

— “*Qoralar*” oldinda! “*Oq*” bechora qolib ketti...

— *Ko’pam quvonaverma. Hali nima bo’lishini bilmaysanu...*

Bu debatda ham “*qora*” va “*oq*” so’zlari rang ma’nosida emas, balki hamma uchun sevimli bo’lgan shaxmat o’yinining donachalari haqida bormoqda. Dastlab “*qoralar oldinda*” gapi orqali tinglovchi gap nima haqida borayotganligini tushuna olmaydi. Qaysi “*qora*”, nima uchun shunaqa deyilmoqda buni tinglovchi anglab ololmaydi, ammo “*oq bechora*” esga olingach gap shaxmat haqida ketayotganligini bilib olish qiyin emas. Demak, bu yerda gap rang haqida emas, balki umuman boshqa narsa haqida ketmoqda. Bu ichki ma’noni anglash uchun esa bizga pragmatik tahlil yordam beradi.

*Oq* leksemasi badiiyatda beg’uborlik, musaffolik, tinchlik ramzi sifatida keng qo’llanadi. *Oq rang* deyarli barcha xalqlar madaniyatida soflik, rostgo’lylik, ezgulik timsoli sifatida ifodalananadi. O’zbek madaniyatida oq rang pokizalik, musaffolik, ezgulik ramzini anglatadi. Ba’zi lingvomadaniyatlarda oq rang qo’rroqlik timsoli sifatida keladi. Masalan, birinchi jahon urushida harbiy xizmatdan qochib ketgan fransuz askari yoki zabitiga qo’rroqlik ramzi sifatida oq patlar yuborilgan.

*Oq* leksemasining pragmatik ma’nosini esa diskursda namoyon bo’ladi. Uni quyidagi misollardan ham ko‘rish mumkin:

— *Oq bilan gorani ajratolmag’an fuqaroning bir necha g’arazg’u mustabidlar kayfi yo’lida bir-birisining qonig’ a tashna bo’lishlari va natijada istiqbolning vahm ko’rinishlari!*

*Shunday qayg’ular ichida bo’lib o’lturar ekan, Hasanali qo’lida bir maktub bilan hujraga kirdi:*

— *Toshkanddan emish, otangizdan bo’lsa kerak*<sup>49</sup>.

Asardan olingen bu parchada ishlatilgan “*oq*” va “*qora*” rang ma’nosida emas, balki yaxshilik va yomonlik, odamlarning yaxshi va yomoni ma’nosida kelgan.

— *Choyingni qo’y, oqidan ellikta quy-chi, - deb buyurdi.*

*Bo’tqa bo’tqa bo’lib shu dargohga kelibdiki, Asadbek hali biron marta bu xonada o’tirmagan, o’zi “ellikta quy” deb so’ramagan edi. Shu sababli Bo’tqa amrni anglamaganday xoja-siga qaradi.*

<sup>48</sup> Tohir Malik. Shaytanat. 4-qism. –Toshkent: Sharq, 2001.

<sup>49</sup> Abdulla Qodiriy. O’tkan kunlar. – Toshkent: Sharq, 1992.

– *Nimaga angrayasan, oqidan ellikta quy deyapman*<sup>50</sup>.

Bunda ham “**oq**” leksemasi ishlatilgan va u rang ma’nosida emas, ichkilik turini anglatgan. Bu misollarda oq leksemasining o’z semantikasidan uzoqlashib, aynan pragmatikasi namoyon bo’lganini ko’rish mumkin.

Oq va qora leksemalaridan tashqari qizil so’zini ham misol qilib keltirishimiz mumkin. Qizil rang deyarli barcha madaniyatlarda qondan oqadigan tiriklik va hayot ramzidir. Qizil leksemasining badiiy matnda pragmatik ifodalanishi:

– *Dehqonqul! Shuni o’ng qulog ‘ing bilan-da eshitib ol, chap qulog ‘ing bilan-da eshitib ol!*  
*Qizil rang yaxshilikka olib kelmaydi.*

– *Qizil bo lsa bo lar, bu kishiga nima.*

– *Dehqonqul! Qizil yomon-da qizil yomon. Boisi qizil rang –qon rang!*<sup>51</sup>

Bu matnda “*qizil*” deganda rang emas, Chor Rossiyasi askarlari, o’sha hukumat tushunilmoqda.

Yoki quyidagi misolda ham pragmatik tahlilga majburlik sezamiz:

– *Qizilga o’tib kettingiz.*

– *Uzr.( GAZETADAN)*

Bu kontekstda ham so’zlovchi gapi orqali nimani nazarda tutayotganligini bilish biroz mushkul, agar unga e’tibor bersak, gap svetaforning qizil chirog’i haqida borayotganligini, haydovchi yo’l qoidasini buzganini bilib olish unchalik qiyin emas. Ranglarning ahamiyati hayotmizda qanchalik muhim ekanligini biz svetaforning qizil, sariq va yashil ranglaridan ham bili-shimiz mumkin.

Rang bildiruvchi leksemalar ichida *yashil, ko’k, sariq* leksemalari ham o’ziga xos o’ringa ega.

– *Yashilni shuncha kutamizmi? Katta davlatlarda nima qilishar ekan a??*

– *Umri yashilni kutish bilan o’tib ketadi-da... ( GAZETADAN)*

Bu misolda yashil svetaforning chirog’i ma’nosida kelib, pragmatik ma’no tashigan. Gapni pragmatik tahlil qilgandagina, uning ichki ma’nosi namoyon bo’ladi.

– *Sariq bo ldingmi?*

– *Ha. (GAZETADAN)*

Bu dialogda ham sariq leksemasi rang ma’nosida emas, kasallik ma’nosida ishlatilgan. Tabobatda bu kasallik belgisi sifatida bemorning rangi sarg’ayib ketishiga nisbatan nomlangan degan faraz mavjud.

Yoxud:

– *Ko’klamoyim ko’kingdan ber bir chimdim...*

Bu yerda ham ko’k leksemasi rang ma’nosidan tashqari, bahor fasli va uning ne’matlarini anglatadi. Bahor fasli ko’k rangida berilgan bo’lib, bahor ne’matlari ham, jumladan, yalpiz, jan-diq, ismaloq kabi o’simliklar ko’k misolida beriladi.

– *Bir pachka ko’ki bilan qo’lga tushibdi, ish chatoq.*

Bu gapda ham ko’k o’z semasidan uzoqlashib, pragmatik mazmun ifodalagan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, rang-tus sifatlari matn ichida rangdan tashqari har xil pragmatik vazifalarni ham bajaradi. Rang-tus sifatlari bo’yicha qilingan ishlarda, asosan, ularning semantikasi va ramziy ma’nolariga katta e’tibor berilgan. Ba’zi bir ishlarda ularning konnotativ ma’nolari ham e’tiborga olingan. Lekin ularni pragmalingvistik jihatdan tahlil qilgan birorta ham ilmiy ishlar qilinmagan. Rang bildiruvchi so’zlarni pragmalingvistik tahlil qilish uchun, albatta, misollar matn ichidagi dialoglar yoki hayotdagi jonli muloqotlardan olinadi, shundagina uning pragmatik xususiyatlari yanada aniq namoyon bo’ladi.

<sup>50</sup> Tohir Malik. Shaytanat. 3-qism. – Toshkent: Sharq, 1997.

<sup>51</sup> Tog’ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent: Sharq, 1994.

## KORPUS LINGVISTIKASI: MAZMUNI VA MOHIYATI

*A.Rahmanova,  
O'zbekiston universiteti doktoranti.  
M.Akramjonova,  
magistrant*

O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi milliy til imkoniyatlarini yanada oshirdi, funksional doirasini yanada kengaytirdi. 2019- yil 4- oktabrda o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgan sananing 30 yilligini nishonlash to'g'risida Prezident qarori e'lon qilindi. Mazkur qaror davlat tili mavqeyini oshirish, uning mohiyatini keng xalq ommasiga singdirish, nafaqat O'zbekistonda, balki mamlakat tashqarisida, xorijdagi O'zbekiston elchixonalari, vakolatxonalarida o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan sanani bayram sifatida nishonlash borasidagi chora-tadbirlarni belgilashda dasturulamal vazifasini o'tamoqda. O'zbek tili nafaqat O'zbekistondagi o'zbeklarning, balki dunyo bo'ylab tarqalgan 50 mln.dan ortiq o'zbeklarning muloqot vositasi hisoblanadi. 2019- yil 21- oktabrda o'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari haqida Respublika Prezidenti farmoni e'lon qilindi. Farmonda o'zbek tilining mavqeyini oshirish, uning funksional doirasini kengaytirish, axborot va ilm-fan tiliga aylantirish haqida qat'iy talablar bayon qilingan.

Hozirgi kunga qadar o'zbek tilshunosligida til nazariyasiga doir fikrlar keng miqyosda tahlil etildi. Tilshunoslikning nazariy masalalari turli aspektida o'rganildi. Ilmiy-nazariy masalalarining har tomonlama chuqur tadqiq qilinishi turli qarashlar, talqinlarga zamin yaratdi. Bu holat ilmiy bahs-munozaralarning ayrim masalalar borasida ilmiy tadqiqotlar negizida hanuzgacha davom etishiga asos bo'ldi. Ilmiy bahs-munozaralar maktab, akademik litsey, oliy ta'lim darsliklariga ham kirib bordi. Natijada nazariy masalalar talqinida har xil yondashuvlar yuzaga keldi. O'zbek tili imkoniyatlarining o'zlashtirilishiga salbiy ta'sir ko'rsata boshladi. Busiz ham o'zbek tili imkoniyatlaridan foydalanish mahoratidan yiroq bo'lgan o'quvchi-yoshlar grammatik qoidalarni o'zlashtirishda qiynaldirilar. Oqibatda ham nazariy qoidalarni o'zlashtirish, ham tildan amaliy foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishda muammolar yuzaga keldi. Muammolarni bartaraf etishda amaliy lingvistika sohasiga ehtiyoj tug'ildi.

"Amaliy lingvistika" termini ko'p ma'nolidir. Bu termin rus va g'arb tilshunosligida mutlaqo har xil talqin qilinadi. G'arb tilshunosligida *applied linguistics, angewandte linguistik* termini birinchi navbatda o'qitish metodikasini, o'qitish maqsadida grammatik tavsif xususiyatlarini qamrab olgan holda chet tillarini, tilni ona tili va chet tili sifatida o'qitish bilan bog'lanadi. Rus tilshunosligida "amaliy lingvistika" termini XX asrning 50 yillarda kompyuter texnologiyalarning ishlab chiqilishi va axborotni qayta ishlash tizimi (boshqaruvning avtomatlashgan tizimi, informatsion qidiruv tizimi, matnni qayta ishlash avtomatik tizimi) shakllanishi munosabati bilan yuzaga keldi. Shuning uchun ham rus tilidagi adabiyotlarda "amaliy lingvistika" termini o'rniда shu ma'noda ko'p hollarda «kompyuter lingvistikasi», «hisoblash lingvistikasi», «avtomatik lingvistika», «injener lingvistikasi» terminlari qo'llanadi" [Baranov,2001:5 ]. Amaliy lingvistikaning mazkur nomlar bilan yuritilishi uning faoliyati xarakterini belgilaydi. Ushbu terminlarda amaliy lingvistikaning integratsiyaga asoslanishi, avtomatlashish xususiyati o'z ifodasini topgan. Lingvistik masalalarni hal qilishda matematika, informatikaning o'rni ahamiyatli. Matematik tushunchalarning tilshunoslikka tatbiq qilinishi ma'lumotlarni o'zlashtirishni osonlashtiradi, xulosalarning aniqligini ta'minlaydi. Tilshunoslik muammolarining kompyuter yordamida hal qilinishi esa til funksional doirasining kengayishini, takomillashuvini belgilaydi.

Amaliy lingvistika sohasi sifatida qaralayotgan kompyuter lingvistikasi o'zbek tilshunosligida ijtimoiy ehtiyoj talabi bilan yuzaga keldi. Kompyuter lingvistikasi matematika, informa-

tika, lingvistika fanlari integratsiyasi asosida shakllandi. “Kompyuter lingvistikasi” inglizcha «computational linguistics» so’zining kalkasidir. XX asrning 80-yillariga qadar bu fan turlicha nomlar bilan atalgan: hisoblash lingvistikasi, matematik lingvistika, kvantitativ lingvistika, inżiner lingvistikasi kabi. Bu fanning asosiy maqsadi lingvistik masalalarini yechishning kompyuter dasturlarini ishlab chiqish, inson va mashina (kompyuter) muloqotini optimallashtirish, tabiiy tilni qayta ishslash (Natural Language Processing)dan iborat. NLP kompyuter lingvistikasi tabiiy tillarning kompyuter analizi va sintezini o’z ichiga oladi. Bunda analiz tabiiy tilning kompyuterda morfologik, sintaktik va semantik tahlil yordamida tushunilishiga nisbatan ishlataladi, sintez esa kompyuterda matnning grammatik shakllantirilishi va generatsiyasi (hosil qilinishi) demakdir” [Rahimov,2011:4]. Kompyuter lingvistikasi tabiiy tillarni qayta ishslash, avtomatik o’qitish, bilimlarni baholash, matnlarni avtomatik tahrirlash, korpus lingvistikasi, avtomatik tarjima, mashina orqali tahlil qilish masalalari borasida babsida yuritadi.

Muayyan bir tilning kompyuter lingvistika sohasi rivojlanishi uchun, birinchi navbatda, shu tildagi ma’lumotlar bazasi zarur bo’ladi. Kompyuter lingvistikasining avtomatik tahrir, avtomatik tarjima, informatsion qidiruv tizimi, kompyuter leksikografiyası, til o’rgatish dasturlari kabi barcha yo’nalishlari ma’lumotlar bazasi asosida shakllanadi.

Kompyuter lingvistikasi taraqqiyotini ta’minlovchi asosiy lingvistik omil elektron matnlar korpusi yoki parallel matnlar korpusidir. Korpuslar faqatgina lingvistik tadqiqotlar uchun emas, balki nolingvistik yo’nalishdagi izlanishlarga muhim manba sifatida xizmat qiladi. Korpus lingvistikasining kommunikatsiya, axborot almashuv, ilmiy tadqiqotlardagi ahamiyatli o’rni tadqiqotchidan tavsija qilingan adabiyotlardagi ma’lumotlarni tahlil qilish, qiyoslash va baho berish ko’nikmalariga, korpus lingvistikasining dasturiy vositalari va axborot resurslari bilan ishslash malakasiga ega bo’lishni talab etadi.

“Korpuslarning bir qator turlari bor: bir muallif korpusi, bir kitob korpusi, milliy korpus. Milliy korpus til taraqqiyotining ma’lum bir davridagi xususiyatlari, hududiy va sotsial variantlari – barcha jihatlarini qamragan holda namoyon etishdir. Rus tilining milliy korpusi internet tizimida 2003- yildan beri amal qilib kelmoqda va hozirgi vaqtida 149 mln so’z qo’llanishiga ega bo’lgan har xil ruscha matnlarni o’z ichiga olgan. Istiqbolda rus tilining milliy korpusi 200 mln so’z qo’llanishini o’z ichiga olgan matnlardan iborat bo’lishi ko’zda tutilgan [<http://ruscorpora.ru>; <http://ruscorpora.ru>].

Keyingi yillarda internet tizimining rivojlanishi virtual matnlar korpusining yuzaga kelishiga olib keldi. Internetdagи qidiruv saytlari, elektron kutubxonalar, virtual ensiklopediyalar korpus vazifasini bajarmoqda. Korpusning janri va tematik rang-barangligi internetdan foydalanuvchining qiziqishlariga bog’liq. Masalan, ilm-fan doirasida “Wikipedia” katta hajmdagi matnlar korpusi sifatida foydalanilmoqda [<http://www.wikipedia>].

Korpus lingvistikasida parallel matnlar korpusi muhim ahamiyat kasb etadi. Parallel matnlar korpusi badiiy asar, qo’llanma, ommaviy axborot vositalari, turli xil hujjatlarning ikki yoki undan ko’p tillardagi elektron ko’rinishlaridir. Parallel korpuslar yordamida bir so’z, jumla, abzas, supersintaktik butunliklarning turli tillardagi variantlarini bilish mumkin. Parallel korpuslar madaniyatlararo muloqot keng yoyilgan hozirgi davr uchun muhim vogelik hisoblanadi.

Parallel matnlar korpusining shakllanishi o’zbek tilining nufuzini oshirish, mavqeyini mustahkamlashga xizmat qiladi. Avvalo, parallel matnlar korpusi ma’lumotlar bazasi sifatida kommunikativ funksiya bajaradi. Bir tildagi matnning boshqa tildagi tarjimasini madaniyatlararo munosabatlarni aniqlashga, farqlarni ko’rsatishga yo’naltiriladi. Leksik birliklarni boshqa tillardagi tarjima variantlari orqali semantik tahlil qilishga imkoniyat yaratiladi. Axborot uzatishning turli tillardagi umumiylari va spetsifik xususiyatlari aniqlanadi.

## **Adabiyotlar**

1. Баранов А.Н. Введение в прикладную лингвистику. - М.: Эдиториал УРСС, 2001.- С.61.
2. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari.-Toshkent: Akademnashr, 2011.-B.4.
3. Гальскова Н.Д. Еще раз о лингводидактике / Н.Д. Гальскова // Иностранные языки в школе. 2008. - № 8. - С. 2.
4. Po'latov A., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi. - Toshkent, 2007.
5. <http://www.corpus.leeds.ac.uk/list.html>
6. [http://www.wikipedia.org/wiki/corpus\\_linguistics](http://www.wikipedia.org/wiki/corpus_linguistics)
7. http://ruscorpora.ru; http://ruscorpora.ru

## **KOMMUNIKATIV TO'SIQ LINGVOPRAGMATIK MUAMMO SIFATIDA**

*Sh.Atamuradov,  
ToshDO TAU tadqiqotchisi*

Lingvistik pragmatikaning diqqatga sazovor masalalaridan biri kommunikativ-pragmatik to'siq muammoсидир. Pragmatik to'siq matndagi propozitsiya mazmunining to'g'ri va aniq ang-lanishiga “xalaqit qiluvchi”, so'zlovchi tomonidan til birliklarining nome'yoriy holatda ifoda-lanishi, tinglovchining kontekst yoki nutq vaziyatida qo'llanilayotgan ifoda, nazarda tutilayotgan propozitsiya mazmuni yuzasidan yetarli bilimga (ma'lumotga) ega emasligi oqibatida yuzaga ke-luvchi va kommunikativ muvaffaqiyatsizlikka sabab bo'lувчи hodisadir.

Pragmalingvistikada kommunikativ-pragmatik to'siq muammoси R.R.Gelgard, L.A.Kiseleva, I.V.Chernigova, Y.V.Sadovskaya va boshqa tadqiqotchilar tomonidan maxsus o'rganilgan.<sup>52</sup>

O'zbek tilshunosligida bu masalaga dastlab M.Hakimov munosabat bildirdi. Olim pragmatik to'siqni uslubiy vosita sifatida tekshirar ekan, uning me'yorsiz talaffuz, nome'yoriy so'z qo'llash, grammatik shakl va qurilmalarning me'yorsiz bog'lanishi, funksional uslubning me'yorsiz qo'llanilishi natijasida yuzaga kelishini qayd etadi.<sup>53</sup>

Nutqiy faoliyatda kommunikativ-pragmatik to'siqning yuzaga kelish sabablarini aniqlashda muloqot ishtirokchilarining yosh jihatni ham ahamiyatga molik. O'zbek pragmalingvistikasida masalaning bu jihatiga alohida e'tibor qaratilgan. Bu boradagi nazariy qarashlar M.Qurbanova tomonidan amalga oshirilgan lingvopragmatik tadqiqotda o'z ifodasini topgan. Bunda bolalar nutqida pragmatik to'siqning paydo bo'lishi va ular tomonidan o'zgalar nutqining pragmatik to'siq sifatida qabul qilinishi bilan bog'liq muammolar yoritilgan.<sup>54</sup>

Pragmatik to'siq hodisasining o'zbek tilshunosligida ilmiy-nazariy jihatdan maxsus o'rganilmaganligi, pragmatik to'siqni yuzaga keltiruvchi omillar doirasining kengligi ushbu hodisani pragmalingvistikaning dolzarb muammolaridan biri sifatida monografik planda tadqiq qilishni talab etadi.

Kommunikativ faoliyatning qay darajada amalga oshishi muloqot ishtirokchilarining nutq vaziyatidagi psixofiziologik holati, lisoniy-intellektual salohiyati, ijtimoiy belgilari hamda o'zaro munosabatlariga bog'liq. Nutq ishtirokchilari ijtimoiy, ruhiy va intellektual jihatdan bir-biriga

<sup>52</sup> Гелгард Р.Р. Помехи в понимании речевых сообщений // Русский язык в школе. 1968. №3. – С.3-9; Киселева Л.А. Вопросы теории речевого воздействия. – Л., 1978. – С.135-136; Чернигова И.В. Нейтрализация коммуникативно-прагматических помех в тексте издательского предисловия к французским художественным произведениям XVI-XVII веков. <http://cyberleninka.ru/article/n/>; Садовская Ю.В. Коммуникативные помехи в детской речи. <http://cyberleninka.ru/article/n/kommunikativnye-pomehi-v-detskoy-rechi#ixzz4fWsIT4Lp>

<sup>53</sup> Hakimov M. O'zbek pragmalingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – B.155.

<sup>54</sup> Qurbanova M. O'zbek bolalari nutqining pragmalingvistik aspekti. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018. – B.44.

qay darajada yaqin bo'lsa, kommunikativ faoliyat shu darajada samarali va muvaffaqiyatli amalga oshadi. Aks holda nutqiy faoliyat muvaffaqiyatsiz kechadi. E'tibor berilsa, jamiyatda turli jihatlari bilan bir-biridan farqlanuvchi kishilarning o'zaro muloqotga kirishishi muayyan nutqiy vaziyatda yuzaga keladigan pragmatik to'siq ko'laming naqadar keng bo'lishi mumkinligi haqida tasavvur uyg'otadi. Ya'ni nutqning ijtimoiy-differensial xoslanishi natijasida yuzaga keladigan pragmatik to'siq muloqot vaziyatida turlicha namoyon bo'ladi.

Pragmatik to'siq so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi kommunikativ munosabat ta'sirida yuzaga kelgani sababli, avvalo, uning ikki tomonlama xarakterga ega ekanini qayd etish lozim. Boshqacha qilib aytganda, bu hodisa bir tomondan, so'zlovchining tildan noto'g'ri foydalanishi natijasida yuzaga kelsa, ikkinchi tomondan, tinglovchining so'zlovchi nazarda tutayotgan ifoda mazmunini umuman anglamasligi, ba'zan esa qisman yoki butunlay noto'g'ri tushunishi natijasida sodir bo'ladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, kommunikantlarning o'zaro o'xhash yoki farqli xususiyatlarga egaligi pragmatik to'siqning hosil bo'lishida muhim omil sanaladi. Masalan, biri bola, ikkinchisi katta yoshli kishi bo'lgan muloqot ishtirokchilari o'rtasida tengdosh kommunikantlarga nisbatan pragmatik to'siqning kelib chiqish ehtimoli yuqoriroq bo'ladi.

Ayniqsa, bir-birining tili haqida umuman ma'lumotga ega bo'limgan, farqli tillarda so'zlashuvchi kishilar o'rtasida ijtimoiy munosabatning o'rnatilishi va amalga oshishi deyarli imkon-siz. Til bilmaslik omili ular o'rtasida samarali (muvaffaqiyatli) aloqa-aratashuvning amalga oshishiyo'l qo'yaydi. Qarindosh (yaqin) bo'lgan tillar vakillarining o'zaro muloqotida esa kommunikativ munosabat muvaffaqiyatli bo'lmasa-da, muayyan darajada amalga oshadi. Bu vaziyatda ham lisoniy omil asosiy rolni bajaradi. Shuningdek, nolisoniy omillar ham pragmatik to'siqni yuzaga keltirib, kommunikativ muvaffaqiyatsizlikka sabab bo'ladi. Bu holat o'zaro qarindosh bo'lgan o'zbek va turk tillari materiallarini qiyosiy tahlil qilish jarayonida yaqqol ko'zga tashlanadi. Quyida bu haqdagi mulohazalarimizni bayon etamiz.

Ma'lumki, o'zbek va turk tilining umumiy va o'xhash jihatlari talaygina. Biz ko'pincha turk tiliga o'rganilishi eng oson til sifatida qaraymiz. Aslida ham shunday. Boshqa tillar bilan qiyoslanganda bu fikr o'zini oqlaydi. Shuning uchun ham qardosh turklar bilan oddiy muloqot jarayonida tarjimonga ehtiyoj sezilmaydi. Nazarda utilayotgan fikr adresatga bir amallab tushuntirishga erishiladi. Biroq ana shu "amallab" so'zining o'zidan muloqot jarayonida bir necha marta pragmatik to'siqqa duch kelinishini anglash qiyin emas.

Qardosh xalqlar vakillarining o'zaro muloqoti jarayonida pragmatik to'siq hosil qilib, kommunikativ muvaffaqiyatsizlikka sabab bo'luvchi asosiy omil kommunikantlar tillarining o'zaro yaqinligidir. Ya'ni biz har qancha harakat qilsak ham, o'zimiz uchun butunlay notanish bo'lgan tilda so'zlashuvchi kishiga fikrimizni bayon qilib bera olmaymiz. Buning uchun o'sha tilni biliшимиз, унинг ма'lум xususiyatlaridan xabardor bo'lishimiz kerak. Aksincha, milliy tilimizga yaqin bo'lgan til, xususan, turk tili vakili bilan muloqotga kirishar ekanmiz, turk tilini bilmasakda, o'z tilimizda so'zlab, fikrimizni unga yetkazishga harakat qilamiz. Aniqrog'i, bu holatda ko'pincha o'zbek tilidagi so'zni turkcha talaffuz bilan ifodalashga urinamiz va pragmatik to'siqning yuzaga kelishiga sababchi bo'lamiz. Chunki nutqimizda qo'llanilayotgan birliklar biz nazarda tutgan ma'noni bilirmasligi, natijada, fikr-hukm butunlay o'zgacha mazmun-mohiyat kasb etishi mumkin. Masalan, *İnsanlar anlaşarak yaşamalar*. jumlesi orqali insonlar kelishib, ahil bo'lib yashashlari kerakligi haqidagi axborotni ifodalash ko'zda tutiladi. Bu o'rinda so'zlovchi (nutq vaziyatida kerakli so'zni unutgani yoki so'zni umuman bilmasligi oqibatida) "anlaşarak" so'zi o'rnida o'zbek tilidagi "kelishmoq" so'zini turkcha talaffuzga "moslab", "gelişmek" tarzida qo'llaydi. Natijada, *İnsanlar gelişerek yaşamalar*. jumlesi hosil bo'lib, undan "insonlar rivojlanib yashashi kerak"ligi haqidagi propozitsiya mazmuni anglashiladi. Bu esa o'z navbatida kommunikativ muvaffaqiyatsizlikka sabab bo'ladi.

Pragmatik to'siq, yuqorida ta'kidlanganidek, faqatgina nutq subyektining tildan me'yorsiz (noto'g'ri) foydalanishi oqibatida yuzaga kelmaydi. Ayni vaqtida, nutq adresati ham yetarli til bilimiga ega emasligi yoki so'zlovchi tomonidan qo'llanilgan ifodaga o'z tili qonuniyatlari nuqtayi nazaridan yondashishi natijasida undan o'zgacha ma'no-mazmun keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, *Benim tek arzum senin mutlu olman.* jumlasida "arzu" so'zi "xohish-istak" ma'nosini ifodalaydi, bunda so'zlovchining kommunikativ maqsadi mazkur jumla orqali "Mening yagona istagim sening baxtli bo'lising"dir mazmunidagi propozitsiyani ifodalashdan iborat bo'ladi. O'zbek tilida "orzu" so'zi orqali "dildagi istak, ezgu umid, intilish"<sup>55</sup> ifodalanadi. Shunga ko'ra, yuqoridagi jumlaning "Mening yagona orzum sening baxtli bo'lising" deb qabul qilinishi unda ifodalanayotgan hukmni muayyan darajada o'zgartiradi.

Xullas, pragmatik to'siq nuqtayi nazaridan o'zbek va turk tillarining qiyosiy o'rganilishi ikki til vakillari muloqot madaniyatida bir qator lisoniy va nolisoniy omillar ta'sirida aloqa-ara-shuvning to'liq va samarali amalga oshmay qolishini ko'rsatadi. Mazkur muammoni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilish orqali o'zbek-turk muloqot madaniyatida pragmatik to'siqning kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslik uchun e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan holatlar yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish tilshunoslikdagi dolzarb vazifalardan biridir.

### **Adabiyotlar**

1. Hakimov M. O'zbek pragmalingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – B.155.
2. Qurbanova M. O'zbek bolalari nutqining pragmalingvistik aspekti. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018. – B.44.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati, uchinchi jild, T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2007, B.136.

## **"REALIYA" TUSHUNCHASI VA UNING TILSHUNOSLIKDA O'RGANILISHI**

**Z. Kasimova,**  
**O ZMU doktoranti.**

Realiyalarda til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik yanada yaqqol ko'zga tashlanadi: jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotida yangi realiyalarning paydo bo'lishi tilda shunga mos so'zlarning paydo bo'lisinga olib keladi. Realiyalarni ajratib turuvchi xususiyati ularning predmet-narsa ma'nosiga ega bo'lganligidandir.

O'z xususiyati va vazifalariga binoan realiyalar atamalarga va atoqli otlarga yaqin. Madaniy birliklarni tadqiq etuvchilarining ta'kidlariga qaraganda, atamalar va realiyalar orasidagi chegara juda shartli va juda o'zgaruvchandir. Bir qator holatlarda til realiyalarini atamalardan ajratish mushkul bo'lib qoladi. Lekin shunday belgilar borki, ular yordamida realiyalarni atamalardan ajratib olish mumkin. Atamalarning ishlatilish ko'lami – ilmiy adabiyot. Realiyalar esa ko'proq badiiy adabiyotda ishlatilib, u yerda ular nafaqat stilistik maqsadlarda, balki milliy, mahalliy va tarixiy kolorit tug'dirish uchun xizmat qiladi. Atamalar ko'p jihatdan u yoki bu tushuncha va narsalarni atash uchun sun'iy yaratiladi, shuning uchun ham ba'zan yunoncha va lotincha morfemalar ishlatiladi. Realiyalar esa tabiiy yo'l bilan, ya'ni xalq ijodi orqali ro'yobga chiqadi. Atamalar biror predmet-narsalarning nomi sifatida shu predmet-narsalarning tarqalishi hisobiga tar-qaladi, o'sha millatning boyligi sifatida e'tirof etiladi.

<sup>55</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati, uchinchi jild, T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2007, B.136.

Realiya badiiy adabiyot va ommaviy axborot vositalari tiliga xos bo'lib, ma'lum bir xalq madaniyati bilan chambarchas bog'langan, aynan shu xalq tili uchun umumiste'mol qilinadigan va boshqa xalqqa yot bo'lgan xarakterga egadir. Atamalar esa milliy bo'yoqdorlikka ega bo'l-magan, asosan ilm-fan sohasiga tegishli bo'lib, faqatgina bir predmet yoki voqelikni nomlash uchun sun'iy yaratiladi va shu orqali keng ishlataladi.

Tadqiqotchilardan G.D.Tomaxinning fikriga ko'ra, "na lingvistikada, na uslubiyatda va na tarjimashunoslikda realiyalar tushunchasining yetarli darajada aniq tavsifi yo'q va ushbu realiyalarni anglatuvchi til birliklarining o'ziga xos xususiyatlari umuman o'rganilmagan"<sup>56</sup>. "Realiya" so'zi – (lotin tilida sredniy rod, ko'plikda) sifatdan (realis, -e, mn. realia) rus tilida "moddiy", "mavjud"likka (jen. roddagi otga) aylangan.

Tilshunoslar "realiyalar" haqida faqatgina o'tgan asrning 50-yillariga kelib milliy o'ziga xoslikning aniq, sezilarli elementi, kolorit ko'rsatkichlari sifatida so'z yurita boshladilar. O'sha davr lingvistik lug'atlarda realiyalarning aniq tavsifi yo'qligining sababi bo'lsa kerak, deya xulosa chiqarish mumkin.

O.S.Axmanovaning "Словарь лингвистических терминов" kitobida "realiyalar"ga quyidagicha tavsif beriladi:

#### Realiyalar (lot. realia)

1. Klassik grammatikada mazkur tilda ularni namoyon etish nuqtayi nazaridan kelib chiqib, tashqi lingvistika fani o'rganuvchi mazkur mamlakatning davlat tuzumi, ana shu xalqning tarixi, madaniyati va aynan shu tilda so'zlashuvchilarning til va aloqalari hamda boshqa turli xil omillar.

#### 2. Mavjud madaniyat predmetlari<sup>57</sup>.

Shuningdek, turli tadqiqotchilar boshqa til leksikasidagi ushbu guruhni turlicha tavsiflaydilar. Ko'pincha adabiyotlarda "ekvivalent siz leksika" va "ekzotik leksika" yoki "ekzotizmlar" kabi iboralar va ular bilan bir qatorda shu yoki shunga yaqin ma'noga ega bo'lgan "varvarizmlar", "lokalizm", "lakunalar" uchrab turadi. Ushbu tushunchalarni muayyan milliy, tarixiy, mahalliy, maishiy, ma'naviy o'zgachalik, tarjima tilida mos so'zlar (ekvivalenti)ning yo'qligi bir-lashtirib turadi.

Realiyalar haqida so'z yuritgan ko'pgina mualliflar taxminiy, to'liq bo'l-magan, ularning u yoki bu jihatini ko'rsatib beruvchi ta'rifini keltiradilar. Masalan, L.N.Sobolevning fikriga ko'ra, turmushda ekvivalentlarga ega bo'l-magan maishiy va o'ziga xos milliy so'zlar va iboralar, shuningdek, boshqa tillarda mavjud bo'l-magan milliy turmush tarzidagi so'zlar "realiya termini" sifatida keltirilgan, chunki ushbu predmet va hodisalar boshqa mamlakatlarda mavjud emas<sup>58</sup>.

V.Rossels esa realiyalarda "asar tarjima qilinayotgan tilga ega xalqning turmush tarzida qo'llanilmaydigan tushunchalar, predmetlar, hodisalarni anglatuvchi xorijiy so'zlar"ni ko'radi. A.V.Fedorov ularni hech bir nom bilan atamay, "ijtimoiy hayot va moddiy turmush tarzi realiyalarini anglatuvchi"<sup>59</sup>, ya'ni "faqatgina mahalliy hodisani ifodalovchi va boshqa xalqlarning turmushida va tushunchasida tengi yo'q bo'lgan"<sup>60</sup> so'zlar haqida yozadi.

G.D.Tomaxin esa, quyidagicha ta'rif keltiradi: "Realiyalar bu faqat muayyan millat va xalqlarga tegishli bo'lgan moddiy madaniyat predmetlari, tarixiy dalillar, davlat institutlari, milliy va xalq og'zaki ijodiyoti qahramonlari, afsonaviy mavjudotlar va h.k. nomidir"<sup>61</sup>. Yuqorida bayon etilganlardan realiyalar so'zlashuvning alohida toifasi ekanligi aniq namoyon bo'lib turibdi.

<sup>56</sup> Томахин Г.Д. Теория перевода. – М., 1988. С.10.

<sup>57</sup> Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М., 1969. С.381.

<sup>58</sup> Соболев Л.Н. Пособие по переводу с русского языка на французский. – М., 1952. С.281.

<sup>59</sup> Федоров А.В. Основы общей теории перевода. – М., 1968. С.175.

<sup>60</sup> Федоров А.В. Основы общей теории перевода. – М., 1968. С.160.

<sup>61</sup> Томахин Г.Д. Теория перевода. – М., 1988. С.5.

Realiyalar – bu bir xalq hayotiga (turmush tarzi, madaniyati, ijtimoiy va tarixiy rivoj-lanishiga) xos va boshqa xalq uchun begona bo'lgan obyektlarni anglatuvchi, milliy va tarixiy koloritni yetkazib beruvchi va odatda boshqa tillarda aniq to'g'ri keladigan so'zlar(ekvivalentlar)ga ega bo'limgan so'z va so'z birikmalaridir.

“Realiya” tushunchasining ma’nosini aniqroq belgilab olish uchun birinchi navbatda bizga tanish bo‘lib qolgan, ularni anglatuvchi tushunchalardan, shuningdek, kerak bo'limgan sinonimlar sifatida ularni umuman tushirib qoldirgan holda saralab olishimiz kerak. Ana shunda bir nechta qolgan tushunchalarning ma’nosini aniqlab olgan holda “realiyalar”ning semantik doirasini ham aniqlab olishimizga imkon tug‘iladi.

O.S.Axmanovaning fikriga ko‘ra “lokalizm” (mahalliy tilda, provinsializm (qoloqlik)) “biron bir viloyat, yoki biron-bir shahar bilan cheklangan holda qo’llaniluvchi va mazkur tilning adabiyot namunalariga ma’lum bo'limgan so'z yoki iboralardir”<sup>62</sup>.

S.Vlaxov hamda S.Florinlarning fikricha esa “Ushbu termindan realiya sinonimi sifatida foydalanish, bir tomonidan uning leksik birlik sifatidagi ma’nosini o‘zgartirib yuboradi, ikkinchi tomonidan esa, agar lokalizm, ekzotizm so‘zi bilan bir qatorda turadi deb faraz qiladigan bo‘lsak, tushunchaning haqiqiy mazmuni haqidagi tasavvurni keskin qisqartirib yuboradi; faqat uni milliy yoki tarixiy koloritga ega bo'limgan “mahalliy predmetlar”ni anglatuvchi unchalik ahamiyatga ega bo'limgan “realiyalar” qatoriga kiritish mumkin”<sup>63</sup>.

I.I.Revzin va V.Yu.Rozentsveyg, A.Malblan matnidan parcha keltirgan holda, u tomonidan qo’llanilgan bo‘shliq (lakuna) tushunchasi “bir xalq madaniyati uchun odatiy bo‘lgan vaziyatlar, boshqa ikkinchi xalq madaniyatida kuzatilmasligi mumkinligini” ta’kidlaydilar.

Ammo lakuna har doim ham realiya sinonimi bo‘la olmaydi, chunki S.Vlaxov va S.Florinning fikriga ko‘ra ushbu tushunchani keskin qisqartirib yuboradi <sup>64</sup>.

Varvarizmlar (yunoncha barbarismos). Ko‘pincha grammatik o‘zlashtirish murakkabligi tu-fayli o‘zlashtirilayotgan til tomonidan oxirigacha o‘zlashmagan xorijiy so‘z yoki ibora. Odatda, varvarizmlardan xorij urf-odatlari, turmush tarzi, qiziqishlarini tavsiflashda mahalliy koloritni yaratishda foydalilanildi<sup>65</sup>. Biroq, varvarizmlardan farqli ravishda realiyalar 1) boshqa tildan o‘zlashtirilmagan qadimiy so‘z bo‘lishi mumkin; 2) tarkibi jihatidan tilga begona bo‘lishi shart emas. Shunday tarzda, realiyalar varvarizm bo‘lishi mumkin va aksincha bo‘lmasligi ham mumkin.

Ekvivalentsiz leksika. Ushbu termin ko‘pgina mualliflar (G.D.Tomaxin, Ye.M.Vereshagin, G.V.Chernov) asarlarida uchraydi, biroq ular bunga turlicha, realiyalardan ko‘ra kengroq, uning sinonimi sifatida, o‘zga madaniyat va o‘zga tilda mavjud bo'limgan so'z sifatida, bir nechta esa – “soviet davriga xos” bo‘lgan so‘zlar sifatida, ba’zilari esa oddiygina qilib, boshqa tilga tarjima qilinmaydigan so‘zlar deb ta’riflaydilar.

Biroq, realiyalarni ekvivalentsiz so‘zdan farqlovchi bir jihatni mavjudki, bunda uni umum-lashtirgan holda “ibora barcha yoki ko‘pchilik tillarga nisbatan realiya bo‘lishi mumkin, ekvivalentsiz ibora esa – ko‘proq mazkur til juftligi doirasida bo‘ladi, ya’ni odatda, mazkur til realiyalari ro‘yxati u yoki bu darajada doimiy bo‘ladi, shu vaqtning o‘zida ekvivalentsiz leksika lug‘ati esa tilning turli juftligi uchun farqli bo‘linishi mumkin”<sup>66</sup>.

Mana shu bir-biriga yaqin ikki toifa taqqoslangach, biz realiya deb atayotgan o‘ziga xos toifadagi so‘zlar haqida u yoki bu darajada aniq fikrga kelsak bo‘ladi. Realiyalar ma’lum madaniyatda mavjud bo‘lgan va shu madaniyatning ajralmas qismiga aylangan tushunchalar, ya’ni

<sup>62</sup> Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М., 1969. С.222.

<sup>63</sup> Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. – М. 1980. С.37.

<sup>64</sup> Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. – М. 1980. С.37.

<sup>65</sup> Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. Словарь-справочник лингвистических терминов: пособие для учителя. – М., 1985. С.45.

<sup>66</sup> Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. – М. 1980. С.43.

to'liq milliy-madaniy xususiyat kasb etgan so'z yoki so'z birikmalari bo'lib, boshqa madaniyatda til birligi sifatida vogelanmaydigan yoki mavjud bo'lmaydigan birliklardir.

### **Adabiyotlar**

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М., 1969.
2. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. – М. 1980.
3. Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. Словарь-справочник лингвистических терминов: пособие для учителя. – М., 1985.
4. Соболев Л.Н. Пособие по переводу с русского языка на французский. – М., 1952.
5. Томахин Г.Д. Теория перевода. – М., 1988.
6. Федоров А.В. Основы общей теории перевода. – М., 1968.

## **O'ZBEK TILI MAXSUS KORPUSLARIDA MADANIYAT KATEGORIYALARI IFODASI**

*L. Nigmatova,  
BuxDU dotsenti, f.f.n.  
I.Kozieva, o'qituvchi*

Korpusning tuzilishi, maqsadi, turg'un yoki o'zgaruvchanligi kabi jihatiga ko'ra bir necha turga bo'linadi. Mutaxassilar ularni turlicha tasniflashadi[ 10]. Maqsadi, oldiga qo'yilgan vazifikasi:

- a) saqlash shakliga ko'ra ( ovozli, yozma, aralash);
- b) matn tiliga ko'ra ( bir va ko'p tilli ) ;
- c) janriy mansubligiga ko'ra ( adabiy, dialektal, og'zaki, publisistik, aralash);
- d) korpusga kirish imkoniyatiga ko'ra ( erkin, tijorat korpuslari, yopiq);
- e) maqsadiga ko'ra ( tadqiqiy, illustrativ) ;
- f) o'zgaruvchanligiga ko'ra (dinamik ( monitor), turg'un) ;
- g) qo'shimcha axborotga egaligiga ko'ra teglangan va teglanmagan kabi shakllari mavjud. [ 10]. Sh. Hamroeva, V. Zaxarov fikriga tayanib, til korpuslari shu jadvalda ko'rsatilgan :

### **Korpus turlari tasnifi (1-jadval)**

Tasnif belgisi	Korpus turlari
Nutq turiga ko'ra	Og'zaki, yozma, aralash
Matn tiliga ko'ra	Ruscha, inglizcha va h.k
Parallelligiga ko'ra	Bir tilli, ikki tilli, ko'p tilli
Matning ixtisoslashuviga ko'ra	Badiiy, dialektal, suhbat, terminologik, aralash
Janriga ko'ra	Adabiy, folklor, dramatic, publisistik
Kirish usuliga ko'ra	Erkin, pullik, yopiq
Maqsadiga ko'ra	Tadqiqiy, tavsifyi
Izohlanishiga ko'ra	Qo'shimcha izohli, izohsiz
O'zgaruvchaligiga ko'ra	O'zgaruvchan, turg'un
Strukturasiga ko'ra	Markaziy, arxiv, mahalliy
Izoh xususiyatiga ko'ra	Morfologik, sintaktik, semantik
Matn hajmiga ko'ra	To'liq matnli, lavha matnli
Xronologik jihatiga ko'ra	Sinxron, diaxron
Umumiyligiga ko'ra	Umumiy, yakka muallifli

Shuningdek, V.V.Rikov korpus tasnifiga boshqacha yondashadi [7].

I. Tashkil etilish darajasi va qurilishiga ko'ra:

1. Elektron arxiv – elektron tashuvchi qurilmadagi matnlar jamlanmasi; faqat shakli standartlanmagan, bir xil shaklga keltirilmagan.

2. Ekektron kutubxona – bir turdag'i matnlar keltirilgan; standart shakliga keltirilgan. 3. Matnlar korpusi – stardantlangan, bir xil shaklga; matnlar lingvistik voqelikning ma'lum qismining aks ettirishga mo'ljallangan.

4. Subkorpus –ma'lum bir korpusning avtonom qismi.

II. Xronologik belgisiga ko'ra : sinxron, monitor( tilning hozirgi kuzatuvchi), diaxron.

III. Ko'rsatkichning mayjudligiga ko'ra: oddiy, annotasiyalangan.

IV. Tiliga ko'ra : bir, ikki, ko'p tilli.

V.Qo'llash, foydalanish usuliga ko'ra: tadqiqiy, illyustratuv, parallel korpus.

VI. Mavjudlik usuliga ko'ra: dinamik, turg'un.

Agar milliy korpusning imkoniyatining kengligi, ma'lum maqsadga qaratilmaganligi, repreyzyentativlik xususiyatga egaligini inobatga olsak, uni bemalol *umumiyl korpus* deb baholash mumkin. Ma'lum maqsadni ko'zlab tuzilgan, til materialini tadqiq etishning alohida usullariga xizmat qiladigan korpusni esa **maxsus korpus** deb ataymiz.

Ovozli korpus [2]. Rus tili milliy korpusi tarkibidagi og'zaki nutq korpusi shunday turga kiradi. Bu korpus multimediali, dialektal, badiiy, aktsentologik korpuslar kabi milliy korpus tarkibidan joy olgan. Multimodal korpus [2] muloqot ishtirokchisi videoyoziuvini ham o'z ichiga olgan. Mimika, qo'l, ko'z, qosh harakati va h. belgilar asosida razmetkalangan. Korpus o'zaro emotsiyal strategiya, ixtilof, muloqot odobi, nutqiy to'xtam, boshqa hodisalarini o'rganish vositasi bo'lishi mumkin. Rus tili emotsiyal korpusi (RES) shunday korpus namunasi. Maxsus matnlar korpusi [2] – balansga keltirilgan korpus, u hajman u qadar katta bo'limgan, alohida tadqiqiy topshiriqqa xizmat qiluvchi, ma'lum maqsadni ko'zlagan, tuzuvchi rejasiga muvofiq tayyorlangan.

Mualliflik korpusi – ma'lum bir muallif asarlari matni qamrab olinadigan, materiallari turli parametr asosida qidiruv tizimiga bo'ysundirilgan korpus. A.Chyexov korpusi, L.Tolstoy korpusi, Firdavsiy korpusi, Rudakiy korpusi, Hofiz korpusi, U.Shyekspir mualliflik korpusi, A.Qahhor mualliflik korpuslarini shunday korpuslar sirasiga kiritish mumkin. Parallel korpus (Parallel Corpora) – parallel tarjima matnlarining elektron analogi; ko'plab "original matn va ularning bir/bir necha tarjimasi" bloklaridan iborat. Korpusdagi elektron matnlar original matning o'zi yoki uning bir qismi bo'lishi mumkin.[ 4].

Rus tili milliy hamda regional variantlari divergenstiyasi jarayoni masalasi rus, shuningdek, xorij tilshunoslari (G.I.Kustova, S.O.Savchuk, A.Mustayoki va boshq.) tomonidan qayta-qayta ko'tarildi.

L.V.Richkova rus tilining ijtimoiy-kommunikativ xususiyatlarini hududiy OAV materiallari lingvistik korpuslari asosida o'rganish masalasini maxsus tadqiq qilar ekan[10], til va madaniyatning o'zaro ta'siri muammosi tarixan o'z tiliga ega bo'lib, bugungi kunda davlat til boshqa bo'lgan hududlarda o'ziga xos ekanligi uqtiradi. L.A.Vyerbistkayaning fikricha, "madaniyatning tilga ta'siri tabiiy, kutilgan holat, shuningdyek, til ham o'z navbatida madaniyatga ta'sir qiladi. Bu xalqlar madaniyatini til va nutq asosida o'rganish imkonini beradi" [1]. Olimning ta'kidlashicha, nostabil til muhitij ijtimoiy, madaniy va siyosiy ta'sirga uchraydi [1]. Ushbu jarayon maxsus korpuslarda yanada aniq ko'rindi, chunki bunday korpus materiali hududiy yoki davr jihatdan chegaralangan bo'ladi.

Yu.N.Karaulov rus adabiy tilining eng ko'p tarqalgan sohasi (uslubi) sifatida quyidagi 7 guruhni ajratadi:

1) yozma yodgorliklarning o'lik tili;

- 2) og'zaki sheva shakli;
- 3) adabiyot, ish hujjatlari va ommaviy axborot vositalarining yozma tili;
- 4) kundalik muloqot tili va oddiy so'zlashuv;
- 5) ilmiy, texnik va kasbiy til;
- 6) elektron hisoblash tizimlaridagi rus tili;
- 7) xorijdagi rus tili;[3]

Yu.N.Karaulov sanab o'tgan uslublar nisbiy tarzda o'zbyek tilida ham mavjud deyish mumkin. Demak, o'zbek tilidagi maxsus korpuslar, birinchi navbatda, uslubi bilan farqlanadi. Uslubda esa madaniyat kategoriyalari turlicha ifodalanadi.

L.V.Richkovaning maqolasida lingvistik korpusda rus tili variantlarining sostiokulturologik qiyofasini aks ettirish tamoyillari borasida fikr yuritgan[9]. Uning fikricha, bu tipdagi lingvistik korpusda mavzuviy razmetka katta ahamiyatga ega. Natijada, foydalanuvchiga korpusda keltirilgan har bir matnga xos madaniy qiyofa namoyon bo'lgan. Masalan, korpus qidiruv tizimida "matn mavzusi" so'rovida matn mavzulari keltirilgan. Masalan, foydalanuvchi *reklama, badiiy adabiyot, rasmiy-idoraviy, maishiy, ilmiy-omma bop* kabi mavzularni tanlash imkoniga ega.

Bizningcha, korpus qidiruvida shunga o'xshash mavzularning ajratib qo'yilishi birlikning sotsiokulturologik xarakterini belgilaydi; natijada, ma'lum davr matnlarida xalqning madaniy qiyofasi: ilf-fanning rivojlanganlik darajasi, badiiy adabiyoti, maishiy muammolari korpusda gavdalantiriladi. K.E.Senchakova "К дешифровке пространственных культурных кодов современной языковой личностью" maqolasida semantika va berilgan nutqiy birliklarni tadqiq etish asosida atrof-muhitni tavsiflovchi, zamonaviy lisoniy shaxsiyatni aks ettiruvchi madaniy kodlarni deshifrovka qilish masalalarini tahlil qiladi[12]. R.V.Lopuxina tilni xalqning etnik xususiyatini aks ettiruvchi ko'zgusi sifatida qaraydi[8]. Badiiy adabiyot matnlarini madaniy kodni tashuvchisi hamda lingvomadaniy axborotning aktual manbai deb ataydi. Demak, til korpuslarida birlik sanalgan badiiy matn parchalari ham tabiiy ravishda madaniy kod tashish hamda lingvomadaniy axborotning aktual manbai vazifasini bajaradi. Yu.S.Styepanovning ta'kidlashicha, madaniyat – ma'lum obrazlar kengligi; biz qayerda nima haqida gapirmasak, fikrni qay yo'sinda ifodalamasak, qanday obraz yaratmasak, barcha holatlarda xalqning yoki bashariyatning madaniy qiyofasini gavdalantirgan bo'lamiz[13]. Bundan kelib chiqadiki, til korpusida beriladigan har qanday birlik, qaysi janrga mansubligidan qat'i nazar, xalq, millat, etnik qatlamning madaniy xususiyatlarini ifoda etib turadi.

### **Adabiyotlar**

1. Вербицкая Л.А.: Проблемы современной культуры и образования // Русский язык в центре Европы. № 9. Братислава, 2006. – С. 6-13.
2. Захаров В.П. Корпусная лингвистика в России. CrossLingua'2014 Crimea, Simferopol – Alushta. <http://ruscorpora.ru/sbornik2008/07.pdf>
3. Караулов Ю.Н. О состоянии русского языка современности. – Москва, 1991. – 402 с.
4. Karimov R.A., Mengliev B.R. The Role of the Parallel Corpus in Linguistics, the Importance and the Possibilities of Interpretation / International Journal of Engineering and Advanced Technology (IJEAT) ISSN: 2249 – 8958, Volume-8, Issue-5S3 July 2019// <https://www.ijeat.org/wp-content/uploads/papers/v8i5S3/E10830785S319.pdf>
5. Кустова Г.И., Савчук С.О. Изучение лексико-семантической и социокультурной специфики русской речи на территории Республики Беларусь (на материале текстов СМИ) // Труды международной конференции «Корпусная лингвистика – 2013». – СПб.: С.-Петербургский гос. университет, 2013. – С. 344-352.
6. Лопухина Р.В. Логико-синтаксическая феноменология русской культуры. – М.: Издательство Российского университета дружбы народов, 2004.

7. Рыков В.В. Корпусная лингвистика. Институт лингвистических исследований РАН, 2008 (электрон ресурс).
8. Рычкова Л.В. Изучение социально-коммуникативных особенностей русского языка на основе использования лингвистических корпусов региональных средств массовой информации (на примере корпуса гродненщины) // Universitas Catholica Rosenbergensis. Studia russico –slovaca. – Ružomberok, 2014. – С.48-58.
9. Рычкова Л.В. Специализированный лингвистический корпус социокультурной специфики регионального варианта русской речи // Писменото наследство и информационните технологии: El manuscript-2014. Материалы от V международна научно конференция. Варна, 15-20 септември 2014 г. – София-Ижевск, 2014. – С. 167-170.
10. Рычкова Л.В., Станкевич А.Ю. Многоцелевой лингвистический корпус региональных СМИ // Информационно-коммуникационные технологии в лингвистике, лингводидактике и межкультурной коммуникации. Вып. 6: сб. ст. / М-во образования и науки РФ [и др.]; под ред. А.Л.Назаренко. – М.: Центр Дистанц. Образования: Факультет иностр. яз. и регионоведения МГУ имени М.В.Ломоносова; Изд-во «Университетская книга», 2014. – 498 с. – С. 488-497.
11. Xamroyeva SH. O'zbyek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari: filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori dissyertasiyasi. – Buxoro, 2018. – 250 b.
12. Сенчакова К.Э. К дешифровке пространственных культурных кодов современной языковой личностью // Русский язык в Интернете: личность, общество, коммуникация, культура: сборник статей I Международной научно-практической конференции. Москва, РУДН, 8-9 февраля 2017 г. / под общ. ред. А.В.Должиковой, В.В.Барабаша; ред. кол. Г.Н.Трофимова, С.С.Микова, С.А.Дерябина. – Москва : РУДН, 2017. – 544 с. – С. 435-441.
13. Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. – М.: Академический проект, 2004. – 825 с.

## DAVRIY NASHRLAR RIVOJIDA O'ZBEK TILINING BEQIYOSLIGI

*N.Xamrayev,  
O'zMU o'qituvchisi*

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada o'zbek tili nashtaraqqiyoti davomida faoliyat olib borayotgan davriy nashrlarning davlat tili me'yorlariga qay darajada javob berishi, shuningdek, nashrlar nomi va faoliyati mutanosibligi masalalari haqida gap boradi.

*Kalit so'zlar:* davlat tili, nodavlar nashrlar, gazeta, jurnal, milliy atama, adabiy til me'yorlari, o'zlashma so'zlar.

*Annotation:* This article discusses the extent to which periodicals operating during the development of the Uzbek language meet the standards of the state language, as well as the relevance of the names and activities of publications.

*Keywords:* state language, non-state publications, newspapers, magazines, national terms, literary language norms, idioms.

Insoniyat hayotida matbuot doim muhim o'rin tutib kelgan. Rivojlanish bosqichidan o'tayotgan har qanday jamiyatda har qanday ijtimoiy-siyosiy harakat matbuotsiz, gazeta va jurnallarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Davriy nashrlar o'zining har bitta sohaga ta'sir o'tkaza olish xususiyati bilan ahamiyatli: "Ma'lumki, matbuot ijtimoiy hayotni aks ettirish ko'rinishlari-dan biri, real vogelikni bilish, tadqiq etish hamda unga ta'sir ko'rsatishning muhim vositasidir". [1.14-6] Ta'sir qilish mobaynida u o'sha sohaning kamchilik-yutuqlarini, keljak va o'tmishini

ro‘y-rost ayta olmog‘i kerak. Ona tili har bir davlatning eng muhim boyligi, g‘ururi, faxri hisoblanadi. Unga qanday ,munosabatda bo‘linsa bu o‘sha xalqqa qilingan munosabat bo‘ladi. bekorga xalq orasida “Tilga ixtiyorsiz elga – e’tiborsiz” deyilmagan. Shu boisdan ham azaldan olimlarimiz va til uchun qayg‘uradigan har qanday inon fikrlarini maqola shakliga keltirgan va ro‘znomalar orqali xalqqa yetkazgan. Davriy matbuot orqali e’lon qilinajak maqolalarini uch bosqichga bo‘lish mumkin:

1. Jadid davri matbuotida til masalasining yoritilishi
2. 80- yillargacha bo‘lgan davr matbuotida til masalasining yoritilishi
3. Mustaqillikning dastlabki yillari matbuotida til masalasining yoritilishi
4. Hozirgi davr matbuotida til masalasining yoritilishi

Shuningdek, Fitrat o‘zining boshqa maqolalarida ham til mavzusini bot-bot eslab o‘tishni kanda qilmaydi. Masalan, “She‘r va shoirlar” adabiy mubohasasida “Turkcha so‘zlarning gavdasini buzmay olmoqg‘a ko‘b tirishkan shoir Navoyidir”, deb ayтиб o‘tgan. “Taraqqiy”, “Xurshid”, “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Fatg‘ona”, “Najot”, “Samarqand”, “Hurriyat” kabi gazetalar M.Behbudiy, M.Abdurashidxonov, H.Niyoziy, A.Avloni, Cho‘lpon, L.Obidov, I.Tohiri va boshqalar tomonidan nashr etila boshlandi. Chunonchi, «Maorif va o‘qitg‘uvchi» jurnalida chiqqan bir maqolada bu haqda shunday deyiladi: «Nima uchun arabdan lotinga o‘tish kerak?». Shu so‘roqqa qisqa qilib shunday javob beramiz:

1. Arab alifbosi turk tilidagi tovushlarning shaklini tamomila bera olmaydir.
2. Arab alifbosi texnika tomonidan lotindan quyida turadir. Arabda nuqtalar, alomatlar, bosh, o‘rta va so‘nggi harflar bordir. Lotin esa bulardan uzoqdir.

Arab alifbosi o‘qitish, o‘rganish ishida lotindan ortda turg‘oni, texnika tomonining buzuqligi ustiga stenografiya, telegrafiya ishida ham to‘sinqlik qiladir» [ 2. 5- b.].

Bundan shu ko‘rinib turibdiki, tilshunoslikdagi qarama-qarshiliklar, ma’lum qarorni qabul qilish yoki qilinmaslikka doir qarashlarni-da yoritib borgan ro‘znomalar, albatta, til xususidagi muhim davlat qarorlarini ham chop etaverган. **1922-yilning 29–31-noyabrda** Samarqandda til mutaxassislar va o‘zbekshunoslar kengashi o‘tkaziladi. Unda yozuvga oid quyidagi qaror qabul qilinadi: «Bugun ishlatilmoqda bo‘lgan imlomizning yetishmasliklariga qaramasdan aytish mumkinki, ko‘p imlolardan mukammaldir ... shuning uchun-da boshqadan bir lotin harf va imlosi masalasini ko‘tarish ortiqchadir»[3.3-4-b.]. «Butun turk olamining ko‘philigi tomonidan arab harflari asrlardan beri ishlatilib kelib, turklarning aksariyatining tarix va adabiyot bilan bog‘langanligini e’tiborga olib, biz, turklar uchun arab harflarini olishni muvofiq topamiz»[4. 3-4-b.].

**1938-yilning 9-dekabrida** lotin grafikasi asosidagi o‘zbek alifbosi va imlosining yuqoridagi ishchi guruh tomonidan tayyorlangan yangi loyihasi muhokama uchun matbuotda e’lon qilinadi [5.].

Jurnallar haqida so‘z ketganda “Oyna”, “Chayon”, “Hurriyat” kabilar matbuotning dastlabki rivojlanish yillarida Turkiston xalqlari ma’naviy tarixida, shuningdek, turkiy til taraqqiyotida g‘oyat katta o‘rin egallagan nashrlarni eslash o‘rinli. 1917-yil oktyabr o‘zgarishidan so‘ng O‘zbekistonda “Inqilob”, “Yer yuzi”, “Mushtum” va boshqa ko‘plab jurnallar nashr etila boshlandi. «Oyna» jurnali, 1913-yil, 1-sonida yana bir taraqqiyatparvar adib Munavvarqori Abdurashidxonov “Ikki emas, to‘rt til lozim” maqolasi orqali o‘z ona tili qatorida boshqa tillarni ham o‘rganish kerakligi, shuningdek, til bilgan kishilar shu tildagi asarlarni tarjima qilib til ko‘lamdorligini oshirish lozimligini uqtirmoqchi bo‘ladi: “Forsiy bilgan kishi Firdavsiy, Bedil, Sa’diy, Masnaviydan qanday lazzat olsa, turkiy bilganlar Fuzuliy, Navoiy, Boqiy, Somiy, Abdulhaq Homid, Akrambek, Sanoyi, Nobiy, Nojiylardan, yana Tolstoy, Jul Vern va ularning zamonaviy asarini turkiy tarjimasidan lazzat shunday oladur”.[6. 51-56 bet;]

Til grammatikasining yaratilishi murakkab jarayon. Bu jarayonda esa ko'plab mulohazalar o'z tasdig'ini topadi yoki yo'qlikka mahkum bo'ladi. Undan avval esa matbuotda e'lon qilinib boshqa mutaxassislar hamda oddiy o'quvchilar tomonidan o'qilib, muhokama qilinishi mumkin. Shuningdek, grammatikaning ko'plab muammolarini yoritishni o'z oldiga maqsad qilib olgan maqolalar gazeta va jurnallarning deyarli har bir sonida o'rinnegallaydigan bo'ldi va hatto til masalalariga bag'ishlangan alohida "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalni ham nashr etila boshlandi. Ushbu jurnal o'zbek tili taraqqiyotida muhim o'ringa ega nashr hisoblanadi. Jurnalda esa M.Asqarova maqolalari salmoqli o'rinnegallaydi. Olima jurnalning deyarli har bir sonida o'z mulohazalari bilan o'rtoqlashib boravergan. Masalan, "Bo'l so'zining ayrim xususiyatlari haqida", "Bog'lovchi-yuklamalar haqida", [8] "Qo'shma gapning ko'chirma gapli turi haqida" [9.], Usmonov S. "Antonimlar" [10. 38- b.], "Frazeologik birliklarda ma'no va qurilish nomutanosibligi." [11.77-78-b.] **Iskandarova Sh.** "Onomasiologiya muammolari va o'zbek tili leksikasini maydon sifatida o'rganish" [12. 28-31-b.], **Nazarov K.** "Alifbo ham milliy bo'lsin" [13 9-noyabr soni.] kabi maqolalar juda ahamiyatli. 50-90- yillarda tilga doir maqolalar til taraqqiyoti uchun juda katta ahamiyat kasb etadi, ammo, maqollalarning e'lon qilinish davri mustamlakachilik davriga to'g'ri kelgani bois grammatikamiz ruslashib ketishiga olib keldi.

Mamlakat mustaqillikka erishganidan so'nggina ushbu xatoni to'g'rilashga bir muncha urinildi.

Endigina mustaqillikka erishgan yurting tilshunos olimlari zimmasiga katta vazifa yukanadi. 1995-yil 6-mayda «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunini amalga kiritish tartibi haqidagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi qaroriga o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarori qabul qilindi. Bu xabar esa bir vaqtning o'zida – «Xalq so'zi» gazetasida 1995-yil 6-iyunda, «Ma'rifat», 1995-yil 7- iyunda, shuningdek, "Til va adabiyot ta'limi" jurnalida ham nashr etildi. Lotin yozuviga o'tish dastavval 2005 – yilgacha muddatda berilgan bo'lsa ham keyinchlik bu qaror muddati 2010-yilga uzaytirildi. "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalariha o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida: 0'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993- yil 2- sentabrda qabul qilingan «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunini amalga kiritish tartibi haqida»gi Qarorining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-yil, Nq 9, 332-modda; 0'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-yil, No 6, 120-modda):

1- bandidagi «2005- yil» degan so'zlar «2010- yilning» degan so'zlar bilan almashtirilsin; 10-bandidagi «2005-yilning» degan so'zlar «2010- yilning» degan so'zlar bilan almashtirilsin. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov. Toshkent shahri, 2004-yil 30-aprel.*" «Xalq so'zi» gazetasining 2004-yil 26-iyun, shanba kungi sonida ushbu qonun bosib chiqarildi.

Xulosa. Hozirgi davr tilshunosligining matbuotda yoritilishi yuqorida sanab o'tilgan davrlarnikidan ko'p farq qilmaydi. Go'yo avvalgi muammolar hali hal qilinmagandek, yoki aynan shunday. Masalan, biz hozirgacha lotin yozuviga to'liq o'tmadik. Davriy nashrlarning tili ham bunga hali to'liq tayyormas, qaysidir gazeta yoki jurnal lotin yozuvida ish yuritsa, yana qaysinisidir krillda yuritaveradi. Bugungi kun nashrlaridan til taraqqiyoti uchun munosib hissa qo'shayotgan gazeta va jurnallardan "Til va adabiyot ta'limi" jurnalni, "Sharq yulduzi", "Ma'rifat", "Hurriyat" kabilarni sanash mumkin. Chunki ularning hech biri til masalasiga befarq bo'lmay, unga doir maqolalarni chop etib boradi. Misol uchun "Xalq so'zi" gazetasining 2019-yil 22-oktabr sonida "Milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligidimiz timsoli" mavzuli Prezident Shavkat Miromonovichning o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi nutqi chop etildi. Gazetaning xuddi shu sonida "Til millatning ruhi, jonidir" nomli maqola va "Nomlar til me'yorlariga mos bo'lsin" nomli maqola

D.Lutfullayeva hamda M.Sparniyazovalar hammuallifligida berildi. Tan olib aytish kerakki, hozirgi davr matbuotida, shuningdek, internet nashrlarida ko‘proq tilimizni yot so‘zlardan himoya qilish, ona tili fanining samaradorligini oshirish borasidagi maqolalar ko‘plab uchraydi. Filologiya fanlari doktori, professor B.Mengliyevning “Ona tilimiz”ni tilshunoslik iskanjasidan qutqaraylik nomli maqolasini haqiqiy portlash deb atash mumkin.

Achinarli jihat shundaki, gazeta va jurnallarni faqat 21- oktabr “Til bayrami” arafasidagi chiqarishadi ko‘p hollarda. Aslini olganda bu mavzuni kechiktirishning sira keragi yo‘q. chunki til muttasil, bilinar-bilinmas o‘zgarishga uchraydi. Yangi o‘zgarishga uchragan tilda esa muammolar bo‘lishi tabiiy hol. Shuni o‘z vaqtida bajarish esa keyingi, undan-da kattaroq muammolarning tug‘ilishining oldini oladi.

### **Adabiyotlar**

- 1 . Худойкулов М. Журналистикага кириш. Т., 2005. 14-бет
2. In’omov R. Lotin alifbosi uchun kurash // Maorif va Oqitg‘uvchi». 1926, 3-сон. 5-b.
3. Hojiyev A. Nazariy tilshunoslikka oid bir masala//”Filologiya masalalari”. Ilmiy-metodik jurnal. Toshkent, 2006. 51-56 bet;
4. Asqarova M.A. *Bo‘l so‘zining ayrim xususiyatlari haqida* // O‘zbek tili va adabiyoti masalalari, Toshkent, 1962.
5. Asqarova M.A. *Bo‘l so‘zining ayrim xususiyatlari haqida* // O‘zbek tili va adabiyoti masalalari, Toshkent, 1962.
6. Asqarova M.A. *Bog‘lovchi-yuklamalar haqida*. O‘zbek tili va adabiyoti masalalari jurnalni 4, 1962
7. Usmonov S. Antonimlar // O‘zbek tili va adabiyoti masalalari, 1958, 2-сон, 38-b.
8. Usmonova Sh. Frazeologik birlklarda ma’no va qurilish nomutanosibligi // O‘zbek tili va adabiyoti. 1998, 1- son, 77-78 b.
9. Iskandarova Sh. Onomasiologiya muammolari va o‘zbek tili leksikasini maydon sifatida o‘rganish // O‘zbek tili va adabiyoti, 1998, 3-сон, 28-31-b.
10. Nazarov K. Alifbo ham milliy bo‘lsin // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 1990, 9-noyabr.

## **ARAB VA O‘ZBEK TILLARIDAGI JINOYAT HUQUQIGA OID TERMINLARNING SOLISHTIRMA-QIYOSIY TAHLILI**

*L. Abdulkasimova,  
ToshDShU tadqiqotchisi*

Xalqimizning ko‘p asrlik madaniy, ilmiy-ma’rifiy va badiiy tafakkuri, intellektual salohiyating yorqin va beba ho mahsuli bo‘lgan o‘zbek tili jahondagi boy va qadimiy tillardan biridir. 1989-yil 21-oktyabrda davlat tili haqidagi qonunning qabul qilinishi asosida o‘zbek tili mustahkam huquqiy asos va yuksak maqomga ega bo‘ldi. Bugun o‘zbek tili siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy jabhalarda faol qo’llanib, xalqaro minbarlarda baralla yang-ramoqda.

2019-yil 21-oktyabrda o‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganining 30 yilligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev PF-5850-sonli “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmon berdi. Mazkur farmoniga asosan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamenti huzurida Atamalar komissiyasi tashkil etildi va unga qator vazifalar yuklatildi:<sup>67</sup>

<sup>67</sup> <https://lex.uz/docs/471>

- ilmiy asoslangan yangi so'z va atamalarni rasmiy iste'molga kiritish;
- normativ-huquqiy hujjatlar loyihibaridagi tushuncha va atamalarning turlicha izohlash ehtimolini istisno etadigan tarzda qonun hujjatlarida qabul qilingan ma'nosiga muvofiq yagona shaklda va to'g'ri qo'llanishini ta'minlash;
- normativ-huquqiy hujjatlar loyihibarida adabiy til qoidalari va normalariga, shuningdek, yuridik, texnik va boshqa maxsus qoidalarga rioya etilishini ta'minlash;
- boshqa tillarning qoidalari tufayli kelib chiqishi mumkin bo'lgan nomuvofiqliklarni normativ-huquqiy hujjatlar normalariga ziyon yetkazmagan holda tahrir qilish;
- o'zbek tiliga kirib kelayotgan yangi atamalarni qonun hujjatlariga joriy etish va amalda qo'llashning huquqiy muammolarini o'rganish, ushbu sohadagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishning rivojlanish yo'nalişlarini aniqlash;
- vazirlıklar, davlat qo'mitalari va idoralarga atamashunoslik masalalari bo'yicha maslahatlar berish.

Yuqorida qayd qilinganidek, belgilangan asosiy vazifalar barcha sohaga oid, xususan huquqiy sohadagi hujjatlar matnida uchraydigan so'z va atamlarni yanada takomillashuviga qaratilgan, chunki huquq jamiyatda barcha sohalarini tartibga soluvchi, davlat tomonidan o'rnatilgan, u tomonidan himoya qilinadigan umummajburiy hamda o'zidaadolat, tenglik va ozodlik tamoyillarini aks ettirgan xulq-atvor qoidalari yig'indisidir.

Huquq – tabiiy tarixiy hodisadir. U insonning tabiatini va ijtimoiy ehtiyoji asosida paydo bo'lib taraqqiy etib boradi. Uning rivoji davr, jamiyatning ijtimoiy siyosiy voqealari bilan chambarchas bog'liq. Vaqt o'tgan sayin u boyib, yuksalib boradi. Unga yangi-yangi huquqiy ta'lilotlar kirib keladi. Bu tushunchalar bilan birga yangi so'z va terminlarni ham tilga olib kiradi.

Ma'lumki, har qanday normativ-huquqiy hujjat matnining asosini yuridik terminlar tashkil qiladi. Ular huquqiy bilimlar tarkibida ishlab chiqilib, huquq ijodkorligida huquqiy tushunchaning eng muhim ramziy belgisi sifatida namoyon bo'ladi. Kishilar shu ramziy belgilar orqali huquqiy normalarni anglab oladilar. Shunga ko'ra, yuridik terminlar yuridik fanda juda muhim o'rinni egallaydi.

Til boyligini, jumladan, turli sohalarga oid bo'lgan so'zlar, so'z birikmalari, ularning etimologiyasi va tilda yasalish usullarini bat afsil o'rganish tilshunoslar va ayniqsa, leksikologlar oldida turgan vazifa bo'lib, bularning barchasi turli izlanishlar, tadqiqotlar olib borishni talab qiladi. Bugungi kunda barcha sohalar qatori ahamiyati oshib borayotgan huquqiy terminlarni o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu bois mazkur maqolada o'zbek va arab tillaridagi jinoyat huquqiga oid terminlar qiyosiy tahlil qilinadi.

Har qanday milliy tilning lug'at tarkibi, uning jami so'z boyligi shu millatning butun tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan hodisadir.<sup>68</sup> O'zbek tilining huquqiy atamalari tarixiy taraqqiyotiga nazar tashlaydigan bo'lsak, unga asosan, arab, fors-tojik, rus hamda yevropa tillarining ta'siri katta bo'lganligini kuzatamiz. O'zbek yuridik atamalari tarixi borasida Sh.N.Ko'chimov "Yuridik til nazariyasi" nomli monografiyasida bat afsil to'xtaladi va shunday yozadi: "O'zbek huquqshunoslik fanining paydo bo'lishi va rivojlanishi o'zining uzoq asrlik tarixiga ega. U eng qadimiy manbalar - "Avesto" (eramizdan oldingi IX-IV asrlar), So'g'd hujjatlari kabi yozma yodgorliklarda o'z aksini topgan bo'lib, o'sha davrning eng muhim huquqiy manbasi sifatida jahon olimlarini o'ziga jalb etib kelmoqda. Ayniqsa, o'zbek xalqining tarixida islam huquqi – shariat alohida o'rinni tutadi. U o'zbek milliy-tarixiy va huquqiy-ma'naviy merosida muhim ahamiyat kasb etdi. O'zbek yuridik terminlarining rivojlanish taraqqiyoti 1920-2010-yillar oraliqida 5 davrni bosib o'tgan va bu davrlarni quyidagicha nomlash mumkin:

<sup>68</sup> Sossur F. Trudi po yazikoznaniyu. – M.: Progress, 1977. – 35s.

1. Arabcha yuridik terminlarning salmoqli o'rin egallagan davri (1920-1937 yillar).
2. Ruscha (europacha) yuridik terminlarning majburan yoppasiga kiritilishi (1938-1950 yillarning o'rtalarigacha).
3. Ruscha (europacha) yuridik terminlar kirib kelishining bir maromga tushishi (1950 yilning o'rtalaridan 1990 yilgacha).
4. Ruscha (europacha) yuridik terminlarni o'zbekchalishtirish jarayonining boshlanishi (1989-93 yillarda).
5. O'zbek yuridik terminlari taraqqiyotining to'g'ri yo'naliш tamoyillari belgilab olinishi.

Ta'kidlanganidek, rus istilosigacha o'zbek xalqining huquqiy tizimi shariat hisoblangan. Shariat normalari arab tilida bitilgan bo'lib, shunga ko'ra bu davrlarda o'zbek huquqiy tushunchalari arab tilidagi so'z va terminlar asosida yuritilar edi.”<sup>69</sup>

F.S.Bakirovning kuzatishlaricha, 1927-yilda chop etilgan O'zbekiston SSR Jinoyat kodeksining “Davlatga qarshi jinoyatlar” bo'limida 142 ta yuridik termin qo'llanilgan bo'lib, shundan 123 tasi arabcha bo'lgan.<sup>70</sup>

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (keyingi satrlarda JK deb yuritiladi) 1994-yil 22-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 2012-XII-soni qarori bilan tasdiqlangan.<sup>71</sup> Bugungi kunga qadar ushbu kodeksga qator o'zgartirishlar kiritib kelinmoqda. Tadqiqot manbasi sifatida O'Rning 2020-yildagi JK tanlandi. Tadqiqotdan ko'zlangan asosiy maqsad JKga kiritilgan o'zgartirishlar emas, balki ushbu kodeks matnida qo'llanilgan jinoyat huquqiga oid arabiylar atamalarining leksik-semantik tahlili hamda BAAlarining jinoyat huquqiga oid atamlar bilan taqqoslashdir. Mazkur kodeks matnida qator arab tilidan o'zlashgan jinoiy-huquqiy terminlar mavjud. Quyidagi jadvalda o'zbek tiliga o'zlashgan ba'zi sof arabcha jinoyat huquqiga oid atamlar misol sifatida keltiriladi:

O'RJKda qo'llanilgan terminlar ma'nosi	Arabcha jinoiy-huquqiy terminlarning ma'nosi	Sof arabcha jinoiy-huquqiy terminlar
modda	modda	مَادَةٌ
jinoyat	jinoyat	جَنَاحَةٌ
qonun	qonun	قَانُونٌ
ayb	ayb, kamchilik	عَيْبٌ
jazo	jazo	جزاءً

Yuqoridagi jadvaldan shuni qayd etish mumkinki, jinoyat huquqiga oid ba'zi arabcha atamlar o'zbek tiliga o'z ma'nosida o'zlashgan, ya'ni arab tilida qaysi ma'noni ifodalasa, o'zbek tilida ham aynan shu ma'noda qo'llanilgan. Ammo barcha arabiylar jinoyat huquqi atamalari o'z ma'nosida qo'llanilgan deb aytolmaymiz, ya'ni ularning ma'nosi arab tilida boshqa mazmunni ifodalasa, o'zbek tilida umuman boshqa ma'noni ifodalarydi. E'tiborli jihat, har ikki tillarda ishlatalayotgan bu atamlar har ikkala tilda faol nutq qatlamiciga oid. Masalan, “جريمة” so'zi arab tilida “jinoyat” ma'nosini anglatadi, ammo O'RJKning 44-moddasida ushbu so'z jazoning bir turi sifatida, ya'ni “jarima” ma'nosida qo'llanilgan:

“Jarima aybdordan davlat daromadiga ushbu Kodeksda belgilangan miqdorda pul undirishdir.”<sup>72</sup>

<sup>69</sup> Ko'chimov Sh.N. Yuridik til nazariyasi va amaliyoti. – T.: Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, 2013.– 50 b.

<sup>70</sup> Bakirov F. Nekotoriye voprosi uzbekskoy yuridicheskoy terminologii. // Ucheniye zapiski Tash. yurid. in-ta. Vip.1. – T.: 1956. – 283 s.

<sup>71</sup> <https://lex.uz/>

<sup>72</sup> O'zbekiston Respublikasining jinoyat kodeksi, – T.: Adolat, 2018.-216.

Ayni shu “جَرِيمَةٌ” atamasi BAAlarining Jinoyat kodeksidagi “Jinoyat” nomli bo’limning 1-bobi 29-moddasida “jinoyat” ma’nosida qo’llaniladi. Ushbu atama Kodeks matnida faqat “jinoyat” ma’nosini ifodalaydi. Misol,

الجناحة هي الجريمة المعقاب عليها بعقوبة أو أكثر من العقوبات الآتية: ١ - الحبس. ٢ - الغرامة التي تزيد على ألف درهم.<sup>73</sup> ٣ - الديمة.

*Tarjimasi: Huquqbazarlik – bu quyidagi jazolardan biri yoki bir nechtasi bilan jazoladan jinoyatdir: 1.Qamoq jazosi. 2.Ming dirxamdan ortiq jarima. 3. Diya (jabrlanuvchi va uning qarindoshlariga o’lim yoki tiklab bo’lmaydigan jismoniy zarar uchun pul va boshqa moddiy to’lov, tovon)<sup>74</sup>.*

Xulosa o’rnida shuni aytish kerakki, O’zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach, qonun ijodkorligi, qonunchilik texnikasi, yuridik terminologiya kabi masalalarning dolzarbligi yanada ortdi. Qonun matnlarining lingvistik nuqtai nazardan o’ta mukammalligiga erishish jamiyatizmizning yanada yuksalishiga xizmat qilishi shubhasizdir. Bunga erishish uchun, avvalo, qonunlarda qo’llanilayotgan yuridik terminlarni ilmiy o’rganish, ularni me’yorlashtirish va barqarorlashtirish sohasidagi ishlarni kengaytirish zarurati kun tartibiga qo’ylgan.

Qonun ijodkorligida rivojlangan demokratik davlatlarning qonunlari va boshqa huquqiy manbalardan foydalanish samarali natijalar beradi. Bunday manbalarni ijodiy o’zlashtirishda ularning nafaqat huquqiy xususiyatlarini, balki lisoniy tabiatini ham o’zbek tili bilan qiyoslab o’rganish o’rinlidir.

Yuridik terminologiyani o’rganish kishilarning huquqiy madaniyatini oshirishda muhim vazifani bajaradi. Shuni inobatga olib, kelgusida o’zbekcha-arabcha, arabcha-o’zbekcha yuridik terminlarining leksikografik jihatdan mukammal izohli lug’atini yaratish, qolaversa, ikki tillik va ko’p tillik lug’atlar yaratish muhim vazifalardan hisoblanadi. Bu vazifani amalga oshirishda huquqshunos va tilshunos olimlarning o’zaro hamkorlikda ishslashlari talab etiladi. Ana shundagina qonunlarimizning benuqson va mukammal bo’lishiga mustahkam zamin yaratilgan bo’ladi.

## **AKSIOLOGIK LEKSIKANING UMUMMILLIY XARAKTERI**

*Sh. Xudayqulova,  
JIDU o’qituvchisi*

Qadriyat aksiologiyaga xos kategoriadir. Qadriyatni aksiologiya nuqtayi nazaridan talqin qilish uning kategoriya sifatidagi mohiyati, mazmuni, obyektiv asosi, namoyon bo’lish shakllari va xususiyatlarini o’rganish imkonini beradi. Olima M.O.Inomovaning talqiniga ko’ra, – “Qadriyat – bu inson yoki jamiyatning yoki bu ehtiyojini qondiradigan va ular manfaatiga xizmat qiladigan moddiy va ma’naviy ehtiyoj va manfaatlar bo’lib, ular hayotga qimmatdorlik nuqtayi nazaridan yondoshishga asos bo’la oladi. Umuman qadriyatlar jamiyat hayotining tarixiy taraqqiyoti jarayonida shakllangan va rivojlangan o’tmishda, hozirgi kunda va kelajakda ham ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy taraqqiyotga ijobiy ta’sir etadigan kishi ongiga singib, ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan moddiy va ma’naviy boyliklardir” deya ta’rif beriladi. [1]

Qadriyat kategoriysi faqat buyum va narsalarning iqtisodiy qimmatini emas, jamiyat va inson uchun biror ahamiyatga ega bo’lgan voqelikning shakllari, holatlari, narsalar, voqealar, hodisalar, talab va tartiblar va boshqalarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladi. Ijtimoiy jarayonlar ta’sirida kishilarning qadriyatlar to’g’risidagi qarashlari o’zgarib boradi. Tarixiy

قانون العقوبات لدولة الإمارات العربية المتحدة // حقوق النشر محفوظة دائرة القضاء// أبوظبي—٢٠١٨، ص. ١١٦.

<sup>74</sup> Al-Assumi Nabil Abdelraxman //Prestupleniye i nakazaniye po ugolovnomu pravu Baxreyna i Obyedenennix Arabskix Emiratov//Diss.kand.yurid.nauk (PhD) Moskva, 2000.

zaruriyatga qarab goh u, goh bu qadriyat ijtimoiy taraqqiyotning oldingi safiga chiqadi. Masalan, yurtni yov bosganida — ozodlik, imperiya hukmronligi nihoyasida — istiqlol, urush davrida — tinchlik, tutqunlikda — erkinlik, kasal yoki bemorlikda — sihat-salomatlikning qadri oshib ketadi. Qadriyatlar ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot mahsuli sifatida o‘z tarixiy ildizi, rivoji, vorislik jihatlariga ega. [6]

Qadriyatlar umumbashariy, milliy, shaxsiy bo‘lishi mumkin. Olam, tabiat va jamiyatning eng muhim tomonlarini, qonun-qoidalarini, aloqadorliklarini ifodalaydigan qadriyatlar umumbashariy xususiyatga ega. Bunday qadriyatlar o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydigan, abadiy qadriyat-lardir. Muayyan elat, millat, xalqning hayoti, turmush tarzi, tili, madaniyati, ma’naviyati, urf-odat va an’analari, o‘tmishi va kelajagi bilan bog‘liq qadriyatlar milliy qadriyatlardir. Inson, uning faoliyati, turmush tarzi, e’tiqodi, umr ma’nosи, odobi, go‘zalligi bilan bog‘liq qadriyatlar shaxsiy qadriyatlardir. Qadriyatlar komil insonni tarbiyalashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Aksiologiya dastlab, bu tushuncha falsafiy fanlarning uzviy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, qadriyatlar falsafasi ma’nosida talqin qilingan. Keyinchalik tilshunoslikda aksiologik qimmatga ega tushunchalarning lisoniy ahamiyatini o‘rganish, qadriyat darajasidagi tushunchalarni ling-vistik hodisa sifatida talqin qilish natijasida aksiologiya tilshunoslikning ham mustaqil sohasi sifatida vujudga keldi. Bugungi kunda mazkur soha boshqa mustaqil fanlar singari o‘z o‘rganish obyekti va predmetiga ega bo‘lgan mustaqil yo‘nalish sifatida takomillashmoqda. Aksiologiya (yunon. “axio” – qadriyat va “logos” – fan, ta’limot) – qadriyatshunoslik, qadriyatlar haqidagi fan. 19-asrning ikkinchi yarmida nemis qadriyatshunosi E.Gartman va fransuz olimi P.Lapi tomonidan kiritilgan. U qadriyatlar haqidagi fan. Aksiologiya – aksiologik ong, qadrlash tuyg‘usi, aksiologik bilish, qadriyatli yondashuv va boshqalar asosida to‘plangan qadriyatlar to‘g‘-risidagi bilimlar sistemasidir. [1, 7]

O‘zbek xalqiga xos milliy xususiyatlar, uning milliy madaniyati, ilm-fan, san’at va adabiyot sohasida erishgan yutuqlari, oilaviy turmush tarzi, bola tarbiyasida qo‘llangan usul va tadbirleri qadriyat sifatida baholanadi. Milliy urf-odatlar, an’analari, madaniy meros – bu noyob yodgorlik, barcha ma’naviy boyliklarning tarkibiy qismi, inson aql-idroki va tafakkurining yutug‘idir. Har bir millatning ajdodlaridan meros o‘ziga xos bilim boyliklari, tajriba va tarixiy saboqlari, odob-axloq, ta’lim-tarbiyaga oid o‘gitlari va yo‘l-yo‘riqlari saqlanadi. Masalan, qozoqlar o‘tmishda ikki yuzdan ortiq narsani taqiqlab qo‘yganlarki, bular qozoq xalqining o‘ziga xos milliy tabiat, madaniyati, adabiyoti, tili va e’tiqodlarini ko‘z qorachig‘iday avaylab-asrashga xizmat qiladi.

Bu kabi taqiqlarning ayrimlari quyidagilar: O‘zing suv ichadigan quduqqa tupurma! Nonning ustiga biror narsa qo‘yma va nonni tepmagin! Tuzni bosma! Yoshi ulug‘ keksalarning yo‘lini kesib o‘tmagin! Ota-onangga qo‘pollik qilmagin! Chumoli va qushlarning uyasini buzmaslik, kabilar. Gruzinlarda esa avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan yaxshi bir odat bor bo‘lib, qizini kuyovga uzatayotgan ota-onaga sepiga albatta Shota Rustavelining “Arslon terisini yopungan pahlavon” dostonini qo‘sib qo‘yar ekan. Chunki bu kitob ona zaminni, millat shon-sharafini, gruzin o‘g‘lonlarining jasoratini tarannum etgan. U gruzin millatining milliy iftixori hisoblanadi. Shu kitobni bermagan ota-onaga qattiq tanbeh beriladi, sep chala hisoblanadi. Bu va bunga o‘xshash ko‘plab misollar har bir millatning o‘z qadriyatları, madaniyatini asrab-avaylab kelajak avlodga yetkazish va millat istiqboli yo‘lida ulardan foydalanishi uchun yoshlarda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirish muhim o‘rin tutadi.

Xalqimizning bilimi, hayotiy tajribalari, madaniyati, san’ati, axloqiy qarashlari, shonli tarixi, yuksak orzu intilishlari, eng qimmatli milliy an’analari singgan folklor namunalarini o‘rganish orqali yoshlar qalbida millatimizga xos g‘urur, bag‘rikenglik, mehnatda fidoyilik, vatanga sado-qatlilik, do’st-yorga vafodorlik, shijoatlilik, halollik, mehr-oqibatlilik, or-nomuslilik, bir so‘zlilik, andishalilik kabi xususiyatlarni singdirish orqali ularda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirish

muhim ahamiyatga ega, deb hisoblaymiz. Jamiyatda mavjud qadriyatlar o‘z navbatida antiqadriyat deb nomlanuvchi o‘z ziddiy ko‘rsatkichlariga ham ega. Ayni shu antiqadriyatlar va qadriyatlar juftligi tilshunoslikda aksilogik leksikani hosil qiladi. Ayniqsa, millatning o‘z qadriyatlari, madaniyati, ma’naviyatini haqida ma’lumotlarni avlodga yetkazishda milliy xarakterga ega aksilogik leksikaning o‘rni katta bo‘lib, ular paremiologik va frazeologik birliklarda ko‘proq uchraydi. Aksilogik leksikani tadqiq qilishda aksilogik diadalar ya’ni aksilogik juftliklar tushunchasi alohida ahamiyatga ega. Aksilogik diada bu – inson hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurgan hayotiy qadriyat darajasidagi tushunchalarning hamisha bir-birini taqozo qilishi, bir-birini inkor etishidir. Bir so‘z bilan aytganda, aksilogik diadalar bu aksilogik juftliklar bo‘lib, ularga sog‘lik-kasallik – hayotiy qadriyat va antiqadriyat, baxt va baxtsizlik-ma’naviy qadriyat va uning aksi, vatan va musofirlik-ruhiy qadriyat va uning aksi, mehnatsevarlik va ishyoqmaslik – ijtimoiy qadriyat va uning aksi, boylik va kambag‘allik – moddiy qadriyat va uning aksi, donolik va nodonlik- intellaktual –kognitiv qadriyat va uning aksi, rostyolg‘on-axloqiy-etik qadriyatlar va uning aksi, xursandchilik va qayg‘u-emotsional qadriyat va uning aksi, jannat-do‘zax – diniy qadriyat va uning aksi kabi tushunchalar butun insoniyatga xos ijtimoiy qadriyatlardan bo‘lib, ularning dunyo xalqlarida mavjud o‘ziga xos qarashlari jamlanmasi umumbashariy ahamiyatga ega bo‘ladi. Mazkur tushunchalarning faqat o‘zbek millatiga xos lisoniy vositalarda aks topishi ularning milliy xarakteriga yorqin misol bo‘la oladi. Misol uchun, o‘zbek xalqiga xos milliy-mental dunyoqarash rus yoki boshqa millat etnik madaniyatidan tubdan farq qiladi. Boisi har bir xalq o‘z rivojlanish tarixi, evolyutsion taraqqiyot yo‘liga ega. O‘zbek xalqi asrlar davomida turli voqealar, tabiat hodisalari, madaniy-ma’naviy evrilishlarni boshdan kechirgankim, bu kabi etnomadaniy silsilalar uning tili va madaniyatiga ta’sir etmasligining iloji yo‘q. Ana shunday rivojlanish, taraqqiyot takomili o‘zbek xalqining qadriyatlar borasidagi qarashlarini ham bevosita belgilab beradi desak adashmagan bo‘lamiz.

Aksilogik leksika turli ijtimoiy munosabatlarning yadro-o‘zagini tashkil etadi. Masalan, dastlabki Sharq falsafiy qarashlarini o‘zida aks ettiruvchi ta’limiy- tarbiyaviy manba zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto”da insonni kamolotga erishuviga mehnat, ezgulik, insoniylik, soflik, bag‘rikenglik kabi sifatlarning ahamiyati chuqur ifodalangan. Zero, zardushtiylikda axloqiylikning asosi, saxovatlilik belgisi - mehnat deb ko‘rsatilsa, ishyoqmaslik barcha nuqsonlarni keltirib chiqaruvchi sabab ekanligiga urg‘u beriladi. Ayniqsa, dehqonchilik sohasida qilinayotgan mehnat yaxshilikni yuzaga chiqaruvchi asosiy omil, deya ta’kidlanadi. Mutafakkir-shoir Alisher Navoiy ijodining asosida esa, inson va uning ma’naviy dunyosi haqidagi chuqur o‘y-xayollar, olam va “muhabbat”, “go‘zallik” tushunchalari ta’sirida qaraladigan hayot mazmuni haqidagi fikrlar tashkil etadi. Muhabbat – bu insonni yomonliklardan va his-tuyg‘uga berilishdan forig‘ etuvchi ulug‘vor axloqiy kuch, u o‘zida oljanoblik va mardonavor rujni, vafodorlikni, insonning barcha imkoniyatlari va ma’naviy kuchini faol namoyon bo‘lish yo‘lini aks ettirishi, inson ruhining go‘zallikka intilishi va bu go‘zallik uchun axloqiy jasorat ko‘rsatishga tayyorligi shoirning ijodiy tasavvurida yaratilgan yuksak qadriyatdir.

Go‘zallikka erishish insondan axloqiy jasorat hamda Navoiyning ishqiy-sarguzasht dostonlarida ichki, yashirin motivlar sifatida tavsiflangan doimiy axloqiy takomillikni talab etadi. Navoiyning insonparvarlik qarashlarida asosan, shaxsiy qadriyatlar sifatida qaralgan qadriyatli tushunchalar tizimi namoyon bo‘ladi. O‘tmishdoshlari singari shoir ham insonning qadr-qimmatini uning axloqiy sifatlari - qalban poklik, oliyhimmatlilik va do‘slik, insonning bilish imkoniyatlarini cheklanmaganligi va dunyoni yaxshi tomonga o‘zgartirishda ko‘radi. Inson qadr-qimmati yuqori nasl-nasab yoki tabaqa, boylik, ijtimoiy kelib chiqishiga qarab emas, odamlar va jamiyat ravnaqi uchun sarf etilgan axloqiy sifatlar va amaliy faoliyat bilan o‘lchanadi. “Sab’ai sayyor” asarida Navoiy yozadi: “Yuqori martaba va unvon kishilarga obro

keltirmaydi, xushaxloqlilik va or-nomus ularning oliyjanobligi va obro'sini belgilab beradi. Qachonki, yomg'ir (axloqiylik)ning manbayi or-nomusdan shakllangan bo'lsa, mazkur yomg'ir tomchisi suvsiz adir uchun obi-hayot beradi. "Axloqsiz kishilar hurmatga sazovor bo'la olishmaydi, ular razil va osmon gumbazining ostidadirlar". Insonning axloqiy tarbiyasida Navoiy aqlga asosiy e'tibor beradi. Dostonda ijod sohibi sifatida insonning yuqori darajada yetukligi va qadr-qimmatini asoslashga imkon berishni so'raydi.

Demak, aksiologik leksikani tadqiq qilishda aksiologik diadalar, ya'ni aksiologik juftliklar tushunchasi alohida ahamiyatga ega. Inson hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurgan hayotiy qadriyat darajasidagi tushunchalarning hamisha bir-birini taqozo qilishi, bir-birini inkor etadigan qadriyat va antiqadriyatlar aksiologik leksikasini xalqimiz poetik tafakkuri, ijodkorlarimizning lingvopoetik mahorati aks etgan o'zbek xalq she'riyati, nasrni o'rganish katta ahamiyatga ega. Aynan badiiy asarlarni tadqiq qilish jarayonidagina aksiologik leksikaning tilimizda tutgan o'rni, ularning qaysi til vositalari yordamida ifodalanishi, qanday til hodisalarini yuzaga chiqarishi kabi masalalarni hal qilishimiz mumkin bo'ladi. Demak, o'zbek she'riyati va nasrchiligidagi aks etgan aksiologik leksikani tadqiq qilib, shunday umumlashmalar berish mumkin.

### **Adabiyotlar**

1. Багаутдинова Г.А. Фразеологическая диада "здоровье – болезнь": аксиологический аспект / Г.А.Багаутдинова // Литература, язык и художественная культура в современных процессах социокультурной коммуникации.- Уфа, 2005.- С.108-115.

2. Багаутдинова Г.А. Аксиологическая лингвистика: языковая ценность языковых единиц и ценности, выражаемые языковыми единицами / Г.А.Багаутдинова // III Международные Бодуэн де Куртенэ и современные проблемы теоретического и прикладного языкознания (Казань, 23-25 мая 2006 г.): труды и материалы: в 2 т. / Казан. гос. ун-т; – Казань: Изд-во Казан. ун-та, 2006. – Т.2.– С.132-135.

3. Байрамова Л.К. Аксиологизм человеческих эмоций (смех – плач) и его отражение в языке / Л.К.Байрамова, Г.А.Багаутдинова // Филологические науки. - 2006.- № 1.- С.81–89.

4. <https://hozir.org/nizomiy-nomidagi-toshkent-davlat-pedagogika-universiteti-q.html>
5. <http://library.ziyonet.uz/uz/book/download/8431>
6. <http://library.ziyonet.uz/ru/book/download/97818>
7. <http://istiqlol.samdu.uz/uzl/article/197>

### **INCOMPLETE STATEMENTS IN THE ACTUAL DIVISION OF THE TEXT**

*U. Burieva,  
PhD , NUU*

English linguistic science has made significant progress in the study of such a widespread phenomenon (both in colloquial speech and in literary works of the 20th century) as incomplete sentences. The use of an integrated approach made it possible to highlight the main features of an incomplete sentence both in the formal-semantic and functional-communicative terms. The concept of syntactic incompleteness includes incomplete contextual, incomplete situational and elliptical sentences, despite the fact that the latter are capable of acting in isolation. In the text, incomplete contextual and situational sentences are delimited by the amount of context required to make up the meaning. Incomplete statements, characterized by synsemantics and traditionally considered a feature of dialogical speech, are widely represented in different types of text in monologue speech. The main reason for their use is the actualization of current information, drawing the attention of the recipient to the actions of the hero, which creates a dynamic

progression of the text. The role of incomplete statements in the actual division of the text and the formation of its communicative orientation is significant. When an element of a sentence is omitted, its actual division changes. Functioning not only as an independent unit, incomplete predicative units can be a component of a complex sentence. In it, they act as an additional means of communication, since their incompleteness is a way of entering a predicative unit into a statement. Here we can generally talk about the incompleteness specified by the conditions for the functioning of the predicative unit in the statement. An incomplete utterance that functions in dialogue is always syn-semantic, but unlike an incomplete sentence in a monologue speech, the means of semantic replenishment is not the context, but the speech situation, discourse. When creating a dialogue, the most informative and expressively colored models are used, replenished with the help of paralinguistic and extra linguistic factors. Incomplete sentences are used in both stimulating, cues, and reaction cues. Formal incompleteness organizes dialogue, acting as a means of connecting elements. The dialectical nature of the phenomenon of syntactic incompleteness is manifested in the fact that, incomplete sentences also perform a number of text-forming functions. We saw that sentences with an un substituted syntactic position constitute an utterance capable of moving the text, actualizing information, linking parts of the text, introducing subjectively modal coloring into it. One of the most important aspects of our work was the consideration of syntagmatics: direct and distant environment of the investigated units. Interacting with other syntactic units (full sentences, pareling, improperly direct speech), incomplete sentences significantly expand the boundaries of their functioning. Thus, acting in convergence with the above-mentioned constructions (in the function of actualization), they realize the textual categories of continuum, prospectus, retrospection and integrity. The prevalence of constructions with un substituted syntactic positions in literary works is explained by the high level of their expressiveness. They give the text dynamism, fragmentation, laconicism, disharmony, into national arrhythmia, and also create the illusion of colloquiality, spontaneity of speech, combined with compressed, condensed thought. But the expressiveness of the text increases when several structures that are structurally and communicatively different in terms of structure appear in identical functions. Skillful combination of complete / incomplete, parceled and truncated constructions, as well as sentences of different purpose, leads to the complexity and syncretism of functions. Using the language of M.A. Bulgakov, we can note that the convergence of expressive syntactic structures in the author's speech serves the intonation-rhythmic organization of the text, the convergence of different types of speech (author's, direct, improperly direct), as well as artistic-figurative concretization of the depicted.

*Incomplete utterances are units of speech that are created in the process of speech activity, in accordance with the law of economy of linguistic means and are used to actualize, highlight information that is important from the point of view of communicants.*

Considering the correspondence of incomplete imperative sentences to certain speech acts, we take as a basis the classification of J. Searle and refer incomplete sentences of imperative semantics to directives. At the same time, the tasks of our research cause the need to distinguish among the directive speech acts their particular varieties: directives proper, voluntatives and emotives. Their illocutionary power is not the same, therefore, they have different effects on the listener, and also differ in the degree of categoricity, communicative intention, reflection of the psychological state of the communicants, as well as in the nature of the relationship between them. Incomplete sentences of imperative semantics correspond to certain genres of speech and certain speech acts. Speech act - proper to connect directives with the relations of the social hierarchy of the interlocutors, which follow Genres of Speech, presented in the form of incomplete imperative sentences: words, sentences.

## References:

- [1] Admoni V.G. Typology of sentences // Research on the general theory of grammar. – M.: 1968. –P. 104.
- [2] Akimova G.N. New in the syntax of the modern Russian language. . –M.: 1990. –P. 84.
- [3] Amosova N.N. Word and context // Essays on lexicology, phraseology and stylistics. Scientific notes of LSU. 1969. № 234, –P.67.
- [4] Burieva U.A. “Characteristic features of incomplete sentences”. Theoretical and applied sciences Volume:80/Issue:12/December/2019, –P.557-560.
- [5] Burieva U.A. “Incomplete syntactic constructions in cognitive-discursive information and isofunctional aspects”. IJRD Volume:5/Issue:4/April 2020, –P.344.

## AREAL LINGVISTIKA, LINGVISTIK GEOGRAFIYA VA DIALEKTOLOGIYA

*D.Nasriyeva,  
O'zMU magistranti*

XIX asrga kelib tillarni har tomonlama guruhashga ehtiyoj sezildi. Tilshunoslikda olimlar dunyo tillarini tasniflash masalasiga turlicha yondashdilar, ko'plab tadqiqotchilar umumiyligi e'tirof etilgan geneologik va tipologik tasniflar bilan bir qatorda tillarni tasniflashning uchinchi turini ajratdilar. Genetik-geneologik, morfologik-tipologik, funksional-struktural tasniflar qatoridan areal-geografik tasnif ham o'rinni egalladi. Til yoki sheva tarqaladigan hudud bo'yicha geografik yoki hududiy tasnif areal tilshunoslikning markaziy tushunchasi va lingvistik geografiyaning asosidir. Tillarning areal tasnifi bir qaraganda geneologik tasnifga ham o'xshab ketadi, ammo geneologik tasnif tillarning kelib chiqishini bobo til nuqtayi nazaridan o'rgansa, areal yoki geografik tasnif shu tillarning tarqalish chegaralarini belgilab beradi. Areal tasnif - ma'lum bir hududda ushbu tillarda ona tilida so'zlashuvchilarning uzoq muddatli o'zaro ta'siri natijasida paydo bo'lgan umumiyligi xususiyatlarga ko'ra tillarni aniq sinflarga bo'lish. Areal tasniflash bir tilda uning lahjalariga nisbatan ham qo'llanishi mumkin.<sup>75</sup> Tillarning areal tasnifi masalalarini areal lingvistika bilan bog'liq masalalardan alohida ko'rib chiqish mumkin emas, chunki bu tushunchalar bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Tillarning hududiy tasnifi areal lingvistikaning ajralmas qismidir. Bu yerda lingvistik omillardan ko'ra hududiy omillar muhimroq vazifa bajaradi. Bunday tasniflarning lingvistik faktlarga nisbatan tashqi ekanligi aniq. Ushbu tasnifning asosiy maqsadi – alohida tillar yoki tillar guruhining chegaralarini ularning til xususiyatlarini hisobga olgan holda aniqlash, shuningdek, turli mamlakatlarning lisoniy xususiyatlarini berish.

Areal lingvistika lingvistik geografiya va dialektologiya bilan chambarchas bog'liq. Lingvistik geografiya dialektologiya va areal lingvistika o'rtasidagi oraliq aloqa vazifasini o'taydi...<sup>76</sup> Turkiy tillar, xususan, o'zbek tili areal tadqiqi bilan shug'ullangan tilshunos olim A.B.Jo'rayev tadqiqot ishida "areal lingvistika" termini ta'rifiga M.A.Borodina fikriga tayanadi. M.A.Borodinaning fikricha, areal lingvistika – bu dialektologiya, lingvistik geografiya va areologiyaning izchil rivojlanishi.<sup>77</sup>

Tadqiqotchi olim A.B.Jo'rayev ham ushbu talqinlarni ma'qullab, shunday deydi: "Dialektologiya lingvistik geografiya va areologiyaning elementlarini birlashtiradi. Ularning har biri tiling tarqalishini til belgilarining cheksiz va ko'p sonli xususiyatlarini o'z obyektiga ko'ra aniq va

<sup>75</sup> Виноградов В. А. Классификация языков // Лингвистический энциклопедический словарь / Главный редактор В. Н. Ярцева. — М.: Советская энциклопедия, 1990. — 685 с.

<sup>76</sup> Джураев А. Теоритические основы ареального исследования узбекоязычного массива. Автореферат монографии на соискание ученой степени доктора филологических наук. М., - 1991. 8-bet

<sup>77</sup> Бородина М.А. Развитие арельных исследований и основные типы ареалов.//Взаимодействия лингвистических ареалов: Теория, методика и источники исследования. - Л., 1980. - 7-9 - betlar

chegaralab ko'rsatadi. Ushbu fanlarning atamalari va tushunchalari bir – biri bilan o'zaro ta'sirlanib ma'lum bir galaktikani tashkil qiladi".<sup>78</sup> Areal lingvistika bir til yoki shevaning, qardosh bo'lgan yoki qardosh bo'lmanan bir necha tillarning hududiy hamda til hodisalari bo'yicha tarqalishini izoglossalarda ko'rsatib berar ekan, bevosita geografiyaning metodlaridan foydalanib, tilning xususiyatlari haqida material to'playdi, lingvistik geografiya esa to'plangan material asosida xaritalashtirish ishlari bilan shug'ullanadi. Til materiali tadqiqotida xaritalashtirish metodini qo'llash dastlab XIX asrga to'g'ri keladi. Til xususiyatlarini xaritalashtirish esa izoglos-sa<sup>79</sup>larni o'tkazish orqali amalga oshirilib hududlashtirishga olib keladi. Areal lingvistika dala sharoitida ish ko'rsa, lingvistik geografiya kabinet usulida ish ko'radi.<sup>80</sup> Bu fanning asosiy maqsadi til hodisalarining hududiy taqsimlanish chegaralarini belgilab, til faktlarini xaritalash-tirib beradi. Lingvistik geografiya metodi bilan tilning istalgan aspektini fonetika (fonologiya), morfologiya, sintaksis, leksika, stilistika kabi aspektlarini tavsif etish mumkin.<sup>81</sup>

Areal lingvistikaning dialektologiya bilan o'zaro uzbekligi esa har ikkala soha ham sheva materiallari bilan shug'ullanishidadir. Ularning tadqiq predmeti bir bo'lsa-da, obyekt jihatdan farqlanadi. Areal lingvistika keng hududga ega bo'lishi, bir vaqtning o'zida ko'plab faktlarni qamrab olib, umumlashtirish hajmining beqiyosligi bilan tahliliy xususiyatga ega bo'lgan dialek-tologiyadan farq qiladi, ammo areal lingvistikaning asosi dialektologik tadqiqotlar sanaladi. Dialektologiya o'z tadqiqotida to'liq sheva materialiga va matn namunalariga ega bo'lsa, areal lingvistika anketalashtirilgan, maxsus so'rovnomalarga, kichik til faktlariga tayanadi. Har uchala (areal lingvistika, dialektologiya, lingvistik geografiya) soha ham o'z tadqiqotlarida bir- birini to'ldirib, bir butunlikni tashkil etadi. To'g'ri, tilshunoslikdagi areal lingvistikaga oid adabiyotlarda areal lingvistika, asosan, lingvistik geografiya<sup>82</sup> termini bilan nomlangan. Ba'zi adabiyotlarda, jumladan o'zbek tilshunosligida ham<sup>83</sup> har ikkala terminlar yonma-yon qo'llangan o'rinalar uch-raydi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, har bir fan o'z yo'nalishida hamkorlikda tadqiqot olib borishi tarafdirimiz.

Areal lingvistika nafaqat til hodisalarining chegaralarini, balki tillarning iqtisodiy, siyosiy, etnografik, sotsiologik va madaniy chegaralarini ham hisobga olishi kerak, chunki madaniy va siyosiy hayotida ro'y bergan har bir o'zgarish uning tilida ham o'z ifodasini topadi. Zamonaviy tilshunoslikda tillarning areal tasnifi bilan lingvistik geografiya va areal lingvistika shug'ullanadi. Lingvistik geografiya xaritadan til xususiyatlari o'rganiladigan zonalarni aniqlab, chegaralab, areal lingvistika to'plagan ma'lumotlar asosida xaritalashtrish ishlari bilan shug'ullansa, areal lingvistika til hodisalarining tarqalish hududini geografik metodlar asosida o'rganadi, tilning u yoki bu xususiyatlari haqida bevosita yoki bilvosita material to'playdi, ularning irradiatsiya<sup>84</sup> markazini aniqlaydi.

Areal lingvistikaning asosiy vazifasi til xususiyatlarining hududiy bo'linishini tavsiflash va izogolossalarni talqin qilishdan iborat ekan, natijada dialektlar, tillar va areal jamoalar o'rtasida o'zaro ta'sir maydonlari (areallari) aniqlanadi. Uning markaziy tushunchasi til yoki dialekt

<sup>78</sup> Джураев А. Теоритические основы ареального исследования узбекоязычного массива. Автореферат монографии на соискание ученоей степени доктора филологических наук. М., - 1991. 9-bet

<sup>79</sup> Izoglossa yunoncha – “teng”, “bir xil” degan ma’noni bildiradi. Tilshunoslik xaritasida til hodisasing tarqalish chegaralarini ko'rsatadigan chiziq. Qarang: Джураев Азиз Болтаевич. Теоритические основы ареального исследования узбекоязычного массива. Автореферат монографии на соискание ученоей степени доктора филологических наук. М., - 1991.

<sup>80</sup> Shermatov A. Lingvistik geografiya nima? T.: Fan , 1981.8-bet

<sup>81</sup> Shermatov A. Lingvistik geografiya nima? T.: Fan , 1981.11-bet

<sup>82</sup> Аванесов Р.И. и Бернштейн С.Б. Лингвистическая география и структура языка.-М.:Академии наук СССР, 1958; Internet ma'lumotlari: cyberleninka.ru/Левина М.З.Лингвистическая география как основа арельных исследований мордовских языков. Финно-угорский мир. 2016. №3; Пшеничнова Н.Н. Лингвистическая география. - М.:Азбуковник, 2008.

<sup>83</sup> Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. T.: Navro'z, 2016. 69-bet

<sup>84</sup> Irradiatsiya –hodisaning tarqalish nuqtasi. Qarang: Shermatov A. Lingvistik geografiya nima? T.: Fan , 1981.13-bet

arealidir. Boshqacha aytganda, ayrim lingvistik hodisalarining tarqalish chegarasi va ularning yi-g'indisi. Shuningdek, areal atamasi ayrim tillar va tillar guruhining tarqalish chegarasini ifodala-sh uchun ham qo'llaniladi. Masalan, turkiy areal, Hind-Yevropa areali, slavyan areali va h.k.

Til areali – turli tillarning bir jug'rofik hududda joylashishi. U ma'lum bir geografik ma-konda uzoq vaqt davomida birligida hayot kechirishi natijasida yuzaga keladigan umumiyl xususiyat bilan ajralib turadi, o'xshashliklar kuzatiladigan hududda til aloqalarining aniq geografik yaqinligi bilan izohlanadi.<sup>85</sup> Dialektal areal ham uzoq yillar mobaynida bir til doirasidagi bir necha sheva vakillarining muayyan hududda turmush kechirganidan, ya'ni til elementlari (fonema, morfema) ning tasodify o'xshashlikka kelib qolishi. Til va dialektal areallarda, albatta, jug'rofiy jihatdan yondosh bo'lgan til va shevalarning ta'siri kuzatiladi. Til areallari bir til yoki qarindosh bo'lgan tillar doirasida ham, turli til yoki qarindosh bo'limgan tillar doirasida ham amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, areal lingvistika nafaqat til hodisalarining chegaralarini, balki iqtisodiy-siyosiy, etnografik va madaniy chegaralarini hamda jug'rofiy yaqinligini ham hisobga olib lingvistik geografiya metodlari orqali tadqiq qiladi.

### **Adabiyotlar**

1. Виноградов В. А. Классификация языков // Лингвистический энциклопедический словарь / Главный редактор В. Н. Ярцева. — М.: Советская энциклопедия, 1990. — 685 с.
2. Джураев Азиз Болтаевич. Теоритические основы ареального исследования узбеко язычного массива. Автореферат монографии на соискание ученой степени доктора филологических наук. М., - 1991.8-bet
3. Бородина М.А. Развитие арельных исследований и основные типы ареалов. //Взаимодействия лингвистических ареалов: Теория, методика и источники исследования. - Л.,1980. – 7-9 - betlar
4. Shermatov A. Lingvistik geografiya nima? T.: Fan, 1981. 8-bet
5. Аванесов Р.И., Бернштейн С.Б. Лингвистическая география и структура языка.-М., Академии наук СССР, 1958;
6. Левина М.З. Лингвистическая география как основа арельных исследований мордовских языков. Финно-угорский мир. 2016. №3; Пшеничнова Н.Н. Лингвистическая география. - М.:Азбуковник, 2008.
7. Ashirboyev S.O'zbek dialektologiyasi. T.: Navro'z, 2016. 69-bet
8. Шарафутдинова Н.С. Лингвистическая типология и языкознание. Ульяновск, УлГТУ, 2011,стр 93.

### **TERMINLAR – TILIMIZNING BOYLIGI**

*D.Fattaxova  
O'zMU dotsenti,  
N. Sayfullayev  
magistrant*

Ma'lumki, dunyo xalqlari va mamlakatlari o'rtasidagi aloqalarning rivojlanishi natijasida tillarda ham o'zgarish, yangilanish kuzatiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, siyosiy va boshqa aloqalar natijasida yangi so'z va terminlar yuzaga keladi. Natijada, tilning o'z qatlqidagi so'zlar o'z o'rnni o'zlashgan qatlama so'zlarga bo'shatib berish holatlari ham kuzatiladi.

"Ayni paytda dunyoda ilm-fan va texnologiya shiddat bilan rivojlanib, mamlakatimizning xalqaro hamkorlik aloqalari tobora kengaymoqda. Natijada, hayotimizga chetdan ko'plab yangi

<sup>85</sup> Шарафутдинова Н.С. Лингвистическая типология и языкознание. Ульяновск, УлГТУ, 2011,стр 93

tushuncha, so'z va iboralar kirib kelmoqda. Globallashuv sharoitida milliy tilimizning sofligini saqlash, uning lug'at boyligini oshirish, turli sohalarda zamonaviy atamalarning o'zbekcha muqobilini yaratish, ularning bir xil qo'llanishini ta'minlash dolzarb vazifa bo'lib turibdi.

To'g'risini aytish kerak, bu masalada ham oqsoqligimiz bor edi. Shu munosabat bilan Farmonda yangi so'z va atamalarni rasmiy iste'molga kiritish borasidagi ishlarni tartibga soladigan Atamalar komissiyasini tuzish masalasini ham nazarda tutdik”<sup>86</sup>.

Avvalo, termin so'ziga ta'rif bersak. Termin (lot. terminus – chek, chegara) fan, texnika, kasb-hunarning biror sohasiga xos muayyan bir tushunchaning aniq va barqaror ifodasi bo'lgan so'z yoki so'z birikmasi; atama. *Botanika terminlari. Zargarlik terminlari. Paxtachilik terminlari. – Yo'ldosh... Elmurodga notanish terminlarni tushuntira ketdi.* (Shuhrat, Shinelli yillar). *Terminlar ilmiy kommunikatsiyadan jonli so'zlashuvga o'tganda, xalq uchun tushunarli so'zlarga aylana boradi. "O TA"*<sup>87</sup>.

Terminologiya ilmiy adabiyotlarda ma'lum bir fanning tushunchalar tizimi bilan bog'liq terminlarning umumlashmasi sifatida ta'riflangan. Har qanday tushunchalar tizimiga muayyan terminlar tizimi to'g'ri keladi. Terminologiya fanning taraqqiyoti bilan birgalikda rivojlanadi. Terminlar umumiste'moldagi so'zlardan farqli ravishda joriy qilinib, ularning qo'llanilishi muayyan darajada nazorat ostida bo'ladi. Tilshunoslikda terminlar o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi, balki ular zaruriyatga ko'ra yuzaga kelib, shakllanadi va til taraqqiyoti bilan bog'liq holda taraqqiy etib, o'zgarib boradi. Terminlarning yuzaga kelishi va rivojlanishi ham xalqning tarixi qadar qadimiydir. Jumladan, O'rxun-Enasoy bitiktoshlarida xalqimiz mashg'ul bo'lgan mashg'ulotlarga oid terminlarni uchratishimiz mumkin. Bundan tashqari, terminlar xalq tomonidan yaratiladigan afsonalarda, qahramonlik qo'shiqlarida ham mavjud bo'lgan. Ularni o'zida aks ettirgan. Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'oti-t-turk” asari terminlar yetib kelishida katta tarixiy vazifani bajargan.

H.Dadaboyevning “XI-XIV asrlar turkiy tillar yozma yodgorliklaridagi ijtimoiy-siyosiy va sotsial iqtisodiy terminologiya”<sup>88</sup> mavzusida yaratilgan tadqiqot ishida o'zbek tilidagi, jumladan, turkiy tillardagi ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminologiyaning paydo bo'lishi va tilda qo'llanish mummolari atroflicha o'rganilgan. Tadqiqotda O'rta Osiyo hududidagi turkiy xalqlar tillaridagi *yurt*, *ulus*, *baliq* (“shahar” ma’nosida), *yasaq* (“huquq, qonun” ma’nosida), *ordu*, *qazi*, *og'riqliq*, *jaza*, *yug'rush* (“vazir” ma’nosida) singari bir necha ijtimoiy-siyosiy terminlar ishlatilganligi, Mahmud Qoshg'ariyning “Devonu lug'oti-t-turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutad-g'u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq”, Zamaxshariyning “Muhaddimat ul-adab”, Sayfi Saroyining “Guliston bit-turkiy”, Rabg'uziyning “Qissasi Rabg'uziy” kabi asarlaridan olingan terminlar misollar bilan isbotlab berilgan. O'z navbatida, terminlarning paydo bo'lish tarixiga, ularning yasalish qonuniyatlariga hamda boshqa tillardan o'zlashtirilgan terminlar hisobiga boyishi masalalariga ham alohida e'tibor berilgan.

Har bir davrda jamiyatning taraqqiyoti bilan bog'liq holda sohaviy terminlar ham son, ham sifat jihatdan takomillashib bordi. Uning taraqqiyotida XIX asrning 2-yarmidan keyingi davr va yana oradan yuz yildan ortiq davr o'tib, O'zbekistonning mustaqillikka erishgan davri alohida o'rinn tutadi. Ushbu davr ichida yuz bergen o'zgarishlar O'rta Osiyo, xususan, O'zbekistonda ham sanoatning o'sishiga, dunyoviy fanlarning qaytadan rivojlanishiga sabab bo'ldi. Falsafa, huquq, filologiya, sotsiologiya, kimyo, biologiya, umuman olganda, ijtimoiy-siyosiy sohalarga oid maxsus atamalar shakllandi va ular tilimizga kirib keldi. Biror bir fanni termsiz tasavvur qilib

<sup>86</sup> Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 21-oktabrdagi o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagи nutqidan.

<sup>87</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati – T. A.Madvaliyev tahriri ostida. Toshkent.

<sup>88</sup> Dadaboyev H. “XI-XIV asrlar turkiy tillar yozma yodgorliklaridagi ijtimoiy-siyosiy va sotsial iqtisodiy terminologiya”. Toshkent. “Yozuvchi”. 1991

bo'lmaydi. Chunki fanning mavjudligi va rivojlanishi ma'lum ma'noda terminlar bilan bog'liq. Mustaqillik yillarda terminlarni tartibga solish murakkab jarayonni yuzaga keltirdi. Chunki forsiy, arabiylar, rus va Yevropa tillaridan o'zlashgan terminlar tilimizda bemalol ishlatala boshladи. Turkiy tillarda terminologiya sohasi ancha muammoli sohalardan biri hisoblanadi. Shiddatli rivojlanish davrida har bir xalq o'z tilini sof holda saqlab qolishga intiladi, albatta.

Har bir asar leksikasi ilmiy jihatdan mukammal sinchiklab o'rganilsa, undagi so'zlar turli sohalarga oid terminlar ham ekanligiga amin bo'lamiz. Jumladan, o'tmish asarlarida qo'llanilgan ijtimoiy leksikaga xos terminlar shu sohalardan biridir. Har bir ijtimoiy termin ijtimoiy hodisa mahsulidir.

Terminlarni saqlash, yangilarini muomalaga kiritish, ularning sofligini ta'minlash orqali tilimizni ham saqlagan bo'lamiz.

## O'ZBEK TILIDAGI GASTRONOMIYAGA OID BARQAROR BIRIKMALAR

*N.N. Rasulova,  
O'zMU magistranti*

Har bil millat atrofidagi narsa-hodisalarini, voqealarni obrazli va ta'sirchan ifodalashga harakat qiladi. Hayoti davomida orttirgan xulosaviy fikrlarni ixcham, lo'nda va sodda qolipda kelgusi avlodga qoldiradi. Natijada maqol, matal, ibora kabi tildagi barqaror birikmalar yuzaga keladi. Barqaror birikmalar o'zbek tilida alohida leksik-semantik guruhni tashkil etadi. Bunday leksik-semantik guruhlar orasida gastronomiyaga oid barqaror birikmalarning ham o'rni bor.

Ikki va undan ortiq so'zning barqaror munosabatidan tashkil topgan, ma'nosi odatda, bir so'zga, ba'zan so'z birikmasi, gapga teng keladigan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi, ko'chma ma'noli barqaror (turg'un) birikma ibora yoki frazeologizm deyiladi [1]. Frazeologizmlar adabiy tilning badiiy va so'zlashuv uslubida keng, ko'proq qo'llanadi va nutqni ta'sirchan, obrazli ifodalashga xizmat qiladi. Non, osh, tuz, sut, ayron kabi gastronomik birliklar milliyligimiz, madaniyatimiz belgisidir.

Non, osh, tuz, sut, ayron kabi gastronomik birliklar taom, oziq-ovqat, rizq-nasiba, tirikchilik ma'nolari bilan birlashadi. Ular ishtirok etgan maqollar, iboralarda ham bu yaqqol ko'zga tashlanadi. O'zbek xalq maqollari orasida, ayniqsa, osh, non, tuz, ayron, go'sht kabi gastronomik birliklarga duch kelsak; tuxum, mayiz, yong'oq, sut, patir, mosh, talqon, shira kabi gastronomik nomlar iboralar tarkibida ko'p uchraydi. Osh gastronomik atamasi ishtirokidagi maqol va matallar, iboralarda o'zbek xalqining oshga bo'lgan hurmat-ehtiromini va uning vositasida oilani, mehmonni qadrlash, mehnatni, kasb-hunarni sevish, ardoqlash, halol yashash kabi xalqona pandu o'gitlar obrazli ta'sirchan ifodalangan bo'lsa, tuz qadim-qadimdan mehmono'stlik, to'kinlik, rozi-rizolik ramzi sifatida barcha xalqlarda ulug'langan va qadrlangan. Sut esa oqlik, soflik, rozilik, mehr kabi tushunchalarni o'zida mujassamlashtirgan.

Gastronomiya oid barqaror birikmalarda ham xalqning mehnatsevarligi, ayniqsa, bir-biriga ko'maklashib, kengashib qilingan mehnat serunum bo'lishi haqida uqtiriladi: "Ishlamagan nonga zor", "Do'lanani ko'rganda tog' esingdan chiqmasin", "Ariq qazimasang otizga suv chiqmas", "Betashvish bosh qayda, mehnatsiz osh qayda", "Yoz bo'lsa-yu, qish bo'lmasa, osh bo'lsa-yu, ish bo'lmasa", "Yozda boshi pishmaganning, qishda oshi pishmas", "Yozda boshi qaynagan, qishda oshi qaynamas", "Ishdan qochding – oshdan qochding", "Ishyoqmasga osh berma", "Ishyoqmasga osh yoqmas" [2] kabi. Aksariyat barqaror birikmalarda kindik qoni to'kilgan ona Vatanni ulug'lash, vatanparvarlik haqida. "Non gadosi bo'lsang ham yurt gadosi bo'lma", "Ona yurtning tuprog'i- ona sutidan aziz", "Elga qo'shilgan moy yutar, Eldan ayrilgan

qon yutar”, “Yolg’iz uyda qozon qaynamas”, “Suvning oqishiga qara, xalqning xohishiga qara”, “Oshdan qolsang ham ko’chdan qolma” kabi jamoatchilik yoqlab, xudbinlikni qoralovchi barqaror birikmalar ham uchraydi.

O’zbek tilidagi gastronomiyaga oid barqaror birikmalarni quyidagicha tasniflash mumkin:  
**pand-nasihat ruhidagi barqaror birikmalar:** “Bir kun tuz ichgan joyga, qirq kun salom qil” “Qarindoshingni oshga chaqir, choshga chaqirma”, “Tor yerda osh yeguncha, keng yerda musht yegan yaxshi”, “Qo’lidan ishini olsang, og‘zidan oshini olasan”; “Ko‘ngil tortgan osh halol”, “Tuzsiz oshni it ichmas” “Minnatlik oshdan, beminnat musht yaxshi”, “Oshing halol bo‘lsa ko’chada ich!”, “Bermasning oshi pishmas, pishsa ham, qozondan tushmas”;

**2) insondagi salbiy fazilatlarni qoralovchi baqaror birikmalar:**

“Ayron –osh bo‘lmas, nodon – bosh bo‘lmas”, “Ishga – no‘noq, oshga – o‘rtoq”, “Ishga – cho‘loq, oshga – qo‘noq”, “Ishdan qochding – oshdan qochding”, “Osh quli – ish kasali”, “Yalqovning oshi – yovg‘on”, “Bilmas kishiga ish yo‘q, ishsiz kishiga osh yo‘q”; “Och kishiga osh qo‘ysang, betingga qaramas” ;

**3) insondagi ijobjiy fazilatlarni ulug lovchi baqaror birikmalar:**

“Og‘ayni biriksa, bosh ko‘payar, ovsin biriksa, osh ko‘payar”, “Boshi yo‘qning oshi yo‘q”, “Og‘a-ining totuv bo‘lsa, ot ko‘p, opa-singling totuv bo‘lsa, osh ko‘p”; “Oz oshim – g‘avg‘osiz boshim”, “Oz oshga indov yo‘q”; “Yosh kelsa – ishga, qari kelsa – oshga”, “Osh qolsa – davlat, ish qolsa – mehnat”; “Do‘stsiz boshim – tuzsiz oshim”, “To‘yar oshni ko‘z taniydi, oshnani ko‘ngil taniydi”; “Yo‘qcha guruch osh bo‘lur, mehmon ko‘ngli shod bo‘lur”[3].

Demak, maqol va iboralar tarkibida uchraydigan oziq-ovqatga doir tushunchalar o‘ziga xos ma’no-mazmunga xos ekan. Chunonchi, tuz deganda olgan narsasiga javobgarlik, mas’uliyatlilik, halollik, tuz totigan joydan, shaxsdan qarzdorlik, yaqinlik kabi yuksak qadriyatlarni tushuniladi. Shuning uchun ham bu tushunchalar tuzning azal-azaldan qadri baland bo‘lganligini bildiradi. Non haqidagi barqaror birikmalarning ko‘aida nonning ulug‘ligi, muqaddas va mo‘tabarligi xalqona tilde ta’kidlanadi hamda uqtiriladi. Bundan tashqari, suv yaratuvchanlikni, sut poklikni, ushoq tejamkorlikni anglatadi.

Gastronomiyaga doir osh, tuz, non, talqon, mayiz kabilar boshqa xalqlar kabi o‘zbek xalqining qadimiyligi, azaliy va bardavom yashovchan kundalik, milliy qadriyatlari bilan bog‘liqligi bois ular asosida shakllangan barqaror lisoniy birliklar mazmunan hamda mohiyatan umumiyligini kasb etadi. O‘zbek xalqi azal-azaldan taomlarga, oziq-ovqatlarga, xususan, non, osh, tuzga ayri-cha munosabatda bo‘lgan. Ularni muqaddas bilgan, rizq-ro‘z, nasiba sifatida e’zozlagan, qadr-lagan, ulug‘lagan va farzandlarini ham shu ruhda tarbiyalagan. Natijada tilga olingan ne’matlar, yeguliklar borasida xalqona betakror qadriyatlarni shakllanib, xalq og‘zaki ijodida non, osh va tuz uzbli maqol va matallar, frazeologizmlar yuzaga kelgan hamda yillar davomida bu birliklar shaklan va mazmunan sayqallanib, boyib va mukammallahib borgan, bizgacha yetib kelgan.

### **Adabiyotlar**

1. Uluqov N. Tilshunoslik nazariysi. – Toshkent: Barkamol fayz mediya, 2016. – B. 113.
2. O‘zbek xalq maqollari (To‘plovchilar: T.Mirzayev, A.Musoqulov, B.Sarimsoqov) - Toshkent: Sharq, 2016
3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик лугати. – Тошкент: Қомуслар Бош таҳририяти, 1992/

## ONTOGENEZDA YOZMA NUTQNING SHAKLLANISHI VA RIVOJALANISHI

*N. Xaitbayeva,  
O'zbekiston Mavzuviy Tadqiqotlari Universiteti magistranti*

Alifbo tartibida yozilgan zamonaviy yozuvda og'zaki nutq tovushlari - ma'lum harflar bilan belgilanadi. (To'g'ri, bu munosabat - "Tovushli harf" - barcha zamonaviy tillarda mavjud emas). Masalan, ingliz, yunon yoki turk tillarida og'zaki "Nutq" yozuvidan juda farq qiladi. Bu faktning o'zi murakkablik haqida gapiradi. Yozma va og'zaki nutq o'zaro bir-biri bilan chambarchas bog'liq ammo, bu "Nutq birligi" ham muhim ahamiyatga molik farqlarga ega. Yozma nutq va og'zaki nutqning ko'p qirrali aloqalari ko'plab mahalliy olimlarning tadqiqot mavzusi (A.R.Luriya, B.G.Ananyeva, L.S.Tsvetkova, R.E.Levina, R.I.Lalayeva va boshqalar) bo'lib kelmoqda.

Yozish va o'qish ikkinchi darajali, "G'ayritabiyy", nutq faoliyatining turlariga tegishli; ular bolada gapirish va tinglashdan ancha kechroq shakllanadi (5-7 yoshda); o'ziga xos xususiyatlarga ega va shunga mos ravishda maxsus uslubiy yondashuvni talab qiladi. Yozma nutqning belgilari - "Ramzlearning belgilari" ("Ikkinchi darajadagi ramziylik") bo'lib, ularda mavhum fikrlashning ma'lum bir rivojlanish darajasini talab qiladi. L.S.Vigotskiyning kuzatuviga ko'ra, bolalarda o'yin kabi tabiiy faoliyat turida ramziy funksiya, ayniqsa, muvaffaqiyatli rivojlangan. O'yinda bola "Hamma narsa bu hamma narsa" bo'lishi mumkinligini bilib oladi, ya'ni yozilgan belgi tovushli so'zning belgisi bo'lishi mumkin. Shubhasiz, o'quvchini yozma til bilan tanishtirishda o'qituvchi o'yinni bolaning yozma tili tarixidagi bosqichlardan biri deb hisoblaydigan L.S.Vigotskiy nazariyasining ushbu pozitsiyasiga ishonishi kerak. Yozma nutqning uni og'zaki nutqdan ajratib turadigan va uni o'zlashtirishni qiyinlashtiradigan eng muhim xususiyati - bu motivning yetishmasligi. Og'zaki nutq motivlari bolada nutqiy vaziyatda paydo bo'ladi, ular aloqa vaziyatining o'zi tufayli yuzaga keladi. O'quv bosqichida yozish uchun motivlar o'qituvchi tomonidan zaruratni tushuntirib yaratiladi.

A.R.Luriya ta'kidlaganidek, jarayonda og'zaki til shakllanadi bola va kattalar o'rtasidagi tabiiy aloqa "Hayrixoh" bo'lib, shundan keyingina og'zaki aloqa maxsus, mustaqil shaklga aylanadi. Biroq, unda elementlar doimo saqlanib qolgan amaliy vaziyat, imo-ishora va yuz ifodalari bilan aloqa tabiiy holdir. Yozish bu butunlay boshqa holat bo'lib, kelib chiqishi va psixologik tuzilishi murakkab jarayondir.

Agar og'zaki nutq bolada hayotining 2-yilida paydo bo'lsa, unda yozuv faqat 5-6-yillarda shakllanadi. Og'zaki nutq kattalar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot jarayonida paydo bo'ladi. Yozish faqat mutazam ongli tayyorlanish jarayonida shakllanadi.

Yozish motivatsiyasi bolada og'zaki nutqning motivlaridan farqli ravishda keyinchalik paydo bo'ladi. O'qitish amaliyotidan ma'lumki, mактабгача yoshdagи bolada yozish uchun motivlar yetarli darajada bo'lmaydi, ya'ni asosan maktab yoshida yaxshi ishlaydi.

Yozma nutq faqat maxsus mashg'ulotlar natijasida paydo bo'ladi, yozma fikrlar esa bu baracha ifoda vositalarini ongli ravishda egallash bilan boshlanadi. Yozishning dastlabki bosqichlarida uning nutqi shunchaki ifoda etilishi kerak bo'lgan fikr emas, balki, harflarni yozish uchun qancha texnik harakat vositalari va keyin hech qachon yozilmagan so'zlar, og'zaki, dialogik yoki monologik xabardorlikka duchor bo'limganlar nutqidir. Yozma nutqni o'zlashtirishning birinchi bosqichida asosiy mavzu va e'tibor bu texnik harakatli yozish operatsiyalari va o'qishdir. Bola yozish va o'qish qobiliyatini, motorli ko'nikmalarini rivojlantiradi. Yozishni o'rgangan bola avval operatsiya qilmaydi u har qanday fikrlarni tashqi ifoda etish orqali, tovushlar, harflar va so'z-

larni belgilash orqali bildiradi. Faqat ancha keyinroq mavzu bolaning ongli harakatlari fikrlarining yozma ifodasiga aylanadi.

Bunday "Yordamchi", oraliq jarayon operatsiyalari bolani ongli harakatlarining mavzusi, nutq avlodni, tovush oqimidan fonemalarni ajratib ko'rsatish jarayoni sifatida, harflar bilan ushbu fonemalarning tasviri, so'zlarni harflar bilan sintez qilish, ketma-ketlikda bir so'zdan boshqasiga o'tish, ko'pincha to'liq amalga oshirilmagan og'zaki nutq kabi jarayonlar yozma nutqda uzoq vaqt saqlanib qoladi. Yozgandan keyin avtomatlashtirilgan holda, bu ongli harakatlar tafakkurga aylanadi va fikrlash, shunga o'xshash operatsiyalarni (ajratish) egallashni boshlaydilar (ovoz, artikulyatsiyani topish va boshqalar) va buni og'zaki-yozma nutqda egallyaydi.

Yozish kommunikativ xarakterga ega asosan monologik nutq. Bu uni o'ziga xos tarzda kelib chiqishi, garchi insoniyat jamiyatining yaqin tarixida bo'lsa ham juda keng tarqalgan va dialogik variantlar yozma aloqa (birinchi navbatda shu tufayli "Internet" kabi noyob ommaviy aloqa vositasi kompyuter orqali) jihatlarini belgilab beradi. Shunga qaramay, yozma nutq paydo bo'ldi va rivojlandi. Hozirgi bosqichda ijtimoiy-tarixiy rivojlanish og'zaki nutqning mazmunini namoyish qilishning o'ziga xos shakli (foydalinish) grafik belgilar asosida maxsus yaratilgan yozuv, rivojlanish jarayonida mustaqil va o'ziga xos muhim jihatga aylandi.

Yozuv, inson nutqiy faoliyatining "O'zini o'zi ta'minlaydigan" alohida muhim turi. Yozma nutqning funksiyalari og'zaki til funksiyasidan ko'ra juda keng. Yozishning asosiy funktsiyalaridan biri shuki, har qanday masofada ma'lumot uzatilishini ta'minlash, og'zaki nutq va ma'lumotlarning mazmunini o'z vaqtida birlashtirish imkoniyati kabilarni o'zida mujassamlashtiradi. Yozishning bu xossalari rivojlanish chegaralarini insoniyat jamiyatida cheksiz ravishda itarib yuboradi.

Ijodiy ishlarni (ekspozitsiyalar, insholar) yozishni o'rganish, ayniqsa, dolzarb bo'lib qolmoqda. O'qituvchi o'quvchiga yozma matnni yaratishda "Hayotiy ehtiyoj" ni his qiladigan sharoitlarni yaratishi kerak. Buni, masalan, yozuv mavzularini yoki ma'lum bir yoshdag'i bolalar uchun qiziqarli bo'lgan yozuv janrlarini tanlash orqali amalga oshirish mumkin (masalan, boshlang'ich va o'rta maktablarda siz bolalarни ertak yozishga taklif qilishingiz mumkin). O'qishni o'qitishda o'qituvchilar yozma til ikkinchi darajali simvolizm degan fikrga ishonishadi, shuning uchun siz yozma tilga faqat og'zaki til orqali kirishingiz mumkin. Bu bolada o'qish mahoratini shakllantirishning quyidagi bosqichlarini ochib beradi: *Ovoz chiqarib o'qish, pichirlab o'qish, jim o'qish (o'ziga o'zi)*. Dastlabki va reaktiv turlarning rivojlanishi uchun alohida ahamiyatga ega. Nutq faolligi bolada so'zlarni yozishda, shuningdek, o'qituvchi matnni ovoz chiqarib o'qiyotganda ortadi. Birinchi holda, bu artikulyar apparatlar, yozuv qo'li va miyaning nutq markazlari o'rta-sida aloqani o'rnatishga yordam beradi. Bu ulanish uning rivojlanishini dastlabki bosqichlarida ichki nazorat va xatni tuzatish funksiyasini bajaradi. O'qish paytida o'qituvchining orqasida joylashgan matning takrorlanishi kinestetik boshqaruvi ulanishi bilan aloqa mexanizmlarini faollashtiradi va kuchaytiradi, chunki eshitish paytida odamning ichki nutq-motor faoliyati harakatda bo'ladi. Bularning barchasi, bir tomonidan, o'qilayotgan matnni yanada muvaffaqiyatli idrok etishga, ikkinchi tomonidan, o'quvchining ortoepik saviyasini oshirishga yordam beradi. Shuni unutmaslik kerakki, baland ovozda o'qiyotganda, o'quvchi "Ma'nosini begonalashtirish"i mumkin (shuni ta'kidlash lozimki, baland ovozda o'qiyotgan kishi ushbu matn bilan bog'liq bo'lmagan narsa haqida o'yashi mumkin). Shuning uchun, yaxshi o'qiyotgan o'quvchi matnning mazmunini to'g'ri idrok qilishi uchun, uni o'zlariga ham o'qish uchun imkoniyat berish kerak.

Har qanday faoliyatning eng muhim xususiyati uning obyektiv tabiatini bo'lib, u nutqda atrofdagi voqelik obyektlari, hodisalarining aloqalarini va aloqalarini aks ettirish shakli sifatida fikr mavjudligida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, nutq faoliyatining boshlang'ich turlarining asosiy maqsadi, masalan, nutq va yozish, o'z fikrini ifoda etishdir. Psixolingvistikarning ushbu po-

zitsiyasidan kelib chiqqan holda, o'qituvchi bolaning fikrini to'liq, aniq ifoda etish ko'nikmalarini shakllantirishi kerak. Bunday ish atrofdagi voqelikning bir qismini tanlash bilan boshlanadi: joni yoki jonsiz tabiat obyekti, voqealar, ichki kechinmalar va boshqalar.

Ontogenezda yozma nutqni rivojlantirishning psixolingvistik asoslari haqida suhbatni yakunlab, nutqni shakllantirish bolaga nutq faoliyatining turli xil shakllarini o'rgatayotganligini ta'kidlash kerak. Tilni to'liq egallash nafaqat yozuvchi, balki o'quvchi uchun ham ma'ruzachi va tinglovchilarining kommunikativ rollarini bajarish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Yozma nutq faoliyati subyekti inson ongida voqelikni bir qismining aqliy aksi ekanligiga asoslanib, yozma nutq faoliyati intellektual deb belgilanishi mumkin. Shunga ko'ra, yozma nutq faoliyatining asosiy maqsadi fikrlarni shakllantirish, rivojlantirish va axborot uzatish, saqlash kabi kommunikativ vazifalarni bajarishdir, demak, yozma nutq faoliyatini rivojlantirish, albatta, bola tafakkurining rivojlanishiga hissa qo'shadi.

### **Adabiyotlar**

1. Ladijenskaya T.A. Bog'langan nutq // Sinfda nutqni rivojlantirish usullari Rus tili. - M., 1980 yil.
2. Levina R.E. Nutq rivojlanmagan bolalarda yozuvning buzilishi. - M., 1961 yil.
3. Leontev A.A. Aloqa psixologiyasi. - Ed 2. - M., 1997 yil.
4. Leontev A.A. Psixolingvistika asoslari. - M., 2003 yil.
5. Vigotskiy L.S. Fikrlash va nutq // Sibr. Op.: 6 jilda. -- M., 1982. - T. 2.
6. Gluxov V.P. Psixolingvistika asoslari. - M., 2005 yil.
7. Luriya A.R. Til va ong. - Ed 2-chi. - Rostov-Donu, 1998 yil.
8. Luriya A.R. Yozuv psixofiziologiyasiga oid insholar. - M., 1950 yil.
9. Tsvetkova L.S. Afaziya va reabilitatsiya mashg'ulotlari. - M., 1988 yil.
10. Elkonin D.B. Talabalarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish // Rivojlanish va ta'lrim psixologiyasi bo'yicha o'qishlar. - M., 1978. - T.1.

## **TIBBIY TERMINLARNI QO'LLASHDA SHIFOKOR NUTQ MADANIYAT**

*D. Ro'zimatova,  
O'zbekiston Milliy Madaniyatlari Universiteti  
O'zMU magistranti*

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada shifokor va bemor o'rtasidagi muloqotda lingvokulturologiyaning o'rni, ahamiyati haqida fikrlar bildirilgan. Tibbiy etika, shifokordagi nutq madaniyati, ayrim terminlarning ishlatalish sabablari izohlangan.

*Kalit so'zlar:* tibbiy deontologiya, lingvokulturologiya, evfemizm, tabu, shifokor nutqi, nutq madaniyati

Nutq-fikrimiz, bilimimiz, munosabatlarimiz va dunyoqarashimizning so'zlar orqali ifodalanishidir. So'z-bu qurolo, so'z-bu tig', so'z-bu malham. Qadimdan so'z buyuk shifobaxsh kuch-qudratga ega bo'lib kelgan hamda "avvalo, so'z bo'lgan" degan qarashlar ham mavjud. Ilohiyotda borliq ilohiy "Kun!" (ma'nosi "Yaral!") xitobidan so'ng dunyo yaralgan, degan ma'lumotlar bor. So'z, avvalo, amal. Aytilgan so'z esa bir kun kelib bajarilishi, bajarilgan amal bir kun kelib aytishi mumkin. So'zning qudrati esa ana shunda. Biz so'z yuritmoqchi bo'lgan tibbiy nutq ham inson salomatligi va hayotida muhim o'rin tutadigan sohalardan biridir. Mashhur yunon hakimi Buqrot "Inson ruhini davolamay, tanga shifo berib bo'lmaydi", deb ta'kidlaganida aynan "so'z"ni nazarda tutgan. Darhaqiqat, turli kasalliklar ruhiyatda u yoki bu o'zgarishlarni vujudga keltiradi, bu esa bemorlar bilan muloqotda o'z ifodasini topadi. Inson aqliy va fiziologik faoliyatining mevasi –nutq orqali bu muloqot namoyon bo'ladi. Zamonaviy tibbiyotda shifobaxsh omil sifatida

so'zning ahamiyati yanada ortdi. Muloqotning yuqori madaniyatli darajada bo'lishi tibbiyot xodimidan yuksak ruhiy manbani ,yuqori madaniyatni, o'ta nozik darajadagi sezgirlikni, bilimni, matonatni va hatto ba'zida aktyorlik darajasidagi mahoratni talab etadi. Qadimgi hind tabibi Sushrata: "So'z muloyim, yoqimli va umidvor qila oladigan, ruhga taskin berguvchi bo'lmog'i lozim", deb yozgan edi [5.21]. Bu fikrlar hozirgi zamonda ham dolzarbdir.

O'zbek tilshunosligida til madaniyatiga alohida e'tibor qaratilmoqda va lingvistikaning lingvokulturologiya sathi taraqqiy etmoqda. Mazkur yo'nalishning asosiy obyekti madaniyat va til aloqadorligini, ularning o'zaro bog'lanishi, o'zaro ta'sirini bir butun yaxlit tizim sifatida o'rghanishdan iborat. Kasbiy sohalar bilan bog'liq nutq ham uslubshunoslik, ham lingvokulturologiya aspektida ishlanishi zarur bo'lgan muammo sanaladi. So'z shifokor bilan bemor aloqasini o'rnatishda muhim ahamiyat kasb etadigan, muvaffaqiyatlari davolashga yordam beradigan vositadir. Nutq madaniyati shifokorning umumkasbiy mahorati uchun zaruriy shartlardan biridir. Shuning uchun tibbiy jarayonning doimiy ishtrokchilar, tadqiqotchilar (psixolog, tilshunoslar)doimo tibbiy faoliyatning lingvomadaniy aspektiga qiziqib kelishgan. Tibbiyot sohasining lingvomadaniy aspekti tibbiyot deontologiyasi, psixoterapiya, tibbiy etika masalalari bilan chambarchas bog'liq.

Tibbiyot deontologiyasi – tibbiyot xodimlarining kasbga aloqador etikasi, dori-darmon, umuman, davoning tasirini oshirishga qaratilgan xulq-atvor taomillari. Deontologiya, ya'ni kishining xulqi, odobi haqidagi tushuncha 16-asrning boshlarida ingliz faylasufi va iqtisodchisi L.Bentam tomonidan taomilga kiritilgan. Tibbiyot deontologiyasiga oid ma'lumotlar uzoq tarixga ega. Tibbiyot deontologiyasi shifokor bilan bemor o'rtasidagi, shifokor va uning kasbdoshi o'rtasidagi hamda shifokor va bemorning yaqinlari o'rtasidagi munosabatlarni o'z ichiga oladi. Tibbiyot nutqi va unda ishlatiladigan evfemizmlar, ibora va ifodalar o'rganilishi zarur bo'lgan jabhalardan biridir[1.73].

Shu o'rinda aytish mumkinki, shifokorlar bemorga tashxis qo'yishda uning sog'lig'iga ta'sir etmaydigan tilda yumshatib, muloyimlik bilan kasallikni o'zgacha ifodada aytadilarki, bu tibbiyot ta'limida linvokulturologiyaning o'z ta'siri borligidan dalolat beradi.Jumladan, shifokor nutqida ayrim evfemizmlarga to'xtalib o'tish lozim, deb topdik. Evfemizm – ifodaga ijobiy yondashuv keltirish maqsadi bilan amalga oshiriladi.

"Evfemizm" – (yunoncha "euphemismos" – yaxshi gapirmoq) narsa – hodisaning ancha yumshoq shakldagi ifodasi; qo'pol, beadab so'z, ibora va tabu o'rnida qo'pol botmaydigan so'zni qo'llash [2.33].Tabuga uchragan so'z yoki ibora o'rnida to'g'ridan to'g'ri evfemizm qo'llanadi, ya'ni ma'lum so'zga tabuga uchragan lug'aviy birlikning ma'nosi yuklanadi, u evfemistik ma'no bo'lib qoladi. Tabu so'zi birinchi marta ingliz kapitani J.Kok 1777-yilda Poleneziyadagi Tonga orolida aniqlagan.Tonga tilidagi "ta" belgilamoq, ajratmoq, "pu" butunlay so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, "butunlay ajratilgan", "man etmoq", "taqilamoq" ma'nosini anglatadi[3.122].

Tibbiyot amaliyotida qo'rquv, uyat, noqulaylik, nafrat kabi salbiy his uyg'otadigan kasallik nomi va u bilan bog'liq voqeа-hodisalar ham uchrab turadi.Mana shunday birliklar shifokor nutqida o'z evfemizmiga almashadi.Masalan,tutqanoq o'rnida epilepsiya so'zini qo'llash uchraydi. *Epilepsiya* – vaqtı-vaqtı bilan qisqa muddat, hushdan ketish, tirishish, g'ayritabiyy harakatlar qilish bilan kechadigan xurujli kasallik[1.258].

*Siydik tutolmaslik* so'zi o'rnida *enurez* so'zi ham mutaxassislar tomonidan qo'llanadi.*Enurez*-kechasi o'rniga siyib qo'yish. Ko'pincha go'daklar, o'quvchilar, o'smirlarda uchraydi.Aksariyat o'g'il bolalarda kuzatiladi [1.257].

Xuddi shuningdek *qo'tir* o 'rnida "chesotka", xalq tilidagi "pes" so'zi o'rnida mutaxassislar yoki kasalning yaqinlargina tushuna oladigan *vitiligo*, "ichketar" o'rnida *diareya*, *qisir* so'zi o'rnida *bepusht* , *chot sohasi* o 'rnida *oraliq yoki chov sohasi*, *bitlash* o'rnida *pedikulyoz*; *aqldan*

*ozish* birikmasi o'rnida *shizofreniya*, *xavfli xol* o'rnida *melanoma* so'zlarini ishlatish tibbiyot sohasida tez-tez uchraydigan holat.Ushbu o'rinlarda so'zlovchi uyat va noqulaylik hissini keltirib chiqarmaslik maqsadida nutqida evfemik birliklardan foydalanadi.

Shifokor ayrim kasallik bilan bog'liq axborotni bemor va uning yaqinlariga yetkazayotganida nihoyatda ehtiyoj bo'lishi lozim, aks holda bu bemorning ruhiyati va salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Lingvistik nuqtayi nazardan nutq qaratilayotgan shaxsning holati, dunyoqarashi, vaziyati, e'tiborga olinishi kerak. Demak, shifokorda lingvomadaniy muloqot tibbiy ta'lim olishni boshlagan paytida shakllantirilib borilishi lozim.

### **Adabiyotlar**

1. Тиббиёт қомусий луғати. - Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1994. – 291 б/
2. Mahkamov N. va b. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. - Toshkent: Fan, 2013. - 144 b.
3. Usanova Sh. va b. Madaniyatlararo muloqot. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2017.
4. Русча-лотинча-ўзбекча тиббий терминлар луғати. Тошкент: Камалак –Хазина, 1996. - 526 б.
5. Qosimov E.Y. Shifokorning nutq madaniyati va bemor bilan muloqot san'ati-Toshkent: Yangi asr avlod, - 2007. -161 б

### **TIL VA NUTQ**

*M. Abdurahmanova,  
O'ZMU dotsenti,  
U. Buxorova,  
O'ZMU talabasi*

Til va nutq bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Ma'lumki til – ijtimoiy hodisadir. Sababi, til jamiyatdan tashqarida mavjud bo'lmaydi. Ijtimoiy deyilishining sababi ham aynan shunda ko'rindi. Inson nutqi uning tafakkuri bilan qay darajada bog'liq bo'lsa, jamiyat bilan ham shundaydir. Inson jamiyatda tug'iladi, o'sadi, kamol topadi va vafot etadi. Til ham shunday. Paydo bo'ladi, shakllanadi, ba'zilari yo'qolib ketadi, bazilari rivojlanishda davom etadi. *Til* deyilganda ma'lum bir jamiyatning barcha a'zolari uchun avvaldan tayyor holga keltirib qo'yilgan, hamma uchun umumiyligi, ya'ni qabul qilinishi va qo'llanishi majburiy, fikrni shakllantirish, ifodalash va boshqa maqsadlar uchun xizmat qiladigan birliklar hamda bu birliklarning o'zaro birikishi va bog'lanishini belgilovchi qonun-qoidalar yig'indisi tushuniladi. Til – sof lisoniy qobiliyat va imkoniyat. U tafakkurni shakllantirishga (kodlashtirishga), xotirada qat'iy tizimga tizib saqlashga, axborotni uzatish va qabul qilishga imkoniyat beruvchi muhim (birlamchi) insoniy ijtimoiy-psixologik aloqa vositasidir. *Nutq* esa yuqorida ta'riflangan til imkoniyatlari asosida ayrim shaxs tomonidan so'zlash qobiliyati ko'magida ma'lum bir aloqa (kommunikatsiya) maqsadi uchun ishga solinish yoki qo'llanish natijasidir. Nutq lisonning me'yor elagidan o'tgan muayyan moddiy (yozma, og'zaki, tasviriy, imo-ishora, signal) kabi shakllaridan birida voqelanishidir. Darhaqiqat, til mulki ham, uning qoidalari ham, muayyan hajmga, chegaraga ega, nutq tuzishning usullari esa rang-barangdir. Fikr ifodalash jarayoni (kommunikatsiya, axborot) va bu jarayonning mahsulini nutq deymiz. Til faoliyat ham, aloqa qilish jarayoni ham emas, balki bir butun va bir turdag'i hodisa – tayyor mahsulotdir. Nutq esa faoliyatning bir turi bo'lib, turfa xil shaklda, tarkiblanish va tartiblanishda namoyon bo'ladi.

Til va nutq, nutqning og'zaki shakllari to'g'risidagi qarashlar tilshunoslikning doimiy e'tiborida turadi. Buning haqiqatini g'arbda XIX yuz yillikka kelib tushunib yetgan bo'lsalar, sharqda, xususan, o'zbek tilshunosligi tarixida bu tushunchalar avvaldan ma'lum bo'lgan. Ma-

salan, Kaykavusning “Qobusnoma” asarining yettinchi bobida suxandonlik (notiqlik) haqidagi fikrlar jamlangan. Unda so’z va nutq haqida alohida fikrlar bildirilgan: “*So žni bag’oyat ulug’ bilg’ il, so ž osmondan kelmas va ul xor narsa emasdur. Qay bir so žniki bilsang joyini o’kazmay aytg’ il, vaqtini zoye qilmag’ il, yo’q ersa donishg’ a sitam qilg’ on bo lg’ aysan. Har so ž desang rost deg’ il va bema’nilikni da’vo qilg’uvchi bo lmag’ il...*” Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” asarida ham kuzatishimiz mumkin. Olimning til bilimida yozma til va nutq farqlanadi: “*Inson-kim, so ž aytdi lison tufayli, Yaxshi so ž tufayli so ži chiroyli*”. Alisher Navoiy “Mahbub ul-qu’lub” asarida til va nutq munasabatlarini shunday ifodalaydi: “Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir, agar nutq noma’qul bo’lib chiqsa tilning ofatidir”. Ko’rinib turubdiki, o’z davrida Navoiy ham til va nutq hodisalarini bir-biriga qiyoslagan, farqlagan. Fermenand de Sossyur fikricha, til kishilik jamiyatida bajaradigan vazifasiga ko’ra aloqa quroli, fikr ifodalash vositasidir; ijtimoiy tabiatni jihatidan madaniy-tarixiy va ijtimoiy hodisa, ichki tuzilishiga ko’ra sof belgi – ishoralar (belgilar) tizimidir.<sup>89</sup> Til – nutq faoliyatining qismigina xolos, ammo bu eng muhim qismidir. U ijtimoiy mahsulot, jamoat qabul qilgan zarur sharoitlar yig’indisi va bu har bir til egasining nutq faoliyatini tadbiq qilishga bo’lgan qobiliyatini ta’minlab beradi. Til – bu o’z-o’zidan yaxlitnikni anglatadi.

Tilshunoslikda til va nutq o’zaro farqlangandan buyon ularga xos til birliklari ham bir-biri bilan o’zaro doimo aloqada bo’lgan birliklar sifatida ajratiladigan bo’ldi.<sup>90</sup>

### **Lisoniy birliklar**

*fonema tovush  
morfema qo’shimcha  
leksema so ž  
qolip yasama so ž, so ž birikmasi, gap*

### **Nutqiylar**

Til birliklaridan ijodiy foydalanish, bir tomonidan, nutqni rang-barang qilish, ikkinchi tomonidan, yakka shaxs nutqidan tortib uslublarning o’ziga xosligini vujudga keltirish imkonini beradi. Shunday qilib, nutq birliklarida til imkoniyati reallashadi.<sup>91</sup> Nutq birliklari nutq paytining o’zidagina til imkoniyatlaridan ijodkorlik faoliyatini ishga solgan holda erkin tuziladi. Nutq birligining kommunikativ vazifasini bajargach, makon va zamondagi yaxlitligini tugatadi. Ularni faqatgina yozuv orqali qog’ozlarda yoki ovozlarini yozib qolish mumkin.

Til nutqqa qarama – qarshi qo’yiladi. Bunga tildan tashqari nutq faoliyatidagi barcha narsa kiradi. Bunday qarama – qarshilikning sababi quyidagicha: til ijtimoiy hodisa, unda so’zlashuv-chilarga tegishli umumiy mulk, nutq esa shaxsiy; nutq fizikaga bog’liq, nutq faoliyatining akustik tomonlari nutqqa kiradi; til esa fizik realizatsiya usullariga tobe emas: og’zaki, yozma va imoshora nutqi bir tilni ifodalaydi. Nutq harakatining ruhiy qismi Sossyur tomonidan nutqqa kiritiladi. Lekin bu nuqtayi nazarni isbotlab bera olamaydi, chunki til o’ziga faqatgina aniq muhim narsalarni jalb qiladi, barcha ikkilamchi narsalar esa nutqqa kiradi. Nutq muloqat davomida amalga oshiriladigan so’zlashuv va eshitishning alohida qismlaridan iborat. Til va nutqning bir-birini inkor etishiga qaramay, Sossyur ta’kidlaydi: “*til va nutq o’zaro chambarchas bog’liq, ular o’zaro bir-birini keltirib chiqaradi: nutq tushunarli bo’lishi uchun til zarur, nutq esa tilning shakllanishida muhim rol o’ynaydi*”. Bundan kelib chiqadiki, tilning rivojlanishi nutqda ifodalanadi, jonli nutq esa tilning mavjudligi va rivojlanishi dalilidir. Til aniq maqsadlar uchun mavjud – muloqot quroli, fikrlarni aks ettirish vositasi, madaniyat va atrofimizdagagi olamni anglab yetish vositasidir. Tilni xalq yaratadi, nutqni esa shaxs.

<sup>89</sup> Xolmonova Z. Tilshunoslik nazariyasi. – T.: 2019.

<sup>90</sup> Nurmonov A. Lingistik belgi nazariyasi. – T.: Fan, 2008.

<sup>91</sup> Nematov H., Bozorov O. Til va nutq. – T., 1993.

## **Adabiyotlar**

1. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. – T., 1993.
2. Nurmonov A. Lingvistik belgi nazariyasi. – T.: Fan, 2008.
3. Sayfullayeva R., Mengliyev B. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T., 2007.
4. Xolmonova Z. Tilshunoslik nazariyasi. – T., 2019.
5. Kaykovus, Qobusnoma. – T., 1994.

## **SIFAT SO'Z TURKUMINING O'RGANILISHI**

*S.Isroilova  
Toshkent vil. maktab o'qituvchisi*

Barchamizga ma'lumki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev 2018-yil 4-oktabr kuni “Davlat tili haqida”gi (1989-yil 21-oktabr) qonunning 30 yilligini munosib nishonlash to‘g‘risidagi qarorni imzoladi: “Dunyodagi qadimiylar va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zlik va mustaqil davlatchilik timsoli, beba yo‘naviy boylik, mamlakatimizning siyosiy-ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotida g‘oyat muhim o‘rin egallab kelayotgan buyuk qadriyatdir”<sup>92</sup>, – deyiladi hujjatda. Qarorda qayd etilishicha, mazkur tarixiy hujjatga binoan o‘tgan yillar davomida ona tilimiz mustahkam huquqiy asos va yuksak maqomga ega bo‘ldi.

Hozirgi kunda o‘zbek tili hayotimizning barcha jabhalarida—davlat va jamiyat boshqaruvi, davlatlararo munosabatlar, ilm-fan, ta’lim-tarbiya, tibbiyot, madaniyat va san’at sohalarida faol qo’llanilmoqda, xalqaro miqyosda o‘zbek tilining jozibasi yanada oshib, minbarlardan baralla yangromoqda. Bugungi kunda xorijda o‘zbek tiliga bo‘lgan qiziqish tobora kuchayib bormoqda.

Bolalar ruhiyatiga ko‘z tashlasak, ularni dunyoni anglashda har bir narsa-buyumning shakliga, rangiga, o‘ziga xos belgisiga, hidiga, ta’miga e’tibor qaratadi. Bularning barchasini bir yerda jamlasak, belgilarni tizimi, ya’ni sifat so‘z turkumi kelib chiqadi. Ma’lumki, o‘zbek tilida sifat asosan predmetning belgisini bildiruvchi so‘zlar guruhidir. Sifatlar semantik jihatdan shakl, holat, xususiyat, maza-ta’m, hid bildiruvchi guruhlarga tasniflanadi.

Tilshunoslikda sifat so‘z turkumining o‘rganilish tarixi juda qadim davrlarga borib taqaladi. Mahmud Koshg‘ariyning “Devon-u lug‘atit turk”, Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddimat-ul adab”, “Asos-ul balog‘a”, Alisher Navoiyning “Muhokamat-ul lug‘atayn” kabi asarlaridayoq sifatlarning belgi ifodalash xususiyati, ularning turli xil tashbehlari va badiiy san’atlarni yuzaga keltirishdagi imkoniyatlari haqida muayyan fikr-mulohazalar mayjud edi.

60-yillarga kelib o‘zbek tilshunosligida sifat turkumiga oid so‘zlarni o‘rganishga tilshunos olima M.Sodiqova katta hissa qo’shti. Olma 1963-yilda “O‘zbek tilida rang-tus bildiruvchi sifatlar” mavzusida nomzodlik ishini himoya qildi. Ikki tomlik “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” (1966) va “O‘zbek tili grammatikasi” (1975) nomli tadqiqotlarning “Sifat” mavzularini yozdi, 1974-yilda olimaning “Hozirgi o‘zbek tilida sifat” nomli monografiyasi e’lon qilindi. Masalan, M.Sodiqova 1966-yilda e’lon qilingan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” asarida sifatning ma’no jihatdan olti turini alohida-alohida ajratib ko’rsatgan edi:

- a) rang – tus bildiruvchi sifatlar: *oq, qora, qizil*;
- b) hajm bildiruvchi sifatlar: *keng, tor, uzun*;
- v) shakl bildiruvchi sifatlar: *dumaloq, yassi, qiyshiq*;
- g) maza bildiruvchi sifatlar: *achchiq, chuchuk, shirin*;
- d) xarakter va xususiyat bildiruvchi sifatlar: *yaxshi, yomon, a’lo, ablah, urishqoq, tirishqoq*;
- e) holat bildiruvchi sifatlar: *kasal, musofir, boy, kambag’al, yosh, qari, kal, kar, pes* va boshqalar.<sup>93</sup>

<sup>92</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 oktabrdagi PF-5850 raqamli “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni // Xalq so‘zi, 2019-yil 22-oktabr

<sup>93</sup> Sodiqova M. Sifat // O‘zbek tili grammatikasi, ikki tomlik, 1-tom. – Toshkent: Fan, 1976, 301-bet.

O'tgan asrning 70-90-yillarida o'zbek tilshunosligida sifat turkumini talqin etish yanada chuqurlashdi va ilmiy tus oldi. Jumladan, keyingi o'ttiz-o'ttiz besh yil davomida o'zbek tilshunosligida tilning grammatik qurilishini, lug'aviy tarkibini o'rganish sohasida sezilarli yutuqlar qo'lga kiritildi. Pardayev Z.ning "O'zbek tilida sifatlarning semantik-uslubiy xususiyatlari" nomzodlik dissertatsiyalarining bir bobiga "Rang bildiruvchi sifat leksemalarning semantik-uslubiy xususiyatlari" deb nomlangan. Mazkur bobda "**qora**", "**oq**", "**qizil**", "**yashil**" kabi tilimizda keng tarqalgan rang bildiruvchi leksemalarning semantik-uslubiy xususiyatlari tahlil qilingan.<sup>94</sup>

O'zbek tilshunosligida sifat so'z turkumini o'rganish bilan bog'liq har bir ilmiy tadqiqotning o'ziga xosligi, izlanish metodlarining xilma-xilligi ko'zga tashlanadi. M. G'anixo'jayeva esa nomzodlik dissertatsiyasida o'zbek tilidagi rang bildiruvchi sifatlarni qiyosiy-tarixiy yo'nalishda tadqiq etib, ularning rivojlanish dinamikasini, sof turkiy va o'zlashgan rang bildiruvchi so'zlar qatlamini aniqlagan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadi, eski o'zbek tili yozma yodgorliklarida *qizil*, *ko'k yashil* singari rang bildiruvchi so'zlar ko'chma ma'nolarda qo'llanmaydi, substantivatsiyaga uchragan *qora* so'zi esa eng ko'p-sakkiz ma'noda qo'llanilishi ma'lum bo'ladi; rang bildiruvchi so'zlarning yozma yodgorliklar tilida qo'llanilish chastotasi quyidagicha: *qora* – 18,8 %, *oq* – 15,8 %, *qizil* – 6,89 %, *ko'k* – 3,5 %, *yashil* – 2,5 %, *sariq* – 2,5 % kabilar.

Jumatova N. "O'zbek xalq maqollaridagi rang bilan bog'liq ramziy obratzlar" maqolasida "**oq**" va "**qora**" ranglari qatnashgan maqollarni atroflicha tahlil qilgan. Ming yillardan beri shakllanib kelayotgan maqol-u matallardagi ranglar jilosiga ahamiyat qaratgan.

Yana bir tilshunos olim B.Yoriyev *qizil*, *qip-qizil*, *oppoq*, *qora* kabi leksemalarning xilma-xil uslubiy ma'nolarni ifodalashga xizmat qilishini, ular she'rning badiiy ta'sirchanligini oshirish vositasi ekanligini Maqsud Shayxzoda poeziyasini misolida yoritishga intilgan. Eng muhim iishda sifatlarning okkazional ko'rinishlari (*aqli qo'lmiz*, *aqli qo'lmiz*, *otuvchi qalam*, *yozar miltiq* kabi) bilan bog'liq uslubiy xususiyatlar tahliliga e'tibor qaratilgan.<sup>95</sup>

K.Yusupovning kuzatishlari esa publitsistik uslub nuqtayi nazaridan olib borilganligi ko'zga tashlanadi. U XX asrning birinchi yarmi vaqtli matbuot materiallari asosida so'z ma'nosida yuz beradigan o'zgarishlarni o'rganadi, bunda olim *qizil* va *qora* so'zlarining bosh ma'nosidan tarkib topgan yondosh ma'nolar (*qizil choyxona*, *qizil adliyachi*, *qizil matbuot*, *qizil bayram*, *qizil kun*, *qizil ketmonchi*; *qora xat*, *qora yolg'on*, *qora o'tmish kabilar*)ni tahlil qilishga intiladi. Olim sifatlarning boshqa so'zlar bilan aloqaga kirishuvi va sintaktik birikma hosil qilishini kolligatsiya hamda kolokatsiya atamalari bilan yuritish tarafdori sifatida ko'rindi. Monografiyada ta'kidlanishicha, *kolligatsiya* grammatik ma'nolarga asoslangan umumiy hodisa sanalsa, *kollokatsiya* kolligatsiyaning nutqiy talabga ko'ra yuzaga chiqishidir.<sup>96</sup>

Tabiatda ranglarning chegarasi yo'q. Lug'at boyligimizda ham rang bildiruvchi maxsus so'zlar rang, tuslarining hammasini aniq ifodalay olmaydi. Shuning uchun tilda ko'pincha bir rang bildiruvchi so'z bir necha rangni ifodalaydi va semantik qamrovi kengayadi. Ularning uslubiy imkoniyatlari, okkozional ma'nolari faqat nutq jarayonida yuzaga chiqadi.

Shunday qilib, o'tgan asrning 70-90-yillarida o'zbek tilshunoslari rang bildiruvchi leksemalarning grammatik, semantik va ramziy xususiyatlarini tadqiq etish sohasida qator ishlarni amalga oshirdi. Ammo ularning hammasi ham ranglarning bor xususiyatlarini to'liq ohib bera olmagan.

### Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850 raqamli "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni //Xalq so'zi, 2019-yil 22-oktabr.

<sup>94</sup> Pardayev Z. O'zbek tilida sifatlarning semantik-uslubiy xususiyatlari. – Samarqand: 2004. - 7 b.

<sup>95</sup> Yoriyev B. Sifatlarning stilistik xususiyatlari (Maqsud Shayxzoda she'riyati misolida) // O'zbek tili stilistikasi va nutq madaniyati masalalari (ilmiy maqolalar to'plami), Samarqand: SamDU nashri, 1980. – 56-5- betlar.

<sup>96</sup> Yusupov K. O'zbek adabiy tilining leksik – semantik va stilistik xususiyatlari (XX asrning birinchi yarmi vaqtli matbuoti materiallari asosida). – Toshkent: Fan, 1986. 124-bet.

2. Sodiqova M. Sifat // O'zbek tili grammatikasi, ikki tomlik, 1-tom. – Toshkent: Fan, 1976, 301-bet.
3. Pardayev Z. O'zbek tilida sifatlarning semantik-uslubiy xususiyatlari.—Samarqand: 2004. — 7 b.
4. Исмоилов Ф. Фразеологизмларда оқ ва қора концептларининг идиоетник белгилари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2015, 3-сон, 58–60 – бетлар.

## BADIY MATNDA RANG BILDIRUVCHI LEKSEMALAR XOS KONNOTATIV MA'NOLAR

*N.Qidirboyeva  
Toshkent vil. o'qituvchisi*

Ma'lumki, o'zbek tilida sifat asosan predmetning belgisini bildiruvchi so'zlar guruhidir. Sifatlar semantik jihatdan shakl, holat, xususiyat, maza-ta'm, hid bildiruvchi guruhlarga tasniflanadi. Sifatlarning mazkur guruhlari ularning denotativ ma'nosiga asoslanadi. Biroq nutqiy qo'llanishda mazkur guruhga kiruvchi sifatlar o'zlarining turli ma'no qirralari bilan so'zlovchiga keng imkoniyat beradi. Buni asosan matn tahlilida kuzatish mumkin. Ilmiy manbalarda so'zning bunday semantik imkoniyatlari konnotativ ma'no sifatida qayd etiladi. "Konotatsiya"—leksema tarkibidagi uslubiy ma'no qirralaridir. Ular leksemalarni atashdan, nomlashdan tashqari, shaxsiy munosabatlarni ifodalashga yoxud shu leksemalarning qo'llanilishi doirasini belgilashga xizmat qiladi.

O'zbek tilida sifat leksemalarning, xususan, rang-tus bildiruvchi sifat leksemalarning uslubiy vosita sifatida poetik nutqda qo'llanish imkoniyatlari, turli ma'no nozikliklarini ifodalash uchun xizmat qilishi, qo'llanish darajasi, semantik strukturasi hozirga qadar tilshunoslikda maxsus o'r ganilgan emas.

Ma'lumki, o'zbek tilida *oq, qora, qizil, sariq, zangori, ko'k, yashil* kabi bir qator sifat leksemalar predmetning rang-tusini ifodalaydi. Ot turkumiga oid so'zlar o'z tabiatiga ko'ra bir qator belgi-xususiyatlarni o'zida mujassamlashtiradi, boshqacha qilib aytganda, belgi-xususiyat otlarning doimiy yo'ldoshi bo'lib, ulardan ajrala olmaydi. Rang bildiruvchi sifatlarning har biri o'ziga xos semantik strukturasi va uslubiy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ularning uslubiy imkoniyatlari, okkazional semalarni ifodalash xususiyati nutq jarayonida yuzaga chiqadi.

Dastavval, rang-tus sifatlari orasida badiiy ijodda eng faol leksemalardan bo'lmish, *oq* va *qora* sifat leksemalari xususida to'xtalmoqchimiz. *Qora* sifat leksemasi nutqda faqat predmetning rangini ko'rsatish maqsadida qo'llanganda, emotsiyal-ekspressivlikdan xoli bo'ladi, uning vazifasi rang to'g'risida xabar, ma'lumot berish bilangina cheklanadi. Nafaqat qora sifat leksemasi, balki barcha rang-tus sifatlariga ham xuddi shu fikrni aytish mumkin. Masalan, *qora qalam, oq daftar, moviy osmon, ko'k ruchka, qizil qon* va hokazo. Bu birikmalar biz hech qanday uslubiy ma'no xususiyatlari duch kelmaymiz. Chunki bunday birikmalar uslubiy bo'yoqdorlikdan xoli hisoblanadi. Biroq bu sifat leksemali birikmalarning hokim bo'lagi o'zgarsa, sifat leksemalarning ma'no qirralari ham o'zgarishga yuz tutishi, yana ham aniqrog'i uslubiy ma'no kasb etishi mumkin. Masalan, *qora o'tmish, oq ko'ngil, moviy havo, qizil dunyo* kabi.

*Qora* leksemasi so'zlovchi yoki yozuvchining o'z nutqi qaratilgan shaxsga bo'lgan munosabati nuqtayi nazaridan matnga bog'liq holda ijobiy yoki salbiy ekspressivlikni ifodalashi mumkin. Bu leksema inson organizmining yuqori qismida joylashgan a'zolar (soch, qosh, ko'z)ni tasvirlash maqsadida qo'llanganda rang ma'nosiga ijobiylik semasini ham kiritadi: *Qaro qoshing, qalam qoshing. Qiyiq qayrilma qoshing qiz* // *Qilur qatlimga qasd qayrab, Qilich qotil qaroshing*

*qiz.* (E.Vohidov). *Qoshi yosinmu deyin, ko'zi qarosinmu deyin // Ko'ngluma har birining dard-u balosinmu deyin.*(Alisher Navoiy).

Keltirilgan misollarda mualliflarning o'zlarini tasvirlayotgan kishilarga bo'lgan ijobiy munosabati ularga tegishli bo'lgan a'zolarning belgilarini sifatlashlar yordamida keltirish orqali ifodalanmoqda. Demak, *qora* leksemasi bu o'rinda rang-tusni bildirishdan tashqari muallifning kayfiyatini, mehr- muhabbatini ham ma'lum darajada bildirib kelayotir. Umuman, *qosh, ko'z, soch* kabi a'zolarga nisbatan *qora* leksemasi epitet sifatida qo'llanganda ijobiy munosabat semasi ma'lum darajada aks etadi. Quyidagi misolda esa boshqacha holat ko'zga tashlanadi: *O'tmishsiz, kechmishsiz, manglayi qaro, // Yoqavayron bo'lgan odamlar aro.* (Shavkat Hasan). *Lekin yomon yurardi // Xo'p qora edi ichi* (H. Olimjon).

Muallifning o'zi tasvirlayotgan kishi xarakteridagi odob-axloq normalariga mos kelmaydigan jihatlar-munofiqlik, g'alamislik, g'iybatchilik, ochko'zlik, berahmlik singari sifatlarni ko'r-satishga intilishi uning *qora* leksemasini salbiy semada qo'llashga asos bo'lgan. *Qora* leksemasi bu o'rinda yuqorida qayd etilgan salbiy belgilarni o'zida mujassamlashtirgan va matnga bog'liq holda ma'no anglatish doirasini kengaytirgan. Umuman, *qora* leksemasi ana shu xususiyatiga ko'ra ich so'zi bilan birikib, tilimizda "yomon niyatli, boshqalarga yaxshilikni ravo ko'rmaydigan" ma'nosini ifodalovchi *ichi qora* frazemasi sifatida qat'ylashib qolgan.<sup>97</sup> Zafar Pardayevning "O'zbek tilida sifatlarning semantik-uslubiy xususiyatlari" nomli ilmiy monografiyasida *qora* leksemasining yana tilimizda quyidagi okkazional semalarni ifodalashi mumkinligi e'tirof etilgan: motam, qayg'u, kun, kunning ma'lum vaqt, yorug'lik – qorong'ulik darajasi kabi. Tadqiqotda olim *qora* leksemasining yigirmaga yaqin semasi xususida fikr bildirib o'tgan.<sup>98</sup>

A.N.Kononov *qora* sifat leksemasining ma'nolarini tadqiq etib, bu leksema bilan "katta", "yirik", "muhtasham", "ulug'", "qudratli", "kuchli", "pokiza", "musaffo", "quruqlik", "yer", "zulmat ko'ki", "shimol" kabi semalar ifodalanganligini ko'plab misollar yordamida izohlab berган edi. Ilmiy tadqiqotlarning guvohlik berishicha, turkiy xalqlarda bir zamonlar qora rangli bayroqlar bo'lgan. Jumladan, adabiyotshunos olim I. Haqqul Ergash Jumanbulbul kuylagan "Dalli" dostonidagi bir baytda shunga ishora borligiga asoslanib, "Qorabosh tug'" ( qora rangli bayroq) – boshini o'limga tikkan mard, jasur jangchilar bayrog'ini bildirib, bu o'rinda eroniylarning bayrog'iga qarshi tiklangan turkiy tug'dir", degan xulosani bayon etgan.<sup>99</sup> Z. Pardayev e'tirof etganidek, *qora* sifat leksemasining uslubiy ma'no qirralari benihoya ko'p. Shuningdek, tilimizda bu so'z ifodalagan simvolik ma'noni boshqa sifat leksemalar ham ifodalashi mumkin. Masalan, o'zbek tilida faqat *qora* sifat leksemasina emas, balki *ko'k* sifat leksemasi ham ramziy motam ma'nosini anglatgan. Bunga misol qilib, Usmon Azimning quyidagi misralarini keltirishimiz mumkin: *Sevgimiz o'ldimi? – libosingiz ko'k, // Ko'nglingiz—begulxan, ko'zingiz – becho'g!*

Ko'rindaniki, *oq* va *qora* rang-tus sifatlarining poetik nutqda uslubiy vazifa bajarish ko'lami nihoyatda keng. She'riyatda har bir shoir *oq* va *qora* leksemalarini qo'llashda ma'lum bir ma'no nozikliklarini, okkazional semalarni ifodalashni ko'zda tutadi. Shunisi xarakterlik, poetik matnlarda insoniy munosabatlar rang – tus bildiruvchi sifat leksemalar vositasida aniq, lo'nda va obrazli tarzda ifodalanadi. *Oq* va *qora* sifat leksemalari insoniy munosabatlar, xarakterlar tasvirining ikki qutbi – antonimi sanaladi.<sup>100</sup> *Oq* leksemasini qo'llashda insonga xos bo'lgan barcha ijobiy jihatlar nazarda tutilsa, *qora* leksemasini qo'llashda esa buning tamomila aksi tushuniladi.

<sup>97</sup> Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1978. – 408 b.

<sup>98</sup> Pardayev Z. O'zbek tilida sifatlarning semantik – uslubiy xususiyatlari. – Samarqand: SamDU nashri, 2007. 36 – 44 – betlar.

<sup>99</sup> Ibrohim Haqqul. Qora rang – muborak rang // Ibrohim Haqqul. Zanjirband sher qoshida ( Navoiy saboqlari ). – Toshkent: Yulduzcha, 1989, 36 – 45 – betlar.

<sup>100</sup> Rahmatullayev Sh., Mamatov N., Shukurov R. O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1980. – 232 bet.

Ularni poetik nutqda, hatto bir she'r doirasida qarama – qarshi qo'llash esa fikrni aniq ifodalash, mazmunni kuchaytirish, ta'sirchanlikni oshirish imkonini yaratadi.

*Oq* sifat leksemasi badiiyatda beg'uborlik, musaffolik, tinchlik ramzi sifatida keng qo'llanadi. Uning kuchaytirma shakli ayniqsa, kuchli uslubiy bo'yoq dorlikka ega bo'lib, she'riyatda ijobjiy kayfiyat, toza ruhni uyg'otish uchun faol ahamiyat kasb etadi. Masalan, Hamid Olimjonning "O'rik gullaganda" she'ri fikrimizga yaqqol misol bo'la oladi. *Derazamning oldida bir tup // O'rik oppoq bo'lib gulladi*. Mazkur she'rda muallif *oq* sifat leksemasini ham qo'llashi mumkin edi. Chunki tabiatshunoslikdan barchamizga yaxshi ma'lum bo'lganidek, erta bahorda barcha o'rik shoxlari oq bo'lib gullaydi. Biroq mazkur misralarda muallif aynan *oppoq* sifat leksemasini tanlaganida ham bir hikmat bor. Ya'ni *oppoq* so'zi bu yerda nafaqat, o'rik gullarining rangini, balki, sof lirk tabiat manzarasini, insonning eng intim, ichki ruhiyati bilan bog'liq manzaralarni tasvirlashda ham *oq* sifat leksemasiga qaraganda samaraliroq leksema hisoblanadi. Shu bois ham muallif she'rda aynan *oq* yoki *pushti* emas, *oppoq* sifat leksemasini tanlagan.

Yuqorida keltirilgan misollarda rang-tus sifatlarining denotativ ma'nosidan tashqari konotativ ma'nesi ham yaqqol bo'y ko'rsatib turibdi. Chunonchi, *yashil* sifat leksemasi tiriklikni, hayotni ramziy tasvirlasa ("*yashil ishq*"), *sariq* sifat leksemasi, bil'aks, ayriliqning, firoqning ramziy belgisi sifatida yuzaga chiqmoqda. ("*sariq yaproq*", "*sariq gullar*" *kabi*).

Xalq qahramonlarini kuzatar ekanmiz, ularda yetti xil asosiy rangning aks etganligi ayonlashadi. Ular oq, sariq, qizil, ko'k, yashil, jigar, qora. Bu ranglar his-tuyg'uni ifodlovchi, holatni bildiruvchi, joyni anglatuvchi xususiyatlarga ega. Xalqning qadimgi totemistik va animistik qarashlari asosida har bir rang o'ziga xos ma'no kasb etgan. Masalan: oq – ezgulik, qizil – quvonch, yashil – tiriklik, sariq – ayriliq va boshqalar.

Umuman, rang bildiruvchi leksemalar tilda, ayniqsa, badiiy adabiyotda faol qo'llanuvchi, o'zining semantik va leksik xususiyatlari bilan alohida o'rinni egallovchi so'zlar hisoblanadi.

Badiiy tasvirni bo'yoq dor va o'ynoqi qilishda, metafora, metonimiyalarni vujudga keltirishda rang-tus bildiruvchi so'zlarning o'rni beqiyosdir.

## ONA TILI – MILLAT RUHI

*D. Amirova,  
TDPU talabasi*

"Dunyodagi qadimiylar boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebafo ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir"<sup>101</sup>.

Til – bu o'tmishdir. U orqali buyuk mutafakkirlarimizning shoh asarlari hozirgi kungacha yetib kelgan, milliy qadriyat-u an'analarimiz saqlanib qolgan. Faqatgina asarlar yoki an'analar emas, xalqimizning buyuk va shonli tarixida ro'y bergen barcha voqe'a-hodisalar og'zaki yoki yozma tarzda ona tilimiz orqali yetib kelgan. Tilimiz hozirgi kunda biz muloqot qilayotgan ko'rinishga kelgunga qadar bir qancha tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan va turli nom bilan atalgan:

1. Qadimgi turkiy til miloddan avvalgi davrlardan X-XI asrlargacha qo'llangan. Bu davrdan xabar beruvchi yozma manbalar bizgacha yetib kelmagan.

2. Eski turkiy til XI-XII asrlarda amalda bo'lgan. Ushbu davrdan xabar beruvchi yozma yodgorliklar Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'oti-t-turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asarlari, Ahmad Yassaviyning hikmatlari

<sup>101</sup> Prezident Shavkat Mirziyoyevning o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutqidan. <https://uzhurriyat.uz/2019/10/22/milliy-uzligimiz-va-mustaqil-davlatch/>

hisoblanadi. Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug‘ati-t-turk” asari o’sha davrda yaratilgan eng asosiy adabiy va lingvistik yodgorliklardan biri hisoblanadi. Ushbu asar turkiy tillar fonetikasi, leksikasi, grammatikasi, dialektal xususiyatlari haqida to‘liq ma’lumot beruvchi qomusiy asardir. Mahmud Qoshg'ariy tilshunoslik tarixida ilk marotaba barcha turkiy tillarning bir necha guruhlarini tasniflab, ular o’rtasidagi umumiyligi va farqli jihatlarini aniqlagan holda qiyosiy-tarixiy tilshunoslikka asos solgan.

3. Eski o’zbek adabiy tili XII-XIII asrlardan XX asrning 20-30-yillarigacha qo’llangan. Bu tilda Lutfiy, Atoyi, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiy, Feruz, Muqimiy, Furqat kabi mumtoz shoirlarimiz ijod qilishgan. Aynan eski o’zbek tili hozirgi o’zbek tilining shakllanishi va rivojlanishi uchun asos bo’lgan.

Eski o’zbek tilining ravnaq topishida, ayniqsa, so’z mulkining sultonni Alisher Navoiy bobomizning xizmatlari beqiyos. Buyuk mutafakkir o’z davrida tilimizning o’z imkoniyatlari jihatidan boshqa tillardan sira qolishmasligini ilmiy va amaliy jihatdan isbotlab bergan. Bu holat O’zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripovning mashhur misralarida ham o’z tasdig’ini topgan<sup>102</sup>:

*Besh asrkim, nazmiy saroyni  
Titratadi zanjirband bir sher.  
Temur tig i yetmagan joyni  
Qalam bilan oldi Alisher.*

Tarix zarvaraqlariga nazar tashlaydigan bo’lsak, davlatimiz mustaqilligi sari tashlangan ilk odimlar 1989-yilning 21-oktabr sanasiga to‘g’ri keladi. Ushbu sanada O’zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonun qabul qilindi. Shu kundan e’tiboran o’zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. Mana shu unutilmas, tarixga muhrlangan voqeа sodir bo’lganiga bu yil o’ttiz bir yil bo’ldi. “Davlat tili haqida”gi Qonun qabul qilingan sana har yili yurtimizda til bayrami sifatida nishonlanib kelinmoqda.

Davlatimiz tomonidan milliy munosabatlarni yaxshilash maqsadida va xalq osoyishtalilagini ko’zlab, “Davlat tili haqida”gi Qonunga ba’zi o’zgartirishlar kiritildi va 1995-yilning 21-dekabr sanasida O’zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuning yangi tahriri qabul qilindi.

“Davlat tili haqida”gi Qonunning 1-moddasida: “O’zbekiston Respublikasining davlat tili o’zbek tilidir”, – deb belgilab qo’yilgan. Ushbu jumlalar bosh qomusimiz hisoblanmish – Konstitutsiyamizda ham o’z tasdig’ini topgan. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida shunday deyilgan: “O’zbekiston Respublikasining davlat tili o’zbek tilidir. O’zbekiston Respublikasi o’z hududida istiqomat qiluvchi barcha millatlar va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratadi”. O’zbek tili davlat tili sifatida qonun bilan mustahkam tasdiqlanar ekan, bu narsa yurtimizda yashovchi barcha millat vakillarining o’z ona tillarida so’zlashishlariga aslo monelik qilmaydi, ularga hurmat bilan qaraladi. Boshqa millat vakillari tillarining himoyalanishi respublikamizda qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining naqadar xolis ekanligidan dalolat beradi. Respublikamizda yana bir shunday qonun qabul qilinganki, aynan shu qonun orqali ona tilimizning rivojlanishi, ravnaq topishi yo’lida yana bir qadam tashlandi: Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2020-yil 10-aprelda imzolangan O’RQ-615-son Qonunga ko’ra 21-oktabr – “O’zbek tili kuni” bayrami deb e’lon qilindi<sup>103</sup>.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining yetmish beshinchisi yubiley sessiyasidagi xalqaro munozaralarda

<sup>102</sup> Oripov A. Tanlangan asarlar. -Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2000. - 179 b.

<sup>103</sup> O’RQ-615-son Qonun (10.04.2020). <https://kun.uz/uz/news/2020/04/10/21-oktabr-ozbek-tili-bayrami-kuni-etib-belgilandi>.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining oltita rasmiy tillaridan birida emas, balki o'zbek tilida ma'ruza qilishi barchamizning qalbimizni g'urur va iftixor tuyg'usiga to'ldirdi<sup>104</sup>. Vatanimiz tarixida bunday yuksak minbarda ona tilimiz hali hech qachon yangramagan edi. Bu olamshumul hodisa o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining o'ttiz bir yilligiga munosib tuhfa bo'ldi. Prezidentimizning ona timizda so'zlagan nutqi O'zbekistonning 34 million aholisida, qolaversa, boshqa mintaqalardagi barcha millatdoshlarimizda ham faxrlanish hissini uyg'otdi. Ushbu tarixiy voqeя ona tilimizning naqadar buyukligini, naqadar betakrorligini, naqadar jozibadorligini yana bir bora isbotladi, o'zbek tilining dunyo tillari qatoridagi nufuzini yanada yuksaltirdi.

O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligiga chorak asrdan ko'proq vaqt o'tgan bo'lsa-da, ota-bobolarimiz bir necha asrlardan buyon tilimizdan aloqa vositasi sifatida foydalanishgan, uning rivojiga o'zlarining beqiyos hissalarini qo'shganlar. Buning yorqin namunasi sifatida Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mavlono Lutfiy kabi ulug' mutafakkirlarning biz avlodlarga qoldirgan bebaho asarlarini ko'rsatsak mubolag'a bo'lmaydi.

Tilimiz juda boy va takrorlanmasdir, uni qancha ta'riflasangiz, shuncha ozlik qiladi. Tilimizda shunday so'zlar borki, ularning boshqa tillardagi aniq tarjimasini topish qiyin. O'zbek tilida millatimizning barcha o'y-fikrlari, keng dunyoqarashi, kelajakka qaratilgan orzu-umidlari, vatanimizga bo'lgan muhabbat, so'z bilan ta'riflab bo'lmash his-tuyg'ulari aks etadi. Milliy o'zlikni anglash, ajdodlar-u avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik tilimiz orqali namoyon bo'ladi. Shu o'rinda muhtaram birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida bayon etgan barhayot so'zlarni esga olmasdan iloj yo'q: "*O'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir*"<sup>105</sup>.

Buyuk ajdodlarimizning qilgan sa'y-harakatlari, izlanishlari, qahramonliklari tufayli o'zbek tili hozirgi ko'rinishga keldi. Shunday ekan, biz yosh avlodlar ham buyuk ajdodlarimizga munosib izdosh bo'lagan holda ona tilimizga yuksak hurmat bilan qarashimiz, uning jahon miqyosidagi o'rnini hozirgidan-da yuksaltirishimiz, taraqqiy etishiga o'z hissamizni qo'shishimiz dar-kor. Unutmaslik kerakki, ona tilimiz ona vatanimiz kabi aziz va suyukli, u hamisha e'tibor hamda ehtiromga munosibdir.

### Adabiyotlar

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagи nutqidan.  
<https://uzhurriyat.uz/2019/10/22/milliy-uzligimiz-va-mustaql-davlatch/>
2. O'RQ-615-son Qonun (10.04.2020).  
<https://kun.uz/uz/news/2020/04/10/21-oktabr-ozbek-tili-bayrami-kuni-etib-belgilandi>.
3. <http://uza.uz/uz/politics/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-b-23-09-2020>.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008. - 52 b.
5. Oripov A. Tanlangan asarlar. -Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000. - 179 b.

<sup>104</sup> <http://uza.uz/uz/politics/o-zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-b-23-09-2020>.

<sup>105</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008. - 52 b.

## O'ZBEK TERMINOLOGIYASI MASALALARI

*M.Ahmedova, TFTU  
dotsenti, p.f.n.,*

Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy hamda ilmiy-texnik tub o'zgarishlar davrida yangi fanlar va tushunchalar yuzaga kelmoqda. Jumladan, o'zbek tilida ham yangi terminlar paydo bo'lmoqda, ilgaridan ishlatib kelingan qator leksemalar yangi ma'nolar kasb etmoqda. Shu boisdan, leksikologiya, xususan, terminologiya oldida qator muhim masalalarini yechish vazifasi turibdi.

Bugungi kunda terminologiyaning amaliy va nazariy masalalarini yanada chuqurroq o'rghanish, terminlar yaratish va ularni qo'llashni til qonuniyatlari asosida tartibga solish davlat ahamiyatiga molik muammoga aylandi. Shuning uchun ona tilimizning turli terminologik tizimlarini yanada teranroq tadqiq etish, ularni terminologiyaning xilma-xil masalalari bo'yicha atroflicha tadqiq qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Respublikamiz mustaqil deb e'lon qilingandan keyin, bu sohadagi ahvol butunlay o'zgardi. Tashqi iqtisodiy aloqalar yanada rivojlanib ketdi. Dunyoning juda ko'p mamlakatlari bilan xilma-xil aloqalarga keng yo'l ochildi. Bu omillar o'zbek tilida yangi-yangi terminlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

Shu boisdan, fan va texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida sohaviy terminlarni tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaliy, ayniqsa, nazariy masalalarini hal etish uchun fanning har bir sohasi terminlari tizimini, ularning yasalish qonunlarini, shakllanish manbalarini, umumtilda qo'llanish doirasini, mazkur tizimda ro'y berayotgan kamchiliklarni va ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlash kabi qator masalalarini o'rghanish zaruriyati paydo bo'ldi.

Hozirgi bosqichda, ya'ni yuqori savyadagi ilmiy-texnik inqilob davrida ishlab chiqarish, fan va texnikaning barcha sohalarida yangidan-yangi narsa, predmet va tushunchalar paydo bo'la boshladi. Bu hol til lug'at tarkibining salmoqli ravishda boyishiga olib kelmoqda. Binobarin, termin muammosi hozirgi leksikologiyaning asosiy masalalaridan biri bo'lib qoldi.

"Terminlar paydo bo'lib qolmaydi", aksincha, ularning zaruriyati anglangan holda "o'ylab topiladi", "ijod qilinadi".

Yuqorida terminshunoslarning terminning asosiy vazifasi va xususiyati haqidagi, ya'ni terminlarning nominativligi yoki definitivligi haqidagi fikrini keltirdik. Terminologik birikmalarning ko'p leksemaliligi, ya'ni ular komponentlarining soni nechtagacha bo'lishi keyingi yillarda terminshunoslarning diqqat-e'tiborini jalb etib kelmoqda. Haqiqatan ham keyingi yillarda miqdoran ortib borayotgan ko'p komponentli birikma terminlar tushuncha mazmunini to'laroq ifodalashga xizmat qilsa-da, ularni amalda qo'llash va esda saqlab qolish ancha noqulaydir. Aslini olganda, bunday terminlar ikki, nari borsa uch, to'rt komponentdan iborat bo'lishi lozimki, natijada, birikma terminlarning komponentlari, tegishli belgilarni to'laroq aks ettirish maqsadida, aniqlovchilar, sifatdoshli o'ramlar qo'shish orqali hosil qilinishi lozim.

Har bir sohaning, tarmoqning termini borki, u o'sha soha, tarmoq doirasida qo'llanadi, aniqroq qilib aytganda, kasb-hunar egasining nutqini shakllantiradi, o'zaro nutqiy muomala uchun shart-sharoit yaratadi.

Bu o'rinda shuni qayd etish lozimki, muayyan kasb-hunar yoxud mutaxassislikka ega bo'lgan kishilar ko'pincha u yoki bu sohaning o'ziga xos spetsifik terminlari bilan ish ko'radi.

O'zbek tilshunosligida terminlarni o'rghanish, ularni tartibga solish, terminologik lug'atlar tuzish kabi qator chora-tadbirlar XX asrning 20-yillari o'rtalaridan boshlangan.

Zero, ayrim leksikografik ishlarni hisoblamaganda, o'zbek tilini ilmiy asosda o'rganish, hozirgi o'zbek tilshunosligining fan sifatida yuzaga kelishi ham shu davrdan boshlangan. Albatta, terminlarni o'rganish ehtiyoji o'z-o'zidan kelib chiqqan emas, barcha bilim sohalari bo'yicha o'zbek tilida ta'lif berishni yo'lga qo'yish, bilim sohalarining sezilarli darajada rivojlana borishi, ilmiy tafakkur doirasining kengayishi, sobiq ittifoqdagi milliy tillar, jumladan, o'zbek tili lug'at tarkibining boyib borishi, binobarin, tilda terminlarning ko'payib borishi ularni (terminlarni) har tomonlama o'rganish va tartibga keltirishga turki bo'lgan edi.

O'zbek tilshunosligida turli fan sohalariga oid terminologik tizimlarni lingvistik jihatdan har tomonlama ham ilmiy, ham amaliy o'rganish, asosan, 1950-yillardan keyin izchilroq tus ola boshladi; termin va terminologiyaning nazariy masalalariga bag'ishlangan maqolalar, ayrim fan sohalari terminlarini lingvistik jihatdan tahlil etishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari yuzaga keldi, mukammal terminologik lug'atlar yaratila boshlandi.

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'oti-t-turk" lug'ati, inqilobgacha yaratilgan bir qancha lug'atlar, o'zbek adabiyoti vakillari, xususan, Alisher Navoiy, Bobur va boshqalarning badiiy, ilmiy-badiiy asarlari o'zbek terminologiyasining rivojlanishida o'ziga xos o'rinni tutgan manbalar hisoblanadi.

Bugungi kunda terminologiyaning amaliy va nazariy jihatlarini yanada chuqurroq o'rganish, termin qo'llashni tartibga solish davlat ahamiyatidagi masalaga aylandi.

O'zbekiston Respublikasining Davlat tili haqidagi Qonuni qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Respublika terminologiya qo'mitasining ish boshlashi, terminologiya masalalariga bag'ishlab Respublika miqyosida bir necha ilmiy-amaliy, ilmiy-nazariy konferensiyalarining o'tkazilganligi fikrimizning yaqqol dalilidir.

### **Adabiyotlar**

1. Husanov N., Mirahmedova Z. Mutaxassislik tili. T.: TMI, 2003.
2. Xolmonova Z. Adabiy tildan ma'ruzalar umumlashmasi -T.: O'zbekiston, 2013, 250 b.
3. Qo'ng'uров R., Begmatov E., Tojiyev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. - T.: Fan, 1992, 254 b.
4. Axmedova M.X., Gayubova K.A. O'zbek tili. T.: TATU-Aloqachi, 2019.

## **O'ZBEK TILINING RIVOJLANISHIDA TERMINLARNING O'RNI**

*N.Kudratxodjayeva,  
ToshDTU dots., f.f.n.*

Tilshunoslik fani rivojlanib, o'z tadqiqot doirasini kengaytirgan sayin terminlarni o'rganish uning eng muhim va tarkibiy qismlaridan biriga aylandi. Terminologiya masalalari hamisha tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri bo'lib kelgan. Chunki, terminlarning sohalar lug'aviy qatlamlaridagi o'rni va vazifasini belgilash, tushunchaning mazmun-mohiyatini to'g'ri anglash imkonini beradi.

Terminologiyaga bag'ishlangan ishlarning barchasida u yoki bu sohaning muayyan tushunchalarini anglatadigan, asosan, nominativ funksiyani bajaradigan birliklar termin hisoblanadi, deb qaraladi.

Terminlar fan-texnika, adabiyot, san'at va boshqa sohalarga oid ixtisoslashgan, qo'llanishi muayyan soha bilan chegaralangan tushunchalarni ifodalaydigan nominativ birliklardir: kasallik, aerozolterapiya (tibbiyotda); to'rtburchak, kvadrat (geometriyada); fe'l, sifat (tilshunoslikda); g'azal, turoq, vazn (adabiyotshunoslikda) kabi.

Terminologiyaning rivojlanishi, boyish yo'llari har xil: boshqa tillardan so'z olish, yangi so'z yasash, ayrim grammatik kategoriyalarning leksikalashuvi, so'z birikmasining semantik bir butun holga kelib qolishi va boshqa bugungi kunda o'zbek terminologiyasining boyishi, asosan, boshqa tillardan so'z olish va ichki so'z yasash hisobiga ro'y bermoqda. Hozirgi paytda dunyo tilshunosligining diqqat markazida turli xil mavzular bilan birga terminologiya ham turibdi. Aynan shu davrda zamonaviy tilshunoslik fanida yanada keng ma'no kasb etgan va chuqurroq o'rganilayotgan "terminologiya"ni topish mushkul vazifaladan biri hisoblanadi. Terminologiya zamonaviy lingvistik tadqiqotlarning aktual yo'nalişlaridan biridir. Hozirgi vaqtida terminologiya masalasining o'sib borishi, bir tomondan, ilm-fanning dinamik rivojlanishi tufayli yangi tushunchalarining ko'payib borishi sababli deb qaralsa, ikkinchi tomondan, terminlarning shaklanish jarayoni, rivojlanishi va funksiyasi kabi masalalarning yetarli darajada o'rganilmaganligi bilan bog'liq hodisa deb izohlanadi.

Terminologiya har bir til so'z boyligining juda kata qismini tashkil etadi. Uning juda tez rivojlanishi ham bejiz emas, chunki u yangi so'zlar yasash imkonini beradi. Biror tilning terminologiyasi ko'p terminlar tizimidan tashkil topgan. Bilim, sanoat yoki madaniyatning biror maxsus sohasidagi biror so'z yoki so'z birikmasi termin deb ataladi. Termin ifoda etayotgan biror so'zning mazmuni mavzuli biror adabiyotda izohlash orqali talqin qilinadi.

Terminologiyaning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Masalan, umumadabiy tilda sinonimiya, omonimiya va ko'p ma'nolilik tilning boyligi bo'lsa, terminologiyada bular salbiy hodisa hisoblanadi. Masalan, birgina tushunchani ifodalash uchun o'zbek tilida yarimo'tkazgich – chalao'tkazgich – nimo'tkazgich terminlari qo'llanmoqda. Bu, o'z navbatida, o'qish-o'qitish va axborot almashish jarayonini qiyinlashtiradi. Shu sababli ham terminologiyasi ma'lum darajada barqarorlashgan barcha tillarda terminlar doimiy tartibga solib turiladi. Tartibga solish ma'lum terminologik me'yorlar asosida amalga oshiriladi. Ammo shuni ham aytish o'rinniki, bu jaryonda ruscha va rus tili orqali kirib kelgan terminlarni o'rinsiz, sun'iy ravishda yangi yasalmalar yoki arab va fors-tojikcha so'zlar bilan almashtirish hollari ham kuzatiladi. Masalan, bankrot – sinish, buxgalter – hisobchi, gazeta – ro'znama, institut – oliygoh, klub - tomashagoh, kompensatsiya – tovon, medal – nishon, kurs – bosqich, fonetika – tovushshunoslik, sinonim – ma'nodosh, omonim – shakldosh, antonim – zid ma'noli va hokazo. Tuproqshunoslik sohasida yaratilgan *degradatsiyalangan* (aynigan) *qora tuproq*, matematika sohasidagi *erkin (bog'liq) miqdor*, o'xshashlik (analogiya) metodi kabi terminlar muvaffaqiyatli chiqmagan bo'lib, ularni ishlatalish ancha noqulaylik tug'diradi. Murakkab terminlar tarkibidagi har bir so'z boshqasi bilan affikslar yordamida yoki sintaktik tartib orqali birikkan bo'lishi kerak. Ularning ko'makchilar va bog'-lovchilar vositasi bilan grammatik munosabatga kirishishlari ma'qul emas. Chunki yordamchi so'zlar vositasi bilan birikkan so'zlardan iborat bo'lgan murakkab terminlarning terminlik xususiyati bilinmay qoladi, oddiy, erkin birikmaga o'xshab ketadi. Masalan, *burchak bilan o'Ichash*, o'rtta va chet nisbatga bo'lish ("zolotoye secheniye") kabi. Ko'rinish turibdiki, bu terminlar tarkibidagi *bilan* ko'makchisi hamda *va* bog'lovchisining kelishi ularni jonli nutq elementlariga o'xshatib yuborgan. Terminologiya voqelikni tushunishning ma'lum bir belgilangan tizimini ifodalab, intellektual aloqa kanalining biri hisoblanadi. Tilshunoslikda terminlarning o'zgarishi hamda yangi terminlarning paydo bo'lishi fan va texnika taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqidir. Texnika taraqqiyoti ta'sirida terminologiya o'zaro aloqador ikki qonuniyat asosida, birinchidan, ilmiy-texnika progressi qonuniyatları bilan, ikkinchidan, til rivojlanishining umumiyligi qonuniyatları bilan bog'liq ravishda o'zgarib boradi. Hayotda fan va texnika taraqqiyoti qanchalik katta ahamiyatga ega bo'lsa, uni egallash, boshqarish va taraqqiy ettirish uchun terminlar ham shunchalik muhim ahamiyatga molikdir. Albatta, bunday o'zgarishlar o'zbek tilining ish ko'rish doirasini kengaytirib, uning leksik tarkibini yangi-yangi ilmiy va texnik terminlar bilan boyitdi. Ma'lumki, har bir fan sohasining rivojlanish va takomillashuv darajasi shu soha terminologiyasi.

sining qay darajada taraqqiy etganligi, shuningdek, tartibga solinganligi kabi belgilar bilan ham uzviv bog‘liqdir. Terminlarning aniqligi va qat‘iy lashishi shu millatning fani, madaniyati darajasini ko‘rsatadi. Atamalarning rivojlanishi, tartibga solinishi fanning har xil sohalarida turlicha bo‘lib, ma’lum fanning taraqqiyotiga bog‘liq. Bu taraqqiyot to‘xtovsiz bo‘lgani uchun yangi atamalarning kelib chiqishi, tartibga tushishi ham uzlusiz bo‘ladi. Umuman, ona tilida atamalarning puxta ishlanishi, tartibga solinishi darslik va qo‘llanmalar tuzish uchun ham, o‘zbek tilida dars olib borish uchun ham zarur bo‘lgan manbadir. Shu boisdan bugungi o‘zbek tilshunosligida terminologiya masalariga ahamiyat yildan yilga takomillashib bormoqda. Zeroki, atamalarning ishlanmaganligi va tartibga solinmaganligi nutq uslubiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

### **Adabiyotlar**

1. Реформатский А.А. Введение в языкознание. - М., 1967.
2. Dadaboyev H. Hozirgi o‘zbek tili qurilishida o‘zbek tilining o‘rni // Tilshunoslikning dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. - Toshkent, 2015

## **ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TIL VA NUTQ MASALALARI**

*O.Usmonova, ToshDTU dots., p.f.d.;  
Z.Usmonova ToshDTU katta o‘qituvchisi.*

Asrlar davomida til milliy ma’naviyatimiz ko‘zgusi bo‘lib kelgan. Buni g‘azal mulkining sulton, o‘zbek she’riyatining gultoji deya e’tirof etilgan Mir Alisher Navoiy davridan to bugungacha o‘tkir qalam sohiblari yaratgan badiiy ijod mahsullariga payvand milliy qadriyatlarimiz, ma’naviyatimiz rivoji misolida kuzatishimiz mumkin. Ushbu badiiy ijod mahsullarida til va nutq masalalari dolzarb muammolardan hisoblangan.

Ma’lumki, o‘zbek adabiy tili mustaqil til sifatida X asrdan boshlab shakllana boshladi va to hozirgi kunimizgacha bu tilda ko‘plab ilmiy va badiiy asarlar yaratildi. Xususan, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘otit-turk”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat-ul haqoyiq”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Xorazmiyning “Muhabbatnama”, Rabg‘uziyning “Qissai Rabg‘uziy”, shuningdek, Atoyi, Sakkokiy, Sayfi Saroiy, Mavlono, Lutfiylarning yaratgan boy ilmiy-adabiy meroslarini aytib o‘tish joizdir.

Ayniqsa, turkiy tilning beqiyos imkoniyatlarini ko‘rsatishda Alisher Navoiyning buyuk xizmatlarini alohida e’tirof etish joiz. Chinakam ma’nodagi so‘z mulkining sulton Alisher Navoiyning so‘z va o‘tkir nutq, til va jamiyat borasidagi fikrlari alohida diqqatga molikdir. So‘z dahosiga daho so‘zchi sifatida adoqsiz ehtirom va injal sezgi bilan munosabatda bo‘lgan adib o‘z asarlarining aksariyatida, xususan, muhtasham “Xamsa”sining barcha dostonlari (alohida-alohida boblar)da, “Mahbub ul-qulub”, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Nazm ul-javohir” va boshqa ko‘plab asarlarida so‘zning buyuk qudrati va nutq mahoratining xosiyatiga oid betakror fikrlarni bayon qilgan.

Biz nutqimiz orqali boshqalar bilan muomalaga kirishamiz, fikrimizni bayon etamiz. Alisher Navoiy o‘z asarlarida nutqning kishilar kundalik ehtiyojini qondiruvchi nodir vosita ekanligini qayd etdi. “Mahbub ul-qulub” asarida voizlar til odobi xususida fikr yuritsa, “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida o‘zbek adabiy tilining boyligini e’tirof etdi. Nainki e’tirof etdi, balki tilning ijtimoiy hodisa ekanligini ta’kidladi. So‘zning tarixiy-madaniy xizmati beqiyos, ammo til imkoniyatlari nutq jarayonidagina ochib beriladi. Agar nutq bo‘lmas ekan, tilning, so‘zning cheksiz imkoniyatlari ro‘yobga chiqib-chiqmay qolaveradi. “Majolis un-nafois”da so‘zning voizlari hayotida tutgan orni haqida ham shaxsiy mulohazalar bayon qilinadi.

“Nazmul javohir” asarida esa so‘z qudratli vosita ekanligi, insonga hayotiy zarurat sanalishi aytib o‘tiladi.

Tarixdan ma’lumki, Navoiyning o‘zi ham mohir notiq bo‘lgan va shirin kalomi, o‘tkir tafakkuri bilan xalq qalbidan joy olgan va o‘z asarlarida ham xaloyiqqa nafi tegadigan, el yuragidan joy oladigan shirinzabon so‘zlar so‘zlashni, chiroqli va ravon nutq tuzish yo‘llarini o‘rganish lozimligi haqida mukammal fikrlar bayon etgan. “Nazmul javohir” asarida til insonni hayvondan ajratuvchi gavhardir, deb ta’kidlaydi.

Tirik insongina so‘zlash qobiliyatiga ega, so‘z tufayli u tirik ekanligini isbot etadi. Til ma’rifat va adabiyot quroli ekan, so‘z so‘zlashdan maqsad ma’no ifodalashdir, deydi shoir. Navoiy til va tafakkurni uzviy birlikda oladi. U ma’no birlamchi, shaklni ikkilamchi, deb hisoblaydi va ma’noga so‘zning joni, deb ta’rif beradi.

Navoiy tilni o‘sib, rivojlanib boruvchi, jamiyatning ehtiyojiga muvofiqlashuvchi zarurat ekanligini anglab, tillar o‘zaro aloqada bo‘ladi, bir-biriga chatishadi, deb hisoblaydi. Navoiy kishining nutq qobiliyatini tug‘ma ekanligini ta’kidlaydi. “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida arab tili “kalomi ilohiy” deb ulug‘lanadi, fors va turkiy tili solishtiriladi. Olim bu asarda ikki tilning lug‘at boyligi, so‘z yasalishi, fonetik tarkibi, uslubiyati kabi xususiyatlarini chog‘ishtirib, badiiy imkoniyatlari jihatidan turkiy tilning fors tilidan qolishmasligini isbotlaydi. Hattoki, fors-tojik tilida, ekvivalenti bo‘lmagan o‘zbekcha so‘zlarni misol keltiradi. “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari bevosita tilshunoslikning nazariy muammolarini hal qilishga, o‘zbek tilining boshqa tillar orasida tutgan o‘rnini belgilab berishga, o‘zbek nutqi madaniyatini o‘rganishga qaratilgan. Mutafakkir asarlarida o‘zbek tilining leksik boyliklaridan, sinonim va omonimlaridan, xalq ta’biri, maqol va matallaridan, frazeologik, ideomatik birikmalaridan jumla tuzishida keng foydalandi.

Alisher Navoiyning nutq madaniyati masalalariga bag‘ishlangan fikrlari yanada mukammalroq ifodalangan asari “Mahbub ul-qulub”dir. Chunki shoir bu asarida tilning ahamiyati, undan foydalanish, nutq so‘zlovchi dilidagi fikrni to‘g‘ri aks ettirish lozimligi haqida fikrlar bayon qiladi. Navoiy til deganda nutqni ko‘zda tutgan. Til, ya’ni so‘z o‘zining ko‘p yaxshi fazilatlari bilan nutq uchun material ekanligini, nutqning qo‘polligi, maqsadga muvofiq bo‘lmasligi so‘zlovchiga zarar yetkazishini alohida ta’kidlab o‘tadi. Navoiy “so‘z” haqida gapirganda quyidagilarni e’tiborga oladi: 1. So‘z - til ma’nosida. 2. So‘z - muomala, gapirish, nutq mohiyatida. 3. So‘z - badiiy ijodda, mazmunni shakllantiruvchi vosita tarzida. Navoiy talqinicha, so‘zning (tilning) insoniyat hayotidagi o‘rni beqiyos. U insonning insonligini, barcha jonzotlardan yuksak ekanligini anglatuvchi unsur.

Ha, Navoiy so‘zni ajib, sehrli va qimmatbaho gavhar sifatida e’zozlaydi. Ko‘pgina baytlerda, ayniqsa, “Xamsa”, “Mahbub ul-qulub” singari asarlarida so‘z, uning o‘rni, inson hayotidagi ahamiyati, so‘zlash madaniyati, so‘zning badiiy ijoddagi mavqie, so‘z odobi kabi tomonlar xususida mulohazalar bildiradi. “Nazmul javohir” (“Nazmlar javohiri”) asarida shoirning axloqiy qarashlari bayon etiladi. Alisher Navoiyning til va nutq, nutq odobi, nutqiy madaniyat, nutq san’ati haqida aytgan fikrlarida qadimiy turkiy xalqlarning nutq madaniyati borasidagi boy va noyob merosi mahorat bilan uumlashtirilgan.

Navoiy o‘zbek adabiy tilini, rivojlantirish, bu tilda go‘zal asarlar yaratish, o‘zbek tilini yuqori mavqega ko‘tarish, uni xalq manfaatlariga xizmat qildirishni orzu qiladi. U o‘zbek tilini kamsitgan, bu tilda yaxshi asarlar yozish mumkin emas, turkiy tilga bee’tibor bo‘lgan kishilarga munosib javob bera oldi. O‘zbek adabiy tilini boyitdi, ravnaq toptirdi. Navoiy o‘zi berayotgan ma‘lumotlarning aniq, to‘g‘ri bo‘lishiga ham e’tibor beradi. Til va nutq masalalari asl mohiyati Navoiy asarlarida o‘zining yorqin dalilini topdi.

## **Adabiyotlar**

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 7-, 15-, 16-jildlar. Toshkent: Fan, 1991, 1999, 2000.
2. Hayitmetov A. Navoiyxonlik suhbatlari. Toshkent, 1993.

## **DAVLAT TILI VA O‘ZBEK HUQUQIY ATAMASHUNOSLIGI TIZIMINI O‘RGANISHNING AHAMIYATI**

*F.Topildiyeva  
O‘zMU o‘qituvchisi*

Davlat mustaqilligi va davlat tili tushunchalari, huquqiy til bir- biri bilan chambarchas bog‘liq, bular bir-birini to‘ldirib boradi. Shundan kelib chiqib, davlatning ish faoliyati o‘z tilida, ya‘ni davlat tilida olib boriladi. Davlat tilida qonun va farmonlar,qarorlar qabul qilinadi, hujjatlar yuritiladi. Davlat tili – bu davlatning umumiste’molda bo‘lgan mazkur davlat asosiy aholisining tili bo‘lib jamiyat hayotining siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotida to‘laqonli ishlatiladi. Shu tilda davlat faoliyatini amalga oshiradi, xalq bilan muloqot qiladi. Mustaqil davlatning belgisi darajasiga ko‘tarila bilgan til davlat faoliyatining barcha sohalarida ishlatilishini va amal qilinishini talab qiladi. Aslida, ”Davlat tili haqida”gi Qonunning asosi davlat mustaqilligidir. Davlat mustaqilligi o‘zbek tilining keng rivoji, kamol topishi uchun to‘la imkoniyatlar yaratadi, ma’lum bir davrda yo‘qotgan shukuhini va mavqeini yana tikladi. 1989-yil 21-oktabrda o‘zbek tiliga davlat maqomini berilishi bilan 1995-yil 21-dekabrda ”Davlat tili haqida”gi yangi qonunning qabul qilinishi o‘zbek huquqiy tili va huquqiy atamashunosligini har jihatdan keng o‘rganish uchun imkoniyatlar yaratdi. Bu borada 2019-yil 21-oktabrda e’lon qilingan Prezident Farmoni asrlar davomida orzu qilib kelganimiz o‘zbek tilining dunyo miqyosidagi maqomini oshirish yo‘lida dadil qadam bo‘ldi va keyingi rivojlanish taraqqiyotida muhim yuksalish va o‘zgarish nuqtasi bo‘lib qoladi. Farmonda yozilishicha, ”O‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini oshirish, yutuqlar bilan cheklanib qolmasdan, tilimizning kelajagini takomillashtirish chora-tadbirlarini izlash har bir ziyorining milliy vazifasi bo‘lib qoladi”. Yana farmonda; ”Davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tilini rivojlantirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga riosa etilish ustidan davlat nazoratini tashkil qilish bo‘yicha muvofiqlashtirish” haqida fikr yuritilgan. Davlat tilini rivojlantirish bo‘yicha dasturlar, ”Yo‘l xaritalari”ni ishlab chiqish, ularning amalga oshirilishini nazorat qilish”, ”O‘zbek tili bayrami kuni”ni nishonlash bo‘yicha, ishlarni muvofiqlashtirish borasida bir qator vazifalar belgilangan va ularning amaldagi ijrosi masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shuni ta’kidlash joizki, til bor ekan o‘zlashma so‘zlar hisobiga doimo boyiydi va rivojlanadi. Hayotimizga kundan- kunga yangi, notanish so‘zlar kirib kelmoqda. Bugungi kunda bu barcha sohada ko‘zga yaqqol tashlanmoqda, jumladan, huquqshunoslik sohasida ham. Haqiqatdan ham, atamashunoslik huquqshunoslik fanlari majmuida ham dolzarb hisoblanadi. Qonunchilik qanchalik takomillashsa, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar shunchalik aniq va puxta, huquqiy jihatdan tartibga solingan bo‘ladi. Bunda huquqiy atamalar alohida ahamiyat kasb etadi. Hozirgi zamон huquqshunoslik fani bir qancha sohalarga bo‘linar ekan,ularda huquqiy atamalarning mohiyati va o‘rnini belgilab olish muhim vazifa hisoblanadi. Huquqiy atamalarning ilmiy jihatdan tartibga solinishi, ularni jahon andozalariga moslashtirish hozirgi o‘zbek huquqiy atamashunosligining dolzarb muammolaridandir.

Avvalambor, davlat tili zamirida huquqiy til va huquqiy atamalar, huquqning rivojida, qolaversa, huquqshunosning huquqiy nutqi va tafakkurining boyishida muhim o‘rin tutadi.

Atamalarning qo'llanishi esa muayyan darajada nazoratga olinadi va tartibga solinadi, chunki ular zaruriyatga ko'ra paydo bo'ladi.

Qadim-qadimdan shakllanib, o'z taraqqiyot yo'lida davom etayotgan huquqiy til va huquqiy atamalar tizimi huquqshunosning odamlar va hamkasblari bilan o'zaro aloqada fikr bildirish, fikr olish, ya'ni fikr almashish vositasi bo'lib, shu asosda huquqiy bilimlarni targ'ib qilib, odamlarda huquqiy madaniyatning huquqiy ong va tafakkurning shakllanishiga xizmat qilib kelmoqda. O'zbek tilida paydo bo'layotgan yangi huquqiy atamalarni yoki chetdan, boshqa tildan kirib kelgan atamalarni amaliyotda ishlatayotgan huquqshunos, bu atamalarning mazmun-mohiyatini o'zi chuqur anglagan holatda u bilan muloqotda bo'ladigan odamlarga tushuntirib, ular ongiga singdiradi. Davlatimiz tomonidan chiqarilayotgan qaror va ishlab chiqilgan qonunlar mohiyatini ommaga yetkazishda davlat tili va huquqiy til, huquqiy atamalardan foydalilanadi. Ya'ni huquqshunos uchun kerakli huquqiy axborotlarni ko'pchilikka yetkazishda, tushuntirishda huquqiy til va huquqiy atamalar asosiy vosita rolini o'taydi. Huquqiy atamalar huquq sohasidagi barcha fanlar rivojiga barakali ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun huquqiy til va huquqiy terminlar tizimiga yangi atamalarning kirib kelib uni boyitishi, ba'zan vaqt-i-vaqti bilan huquqshunoslikda eskerган atamalarning chiqib ketishi huquqiy til va huquqiy atamalarning zamonaviylik xususiyatini belgilab beradi. Huquqiy atamalarning asosiy manbai – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hisoblanadi. Huquqiy terminologiyamizning dastlabki fondi sanaladi. Chunki konstitutsiyaning tili siyosiy-huquqiy til hisoblanib, konstitutsiyamiz har bir moddasidan o'rinni olgan huquqiy atamalar o'rnini almashtirish mumkin emas. Ular puxta o'ylanib quyma shaklda joylashgan.

Xalqaro huquq maydonida faol qo'llanib kelinayotgan amnostiya, organ, norma, aliment, advakatura, prokuror, demokratiya, suverenitet, strategiya, brifing, ratifikatsiya, parlament, korrupsiya, kriminologiya, monitoring, vindikatsiya kodeks, passport, narkomaniya, arrest, eksperitza, Interpol, sanksiya, konstitutsiya, apelyatsiya kabi huquqiy atamalar o'zida qanday qo'llansa, o'zbek tilida ham shunday sohaviy atama bo'lib qo'llanilib kelmoqda. Huquqiy atamalar tizimi huquqshunoslik fanining rivoji bilan bog'liq. Huquqshunoslik sohasida ham huquqiy atamalar juda qadimdan paydo bo'lgan. Jumladan, O'rxun-Enasoy bitiktoshlarida ham uchratishimiz mumkin. Bulardan tashqari xalqimiz tomonidan yaratilgan afsonalarda, qahramonlik qo'shiqlarida ham mavjud bo'lgan.

Har bir davrda jamiyatning taraqqiyoti bilan bog'liq holda sohaviy atamalar ham son, ham sifat jihatdan takomillashib keldi. Ayniqsa, mustaqillik davri alohida o'rinni tutadi. Butun dunyoda, jumladan, O'zbekistonda ham huquq, falsafa, tibbiyot, iqtisod, tilshunoslik, psixologiya, sotsiologiya kabi turli sohalarga talaygina atamalar kirib keldi. Bugungi kunda biror fanni atamasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Huquqshunoslik sohasiga lotin, yunon, ingliz, fransuz, nemis, rus, fors-tojik, arab va boshqa tillardan ko'plab atamalar o'zlashgan. Mustaqillik yillarda terminlarni tartibga solish murakkab jarayonni yuzaga keltirdi.

Barcha atamalarning tilimiz taraqqiyotida o'z hissasi bor. O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgandan so'ng, huquqiy sohadagi atamalarning o'zbekchalashuvi bir muncha jadallahdi. Xususan, ko'pgina atamalar o'z muqobiliga ega bo'ldi. Huquqshunoslik atamalarini ikkinchi bir tildan o'zbek tiliga to'liq yoki yarim kalkalash usulida tarjima qilindi: фактор - omil, общенародный - umumxalq, постановление - qaror, беззаконие - qonunsizlik, безбрачие - nikohsizlik, безработица - ishsizlik, Верховный суд - Oliy sud, подсудимый – sudlanuvchi.

Ba'zi atamalarni tarjima qilish yoki ularga o'zbek tilida muqobilini topishga urinish jarayonida: экспертиза – “tahqih yoki mukoyana”, амнистия – “avfnoma”, тюрьма – “qamoqxona yoki zindon” tarzida qo'llashda huquqiy atamalarning buzilishi yoki ma'nosida sun'iylilik sodir bo'lmoqda. Shu bois tashqi manba asosida kirib kelgan ayrim huquqiy atamalarni asl holatida qo'llash lozim. Qisqasi, huquqiy til va huquqiy atamalar huquqshunoslар oldiga katta vazifa yuklaydi. Bugungi kunda, o'zbek tilida huquqiy terminlarni sistemaga solish, yangi

terminlarni ishlab chiqish, ularni takomillashtirish ustida izlanishlar olib borilyapti. Toki bugungi kunga qadar ro'y bergan va hozirda davom etayotgan tarixiy-madaniy o'zgarishlar va yangilanishlar jarayoni tilimizning leksikasida o'z aksini topib boradi, ya'ni jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda yang-yangi so'z, tushuncha va atamalar, jumladan, huquqshunoslikka oid sohaviy atamalarni yuzaga kelishi o'zbek tilini – o'ziga xos madaniyat o'chog'i sifatida namoyon qiladi..

Shunday bo'lsa-da, yangi so'z va atamalarni iste'molga kiritish jarayonida o'zbekona muqobillarini izlash va qo'llash muhim ahamiyatga ega. Demak, atama tanlashda, yangi atamalar yaratishda, o'zbek tilining ichki imkoniyatlaridan ham o'rinni foydalanish lozim. Shuningdek, huquqshunoslik sohasidagi atamalarda izlanish zarur bo'lgan o'rinnlar hali ko'p.

### **Adabiyotlar**

1. Bekmirzayev N. Huquqshunos nutqi madaniyati. T., 2016.
2. Lotin tilidagi terminlar. T., 2009.

## **BOLA NUTQI RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY NAZARIYALARI**

*M.Shamsiyeva,  
O'zMU tayanch doktoranti*

Ontogenetik jarayonida bola nafaqat atrofdagilarning nutqiga taqlid qiladi, balki til qonuniyatlarini ham o'zlashtiradi va shu asosda o'z nutqini shakllantiradi. Tilni o'zlashtirish yuqori darajadagi tahlil, sintez, umumlashtirish, differensiatsiya jarayonlarini talab qiladi. L.S.Vigotskiy birinchilardan bo'lib bola psixikasi rivojlanishida nutqning ahamiyatini o'rgangan. Nutq psixik jarayonlar shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, oliv psixologik funksiyalarning rivojlanishini tahlil qilishning asosiy usuli nutq ta'sirida amalga oshadigan psixik jarayonlarni o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar hisoblanadi, deydi olim. L.S.Vigotskiy konsepsiyasining asosiy masalasi fikrning so'zga munosabatidir. Olim so'zga nutqiy tafakkurga xos bo'lган barsha belgilarniyu tovush va mazmun birligi sifatida qaraydi. Olimning fikricha, ma'no bir vaqtning o'zida o'z tabiatiga ko'ra nutqiy hodisa hamda fikrashga doir bo'lган hodisa sifatida ham qaraladi. U bir vaqtning o'zida nutq va tafakkur, chunki u nutqiy tafakkur birligidir[1].

Tafakkur va nutq munosabati masalasi J.Piaje (1999)ning intellekt rivojlanish bosqichlari konsepsiyasida ham ilgari surilgan. Piajening fikricha, bolada nutq hosil bo'lishining ilk belgisi sensomotor intellektning rivojlanishidir. Nutq rivojlanishida kognitiv jarayonlar planida J.Piaje intellektual rivojlanish nutqiy rivojlanish jarayoniga qay tarzda ta'sir qilishini ko'rsatib beradi.

1. Bolaning intellektual rivojlanish darajasi so'zlash asosida turadigan semantika darajasida namoyon bo'ladi (aks etadi).

2. Bolaning analitik-sintetik faoliyati shakllanish darajasi til vositalarini o'rganish imkoniyatlariga ta'sir qiladi. Biron-bir tushunchaning til shakli qanchalik sodda va oson qabul qilinsa, u bola tomonidan shunchalik tez o'zlashtiriladi. Bolaning analitik va sintetik faoliyati shakllanish darajasi rasmiy til vositalarini o'rganish qobiliyatiga ta'sir qiladi.

Bola nutqi rivojlanishi borasidagi mashhur yondashuvlaridan biri til qoidalarni kengaytirishdir. Oddiy qoidalardan ko'ra, bola kengroq sinflarga mo'ljallangan qoidalarni tezroq o'zlashtiradi. Bu differensiatsiya, ichki tormozlanish qiyinchiliklari bilan bog'liq. Fleksiyaning noto'g'ri tanlanishi bir semantik sind ichida yuz beradi. Muvofiq grammatik qoida to'g'ri tanlanadi, biroq uni amalga oshirish me'yorga muvofiq tarzda har doim ham to'g'ri bo'lmaydi. So'z shaklini hosil qilishning til qoidasi barqarorligi va muntazamligi til shakllarini yaxshi o'zlashtirishga ta'sir qiladi. Tilda so'z shakllarini yasash qoidalari qanchalik ko'p bo'lsa, bolaning

uni o'zlashtirishi shuncha qiyin bo'ladi. Shu tariqa, shakllar bir ma'no bilan qanchalik ko'p farqlansa, u shunchalik murakkab o'zlashtiriladi (tizimlashtirish, shakllarni differensiatsiyalash murakkabliklari yuzaga keladi).

3. Nutqni o'zlashtirish ma'lumotlarni qayta ishlash, qisqa muddatli xotira hajmi bilan bog'-liq. Nutq qisqa vaqt ichida qabul qilinadi va amalga oshiriladi. Shu sababli bola tez dasturlash va tez dekodlash, nutqiy xabarni deshifrovka qilish strategiyasiga ega bo'lishi kerak. Bolaning nutqni egallashi nutqiy ma'lumotni qayta ishlash imkoniyatlari asosida yuz beradi. Bu nutqni amalga oshirishda ham namoyon bo'ladi[2].

Dastlab bolada bir so'zli, ikki so'zli jumla (subyekt-predikat, subyekt-obyekt)dan iborat bo'ladi. So'ngra u ushbu elementlarni birlashtirib uch so'zli jumлага aylantiradi (subyekt-predikat-obyekt): *Onam o'qiyapti. Ona kitob. Onam kitob o'qiyapti.* Shu tariqa, bola rivojlanishining dastlabki bosqichlarida nutqiy va intellektual rivojlanish avtonomligi o'z o'rniga ega bo'ladi. Keyinchalik tilning rivojlanish sur'ati va izchilligini boshqaruvchilaridan biri bilish jaryonlarining rivojlanishi hisoblanadi. Avvalo, bolaning nutqiy rivojlanishini belgilovchi bu semantikadir. Biroq keyinchalik nutq bolaning intellektual rivojlanishida katta o'zgarishni ta'minlaydi, ya'ni verbal tushunchaviy tafakkur hosil bo'ladi. M.M.Kolsevaning (2002) tadqiqotlaridan ma'lum bo'lishicha, so'z nafaqat bola tomonidan qabul qilinadigan boshqa ta'sir qiluvchilar majmuasidan muntazam ravishda ajralib turadi, balki uning ta'sirida bola ilk yoshida qabul qilishi uning xotirasi kabi yangi jihatlarga ega bo'la boshlaydi. Bu bolaga predmetning muhim belgilarini ajratish imkonini beradi, uning qabul qilishini umumlashtiradi va barqarorlashtiradi, shuningdek, aniq va differensiyalangan xotirasining yangi imkoniyatlarini shakllantiradi[3].

So'zning asosiy funksiyasi shundan iboratki, u nafaqat tashqi olamning muvofiq predmetlarini anglatadi, balki u mavhumlashtiradi, kerakli belgilarni ajratadi va qabul qilinadigan signallarni umumlashtiradi, bevosita tajriba, funksiyalarni tizimlashtirib, muayyan kategoriyalarga kiritadi, psixik jarayonlarning shakllanishida so'zning ahamiyatini oshiradi. Nutq umumlashtirish, diqqatning bo'linishi kabi aqliy operatsiyalarni takomillashtirish imkonini beradi. So'z xotira, qabul qilish, fikrlesh kabi bilish faoliyatiga kiradi. Nutq yordamida predmetlarning turli sifatlarini (belgilar) ifodalash shakl, rang, makon munosabatlarini samarali farqlashga olib keladi. Shu tariqa, so'z fikrlesh quroliga aylanadi. Nutq intelllektual, fikrlesh nutqiyga aylana boshlanadigan keskin o'zgarish davri ikki mutlaqo aniq va obyektiv belgilar bilan xarakterlanadi. Bu belgilar yordamida biz bu keskin o'zgarish nutq rivojlanishida yuz berdimi yoki yo'qmi, shuningdek, nutqning nonormal va kech rivojlanish holatlarida normal bolaning rivojlanishiga taqqoslaganda bu davr qay darajada orqaga surilgani haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Bu ikki davr o'zaro chambarchas bog'liqidir. Birinchisi bu keskin o'zgarish yuz bergen bolada o'z lug'ati, o'zining so'zlar zaxirasi faol kengaya boshlaydi. Har bir yangi narsaning qanday nomlanishi haqida so'raydi. Ikkinci davr bolaning so'zlar faol kengayishi asosida yuzaga keluvchi so'z zaxiralarining favqulodda tez oshib borishi bilan xarakterlanadi. Bilish so'z va tushunchalarning ma'nosi asosida amalga oshadi. Asosan bog'lanishli nutq ifodalarida ularning tuzilishi va dasturlanishi mazmuniy bosqichda amalga oshadi va bilish faoliyatining rivojlanish darajasi bilan belgilanadi.

### **Adabiyotlar**

1. Выготский Л.С. Мышление и речь. Психика, сознание, бессознательное / Л.С. Выготский. - М.: Лабиринт, 2001. – 366 б.
2. Пиаже Ж. Речь и мышление ребенка. СПб.-М.: Педагогика-Пресс, 1999. - СПб. - 528 б.
3. Кольцова, М. М. Ребенок учится говорить / М.М. Кольцова. Пальчиковый игротренинг / М.С. Рузина. - СПб.: Сага, 2002. - 222 б.

# **O'ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O'QITISH METODIKASI**

## **O'ZBEK TILSHUNOSLIGINING SHAKLLANISH VA TARAQQIYOTINI DAVRLASHTIRISHNI O'QITISHGA OID METODIK QARASHLAR**

*N.Alavutdinova,  
O'zMU dot.v.b., p.f.n*

Hozirgi o'zbek tili kusining "Fonetika" bo'limidagi "O'zbek tili taraqqiyotining bosqichlari" mavzusida ma'ruza va amaliy mashg'ulot belgilangan. 1-kurs talabalariga o'zbek tilshunosligining shakllanishi va taraqqiyotiga oid bilimlar "Fonetika" bo'limidagi keyingi mavzularni o'rghanishda ahamiyatlidir. Shuningdek, "O'zbek tili taraqqiyotining bosqichlari" mavzusiga oid keltirilgan ilmiy qarashlarni qiyosiy o'rghanishga yo'naltiradi. Talabalarda turli adabiyotlardan olingan ilmiy qarashlarni umumlashtirish va qiyoslash kompitensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

O'zbek tilshunosligining shakllanish va taraqqiyoti, adabiyotlarda ta'kidlanganidek, uzoq tarixga egadir.<sup>106</sup> Turkiy tilshunoslikning shakllanishi manbalariga oid fikrlar xususida E.Fozilov, I.Abdullayev, X.Jabborov, H.Hasanov va boshqa olimlarning alohida tadqiqotlarida batafsil ma'lumotlar berilgan.<sup>107</sup> Usbu ma'lumotlar 1-kurs talabalarini mavzu bilan yaqindan tanishtiradi.

Ma'lumki, o'zbek adabiy tili tarixini davrlashtirish bo'yicha turli xil fikrlar, qarashlar mavjud.<sup>108</sup> Ba'zilar uch davrga ajratsalar, ba'zilar besh yoki olti davrga ajratib ko'rsatadilar.<sup>109</sup> O'zbek xalqining tarixi hamda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda U.Sanaqulov o'ziga xos davrlashtirishni tavsiya etadi:<sup>110</sup>

1. Qadimgi turkiy adabiy tili davri (VII asrdan yoXIII asrgacha);
2. Eski o'zbek adabiy tili davri (XIII-XIV asrlardan XX asrning boshlarigacha);

3. Hozirgi o'zbek adabiy tili davri (XIX-XX asrlar). Ana shu tasniflar (davrlashtirishlar)ning deyarli barchasida XIII asrdan keyin tilga nisbatan «eski o'zbek tili» (eski o'zbek adabiy tili) termini qo'llanganligi kuzatiladi.

Xuddi shu tarzda belgilash M.To'xtamirzaev, A.Rafiyev, J.Shabanovlar tomonidan tuzilgan qo'llanmada ham, shuningdek yana boshqa manbalarda ham qayd etilganligi kuzatiladi.<sup>111</sup> Demak, o'zbek tili XIII asrlardan alohida til sifatida shakllangan ekan (u XX asrning 30-yillarigacha ham turkiy til yoki turkiy tillardan biri sifatida baholanib, belgilanib kelingan bo'lsa, oldinroq, «chig'atoj» tili tarzida ham atalgan), uni o'rghanish bilan shug'ullangan tilshunoslik ham ana shu davrdan boshlab o'zbek tilshunosligi deb atalishi mumkin. Aynan shu tarzdagi tahlillar 1-kurs talabasini ilmiy mushohada qilishiga yaxshigina turtki bo'lishi mumkin.

Tilshunos olim H.Jamolxonovning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida akademik G'.Abdurahmonov va mualliflar guruhi tomonidan yozilgan "O'zbek tilining tarixiy grammatiskasi" dagi davrlashtirish berilgan:

1. Eng qadimgi turkiy til (VII asrgacha bo'lgan davr)

<sup>106</sup> Ўринбоев Б., Қурбонов Т. Ўзбек тилшунослиги тарихи, С., 2006 й., 3-бет; Нурмонов А., Махмудов Н. Ўзбек тилшунослиги тарихи, Т., 2000 й., 3,4-бетлар; Тожиев Ё. Ўзбек тилшунослиги тарихи, Т., 2000 й., 5,10-бетлар; С.Усмоновнинг хаёт ва ижодига бир назар, Сайдзода Усмонов мероси, Т., 2010 й. 5-бет.

<sup>107</sup> Фозилов Э. «Шарқнинг машхур филологлари», Т., Фан, 1971 й.; Абдуллаев И. Абу Мансур ас-Саолибий» Т., Фан, 1972 й.; Жабборов Х. «Буюк тилшунослар», Т., Насаф, 2003 й.; Х.Ҳасанов М. Кошфарий, Т., 1973 й.

<sup>108</sup> Мухторов А., Санакулов У. Ўзбек адабий тили тарихи, Т., Ўқитувчи, 1995, 22-23-бетлар.

<sup>109</sup> Ўша асар, кўрсатилган саҳифалар.

<sup>110</sup> Тўхтамирзаев М., Рафиев А., Шабанов Ж. Ўзбек тилини биласизми?, назарий маълумотлар, Т., 2004 й.

2. Qadimgi turkiy adabiy tili( VII–X asrlar).
3. O'rtal Osiyo adabiy tili (XI-XIV asrlar).
4. Eski o'zbek adabiy tili(XIV-XII asrlar).
5. Yangi o'zbek adabiy tili (XVII-XX asr boshlari).

Proff.P.Sayfullayeva v.b. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" dasligida o'zbek tilining o'rganilish tarixini davrashtirish quyidagicha belgilangan:

- I. XI–XIV asrlar (Qadimgi turkiy tilshunoslik).
- II. XV–XIX asrlar (Eski turkiy tilshunoslik).
- III. XX asrning boshidan XX asr 80-yillarigacha (formal o'zbek tilshunosligi).
- IV. XX asrning 80-yillaridan bugungi kungacha (substansial o'zbek tilshunosligi).

Talabalar e'tiboriga havola etilgan o'zbek tili taraqqiyotining bosqichlarini davrashtirishga oid bir-birini takrorlamaydigan, shuningdek bir-birini to'ldiradigan ma'lumotlar ularni to'plangan ilmiy ma'lumotlarni qiyoslashga, tahlil qilishga, o'xshash va farqli tomonlarini topishga yo'naltiradi.

### **Adabiyotlar**

1. O'rionboyev B., Qurbonov T. O'zbek tilshunosligi tarixi.-S.: 2006 .
2. Nurmonov A., Mahmudov N. O'zbek tilshunosligi tarixi.-T.: 2000 ..
3. Tojiyev Yo. O'zbek tilshunosligi tarixi.- T.: 2000 .
4. S.Usmonovning hayot va ijodiga bir nazar, Saidzoda Usmonov merosi, -T.: 2010 .-B.5.
5. Fozilov E. «Sharqning mashhur filologlari», -T.: Fan,1971.
6. Abdullayev I. «Abu Mansur as-Saolibiy» -T.: Fan, 1972 .
7. Jabborov H. «Buyuk tilshunoslari», -T.: Nasaf, 2003.
8. H.Hasanov M.Koshg'ariy, T.: 1973.
9. Muxtorov A., Sanaqulov U. O'zbek adabiy tili tarixi, -T.: O'qituvchi, 1995.
10. To'xtamirzayev M., Rafiyev A., Shabanov J. O'zbek tilini bilasizmi?, nazariy ma'lumotlar. - T.: 2004 .
11. Jamolxonov H., Hozirgi o'zbek adabiy tili.-T.:O'ME,2013.
12. Sayfullayeva va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili.-T. :2010.

## **O'ZBEK TILI DARSLARIDA ZID MA'NOLI SO'ZLARNING O'QITILISHI**

**G.S.Keldiyorova,  
O'zMU dotsenti**

*Annotatsiya.* Maqolada til o'rganishda talabalarning lug'at boyligini oshirishda zid ma'noli so'zlarning qo'llanilishi, xususan, Erkin Vohidovning ana shunday so'zlar asosiga qurilgan she'rlari tahlili, mavzuni o'qitishda "Idrok xaritasi" interfaol usulidan foydalanish tadqiq etilgan.

*Kalit so'zlar:* zid ma'nolilik, she'r, interfaol usul, g'azal,

*Abstract.* The article reveals the use of contradictory words in language learning to increase students' vocabulary, in particular, the analysis of Erkin Vahidov's poems based on such words, the use of the interactive method "Mind map" in teaching the subject given.

**Keywords:** contradictory meaning, poem, interactive method, gazal.

Oliy ta'lif tizimida til o'qitishda lug'aviy birlikka oid mavzularning keng yoritilishi taqozo etiladi. Zero, bo'lajak mutaxassislar o'z kasbiy faoliyatida leksikologiyaga oid bilimlaridan keng ko'lamma foydalanadilar. Lingvistik kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish masalasi aynan til darslarida amalga oshiriladi. Til darslarida o'tilayotgan mavzuga doir til hodisasini

badiiy matnlardan aniqlash va izohlash mashqlari o'tkazishda, qo'shimcha ravishda muayyan reja asosida ularning til xususiyatlarini ham tahlil qilish talabalarning nutq madaniyatini rivojlan-tirishda, shuningdek, so'z qo'llash qoidalarini ham amaliy egallashlariga imkoniyat yaratadi. Shunday hodisalardan biri zid ma'noli so'zlardir.

Antonim so'zlarning xususiyati shuki, ularning biri ikkinchisiga zid qo'yilib, birining maz-muni ikkinchisini inkor qiladi, birinchisining ma'nosini ikkinchisiga qarama-qarshi qo'yiladi. Antonimlarning kontekstual holati bilan bog'liq bo'lgan xususiyatiga ko'ra, ba'zi tilshunoslar antonimlarni alohida guruhlab, ularning birini til hodisasi, ikkinchisini esa nutqiy hodisa, deb izoh-laydilar. Antonimlarning muhim (stilistik) uslubiy vazifasi ularning antiteza hosil qilishda leksik vosita bo'lishidir. Shu bois keyingi o'rnlarda antonim, antiteza kabi atamalarni birga qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Antiteza – tasvirlanayotgan voqe-a-hodisa, tuyg'u va tushunchalardagi ziddiyatni yaqqolroq aks ettirishga xizmat qiladigan so'z yoki so'z birikmasidan tashkil topgan tasviriy vosita. Qarama-qarshi ma'no tashiydigan bu xil so'zlar narsa va hodisa, tushunchalarni qiyoslash imkonini beradi, obyektning mohiyatini chuqurroq ochishga yordamlashadi. Antiteza, ayniqsa, she'riyatda keng qo'llaniladi. Milliy an'ana har bir millat hayotining tarixida taraqqiyot jarayonini boshidan kechirib, ijodkor milliy an'analarni takrorlamaydi, balki uni xalqning ma'lum davrdagi hayoti, ongi, madaniy saviyasiga mutanosib ravishda davom ettirib rivojlantiradi, yangi taraqqiyot bosqichiga ko'taradi.

«E.Vohidov g'azallari bilan insoniy burch, hayot va tiriklik mas'uliyati, muhabbat singari boqiy mavzularga yangidan rang, jilo berdi. Uning iste'dodi shundaki, u hozirgi kunda xalqimiz hayoti taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlarini badiiy shaklda aks ettirayotganligida ko'rindi». (1,147) Lekin u atay shakl axtarmaydi, balki uning kechinma, izlanish, fikrlash yo'sini o'z shaklini yetaklab keladi. Bu esa shoirning «Do'st bilan obod uying» g'azali tahlilida yaqqol ko'rindi.

*Do'st bilan obod uying,  
Gar bo'lsa u vayrona ham.  
Do'st qadam qo'ymas esa,  
Vayronadir koshona ham.*

Baytning birinchi misrasidagi **obod uy** birikmasi ikkinchi misradagi **vayrona** so'zi bilan antiteza hosil qiladi. **Obod** so'zi fors-tojik tilidan o'zlashgan bo'lib, ko'rkan binolar, chiroyl ko'chalar, bog'u-rog'lar bilan go'zallik kasb etgan, gullab-yashnagan (2, I, 516) ma'nolarini ifodalaydi. **Vayrona** so'zi ham fors-tojik tilidan olingan so'z bo'lib, vayrona bo'lgan joy, xaroba, xarobazor (2, I, 171) ma'nolarini anglatadi. Bu baytda birinchi va ikkinchi misralar o'zaro zidlik ma'nosini aks ettiryapti. **Obod** so'zi **uy** so'zi bilan birikib kelgan holda **go'zal joy** ma'nosini ifodalayotgan bo'lsa, **vayrona** so'zi otlashgan holda «vayrona joy» ma'nosini ifodalagan va o'zaro zidlanguandir. Bandni ko'zdan kechirar ekanmiz, shuningdek, 1-baytning ma'nosini 2-baytning ma'nosiga zidlantirilganligini ko'ramiz. Ya'ni **do'st bilan - do'st qadam qo'ymas esa** bir-biriga zid ma'noni berib, antiteza hosil qilgan. Bu o'rinda **do'st bilan** so'zshakli «do'star kelib tursa, ular qadam qo'ysa yoki qo'yganda» degan ma'nolarni ifodalagan, shunga zid ravishda esa «ular kelib turmasa, qadam qo'ymasa» ma'nosidagi birikma qo'llanilgan.

4-misradagi **vayrona** so'ziga (ma'nosini yuqorida izohlangan) **koshona** so'zi zid qo'yilgan. Ya'ni **koshona** fors-tojik tilidan o'zlashgan so'z bo'lib, hashamatli, ko'rkan bino (2,I, 400) ma'nosini bildiradi.

Bu bandda o'zaro antiteza hosil qilgan so'zlar fors-tojik tilidan o'zlashgan so'zlardir. Shu bilan birga, so'z va so'z birikmalari orasida antiteza hosil qilinganligi kuzatiladi.

*Intizor har uy qadrdon  
Dilkusholar bazmiga*


*Gar oyoq qo'ysa qabohat  
Yig lagay ostona ham.*

**Dilkusho** - fors-tojikcha so'z bo'lib, bahr-dilni ochadigan, ko'ngilni xushnud qiladigan; orombaxsh (2, I, 225) ma'nolarini anglatsa, **qabohat** - arabcha so'z bo'lib, qabih ish, yaramas hatti-harakat, qabihlik, razillik, ifloslik (2, I, 530) ma'nolarini ifodalaydi. **Dilkusho** va **qabohat** so'zlar ham shartli ravishda antitezani tashkil qilib, birinchi baytdagi **intizor**, **qadrdon**, **dilkusho** so'zlar bir-birini to'ldirib, ma'nosini kuchaytirishga xizmat qilyapti. Banddag'i birinchi bayt bilan ikkinchi bayt o'rtasida antiteza mavjud. **Gar oyoq qo'ysa** va **intizor**, **yig'lamoq** va **bazm** o'rtasida ham mantiqan zidlik ifodalanganligi sezilib turibdi.

Erkin Vohidovning poetik olamini aniq tasvirlab beruvchi falsafiy mazmundagi bu bandlari zamirida ziddiyatlar ifodalanadi, bular hayotdagi qarama-qarshiliklar kurashini aks ettiradi.

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri qisqa vaqt ichida yuksak kafolatli natijalarga erishishdir, bu talabni yuzaga keltirishda innovatsion metodlar ishonchli vosita bo'la oladi.

Erkin Vohidov she'rlarida zidlikni "Idrok xaritasi" usulida ko'rib chiqamiz:



### Adabiyotlar

1. Rahimjonov N. Davr va o'zbek lirikasi. – Toshkent: Fan, 1979. 147-b.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. I, II jild.

# **О МЕТОДИКЕ ОБУЧЕНИЯ СРЕДСТВАМ РЕЧЕВОЙ ВЫРАЗИТЕЛЬНОСТИ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА**

**Д.Фаттахова НУУз к.п.н.,  
Ф.Топилдиева. преп.**

Планирование учебного процесса является целеполагающим, подчиненным одной функции: разработке программы речевых действий студентов, иными словами, набору операционных процессов. Следовательно, в работе над средствами речевой выразительности необходимо программировать речевую деятельность студентов и преподавателей в целом и отдельные ее этапы на занятиях. При коллективном, групповом и индивидуальном решении методических задач на занятии преподаватель сталкивается с противоречиями разного плана. Например, планируя организацию работы со средствами речевой выразительности, преподаватель предусматривает различные упражнения, затрагивающие разные виды речевой деятельности студентов, обучающихся в группах, у которых развитие навыков всегда неравномерное. У одних навыки развиваются быстрее, чем у других. Скорость автоматизации навыков у студентов оказывается разной. В арсенал будущего преподавателя нужно ввести корректирующие с учебным материалом действия, технология проведения которых базируется на основных методических умениях как, диагностика, коррекция, обучение и контроль в соответствии с видом речевой деятельности на занятии. Учитывая, что целью обучения узбекским средствам речевой выразительности русскоязычных студентов является обогащение их речи в рамках формирования коммуникативных навыков, процесс обучения должен иметь форму эффективного воздействия на студента-филолога. Реализация указанной цели может осуществляться по трём направлениям:

1. Сформулировать задачи обучения средствам речевой выразительности.
2. Выявить трудности в обучении средствам речевой выразительности.
3. Разработать специальную систему упражнений для обучения средствам речевой выразительности.

Студенты должны самостоятельно заниматься, обобщать свои знания и применять их на практике, например, при чтении различных текстов в естественном акте коммуникации. Процесс овладения узбекскими средствами речевой выразительности включает в себя совокупность определенных действий и операций, которые находят своё отражение в системе упражнений. Обычно под упражнением понимают многократное выполнение действия (умственного или практического) с целью формирования и совершенствования учебных навыков и умений и их качеств.

Методика обучения средствам речевой выразительности узбекского языка включает в себя четыре этапа. 1 этап обучения средствам речевой выразительности узбекского языка вбирает в себя анкетирование с целью выявления уровня владения студентами средствами речевой выразительности узбекского языка; студентам раздаются вопросы в форме тестов, на которые они отвечают. 2 этап - это ознакомление студентов со средствами речевой выразительности узбекского языка; подробное объяснение значения средств речевой выразительности с использованием новых педагогических технологий. Преподаватель объясняет студентам, что такое средства речевой выразительности, какие бывают тропы и фигуры и т.д. Средства художественной выразительности разнообразны и многочисленны. Это тропы: эпитеты, сравнения, олицетворения, аллегория, метафора и т.д. И стилистические фигуры: анафора, эпифора, градация, риторический вопрос, умолчание и т.д. Троп (от греч. поворот, оборот речи)- перенос значения по сходству, смежности признаков или

по количественным характеристикам. Троп- это использование слов и выражений в переносном значении в целях создания художественного образа.<sup>112</sup> Например:

Сравнение – сопоставление двух явлений с тем, чтобы пояснить одно из них с помощью другого. Сравнение имеет два компонента: объект сравнения и то, с чем он сравнивается (союзы: как, будто, как будто; что, все равно что; словно, точно; как, так (и); слова: похож, похожий; подобно, подобный, наподобие; напоминает; и т.д.).<sup>113</sup>

С помощью технологии технологии «Снежный ком», преподаватель вместе со студентами начинает вспоминать определение тропа. Студенты, дополняя друг друга, отвечают на этот вопрос.

Следующий 3 этап. Даются задания и упражнения на закрепление материала. Упражнение 1. Найдите сравнения в приведенных отрывках из произведений Саида Ахмада. (Сайд Аҳмаднинг асарларидан келтирилган мисоллардан ўхшатишларни топинг).

Жалол полвон этигини ҳам киймай ёнғоқзор томонга ўқдек учеб кетди. Тиқ этган товуш йўқ, ой ҳам синдирилган патирдек яримтагина бўлиб қолган. Полвон новвот сувидек тотимли чойни ҳузур қилиб ичаркан, ўзингга шукур, ўзингга шукур, деб қўйди. Гуландом сесканиб кетди... Бахмалдек юмшоқ лаблари аранг қимирлади-ю, сув, дея олди, холос. Киши билмас унга қарайман. Киприк демагин қора духобанинг ўзи. Айниқса, чинидек оппоқ юзида янада қорайиб турарди... У эшикдан уйимга офтобга ўхшаб кириб келарди.<sup>114</sup>

Упражнение 2. В приведенных примерах найдите олицетворение и объясните значение слов. (Келтирилган парчаларда жонлантиришни топинг ва маъносини изоҳланг).

Ўрик ўрнидан туриб, Деди: ”Эй тут, талтайиб,

Рангини сарғайтуриб, Дема ҳар сўз ялпайиб.

Келди тутнинг бошига Бошгинангга бир урай,

Шовқин солиб тик туриб. Ерда қолгин шалпайиб. (Ҳамза.)

4 этап – проверка знаний и навыков обучающихся с помощью тестов

1. Какие средства речевой выразительности использованы в приведенных стихотворных отрывках? (Куйидаги шеърий парчада қандай тасвирий воситалардан фойдаланилган?)

“Бунда булбул китоб ўқиди, Бунда ари келтиради бол,

Бунда куртлар ипак тўқиди, Бунда қушлар топади иқбол.”

А) Жонлантириш; В) Кичрайтириш;

Б) Муболага; Г) Киноя;

2. “Кузимизнинг гўзаллигин, Пахтазордан уюм – уюм

Оғайнилар, кўрганмисиз?.... Оқ олтинни йиққанмисиз?”

Какие средства речевой выразительности использованы в данном отрывке? (Ушбу шеърий парчада қандай тасвирий воситалардан фойдаланилган?)

А) Риторик сўроқ В) Антитеза

Б) Метафора Г) Гипербола

Итак, в презентации учебного материала необходимо учитывать репродуктивную, адаптивную, локально-моделирующую, системно- моделирующую уровни его подачи. И только тогда преподаватель может достичь поставленной перед собой цели. А именно обучения студентов правильному, грамотному использованию средств речевой выразительности в речи.

<sup>112</sup> Мизинина И., Тюрина Т. Выразительности средства языка. Справочное пособие. – М.: Н-ПРО, 2006. – С. 91.

<sup>113</sup> Мизинина И., Тюрина Т. Выразительности средства языка. Справочное пособие. – М.: Н-ПРО, 2006. – С. 91.

<sup>114</sup> Сайд Аҳмад. Танланган асарлар хикоялар. 1-жилд Тошкент: Шарқ, 2010. – Б.202.

## **Литература**

1. Мизинина И., Тюрина Т. Выразительности средства языка. Справочное пособие. – М.: Н-ПРО, 2006. – С. 91.
2. Сайд Аҳмад. Танланган асарлар ҳикоялар. 1-жилд. Тошкент: Шарқ, 2010. - 302 б.
3. Бегматов Э., Жиянова Н. Нутқ маданияти асослари. - Тошкент, 2006. 936.
4. Выразительные средства современной русской речи. Тропы и фигуры. Терминологический словарь. – М.: Феникс, 2007. - с.869.

## **“MATNSHUNOSLIK” FANIDAN MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISH**

*A.Ubaydullaev,  
O'zbekiston Universiteti, f.f.n.*

O'zbek mumtoz adabiyoti namunalarini asosida o'rghanish, talabalarni qadim adabiy manbalardan har tomonlama xabardor mutaxassis sifatida tayyorlash universitet ta'lim-tarbiya tizimida madaniy-ma'rifiy saviyaning oshishiga sabab bo'ladi. Qadim adabiy manbalarni qo'l-yozma nusxalar asosida nashr etish, ularning mukammal ilmiy izohlar, ko'rsatkichlar bilan ta'minlangan tanqidiy matnini tayyorlash, adabiy manbashunoslik va matnshunoslik yo'nalihsida yangi ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borish har qachongidan ham dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-mayda qabul qilingan “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2995-sonli Qarori, shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 23-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Alisher Navoiy nomidagi davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetiga tashrifi chog'ida o'zbek mumtoz adabiyotiga taalluqli manbalarni o'rghanishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini yo'lga qo'yish, shu yo'nalihsida birinchi navbatda yetuk manbashunos va matnshunos kadrlarni tayyorlash vazifa qilib belgilangan. Qarordan kelib chiqqan holda, bugungi globallashuv davri barcha sohalar qatori ta'lim-tarbiyani ham sifat jihat-dan yuqori bosqichga ko'tarishni taqozo etmoqda. Ta'limni rivojlantirishning usul va omillari ko'p: sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish, o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan unumli foydalanish, pedagog xodimlarning kasbiy mahoratini muntazam ravishda oshirib borish.

Talabalarga bilim berishda ta'lim va tarbiyani uyg'unlikda olib borish talab etiladi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek “Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. “Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi” deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa bu masalada bo'shilq paydo bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi”<sup>115</sup>.

Ta'lim jarayoniga “Interfaol usullar” nomi bilan kirib kelayotgan usullar o'qituvchi uchun ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish imkoniyatini yaratmoqda. Ammo ta'kidlash lozimki, qisqa vaqt mobaynida ma'lum nazariy ma'lumotni o'quvchiga yetkazish, mavzu yuzasidan ko'nikma, malaka hosil qilish, shu bilan birga, ularni nazorat qilish hamda baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat talab etadi. Interfaol dars jarayonini shunday tashkillashtirish kerakki, mashg'ulotda barcha o'quvchilar faol-lashishi zarur, ya'ni dars jarayonida o'quv materiallarining ma'lum bir qismi talabalar tomonidan

<sup>115</sup> Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat]iyat ,ilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-kitob. T.: O'zbekiston, 2017. - B. 504-505.

(yakka, juft-juft yoki guruh bo'lib) mustaqil o'rganiladi, so'ngra bu ma'lumotlar har tomonlama muhokama qilinadi. Mustaqil ishlar ham shu tariqa bajariladi. Talaba mashg'ulot davomida o'zini erkin his qilishi lozim, shundagina u o'zining mustaqil fikrini bayon qila oladi.

Talabalarda mustaqil bilim olish ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida mavzular mazmuni bilan aloqador turli manbalar ustida ishslash, darslik, qo'shimcha adabiyot va internet ma'lumotlaridan keng foydalanish, qo'lyozma va toshbosma matnlar ustida mustaqil ishslash, mavzuga oid suhbatlar olib borish, amaliy mashg'ulotlar o'tkazishga ham alohida ahamiyat berish nazarda tutiladi<sup>116</sup>.

– Arab alifbosi asosidagi o'zbek turkiy yozuvi ming yillar davomida iste'molda bo'lib kelganligi barchaga ma'lum. Ta'lim yo'naliishi: 5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) bakalavriat yo'nalihidagi namunaviy o'quv rejasi va namunaviy o'quv dasturida "Matnshunoslik" faniga (III kurs, V semestr) ma'ruza mashg'ulotiga 36 soat, amaliy mashg'ulotga 36 soat, mustaqil ta'lim uchun 50 soat ajratilgan. Dastur matnshunoslikda va tilshunoslikdagi matn tu-shunchasining farqi, arab yozuvi tarixi, matnshunoslikning dolzarb muammolari, tabdil, transkripsiya, transliteratsiya, mumtoz matnlarni tushunishda lug'at ilmining o'rni, nasta'liq xatidagi (arab xat turlari) toshbosma va qo'lyozma kitoblarni o'qiy olish, XX asr boshi isloh qilingan alifboni o'qib tushunish, nazmni nasriy bayon qilish, mumtoz matnni muxtasar va to'la sharhslash, adabiy manbani tasniflash, eski o'zbek yozuvini, qo'lyozma kitobda unvonning ahamiyatini, mumtoz matnda ilmiy ko'rsatkich imkoniyatini, qo'lyozma turlarini, katologlardagi ilmiy tavsif tuzilishlari haqida, mufradot, murakkabot, imlo, eski o'zbek yozuvi bilan bog'liq boshqa masalalar, matnni izohli o'qish, matnshunoslik va manbashunoslikni ham o'z ichiga oladi. Arab imlosidagi matnlar 1929-30-yillarga qadar yaratilgan qo'lyozmalardan iborat bo'lib, talabalar tomonidan qo'lyozmalarni erkin o'qib keta olishini ta'minlash maqsadida semestr davomida talaba mustaqil ravishda mustaqil ta'lim uchun ajratilgan mavzularni albatta bajarishi shart.

Ma'lumki, axborot va bilimlar doirasi tez sur'atlar bilan kengayib borayotgan hozirgi sharoitda barcha ma'lumotlarni faqat dars mashg'ulotlari paytida talabalarga yetkazish qiyin. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, talaba mustaqil ravishda shug'ullansa va o'z ustida tinimsiz ishlasagina bilimlarni chuqur o'zlashtirishi mumkin. Talabalarning asosiy bilim, ko'nikma va malakalari mustaqil ta'lim jarayonidagina shakllanadi, mustaqil faoliyat ko'rsatish qobiliyati rivojlanadi va ularda ijodiy ishslashga qiziqish paydo bo'ladi. Shuning uchun talabalarning mustaqil ta'lim olishlarini rejalashtirish, tashkil qilish va buning uchun barcha zaruriy shart-sharoitlar yaratish, mashg'ulotlarda o'qitish bilan bir qatorda bilim olish yo'llarini ko'rsatish, mustaqil ta'lim olish uchun yo'naltirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi<sup>117</sup>.

Talaba mustaqil ishi (TMI) – har bir fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismi talaba tomonidan fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida darsdan tashqarida o'zlashtirishiga yo'naltirilgan tizimli faoliyat hisoblanadi. Topshiriqlar puxta o'ylab chiqilgan va ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, talabalarning mashg'ulot davomida olgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, kengaytirish va to'ldirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Mustaqil ishlarning shakli va hajmini belgilashda quydagilar e'tiborga olinishi lozim: o'qish bosqichi; fanning o'ziga xos xususiyati va uni o'zlashtirishdagi qiyinchilik darajasi;

<sup>116</sup> Sirojiddinov Sh. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik. – T.: 2018; Sirojiddinov Sh., Umarova S. O'zbek matnshunosligi qirralari. - T.: Akademnashr, 2015; Sodiqov Q. Matnshunoslik va manbashunoslik asoslari. – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2017. 216 b; Hakimov M. Sharq manbashunosligi lug'ati. T.: 2013; Habibullayev A. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik. Toshkent, 2000; Shermuhamedov T., Abdullayev F., Xalilov L., Xalilov A. O'qish kitobi. - T., 1994; Is'haqov F. Eski o'zbek tili va yozuvi. - T., 1995.

<sup>117</sup> Munirov Q. Sharq qo'lyozmalari. – T.: O'zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1962; Murodov A. O'rta Osiyo xattotlik san'atitarixidan. – T.: Fan, 1971; Navoiy asarlari lug'ati (tuzuvchilar: P. Shamsiev, S. Ibrohimov). – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1972; Navoiy dastxati. (Navodirun-nihoya). Nashrga tayyorlovchi, so'zboshi muallifi S. G'anieva. – T.: Fan, 1991. I. Azimov, A. G'oziyev. Eski o'zbek tili va yozuvi praktikumi fanidan mustaqil ishlar. – T., 2010.

fanning axborot manbalari bilan ta'minlanganligi; ba'zi mavzularni qo'shimcha adabiyotlar yordamida mustaqil o'zlashtirish; talabalarning qo'lyozma manbalar bilan ishlay olish darajasi va boshqa shu kabi.

O'quv mashg'ulotining bu turi joriy nazoratning eng muhim tarkibiy qismidir, chunki bu ish talaba tomonidan semestr davomida mustaqil amalga oshiriladi. Mustaqil ta'llim ishlanmasi rejaga muvofiq *nasta'liq* xatida yozilgan qo'lyozma asarlarni (forsiy va turkiy tildagi) arab xati va eski o'zbek yozuvining barcha qoidalariga rioya qilgan holda ko'chirish asosida amalga oshiriladi. U oddiy ko'chirishdan iborat emas, balki, ish jarayoni quyidagilardan iborat bo'ladi:

- qo'lyozma asar (matni) tanlab olinib, u dastlab o'qib chiqiladi. Bu jarayon mustaqil bajariladi va o'qituvchi oldida o'qib beriladi. Matndagi o'qilishi qiyin so'zlar, jumlalar o'qituvchi rahbarligi asosida amalga oshiriladi;

- talaba o'zi uchun tushinilishi qiyin bo'lgan so'zlarning lug'atini tayyorlaydi. Bunda ayniqsa, so'zning matndagi ma'nosiga ahamiyat berilishi kerak;

- matn qirqma qalam (ruchka)da husnixat talablariga rioya qilingan holda ko'chiriladi;

- arab yozuvidagi matn hozirgi amaldagi o'zbek yozuviga o'giriladi;

- matn kirill va lotin yozuvidagi matn bilan ham qiyoslanadi.

Mavzuni mustaqil o'zlashtirish fanning o'ziga xos xususiyati, talabalarning bilim darajasi va qobiliyatiga qarab o'quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o'zlashtirish uchun beriladi. Bunda mavzuning asosiy mazmunini ochib berish va tahlil qilishga asos bo'ladigan tayanch so'z va iboralar, mavzuni tizimli bayon etishga xizmat qiladigan savol-larga e'tiborni qaratish, asosiy va qo'shimcha adabiyotlar hamda axborot manbalarini aniq ko'r-satish talab qilinadi. Mustaqil o'zlashtirilgan mavzu yuzasidan tayyorlangan ish kafedrada himoya qilinadi. Talabalar mustaqil ishini samarali tashkil etishda tizimli yondoshish, barcha bos-qichlarni muvofiqlashtirish va uzviylashtirish, ishning bajarilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatishtiriladi. Matn o'quvchilar tomonidan mustaqil o'qilishi, har bir o'quvchi tomonidan o'zicha idrok etilishi, o'ziga xos tarzda qabul qilinishi, o'ziga xos xulosalar chiqarilishiga erishilishi fanni o'qitishda nihoyatda muhim natija hisoblanadi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi:

- matnshunoslikda va tilshunoslikdagi matn tushunchasining o'zaro farqi, arab yozuvini tarixi, matnshunoslikning dolzarb muammolari, tabdil, transkripsiya, transliteratsiya, mumtoz matnlarni tushunishda lug'at ilmining o'rni;

- *nasta'liq* xatidagi toshbosma va qo'lyozma kitoblarni o'qiy olish, XX asr boshi isloh qilangan alifboni o'qib tushunish, nazmni nasriy bayon qilish, mumtoz matnni muxtasar va to'la sharhlash, adabiy manbani tasniflash;

- mumtoz matnlarni o'rganishda qo'lyozmaning ahamiyatini, ilmiy ko'rsatkich imkoniyatini, qo'lyozma turlarini, katologlardagi ilmiy tavsif tuzilishlari haqida bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishi lozim.

Talabalar mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakklardan foydalanadi:

- fannig ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, qo'lyozma va toshbosma manbalari bilan ishslash;

- amaliy mashg'ulotlarga qo'lyozma matnlarni o'qish asosida tayyorgarlik ko'rib kelish;

- qo'lyozma va toshbosma matnlarni o'qish malakasini shakllantirish;

- amaliy topshiriqdagi mavjud muammoning yechimini topish, mavzu yuzasidan ilmiy ma-qola, tezis va ma'ruzalar tayyorlash.

## **O'ZBEK TILINI O'QITISH METODIKASIDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARASI XUSUSIDA**

**N.Inogamova  
O'zMU katta o'qituvchisi**

Mamlakatimizda zamon talabiga mos, yuksak intellektual salohiyatlari, yangicha dunyoqarash va mustaqil fikrli mutaxassislar tayyorlash uchun ko'pgina imkoniyatlar yaratilmoqda. Bugungi tez o'zgaruvchan iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy hayot talaba yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda yangi pedagogik interfaol metodlardan keng foydalanishni taqozo qiladi. An'anaviy mashg'ulotlar olib borish asta-sekin o'z ornini intensiv va interfaol metodlarga, noan'anaviy dars o'tish usullariga bo'shatib bermoqda. Bugungi kunda o'qitishda innovatsion texnologiyalar va axborot texnologiyalarining qo'llanilishi ta'lism oluvchilarni o'quv jarayoniga faol jalb etish imkonini bermoqda. Avvalo *Novatsiya* va *Innovatsiya* atamalarini farqlab olish zarur. Novatsiya – eskilikning tarkibiga kiritilgan yangilik. Innovatsiya esa (inglizcha innovationas – yangilik, ixtiro) eskilikning ildizlari deyarli bo'lmaydigan yangilikdir (prof.Z.Xolmonova ma'rzasidan olindi). Amaliyotda yangilik va innovatsiya so'zlari o'rtasida farqlar mavjud. Yangilik bu fandagi eng so'nggi yutuqlar, bilimlar, usullarlar hisoblanadi. Ushbu yutuqlar, bilimlar, usullar amalda qo'llanilishi bilan innovatsiyaga aylanadi. Innovatsion texnologiyalar talabalarning faol hayotiy munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan. Innovatsion texnologiyalarga o'quv jarayonidagi yangi shakldagi intreaktiv usullar kiradi.

Demak, innovatsion ta'lism texnologiyalari deganda ta'lism jarayonida qo'llanilayotgan yangi pedagogik texnologiyalar, ta'lism sifatini oshirishga, yuqori natijadorlikka erishishga qaratilgan texnologiyalar tushuniladi. Bu texnologiyalar talabalar faolligini oshirishga, ular egallayotgan bilimlarni o'zları qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zları keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida talaba asosiy figuraga aylanadi. Bu dars o'tishning interaktiv (o'zaro faol) usuli hisoblanadi.

Innovatsiyalarning ko'rinishlari: yangi g'oyalilar, tizim yoki faoliyat yo'nalishini o'zgatirishga qaratilgan aniq maqsadlar, noan'anaviy yondashuvlar; odatiy bo'limgan tashabbuslar; ilg'or ish uslublaridir<sup>118</sup>.

Pedagogik texnologiya ko'p jihatdan reproduktiv turdag'i ta'limga yo'naltirilgan. Noan'anaviy texnologiyalarga quyidagilar xos: materialning tezkor ravishda yetkazilishi, ta'lism olayotganlar mustaqilligining faol vaziyatlari va yuqori darajasi, doimiy ichki teskari bog'lanish (o'z-o'zini nazorat qilish), suhbатdoshlik. Aynan ular samarali an'anaviy ta'limgning ko'p jihatlarini qamrab oladi va rivojlantiradi<sup>119</sup>.

Xususan, o'zbek tilini ikkinchi til yoki davlat tili sifatida o'rganayotgan talabalar uchun mo'ljallangan darslarda ham nutqiy, ham grammatikaga doir materialni kompleks yondashuv asosida berish maqsadga muvofiqlik. O'zbek tilini davlat tili sifatida o'qitishda kompleks yondashuv tizimi yaratilsa, talaba dars jarayonida ham gapirish, ham tushunish, ham yozish, ham o'qish, ham tarjima qilish kabi amaliy ko'nikmalarni hosil qiladi. Dars jarayonida grammatik qurilmalarni uslubiy to'g'ri qo'llash, so'zlarni to'g'ri ishlatalish, audiomaterialni tinglab tushunish, fikrni davom ettirish yoki fikr bildirish kabi bir qator ko'nikmalar kompleks ravishda shakllantiriladi. Shu maqsadda mavzuni tushuntirishda quyidagi materiallar taqdim etiladi:

<sup>118</sup> Сайидахмедов Н. Ноанъанавий дарс. Янги педагогик технологиялар. – Тошкент: Молия, 2003. – В.56.

<sup>119</sup> Кудашева З.К., Магдиева С.С. Методика обучения литературе. Ташкент, 2008. 262-с.


- vizual materiallar, tarqatma materiallar, o'qish uchun matnlar, yozma topshiriqlar, ovozli materiallar, video materiallar, grammatik materiallar, test topshiriqlari, mustaqil ta'lum uchun materiallar va h.z.

O'zbek tili fani doirasida talabaning mavzularni tez va oson o'zlashtirishiga erish uchun qaysi innovatsion texnologiyadan foydalanish samara beradi? Umuman olganda, mavzuning o'zlashtirilishini ta'minlashda, dars sifatini oshirishga erishishda barcha texnologiyalarni qo'llash mumkin, albatta. Biz mavjud innovatsion pedagogik texnologiyalarning quyidagi ko'rinishlaridan foydalanish yaxshi samara beradi, deb hisoblaymiz.

"Idrok xaritasi" yoki "Intellekt karta". Ko'rinish turibdiki, bu texnologiya talabani idrok qilishga, fikrlashga, tasavvurlarini kengaytirishga, hattoki rejalashga o'rgatadi. Ma'lumki, assatsiativ tilshunoslik inson ongini, tasavvurini kengaytirish masalalarini o'rganadi. Har qanday jarayon, shu jumladan ta'lum jarayoni ham talabaning tasavvurlarini kengaytirish, his etish, idrok qilish qobiliyatini rivojlantirishni ko'zda tutadi. Idrok xaritasi bu borada eng samarali texnologiyalardan biri hisoblanadi. O'qituvchilarning namoyishlarni o'tkazish, qaror qabul qilish, o'z vaqtini rejalashtirish va katta miqdordagi ma'lumotlarni esda saqlash kabi vazifalarni hal etishida intellekt-kartasi ajoyib vosita sanaladi. Ushbu idrok xaritasini darslarda qo'llashga oid dastlabki tajribalar Toni Byuzenning "Superthinking" asarida qo'llangan. Ushbu grafik organayzerdan tahsil oluvchilar tomonidan dars jarayonida o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash maqsadida foydalanish o'rinci deb hisoblaymiz. Demak, talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun darslarda intellekt kartasini ko'rgazmali qurol sifatida qo'llash o'qituvchi fikrlarini yaxshi ilg'ashga, mantiqiy xato va qarama-qarshiliklarni ko'ra bilishga, qolaversa, tinglevchilarning umumiy g'oyani miyasida osonroq saqlashiga imkon yaratadi.

O'zbek tili ta'liming o'ziga xos xususiyati shundaki, mashg'ulotlar ham nutqiy, ham nazariy mavzularni qamrab oladi. Aslida berilgan barcha mavzularning asosida milliylik, milliy qadriyatlar, an'analar yotadi. Lekin "Milliy qadriyatlar - millat iftixori" mavzusi qadriyatlarni chuqurroq o'rganishni maqsad qilgan. Mavzuning tarkibiy qismiga moddiy va ma'naviy qadriyatlar, tilga buyuk qadriyat sifatida qarash, milliy urf-odatlar, o'zbek udumlari haqidagi ma'lumotlar, xususan, mehmondo'stlik, mehmon kutish odobiga doir qarashlar hamda o'zbek tilida so'z yasalishiga doir grammatik ma'lumotlar kiritilgan. "Milliy qadriyatlar – millat iftixori" mavzusini o'tish jarayonida Idrok xaritasidan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Dastlab Milliy qadriyatlar jumlesi markazga joylashtiriladi va milliy qadriyatlarni ifodalovchi Milliy til, Xalq dostonlari, Milliy urf-odatlar, Tarixiy obidalar kabi birikmalar asosiy tarmoq sifatida turli ranglarda yoziladi. Bunda biz turli vositalardan foydalanishmiz mumkin. Talabalar guruh bo'lib yoki yakka tartibda ishlaydilar. Milliy til tushunchasi til tarixi, milliy yozuv, davlat tili va u bilan bog'liq qarorlar, til taraqqiyotiga hissa qo'shgan tilshunos olimlar, tilga oid ilmiy asarlar va ular bilan bog'liq boshqa tushunchalarni idrok etishga undaydi. Xalq dostonlari tushunchasi esa, avvalo, baxshichilik san'ati va u bilan bog'liq bir qator jarayonlarni, tushunchalarni ifodalovchi assotsiatsialar bilan beriladi va hokazo. Muhimi bu assotsiatsiyalar talabani fikrlashga, bilimlarni kengaytirishga, idrok etishga, tasavvurlarini boyitishga yordam beradi. Milliy urf-odatlar sirasiga kiruvchi udumlar, an'analar va ular bilan bog'liq tushunchalar talabalar tomonidan astasekinlik bilan ochib boriladi.

"Milliy qadriyatlar – millat iftixori" mavzusini o'tish jarayonida yana bir grafik organayzerdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu – Konseptual jadval. Konseptual jadval – taqqoslashga asoslangan grafik organayzer. Avvalo taqqoslanadigan narsa aniqlanadi, taqqoslash amalga oshiriladigan tavsiflar ajratiladi. Yakka tartibda kichik guruhlarda jadval quriladi va u to'ldiriladi. Vertikal bo'yicha taqqoslash talab etiladigan narsalar (qarashlar, nazariyalar) joylashtiriladi. Gorizantal bo'yicha taqqoslashni amalga oshirishdagi har xil tavsiflar beriladi.



Mavzu doirasida o'zbek va rus milliy urf-odatlarini o'zida mujassamlashtirgan Navro'z hamda Maslenitsa xalq bayramlari udumlarini qiyoslab berish mumkin. Bunda bu ikki bayramning mazmun-mohiyati, nishonlanadigan sanalari, bayramda o'tkaziladigan urf-odatlar, milliy taomlar va boshqa jihatlar konseptual jadvalda qiyoslab beriladi. Talabalar jadvalni o'z bilganchisi asosida to'ldiradilar. So'ngra ma'lumotlar qiyoslanadi. Buning natijasida talaba tasavvurida har ikkala bayramning o'xshash va farqli jihatlari namoyon bo'ladi. Bu esa talabaga bilimlarni tez va oson o'zlashtirishga ko'mak beradi. Eng muhimi, o'qituvchilar interfaol metodlarni tanlashda o'rganilayotgan mavzu, hal qilinishi lozim bo'lgan masalaga e'tibor qaratishlari lozim. Interfaol metodlarni qo'llashda talabalarning yoshi, psixologik xususiyatlari, dunyoqarash darajasi, hayotiy tajribalari inobatga olinsa, dars samaradorligi yanada oshadi. Bu esa o'qituvchilardan kasbiy mahorat, malaka, bilimdonlik, sezgirlik va intuitsiyaga ega bo'lishni taqozo etadi<sup>120</sup>.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, zamonaviy ta'limni tashkil etishdagi muhim talab-lardan biri ortiqcha aqliy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak kafolatli natija-larga erishish ekan, bunda innovatsion vositalar ishonchli vosita bo'la oladi, deb hisoblaymiz. Istalgan fan o'qituvchisining pedagogik dasturiy vositalarini yaratishi va ularni mashg'ulotlarda unumli qo'llay olishi davr talabidir.

## **Adabiyotlar**

1. Сайдахмедов Н. Ноанъанавий дарс. Янги педагогик технологиялар. – Тошкент: Молия, 2003. – Б.56.
  2. Кудашева З.К., Магдиева С.С. Методика обучения литературе. Ташкент, 2008. 262-с.
  3. Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. – Тошкент: Фан, 2006.

<sup>120</sup> Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. – Тошкент: Фан, 2006.

## TA'LIM JARAYONIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

*N.Egamberdiyeva,  
O'zbekiston Respublikasi O'qituvchi*

Ta'lismi tarbiya jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning samarasi hozirgi zamonda fan-texnika taraqqiyoti hamda axborot oqimining tobora ortib borishi, ular asosida bajariladigan jarayonlarni yanada tezroq amalga oshirishni talab qiladi. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ta'lismi tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri o'quv jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiyalarini joriy etishdir, deyiladi. Shu bois bugungi kunda zamonaviy texnika vositalariga asoslangan kompyuter texnologiyalarini o'quv jarayoniga, jamiyat faoliyatining barcha jabhalariga tatbiq etish davr talabiga aylangan.

Respublikamizda ta'lismi tizimining asosini yuqori sifatli texnologiyalar muhit tashkil etib bormoqda. Uning rivojlanishi texnik jihatdan murakkab sanaladi, ammo bunday muhit ta'lismi tizimini takomillashtirishga, axborot-texnologiyalarini joriy etishga xizmat qiladi. Bugungi kunda ta'lismi tizimi xodimlari oldiga qo'yiladigan talab, bu boradagi dunyoqarashlarni keskin o'zgartirishni, kompyuter texnikasi va axborot-kommunikatsiya texnologiyasi vositalaridan barcha fanlarni o'qitishda, auditoriyadan tashqari o'tkaziladigan tadbirlarda, umuman, hayotimizning har bir sohasida foydalanishni talab etadi. Albatta, buning uchun birinchi navbatda o'z fani bo'yicha chuqur bilimga va bu bilimlarni talabalarga yetkaza olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Ana shu qobiliyatni yanada yaqqolroq namoyon qilish va yuqori natijalarga erisha olish uchun, shubhasiz, o'qitishning zamonaviy vositalari – kompyuter va boshqa axborot-kommunikatsiya texnologiyasi vositalaridan foydalana olish va ularni ta'lismi tarbiya jarayonida qo'llashni bilishi kerak. Shuni unutmaslik kerakki, AKTdan foydalanish degani hamma talaba kompyuter yonida o'tirishi kerak yoki har bir talaba kompyuterda shug'ullanishi kerak, degani emas.

Ta'linda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning eng asosiy jihatlari deb quyidagilarni belgilash mumkin:

- kompyuter imkoniyatlari cheksiz bo'lib, har bir talaba ma'lum bir fanni o'zlashtirish jarayonida va kerakli bilimlarni egallashda, shaxsiy ehtiyojidan kelib chiqqan holda qancha o'qish talab qilinsa, shuncha o'qib o'rganishi, o'ziga moslashtirishi mumkin;
- kompyuter texnologiyalari dasturlari modulli ta'lismi asoslari negizida quriladi;
- talaba tomonidan alohida-alohida o'zlashtirilgan har bir o'quv fani doirasida amalga oshiriladi;
- talabalar o'quv jarayonidan so'ng, o'ziga qulay vaqtida, ish jarayonidan uzilmagan holda foydalanishi mumkin;
- talabalar ta'lismi muassasasidan qanchalik uzoqda joylashishidan qat'iy nazar, o'quv jarayonini tashkil qilinishiga imkon yaratadi;
- bu jihatning foydaliligi natijasida iqtisodiy tejamkorlikka erishiladi;
- talabalarning yangi vazifalari nazarda tutiladi, ularga nisbatan talablar an'anaviy ta'limgan farq qiladi;
- axborot-kompyuter texnologiyalarining barcha yangi dasturlaridan, kompyuter tarmoqlaridan, multimedia tizimi kabilardan oqilona foydalaniladi;
- kompyuter texnologiyalari asosida o'qitish ma'lum darajada ijtimoiy zo'riqishning oldini oladi, chunki yashash va moddiy sharoitidan qat'iy nazar, hamma talabalarga bir xil bilim faoliyatini faollashtirishga sharoit yaratadi, imkon beradi.

Kompyuter texnologiyalari dasturlarini o'quv jarayoniga tatbiq etish yo'li bilan yuqorida qayd etilganlarning barchasini amalga oshirish mumkinligini quyida ko'rib chiqishimiz mumkin:

- joydan unumli foydalanish imkoni yaratiladi;
- ko'rgazmalilik bayon etish imkoni mavjud bo'ladi;
- vaqtdan unumli foydalanish imkoni – kompyuter texnologiyasi yordamida dars jarayoni davomida nazariyani amaliyotga bog'lab olib borishiga sharoit yaratiladi;
- axborotni muntazam yangilab turish imkoni – bunda elektron darsliklarda yangi ma'lumotlarni bir necha daqiqalarda dasturga kirib o'zgartirish mumkin;
- talabalarning bilim darajalarini har tomonlama tizimli va yaxlit tekshirib ko'rish imkoni – barcha multimedia darsliklarida talabalarning o'zlashtirganlik darajasini tekshiruvchi topshiriqlar va test savollari kompyuter yordamida avtomatik ravishda bajariladi;
- zamonaviy talabaning takomillashish imkoni – XXI asr - kompyuter texnologiyalari asri, ta'lim tizimi xodimlari, ayniqsa, o'qituvchilar ham davr bilan hamohang holda axborot kompyuter texnologiyalarining barcha imkoniyatlaridan samarali foydalanadi. Bundan tashqari, o'zbek tili darslarida kompyuter yordamida quyidagi o'yin topshiriqlardan foydalanish mumkin. Masa-lan, "Kompyuter diktant" topshirig'ining asosiy maqsadi talabalarning o'zbek tili fanidan olgan bilimlarini hamda kompyuterda yoza olish qobiliyatlarini oshirishdan iborat;
- talabalarning faolligi oshib, fanga, ilmga bo'lgan e'tibori va qiziqishining kuchayish imkoni – talabalar axborot-resurs markazlariga yangi mavzuni yana bir bora qaytarib, o'zlashtirib, mustahkamlab, o'z fikrlarini erkin bildiradi;
- kompyuterda ishslash malakasini rivojlantirish imkoni – jamiyatning har bir a'zosi, shu jumladan, talabalar ham internet tarmoqlari va elektron manbalaridan ma'lumotlarni mustaqil ravishda olishlari, ularning intellektual salohiyatini oshiradi;
- ilmiy-amaliy tekshirib ko'rish, ijodiy yondashish va tanqidiy fikrash imkoni - talabalar elektron darsliklar, internet tarmoqlariga kirib fanga tegishli yangi kiritilgan ma'lumotlarni izlab topishi, kuzatish yo'li bilan ma'lumot yig'ishi, ularni saralash, tartibga va tizimga solishi, tahlil qilishi, nazariy bilimlarni tadqiq qilishi, natijalarni taqdimotlar yordamida asoslab berishi imkoniga ega bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim-tarbiya jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish talabalar bilim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga egadir, shu bilan birga zamonaviy o'qituvchi ta'limda nafaqat mavjud samarali usullardan foydalanib dars o'tishi, balki o'zi ham yangi pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalar ishlab chiquvchisi va o'z mehnatining tashkilotchisi, tanqidchisi ham bo'la olsin, u tayyorlagan mutaxassis dunyoning istalgan davlatidagi kadrlar bilan ham ilmda, ham mahoratda, ham odob-ahloqda raqobatlasha olsin.

### **Adabiyotlar**

1. Арипов М., Бегалов Б. Ахборот технологиялари. Тошкент, 2008 .
2. Усманов А.И. Замонавий ахборот технологиялари. Т.: "Академия", 2007.
3. Ботвенко М.А. Компьютерная лингводидактика (Учебное пособие). Москва, 2009.

## **O'ZBEK TILINI O'QITISHDA AKTLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI**

*G.Muxamedjanova  
MTU dotsenti, p.f.n.,  
N.Musulmanova  
TDO TAU, f.f.n.*

Hozirgi kunda hayotimizni axborot texnologiyasisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Har bir fanni o'qitishda ta'limni zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Ta'limda asosiy e'tibor o'quvchi shaxsini rivojlantirishga qaratilmoqda. O'quvchilarning o'zlash-tirgan bilim, ko'nikma kompitensiyalarini hayotga tadbiq etish maqsadida axborot komunikatsion texnologiyalaridan foydalanishning imkoniyatlari cheksiz.

1. Kompyuter yordamida har xil so'z, matn, grafika, video ma'lumotlar o'quvchining diqqatini ko'proq jalb qiladi;

2. Tabaqalashtirilgan va individual ta'lim amalga oshiriladi;

3. Kompyuter tezkor nazoratchi vazifasini bajaradi;

4. Dars jarayonida ijro etadigan mashqlar sonini ko'paytirishga imkon yaratiladi;

5. O'quvchilar o'rtasida ochiq va noan'anaviy, zamonaviy darslar raqobatini yaratish.

O'quvchilarni zamonaviy texnika vositalardan, jumladan, kompyuterdan foydalanish asosida o'qitish hozirgi kunning dolzarb masalasiga aylandi. Kompyuter darslarining asosini unda berilgan materiallar (turli xil matnlar, test savollari va mashqlar) tashkil etadi. Bunday darslarda o'quvchilarning kompyuterda ishslash malakalari emas, balki ularning yozma va o'g'zaki nutqini rivojlantirish masalalariga e'tibor qaratiladi. Kompyuter darslari matnni o'qib, tarjima qilish, matn yuzasidan savol-javob o'tkazish, reja tuzish, hikoyani davom ettirish, maqollarning mazmunini aytish kabi usullar bilan birga o'quvchilarda mustaqil ishslashga undaydigan va nutq malakalarini rivojlantiradigan turli xil vaziyatli mashqlarni qo'llash uchun qulay imkoniyat beradi. Buning uchun quyidagi vazifalarni berish mumkin.

1. Hikoyani davom ettirish. Kompyuterga hikoyaning boshlanish qismi yozilgan bo'ladi. O'quvchilardan hikoyani davom ettirish so'raladi. Har bir o'quvchi hikoyani o'zi davom ettiradi. Eng yaxshi, tugallangan hikoya varianti kompyuterda qoldiriladi.

2. Situativ topshiriq asosida matn yaratish. O'qituvchi o'quvchilarga quyidagicha topshiriq beradi: "Tasavvur qiling, siz ko'chaga chiqib do'stingizni ko'rib qoldingiz. Do'stingiz o'zbek tili fanidan berilgan hikoyani yoza olmaganini, unga yordam kerakligini aytди. Siz shu hikoyani qanday yozgan bo'lardingiz? Har bir o'quvchi o'z hikoyasini yozadi. O'quvchilar topshiriqni bajarib bo'lganidan so'ng, ularning natijalari monitorda ko'rsatiladi va har bir hikoya baholanadi. Eng mukammal hikoya muallifi aniqlanadi. Ushbu jarayonda o'quvchi faol ishtiropchiga aylanadi, bu esa o'z navbatida, mashg'ulotning samaradorligi oshganligi va o'qituvchi ijobiyligi natijaga erishganini ko'rsatadi. Shuningdek, kompyuter o'quvchilar nutqini o'stirish, savodxonligini oshirish bilan birga, ularning bilimlarini xolisona baholash imkoniyatini beradi.

Til o'rganishda ko'proq multimedia vositasi qo'l keladi. Multimedia (lotin tilida multum-ko'p va media, medium - vosita) - bir nechi xil ko'rinishlarga ega elektron axborot. (matn tasviri, animatsiya, audio hamda video tasvirlar). Kompyuter texnikasi va dastur vositalari yordamida tashkil etilgan darslar media-darslar deyiladi. Media darslarni tayyorlashda internet tarmog'idan keng foydalanish mumkin. Media darslar orqali o'qituvchi bir paytning o'zida ham nazariy, ham amaliy bilim berish, yangi darsni tushuntirish yoki o'tilgan mavzuni mustahkamlash chog'ida yuqori darajali ko'rgazmali materiallardan keng foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ikkinchiligi tilni o'rganayotgan o'quvchi uchun biror so'zni ko'rib, eshitib va o'z nutqiy faoliyatida qo'llashida, uni xotirada saqlash va o'zlashtirish imkoniyati yuqori bo'lishida axborot texnologiyasi,

media-darslar hamda turli didaktik mashqlar juda qo'l keladi. Bunda texnika vositalaridan video, audiomagnitafon, kompyuterlardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Rusiyabon o'quvchilarga o'zbek tilini o'rgatish uchun mo'ljallangan media darslar quyidagi talablarga javob berishi lozim:

1. O'quvchilarga kompyuter vositasida taqdim etiluvchi materiallar milliy qadriyatlarimiz, urf - odatlarmiz, axloq-odobimizga mos tushishi, vatanparvarlik hissini tarbiyalashga ko'maklashishi kerak.

2. Yaratilgan media darslar nutqi rivojlangan hamda nutqi yaxshi rivojlanmagan o'quvchi uchun ham foydali bo'lishi kerak.

3. Kompyuter vositalarini tanlashga talabchanlik bilan yondashish kerak. Masalan, videolav-halar, animatsiyalar oddiy matn bilan uyg'unlikda bo'lishi, suhandonning talaffuzi barcha talablarga javob berishi, tiniq va ravon, orfoepiya me'yorlariga to'liq mos tushishi, rasm va fotosuratlar maqsadga muvofiq va yetarli hajmda bo'lishi kerak.

4. Nutq qoidalari media darslarda o'zbek tilida zarur hollarda o'zbek va rus tillarida taqdim etilishi kerak. Chunki, bir qator o'quvchilar ona tilida avvalroq o'rgangan qoidalarga tayanib, yangi taqdim etilayotgan materialni osonroq o'zlashtirish imkoniga ega bo'lishlari nutq o'stirishinga ma'lum darajada ko'maklashadi.

5. Mavzuga oid nazariy ma'lumotlar ixcham ko'rinishda berilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Katta hajmdagi bunday matnni rusiyabon o'quvchi to'la anglab etishi mushkul.

6. Til o'rgatish maqsadida yaratilgan media darslar tarkibida o'zbekcha - ruscha, ruscha - o'zbekcha lug'atlar bo'lishi shart.

7. Matn ustida ishslash jarayonida o'quvchilar nutqini o'stirish maqsadida qator topshiriqlardan foydalanishi: matnni davom ettirish, qisqartirish, kengaytirish, unga reja tuzish va hokazo.

8. Media darslarda nazorat qilish uchun test, mashq va mashqlardan keng foydalanish lozim. Topshiriqlar oddiydan murakkabga tomon tamoyili asosida tuzilishi kerak. Shu bilan birga mustaqil ravishda matn tuzish, berilgan shakl yordamida boshqa hujjat yozish, rasmga qarab kichik hikoya yozish, lug'atdan foydalanib boshqotirmani yechish, qo'shiqni tinglab, matnni to'ldirish kabi topshiriqlardan foydalanish mumkin.

9. Vazifalarni bajarish tezligi va to'g'riligini inobatga olish va o'quvchni rag'"batlantirish ko'zda tutilishi kerak. Barakalla! Biroz adashdingiz, yana o'ylab ko'ring. Topshiriqni qayta bajaring, mavzuni takrorlashningizga to'g'ri keladi kabi yozuv va mos ravishda ovoz yordamida o'quvchilar bilan muloqot o'rnatilishi maqsada muvofiqli.

## **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR VA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI UCHUN YARATILGAN LUG'ATLARDA TIL VA MADANIYAT UYG'UNLIGI MUAMMOSI**

*L. Nigmatova,  
BuxDU dotsenti, f.f.n.,  
S. Sharipov, o'qituvchi*

Bugungi kunda XXI asr fojalari sifatida tilga olinayotgan terrorizm, giyohvandlik kabi global muammolar, dunyoda yuz berayotgan ashaddiy jinoyatlarning negizida ma'naviy qash-shoqlik, milliy madaniy qadriyatlardan bebahralik, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi tuyg'ularning yetishmasligi sabab bo'lmoqda. Bu esa yosh avlodga ona tilini o'qitish barobarida o'zbek xalqining avloddan-avlodga o'tib kelayotgan milliy-ma'naviy qadriyatlari, madaniyatiga doir tu-

shunchalarni singdirib borishni taqozo etmoqda. Bir necha ming yillik tarixga ega o'quv lug'atlarini yaratish XXI asrda hamon dolzarb vazifaligicha qolmoqda.

Maktabgacha bo'lgan davr bolaning o'sish, rivojlanish, o'zini namoyon etishga intilish, o'rganish, bilishga ishtiyobi kuchli bo'lgan davri ekani bilan xarakterlanadi. Shu sababli dunyoning ko'pgina taraqqiy etgan mamlakatlarida shu yoshdagagi bolalar nutqini o'stirish, uning insoniy sifatlari va aqliy salohiyatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratiladi.

So'nggi yillarda jahon o'quv leksikografiyasi yutuqlari asosida o'zbek tilida ham uzlusiz ta'limning quyi bo'g'inlari, xususan, maktabgacha yoshdagagi bolalar va boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yangi avlod o'quv lug'atlarining ilk namunalari yaratila boshlandi. Ayni paytda o'zbek tilida ta'limning ushbu bo'g'inlarida tahsil oluvchilar uchun mo'ljallangan lug'atlarning quyidagi asosiy tiplarini uchratish mumkin: a) "Mening birinchi entsiklopediyam" seriyasida yaratilgan o'quv entsiklopedik lug'atlar; b) "Mening eng birinchi lug'atim" seriyasida yaratilgan rasmi, izohli lug'atlar; s) xorijiy tillarni o'rganish maqsadida yaratilgan ikki yoki ko'p tilli tarjima lug'atlari.

Har uch tipga mansub lug'atlar ham ona tili, shuningdek, xorijiy tillarni o'rganish maqsadida yaratilgan lug'atlar bo'lib, ularda til o'rganish orqali milliy madaniyat, ma'naviy qadriyatlarni ham singdirish ko'zlanganini kuzatish mumkin.

Ma'lumki, kichik yoshdagagi bolalar uchun mo'ljallangan har qanday nashr, u lug'at bo'ladimi, badiiy asar bo'ladimi, odatda, faqat tushuntirish emas, ko'rsatishni ham maqsad qilib oladi va ko'p hollarda rasmi bo'ladi. Shu bois bolalar uchun mo'ljallangan lug'atlar oldiga ikkita vazifa – ham tushuntirish, ham ko'rsatib izohlash vazifasi qo'yiladi. Ana shu vazifadan kelib chiqib bu yoshdagagi bolalar uchun yaratilgan lug'atlarning aksariyati ensiklopedik xarakterga ega bo'ladi.

XX asr oxirlarida rus tilida yaratilgan bolalar ensiklopediyalari ta'sirida o'zbek tilida ham "U kim. Bu nima" nomli ilk bolalar ensiklopediyasi[4] yaratiladi. Mustaqillik yillarda ushbu kitob "Mo'jiza kitob"[3] nomi bilan qayta ishlangan va to'ldirilgan holda "O'zbekiston" nashriyotida chop etiladi. Annotasiyada ta'kidlanganidek, lug'atda barcha materiallar sodda va omma-bop tilda ifodalangan bo'lib, mavzu jihatidan turli bo'limlarga ajratilgan. Shunisi e'tiborliki, kitobdagi ma'lumotlar muayyan tizim asosida bolaning dunyoni idrok qilish qobiliyatiga, yosh xususiyatlariga muvofiq tarzda tartiblangan.

Ensiklopedik lug'atlarda asosiy maqsad so'z emas, balki muayyan tilda shu so'zdan anglashilgan tushuncha uchun asos bo'lgan narsa, tarixiy voqeа, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, tabiiy hodisalar, shaxslar, geografik nomlar haqida umumiy ma'lumot berishdan iborat bo'ladi. Bu esa ensiklopedik lug'atlarning muayyan millat madaniyati, ma'naviyati, e'tiqodi, urf-odatlari, umuman, millat qiyofasini aks ettirish bilan birga umummadaniy qadriyatlarni ham aks ettirishning muhim vositasi ekanini ko'rsatadi.

O'zbek tilida maktabgacha yoshdagagi va boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan va bevosita o'zbek milliy madaniyati, ma'naviyati mushtarakligi ifodasi aks etgan lug'atlarning paydo bo'lishi yaqindan kuzatila boshladi. Miraziz A'zamning 2016 yilda nashr etilgan "Ming bir so'zni bilaman"[2] deb nomlangan rangli-bezakli lug'atini til, madaniyat, ma'naviyat mushtarakligi aks etgan bolalar lug'atining nisbatan mukammal namunasi sifatida ko'rish mumkin.

Lug'atda nafaqat adabiy tilda mavjud bo'lgan so'zlar, balki mahalliy shevalarda qo'llanadigan so'zlar ham izohini topgan bo'lib, misollar keltirishda xalq og'zaki ijodi namunalaridan o'rinli foydalanilgan:

## ADA

Ada shevaga xos so'z bo'lib, ko'p shahar va qishloqlarda, jumladan, Toshkentda ham bolalar dada (ota)sini **ada** deb chaqiradi. Ayollar esa erlarining ismini aytib chaqirmay, hurmat yuzasidan bolalarning tilidan **adasi** deb chaqiradi.

*Bola: – Ada, hormang,  
Ishga bormang.  
Mani ko taring,  
“Oh” obering! (Bolalar qo’shig’i) (5-6-bet)*

Til tufayli millat va elatlarning madaniyati, urf-odatlari saqlanib qoladi. Bolalarga yoshligidan ona tilining leksik sathi, grammatik qurilishi, ilmiy me’yorlarini o’qitish barobarida millat madaniyati, urf-odati, rasm-rusumlari, tabiat va boshqa jihatlar o’rgatib borilar ekan, til va u orqali millatning yashab qolishiga erishiladi.

Bolaning xalqimizning boy ma’naviy, madaniy, tarixiy merosi, milliy qadriyatlariga sodiq, ma’naviy-axloqiy barkamol bo’lib o’sayotgani uning nutqida aks etadi. Bola ruhiyatida o’zini qurshab turgan olaming lisoniy manzarasi gavdalana boshlaydi. Tabiat hodisalari, hayvonot, o’simliklar olami, ijtimoiy hayotdagi turli voqeа-hodisalar, ommaviy axborot vositalari tomonidan uzatilayotgan xabarlar, kattalar tomonidan o’qib berilgan yoki bevosita o’zi o’qiyotgan jahon va o’zbek adabiyoti, xalq og’zaki ijodi namunalarida izohtalab so’z va jumlalarga duch keladi.[1]

Ma’lumki, bolaning ilk yoshlaridan jonli tabiat, o’simlik va hayvonot dunyosi bilan tanishib borishi, atrof-olam haqidagi tasavvur va taassurotlarini tasvirlashida rang nomlarini bilishi muhim rol o’ynaydi. YU.Tursunovaning 5-7 yoshli bolalarga mo’ljallangan “Rangin olam” o’quv lug’ati ranglardan to’g’ri foydalanishga, turli narsalar yoki tabiat hodisalarini tasvirlash uchun muvofiq rang tanlash, tabiat go’zalligidan bahramand bo’lish, fasllarning o’zgarishi bilan bog’liq tabiatning turli rangga kirishi, o’simliklar dunyosi, mevalarni tasvirlashga o’rgatishda muhim rol o’ynaydi. Lug’atda rang nomlariga izoh berish bilan birga, xalq orasida ular anglatgan ramziy belgilariha ham ishora qilinadi:

**Qizil** – qon, qulupnay, pomidor rangi. Qizil rang inson hayotidagi eng kuchli hayajonni ifodalaydi. Shuningdek, qizil tartibsizlik, inqilob, mavjud tartib-qoidalarga bo’ysunmaslik, ularni rad etish alomati hamdir. Bu rang muhabbat ramzi ham hisoblanadi.

### **POMIDOR**

*Barglar ostidan boqsam mo’ralab,  
Uzgingiz kelar, tongdan saralab. [5]*

Ma’lumki, garchi xalq tilida rang nomlarining bir qator turlari uchrasa-da, hozirgi o’zbek tilida ularning aksariyati faol ishlatilmaydi. So’zlashuvda ranglarni o’zlashma so’zlar, xusan, ruscha nom bilan atash an’anaga aylangan. Mazkur lug’atda ilk yoshlaridan bolalarning ranglarni tanishi, ularning nomlarini to’g’ri qo’llashga o’rganishi uchun mahalliy shevalardagi variantlari ham keltirilib, adabiy til manbalaridan misollar ilova qilingan:

O’quv lug’atlarining antropostentrik yo’naltirilganligi madaniy-ma’naviy barkamol, kommunikativ faol, jismonan va aqlan sog’lom avlodni tarbiyalash bilan bog’liq barcha zamonaviy talablarni hisobga olgan holda ularning muqobil lingvodidaktik modellarini ishlab chiqishni shart qilib qo’ymoqda. Bunday lug’atlar ustida ishlash maktabgacha yoshdagi bolalar va boshlang’ich sinf o’quvchilarida:

– ona tilida, qolaversa, xorijiy tillarda muloqot madaniyatini shakllantirish, jamiyatning turli qatlamlariga ijtimoiy moslashish;

– o’z ustida muntazam ishlash jarayonida jismoniy, ma’naviy, ruhiy, intellektual va kreativ fikrlashga o’rgatish;

– umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli, vatanga sodiq, insonlarga mehr-oqibatli bo’lish, badiiy va san’at asarlarini tushunish ko’nikmalarini shakllantirish;

– milliy-madaniy me’yorlar, o’zini tutish, kiyinish madaniyatiga va sog’lom turmush tarziga amal qilishga o’rgatish bilan bog’liq ko’nikmalarni shakllantirishga olib keladi.

## **Adabiyotlar**

1. Bahriddinova B.M. Olam mening nigohimda. Toshkent: Til va adabiyot ta'limi, 2018. 6-son. - B. 31-32.
2. Miraziz A'zam. Ming bir so'zni bilaman: Bolalar uchun rasmiy izohli lug'at. - Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2016. - 200 b.
3. Mo'jiza kitob: Bolalar uchun universal ensiklopediya. Uch jildlik. (Tuzuvchi N. Nikolaeva) – T.: O'zbekiston, 1998. 1-jild. 686 b.; 2-jild. 607 b.; 3-jild .685 b.
4. U kim. Bu nima. Bolalar ensiklopediyasi. 3 tomli. Toshkent, O'zbek Sovet Ensiklopediyasi Bosh redakstiyasi, 1987.
5. Tursunova Y. Mening birinchi lug'atim. Rangin olam. Maktabgacha yoshdag'i bolalar uchun rangli-bezakli o'quv izohli lug'at. Qarshi: Nasaf, 2019. 32 b. – B.14

## **INTERACTION OF LANGUAGE AND CULTURE AS AN ACTUAL ISSUE OF SOCIOLINGUISTICS**

**F. Mamatova,  
PhD NUU**

*Abstract.* This paper deals with one of the issues of sociolinguistics such as interaction of language and culture. Since last decade studies on interrelation of cultural and linguistic phenomena formed a number of multidisciplinary trends in science as linguoculturology, ethno linguistics, cognitive linguistics and sociolinguistics. Problems of sociolinguistic studies have showed that language units, especially culturally marked ones are interpreted variously in the language by native speaker and by non-native speaker who is not thoroughly aware of a culture of a foreign language. Here arises a problem of misunderstanding between speakers that is considered linguistic, cultural and social problem. Approaches to study this issue, researches, and opinions of scientists are provided in this article. Majority of ideas and opinions claim that studying language and culture in the level of sociolinguistics reveals not only problems but also their solution

*Keywords.* Sociolinguistics, culture, language, interaction of language and culture, ethnic, multidisciplinary, language and society.

Language is considered to be an attribute of a social life and has an important value for the sphere of cognition, education, upbringing and human communication. The issue of interaction of language and culture has resulted in the emergence of new branches of science that are based on the principle of multi-disciplinarity.

According to A. Maye is a founder of a number of socioolinguistic theories that a language exists independently and possesses individual character. He defines linguistics as a social science. He argues that sociality of a language defines linguistic changes and only those newly introduced are fixed in the language, in general, might be learned by society. Maye puts forward the problem of multidisciplinary connections of sociology and linguistics. Previously, in Eastern-European countries and in the USA the main issue was Bloomfield theory which considered that linguistics deals only with an ideal speaker and listener. However, a number of scientist proved that a language is autonomous and referred to other social sciences as sociology, ethnography, anthropology.

Studies of P. Lafarga, G. Tard are of great importance in the development of sociolinguistics, but did not obtain a proper consideration. G. Tard defines the language as

logical arrangement that is pre-presented for social human. According to him<sup>121</sup> a language is rich in words and sentences. However, this understanding of the language is schematic because of the socio-psychological approaches of a researcher.

There have been expressed a great number of opinions, ideas about the nature of a language and its reflection on various spheres of life. Boduen de Kurtene in his works saw social features of a language and wrote as following “Language should be based not only on individual psychology but also on sociology”<sup>122</sup>. Thus, interactive character of sociolinguistics is expressed in the conceptual framework used by it. For example, the language community that is regarded to be the primary concept of sociolinguistic research is defined on the base of a social and language indication. Language emerges simultaneously with a nation and is considered to be its creation, as well as a part of an original thinking of a nation<sup>123</sup>. A.v.Humboldt remarked as following: “A language is a breath, soul of a nation”<sup>124</sup>

The process of juxtaposition of various cultures are reflected in lexical borrowings. Since language picture is a whole, global image of the world which is the result of the whole spiritual activity of a human. It occurs in the process of all contacts with the world<sup>125</sup>.

Conclusion. Today in the development of linguistics there have been tendencies of loss of trust to the official associative approach. Sociolinguistics is a unique code about how people use the language in order to create, express and prove their needs. A study of social factors impacting on language is in the research frame of sociolinguistics. It assists to penetrate into the nature of a language and reveal its conditions of functioning in the society. It in its own turn, interrelation of language and culture demands from sociolinguistics to approach the issue specifically, as language reflects culture of a nation and makes sociolinguistic studies variable which means that it is correct to consider cultural peculiarities of nation's the language of which is studied.

### References

1. Бодуэн де Куртенэ И. А. О смешанном характере всех языков. Избранные труды по общему языкознанию, т. I. М., 1963. С.384
2. Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. М.: Прогресс, 1984. С.507.
3. Маслова В. А. Введение в когнитивную лингвистику: учеб. пособие. – 3-е изд., испр. М.: Флинта: Наука, 2007. С. 296
4. Tarde, G. (1974). Social laws: An outline of sociology ( H. C. Warren, Transl.). New York: Macmillan. (Original work published 1899), pp 118-122

## ONA TILI DARSALARIDA YOZMA SAVODXONLIKNI OSHIRISHDA “ORFOGRAFIK ESTAFETA” METODIDAN FOYDALANISH USULLARI

*Sh.Abdullayeva  
Toshkent vil. Maktab o'qituvchisi,  
S.Nazarova, o'qituvchi*

Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini oshirish kelgusi taraqqiyotimizning asosi bo'lib, bu haqda birinchi Prezidentimizning “Yuksak ma’naviyat-yengilmas

<sup>121</sup> Tarde, G. (1974). Social laws: An outline of sociology ( H. C. Warren, Transl.). New York: Macmillan, pp 118-122

<sup>122</sup> Бодуэн де Куртенэ И. А. О смешанном характере всех языков. Избранные труды по общему языкознанию, т. I. М., 1963. С.384

<sup>123</sup> Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. М.: Прогресс, 1984. С.507.

<sup>124</sup> ibid

<sup>125</sup> Маслова В. А. Введение в когнитивную лингвистику: учеб. пособие. – 3-е изд., испр. М.: Флинта: Наука, 2007. С. 296

kuch”asarida keltirilgan “Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda xalqimizning ertangi kuni qanday bo’lishi farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq”<sup>126</sup> degan fikrlarini ta’kidlab o’tsak, maqsadga muvofiq bo’ladi.

Shuningdek, ta’lim tizimiga shiddat bilan kirib kelayotgan innovatsiyalar, pedagogik texnologiyalarning ta’lim beruvchi tomonidan o’zlashtirilib va qo’llanilib borilishi, o’qituvchining o’z ustida tinimsiz izlanishini talab qiladi. O’qituvchi dars jarayonida o’z o’quvchilarini fanga ijodkorlik nuqtayi nazari bilan qarashlarini tashkil qilishi, ularda izlanuvchanlik xususiyatlarini shakllantirishi va albatta, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlardan foydalangan holda darsni tashkil etishi kerak bo’ladi.

Ona tili fanidan dars mashg’ulotlarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylanib bormoqda. O’quvchilarni darsga qiziqtirish va ularning diqqatini bir maromda ushlab turish har doim ham oson kechavermaydi. Buning uchun o’z mahoratiga suyangan holda pedagogik texnologiyalardan foydalanish yaxshi natijaga erishishga yo’l ochib beradi. Ana shu maqsadni amalga oshirgan holda o’quvchilarning yozma nutqini oshirishda “Orfografik estafeta” metodidan foydalanish usuli haqida to’xtalib o’tamiz.

“Orfografik estafeta” kichik maktab yoshidagi bolalar bilan ishlashning qiziqarli shakli bo’lib, u o’quvchilarda mantiqiy tafakkur qobiliyatini rivojlantiruvchi guruhlarda ishslash ko’nikmasini, shuningdek xotirani rivojlantirish imkonini beradi. U intensiv o’qitish bilan bir vaqtda bolalardagi harakat ehtiyojini ham qondirishga sharoit yaratadi<sup>127</sup>. Orfografik estafeta an’anaviy aytib turib yozdirish maqsadida, “an’anaviy” diktantga o’xshamay erishish imkonini beradi.

O’qituvchiga kerak bo’ladigan materiallar:

- a) diktant matni;
- b) qog’oz varag’i, ruchka, qizil siyohli ruchka bir kichik guruuhga bittadan;
- c) g’oliblarga yutuqlar bo’lishi mumkin.

1.Mashqning borishi:

O’qituvchi o’quvchilarni 3 ta guruuhga ajratadi. Ularning har birida o’quvchilar quyidagilarni tanlaydilar:

- a) yozuvchi (har bir guruuhga bitta);
- b) yuguruvchilar (1-3 ta);
- c) musahhih (har bir guruuhda bittadan).

O’qituvchi sinfdan tashqarida, 10-30 metr masofada (masalan, yo’lak oxirida) diktant matni yozilgan doskani osib qo’yadi.

2.Har bir guruuh o’z joyiga ega bo’lib, shu joyda yozuvchi va musahhih o’tiradi.

3.Mashq o’qituvchi ishorasi bilan boshlanadi. Guruhning vazifasi yozuv taxtasidagi matnni bexato ko’chirib yozishdir.Yuguruvchilar yozuv taxtasi yoniga yugurib boradilar, yozuv taxtasidagi yozuvni o’qiydilar va yozuvning mumkin qadar ko’proq qismini eslab qolishga harakat qiladilar. Yozuvchilar yuguruvchilar eslab qolib aytgan matnlarini yozadilar. Musahhih (xatolarni tekshiruvchi) yozuvchi butun matnni yozib bo’lgach, uni tekshiradi, xatolari bo’lsa to’g’rilaydi. Tayyor matn o’qituvchiga tanishtiriladi.

Bu metodni qo’llash jarayonida 3 kishilik (1ta yozuvchi, 1 ta musahhih, 1-yuguruvchi) guruhlar tuziladi. O’qituvchi guruhlarni shunday tuzishi kerakki, guruhlar darajasida katta nomutanosibliklar bo’lmasligi kerak. Diktant matni yaxlitligicha eslab qolish oson bo’lishi uchun (10-12 ta gaplar) bo’lishi kerak.

Diktant matni quyidagicha bo’lishi mumkin:

<sup>126</sup> Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch”.-T.: “Ma’naviyat”, 2008. -61 b.

<sup>127</sup> Musayeva M. va b. Ta’lim jarayonida qo’llaniladigan interfaol metodlar. –T., 2016. –B.105.

### *Bir tup oq o'rik<sup>128</sup>*

*Har yili bahor kelganda qishlog'imizdagi Qumri xola va ularning hovlisidagi bir tup oq o'rik yodimga tushadi. Shoxlari osmonga tutashib ketgan oq o'rikning mevasi tuxumday katta va oppoq, butun dunyo bolalariga yetgudek edi.*

*Butun yoz bo'yи Qumri xolanikidan odam arimasdi. Xolaning Erkin degan o'g'li allaqaysi institutda o'qirdi. Bolalar xolaning jon-u dili edi.*

*Ilk bahorda xola sumalak pishirardi. Uning katta o'chog'ida chirsillab o't yonar, doshqozonda sumalak qaynardi. Qozon atrofida chug'urlashayotgan bolalar Qumri xolaning qo'shiq va ertaklarini jon qulog'i bilan tinglashardi. Ehtimol shuning uchun ham Qumri xolaning sumalagi bizga totli tuyulardi.(92 so'z)*

Yoki:

### *Vatan<sup>129</sup>*

*Vatan- keng va ko'p miqyosli tushuncha. Vatanostonadan boshlanadi. Vatan sen yashab kelayotgan, ulg'ayayotgan uy, ota-onang, aka-ukang, opa-singillaring, hovlidagi daraxt, har kuni non yopiladigan tandir. Vatan- katta-kichik to'ya keladigan, azada jamlanadigan, chollari guzarda gurunglashadigan, machitlaridan azon eshitiladigan qadrondon mahalla.*

*Vatan- paxta rejasi sal ilgariroq bajarilsa, boshing osmonga yetadigan viloyat. Vatan-tuprog' idan oltin unuvchi,tog'larining boshi ko'kka yetgan, bog'-bo'stonga to'la O'zbekiston.*

*Vatan-biz yashab turgan kurayi-zamin. Besh barmoq bir bo'lsa musht bo'ladi. Kim g'araz va adovat bilan tajovuz qilsa, ta'zirini berishadi.Neki yumush, neki mushkul ish bo'lsa osongina hal etadilar.O'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, turkman-besh barmoqqa qiyos. Islom Karimovning: "Bu aziz Vatan, ko'hna Turkiston barchamizniki", -deyishlari shunga joizdir.(114 so'z)*

Yuguruvchilarining vazifasi matnni eslab qolish hisoblanadi (matnni qismlarga ajratish va sinfdan bir necha marta chiqishga ruxsat etilmaydi). Musahhihlar matnning to'g'ri yozilganligini tekshirish uchun, yozuvchi yozgan diktant matnnini yozuv taxtasidagi yozuvga qiyoslab tekshiradilar, xatosi bo'lsa qizil ruchka bilan to'g'rileydilar. Ko'pincha birinchi mashq davridayoq, o'quvchilar topshiriqni yuguruvchilar yaxshi sportchi bo'lganlar emas, balki matnni yaxshi eslab qolish qobiliyatiga ega bo'lganlar guruhi yaxshiroq bajarishini bilib oladilar (kerak bo'lsa mashq natijalarini muhokama qilishda o'qituvchi ularga savollar berib, shunday xulosaga kelishga undashi zarur).

Bundan tashqari guruhi yozuvchilarining tartibsiz yozishlariga yo'l qo'ymaslik kerak. Ilk sinov estafetalarida mashqning davomiyligini cheklash lozim. Estafeta musobaqasini guruhlarning aksariyati ishini yakunlaganda tugallash lozim.

Mashqlar vaqtida o'qituvchi asosiy xavfsizlik choralarini ta'minlashi kerak. Ham yo'lakda, ham sinfda o'quvchilar uning nazorati ostida bo'lislari kerak. Estafetadan keyin foydalanishlarda o'qituvchi o'zining tajribasidan kelib chiqqan holda diktant matnnini muntazam ko'paytirib, ayni bir vaqtida o'yin qoidalariga o'zgartirishlar kiritish lozim.

O'quvchilarini guruhlarda bo'lislarning usullari ko'p. Estafeta birinchi bor o'tkazilar ekan, o'qituvchi guruhlar darajasi nisbatan bir xil bo'lisliga harakat qilishi kerak. Vaqt kelib, guruhlarda o'quvchilar soni 3 tadan ortiq bo'lganda, guruhlarni to'g'ri bo'lislarning ahamiyati ortib bor-ganda, guruhlarni qurra tashlash orqali bo'lislarni kiritish mumkin. Guruhlarni mustaqil tashkil etilishiga yoki guruhnini o'qituvchi tanlagan yetakchilar tomonidan tashkil etilishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

<sup>128</sup> Tojiboyev Y. va b. Diktantlar to'plami.5-9-sinflar uchun. – T.: O'qituvchi, 2001. - 44 b.

<sup>129</sup> Tojiboyev Y. va b. Diktantlar to'plami.5-9-sinflar uchun. – T.: O'qituvchi, 2001. - 43 b.

O'quvchilarni baholash va taqdirlash usuli o'qituvchi fantaziyasi va ishtiyoqiga havola. O'qituvchi o'zining ichki imkoniyatidan kelib chiqqan holda o'quvchilarini rag'batlantirishi mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, biz yuqorida fikr yuritgan metodimiz kichik yoshdag'i o'quvchilarni erkin fikrlashi, yodda saqlab qolishi, mushohada yuritishi, yozma va og'zaki savodxonligini oshirishda bahamjihatlik bilan harakat qilishga undaydi. Ona tili ta'limida "Orfografik estafeta" kabi musobaqa darslarini o'tkazishdan maqsad o'quvchilarning darsda olgan bilimlarini sinab ko'rish, o'zaro munozara- muloqot jarayonida til imkoniyatlaridan foydalana olish, nutqiy mahorat, tez va aniq fikrlash darajasini, muammoli vaziyatlardan chiqa olish malakasini baholashdan iboratdir. Musobaqa darslari o'quvchilarda faollik, topqirlilik, zukkolik fazilatlarini shakkantiradi, ularni mustaqil ijodiy fikr yuritishga odatlantiradi, zarur va foydali ko'nikmalarni hosil qilishga yordam beradi<sup>130</sup>. Yana shuni alohida aytishimiz mumkinki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyatda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Mahmudov N. va b. Ona tili. 5-sinf uchun darslik. -T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020.
3. Musayeva M. va b. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan interfaol metodlar. – T., 2016.
4. Tojiboyev Y. va b. Diktantlar to'plami. 5-9-sinflar uchun. – T.: O'qituvchi, 2001.
5. To'xliyev B. va b. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – T., 2006.

### **QACHONGACHA “AYLANIB O'TAMIZ”!**

(Til ta'limidagi savodxonlik muammolari)

*Sh.Toshmirzayeva, S.Majidova  
XTVTFFIDUM oly toifali  
o'qituvchilar*

Ona tili ta'limida talaygina yaxshi o'zgarishlar sodir bo'lyapti, darsliklar tubdan isloh qilinmoqda. Grammatik mavzular kamaytirilib, o'quvchining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan matn bilan ishslashga alohida diqqat qaratilmoqda. Ammo grammatik qoidalarni yaxshi o'zlashtirmay turib, nutqiy savodxonlikni o'stirish haqida gapirish o'rinsiz. Ulug' do-nishmand bobomiz Farobiy "Grammatika odamlar nutqini to'g'rileydi, har doim xatolar kelib chiqishi mumkin bo'lganda tilning o'chovi vazifasini bajaradi"- deb qayd etgandi.

Ko'pincha "Nega hozirgi yoshlар savodsiz bo'lib ketyapti?"- degan savolni berishadi. Televideniyada, ko'cha-ko'ydagи yozuvlarda ko'plab imloviy, uslubiy, tinish belgilari bilan bog'liq xatolarga duch kelganda e'tibor bermaymiz. Lekin farzandlarimizni o'qituvchilaridan ham avval mana shu xatolarga to'la yozuvlar tarbiyalab qo'yayotganini o'ylab ham ko'rmaymiz. Misol, *mehmonhona, xarakat havfsiz "Biz ochildik", sotilayapti, harid qiling, orzuyingizdagи uy, shahrimizning obro'yi* kabi.

Demak, 1-navbatda ommaviy axborot vositalaridagi, reklama va e'londargi xatolarni tuzatish va ular ustidan qat'iy nazorat o'rnatish lozim. Bu haqda ko'p gapirildi, lekin amaliy

<sup>130</sup> To'xliyev B. va b. o'zbek tili o'qitish metodikasi. -T., 2006. -46 b.

natija bo‘lmayapti. (Ko‘chalardagi yozuvlarning aksariyati xorijiy tillarda berilishi ham tilimiz rivoji, savodxonligining o‘sishiga zarba berayotgani alohida masala)

Ikkichidan, tilimizdagi ayrim so‘zlar, tinish belgilarining qo‘llanilishidagi har xilliklar ham savodxonlik darajasining pasayishiga sabab bo‘lmoqda.

Biz, o‘qituvchilar, ba’zan o‘quvchilarimizning imlo xususidagi ba’zi savollariga javob topolmay qolamiz. Chunki hanuz ba’zi nazariy tushunchalar talqinida har xillik seziladi yoki ular haqida zarur ma’lumotlar berilmagan. Jumladan, ***o*, *i*, *o'*, *e*** unlilari bilan tugagan ba’zi so‘zlarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda bitta y tovushi ortadi. *Mavzuyim*, *avzoying*, *obro'yim*, *mavqeyi* kabi. Lekin ***orzu*, *insho*** so‘zlariga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda talaffuzida y orttirilsa ham yozuvda ***orzum*, *inshong*** kabi yoziladi. E’tibor bersak, mana shu hodisa o‘quvchilar imlosida bir so‘zning ***orzum*, *orzuyim*, *orzuim*** shaklida turlicha yozilishiga sabab bo‘lmoqda. Mana shu har xillik teleko‘rsatuvarlar titrida ham uchraydi. Ularni ham yuqoridagi so‘zlar kabi “y” orttirib fonetik yozuv tamoyilida yozsak bo‘lmaydimi? ***Obro'*** so‘zi ham uchinchi shaxsda ikki xil shaklda uchraydi ***obro'yi*** va ***obro'si***.

Imlo qoidalarining 35-bandiga, ya’ni I, II shaxs egalik qo‘shimchalari qo‘shilganda y tovushi ortadigan so‘zlar qatoriga ***nido*, *fido*, *sado*, *xato*** so‘zlarini qo‘shishni ham o‘ylab ko‘rish kerak.

Har xil yozilishi bilan ham o‘qituvchi, ham o‘quvchilarni qiynayotgan so‘zlardan biri ***manba*** so‘zidir. ***Manbai-manbayi-manbasi***. Qay biri ma’qul?

Imlo qoidalarida aytilganidek, ***k*, *q*** bilan tugagan so‘zlarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda bu tovushlarning ***g*, *g'*** ga almashishini bilamiz. Lekin shunday so‘zlarga- ***u*** yuklamasi qo‘shilsa, qanday yoziladi?

Masalan, ***yuridik-u jismoniy shaxslar***. Bizning fikrimizcha, ***u*** yuklamasining chiziqcha bilan berilishini hisobga olib, yozuvda tovush almashmagani ma’qul.

**Sentabrmni yoki senyabrmni?** O‘zlashma so‘zlar tarkibidagi undoshdan keyin kelgan ***e*, *ya*, *yu*** harflari lotin yozuvida hali-hanuz ikki hil yozilyapti. Hatto lug‘atlarda ham har xilliklar kuzatiladi. Maktab darsliklarida ***sentabr***, ommaviy axborot vositalari va itimoiy tarmoqlarda ***sentyabr*** shakllarini korgan o‘quvchi qay birini tanlasin? ***Budget*, *sujet*, *parashut*, *rejissor*** kabi so‘zlarning yozilishi ham qat’iy nazariy qoidani va shu qoidalar asosida yangi imlo lug‘atlari tuzishni talab qiladi.

### Oybeklarmi? Oybeklarmi?

(Ko‘plik qo‘shimchasining uslubiy vazifalaridan biri atoqli otlarga qo‘shilganda umumlash-tirish ma’nosini hosil qilishdir. Bunday so‘zlar ba’zi darsliklarda (maktab darsliklarida emas) Kichik harflar bilan yozilishi aytilgan. Masalan, 10-sinf ona tili darsligida (43-44 bet) nazariy ma’lumotda ***-lar*** shakli umumlashtirish ma’nosini bildirganda so‘z bosh harf bilan yozilgan. ***Alpomishlar maydonga tushdi***. Mashqlarda esa ***oybeklar bayrog'in ko'taraylik balandga*** gapida so ‘z kichik harflar bilan yozilgan…

Lekin 6-sinf ona tili darsligida berilgan quyidagi gapda ***-lar*** qoshimchasini olgan ot uslubiy ma’no bildirmoqda va u qay shaklda yozilishi kerak? Misol :

**Sodda gapmi, qo‘shma gapmi?** Gaplarni tuzilishiga ko‘ra sodda va qo‘shma gapga ajratishda shakllangan kesimlar soni ahamiyatli ekanligi ma’lum. Kesimni shakllantiruvchi grammatik ko‘rsatkichlar sifatida zamon, shaxs-son, mayl, tasdiq-inkor shakllari bosh mezon hisoblanadi. 8-sinf ona tili darsligi (2019)ning qayta nashrida ravishdoshning ***-guncha*** shakli ham kesimni shakllantirib, qo‘shma gap hosil qiladi deyilgan. Masalan, ***Bolta tushguncha, to‘nka dam olar***.

Ravishdoshning ***-gach*** shakli-chi, u faqat hol vazifasini bajaradimi? Avvalgi darsliklarda bu shaklning ham kesim vazifasini bajarishi aytilgan edi. Masalan, ***Rahima kelgach*, *Sanobar ov-qatga olov yoqdi***. E’tibor bersak, har ikkala gapda ham ravishdosh bilan ifodalangan bo‘lakning

egasi mavjud. Lekin ularning birinchisi qo'shma gap, ikkinchisi esa sodda gap deb qaraladi. Shu o'rinda hol bilan kesim muammosi tinish belgilarining qollanilishiga ta'sir ko'rsatadi. Agar ikkinchi gapda ***kelgach*** so'zi hol bo'lsa vergul qo'yilmasligi kerak, ***kelgach*** kesim vazifasini bajarsha, sodda gaplar vergul bilan ajratiladi. Ko'rindiki, ravishdosh shakllarining kesim vazifasida kelishiga aniqlik kiritish lozim.

Ona tili ta'limida yechimini kutayotgan bu kabi muammolar anchagina. Qachongacha biz o'qituvchilar o'quvchilarimizning imloga oid ba'zi savollariga aniq javob topolmay "aylanib o'tamiz". Olimlar, amaliyotchilar birgalikda zudlik bilan imlo qoidalarini takomillashtirish masalasini hal qilishimiz, lug'atlardagi har xillikni bartaraf etishimiz va bu loyihalarni Senatga tavsiya qilishimiz lozim.

Zero, ilm ham, ta`lim ham aniqlikni sevadi.

## O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI O'QITUVCHILARINI TAYYORLASH MUAMMOLARI

*R. Mahmudov, GulDU  
professori, f.f.n.*

Mamlakatimizda unvonlar juda ko'p. Lekin bularni ichida eng katta obro'-e'tiborga sazovor bo'lgani o'qituvchilik, ustozlik unvonidir. O'qituvchilik, ustozlik eng yuksak unvon. Ammo hamma diplomi borlar ham bu unvonga munosib ko'rila vermaydi. Ayni, mamlakat taraqqiyotini ta'minlovchi barkamol, komil, yetuk insonlar maktabda bilim, ta'lim, tarbiya orqali shakllantiriladi. Shuning uchun ham o'qituvchidan qaysi fan bo'yicha mutaxassis bo'lishidan qat'iy nazar katta mas'uliyat, bilim, savodxonlik zarur bo'ladi. Boshqa biron ta fan mutaxassislikni kam-sitmagan holda aytish mumkinki, o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchisining mas'uliyati niyatda katta.

Ona tili – millatning ruhi, til – davlat timsoli, mulki – deydilar donishmandlar. Til – millatning faxri, g'ururi, qiyofasining birligini uning tarixi haqida ma'lumot beruvchi vosita sanaladi. Til – millatning boyligi, tunganmas xazinasi, ko'zgusidir. Til – har bir millat madaniyatning oynasidir. Adabiyotshunos Sultonmurod Olim aytganlaridek, til – barcha fanlarni o'qish, uqish, o'zlashtirish vositasidir.

2019-yil 22-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Farmonga muvofiq 21 -oktyabr yurtimizda "**O'zbek tili bayrami kuni**" deb belgilandi<sup>131</sup>. [1.1]

Mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarining nofilologik yo'nalishlarda o'zbek tili, o'zbek adabiyoti, notiqlik san'ati va nutq madaniyati fanlarini o'qitish zarurligi ko'rsatib o'tilgan.

2020-yil 30-sentyabr kungi tantanali marosimda Prezidentimiz "O'qituvchi va murabbiylar – yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir", – dedilar. "Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi". Mamlakatda o'qituvchilar mehnat qilishadi. Fan o'qituvchilari ichida o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilariga ancha og'ir. Chunki O'zbek tili barcha fanlarni o'qitishda- tushuntirishda kerak bo'ladi. O'zbek tilini, o'zbek adabiyotini yaxshi bilmaydigan har qanday o'qituvchi o'z fanini o'quvchilarga yaxshi tushuntirib bera olmaydi. Matematika, fizika, ximiya, biologiya xatto jismoniy tarbiya darslarida ham o'qituvchilarga o'zbek tilini puxta bilish zarur bo'ladi. Afsuski, o'rganishlar ko'plab o'qituvchilarda savodsizlik mavjudligini ko'rsatmoqda. O'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchilaridan diktant olinganda

<sup>131</sup> Мирзиёев Ш. Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқенини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги фармони. 2019 йил 21 октябр.

sakson foizdan ortig‘i qoniqarsiz baho olganlar. Maktabda o‘n yildan buyon faoliyat yuritayotgan o‘zbek tili va adabiyot fani o‘qituvchisining matematika fani o‘qituvchisiga “Ozod Sharofiddinovning g‘azallar, she’rlar kitobini olib kelib bering” deganini qanday tushunish mumkin? Afsuski, Ozod Sharofiddinovni adabiyotshunos olim, tanqidchiligin bilmagan ona tili va adabiyot o‘qituvchisidan nima kutish mumkin. Universitetning – tuproqshunoslik yo‘nalishi 1-kurs talabasini umuman o‘qish u yoqda tursin harf tanimasligini qanday tushunish kerak? Fidoyi, mehnatsevar, vijdonli, imonli, diyonatli o‘qituvchilar ko‘pligini e’tirof etgan holda savodsiz o‘qituvchilar ham yo‘q emasligini unutmaslik zarur.

Prezidentimiz “O‘zbekistonda yangi uyg‘onish davri, ya’ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o‘zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik”,<sup>132</sup> [2.1] dedilar. Bu ulug‘ niyatni, maqsadni amalga oshirish uchun birinchidagi galda savodxonlikka e’tiborni qaratish zarur. Ikkinchidan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari mas’uliyatini tubdan qayta ko‘rib chiqish kerak. Uchinchidan, boshlang‘ich sinflarda faqat mutaxassislar faoliyat ko‘rsatishi shart. To‘rtinchidan, maktablardagi qarindosh-urug‘chilik, tanish-bilishchilikka, korrupsiya chek qo‘yish kerak. Beshinchidan, boshlang‘ich sinflarda va barcha sinflardagi Ona tili va adabiyot darslari faqat, an’anaviy dars shaklida olib borilishiga e’tibor qaratilishi zarur. Oltinchidan, mamlakatimizning 125 ta oliy o‘quv yurtida ona tili va adabiyot fani o‘qitilishi shart. Yettinchidan, oliy o‘quv yurtlarining barchasida “Notiqlik san’ati va nutq madaniyati” fani<sup>133</sup> [3.1] o‘qitilishi kerak bo‘ladi. Chunki barcha o‘qituvchilar, ziyolilar notiq bo‘lishi kerak.

#### *Takliflarim:*

1. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni ijrosini ta’minalash uchun maktablardagi Ona tili va adabiyot fani dars soatlarini ko‘paytirish kerak.
2. Barcha oliy o‘quv yurtlarida kirish imtihonlariga ona tilidan diktant olishni qo‘sish kerak.
3. Ona tili va adabiyoti fani ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimiga aloqadorligini hisobga olib, oliy o‘quv yurtlaridagi barcha mutaxassislar savodxonligini oshirish maqsadida bu fanni hech bo‘lmasa 20 soatdan o‘qitish zarur.
4. Prezidentning 2019-yil 21-oktyabrdagi farmoni ijrosini ta’minalash maqsadida barcha nofilolgik yo‘nalishlarda “Notiqlik san’ati va nutq madaniyati” fani o‘qitilishini tashkil qilish kerak.

### **Adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh. O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. 2019 yil 21 oktyabr.
2. Mirziyoyev Sh. O‘qituvchi va murabbiylar – yangi O‘zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir”. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 2020 yil, 1 oktyabr. № 38. 1-bet.
3. Mahmudov R. Notiqlik san’ati va nutq madaniyati. Darslik. Toshkent, 2020. 140-bet.

<sup>132</sup> Мирзиёев Ш. Ўқитувчи ва мураббийлар – янги Ўзбекистонни барпо этишда катта куч, таянч ва суюнчимиздир. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2020 йил, 1 октябр. № 38. 1-бет.

<sup>133</sup> Mahmudov R. Notiqlik san’ati va nutq madaniyati. Darslik. Toshkent. 2020, 140 bet.

# **ПРОБЛЕМЫ СОВРЕМЕННОГО СОСТОЯНИЯ ДЕТСКОЙ ИГРОСФЕРЫ**

**Ж.Темирова,  
Бух.Г.У**

Игры в системе деятельности человека образуют особый пласт культуры, неразрывно связанный с его развитием. Передаваемый из поколения в поколение опыт игрового освоения человеком мира создает условия, которые развивают человека как личность, формируют способы индивидуального познания бытия.

В этой связи традиционные игры отражают этику, эстетику, менталитет народа, стирают грань между этнически самобытным и общечеловеческим. В современных условиях дети становятся носителями и творцами традиций игровой культуры. Детские игры являются столь же живыми и разнообразными сегодня, как и когда-либо прежде. Современная детская традиция, ориентированная на ускоренное воспроизведение и быстрое увеличение способствует тому, что дети, передавая игры от одного поколения к другому, приспособливают их к потребностям меняющейся окружающей среды. Дети задумывают новый дух времени и пробуют выразить его в новых играх, которые затрагивают интерес, волнуют, бросают вызов и предлагают возможности для развития. Дети лояльны к традициям и в то же самое время обладают талантом для того, чтобы создать новое, чтобы сделать их культуру живой. Через традиции игры дети способны жить вне времени, здесь и теперь, вне статуса ограниченности, слабости, невежества и бессилия [1]. Игровой фольклор детства функционирует для детей так же, как искусство для взрослых, упорядочивая непрерывный поток и хаос жизни, придавая им форму, образ и значение. Традиционная детская игра тесно связана с конституцией субъективности, обеспечивая развитие, которое стремится к взаимопроникновению ребенка и социальной окружающей среды через формы поведения, которые должны быть приняты и персонализированы.

Но современное социальное пространство изменило способы передачи игровых традиций, основными носителями и «хранителями» которых являются дети, формы обмена игровым опытом, когда живые игровые контакты заменены виртуальными, исключающими непосредственное общение играющих. В условиях жесткого социального контроля со стороны родителей и учителей изменилось их отношение к игре в соответствии с воспитательными задачами общества. Игра, как атрибутивная характеристика детства, была переведена в ведущую сферу деятельности взрослых, создающих современную «игровую цивилизацию». Что послужило источником разрушения традиционных детских игр, их естественного развития. Создавая игрушечный мир для детей, взрослые, с одной стороны, содержательно, функционально и идейно расширяют ассортимент игрушек, с другой стороны, переносят на игрушку свои идеалы, фантазии и желания.

Организация производства и продаж игрушечных брендов, ориентированных на детей как потребителей товара, меняет их отношение к предметам внешнего мира. У детей вырабатывается стремление к постоянной смене игрушек. Обладание ими рассматривается как символ престижа [2].

Существенное влияние на состояние игровой культуры современного детства оказывают и цивилизационные, социальные, социально-педагогические факторы, такие как: индустриальная революция, урбанизация, смена типов социальных отношений, ориентация на индивидуальные ценности, демографические изменения, новые информационные технологии.

Еще одним существенным фактором, влияющим на изменение современной игросферы, является организация игровой деятельности детей в условиях образовательных

учреждений. Ситуацию ученые характеризуют как кризис игровой культуры, сопровождающийся распадом сюжетно-ролевой игры, стереотипизацией игр в ролевых зонах, замыканием игры в рамках жесткой игровой традиции, снижением игровой инициативы детей, часто сводимой к бессюжетному манипулированию игрушками [3].

Часто возможности игры ограничены опасениями взрослых за безопасность детей: сокращается количество доступных мест для игры, свободная игра заменена услугами помощи детям.

Все это лишило детей возможности для положительных опытов игры в условиях детского сада и начальной школы; способствовало утрате значения свободной игры, благодаря которой детские игры и ритуалы передавались от старших детей к младшим.

Претерпели значительные изменения характер и содержание свободных форм игровой деятельности детей и подростков вне образовательных учреждений и вне контроля взрослых. Так игровой репертуар современных детей и подростков характеризуется как обедневший. Традиционные игры обнаруживают тенденцию к стремительному исчезновению. Под влиянием масс-медиа изменились характер и содержание ролевых игр, сократился репертуар обрядовых игр, исчезли дворовые игры, уменьшилось количество игр с правилами, подвижных игр. Они вытеснены дидактическими и компьютерными играми или телепередачами. Практически исчезли из детского репертуара традиционные элементы игр, такие как зачины, считалки, утрачиваются или деградируют традиционные формы и тексты детского фольклора. Самодельные рукотворные игрушки вытеснены коммерческими игрушками глобального игрушечного рынка.

Исходя из вышесказанного, можно сделать вывод, что современные условия жизни снизили естественные способы передачи традиций от старшего поколения к младшему; игровые традиции преимущественно передаются в пределах поколения детей. Дети не знают больше, как играть; традиционные игры исчезают, а современные - полны агрессии.

### **Литература**

1. Лойтер С. М. Феномен детской субкультуры. – Петрозаводск, 1999. - 43 с.
2. Развитие личности в контексте традиций игровой культуры: Автореф.дисс....д-ра псих.наук. – М., 2007. – 47с.
3. Эльконин Д.Б. Основные вопросы теории детской игры // Психология и педагогика игры дошкольника. – М.,1966. - С.11-37.

## **SHAVKAT RAHMONNING “SULAYMON TOG’I ETAGIDA O’YLAGANLARIM” SHE’RINI O’RGANISH USULLARI**

*F.Abdujabbarova,  
TDPU dots., f.f.n.*

### **Annotatsiya**

Hozirgi kun talabi bo`yicha adabiy ta’lim tizimida o’qtishning eng samarali usullardan fo’ydalanish o’quvchilarning badiiy adabiyotga qiziqishini rivojlantish, ularning dunyoqarashida mustaqil fikrlash va xulosa qila olish kabi jihatlarni shakllantirish maqsadida Shavkat Rahmonning “Sulaymon tog’i etagida o’ylaganlarim” she’rining o’qitish usullari ishlab chiqilgan.

**Kalit so’zlar:** matn, band, tekstual, yashirin ma’no, muqaddas qadriyatlar, ko’chma ma’nolar, didaktik.

### **Annotation**

Current requirements of literary education to Use best practices to develop an interest in literature among students, for example, the possibility of concluding the prospects for their independent thinking and form aspects Shavkat Rahmon, "Reflections at the foot of Mount Suleiman" developed methods of teaching poetry.

**Keywords:** *text, verse, textual determine the hidden meaning, sacred values, didactic, figuratively.*

Shavkat Rahmonning "Sulaymon tog'i etagida o'ylaganlarim" she'rini o'rganishga ajratilgan bir soatning biror daqiqasini ham boshqa narsaga sarf qilmay, to'g'ridan-to'g'ri asar matni bilan tanishish va uning tahliliga kirishish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda o'qituvchi tomonidan yoddan ifodali qilib o'qilgan she'r matni katta ahamiyat kasb etadi.

Ulkan samimiyat bilan yozilgan bu go'zal asar shunda o'quvchilarining ham tafakkuri, ham ko'nglidan joy oladi. Ma'lumki, o'quv tahlili o'quvchilar bilan o'qituvchining birgalikdagi faoliyatidan iborat bo'ladi. Doim ular matn ustida hamkorlikda ish olib boradilar. Demak, o'qituvchi o'quvchilarini matnga qiziqtirib, ularni tahlil jarayonidagi o'z sheriklariga aylantirishi kerak bo'ladi. Buning uchun bolalarning ko'ngliga cho'g' tashlashi, har satri zamiridagi ma'noni topish sari yo'naltirish zarur.

She'r hajman kattagina bo'lishiga qaramay, uning bandlari shiddatli musiqiylikka ega bo'l-gani, she'rda shoirning ulkan samimiyyati ufurib turgan uchun ham mazmunan, textual, ya'ni matnga tayanib tahlil qilish asar mohiyatini anglash nuqtai nazaridan ham, o'quvchilarida vatan tarixidan, uning shonli o`tmishidan iftixor, ota yurtga muhabbat singari ezgu axloqiy sifatlarini shakllantirish jihatidan ham maqsadga muvofiq bo'ladi. She'rda Vatan va millat timsoli juda yorqin bo`yoqlarda, uzoq tarixga qilingan xayoliy sayohat tasviri asosida mahorat bilan aks ettirilgan. U tarixiy bosqichlarning shunchaki sanoqlaridan iborat emas. Asarda shoirning yoniq qalbi aks etgan.

"*Sulaymon tog'i etagida o'ylaganlarim*" she'rining tahlili birinchi bandning ilk misralariga o'quvchilar e'tiborini tortishdan boshlanishi kerak:

Diyonatli, orli ajdodlar  
Bu haybatli toshlar tagida  
Biror lahza xayol surmasdan  
Soxta shuhrat tama haqida<sup>134</sup>

O'qituvchi o'quvchilarga bu misralarda Shoirning o'z ajdodlari sha'niga ta'zim bajo aylamojni niyat qilgan, ularning buyukligi va kamtarligini aks ettirish naqadar mashaqqatli va mas'uliyatli ekanligini anglatgach, ular e'tiborini bandning keyingi qatorlariga qaratib:

Yasharkanlar yurtda sargardon  
Kezarkanlar g'urbatda yoxud  
Sulaymon tog' poyiga bir kun  
Ko'milmakni qilganlar orzu

Bandni tahlil qilish topshirig'ini berishi kerak. Shunday qilinsa, o'quvchilar muallimning fikrlarini tinglab, ularni ma'qullovligi dars ishtirokchilari emas, balki shu saboqning faol ijrochilariga aylanishga majbur bo'lishadi. Ya'ni asar matni anglatgan yashirin ma'nolar haqida o'lay boshlaydilar.

Sulaymon tog' poyiga bir kun  
Ko'milmakni qilganlar orzu

<sup>134</sup> Shavkat Rahmon. Sulaymon tog'i etagida o'ylaganlarim. Adabiyot. 7-sinf. – Toshkent, 2009

Bundan ne ne alloma o'tgan,  
Ne jahongir, nechalab shoir  
misralari xususida o'ylab ko'rishga undaladi.

Ma'lumki, ko'milmak - o'lmoq ma'nosini bergen. Ammo nima uchun uni orzu qilish kerak? Bu misralar yashirgan ma'noni: sha'n, or, vatanparvarlik tushunchasini qanday anglash mumkin? Shu kabi savollarga javob topish asnosida o'quvchilarining yodiga darrov buyuk vatandoshlarimiz siymolari, ular haqidagi tarixiy ma'lumotlar tushishi tabiiy. Keyin bolalardan buyuk yurtdoshlarini sanab o'tishlari so'raladi. O'quvchilar axborot vositalaridan bilganlari, tarixdan o'rgangan ma'lumotlariga tayangan holda, ularni Shiroq, To'marisdan boshlab, Mirzo Ulug'bek, Bobur, Jalolidin Manguberdigacha bo'lgan allomayu vatan himoyachilari haqida so'zlab beradilar.

She'r yozilgan paytda bu o'lkaning buyuk kishilari dovrug'i uzoqlarga ketganligi sababi ustida ham bolalar o'ylab ko'rishlari joiz. Lekin bunda tarixiy haqiqatdan kelib chiqqan holda, g'ayirlik, ochiq tarafkashlik yo'lidan bormasdan, xolis baholashga o'quvchilarni o'rgatish lozim. Shu o'rinda o'qituvchi tomonidan Shavkat Rahmonning ham ijodkor, ham yurtsevar o`g'lon sifatidagi jasoratiga urg`u berilishi, maqsadga muvofiq bo'ladi:

Biroq aziz tog' toshlariga  
Yozdirmasdan hech birin nomin

satrlarida shoirni bezovta qilayotgan nadomat tuyg'usi ajoddlarga munosib avlod bo'lish mas'uliyati haqida, o'ylab ko'ring" kabi topshiriq berilishi, o'smirlarning muqaddas qadriyatlar, muqaddas joylar haqida qancha ma'lumotga ega ekanliklari aniqlashga, hamda ularda Vataniga bo`lgan mehrini kuchaytirish imkonini beradi.

Ma'lumki, boshlang'ich sinflarda ular ona yurt haqida ancha – müncha asarlar o'qishgan, yodlashgan. So'ng o'qituvchi o'zi bilgamlarni ham sanab beradi. Demak, ota - yurt, ona - Vatan to`g`risidagi she'rlar nima ucnun bitilgani to`g`risida fikrlar to`ldiriladi. Shu fikrlardan keyin, Shoirning

Sulaymon tog'i yuksalib turar,  
Bir elatning buyuk yodiday.  
Xayron bo'lib poyiga bugun  
keluvchilar e'tiqodidan.

Bandiga o'quvchilar e'tibori tortiladi. Bu band tahlilida ziyoratga keluvchi odamlar harakatiga tog'ning xayron bo'lishiga o'quvchilar e'tibori tortiladi. Chunki tog' poyiga borayotganlar o'z nomini tog' toshlariga yozib ketib, soxta shuhratga tama qilayotgan bo'lishlarini tushunmasligi, bu haqda o'ylab ham ko'rmayotganligi, bunday harakatlarni tabiatni asramaslik, ajodolar ruhini qadrlamaslik kabi illatlarni keltirib chiqarayotgani shoirning qalbiga qanchalar o'kinch solganini o'quvchilar tushunib oladilar.

She'rning keyingi bandi tahlili bir oz murakkabroq kechadi.

Bugun kelar istagan kimsa,  
Berib tama ilinjiga berib zeb.  
Nomin yozar tog' toshlarga  
palonchilar kelib ketgan deb

chunki bu bandda o'quvchilar uchun tushuntirilishi zarur bo'lgan "tama ilinji", "palonchilar" kabi so'zlar va ular tashiydigan ko'chma ma'nolar izohlanishi lozim.

Shunday qilinsa, o'quvchilar "Kuzatarkan orsiz, vijdonsiz kimsalardan to'yan kunlarni, bir hayajon, titroqda tuydim yer tagidan kelgan unlarni" satrlarini izohlang tarzidagi topshiriqni bajara oladilar. Ya'ni ular bu satrlar ulug` shoirlar yurtning jamolidan g'ururlanib yozgan she'rlar olamga yoyilganini, shoir ham vatanni ana shu ustozlari kabi sharaflamoqchi ekanini anglab

etadilar. O`quvchilar band oxiridagi: “yer tagidan kelgan unlarni” satriga ham e’tibor qaratishlari kerak. Shunda keyingi bandni izohlashlari osonroq kechadi.

Shoir o`tmishni maqtamoqchi bo`lmasada, lekin yurtning bir sodiq o`g`li sifatida uning tarixini o`ylamasligi ham mumkin emas. Shu sababli shoir xayoli o`tmishga ko`chadi.

She’rda nima deyilayotgani muhim, lekin qanday aytilayotgani undan ham muhimroqdir. Shuning uchun ham Shavkat Rahmonning san’atkorligiga, odamning xotirasidan ko`tarilmaydigan obrazlar yaratish mahoratiga o`quvchilar diqqatini qaratish lozim.

Yuqoridagi didaktik tadbirlarni amalga oshirish asosida “Sulaymon tog`i etagida o`ylaganlarim” she’rini o`rgatishga ajratilgan vaqtning birinchi soati yakunlanadi. Birinchi soat oxirrog`ida o`qituvchi tomonidan tuzilib, barcha o`quvchilarga yetarli miqdorda tarqatmalarga ko`chirilgan savol – topshiriqlar tarqatiladi va ularni bajarishga tayyorgarlik ko`rish uyga vazifa sifatida beriladi. Tarqatmalardagi savol – topshiriqlar bilan tanishib, ularga javob topish mumkin bo`lgan manbalarni ko`rib va belgilab qo`yish ikkinchi mashg`ulotga ketadigan vaqtini bir qadar tejaydi.

Masalan, quyidagicha tarqatmalar tuzilishi mumkin:

#### **1-tarqatma**

Sulaymon tog` poyiga bir kun  
Ko`milmakni qilganlar orzu  
Bundan ne ne alloma o`tgan,  
Ne jahongir, nechalab shoir”

*She’riy parchada shoir e’tibori nimaga qaratilgan ?*

#### **2- tarqatma**

Sulaymon tog`i yuksalib turar,  
Bir elatning buyuk yodiday.  
Xayron bo`lib poyiga bugun  
keluvchilar e’tiqodidan

*bandida “ keluvchilar e’tiqodi ” degan istehzoda nimalar ko`zda tutilgan ?*

#### **3-tarqatma**

Biroq aziz tog` toshlariga  
Yozdirmasdan hech birin nomin

*Tog`- toshlarga nomin yozish buyuk insonlarga nima uchun kerakmas?*

#### **4-tarqatma**

“tama ilinji”, “palonchilar” kabi so`zlar va ular tashiydigan ko`chma ma’nolar izohlang.

#### **5-tarqatma**

*She’rning so`ngi satrlari: “betayinlar nomin ko`tarib, soat sayin o`sar qoyalar” tarzida tugallanishi sababi va badiiy ahamiyati haqida mulohaza bildiring, kabi*

“Sulaymon tog`i etagida o`ylaganlarim” she’rini o`rgatishga bag`ishlangan birinchi darsda o`quvchilar she’r matni bilan yaqindan tanishgan, o`qituvchi rahbarligida uning besh bandini tahlil qilishgan, uyda tarqatmalardagi savol – topshiriqlarga ma’lum darajada tayyorgarlik ham ko`rib kelganligi Shavkat Ravhmonning ushbu asarini o`rganishda darsni interfaol usulda tashkil etish imkonini beradi.

Interfaol usul qo`llanganda, asar matni o`smirlar tomonidan mustaqil ravishda o`zlashtiriladi va tahlil qilinadi. Ehtimol, ularning mustaqil tahlillari kutilganiday chuqur bo`lmasligi mumkin, lekin ilmiy jihatdan unchalar asosli bo`lmasada, mustaqil fikrlashga, o`quv muammosini mustaqil tarzda hal etishga urinishning o`zi katta ahamiyatga egadir.

Zero, o`quvchilarning mustaqil fikrlay boshlashi, o`zlarini ta’limning obyektigina emas, balki ijrochi subyekti deb his etishlari ta’lim jarayoni uchun o`ta qimmatli holdir. Buni, hatto,

maktab ta’limining bosh maqsadi deyish mumkin. Bu haqda Prezidentimiz I.A.Karimov “Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o’rganmasa, berilgan ta’lim samarasi past bo’lishi muqarrar”<sup>135</sup>, - degan edilar.

“Sulaymon tog’i etagida o’ylaganlarim” she’rini o’rganish “Chig’iriq” deb nomlanadigan interfaol usulda tahlil qilinsa, dars samaradorligi yanada oshadi. Bu usulda sinfdagi o`quvchilar besh yoki olti kishilik kichik guruhlarga bo`linadi. Kichik guruuh a’zolarining har biri o`z nome-riga ega bo`ladi. Guruhlarning a’zolari qasidaning qolgan to`qqiz bandi tahliliga qo`llariga berilgan tarqatmalarga tayangan holda kirishadilar. Har bir kichik guruuh tarqatmalardagi topshiriqlarni o`zicha bajaradi, o`z javoblarini tayyorlaydilar.

Barcha kichik guruhlarning tayyorgarligi nihoyasiga yetgach, taqdimot boshlanadi. Shunda o`qituvchi qandaydir bir nomerni, misol uchun, “4” raqamini aytadi. Har bir guruhning 4-raqamli ishtirokchisi o`z guruhining javoblarini taqdim qiladi. Shunday qilinganda, kichik guruhlardagi eng a’lochi o`quvchining har safar taqdimotchi bo`lib qolish xavfi bartaraf qilinadi.

Bir kichik guruhning to`qqiz band yuzasidan beradigan javobini eshitishga ko`p vaqt ketib qolmasligi uchun har bir guruhchadan ikkitadan savolga javob tinglanadi. Qaysi savolga qaysi nomerdagagi o`quvchi javob qilsa, uning javobiga boshqa guruhlardagi ayni shu nomerli o`quvchilar munosabat bildirishlari to`ldirishlari, to`g`irlashlari mumkin. Navbatdagi savollarga beriladigan javob ham shu yo`sinda tinglanadi va muhokama etiladi. Bunday qilinsa, har qanday savolga hamisha javob bera oladigan o`quvchilarga emas, sinfdagi barcha o`smirlarning faollashishiga erishiladi.

Kichik guruhlarning taqdimoti tugagandan so`ng o`qituvchi javoblarni umumlashtiradi, kichik guruhlarni baholaydi, asarning e’tibor qaratilishi kerak bo`lgan jihatlariga qo`shimcha ravishda to`xtaladi. Bir kishi bergen javobga qarab bir kichik guruhdagi barcha o`quvchilarga bir xil baho qo`yilishi juda muhimdir. Bu hol o`quvchilarda o`zaro hamkorlik tuyg`usini shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiy ta’limning “Chig’iriq” usuli kichik guruhlardagi barcha o`quvchilarning qo`yilgan muammo yuzasidan barcha savollarga ham doim tayyor turishlarini ta’milashi, intellektual imkoniyat va psixologik faolligi turlicha bo`lgan o`quvchilarni faolashtirishga qaratilganligi bilan samara keltiradigan metoddir.

Xulosa qilib aytganda, Shavkat Rahmon ijodiy izlanishlarining yetakchi pafosi, azaliy va bosh maqsadini Vatan mavzusi tashkil etadi. Shoir she’rlarining ichki ruhiyatini tushungan o`quvchi ko`ngli tabiiy ravishda yurtdan g`ururlanish, fidokorlik, ona diyorga yaqinlashish hissiyotlari bilan boyiydi.

## ESKI O’ZBEK YOZUVI DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH USULLARI

*Sh.Egamova,  
TDPU dotsenti, f.f.n.;  
O.Danabekov, TDPU talabasi*

Mustaqillik yillarda xalqimizning qadimiy tarixi va boy madaniyatini tiklash, buyuk allomalarimiz, aziz-avliyolrimizning ilmiy, diniy va ma’naviy merosini har tomonlama chuqur o’rganish va targ’ib etish, muqaddas qadamjolarini obod qilish, yosh avlodni ularning ezgu an’analari ruhida tarbiyalash bo’yicha ulkan ishlar amalga oshirildi va izchil davom ettirilmoqda.

<sup>135</sup> Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. – T.: Sharq, 1998. B.33.

Keyingi paytlarda hayotimizda biz kutmagan o'zgarishlar ro'y bermoqda. 2017-yil 24-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror<sup>136</sup>ni imzoladi. Qarorda keltirilgan sharhda tushuntirilishicha, hujjat yosh avlodni vatanparvarlik va tarixga chuqur hurmat ruhida tarbiyalash hamda O'zbekistonning jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan mamlakat sifatidagi xalqaro obro'-e'tiborini yanada mustahkam-lash, boy yozma merosni saqlash, o'rganish va keng targ'ib qilish ishlarini yangi sifat bosqichiga ko'tarishga yo'naltirilgan.

Ma'lumki, jumuriyatimiz mustaqillikka erishgandan keyin hayot bizni madaniy meros tomon to'la burilishga undadi. Bizning boy madaniy merosimizning asosiy qismini uzoq yillar davomida yaratilib bizgacha yetib kelgan arab yozuvidagi qo'lyozma va toshbosma asarlar tashkil etadi. Eski o'zbek yozuvida bitilgan boy, adabiy, ilmiy merosimizni o'rganish tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanining oldida turgan eng muhim va dolzarb masalalardan biri sanaladi. Shu maqsadda o'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishida eski o'zbek yozuvi fanining o'qitilishi boy adabiy merosimizni o'rganishda juda muhim qadam sanaladi. Talabalarga eski o'zbek yozuvini o'rgatish bu soha bo'yicha malaka va ko'nikma hosil qildirishda amaliy ahamiyatga ega. Chunki bo'lg'usi talaba tilimiz va adabiyotimiz taraqqiyotini tahliliy o'rganmasdan yetuk mutaxassis darajasiga yetishishi mumkin emas.

So'ngg yillarda ta'lim tizimiga shiddat bilan kirib kelayotgan yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsiyalar, yangi-yangi pedagogik-psixologik tushunchalar, interfaol metodlarni ta'lim beruvchi tomonidan o'zlashtirib va qo'llanib borilishi ta'lim mazmunini tubdan o'zgartirib yubordi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bugungi tez o'zgaruvchan iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy hayot o'quvchi yoshlar dunyo-qarashini shakllantirishda yangi pedagogik interfaol metodlardan keng foydalanishni taqozo qiladi. An'anaviy mashg'ulotlar olib borish asta-sekin o'z o'rnnini intensiv va interfaol metodlarga, noana'naviy dars o'tish shakllariga bo'shatib bermoqda.

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda biz ushbu maqolamizda eski o'zbek yozuvidagi "↔" shaklidagi harflarni o'rgatishda "BBB" (bilaman, bilmoqchiman, bilib oldim), "VENN" diagrammasi, "Qorbo'ron"<sup>137</sup> kabi metodlaridan foydalanishni maqsad qilib oldik.

"BBB" metodi (bilaman, bilmoqchiman, bilib oldim). Bu usul o'quv adabiyotlari yetarli bo'lganda ulardan oqilona foydalanish va talabaning mustaqil ishlashi, mustaqil fikrlashini ko'zda tutuvchi usul bo'lib yoritilmochchi bo'lgan mavzu talabalarga topshiriladi. Masalan: ↔(be) shaklidagi harflar haqida ma'lumot beriladi:

"Be" harfi o'zbek tilidagi b undosh tovushini ifodalaydi. ↔(be) harfi satr chizig'ida yoziladi<sup>138</sup>. Muttasil harflar sirasiga kiradi, ya'ni yozuvda har ikkala tomonidan keladigan harflarga bog'lanib yoziladi. Shuning uchun to'rt xil yozilish shakliga ega:




Harflar ifodalagan tovushlar	Yozilish shakllari				Harflarning nomlanishi
	So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alohiba holda	
B	↔	↔	↔	↔	Be

Qo'lyozmada:

<sup>136</sup> Mirziyoyev Sh. "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. – T., 2017-yil 24-may.

<sup>137</sup> Musayeva M.E. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan interfaol metodlar. - T., 2016. B.63.

<sup>138</sup> Ashirboyev S. va b. Eski o'zbek tili va yozuvi praktikumi.-T., 2006. 17-bet.




alohida	so'z oxirida	so'z o'rtasida	so'z boshida
			

لб батер ктаб ктаб брна мктб Абад пап пар арбап паш абрар

پ(pe) harfi forslar tomonidan kiritilgan harflarning birinchisi hisoblanadi. Bu harf o'zbek tilidagi p undosh tovushini ifodalaydi. پ(pe) harfi satr chizig'ida yozilib, uning nuqtalarigina satr chizig'idan pastga tushiriladi. Muttasil harflar sirasiga kiradi, ya'ni yozuvda har ikkala tomonidan keladigan harflarga bog'lanib yoziladi. Shuning uchun to'rt xil yozilish shakliga ega.

Harflar ifodalagan tovushlar	Yozilish shakllari				Harflarning nomlanishi
	So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alovida holda	
P	پ	ڦ	ڻ	ٻ	Pe

Qo'lyozmada:



alohida	so'z oxirida	so'z o'rtasida	so'z boshida
			

کوپ پختе آپاک ایپاک تاپ پاک

Masalan: ماسالан: ت(te) harfi o'zbek tilidagi t undosh tovushini ifodalaydi. Muttasil harflar sirasiga kiradi, ya'ni yozuvda har ikkala tomonidan keladigan harflarga bog'lanib yoziladi. To'rt xil yozilish shakliga ega:

Harflar ifodalagan tovushlar	Yozilish shakllari				Harflarning nomlanishi
	So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alovida holda	
T	ٿ	ڻ	ڻ	ٿ	Te

Qo'lyozmada:

alohida	so'z oxirida	so'z o'rtasida	so'z boshida
			

تخت توت مكتوب بخت آنت توش مملект тон تаш

Masalan: ماسالан: ش(se) harfi arabcha so'zlarga xos. ش(se) harfi satr chizig'ida yoziladi. Tish oralig'i s undosh tovushini ifodalaydi. Demak, o'zbek tiliga faqat arab tilidan kirib kelgan so'zlardagina ishlataladi.

Se harfi ustki va ostki tishlar o'rtasida talaffuz qilinadi. Bunday tovush o'zbek tilida mavjud emas. U arab tiliga xos tovushni ifodalaydi. Uning artikulyatsiyasida til uchini tishlar orasiga shunday joylashtirish kerakki, u yuqoridagi tishlarga mahkam jipslashib tursin. Shunda til uchi bilan pastki tishlar orasida kichik tirqish qoladi. Nutq a'zolarining shunday holatida چе fonemasi kuch bilan talaffuz qilinadi. Muttasil harflar sirasiga kiradi, ya'ni yozuvda har ikkala tomondan keladigan harflarga bog'lanib yoziladi. Shuning uchun to'rt xil yozilish shakliga ega:

Harflar ifodalagan tovushlar	Yozilish shakllari				Harflarning nomlanishi
	So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alovida holda	
S	ش	ش	ش	ش	Se

Qo'lyozmada:

alohida	so 'z oxirida	so 'z o 'rtasida	so 'z boshida

Masalan:

شبات نشر اثر شمره

Yozuv taxtasiga ko'rinarli qilib quyidagi jadval qo'yiladi:

Bilaman	Bilmoqchiman	Bilib oldim

Talabalar yangi mavzuni o'zlashtirish jarayonida ushbu jadvalni to'ldirib ketadilar. O'qituvchi talabalar mavzuni o'zlashtirib bo'lganlaridan keyin iloji boricha ko'proq talabalardan yuqoridagi jadvalning bilmoqchiman grafasi bo'yicha fikrlarini so'raydi va berilgan fikrlarni yozuv taxtasidagi jadvalga yozib boradi. Fikrlar yozib bo'lingandan keyin ushbu grafa bo'yicha talabalar tushunmagan manba o'qituvchi tomonidan tushuntirib beriladi.

O'tkazilish tartibi:

1-qadam: Katta qog'ozga yoki yozuv taxtasiga BBB jadvali chiziladi.

2-qadam: ب (be) shaklidagi harflar haqida nimalarni bilasiz? degan savol qo'yiladi va juftlik yoki kichik guruhlarda birinchi ustunni to'ldirish uchun aqliy hujum o'tkaziladi.

3-qadam: Butun guruh o'quvchilarining fikrlari jamlanib birinchi ustunga yoziladi.

4-qadam: Ikkinchi ustunga shakllantirilgan savollar yoziladi (butun guruh ishtirokida).

5-qadam: Yangi ma'lumot beriladi (o'qituvchi tomonidan og'zaki, ko'rgazmali usulni qo'llagan holda yoki talabalar berilgan matnni mustaqil o'qiydilar). Jumladan quyidagi matnni berish maqsadga muvofiq:

بو آزاد دور. او باتردور. آزاد سرداش دوستدور. باتر آزاد تاش آتور. بو بازاردور . اوшибو بازار آباددور. آزاد و بازار باریشدى . آپاسى اويدا آش پېشىرور آتاسى انار اوزار ايردى<sup>139</sup>.

6-qadam: a) yangi ma'lumot o'rganib chiqilgandan so'ng o'quvchilar e'tibori ikkinchi ustunda aks ettirilgan yozuvlarga qaratiladi va matnda ushbu ustundagi savollarga olingan javoblar uchinchi ustunga yoziladi;


<sup>139</sup> Ashirboyev S. va b. Eski o'zbek tili va yozuvi praktikumi. - T., 2006. B.19.

b) o'quvchilardan yana qanday qo'shimcha ma'lumotlar olinganligi so'raladi va ular ham uchinchi ustunga yoziladi;

c) dastlabki bilimlar yangi olingen bilimlar bilan taqqoslanadi va tahlil qilinadi;

d) javobsiz qolgan savollar bo'lsa, o'qituvchi ular yuzasidan ma'lumotni qaysi manbalardan olish mumkinligini aytib o'tadi.

Eski o'zbek yozuvini o'rgatishda "VENN" diagrammasidan quyidagi usulda foydalanamiz. Venn diagramma –grafik ko'rinishda bo'lib, olingen natijalarni umumlashtirib, ulardan bir butun xulosa chiqarishga, ikki va undan ortiq predmetni (ko'rinish, fakt, tushuncha) tahlil qilish va organishda qo'llaniladi<sup>140</sup>. Diagramma ikki va undan ortiq aylanani kesishmasidan hosil bo'ladi.



Masalan:

Maqsad: to'rtta tushunchani taqqoslashda, turli va umumiylarini aniqlashda bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdir.

1-bosqich. Talabalar (sheriklari bilan) to'rt doirani to'ldiradilar, har bir doiraga to'rt tushunchani e'tiborli tomonlari sanab o'tiladi.

2-bosqich. Talabalarni kichik guruhlarga (4-5 kishidan iborat) birlashtirib, diagrammalarni taqqoslaymiz va to'ldiramiz.

3-bosqich. Kichik guruh talabalariga bu tushunchalarning umumiylarini xossalarini aniqlashni taklif etamiz.

4-bosqich. Biron bir guruh vakili har bir tushunchaning o'ziga xos tomonlaarini o'qiydi. Boshqalar zarurat bo'lganda uni javobini to'ldiradilar.

5-bosqich. Boshqa guruh vakillari to'rtta tushunchani birlashtiruvchi (umumiyl) xususiyatlarni o'qiydi. Boshqalar zarurat paydo bo'lganda bu javoblarni to'ldiradilar.

**"Qorbo'ron" metodi.** Metod mashg'ulotning o'zaro musobaqa ko'rinishida tashkil etilishini ta'minlaydi. Uni qo'llashda talabalar mavzu yuzasidan tezkor, asosli to'g'ri fikrlay olishlari lozim. Metodni qo'llash quyidagi tarzda kechadi:

- O'qituvchi muhokama uchun tanlangan “ б (be) shaklidagi harflarning imlosi” mavzusini e'lon qiladi;
- Oqituvchi talabalarni metodning mohiyati, shartlari bilan tanishtiradi;
- Talabalar to'rt guruhga ajratiladi;
- O'qituvchi guruhlarning e'tiboriga mavzu bo'yicha tuzilgan savollarni havola qiladi:

Masalan: 1) б (be) haqida ma'lumot bering va misollar keltiring. 2) п (pe) harfining imlosi haqida ma'lumot bering va misollar keltiring. 3) т (te) harfining imlosi haqida ma'lumot bering va misollar keltiring. 4) ч (se) harfining imlosi haqida ma'lumot bering va misollar keltiring.

<sup>140</sup> Musayeva M.E. Ta'lif jarayonida qo'llaniladigan interfaol metodlar. - T., 2016. B.102.

- Guruhlar o'qituvchining savollariga birinchi bo'lib, to'g'ri javob topishga harakat qiladi;
- Guruhlarning har bir to'g'ri javobi yumaloqlangan qor ko'rinishida ularning hisobiga yozuv taxtasida yozib boriladi;
- Barcha savollarga javob topilgach guruhlar tomonidan to'plangan ballar umumlash-tiriladi va g'olib jamoa (guruh) aniqlanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, hozirgi davr o'qituvchisi o'ta bilimli, izlanuvchan va o'quvchilarni o'z faniga qiziqtira oladigan darajada, yuqoridagi islohotlarga amal qilgan holda, bir-biriga o'xshamagan rang-barang dars o'ta olishi, o'quvchilarga bilim berayotganda interfaol usullaridan darsning qaysi bosqichida qanday turidan foydalana olishi kerakligini bilishi lozim.

### **Adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh. "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. – T., 2017-yil 24-may.
2. Ashirboyev S. va b. Eski o'zbek tili va yozuvi praktikumi. - T., 2006.
3. Musayeva M. va b. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan interfaol metodlar. - T., 2016.
4. Xalilov L va b. O'qish kitobi. - T., 1994.
5. Jumaniyozov R. Eski o'zbek yozuvi. – T., 1989.

## **MUMTOZ VA ZAMONAVIY ADABIYOT MUAMMOLARI**

### **AHMAD TABIBIYNING AXLOQIY-MA'RIFIY QARASHLARI**

*J.Mahmudov,  
O'zMU dotsenti, f.f.n.*

Xiva xoni Muhammad Rahimxon soniy – Feruz saroyining maliku-sh-shuarosi va saroy tabiblarining boshlig'i (hakimboshi) – Tabibiy taxallusi bilan mashhur Ahmad bin Hoji Ali Muhammad XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlari Xorazm adabiy muhitining eng yirik va sermahsul shoirlaridan biridir. U o'zining forsiy devoni debochasida nom va naslu nasabini to'liq holatda quyidagicha keltiradi: “Ammo ba'd durdno'shi mayxonai iftiqor va mastu madhushi paymonai inkisor va majnunu siyna chok dashti malomatu mahzunu g‘amnok kishvari malolati muhibbu ishq va muhabbat, asiri balovu mehnat, nazm... Kamtarin bandahoi Maliku-l-Ahad – Ahmad almutaxallas bit-Tabibiy ibni Hoji Ali Muhammad g‘affarollohu taolo zunubahuma va satara uyubahuma, chunin ma'rudi hol dar miyon ni ahli fazlu kamol medorad ki... (Ammo ba'd, faqirliq mayxonasining durdno'shi, siniqlik paymonasining mastu behushi, malomat dashtining yoqa choku majnuni, malolat kishvarining g‘amnoku mahzuni, ishq muhabbat Shayxdosi, mehnatu balolar asiri... Maliku-l-ahad sifatlik zotning kamtar bandalaridan, Tabibiy taxallusli Ahmad ibn Hoji Ali Muhammad g‘affarollohu taolo zunubahuma va satara uyubahuma (Alloh ularning gunohlarini kechirsin va ayblarini yopsin) fazlu kamol ahli orasida o'z ahvolini shunday arz qiladiki...”<sup>141</sup>

Ahmad Tabibiy o'z davrining peshqadam ma'rifatparvari hamda saroydagi muhim davlat arbobi sifatida jamiyatdagi ko'pgina masalalarga o'z qarashini bildirgan. Beshta devon sohibining g‘azallari, muxammasot va musaddasoti, soqiynama va tarjibandlarida inson va jamiyatning ko'pgina falsafiy masalalariga to'xtalgan. Jumladan, dunyoni anglash, bilish nazariya jihatidan Tabibiy vahdati shuhud tamoyili vakili ekanini quyidagi baytlarida ko'ramiz:

Harchand ki xaddoq nabudem G‘iyosiy,  
Bar nazmi to' taxmis namudem G‘iyosiy,  
To misli Tabib ahli shuhudem G‘iyosiy,  
Al-minnatu lil-lah, ki basudem G‘iyosiy,  
Ruxsora badargohi shahi Yasribu Batho<sup>142</sup>.

Bundan Ahmad Tabibiy irfon ta'limotidagi vahdati shuhud nazariyasi vakili bo'lganini anglash mumkin. Ya'ni, OLAM bus-butunicha Yaratganning borligiga shohid, guvohdir, degan nazariyaga moyil shoir o'z she'rlarida, muxammaslarida ayni shu nazariyani yoqlagan. Jumladan, uning “Tuhfat us-sulton” devonidagi “dol” radifli g‘azalining birinchisi bus-butunicha ana shu qarashni ifodalagan yakpora g‘azal hisoblanadi:

Hama kavnu ham makoni – hama rangi yor dorad,  
Hama zohiru nihoni – hama rangi yor dorad...  
Chi shahu agar g‘aribiy, chi asir yo habibiy,  
Chi mariziyu yo tabibiy – hama rangi yor dorad.

G‘azal bosh mavzusi tabiatdagi butun moddiy va nomoddiy narsalarda Yorning rangi – in'ikosi ekanini ta'qidlash; U hamma yerda hoziru nozir, barcha yaratilmishlar bunga shohid.

<sup>141</sup> ЎЗРФАШИ, тошбосма №58/1. Дебоча.

<sup>142</sup> ЎЗРФАШИ қўлёзма №7083, 1-мухаммаси Табибий бар газали Фиёсий.

“Tuhfat us-sulton” nomli birinchi forsiy devon tarkibidagi 123 ta forsiy muxammaslar orasidan shoirning Eron, Afg'oniston, Hindistonda ijod qilgan shoir, orif va ulamolarga bog'-lagan muxammaslari joy olgan. Muxammaslar orasida Sho'rishi ishq yoki Sho'ri ishq taxallusi bilan she'rilar yozgan afg'onistonlik Shayx Sa'diddin Ahmad bin Mavlono Abdulg'affor bin Mavlono Abdulaziz ibn Mavlono Abdulkarim Sayyid al-Husayniy al-Ansoriy al-Kobuliy g'azaliga bag'ishlangan ikkita muxammas mavjud.

Qo'lyozmaning 260–261-varaqlaridan joy olgan 9 bandlik “8 Muxammas g'azali Sho'rishi ishq” irfoniy-tasavvufiy mavzuda. Irfondagi “vahdat ush-shuhud” ta'limoti asosida yozilgan mazkur she'rning asl g'oyasi “barcha yerda yorning rangi, surati bor” mazmunidadir. (Sa'diy Sheraziyning mashhur “Bargi daraxton ki dar nazari hushyor, Har varaqash daftarisit ma'rifatি kirdigor” baytining mazmunida ayni shu ta'limot g'oyasi ifodalangan).

8-muxammasi Tabibiy g'azali Sho'rishi Ishq  
Suvaru bo'landi pastiy hama rangi yor dorad,  
Sho'xu xumoru mastiy hama rangi yor dorad,  
Chi durustiyu, shikastiy hama rangi yor dorad,  
Chamani bahori hastiy hama rangi yor dorad,  
Mayu, maykada – bakulli hama rangi yor dorad...

Muxammas oxiridagi “Hama Sho'ri ishq boshad, hama nuri ishq boshad” baytiga ko'ra shoirning ikkita taxallus, ya'ni Sho'rishi ishq” va “Sho'ri ishq” taxalluslari bilan ijod qilganini anglaysiz. Endi Sho'rishi ishq taxallusi bilan g'azallar yozgan va devon tuzgan shaxs haqida to'xtalsak. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondi qo'lyozmalari katalogini fors tilida nashrga tayyorlagan rahmatli Shoniyoz Musayevning “Fihresti nusxahoyi xatti osori manzum anstitui sharqshinosi Abu Rayhon Beruniy Farhangistoni ulumi O'zbekiston” kitobida bu shaxs haqida quyidagicha to'liq ma'lumot keltirilgan: 1189. Sho'morai 2131. Devoni Sho'ri ishq. Az Shayx Sa'diddin Ahmad bin Mavlono Abdulg'affor bin Mavlono Abdulaziz ibn Mavlono Abdulkarim Sayyidu-l-Husayniy Ansoriy Kobuliy bo taxallusi “Sho'ri Ishq”. Muallifi osori ziyodi irfoniy-tasavvufiy ta'lif karda ast, ki te'dodi onho dar “Nash'atul-quds” zikr sho'da ast. Dar muqaddimai devon ettilo'oti zindagi shoir, tarixi bar-gashtani az Hind ba Kobul dar soli 1171/1757-58 m. va ash'ori irfoniy-tasavvufiy shomil sho'da ast.

Tabibiy diqqat qaratgan shunday masalalardan yana biri tabiat va jamiyat, inson va tabiat, Inson va jamiyat masalalaridir. Ahmad Tabibiyning 7083 raqamli qo'lyozmasi forsiy devonida ikkita “Musaddasi ba tariqi tazmin” (Tazmin usulidagi musaddas) sarlavhali she'r mavjud. Shulardan biri Sa'diy Sheraziyning “Guliston”idagi quyidagi baytiga bog'langan.

Bargi daraxtoni sabz dar nazari hushyor,  
Har varaqash daftarest ma'rifati kirdgor (Sa'diy. Guliston)

Mazmuni: Daraxtlarning ko'm-ko'k bargi hushyor odam nazdida xuddi har varag'i Yaratuvchi ma'rifatini anglatuvchi daftar kabitidir.

Baytda Sa'diyning Xudo ma'rifatini hushyor odam daraxt barglarida ko'ra oladi, deydi. Bu bilan shoir tabiat va ma'rifat bog'liqligini ifodalagan. Ayni shu mavzuni Tabibiy klassik she'riyatdagi musaddas (oltilik) janri bilan yanada keng yoritadi:

Musaddasi batariqi tazmin (mukarrar) (155<sup>b</sup> – 156<sup>a</sup>)  
Harchand dar in dahri dun hast chunin oshkor,  
Xohiy dar arzu samo karda bas ashyo qaror.

(*Garchi bu dunyoda shu narsa oshkor bo lsa-da, arzu samoda barqaror bo lgan ashyolarning barchasi Vohidi Zul-iqtidor sun'i-san'atining natijasidir.*

So'yi guliston agar soxti nogah guzar,  
Peshu pas to' bako'n az sari ibrat nazar,

(Guliston sari nogoh qadam tashlasang, orqayu oldingga ibrat ko'zi-la boq)

Harchi dar in guliston hast ayon, ey rafiq,

Xohiki neku buvad, xohi bad on, ey rafiq,

(Ey do'stim, bu gulistonda ayonu ravshan narsalar, xoh u yaxshi bo'lsin, xoh yomon, xohi oshkoro, xohi pinhon)

Eyki hamesha to'ro joh maqarr g'aflat ast,

Xo'rdañ to' dar jahon har dam alaz ne'mat ast,

(Ey, senga hamisha g'aflat qarorgoh bo'lgañ, emishing jahonda faqat eng lazzatli ne'matlar bo'lgañ, hurliqolar yuzi senga ulfatu nasib bo'lsa, lekin shuni yaxshi bilginki, daraxtlarning ko'mko'k bargi hushyor odam nazdida xuddi har varag'i Yaratuvchi ma'rifatini anglatuvchi daftar kabidir).

Abdurahmon Jomiyning "Nafohotu-l-uns" asarida shunday keladi: Bir kecha Jomiy tushida farishtalarning havonchalarda turli shirinliklar ko'tarib bir yoqqa borayotganini ko'radi va so'raydi: Bu havonchalarni qaerga olib ketyapsizlar? Javob berishadi: - Sa'diyga. So'raydi: Nega? Javob berishadi: marhamat qilgan birgina bayt she'ri uchun:

Bargi daraxtoni sabz dar nazari hushyor,

Har varaqash daftarest ma'rifati kirdgor.

Andre Jid "Er ne'matlari" asarida shunday deydi: "Har yaratilgan narsada Yaratuvchidan bir nishon bor, ammo hech qaysisi uning rozini ochmaydi". Demak, Sa'diy Sheroziyning mazkur bir bayti Yaratgan ma'rifatini ixcham ifodalagan bayt sifatida, Yaratganning marhamatiga va ulug' zotlarning tahsiniga sazovor bo'lgañ. Ayni shu baytni esa Ahmad Tabibiy yanada rivojlantirgan. Hatto mazkur musaddas devonda ikki marta takroran keltiriladi, bu ham Tabibiyning mazkur baytga bo'lgañ muhabbatidan hamda uning ham xuddi Sa'diy Sheroziy kabi vahdati vujud va uning uzviy davomi bo'lGANI vahdati shuhud ta'limotiga mansub shoir ekanidan dalolat beradi.

**"Munis ul-ushshoq" dagi muxammaslar tahlili.** Shoirning "Munis ul-ushshoq" devonidagi ilk muxammas Qudsiy Sheroziyning g'azaliga bog'langan bo'lib, na't mazmunida. Bu muxammas matni 3264 raqamli qo'lyozmada shunday berilgan:

Ey vujudi tu baiyjodi du olam sababiy,

Hast zoti sharifat zun-nasabiy, zul-hasabiy.

Bajahon hamrahiyi tu omada ayshu tarabiy,

Marhabo sayyidi Makkiyu, Madaniyyu arabiyy,

Dilu jon bod fidoyat ki ajab xush laqabiy...

Zullisonaynlik an'anasi davom ettirgan Tabibiy o'z she'rlarida fors she'riyatining uslublaridan foydalangan. Ma'lumki, fors she'riyatida uchta uslub, ya'ni sabk mumtoz she'riyat uslubi sanaladi. Ulardan birinchisi Xurosoniy uslub, ikkinchisi Iroqiy uslub va uchinchisi Hindiy uslub. Ahmad Tabibiy mana shu uchta uslubdan uchinchisi, ya'ni sabki hindiy vakili bo'lgañ va asosan mazkur uslubda g'azallar bitgan. Dastlab mazkur uslublar haqida to'xtalib o'tsak. Sabki Hindiy haqida internet ma'lumotlarida shunday keltiriladi: "Hind uslubi fors adabiyotidagi she'rlarning bir turi bo'lib, hijriy 9-asr (milodiy 15-asrdan) keyin vujudga kelgan. Hindistonning adabiyot ahliga bo'lgañ iliq munosabati, shuningdek Safaviy podshohlarining maddohona she'rlar turidan yuz o'girgani bois ko'pgina forsiygo'y shoirlar Hindistonga yuzlanishdi va u yerda she'riyatini davom ettirishdi. U erda shoirlar nozik iboralar, ilmu urfon masalalari hamda hind falsafasi va boshqa omillar ta'sirida o'ziga xos uslub yaratishdi va sabki hindiy deb nomlashdi. Ba'zi adiblar bu uslubni isfahoni uslub ham deyishadi. Bu sabk hijriy to'qqizinch asrdan to o'n uchinchi asrgacha davom etdi. Uning o'ziga xos jihatlari nozik iboralar, tashbehtarlar, daqiq ta'rifu tavsiflar, tushunilishi qiyinroq ma'nolar tashkil etadi. Bu uslubning taniqli vakillari quyidagilardir: Kalim Koshoniy, Naziriy Nishopuriy, Urfiy Sheroziy, Abdulqodir Bedil, Soib Tabriziy, G'aniy

Kashmiriy, Tolib Omuliy, Vahid Qazviniy, Sobir Kirmoniy”. Ayni mazkur nomlari tilga olingen shoirlar Tabibiy muxammas bog‘lagan shoirlar orasida keltirilgan. Jumladan, 7083 raqamli qo‘lyozmadagi muxammaslar orasida 103, 121, 122 raqamli muxammaslar “Muxammasi Tabibiy bar g‘azali Kalim” sarlavhali, 73, 80, 119 rafamli qo‘lyozmalar “Muxammasi Tabibiy bar g‘azali G‘aniy” sarlavhali muxammaslardir.

Qudsiy Mashhad – Hoji Muhammadjon Qudsiy Mashhad hijriy qamariy 11-asr (milodiy 17 asr) shoir va so‘z san’atkorlaridan. U dastlab baqqollik bilan kun kechirgan, Ammo shoirlilik bilan tanilgach Hindistoniga ketgan va Shohjahon saroyiga kirgan. Qudsiy Mashhadiydan devon qolgan bo‘lib, 1375 (h.sh) yili (mil. 1996-yil) Firdavsiy nomidagi Mashhad universitetida Muhammad Qahramon tomonidan nashr etilgan. Devondan tashqari uning “Zafarnoma” manzumasi ham bo‘lib, Shohjahonning yurishlari va zafarlari to‘g‘risida yozilgan. Ammo bu kitob qo‘limizga yetib kelmagan. U 1056 (h.q.) da vafot etgan va Kashmir shoirlari qabristoniga dafn etilgan.

Tabibiy Hindistonlik shoirlar ijodini ko‘p o‘qigan va muxammaslar bog‘lagani ko‘rinadi. Shulardan biri Kalim Koshoniydir. Hindistonlik shoir Abu Tolib Kalim Koshoniy (1582 – Hamadon, 1651 Kashmir) ham Shohjahon saroyining malik ush-shuarosi bo‘lgan. Birinchi forsiy devonda unga ikkita taxmis bog‘langan. Yana bir shu davr shoirlaridan biri Mullo Muhammad-tohir G‘aniy Kashmiriy (1608-1688)dir. XVII asrning taniqli fors-tojik shoirlaridan shoirning zamondoshlari Soib Tabriziy va Kalim Koshoniylardir. So‘z san’ati martabasida olim maqomga ega bu shoirlarning G‘aniy taxallusi haqida haqida “Sarvi ozod” tazkirasi shunday keltiriladi: “G‘aniy – shirador ovozga ega bo‘lib, g‘ino (hrgoyi) qilganidan unga shunday taxallus berilgani yoziladi. Uning qabri ham Kashmirdagi Maqbarat-ush-shuarodadir. Demak, yuqoridagi uchta shoir ham Shohjahon saroyining mashhur shoirlari bo‘lishgan va Tabibiy ularning ijodini o‘qib, taxmislari yozgan.

Bulardan yana bir narsa, ya’ni Tabibiyning she’riyatdagi uslubi, “sabki” ham aniqlashadi. Demak, Ahmad Tabibiy she’rlari sabki hindiy - hind uslubida yozilgan.

Mu‘iyn g‘azallariga taxmis ham keltirilgan bo‘lib, bu shoir asli hindistonlik Shayx Mu’iniddin Hasan Sanjar Cheshtiyning taxallusidir. Cheshtiya tariqatining asoschisi (vafoti 633/1236). Uning devoni 919/ VI raqam ostida saqlanmoqda.

Tabibiy zullisonaynlik an’anasini nafaqt o‘zbekcha va forscha so‘zlarni birga qo‘llashda, balki forsiy va arabiylar jumlalar misolida ham namoyon qilgan. U forsiy she’rlarida arabiylar oborotlardan, ibora va so‘zlardan unumli foydalangan. Masalan:

On sho‘x bo nozu ado gar meravad bo har taraf,  
Sabru qaroru toqatu husham shavad yaksar talaf (270/ 1-bayt)

Baytdagi “talaf” – talofat topmoq, yo‘q bo‘lmoq fe’li shoir tomonidan zo‘r mahorat bilan qo‘llangan. Yoki:

Ey dil, takabbur xalqro dar dahr xoriy medihad,  
Gar nazmi to‘ gavhar buvad ahqar kun o‘ro hazaf. (270/11 bayt)

Ayniqsa, shoir muxammaslarida arabiylar iboralardan ko‘p foydalanish, Qur’on va hadislardan iqtibos keltirish hollari ko‘p uchraydi:

Sozand base xizmati tu ko‘yi maloyik,  
Shoyoni qudrati xil’ati “Lav lok, laa amruk”.

Payg‘ambar alayhissalom hadislaridan birida: “man salama min yadayhi va lisanihi, huval-muslim” – Kimniki qo‘lidan va tilidan birovga ozor etmasa, u haqiqiy musulmondir. Buni Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror”da chiroyli o‘xshatish bilan tasvirlaydi. Tabibiy yozadi:

Yak xub nukta guyam, ey sarvi gulbadan,  
K-o‘ behtar ast dar sharaf az gavhari Adan... (2-muxammas)

Xulosa qilib aytganda, Ahmad Tabibiy qarashlarida ayni shu davrning ijtimoiy falsafiy qarashlari ham aks etgan. Demak, Muhammad Rahimxon soniy Feruz davri ijodkorlari, raiyat va fuqaro ko'pincha naqshbandiylik tariqatining mujaddidiya yo'nalishi izdoshlari bo'lishgan.

## **MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARINI YARATILISHIDA ADABIY ALOQALARING O'RNI**

*Hojimatov M.,  
O'ZMU tadqiqotchisi*

XX asr millatlarning o'zligini anglashi va milliy istiqlol tafakkurining shakllanishi, mustaqil davlatchilik tamoyillarining ustuvorlik kasb etishi, yer sharining turli hududlarida mustamlakachilik tizimining barbod bo'lishi oqibatida xalqlarning milliy o'zligini anglashi tom ma'noda yangi bosqichga ko'tarilgani bilan insoniyat tarixida qoladi. Zero, milliy o'zlikni anglash har bir xalq, millat uchun ularni buyuk maqsad yo'lida birlashtiruvchi umummiliy harakat, bayroq kabi kuchli ta'sirga egadir. Bu borada har bir millat bir-biridan yutuq va ijobiy tajribalarni o'rganadi, o'zlashtiradi, shu asosda milliyligini boyitadi.

O'zlikni izlash jarayoni, bu yo'lagini qismat sinovlari odamlarni bir-biri bilan zanjir halqalariday bog'laydi. Shu tariqa turli odamlar taqdiri, xarakteri va qismati tabiat bilan, yer bilan, borliq bilan, yashash ishqini, qiyinchiliklarni yengish ishtiyoqi bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Asl adabiyot ibtido bilan intiho oralig'ida haqiqat va ezzulik, go'zallik va taskin izlagan insonlarning ko'zini ochadigan, o'ziga o'zini va dunyoni tanitadigan, yashashdan maqsadini aniqlab olishga da'vat etadigan qudratdir. Bu qudrat o'quvchini milliy o'zlik, millat va dunyoning boqiyligini eslatib turadigan rishtani topishga undaydi. Inson ruhiyatini manqurtlik, befarqlik, loqaydlik zanglaridan tozalaydi.

Adabiyotlar bir-birlarining ta'sirida rivojlanadi, boyiydi. O'z navbatida, tajribali yozuvchilarining ijodi yoshlar uchun mahorat maktabi vazifasini o'taydi. Shu bois mashhur qirg'iz yozuvchisi Chingiz Aytmatov o'z davrida "Yoshlar faqat o'qishi emas, balki Tolstoy, Avezov, Oybek kabi ulkan san'atkorlarning qimmatli ijodiy tajribalarini mukammal o'rganishi, o'zlashtirishi kerak"<sup>143</sup>, degan edi.

Milliy adabiyotlar ham ming-ming yillar davomida bir-biriga o'zaro ta'sir qilib, bir-birini uyg'otadi. Zero, «..adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor – bu avvalo, xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho'lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo'q»<sup>144</sup>. Bu purma'no so'zlar milliy istiqlol tafakkurining shakllanishida, millat ma'naviy kamolotida, uning badiiy so'z vositasida o'zligini anglashida uyg'oq so'z, adabiyot naqadar muhim o'r'in tutishini ko'rsatib turibdi. Har qanday milliy adabiyotning asosini uning millatga ruh bag'ishlovchi tarixi va tili, milliy qadriyat va an'analari tashkil etadi. Jahon shoirlari, yozuvchilar do'st bo'lib yashasa, ular mansub bo'lgan xalqlar hech qachon bir-birlariga yov nazari bilan qaramaydilar. Milliy o'zlik – xalqimizning moziy sinovlaridan o'tib kelayotgan boy madaniy va ma'rifiy merosi, milliy qadriyatları, urf odatlari va an'analari, ota bobolarimizning mustaqillikka erishish yo'lidagi jasorati, bunyodkorlik ishlari, tafakkur xazinasi, iste'dod va aql zakovati, o'zbekona axloq va burch mas'uliyati bilan sug'orilgan ilg'or g'oyalardan iborat.

<sup>143</sup> Ибраимов О. Чингиз Айтматов. М.: Молодая гвардия, 2018. С.77.

<sup>144</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг «Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир» мавзусида Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси / Халқ сўзи. 2017, 4 август.

Zero, “Chin so‘z, chin tuyg‘u, chin amallarga doimiy intiqlik chin shoirlik belgilardan-  
dir”<sup>145</sup>. Elni hamisha ana shu haq so‘zni aytib, haq yo‘lga boshlaganlar millat darajasiga ko‘ta-  
radi. Bunda hech shubhasiz ijodkorning qalbidagi yurt va millat qayg‘usi, bilim va mahorati,  
yuksak axloqiy darjasи, bir so‘z bilan aytganda bedor shaxs sifatida shakllanganligi muhim  
ahamiyatga egadir. Atoqli adabiyotshunos olim I.G‘afurov ta’biri bilan aytganda, “So‘z, hissiyot,  
fikr uyg‘otishdan tashqari, eng muhimi, inson himoyasiga safarbar etilgandagina umumbashariy  
mohiyat kasb etadi”<sup>146</sup>. Demak, adabiyot, avvalo, inson himoyasi, hayoti, halovati, farog‘ati, bir  
so‘z bilan aytganda uning erku saodati uchun kurashadi.

Ayonki, sobiq ittifoq davridagi qatag‘onlar adabiyotga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Aslida,  
avvalo, millatga yashovchanlik, erk uchun kurashuvchanlik ruhini ato qiluvchi adabiyotning  
azim chinorlari, haq so‘z aytayotgan ijod ahli qatag‘on qilindi. Qatag‘ondan keyingi yillarda  
ma’lum ma’noda milliy o‘zlikni anglash jarayonida ziyolilar, ijodkorlar “sukut” saqlashga  
mahkum etildi. O‘zbekiston xalq yozuvchisi O.Yoqubov o‘z vatandoshlariga “kishan kiyma,  
bo‘yin egma”, deb hayqirgan buyuk Cho‘lpon haqida: “Bir umr o‘z xalqining baxtini ko‘rish  
orzusi bilan yashab, uning erki yo‘lida shahid ketgan ey ulug‘ zot! Sening oldingdagi farzandlik  
qarzimizni qanday uzamiz! Ruhing hamisha shod bo‘lsin!”<sup>147</sup> deb yozgani yodimizda.

Bu davrda sobiq ittifoqning ko‘p millatli adabiyotida tom ma’noda millatlarning o‘zligini  
anglash jarayoni millionlab qalblarda qaytadan alanga oldi. Boltiqbo‘yi respublikalarida  
Eduardas Mejelaytes, Kavkazda Rasul Hamzatov va Qaysin Quliyev, Volga bo‘ylari va Sibir  
kengliklarida Mustay Karim va David Qo‘g‘iltinov, O‘rta Osiyoda esa Chingiz Aytmatov,  
Shukrullo, Shuhrat singari milliy tillarda ijod qilayotgan o‘ktam adiblar maydonga chiqdi. Bu  
boradagi mavjud to‘sinq va tahdidlarni engib, o‘ziga xos yo‘li va uslubi bilan milliy o‘zlik va qalb  
ozodligi borasida dog‘istonlik avar shoiri Rasul Hamzatov birinchilardan bo‘lib qat’iy so‘zini  
aytdi. Uning otashin va yovqur she’riyati millati va elatidan qat’iy nazar har bir ijodkor yuragida  
ona Vatanga bo‘lgan muhabbatni, sevgi-sadoqatni ulg‘aytirdi, milliy g‘urur va iftixorlarini  
baland ovoz ila kuylashga da’vat etdi. Taniqli adabiyotshunos olim N.Shukurov to‘g‘ri ta’kid-  
laganidek, “Rasul Hamzatov asarlari qandaydir o‘z shaxsi, hatto o‘z millati manfaatlari bilan  
cheklangan tuyg‘ular va fikrlar ifodasigina emas, balki XX asr kuchlarining oldingi saflarida  
turgan progressiv insoniyat qalbining aks-sadosidir. Zamondoshlarimizning ezbilik va badbinlik,  
adolat va zulm, ma’rifat va jaholat, muhabbat va nafrat haqidagi o‘ylari, tushunchalari Rasul  
Hamzatov she’rlarida o‘ziga xos milliy ohang, tiniq bo‘yoqlarda ifodalangan. Dunyo miqyosidagi  
voqeа-hodisalarni o‘zining qalb mulkiga aylantirib, chuqur idrok etib, badiiy ifodalash orqali  
uning asarlari umumbashariy ahamiyat kasb etgan”<sup>148</sup>.

O‘z davrida sharq adabiyotidan, xususan, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodidan bah-  
ramand bo‘lib betakror asarlar yaratgan R.Hamzatov, vaqt kelib o‘zbek adabiyotida milliy  
o‘zlikni anglash jarayonlari takomiliga, adabiyotda erk va ozodlik tarannum etilgan asarlar ya-  
ratilishiga o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatdi.

Adabiyotshunos olimlar uning avar adabiyoti bilan birga Dog‘istondagi barcha millatlar,  
qardosh xalqlar xususan Sharq adabiyotidagi she’riy an’analarni o‘zlashtirib, jarangdor she’riyat  
yaratganini ta’kidlaydilar. R.Hamzatovning o‘zi ham “Tarjimonlar menga, birinchi navbatda,  
Geyne, Byorns, Sa’diy, Navoiy, Servantes, Gyote, Dikkens, Longfello, Uitmen va boshqa shoir-

<sup>145</sup> Йўлдошев К. Эзгу сўз умри. Сўз ёлқини. Т.: Faafur Fулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. Б. 86.

<sup>146</sup> Faafurov I. Oltin қозик Т.: Шарқ НМАҚ, 2018. Б.152.

<sup>147</sup> Ёкубов О. Т.: Шарқ НМАҚ, 2019. Б. 36.

<sup>148</sup> Шукуров Н. Лочиннинг парвози / Бу олам саҳнида. Т.: Faafur Fулом номидаги Аадабиёт ва санъат нашриёти, Б.106.

yozuvchilarning asarlarini o'qish imkoniyatini yaratib berishdi. Agarda ularning asarlarini o'qimaganimda, ehtimol, shoir bo'lib voyaga yetmasdim"<sup>149</sup>, deya e'tirof etadi.

R.Hamzatovning qalbida Alisher Navoiy asarlari va shaxsiyatiga muhabbat uyg'onishida uning otasi, Hamzat Sadasaning ta'siri juda katta bo'lgan. Sadasa Sharq adabiyotini yaxshi bilgan, arab tili va alifbosidagi kitoblarni bemalol o'qiy olgan. U 1948-yilda O'zbekistonga kelib, Toshkent va Samarqand shaharlarida o'tkazilgan buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy yubileyi bilan bog'liq tadbirlarda qatnashgan. Dog'istonning Hunzax tumani Sada qishlog'idagi Hamzat Sadasa uy-muzeyida bu haqda alohida ko'rgazmali vositalar qo'yilgani ham buni tasdiqlab turibdi.

Hamzat Sadasa avar xalqining ko'plab purma'no dostonlari, sehrli ertaklarini, afsonayu rivoyatlarini, qo'shiqlariyu aytimlarini yoddan bilardi. Ular milliy ma'naviyatning ajralmas qismi, eng bebafo boyligi ekanligini qayta-qayta ta'kidlardi, el orasida mashhur bo'lib ketgan asarlarida ham shu tamoyilga amal qilardi. U o'z farzandi – kelajakda avar xalqining nomini dunyoga tanitadigan Rasul Hamzatovga ham shu e'tiqodni singdirdi<sup>150</sup>. Avar xalq qo'shiqlari va dostonlarida kuylangan yuksak insoniy tuyg'ular barcha zamonlarda ham insonlarni ezgulik va yaxshilikka, vatanni sevishga da'vat etgan. Rasul Hamzatovning millatparvar va xalqparvar shoir sifatida shakllanishida Dog'istonning birinchi xalq shoiri, otasi Hamzat Sadasaning ta'siri juda katta bo'lgan. Hamzat Sadasaning ijodi uzoq yillar davomida tog'liq xalq estetik didi va ma'naviy qiyofasini shakllantirishda muhim rol o'ynadi.

R.Hamzatov ijodida milliy o'zlik tamoyillarining aks etishida tug'ilib o'sgan oshyonini madh etuvchi qush, bulbul obrazi alohida o'r'in tutadi. Ta'bir joiz bo'lsa, bu shoirning o'zidir. U o'zining mashhur "Dog'istonim" asarida shunday deydi: "Qushni ushlab qafasga solishadi. Qafasga qamalgan qush kechayu kunduz faqat bitta so'zni takrorlayvergan: Vatan, Vatan, Vatan, Vatan, Vatan... Qushni ushlab turgan kishi o'yga toldi: "Uning Vatani qanday ekan, qayerda ekan? Ehtimol jannat qushlari va jannat daraxtlari bor, gullab yashnagan bir o'lkadir. Yaxshisi, qushni qo'yib yuborib qaysi tomonga uchishini kuzatayin. Menga qushcha mo'jizaviy mamlakat yo'lini ko'rsatar". U oltin qafasning tuynugini ochdi, qush ozodlikka chiqdi. Qush o'n qadamcha uchib, silliq toshlar orasida o'sgan changal shoxiga qo'ndi Shu changal shoxlari orasida qushning uyasi bor ekan..."<sup>151</sup>

Bu ulug' she'riyat har bir yurakning o'z gulzori, o'z bulbuli bo'lishi kerakligini ta'kidladi. Zero, shoir aytganday har bulbulning o'z qo'shig'i bor, u dunyoning turli qit'alari, mamlakatlari, o'lkalarida sayrashi mumkin. U qayerda, qaysi zamonda bo'lmasin, avvalo, eng muqaddas tuyg'u – Vatan haqida kuylaydi.

Rasul Hamzatov sobiq ittifoq dunyodagi eng qudratli davlat va hukmron mafkura sifatida millionlab xalqlarning ongu tafakkuriga, yagona davlat, yagona til, yagona madaniyat g'oyasini singdirayotgan bir paytda oltin qafas ichidagi qush bo'lishni istamadi. U ruhan bu qafasni buzib chiqib, o'z oshyonni va qalb ozodligini kuylashga intildi.

Ko'rinib turibdiki, so'zlar o'zgarsa-da, mohiyat bitta. Shoir asl muddaosini so'zlar ildiziga jo qiladi, unda "menga oltin qasr qurib berib, bor ne'matni muhayyo qilib, evaziga o'zligingni unutib, xalqingdan tonib, nafsingni qondirib, jim yashasang bo'ldi, senga oltindan haykal qo'yamiz" degan hukmron mafkuraga qarshi isyon bo'y ko'rsatib turibdi. Shoir she'rni erk saodati ila yongan yurakdagagi ozod qush – bulbul nidosi bilan yakunlaydi: "Yo'q! Yo'q! Sendan holi bo'lginim, Baxtsizligim, tirik o'lganim!"

<sup>149</sup> Хамзатов Р. Менинг Догистоним (тарж. А. Мўмин). Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашириёти, 2018. Б. 178.

<sup>150</sup> Майдурова Р.М. Фольклорные традиции в творчестве Гамзата Цадасы. Автореферат дисс. ... канд. филол. наук. М., 2007.

<sup>151</sup> Хамзатов Р. Менинг Догистоним. Б. 44.

Barcha ulug‘ shoirlarda bo‘lgani kabi Vatani haqidagi mangu qo‘sinq bitish uning butun borlig‘i, hayotining mazmuni edi. Shu bois kitobga nom qo‘yishda, millat nomini bayroq qilib ko‘tarishda Rasul Hamzatov rad qilib bo‘lmaydigan donishmandona yo‘l tutadi:

“Tog‘liklar ko‘pincha o‘g‘liga bobosining ismini qo‘yadi. Kitobim – mening farzandim. Men esa Dog‘istonning farzandiman. Demak, kitobimning nomi – “Dog‘iston”. Bundan ham mos, bundan ham chiroyli, bundan ham aniq nom bo‘lishi mumkinmi? Elchini mashinasidagi bayroqchadan taniydarlar, kitobim-mening vatanim. Nom o’sha bayroqcha”<sup>152</sup>. Go‘yoki Rasul Hamzatov milliy respublikalar xalqlari qalbida bir muddat qo‘rquv, tahlika, ikkilanish holatida turgan fikrlar to‘g‘onini buzib, ular uchun ajododlaridan qutlug‘ meros – ozod so‘zga yo‘l ochganday edi. U mashhur “Mening Dog‘istonim” asarida inson o‘z ona tili, milliy qadriyatlariga eng mustahkam rishtalar bilan bog‘langanini, bu rishtalarsiz uning nafaqat o‘zligi, balki insoniy qiyofasi ham yo‘qolishi mumkinligini ham ta’sirchan va ibratli, sharqona hikmatli voqealar, ham mantiq nuqtayi nazaridan isbotlab berdiki, hatto mustabid tuzum mafkurasi ham bu hayot haqiqati oldida lol bo‘lib qoldi.

O‘zbek adabiyotshunosligida Rasul Hamzatov ijodi hali maxsus tadqiqot obyekti bo‘lgan emas. Adabiy aloqalar va ijodiy hamkorlik masalalariga bag‘ishlangan maqolalar va tadqiqotlarda bu masala bo‘yicha ham yo‘l-yo‘lakay fikr-mulohazalar bildirib o‘tilgan. Shu o‘rinda qardosh xalqlar adabiyotshunosligida R.Hamzatov ijodining o‘rganilish masalasi haqida muxtasar to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Olima B.D.Xunagova<sup>153</sup> tadqiqotlarida R.Hamzatov va Q.Quliyev epik dostonlaridagi milliy madaniy o‘zgarishlarning o‘xshashligi qiyosiy tahlil qilingan. Uning fikriga ko‘ra, ularning ijodining mushtarak tuyg‘ulari insonning o‘z milliy urf-odatlariga, e’tiqodollariga, ona xalqiga, asrlar davomida shakllangan umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatida ifodalangan. Tadqiqotchi X.Aliyeva<sup>154</sup> to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “Hamzatovning boy va betakror ijodining ildizlari avar xalqining milliy merosi va qadriyatlari bilan chambarchas bog‘lanib ketgan”.

Adabiyotshunos Z.Agayevaning fikricha, “Rasul Hamzatovning voqelikni poetik idrok qilish va to‘laqonli aks ettirishdagi mahorati milliy o‘ziga xoslik va romantik ko‘tarinkilikdir. Uning butun bir davr, katta ijtimoiy voqeа-hodisalar haqidagi fikrlari tabiat va jamiyat hodisalari qiyosida tasvirlanadi”.<sup>155</sup>

R.Hamzatov prozasining janr xususiyatlarini o‘rgangan X.Magomedova<sup>156</sup> adib asarlarida zamon va makondagi o‘zgarishlar inson konsepsiyasida qay darajada aks etganini tahlil qiladi.

Adabiyotshunos P.C.Herkesova<sup>157</sup> Rasul Hamzatovning “Mening Dog‘istonim” asaridagi falsafiy fikrlar, tarixiy qiyoslarni romantik tasvirlar bilan uyg‘unlashtirish, milliy xususiyatlar ulug‘vorligini umumlashtirish mahoratiga yuksak baho beradi. Keltirilgan fikrlarning hammasi, o‘zbek adabiyotshunosligida milliy o‘zlikni anglash masalasida R.Hamzatov va o‘zbek adiblarning ijodiy jiddiy tadqiqotlarga ilmiy material beradi.

<sup>152</sup> Хамзатов Р. Менинг Догистоним. Б. 2.

<sup>153</sup> Хунагова Б.Д. Тоғликлар эпик достонларида халқ оғзаки ижоди (фольклор) анъаналари ва бадиийлигининг ўзига хослиги (Р.Хамзатов, К.Кулиев). Филол. фанлари номзоди дисс. Автореферати. Майкоп, 2004.

<sup>154</sup> Алиева Х.М. Художественно своеобразие поэзии Расула Гамзатова: аспект национально –русского взаимодействия. Автореферат дисс. ... канд. филол. наук. Махачкала, 2012.

<sup>155</sup> Агаева З.А. Пейзаж как атрибут национального мировосприятия и художественного своеобразия в творчестве Расла Гамзатова. Автореферат дисс. ... канд. филол. наук. Махачкала, 2004.

<sup>156</sup> Магомедова Х. Проза Расула Гамзатова: жанровые особенности. М., 2010.

## SAYQALIYNING “BAHROM VA GULANDOM” DOSTONIDA IRSOL UL-MASAL SAN’ATI

*M.Mamatqulov,  
GulDU dotsenti*

Baytlar tarkibida maqollardan foydalanish ham she’riy san’at hisoblanib, u irsol ul-masal deb ataladi. Irsol – yubormoq, jo’natmoq, masal – maqol degan mazmunga ega. Irsol ul-masal esa “maqol yubormoq”, ya’ni baytda maqol qo’llash ma’nosini anglatib, poetik usul sifatidagi mohiyati baytlar zamirida berilayotgan fikr, g‘oya yoki mulohazani maqol bilan tasdiqlashdir.

“Bahrom va Gulandom” dostonida Sayqaliy xalq maqollaridan ham unumli foydalanadi. Maqollar shoir uchun oldinga surilayotgan fikr yoki g‘oyalarning isboti vazifasini bajarishi bilan birgalikda irsol ul-masalning imkoniyatlarini to’laqonli ravishda yuzaga chiqarish uchun ham xizmat qiladi. Dostonda keltirilgan Gulandom tomonidan yozilgan maktublar ko’proq Bahromning kim ekanligini aniqlashga qaratilgan. Shahzodaning kimligi, ya’ni gadomi, faqirmi, Shayxmi, mullomi, so’fimi, tug‘ilib o’sgan yurtining qayerdaligi kabilar malikani juda qiziqtiradi. Gulandom qalandarnoma kiyangan bu yigitning o’ziga oshiqligini bilgach, haqoratomuz mazmundagi noma ham yozib jo’natadi. Bahrom esa oshiqlarga xos yo’l tutadi. Gulandomning haqiqiy xaridori ekanligini o’zining odobi, axloqi va fazilatlari bilan ko’rsata oladi. Malikaning achchiq so’zlari, qahrli izhorlarini sabr bilan qabul qilib, ma’shuqa ishonchiga erishish oson emasligini yaxshi anglaydi:

Masaldur har guliston ichra gul bor,  
Ki har gul poyasinda xor bisyor<sup>158</sup>.

Shahzoda malikaning har qanday jabru sitamlariga chidaydi, o’zining vafodan boshqa “gunohi” yo’qligini ta’kidlaydi. Ma’shuqaning jafolarini gulistonidagi gullarning ham tikonsiz emasligi bilan qiyoslaydi. Gulning tikonsiz bo’lmasligi haqidagi hayotiy haqiqat obrazli tarzda ma’shuqa bilan bog’lanib, jafo qilish ham sevimliga xos xususiyat ekanligi alohida uqtiriladi. Baytda ilgari surilgan fikrlar “Gul tikonsiz bo’lmas”, “Gulga boq – tikonni ko’r, yorga boq – jafoni ko’r”, “Gulni sevgan tikoniga ham chidaydi” maqollari bilan hamohang ekanligini sezish qiyin emas.

Doston kompozitsiyasida Bahrom va Gulandomning savol-javoblari asosida yaratilgan to’rt misradan iborat bo’lgan she’rlar ham muhim rol o’ynaydi. Ularda asosan dialog shaklidagi o’zar suhbat aks ettiriladi. Har ikkala qahramonning ham nutqida maqollarning ifodalaniishi Sayqaliyning xalq ma’naviy xazinasi namunalarini dostonda ilgari surilayotgan fikrlar mohiyatiga chuqr singdira olganligini ko’rsatadi:

Aydi Gulandom: - Ajib so’z aytasan, bemarhabo,  
Bemaza so’z ko’b urarsan, ko’pni ko’rgan behayo.  
Olasan, halvo degon birlan bo’lur og‘zing chuchuk,  
Yuz tabibga bosh urub yursang, bu dardga yo’q davo<sup>159</sup>.

Mazkur nutq Gulandom tilidan aytilgan. She’r mazmunidan Gulandomga shahzodaning mayli borligi haqidagi so’zlari yoqmaganligi sezilib turibdi. Birinchi baytda Bahromning bemarhabo, bemaza, behayo kabi so’zlar bilan atalishi bejiz emas. Ikkinci bayt esa malikaga yetishish oson emasligiga bir ishoradir. Shu sababli ham shoir quruq orzu xayollar bilan ma’shuqa visoliga erishish qiyin ekanligiga alohida urg‘u beradi. “Halvo degan bilan og‘iz chuchimas” maqoli esa bu holatda aytilayotgan fikrlarga juda mos keladi. Chunki Bahromning kim

<sup>158</sup> Сайқалий. Бахром ва Гуландом. Тошкент, Фан, 1960. Б. 107

<sup>159</sup> Сайқалий. Ўша китоб. Б. 131

ekanligi va uning fazilatlari malika uchun hali noma'lum edi, u Gulandom uchun o'z ko'yida sarson bo'lganlardan yana biri sanalardi.

Xalqimiz orasida “Bir ko'rgan – bilish, ikki ko'rgan - tanish” maqoli keng qo'llaniladi. Ushbu maqol o'zaro suhbat davomida Bahromning nutqida ham ifodalanganligi kuzatiladi:

Aydi shahzoda: - Bo'lurmish chunki bir ko'rgon bilish,  
Bul masaldur el orasinda, iki ko'rgon tanish.  
Ushladim domonu vaslingni yadi ummed ila,  
Qo'yorim yo'qtur, gulim, har necha qilsang saranish<sup>160</sup>.

Malika Gulandomning men bilan xuddi eski oshnolarday gaplashyapsan, xayollaring bar-chasi xom, boshingga tushgan bu savdolar shamol va havoday tutqich bermas qabilidagi gaplariga javob tariqasida aytilgan ushbu misralarda Bahromning hech qachon o'z yo'lidan qaytmasligiga alohida e'tibor qaratilgan. Maqol esa ularning ma'nан yaqinlashib borayotganligidan darak berayotgandek, go'yo.

Voqealar rivoji davomida malika Gulandom shahzoda Bahromning “asiriga” aylanadi. Malika uning ko'p dardu alamlar chekib, jafo ko'rganligi, ko'ngli ezilganligini eslaydi:

Ki dardu g'ussadin topti zamiring,  
Ajab ermas man ham bo'lsam asiring.

Maning ham ixtiyorim emdi sanda,  
Ayog'ing qanda bo'lsa, boshim anda<sup>161</sup>.

Ko'rindiki, malikaning nutqida “Oyoq qayda bo'lsa, bosh shunda” maqoli ishlatilgan. Bu maqol qadimdan yozma adabiyotimiz namunalarida ham keng qo'llanilib keladi. Xususan, Atoiy ijodi fikrimizga dalil bo'la oladi. Shoир g'azallaridan birida quyidagi bayt uchraydi:

Uzun sochingdin uzmasmen ko'ngulni,  
Ayog'ing qanda bo'lsa, boshim anda.

Demak, dostonidagi baytda Gulandomning, Atoiy g'azalida esa oshiqning o'z sevimlilari oyog'iga bosh urishga tayyor ekanligi maqolning mazmunidan kelib chiqib, izohlanishi lozim.

Tilimizda ofat va falokat ro'y bersa, barcha birdek ziyon ko'radi, undan odamlar baravar ozor chekadi ma'nosida ishlatiluvchi “To'qayga o't ketsa, ho'lu quruq baravar yonadi” degan maqol bor. Bu maqol “Bahrom va Gulandom” dostonida biroz o'zgarish bilan uchraydi:

Ki No'shod lashkarin har so' surordi,  
Necha saf-saflarini sof etardi.  
Olovdek yondirib ho'lu qurug'in,  
Adolar aylabon No'shod urug'in<sup>162</sup>.

Jangdagi turli jarayonlar bilan bog'liq mazkur misralarda Bahromning kuch-qudrati haqidagi tasvirlar aks ettirilgan. Bahromning jangga kirishi No'shod qo'shini uchun haqiqiy ofat ekanligi uchinchi misrada ifodalangan mazmun orqali talqin etilgan. “Olovdek ho'lu quruqning birday yondirilishi” obrazli ifoda bo'lib, No'shod bilan birga Chin yurtiga bostirib kelgan barchanining qirilayotganligidan dalolat beradi.

Umuman, xalq maqollari, matal va hikmatli so'zlar XVIII asr o'zbek adabiyotining mahsuli bo'lgan Sayqaliyning “Bahrom va Gulandom” dostoni tilini bezab turadi, uning g'oyaviy mazmunini boyitishga, badiiy qimmatini oshirishga xizmat qiladi. Doston muallifi bo'lgan Sayqaliy xalq durdonalari imkoniyatlarini yaxshi anglagan holda voqeа-hodisalar izohi yoki qahramonlar

<sup>160</sup> Сайқалий. Ўша китоб. Б. 131

<sup>161</sup> Сайқалий. Ўша китоб. Б. 203

<sup>162</sup> Сайқалий. Ўша китоб. Б. 181

nutqida maqollardan keng foydalanadi. Bu orqali ifodalanayotgan fikr va mulohazalar tasdig‘ida xalqimizning uzoq yillar davomida tajribasida sinovdan o’tgan maqollar juda qo’l keladi.

### **Adabiyotlar**

1. Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Fununu-l-balogs‘a. – T.: Xazina, 1996. – 212 b.
2. Husayniy A. Badoyi’u-s-sanoyi’. – T.: Adabiyot va san’at, 1981. – 400 b.
3. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. – T.: Adabiyot va san’at, 1979. – 214 b.
4. Rahmonov V. She’r san’atlari. – T.: Sharq, 2020. – 237 b.
5. Ishoqov Y. So’z san’ati so’zligi. – T.: Zarqalam, 2006. – 128 b.
6. Hojiahmedov A. She’riy san’atlari va mumtoz qofiya. – T.: Sharq, 1998. – 160 b.
7. Boboyev T., Boboyeva Z. Badiiy san’atlari. – T.: 2001. – 121 b.
8. Sayqaliy. Bahrom va Gulandom. – T.: Fan, 1960. – 223 b.

## **CHO’LPON IJODIDA FOLKLORIZM MOTIVLARINING IFODALANISHI**

*SH.Hojieva,  
O’zMU dots. v.b., PhD*

Abdulhamid Cho’lpone she’rlarida uchraydigan folklorizmlarning XX asr boshlari o’zbek adabiyoti badiiy takomilida, milliy she’riyatning yangilanishi jarayonida o’z o’rni bor. Folklorga xos janr, motiv, obraz, ohang, tasviriy vositalardan yozma adabiyotda foylalanish, ularga “qayta ijodiy ishlov berish” hodisasi adabiyotshunoslar tomonidan “folklorizm” deb yuritilishi B.Sarimsoqov, G’.Mo’mnov, I.Yormatov, L.Sharipova, D.Xoliqova, S.Hamdamova, U.Amonov kabi o’zbek olimlarining tadqiqotlari orqali ham ma’lum.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Cho’lpone o’z she’rlarida folklor obraz va motivlaridan ijodiy foydalangan. Bu esa, o’z navbatida, she’riyatni shakl va mazmun jihatdan yangilashda adabiy-estetik omil vazifasini o’tagan. Folklor obrazlarining yozma adabiyot tomonidan o’zlash-tirilishi ijodkor fikrining chuqurroq anglashilishi, asarning jozibali bo’lishi uchun xizmat qilishi ayon.

Cho’lpone o’z she’rlarida ertaklarga xos an’anaviy epik obrazlar qatori epik motivlardan ham mahorat bilan foydalangani ko’zga tashlanadi. Shunday epik motivlardan biri ertak qahramonining o’z suygulisini oy yoki quyoshdan so’rash motividir:

Ul ketgach, kun chiqar yorug‘lik sochib,  
Undan-da so’raymen sening to’g‘ringda.  
Ul-da uyatidan bekinib, qochib  
Aytadir: “Bir ko’rdim, tushdamas o’ngda,  
Men o’ngda ko’rganda shunchalar go’zal,  
Oydan-da go’zaldir, kundan-da go’zal!”

Shoirning “Boychechak” she’rida xalqning boychechak bilan bog‘liq e’tiqodiy qarashlari hamda epik asarlarda keng uchraydigan an’anaviy epik motivlardan sanalmish “o’gaylik” motivi alohida o’rin egallagan:

“Boychechakning bolasi”,  
Ochdi yuzini;  
Suvga chiqqan xolasi,  
Ko’rdi qizini.

“Boychechakning bolasi”,  
Etimcha bir qiz...

Uning o'gay onasi,  
Juda yomon, tez.

Dunyo xalqlari ertaklarida keng tarqalgan an'anaviy epik motivlardan biri bo'lgan o'gaylik motivi jahon xalqlari ertaklarida ham uchraydi. Jumladan, "Zumrad va Qimmat", "Zolushka", "Sindrella" singari jahon xalqlari ertaklari syujeti bevosita shu motiv negizida o'zaro mushtaraklik kasb etadi. Ularda, asosan, o'gay ona zulmidan ezilgan kambag'al, o'ksik qizning boshidan kechirganlari yoritiladi. Cho'lpon esa bosqinchilar tomonidan zulm va zo'ravonlikning kuchayganini aytish uchun bu motivdan o'rinli foydalana olgan.

Chiroqlar ham jin ko'zidek yiltillab,  
Xira qarab, mung'ayib  
Ko'rindilar kilkillab...

Bu misralarda xalqning jin va uning chiroqda yashashi haqidagi afsona va ertaklariga aloqador motiv<sup>163</sup> stilizatsiyasi namoyondir.

Cho'lpon o'zining "Mahmudxo'ja Behbudiy xotirasi" nomli marsiyasida bu buyuk ma'rifat-parvarning yashirinchha o'ldirilib, pinhona ko'mib yuborilganiga ishora qilish uchun "Belgisiz qabringni qora tunlarda amalimning shamin yoqib izladim", "Qo'lindagi tutam-tutam gulini qabring topib, sochmoq uchun tirishdi", "Qabring topib, ko'z yoshimni to'kmakka hamda achchiq hiddatim-la ul erda Oq kallalik qora devni so'kmakka", "Aziz otam, qo'limdagi gullarning motam guli ekanini bilmaysen", "Shodlik guli ko'pdan beri so'lganin er ostida pok ruhing-la sezmaysen" misralarini keltirgan. Bu misralardagi qabr, belgisiz qabr, qabrga gul qo'yish yoki sochish, sham yoqish, ko'z yosh to'kish, motam guli, er osti, ruh, pok ruh, qora devso'z va birikmalari bevosita motam marosimi folklori bilan bog'liq tushunchalar bo'lib, aytish mumkinki, yaqin tushunchalarning bunday uyushiq holda qo'llanishi marsiyada tanosib san'atini vujudga keltira olgan.

Xullas, Cho'lpon ijodida o'zbek motam marosimi folkloridagi yo'qlov janri shakli va ohangida yaratilgan bir necha yo'qlovlari borki, ular shoir ijodiga xos janr stilizatsiyasi bilan bog'liq muammolarni oydinlashtirishda muhim manba bo'la oladi. Shoир o'lim tufayli yo'qotish va ayriliq mazmunidagi bunday she'rlari bilan o'zbek she'riyatida marsiya janrini yanada boyitishga muvaffaq bo'la oldi.

Shoirning ayrim misralarida bir qarashda folklorizm yo'qqa o'xshaydi. Lekin sinchkovlik bilan yondashilsa, unda folklorizm borligi ayonlashadi. Jumladan, Cho'lponning quyidagi misralarida *etnografik folklorizm* mavjudligi ko'zga tashlanadi. Masalan,

Amalimning yulduzikim ko'z tekdi.  
Qora, jirkanch, o'lim koni – erlarga.  
Savol berdim: "Yo'qotganim qayda?" – deb  
O'zimni ham yutmoq bo'lgan erlarga.

"Ko'z tekmoq"ga xalq ishonch bilan qaraydigan holatlardan biridir.  
*Tumorchalar xamoyillar taqingan,*  
*Dalalarda lola bargi yopingan,*  
*Tog'-toshlarda o'yin qilgan,*  
*Chopiningan*  
*Go'zal qizlar, yosh kelinlar qaerda?*

Xalq ishonchi bo'yicha, tumor – asrovchi vosita. Shoир nima qilinsa-da, yurtni bosqinchilardan asrab qolish tarafdoi.

<sup>163</sup> Жўраев М., Шомусаров Ш. Ўзбек мифологияси ва араб фольклори. – Т.: Фан, 2001. – 136 б.

Keldi qarg‘a, ochdi og‘zin qichqirib g‘og‘oladi,  
Ko‘zlarini o‘ynatib kimdir birovni izladi.  
Men yaqin bordim “Yo‘qmi suyuklikdan *xabar*? ”  
“Men, – dedi, – o‘ynab kelardim bir xabar bo‘lsa agar”.

Odatda, xalqimiz orasida qarg‘aning qag‘illashi eshitilsa, “Xush xabar” deyiladi. Negaki, qadimda o‘lgan insonlar tuproqqa dafn qilinmagan. Ularning jasadi qarg‘a-quzg‘unlarga yem qilinib, ajralib qolgan suyaklari ostadonlarga solib qo‘yilgan. Shu asosda qarg‘a o‘lim hodisasi bilan bog‘lab talqin qilinadigan bo‘lgan.<sup>164</sup>

Qop-qora lattadan o‘lik ko‘ylagi,  
Qip-qizil cho‘g‘dan-da o‘lik yotog‘i,  
Go‘rga qo‘ymoq uchun Shayxton bilagi,  
So‘nggi changqovimga zahar bor dog‘i.

Ushbu misralarda Shayxton bilagi, ya’ni bosqinchilar qo‘li bilan “o‘lik ko‘ylagi – kafan” kiydirilgancha “o‘lik yotog‘i – go‘r”ga qo‘yilayotgan kishilarga achinish ruhi mujassam.

O‘zbeklarda marhumlarga, odatda, oq surfdan kafan kiydirilib dafn etiladi. Ruhiga sham yoqiladi. Ammo, Cho‘lpon qatag‘on qurbanlarining kafani qoraligini aytadi:

Ulardagi *qora kafan*, ey maymunlar,  
Sizdag‘i tilaklardan sof, pokdir.  
El ko‘ksiga sham yoqgali topilmasmi siniq tosh?  
U ezgu sham yoqilmasa, hech to‘xtamas qonli yosh.

Qatag‘on qurbanlari xalqning asl farzandlari edi. Ular yurtning ozodligini, mustaqilligini, hurligini, xalqning obodligini ko‘rish niyatida edi. Bunday ezgu niyatlar afsus, ularga nasib etmadni. Ular bilimli, ma’rifatli, ziyoli yoshlar ko‘payishini ham istagan edilar.

Xullas, Abdulhamid Cho‘lpon she’rlarini xalqqa yaqinlashtirish uchun, nafaqat ularning ohanggiga, balki til qurilishiga alohida e’tibor qaratdi. U boshqa ijodkorlar singari o‘z *she’rlarida oddiy va murakkab, analitik, sintezlashgan, etnografik folklorizmlardan* yuksak did va mahorat bilan foydalanganligini kuzatish mumkin. Sho‘ir folklorizmlarini o‘rganish orqali u yashagan davrda yozma adabiyot bilan folkloarning o‘zaro munosabati XX asr boshlarida qanday kechganligi ayonlashadi.

### **Adabiyotlar**

1. Jo‘rayev M., Shomusarov Sh. O‘zbek mifologiyasi va arab folklori. – T.: Fan, 2001.
2. Cho‘lpon. Asarlar. 4 jildlik. – Toshkent: Akademnashr, 2016.
3. O‘rayeva D. O‘zbek motam marosimi folklori. – T.: Fan, 2004

## **IJODIY JARAYONDA QAHRAMON MASALASI**

**D.To‘rayeva,  
GulDU dotsenti, PhD**

Badiiy g‘oya obrazlar orqali yuzaga chiqar ekan, asar ruhiga mos qahramon tanlash va uni badiiy gavdalantira olish yozuvchi tomonidan uddalansagina, o‘scha qahramon badiiy mukammallikka erishadi. “Tarixiy asarlar ma’lum bir davr hayoti haqida, milliy hayotda burilish nuqtalari bo‘lib qolgan yirik voqealar va ularda ishtirot etgan shaxslar haqida konkret, tarixan haqqoniy tasavvur beradi, Zotan, bu xususiyat tarixiy asar oldiga qo‘yilgan asosiy talablardan birlidir”<sup>165</sup>. Ko‘rinadiki, tarixiy mavzuda asar yozish unga qahramon tanlash jiddiy vazifa bo‘lib,

<sup>164</sup> Ўраева Д. Ўзбек мотам маросими фольклори. – Т.: Фан, 2004. – Б. 120.

<sup>165</sup> Каттабеков А. Тарихий хакиқат ва бадиий маҳорат. – Тошкент: Фан, 1982. – Б. 6.

unda yozuvchi o'zi tanlagan mavzuga aloqador muayyan davrni, tarixiy shaxslar haqidagi manbalarni mukammal o'rganishi lozim. Bunday vaziyatda yozuvchidan tarixiylik prinsipiqa qat'iy amal qilish talab qilinadi. Tarixiy qahramonlarning tanlanishi bilan bog'liq masalani Mirkarim Osim va Asad Dilmurod ijodiy laboratoriyasiga bog'lab o'rganish maqsadga muvofiq.

Mirkarim Osimning tarixiy mavzudagi asarlarida qahramon tanlash real shaxslar faoliyati bilan bog'liqligini ko'ramiz. Bu masala adibning Ibn Sino va Temur Malik obrazlari misolida o'rganilishi masalani oydinlashtiradi. "Mirkarim Osim asarlarida shekspirona yoki balzakona ehtiroslar yo'q. Gargantuya-Pantagryuel yoki knyaz Mishkin singari favqulodda obrazlar, qahramonlar ham yo'q. Ko'p narsalar yo'qdir ehtimol, sodda, o'zbekona mayllar bilan to'la Mirkarim Osim asarlari. Holbuki, ularda tarix bor! Yasalmagan, bejalmagan, buzilmagan, zamonlashtirilmagan, fantaziyalar bilan bo'yab tashlanmagan badiiy tarix bor!"<sup>166</sup>, – Ibrohim G'afurov o'tmishdan kelayotgan ziyoni o'z zamondoshlari tasavvuriga qarata yo'naltirgan adib ijodi haqida holis fikrlar aytgan.

Mirkarim Osimning "Kitobga ixlos" hikoyasida Ibn Sinoning Gurganj safaridan oldingi hayoti tasvirlanadi. "Ibn Sino qissasi"ga esa uning yoshlik chog'idan, to umrining so'ngiga qadar bo'lgan katta tarixiy davr asos qilib olinadi. Asarga nafaqat tarixiy shaxs timsoli, balki, o'sha davr ruhi ham olib kiriladi. "Tarixiy – biografik asarning vazifasi faqat o'tmishda yashab o'tgan mashhur ijodkor, yo olim tarixiy real shaxs hayoti haqida xarakterli va muntazam ma'lumot berish bilangina cheklanganda, bu janrda ijod etuvchi adibning mehnati nisbatan ancha yengil ko'chardi. Ammo san'atkorning asosiy vazifasi bugina emas, tarixiy-biografik asarda ham tarixiy-badiiy asarlarning barchasi uchun bo'lgani kabi, eng muhimi, davrning ruhini bera bilishdir"<sup>167</sup>. Tarixiy asar bu tarixning o'zi emas, unda davr ruhi yaqqol sezilib tursagina, bu asar badiiy mukammallik kasb eta oladi. Mirkarim Osim Ibn Sino yashagan davr ruhini yaratgan obrazlariga, xususan, ularning nutqi, dunyoqarashiga singdirib yuboradi. Bunda adib tarixiylik tamoyiliga amal qilgan holda ijodiy niyatini yuzaga chiqaradi. Uning tarixiy manbalarga suyanib ish ko'rishi, materialni sodda va ravon qilib badiylashtirishi alohida ahamiyatga molik. Jumladan, yozuvchining "Ibn Sino" qissasi o'ziga xos badiiy talqin qilingan. Asarda yosh Husaynning mashhur tabib darajasiga ko'tarilish jarayonini yozuvchi bosqichma-bosqich ifodalashga harakat qiladi. Natijada, kitobxonda bu obrazga nisbatan ishonchsizlik paydo bo'lmaydi. Adib asariga yetakchi qahramonni tanlar ekan, unga asarning asosiy yukini ortadi. Qissa boshida yosh Husaynning baqqol Mahmud Massoh bilan qisqa suhbati asnosida uning qay darajada zukkoligi, hali to'qqiz yosh bo'lishiga qaramay Qur'oni karimni yod bilishi, diniy maktab ilmidan xabardor ekanligi, hatto shu yoshda savdo ishiga ham uquvi borligi ayonlashadi. Bu zukko bola Mahmud Massohning e'tiborini tortishi, unga handasa, hind hisob ilmi, riyoziy ilmlarni o'rgatishi, bolaning bu bilimlarni qunt va qiziqish bilan o'zlashtirishi, unga ota-onasining ham jonkuyarlik bilan munosabatda bo'lishi kabilar Ibn Sino xarakterining shakllantirilishidagi muhim jihatlardan hisoblanadi. Yosh tabibning keyingi ustozи Abu Abdullo Notiliy ham Ibn Sinoning salohiyatiga tan beradi. Dastlabki suhbat chog'idanoq yosh tabibdan ushatilgan nonning qaysi qismi kattaligi xususida so'ralganda, har bir bo'lak o'z butunidan kichkina, butun esa bo'lagidan kattaligi haqidagi isbot talab qilmaydigan javobi ustozini lol qoldiradi. Qissaning "Dard va darmon" qismida Nishopurdan Jurjonga kelgan yosh tabib Ibn Sinoning aqldan ozgan bir yigitni va Jurjon hukmdori Qobusning jiyanini noma'lum darddan davolay olgani uning kuchli tabibligini ko'rsatib beruvchi faktlarning keltirilishiga misol bo'la oladi. Yozuvchi ijodiy fantaziyasi hoslasi bo'lgan bu tasvirlar Ibn Sino obraziga xos jihatlarni boyitilishiga xizmat qiladi. Somoniylar

<sup>166</sup> Гафуров И. Ўтэр бўғларида // Осим М. Темур Малик. Сайланма. www. kh-davron.uz.

<sup>167</sup> Норкулов Н., Сатторов М. Миркарим Осим // Адабий портрет. Тошкент: F.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашириёти, 1977. – Б. 61.

shajarasining so'nggi vakili Nuh binni Mansur xastalanganda uni mamlakatdagi barcha tabib va hakimlar davolay olmagach, Ibn Sino o'zining aql-farosati va kuchli bilimi bilan uni oyoqqa turg'azadi. Buning evaziga hukmdor unga bir qancha qimmatbaho sovg'alar taklif qilishiga qaramay, u o'z davridagi eng boy kutubxonadan foydalanish huquqini tanlaydi. Bu tasvirlar ham dunyoga mashxur tabibga xos xarakterni shakllantirishga asos bo'ladi.

Asad Dilmurod asarlariga qahramon tanlash masalasini esa badiiy g'oyaning yuzaga chiqishi bilan bog'laydi: "Asarlarimga qahramon tanlashdek mas'uliyatli ishni ijodiy rejingga muvofiq amalga oshiraman. U tarixiy obraz bo'ladimi, badiiy to'qima mahsulimi, har qanday holatda badiiy g'oyani yuzaga chiqaruvchi bir vosita bo'lishi lozimligiga ahamiyat qarataman"<sup>168</sup>. Asad Dilmurod ijodiy laboratoriyasida qahramon tanlash masalasi asosiy o'rinda turadi. Negaki, adib asarlariga tanlangan obrazlar mazmun mohiyati bilan o'sha asarning g'oyasini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Asad Dilmurodga: – Pahlavon Muhammad obrazini tanlashtingizga, bu qahramonni yaratishingizga nima sabab bo'ldi?, – degan savol berilganda, uni muallif quyidagicha izohlaydi: "Pahlavon Muhammad haqida ko'p o'qiganman. Lekin u paytlar bu tarixiy shaxs haqida asar yozish fikridan yiroq edim. "Sog'lom avlod uchun" jurnalida ishlardim. Filologiya fanlari doktori Hasan Qudratillayev unda Pahlavon Muhammad haqida maqola chop ettirdi. Afsuski, maqolada u bilan o'sha davrda Xurosonda mislsiz iqtidori tufayli shuhrat qozongan Muhammad Moloni shaxslari chalkashtirib yuborilgan edi. Hindiston rojasidan Sulton Husayn Boyqaroga sovg'a tarzida yuborilgan manglus zotli bahaybat filni tomosha maydonida, Pahlavon Muhammad emas, kuch-qudratda undan qolishmas Muhammad Moloni mag'lub qiladi. Dastlab bu xatoni tuzatish istagida maqola yozishni mo'ljalladim, lekin qandaydir kuch bu niyatdan qaytardi. Nihoyat, roman bitishga ahdlandim"<sup>169</sup>. "Pahlavon Muhammad" romanida qahramon tanlashda o'ziga xoslik mavjud. Adib asarda har bir obraz ruhiyati tasvirini, ongi va shuurida kechgan hislarni berish orqali ularning xarakterini yaratishga harakat qilgan. Ijodiy suhbat jarayonida yozuvchi asarda Pahlavon Muhammad obrazini, ruhan va jismonan beqiyos kuch sohibi ekanligi, shu bilan birga, chumoliga ham ozor bermaydigan jo'mard inson sifatida badiiy talqin qilganligiga urg'u beradi. Yozuvchi obraz talqinida uning bosh shiori – iymonni pok saqlash ekanligini tasvirlar mohiyatiga singdirib yuboradi. Romandagi kurash bilan bog'liq tasvirlarni berishda lavhalar tabiiy chiqqanligini boisi yozuvchining o'zi ham kuragi yer ko'rmagan Omonqo'ton polvonlaridan Samad polvon, Murtazo polvon, Karim polvon, Sulaymon polvonlar avlodidan ekanligi bilan izohlash mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Mirkarim Osim aksariyat hollarda, tarixiy shaxslar hayotini tarixiy-biografik yo'sinda yoritsa, Asad Dilmurod inson faoliyatiga sabab bo'lgan faktorlarning ruhiy-psixologik simptomlarini izlashga, goh sababdan oqibatga, gohida esa, oqibatdan sababga qarab borishga mayl bildiradi. Shu bois, bu asarlar sotsiologik, biografik, psixoanalitik, struktural va germenevtik ilmiy tadqiqot usullari asosida yondashuvni talab etadi.

## ОСОБЕННОСТИ ЛИРИКИ КАК ВЫРАЗИТЕЛЯ ДУШИ

*Курбанова М.О., доцент ФерГУ, PhD*

Лирика как литературный род раскрывает одну из сторон связи человека с окружающим его миром, в ней получают свое выражение переживания личности, вызванные взаимодействием ее с теми или иными явлениями действительности. Если в эпосе главное

<sup>168</sup> Ёзувчи Асад Дилмурод билан сухбат матни муаллиф архивида сакланади.

<sup>169</sup> Дилмурод А., Тўраева Д. Тарихий мөъёр ва эстетик масъулият // Ижод олами. 2018. З-сон. – Б. 8.

— развитие события, судьба героя, то в лирике основное внимание уделяется динамике чувства.

В стихотворении А. Фета «Тополь» правдиво переданы признаки угасающей осенней природы, но вместе с тем оно написано для того, чтобы раскрыть душевное состояние самого автора.

Сады молчат. Унылыми глазами  
С унынием в душе гляжу вокруг;  
Последний лист разметан под ногами,  
Последний лучезарный день потух.  
Лишь ты один над мертвыми степями  
Таишь, мой тополь, смертный свой недуг,  
И, трепеща по-прежнему листами,  
О прежних днях лепечешь мне как друг.

Здесь «тополь» выступает как выразитель столкновения двух чувств: радостного - весеннего и печального - осеннего. И этот конфликт даётся в развитии. Уныние нарастает по мере того, как все больше входит в свои права осень и все дальше отходит в прошлое пора цветения, света и тепла («последний лучезарный день потух»). Лишь один тополь напоминает о весне, ее радостях, поэтому он так дорог поэту.

Очень часто внешние явления, побудившие поэта лирика взяться за перо, бывают незначительными, но они вызывают в нем множество ассоциаций, чувств и мыслей, которые и становятся предметом поэтического выражения. Так, Д. Веневитинов в стихотворении «Веточка» (вольный перевод Грессе) рассказывает о приключении веточки не ради нее самой — ее путешествие и гибель используются им как заключительный «аккорд»:

Вот наша жизнь! — так к верной цели  
Необоримою волной  
Поток нас всех от колыбели  
Влечет до двери гробовой.

Изображая внешний мир, лирик, по существу, растворяет его в своем переживании.

Гегель и вслед за ним Белинский подчеркивали, что подлинная лирика несет в себе общечеловеческое содержание, значительное с общественной точки зрения<sup>1</sup>. Заключенные в ней переживания касаются не одного поэта, они типичны для широкого круга лиц. Чувства, мысли человека — явление столь же объективное, как и события исторической, общественной жизни. Они дают художнику материал для объективной творческой деятельности. Лирик столь же достоверен в своей области, как и романист или драматург. Его поэзия - это незаменимый источник по изучению тех настроений, склонностей, стремлений, которые были присущи людям определенного социального круга в определенную историческую эпоху.

В лирической поэзии могут быть широко изображены явления, послужившие поэту стимулом для размышлений. Однако конкретность и событийность не имеют в лирике самостоятельного значения. Они выступают как побудительная причина для создания «образа — переживания». Лирический поэт пишет не только о себе, он часто объективирует свои чувства. Так возникает сюжетная лирика, теснейшим образом сопряженная с душой автора. Все объективное выступает в ней в субъективном преломлении, получает лирическую окрашенность. В таких стихотворениях предметом изображения является

<sup>1</sup> Белинский В.Г. Взгляд на русскую литературу // Полное собрание сочинений. – М., 1998.

<sup>2</sup> Франко И.Л. Из секретов поэтического творчества. – Киев, 1990.

эпическое событие, но, по замечанию Гегеля, «основной тон остается вполне лирическим». Поэт избирает такие факты, явления жизни, которые в наибольшей степени позволяют ему выразить свое настроение и передать его читателю. В сюжетной лирике, по мысли Гегеля, «содержание имеет эпический характер, обработка же — лирическая».

Лирическое стихотворение отличается внутренним единством. В нем недопустим перебор различных психологических состояний. «В лирике, как и во всяком музыкальном сочинении, — замечает Шеллинг, — преобладает только один тон, одно основное чувство...»<sup>2</sup>. Белинский утверждал в качестве обязательной черты лирического произведения лаконизм, который критик рассматривал как непосредственное следствие господства в стихотворении одной тональности, одного эмоционального настроя. Поэт, полагает Белинский, «не может написать длинной лирической пьесы, которая, при длинноте своей, отличалась бы единством ощущения, следовательно, и единством мысли, и потому была бы полна, целостна и индивидуальна...». Точно так и читатель не может долго находиться во власти однообразных идей и образов.

В лирике поэтическое слово несет исключительно большую нагрузку; тут активно используются все его элементы — смысловой, звуковой, интонационный, ритмический. Здесь все содержательно, вплоть до пауз, и служит средством выражения поэтической идеи. Сила воздействия лирики определяется, прежде всего, ее содержанием. В ней «спрессованы» человеческие мысли и чувства. В творчестве подлинных поэтов любой поэтический прием значим благодаря своей содержательности. Вызванный к жизни необходимостью выражения определенного переживания, он в силу этого находит соответствующий отклик в человеческой душе.

Из всех стихотворных форм наибольшее значение в поэзии имеет ритм. Многие исследователи основной чертой лирического творчества считают его ритмическую организованность, сообщающую произведению музыкальность, порождающую определенную эмоциональную реакцию.

Главное в лирике — эмоционально окрашенные описания и размышления. Воспроизведение же отношений между людьми и их поступков здесь не играет большой роли, чаще всего оно отсутствует вовсе. Лирические высказывания не сопровождаются изображением каких-либо событий. Где, когда, при каких обстоятельствах высказался поэт, к кому он обращался, — все это либо проясняется из самих его слов, либо вообще оказывается несущественным.

И ненавижу ее и люблю. «Почему же?» — ты спросишь.

Сам я не знаю, но так чувствую я — и томлюсь.

(Пер. Ф. Петровского)

Приведенное двустишие древнеримского поэта Катулла является завершенным художественным произведением. Из этого стихотворения читатель ничего не узнает о тех событиях и фактах, которые вызвали выраженное здесь чувство. Ему ничего не известно ни о той женщине, которой посвящено двустишие, ни о судьбе человека, который высказывается. В стихотворении проникновенно передано само по себе чувство человека, в душе которого слились ненависть и любовь, чувство, перед которым он сам как бы останавливается в недоумении. Непосредственность и прямота «самовыражения» — одно из важнейших свойств лирики. «Он (лирический поэт), — писал Гегель, — может внутри себя самого искать побуждения к творчеству и содержания, останавливаясь на внутренних ситуациях, состояниях, переживаниях и страстях своего сердца и духа. Здесь сам человек в его субъективной внутренней жизни становится художественным произведением, тогда как эпическому поэту служат содержанием отличный от него самого герой, его подвиги и

случающиеся с ним происшествия»<sup>1</sup>. Подобные мысли неоднократно высказывались и впоследствии. Лирик, утверждал немецкий поэт И. Бехер, это «человек, выражющий самого себя. Он сам — «герой» своей лирики». И в этом заключается индивидуальная направленность лирики каждого поэта и по нашему взгляду, на каком языке она не звучала, очень легко войдёт в душевный мир читателя и завоюет его. Идут годы, пройдут века, изменяется внешний облик человеческий и его мировоззрение, но остается одно, качество человеческое — восприятие душевное. Душа человека всегда нуждается в лирике и всё время торжествует поэзия всемилюбимая. А, истинного поэта волнует всё, даже судьба осеннего листа.... Лирик перевоспитывает душу.

## ОYBEKNING “DAVRIM JAROHATI” DOSTONI XUSUSIDA

*D.Azimova, f.f.b.f.d (PhD)*

Urush axloqiy nuqtayi nazardan ulkan yovuzlikdir. U ezgulik, mehr-shafqat singari qadriyatlarga, insoniylik haqidagi tushunchalarga zarba berdi, ularni parchalab yubordi. O’tgan asrning o’zida ikki ulkan muhorabani boshdan kechirish insoniyatning asrlar davomida muqaddas sanalgan tushunchalariga, an’analariga putur etkazdi. Mazkur urushning guvohi bo’lgan avlod chin ma’noda “yo’qotilgan avlod”ga aylandi. Mana shu avlodning qismati, fojeasi haqida juda ko’p asarlar yozildi. Ularda urush, uning dahshatlari, talafotlari, so’ngsiz ichtiroblari, insonlar hayotida, taqdirida qoldirgan mudhish izlari aks ettirildi. Urush mavzusidagi dostonlar urush davrida va keyinchalik urushdan so’ng urush ko’rmagan, lekin uning asoratlari ta’sirida ulg‘aygan avlod tomonidan ham davom etdi. Oybekning “Davrim jarohati”, Mirtemirning “Surat”, S.Zunnunovning “Alla”, “Qo’shnilarim”, Erkin Vohidovning “Nido” dostonlarida davrning eng ulkan fojeasi va uning insonlar ongu shuuriga ta’siri, qalbida qoldirgan og‘riqlar asoratlari aks etadi. Jumladan, Oybekning “Davrim jarohati” dostonida XX asrning mash’um hodisalaridan biri — Xirosima fojeasi haqida so’z boradi. Doston 1965 yilda Yaponianing Xirosima shahriga atom bombasi tashlaniga 20 yil to’lishi munosabati bilan bitilgan. Dostonda Oybekona teran mushohadakorlik, chuqur hissiy ifodalarni ko’ramiz. Adabiyotshunos U.Normatov “Davrim jarohati” dostoni janrini liro-publisistik yo’nalishda ekanini ta’kidlaydi<sup>1</sup>. Doston asosini o’tgan asrning mudhish xatosi, og‘riqlari, tuzalmas yarasi — Xirosima fojeasidan tug‘ilgan ichtirob, ulkan ijtimoiy dard tashkil etadi. Dunyoga mashhur ijodkorlardan J.G.Bayron, E.Xeminguey urush nima ekanini his qilish uchun urushga borgan. Bu holat Oybek ijodida ham ko’rinadi. Akademik N.Karimovning yozishicha, 1941 yilda Oybek urushni o’z ko’zi bilan ko’rmoqchi, yaratilajak asarlari uchun material yig‘moqchi bo’lib, harbiy komissariatga uchraydi. Ular yozuvchining iltimosini rad etadilar. Keyinchalik shoir markazqo’mga ham shu talab bilan chiqadi. N.Karimovning “Jabha bo’ylab” maqolasida yozilishicha, 1942-yilda Eson Rahimov boshchiligidagi o’n besh kishidan iborat badiiy brigada tuziladi. Bundan xabar topgan Oybek ularga o’n oltinchi bo’lib qo’shiladi<sup>2</sup>. Safar kundaliklarini vokzalda bir parcha nonga almashtirib olgan bloknotiga tushirib boradi. Adib turmush o’rtog‘i Z.Saidnosirovaga yozgan bir xatida “Front menga ko’p narsa berdi”<sup>3</sup> deb yozgandi. Front bo’ylab safar davomida yaratilgan ko’plab she’rlar “Olovli yillar” to’plamiga kiritildi. Keyinchalik “Front bo’ylab” kundaligi e’lon qilindi. “Yuzlarcha epopeyaga sig‘maydigan bu ulkan muhoraba”(Oybek) ning shohidi bo’lish nafaqat,

<sup>1</sup> Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетики. — М., 2005.

<sup>2</sup> Норматов У. Тўлқинлар ўқирлар ҳазин марсия // Жаҳон адабиёти, 2015 йил, 8-сон, — Б.441.

<sup>3</sup> Каримов Н. Жабха бўйлаб (Ойбекнинг уруш майдонларига сафари) // Халқ сўзи, 1995 йил, 18 апрель. — Б. 4.

<sup>3</sup> Сайдносирова З. Ойбегим менинг. —Т.: Шарқ. 2005. — Б. 178.

“Quyosh qoraymas” romani uchun, balki “Davrim jarohati”dek buyuk dostonlarni yaratish uchun ham boy material berdi. Adib o’z ta’biri bilan aytganda, “muhorabaning dahshatli temir panjasi hayotni siqib tashlagan”iga jonli guvohi bo’ldi. “Davrim jarohati” dostonida lirk subyekt shoirning o’zi. Lekin u voqeani shunchaki hikoya qiluvchi roviy vazifasini o’tamaydi. Dostonda voqelik chuqur dramatizm bilan tasvirlanadi. Asar lirk asosini lirk subyekt—qahramonning fojea natijasida tug‘ilgan kechinmalari, mushohadalari tashkil qiladi. Dostondagi chuqur lirizm bir lahma ham o’z o’rnini quruq bayonchilikka bo’shatib bermaydi. Davrning mudhish fojeasi kuchli pafos bilan tasvirlanadi:

Qalbimda davrimning jarohati bor,  
Shuning-chundir she’rim g‘azabdar, vulqon.  
Jahonga bir kuni tinchlik bo’lur yor,  
Bombani, zulmini unutur inson.<sup>3</sup>

1945-yilning 6-avgustida Yaponiyaning Xirosima shahriga atom bombasi tashlandi. 200 ming kishilik shaharning kuli bir soniyada ko’kka suvirildi, olovga qorishdi. Oybek dostonda qonga botgan XX asrga, o’z qiyofasini yo’qotgan insonga istehzoli savol bilan boqadi. Biz unda shoirona nigoh va olimona mushohadakorlik uyg‘unligini ko’ramiz:

Hayot go’zalligin bilmaydi sotqin:  
Jonfurush, oltinga to’la hamyon  
Unda yo’q insoniy mehrdan yolqin,  
Begonadur unga vijdon isyoni  
Bombaning ta’sirin kutar bemalol  
Istaydi kul bo’lsin olchagun shahri  
*Sen ham insonmisan? Bu ishmi halol?*  
*Tarix unutmaydi, mangudir qahri...<sup>1</sup>*

“Davrim jarohati”da bu yovuzliklar insonga xos emasligi ta’kidlanadi. Urush insonga xos toza tasavvurlar ustidan qora chiziq tortdi. Dastlab 1917-yillardagi Birinchi Jahon urushida, so’ng 1941-1945-yillarda Ikkinci Jahon urushida shafqatsizlik, o’lim bilan yuzma-yuz kelib, inson hayotini qo’rg‘oshin parchasidan ham arzonroq baholanganini ko’rgan avlod hali bu qismatga ko’nikib ulgurmasidan, atom dahshatiga ham guvoh bo’ldi. Bu insoniyatning ong ostida mudrab yotgan yovuzlik instinktlarini uyg‘otib yubordi. Lirk qahramon ana shunday yirtqich, manxuslarning topshirig‘ini a’lo darajada ado etgan kimsalarning inson naslidan ekaniga shubha bilan qaraydi va ularga qarata “Nahotki seni ham bir ona tuqqan?” degan savol beradi:

*Insonlar tinglaydi kechayu kunduz  
Bag‘rida ming yara shahardan nido.  
O’liklar, xastalar yurar izma-iz,  
Nega sen bo lmaysan tinchlikdan judo?<sup>2</sup>*

Odatda, inson bir narsadan qattiq ta’sirlansa, o’sha holat uning ko’z o’ngidan ketmaydi. Ayniqsa, u aybdor bo’lsa, aybdorlik hissi qattiq ezadi. Kuchli ruhiy ta’sir ostida insonning ruhiy muvozanati izdan chiqishi ham mumkin. Lekin Xirosima boshiga kulfat yog‘dirganlarda nega shunaqa emas? Lirk qahramonni mana shu holat qiy Naydi. Koinot gultoji - insonning yovuzligiga nisbatan nafrat tuyg‘usini uyg‘otadi:

*Bombalar, bombalar sening ijoding  
Ko’nglingni, ko’zingni qoplamishdir zang...*

<sup>4</sup> Ойбек. Муқаммал асарлар тўплами, 4-том. Достонлар. – Т.: Фан, 1976. –Б. 55.

<sup>1</sup> Ойбек. Муқаммал асарлар тўплами, 4-том. Достонлар. – Т.: Фан, 1976. –Б. 62.

<sup>2</sup> Кўрсатилган асар. –Б. 62.

Sobiq Ittifoqda vodorod bombasining yaratuvchilaridan biri akademik A.Saxarov keyincha-lik o‘z ishining mohiyati anglab etib, 50-yillardan so‘ng yadro qurolini to‘xtatish uchun kurash olib borgan. U insoniyat tarqoqligida, tuzumlarning qarama-qarshiligidagi ulkan xavf – yadro urushini ko‘ra olgan edi<sup>1</sup>. Oybek ham olim inson edi. U hissiy idroki bilan insoniyat qanday o‘yin boshlaganini yaxshi anglab turardi. “Davrim jarohati”da mana shu ulkan fojeani yirik epik qamrov bilan yoritib berdi. Oybek bu masalani soha olimlaridan ham birinchi bo‘lib ko‘tarib chiqdi. Doston Oybekdek buyuk qalb sohibining majruh Xirosimadan so‘ragan afvnomasi edi. Buyuk insonlarga, ijodkorlarga xos bir xususiyat bor. Ular umuminsoniy fojealarni, dardlarni o‘ziniki deb qabul qiladilar. Ulkan muammolarni ko‘tarib chiqishga, ularga yechim topishga o‘zini mas’ul deb hisoblaydilar. Oybek ham minglarcha chaqirim naridagi Xirosima dardini, og‘rig‘ini o‘ziniki deb bildi, sevgisini, mehrini tortiq etib doston bitdi. Yapon xalqining qalbi, tabiatini gullagan olcha timsolida tasvirladi. Quyosh beshigi – Yaponiyaga mehrini shu tarzda izhor etdi.

YUSUF AMIRIY LJODIDA TARJI'BAND JANRI

*D.Kazakbayeva,  
O'zbekiston tajqiqotchisi*

XIV asrning ikkinchi choragi va XV asr boshlarida o'zbek mumtoz adabiyotida turkigo'y shoirlardan Xorazmiy ("Muhabbatnoma"), Hofiz Xorazmiy, Yusuf Amiri, Gadoiy, Yaqiniy, Sakkokiy, Lutfiy, Atoy, Haydar Xorazmiy, Muhammad Solih, Sayid Ahmad kabi so'z zargarları yashab ijod ettilar. Ular o'zlarining asarlari bilan mumtoz adabiyotimiz xazinasini boyitdilar. Alisher Navoiy "Majolis un-nafois" asarida yuqoridagi turkigo'y shoirlar ijodini yuksak baholaydi. Bundan tashqari boshqa shoirlar haqida ham ma'lumotlar berib o'tadi. Ularni ta'riflash bilan birga ijodlaridan misollar keltirib, o'z munosabatini bildiradi. Shayxim Suxayliy, Osafiy, Shavqiy, Naimiy, Qalandar, Tarxoniy, Abobakr Mirzo, Shoh G'arib Mirzo, Hiloliy kabi shoirlar ijodlaridan namunalar keltiradi, hayotiga oid qiziqarli voqealardan birini aytib o'tadi. Muhammad Solih ijodini xolis baholaydi. Masalan, Muqimiy taxallusli shoirni hurmat bilan tilga oladi: "Mavlono Muqimiy — hiriylilik erdi. Darvesh, mashrab kishi erdi. Sufiya istilohotidin ham vuqufi bor erdi. Bu toifa istilohotig'a muvofiq chun turkigo'y erdi, turkcha tarje' aytibdurkim, xili choshnisi bor va aning bandi bu baytdurkim:

Sensen asli vujudi har mavjud,  
Sendin o'zga vujudda ne vujud.

Qabri Hiriydadur<sup>170</sup>. Bundan ko'rinaridiki, Shayx Ahmad ibn Xudaydod Taroziy "Fununu-l-balogs'a" asarida ham Muqimiy tahallusli turkigo'y shoir she'ridan ham namunalar keltiradi. Navoiy tilga olgan Muqimiy Taroziy asarida keltirilgan shoir bo'lsa ajab emas. Alisher Navoiy "Majolis un-nafois"da yana ko'p shoirlar haqida ajoyib mulohazalarini aytib o'tadi. Latifiy, Kamoliy, Mirzo Hoji So'g'diy, Sulton Iskandar Sheroyi, Hoji Abulhasan, tog'alari - Mir Said Qobuliy va Muhammad Ali G'aribiylar haqidagi e'tiroflari taxsinga sazovordir. Xususan, XV asr turkigo'y shoiri Yusuf Amiri haqida shunday deydi:

*“Mavlono Amiriy - turk erdi va turkcha she’ri yaxshi voqe’ bo lubdur... Va bu bayt aning “Dahnomá” sidindur:*

*Ne yemakdin, ne uyqudin solib so ž,  
Emakdin to ūyb uyqudin yumub ko ž.*

*Ba forsiyda Shayx Kamol tatabbu'i qilibdur. Bu matla' aningdurkim:*

<sup>3</sup> Сахаров А. Тараккиёт ва тинч-тотув яшаш ва эркинлик ҳакида ўйларим // Жаҳон адабиёти, 1999, май. – Б. 166.

<sup>170</sup> Алишер Навоий. МАТ / Мажолис ун-фаоис. Алишер Навоий номидаги Адабиёт институти. Ҳ.Сулаймонов номидаги Қўлзёмалар институти. Ж.13. – Т., 1997. - Б. 52.

*Ro'zi qismat har kase az aysh baxshi xud sitond,  
G'ayri zohid k-o'riyozatho kashidu xushk mond.*

Mazmuni: Zohid kishi qismatida har qancha qiynalsa ham o'ziga baxsh etilgan aysh – ishratni inkor eta oladi. K.D.) Aning qabri Badaxshon sari Arhang Saroydadur<sup>171</sup>.

Demak, Yusuf Amiriyning ijodiy faoliyatiga Navoiy befarq bo'limgan. Bu haqda adabiyotshunos B.Qosimov shunday deydi: "Yusuf Amiri va Yaqiniy munozalarali Navoiy prozasining paydo bo'lishida, jumladan, ulug' zamondoshlari haqida yozgan nasriy yodnomalardan tortib ijtimoiy-falsafiy risolalarigacha ta'sir ko'rsatgan edi. Ular o'zlarining badiiy qimmati bilangina emas, balki Navoiy o'qiganligi, Navoiyning nigohi tushganligi bilan ham ardoqli va ahamiyatli"<sup>172</sup>. Yusuf Amiri to'g'risida Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro" asarida ma'lumotlar bor. "Mavlono Yusuf Amiri ma'lum va mashhur shoirlarning jumlasidin turur. Shohrux Sultonning zamonida anga shuhrati azim hosil bo'ldi. Va hamisha nomus bila ro'zgor o'tkarur erdi va umaro va arkoni davlat anga nigohdosh deb aytur erdilar. Va hoqoni kabir Shohrux Sulton va oning avlodlari va umarolarining madhida onga pokiza qasidalari bor turur. Va bu qasida Boysung'ur Bahodurning madhida angadur<sup>173</sup>". Keltirilgan manbaga ko'ra Yusuf Amiri temuriylardan Shohrux mirzo va Boysung'ur mirzolar davrida yashagan, shuhrat topgan va temuriy shahzodalardan izzat-ikrom ko'rgan. Nomusli, vijdonli, halol, kamtar inson bo'lgan. Yusuf Amiri XV asrda Hirotda yashagan turkigo'y shoir. Har ikki tilda – turkiy va forsiyda erkin ijod qilgan. "Bang va chog'ir munozarasi", "Dahnama" asarlarining muallifi. Devon tartib bergen. Yusuf Amiri ijodini dastlab E.Rustamov<sup>174</sup> (umumi obzorda K.D.) so'ngra M.Abduvohidova<sup>175</sup> ("Bang va Chog'ir munozarasi"ni K.D.) tadqiq etishadi. H.Bektemirov Yusuf Amiri asarlarini tilshunoslik nuqtai nazaridan o'rganadi<sup>176</sup>. Turkiyalik olim Ismoil Hikmat Ertaylonning ma'lumotlariga ko'ra, Yusuf Amiriyning forsiy devoni Turkiyaning As-Sofiya kutubxonasida 3883 inventar raqami bilan saqlanadi<sup>177</sup>. 1992 yilda Erkin Ahmadxo'jaev "Yusuf Amiri merosiga doir"<sup>178</sup> nomli maqolasini e'lon qiladi. Unga ko'ra olim Yusuf Amiri va Umarxon Amiri ijodiga oid chalkashliklarga aniqliklar kiritadi. Ya'ni, ayrim g'azal, tuyuq, muxammas kabi she'rлarining har ikki shoirga ham nisbat berilganligini va bu lirik turga mansub asarlar aynan qaysi shoirga tegishli ekanligini devonlarini solishtirish asosida aniqlaydi. Yusuf Amiri "Dahnama", "Bang va Chog'ir munozarasi" asarlarini yozish bilan birga g'azal, tuyuq, fard, qasida, tarji'band kabi janrlarda barakali qalam tebratdi. Uning ijodida to'qqiz band, 36 bayt-72 misradan iborat tarji'bandi bor. Tarji'band ishqiy mavzuda yozilgan bo'lib, mumtoz adabiyotimizning go'zal namunasi hisoblanadi. Tarji'band ma'shuqasidan mehr ko'rmangan oshiqning kayfiyati bilan boshlanadi. Ayriliq ichra Majnun kabiman. Ma'shuqani yod olishim bilan ishq aro xomush tortaman. Yo rab, rahm qilginki, hijrondan behush bo'lishim mumkin deya, har band oxirida quyidagi tarji'-vosita baytini keltiradi:

*Holatim bad, g'ussa behad, vasl maqsad, nola besh,  
Baxt vojun, dard afzun, diyda purxun, siyna resh.*

Tarji'bandning ikkinchi bandidi shoir ma'shuqasidan ko'rgan sitamlarini go'zal o'xshatish vositalari orqali ifodalaydi:

<sup>171</sup> Алишер Навоий. МАТ Мажолис ун-нафоис. Алишер Навоий номидаги Адабиёт институти. X.C.Сулаймонов номидаги Кўлэзмалар институти. Ж.13. – Т.1997. - Б. 18.

<sup>172</sup> Навоийнинг нигоҳи тушган. - Тошкент: Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. - Б. 10.

<sup>173</sup> Давлатшоҳ Самарқандий. Тазкират уш-шуаро / Мухаммад Рафъи таржима килган ва кўчирган кўлэзма нусха ЎзФА Шарқшунослик институти, инв. №7016, в. 193б – 194а..

<sup>174</sup> Рустамов Э. Узбекская поэзия в первой половине XV века. Москва: ИЛВ, 1963.

<sup>175</sup> Абдувохидова М. Ўзбек адабиётида мунозара. – Тошкент: Фан, 1984.

<sup>176</sup> Бектемиров Х. Исследование языка произведений Йусуфа Амири (I пол. XV века). Автореф. канд. дисс. – Ташкент, 1973.

<sup>177</sup> Бектемиров Х. Исследование языка произведений Йусуфа Амири (I пол. XV века). С. 4.

<sup>178</sup> Ахмадхўжаев Э. Юсуф Амирӣ меросига доир. Адабий мерос. – Тошкент: 1992. – Б. 38-47.

Baski, bir kofir g‘ami ko‘nglimni behol ayladi,  
 Rishtai jonimni bu betoblig‘ nol ayladi,  
 Qomatimni g‘am yuki mehnat aro dol ayladi,  
 Dardi mehnat sabr ila toqatni pomol ayladi.  
 So‘zlamak imkoni yo‘q, hayrat tilim lol ayladi,  
 Jon kuyub, tan poymoli dog“i behol ayladi.  
*Holatim bad, g‘ussa behad, vasl maqsad, nola besh,*  
*Baxt vojun, dard afzun, diyda purxun, siyna resh.*

Ma’shuqani “bir kofir”ga qiyoslaydi. O’sha “kofir” ko‘ngliga behalovatlik solgani uchun “betoblig”da qomati dolga aylandi. Uning visoliga yetishish uchun mehnat qiladi, ammo sabr-toqati bu mehnatlarini paymol qiladi. Hattoki, so‘zlamoqqa ham imkoni yo‘q, tili lol. Ruhiy iztiroblari oshiqning tan-u joniga ta’sir qilib, behol qiladi. Ushbu bandda shoir “kofir g‘ami”, “g‘am yuki”, “dol aylamoq”, “hayrat tilim”, “tan paymoli” kabi tashbehiy vositalaridan foydalanadi. Bu vositalar oshiqning iztiroblarini ochib berishda yetakchi vazifani bajaradi. Keyingi bandda oshiqning qaddi egilganligini u “sarvi xiromon” bilmaganligidan, kechalari nola qildi, lek u “nomusulmon” bexabarligidan shikoyat qiladi. To’rtinchi bandida oshiq o‘ziga undovni qaratadi:

Qildi sargardon junun vodisini rasvolig‘im,  
 Soldi o‘t ahli jahonga sho‘rishi Shayxdolig‘im,  
 Dahr aro afsona bo‘ldi besaru savdolig‘im,  
 Obro‘ mulkini toroj ayladi yag‘molig‘im,  
 Qissai Majnunni mansux etti beparvolig‘im,  
 Budur onsiz kulbai g‘am ichra bazmorolig‘im,  
*Holatim bad, g‘ussa behad, vasl maqsad, nola besh,*  
*Baxt vojun, dard afzun, diyda purxun, siyna resh.*

Junun vodiysini, ya’ni oshiqlar makonini mening rasvoligim sargardon qildi. Shaydoligim esa butun jahon ahliga o‘t soldi. Dahr aro, ya’ni butun dunyoga savdoyiligidan afsona bo‘ldi, deya mubolag‘a san’atining ig‘roq turidan foydalanadi. Ig‘roq mubolag‘a san’atining ikkinchi turi bo‘lib, aqlan ishonish mumkin bo‘lsa-da, hayotda yuz berishi mumkin bo‘lmagan badiiy san’at turidir. Oshiqning Shaydoligi jahon ahliga o‘t qo‘yadigan darajada ekanligiga va uning savdoyiligi butun olamga afsona bo‘lganligiga hayotda bo‘lmasa-da, aqlan ishonish mumkin. Beshinchi va oltinchi bandlarda oshiq yana ma’shuqaning bemehrligidan shikoyat qiladi. La’lidan bir og‘iz shirin so‘zni takallum aylamaydi, devona misoli yig‘lasam ham bir tabassum hadya etmaydi. Ma’shuqaning noz-u istig‘nosi husnining shohi bo‘lib turibdi. Shuning uchun ham bu “junun savdosi” mening boshimga tushgan. Ishq ahlining eng telba, eng rasvosi ham o‘zimman, deya mubolag‘anining tablig‘ turiga murojaat etadi. Tablig‘- aqlan ishonish mumkin bo‘lgan, hayotda ham yuz berishi mumkin bo‘lgan mubolag‘adir. Tarji‘bandning yettinchi bandi eng avj (kulminatsion) nuqtasi hisoblanadi:

Dahr aro mendek kishi hajr ilgida zor o‘lmasun,  
 Mubtalovu xastavu majruhu afgor o‘lmasun,  
 Hech kofir ishq dardindin xabardor o‘lmasun,  
 Men kabi anduh domig‘a giriftor o‘lmasun,  
 Bedil-u ovorayi har shahru bozor o‘lmasun,  
 Kulbayi ehzonda mendek zor-u bemor o‘lmasun  
*Holatim bad, g‘ussa behad, vasl maqsad, nola besh,*  
*Baxt vojun, dard afzun, diyda purxun, siyna resh.*

Davlatshoh Samarcandiy “Tazkirkat ush-shuaro” asarida xabar berishicha, Yusuf Amiri y zamonasining ma’lum va mashhur shoiri bo’lishiga qaramay, o’ta kamtar va kamsuqum bo’lgan. Halollik bilan ro’zg’or tebratgan. Darhaqiqat, yuqoridagi bandda Yusuf Amiri o’zgalarga hayrixoh kayfiyatda ekanligini sezamiz. O’zi ishq dardida qiynalgan oshiq o’zgalarning bunday tole’siz muhabbatga mubtalo bo’lishini istamaydi. Ishq domiga giriftor bo’lib, ovorai sarson bo’lishini xohlama ydi. Bandda *hajr*, *zor*, *mubtalo*, *xasta*, *majruh*, *bemor afgor*, *giriftor ishq*, *dard*, *anduh*, *shahru bozor*, *kulba* kabi so’zlar tanosub san’atining go’zal namunasini vujudga keltirgan. Tarji’bandning to’qqizinchı bandi yakunlovchi qism bo’lib, unda muallif tarji’band an’analariga muvofiq taxallusini qo’llaydi:

Yig’lamoqdin baski qon bo’ldi ko’zum nazzorası,  
Lolarang ermish sirishkim selining favorasi,  
Intizordin oqardi diydalarni qorasi,  
Mahrami kofurdin bitmas ko’ngulni porasi,  
Rezai-i almosdin labrez ko’ksum yorasi,  
Topmadim hargiz, Amiri, dardi furqat chorasi!  
*Holatim bad, g’ussa behad, vasl maqsad, nola besh,*  
*Baxt vojun, dard afzun, diyda purxun, siyna resh.*

Tarji’band *a-a-a-a-a-a; b-b* tarzida qofiyalangan. Tarji’bandning oxirigi vosita baytiga e’tibor bersak, ichki qofiyalari mavjud: *bad-behad-maqsad; vojun-afzun-purxun*. Bunday ichki qofiyalar *musajja’ qofiya* deyiladi. Musajja’- saj’li qofiya bo’lib, she’riy asarlarda ichki qofiyani yuzaga keltiradi. Musajja’ she’rlarda baytlardagi misralar to’rt bo’lakka bo’linib, oldingi uch bo’lak o’zaro mustaqil holda qofiyalanib, to’rtinchı bo’lak esa alohida holda qofiyalanadi. Bunday holatni Yusuf Amiri tarji’bandining vosita bayti misolida ko’rishimiz mumkin:

1 2 3 4

<i>Holatim bad</i>	<i>g’ussa behad</i>	<i>vasl maqsad</i>	<i>nola besh</i>
<i>Baxt vojun</i>	<i>dard afzun</i>	<i>diyda purxun</i>	<i>siyna resh</i>

Musajja’ qofiya to’rtta teng bo’lakka bo’lingan sakkiz ruknli musamman baytlarda qo’llaniladi. Shu nuqtai nazardan biz ushbu tarji’ baytini vazni, ruknlari va taqte’ini tekshirib chikdik:

Ramali musammani mahzuf

Ho	la	tim	bad	g’us	sa	be	had	vas	l(i)	maq	sad	no	la	besh
-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-
Fo	i	lo	tun	fo	i	lo	tun	fo	i	lo	tun	fo	i	lun
Baxt	t(i)	vo	jun	dar	d(i)	af(i)	zun	diy	da	pur	xun	siy	na	resh
-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-
Fo	i	lo	tun	fo	i	lo	tun	fo	i	lo	tun	fo	i	lun

Yusuf Amiri tarji’bandini she’riyatimizda eng o’ynoqi vazn - ramali musammani mahzuf vazniga solgan bo’lib, bu vaznning cho’ziq va qisqa ruknlari bir xil ritmda takrorlanib, juda yoqimli va jozibador ohangni yuzaga chiqargan. O’zbek mumtoz adabiyotida musajja’ qofiyali baytlarni o’ta iqtidorli shoirlar ijodidagina kuzatamiz. Hofiz Xorazmiyning devonida musajja’ qofiyali g’azalni uchratamiz:

*Bandi g’am ichra xastaman, zulfing bikin ishkastaman,*  
*Ishkastayu ham bastaman, bu qulni kel ozod qil.*

Hofiz Xorazmiydan so’ng Navoiy, Bobur, Ogahiy, Mashrab, Furqatlar musajja’ qofiyali baytlar bitganligining guvohi bo’lamiz. Yusuf Amiri yning musajja’ qofiyani qo’llashi, badiiy san’atlardan mohirona foydalanishi tarji’bandning badiiy qimmatini oshirgan. Yusuf Amiri y

mumtoz adabiyotimizda murakkab tuzilishga ega bo'lgan, shoirdan alohida iqtidor talab etadigan tarji'band janrida ijod etib, ushbu janrning takomiliga munosib hissa qo'shdi.

### Adabiyotlar

1. Алишер Навоий. МАТ Мажолис ун-нафоис. Алишер Навоий номидаги Адабиёт институти. Ҳ.Сулаймонов номидаги қўлёзмалар институти Ж.13. –Т.1997. - Б.52.
2. Алишер Навоий. МАТ Мажолис ун-нафоис. Алишер Навоий номидаги Адабиёт институти. Н.С.Сулаймонов номидаги қўлёзмалар институти Ж.13. –Т.1997. - Б.18.
3. Навоийнинг нигоҳи тушган. - Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашириёти. 1986. - Б. 10.
4. Давлатшоҳ Самарқандий. Тазкират уш-шуаро. ЎзФА Шарқшунослик институти, инв. №7016, в. 1936 – 194a. Муҳаммад Рафъи таржима қилган ва кўчирган қўлёзма нусха.
5. Рустамов Э. Узбекская поэзия в первой половине XV века. ИЛВ. Москва: 1963.
6. Абдувохидова М. Ўзбек адабиётида мунозара. – Тошкент: Фан, 1984.
7. Бектемиров Х. Исследование языка произведений Йусуфа Амири (I пол. XV века). Автотеф. кан. дисс. - Ташкент: 1973.
8. Бектемиров Х. Исследование языка произведений Йусуфа Амири (I пол. XV века). Автотеф. кан. дисс-и. -Ташкент: 1973. С. 4.
9. Аҳмадхўжаев Э. Юсуф Амири меросига доир. Адабий мерос. –Тошкент: 1992. - Б.38-47.

### ANBAR OTINNING “RISOLAYI FALSAFAYI SIYOHON” ASARI HAQIDA

*N.Pardayeva,  
O'zbekiston universiteti  
O'zbekiston madaniyati doktaranti*

Anbar Otinning ijodiy merosida lirik turga mansub asarlari bilan bir qatorda, nasriy yo'lida yozilgan “Risolayi falsafayi siyohon” (“Qarolar falsafasi”) asari ham alohida o'rinn egallaydi. Asarning to'liq nomi “Risolayi falsafayi siyohon” bo'lib, “Qarolar falsafasi haqida risola” degan ma'noni anglatadi. Asar hijriy 1328 (milodiy 1910 -yil) – yilda yozilgan bo'lib, ayrim manbalar da hijriy 1318 (milodiy 1898 -yil) deb ko'rsatilgan<sup>179</sup>, lekin shoira asar so'ngida asarni “Tarixi tahrir 1328 hijrisi. Qirq uch sahifa g'ayraz muqaddima”<sup>180</sup> deb yakunlagan. Qo'lyozma oddiy daftar qog'oziga qora siyoh bilan nasta'liq yozuvida yozilgan. Asarning hajmi 36 betdan iborat bo'lib, Hozirda Qo'qon adabiyot muzeyi fondida 1019 invertar raqami ostida saqlanadi.

Shoiraning ushbu qo'lyozma devoni 70-yillarning boshlarida jurnalist Turob Akbarxo'jayev shoiraning O'rategada yashayxotgan qizi Bibixon yordamida topadi. Bu asar haqida ilk marotaba T.Akbarxo'jayev 1963-yili “O'zbekiston madaniyati” gazetasining 16- mart sonida “Shoira falsafasi” nomli chop etilgan maqolasida ma'lumot beradi. Maqolada T.Akbarxo'jayev asarning topilish tarixi, tuzilishi hamda mazmuni haqida qisqacha to'xtalib o'tadi. Shundan so'ng asarni o'rganish va badiiy jihatdan tahlil qilish yuzasidan bir qancha ishlar matbuotda e'lon qilindi va tadqiqotchilarining ilmiy izlanishlarida asar hamda uning badiiyati haqida mulohazalar bayon qilindi.

Fotima Husainovaning “Shoira Anbar Otinning yangi topilgan risolasi” maqolasida<sup>181</sup>, “Demokrat shoira – Anbar Otin” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida<sup>182</sup>, Mahbuba Qodirovaning “Shoira Anbar Otin “asarida<sup>183</sup>, yana shu muallifning “XIX asr o'zbek adabiyotida

<sup>179</sup> Husainova F. Shoira Anbar Otinning yangi topilgan risolasi. // O'zbek tili va adabiyoti, 1964 – yil, № 1, 40 – b.

<sup>180</sup> Husainova F. Anbae Otin. She'rlar, risola. – Toshkent: G'afur G'ulom, 1970 – yil, 108 – b.

<sup>181</sup> Husainova F. Shoira Anbar Otinning yangi topilgan risolasi. // O'zbek tili va adabiyoti, 1964 – yil, № 1, 35 – 42 - b.

<sup>182</sup> Husainova F. Demokrat shoira – Anbar Otin. Filologiya fanlari nomzodi... dissertatsiya. – Toshkent, 1966 – yil, 99 – 127 – b.

<sup>183</sup> Qodirova M. Shoira Anbar Otin. – Toshkent: Fan, 1991 – yil, 38 – 50 – b.

inson va xalq taqdiri (O'zbek shoiralari ijodi misolida)" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi<sup>184</sup> kabi ilmiy izlanishlarda shoiraning hayot yo'li va ijod sahifalari badiiy yo'sinda bayon qilib berilgan, hamda "Qarolar falsafasi" asariga alohida to'xtalib, asarning badiiyatini va asar g'o-yasini ochib berishga harakat qilingan. Shuningdek, La'lixon Muhammadjonovaning "Muhabbat birla sevgil..."<sup>185</sup>, "Ma'rifikatparvar shoira"<sup>186</sup>, "Ayol va jamiyat"<sup>187</sup> kabi maqolalarida asar haqidagi ayrim mulohazalar bildirib o'tilgan. Boshqa bir qancha adabiyotshunos olimlarimiz ham o'z maqolalarida asar haqida qisqacha fikrlarini bildirib o'tganlar.

Risola kichik kirish qismi bilan boshlanadi. Kirish qismida shoira o'zining hol – ahvolini tavsiflaydi va ismiga izoh berib o'tadi. So'ngra muallif asarning mazmuni va uni yozishdan maqsadi nima ekanligi haqida gapirib, "Bul kitob qarolar sharhidur, bu kitobda Anbar arzi vositasi ilan sharh etilur"<sup>188</sup> – deydi.

Shoira asarni tubandagicha 4 faslga ajratadi:

1. Avvalg'i fasl qarolar orazi bayonida.
2. Ikkinci fasl farqi qarolar bayonida.
3. Uchinchi fasl baxti qarolar bayonida.
4. To'rtinchi fasl qaro zulmat tasvirida.

Shoira risoladagi har bir faslni hayotiy voqealar, o'ziga xos tashbehtar, tabiiy ko'rinishlardan mohirona foydalangan holda, o'z falsafiy qarashlari va teran fikrlari orqali yoritib beradi.

Ma'lumki, asarning asosiy obraqi – xalq hisoblanadi. Anbar Otin asardagi barcha fasllarda mavjud ijtimoiy jamiyatningadolatsizligi, chirkin tuzum natijasida mehnatkash xalqning jabr-lanishi, inson manfaatlarining poymol etilishi, davlat amaldorlarining oddiy xalqqa bo'lgan munosabati, zodagon va eshonlarning o'z cho'rilariga, ayollarga va mehribon onalarimizga bo'lgan nohaq munosabatlar hamda ular sha'niga yog'dirilayotgan jirkanch bo'htonlar, ayrim din peshvolarini dinni niqob qilib olib uni xalq ongiga notog'ri singdirishi, chor amaldorlarning noo'rin harakatlari, oq va qora tanli insonlar o'rtasidagi tafovutlar, tengsizliklar, o'zi shohidi bo'lgan jamiyki, razilliklar to'g'risidagi qarashlarini bayon qiladi. Fasllarga bergen har bir fikrlarining so'ngida o'z qarashlarining xulosasi sifatida bittadan g'azal keltiradi.

Shoira xaloyiqqa murojaat qilib, hali oldinda yorug' kunlar kelishi, kelajakda shunday zamon bo'ladiki, unda har bir shaxs teng huquqli bo'lishi, ayollarning ozod va har jahbada erkaklar bilan tenglasha olishi borasidagi orzu – umidlarini baralla ayta oldi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, shoira ushbu asarida o'zi yashab turgan jamiyatdagi barcha qabohat va xo'rliklarni, insonlarning qadrsizligi va xalqqa inson sifatida qaramaydigan amaldorlar, xalqning turmush tarzi hamda kelajak borasidagi istaklarini tasvirlab bergen. Shuningdek, asarni bugungi kun nuqtayi nazaridan o'rganish va tahlil qilish adabiyotshunosligrimiz oldidagi asosiy vazifalardan biridir.

<sup>184</sup> Qodirova M. XIX asr o'zbek adabiyotida inson va xalq taqdiri (O'zbek shoiralari ijodi misolida). Filologiya fanlari nomzodi... dissertatsiya. – Toshkent, 1975 – yil.

<sup>185</sup> Muhammadjonova L. Muhabbat birla sevgil...// Sanam, 1999 – yil, № 2, 10 – 11 – b.

<sup>186</sup> Muhammadjonova L. Ma'rifikatparvar shoira. // Sog'lom avlod uchun, 2002 – yil, № 6, 45 – 46 – b.

<sup>187</sup> Muhammadjonova L. Ayol va jamiyat. // Qalqon, 1999 – yil, № 12, 13 -14 – b.

<sup>188</sup> Husainova F. Anbae Otin. She'rlar, risola. – Toshkent: G'afur G'ulom, 1970 – yil, 81 – b.

## SHAYBONIY SHE'RIYATIDA TALMIH SAN'ATI

*M.Sharipova, O'zMU  
mustaqil izlanuvchisi*

Sharq mumtoz adabiyotida eng ko'p murojaat qilingan badiiy vositalardan biri talmihdir. Shoh va shoir Muhammad Shayboniyxon ham talmih san'atidan unumli foydalangan. Uning "Devon"ida an'anaviy talmihlardan Sharqda mashhur asar qahramonlari (Rustam, Layli, Majnun, Farhod, Shirin, Vomiq) nomlari, payg'ambarlar, tarixiy va afsonaviy shaxslar (Nuh, Muso, Iso, Ayub, Yusuf, Xizr, San'on, Jamshid, Doro, Iskandar) nomlari bilan birga boshqa ijodkorlar tomonidan qo'llanmagan yangi talmihlar ham mavjud. Bu hol asosan Shayboniyxonning harbiy-siyosiy faoliyati, ya'ni tarixiy voqelik bilan aloqadorlikda yuzaga kelgan. Manbalardan ma'lumki, bo'lajak davlat asoschisi, sulolaboshi, sarkarda yoshlik chog'lardan boshlab to umrining oxiriga qadar jahongirlik orzusida tinimsiz urush va yurishlar olib borgan. Juda ko'p o'ikalarni kezgan, talay joylarni ma'lum muddat makon tutgan. Hududlarni egallash rejasini tuzar ekan, tabiiyki, yerlik aholi, hokimlar, u yerkarning tabiat, iqlimi, joylashuvi va boshqa jihatlarini o'rgangan. Shu jarayonda o'zi bosib o'tgan joylarning va o'zi to'qnashgan, muloqotda bo'lgan insonlarning o'ziga xos xususiyatlaridan ma'lum darajada xabardor bo'lgan, muayyan vaqtida ro'y bergen voqealarning guvohi bo'lgan. Ijod bilan shug'ullanganda shu insonlarning va joylarning nomlarini talmih uchun obyekt sifatida tanlab olganligi shoirning she'rda ifodalamoqchi bo'lgan asosiy maqsadi bilan bog'liq.

Shayboniy "Devon"idan o'rinni olgan "ichinda" radifli o'n baytli g'azalning so'nggi uch bayti tarixiy asosga ega bo'lib, quyidagi maqta' bilan tugaydi:

Shaboniyg'a beribtur nusratin Haq,  
Qovubmen Xusravi chaqmoq ichinda.

G'azalda tilga olingan Xusrav Sharq xalqlari og'zaki ijodi va yozma adabiyotida keng tarqalgan an'anaviy badiiy obraz yoki bu obrazning prototipi sosoniyalar shahanshoi Xusrav II Parviz emas. U Shayboniyxonning zamondoshi Hisor hokimi Xusravshohdir. Asli turkistonlik qipchoqlardan bo'lib, yoshligida taxxon beklariga xizmat qilgan. Keyinchalik ulug' amir darajasiga ko'tarilib navkarlari soni qirq mingtacha bo'lgan. "Boburnoma"da ham bu shaxs haqida ko'p ma'lumot qayd etilgan. Shayboniyxon 1505-yilda Hisorga qo'shin tortganda Xusravshoh lashkari va viloyatlarini tashlab Kobulga qochadi. Xon Hisorni qamal qiladi. Shaharni qo'lga kiritishni Shayboniy sultonlardan Hamza Sulton bilan Mahdi Sultonga topshirib, o'zi Qunduzga ketadi. Hisorni qaytarib olishga uringan Xusravshoh Hamza Sultonning qo'liga tushadi.

Yuqoridagi baytda mana shu tarixiy voqealarga talmih san'ati vositasida ishora qilingan. Muhammad Solihning «Shayboniynoma» tarixiy dostonida (1506) mazkur voqealar batafsil bayon qilingan va Shayboniying "ichinda" radifli g'azali to'liq keltirilgan.

Talmih san'atiga rioya qilingan baytlarda geografik nomlarga ham ishora qilinadi. Shayboniy ijodida mumtoz adabiyotda ko'p takrorlangan joy nomlari (Badaxshon, Xo'tan, Chin, Samarqand, Buxoro)dan tashqari Kasbi, Konigil, Qarshi, Qorako'l, Vaxsh, Buxoro, Urganch, Ko'ksaroy, Balx, Bog'i Nav, Movarounnahr, Bag'dod, Sabron, Sig'noq, Qilich, Uchqo'ng'ur, O'tror, Turkiston, Qizilsuv, Ko'ksuv, Kerman, Shodmon, Qohliq, Gurgon, Darg'om, Baqlon kabi joy nomlari ham qo'llangan. Bizningcha, mazkur geografik nomlar boshqa shoirlar she'riyatida deyarli uchramaydi. Zero, Shayboniyxondek butun umri ot ustida, harbiy safarlarda kechgan ijodkorlar ko'p emas.

"Devon"da Turkiston, Movarounnahr, Xuroson, Erondagi bir necha o'nlab geografik joy nomlari – shahar va qishloqlar, qal'a va qo'rg'onlar, tog' va daralar, ko'l va daryolar, bino va inshootlar tilga olingan.

Ushbu yoz faslinda azmi Astrobod ayladuk,

Adlu dod ila bu elni asru obod ayladuk, –

matla'li g'azal yetti baytdan iborat bo'lib, uchta baytda oltita so'z va so'z birikmalari – Astrobod, Temur o'g'lolnari, qizil bo'rк, Gumbazi Qobus, Gurgon, Bag'dod talmih san'atini yuzaga keltirgan. Bulardan to'rttasi geografik joy nomi:

Astrobod – o'rta asr shaharlaridan. Hozirgi Eronning shimolida joylashgan kichik bir shahar. Gumbazi Qobus – Ziyoriyalar davrida qurilgan Qobus ibn Vushmagir maqbarasi Kovus shahridagi islomiy eng qadimiy tarixga ega bo'lган bino. Bu inshoot hozirgacha saqlanib qolgan. Qobus gumbazining minorasi ham bo'lган. Gurgon – Erondagi qadimiy tarixiy viloyat va daryo. Gurgon 1930-yilgacha Astrobod deb nomlangan. Gurgon forscha so'z bo'lib, aslida Jurjon. Shayboniy bir she'rida Jurjon shaklini ham ishlatgan. Bag'dod – Iroqning markaziy shahri, o'rta asr Sharq madaniyatining markazi.

Ma'lumki, Shayboniyxon 1507-yilning bahorida Xurosonga yurish qilganda mamlakatda qo'sh hukmdorlik o'rnatilgan edi. Badiuzzamon Mirzo va Muzaffar Mirzo Hirotning ikki chekkasida taxt qurban edilar. Shayboniyxon biringchi jangdayoq har ikki shahzodaning qo'shini tor-mor etib, Hirotni egallaydi. Badiuzzamon Mirzo Sindga, Muzaffar Mirzo Astrobodga qochadi.

Yuqoridagi matla' mazmunidan anglashiladiki, Shayxboniyxon Hirot fathidan so'ng 1508-yilning yoz faslida Astrobodga yurish boshlagan.

Bu Temur o'g'lolnari tag'yir qildi mazhabin

Kim, qizil bo'rк diniga kir desa, barbob ayladuk.

Bu vaqtida Astrobodni "Temur o'g'lolnari"dan Muzaffar Mirzo (1473-1509) boshqarar edi. Qizil bo'rк (Qizilboshlar) – Erondagi ko'chmanchi turkiy harbiy-siyosiy kuch, o'n ikki shia imomi sharafiga o'n ikki qizil yo'llik matodan salsa o'rab yurishgan. Qizilbo'rklarga tayangan safaviylar shialikni bayroq qilib, mafkura sifatida qo'llab Turkistonning janubi-g'arbini zabit etishga intilganlar. Shayboniyxon e'tiqodda sobit inson bo'lган, yurtimizda azaldan joriy bo'lib kelgan hanafiya mazhabini shia mazhabi tarafдорлари xurujlaridan qattiq turib himoya qilgan. Baytdagi temuriy shahzodalar mazhabini o'zgartirdi degan fikr dushmanlariga nisbatan mubolag'ali ayblov bo'lsa-da, Bobur Mirzo, keyinroq Badiuzzamon Mirzo shia mazhabini rasmiy davlat mafkurasi deb e'lon qilgan Eron shohi Ismoil Safaviyning harbiy ko'magidan umidvor bo'lib, uning huzuriga borganliklari manbalarda keltirilgan.

Gumbazi Qobus ila yoyleb o'shul Gurgon suyin

Kim, qizil bo'rк jahdidin biz azmi Bag'dod ayladuk.

Shayboniyxon islomning zaiflashuviga sabab bo'ladigan mazhablararo tarafkashliklarga chek qo'yish maqsadida Ismoil Safaviyga qarshi jang qilgan. Muhoraba juda qattiq kechgan. Shayxboniyxon og'ir yaralangan holda hijriy 916- yil 30-sha'bon, milodiy 1510-yilning 4-dekabrida halok bo'lган. Uning halok bo'lган sanasi ham «kulohi surx» deb ta'rif qilingan.

"Devon"dagi qator she'rlarda turli yillarda barpo etilgan bog' va qasrlar nomi ham talmih san'atini yuzaga keltirgan.

Ul parini Ko'ksaroy ichinda har dam ko'rgali,

Zulf'i anbar, bo'yi mushkin vasfida devonidur.

Ko'ksaroy – temuriylar saltanatining Samarqanddagi saroyi. Amir Temur tomonidan 1371-yil qurib bitkazilgan. To'rt qavatli gumbazli bino bo'lган. Asosan favorang ishlatilgani uchun Ko'ksaroy deb nom olgan. 1501-yilda Samarqandni uzil-kesil egallagan vaqtida Ko'ksaroy hali o'zining muhtashamligini yo'qotmagan edi va tabiiyki, bu va shahardagi barcha saroylarning egasi endi Shayboniyxon edi. Ko'ksaroy talmih sifatida ishlatilgan yetti baytli g'azal ishqiy mavzuda bo'lib, ma'shuqa go'zalligi ta'rif-tavsif qilingan. G'azaldan oldin izoh tariqasida kichik

bir nasriy matn berilgan. Muallif matnda Ko'ksaroyda to'y qilib, Boburning opasi Xonzoda-begimga uylanganligi haqida yozgan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ijodkorning faoliyati asarlarida aks etadi. Shayboniy toj-taxt uchun kurashgan va bu maqsadiga erishish uchun to'xtovsiz harakat qilib ko'p yurtlarni kez-gan va qo'lga kiritgan shoh shoirdir. Bu jihatlar uning she'riyatining mavzu doirasining bir qismi hisoblanib, turli tarixiy shaxslarni, voqealarni va joylarni tilga olganda o'z-o'zidan talmih san'a-tiga murojaat qilgan. Bu san'at shoirga ishora qilish orqali fikrlarini qisqa va ixcham shaklda bayon etish uchun qulay badiiy vosita bo'lgan. Shayxboniyning ba'zi she'rlari badiiy jihatdan mukammal bo'lmasa-da, unda talmih san'ati orqali tarixiy o'tmish muhrlanganligi bilan ahamiyatlidir.

## O'ZBEK NASRIDA BOBUR TIMSOLI

*Sh. Hojiyeva, O'zbek MU f.f.b.f.d.,  
N.O'Rinboyeva, O'zbek MU talabasi*

Zahreddin Muhammad Bobur o'zbek mumtoz adabiyotining rivoji uchun ulkan hissa qo'shgan qomusiy olim. O'zbek adabiyotida mashhur tarixiy shaxs obrazini yaratish sohasida Oybekning «Bobur», Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar", Barot Boyqobilovning «Kun va tun», Erkin Vohidovning «Kelajakka maktub», Xayriddin Sultonning «Boburiynoma» asarlarida shoh Boburning ziddiyatli hayot, yetuk inson sifatidagi faoliyatii badiiy tasvir vositalari bilan mohirona tasvirlangan. Oybekning «Bobur» dostoni yozib tugallanmagan asar. Albatta, Bobur obrazining yuzaga kelishida beqiyos tarixiy- badiiy asar- "Boburnoma" ga murojaat etmay ilojo'q.

"Boburnoma"ni hech ikkilanmay o'zbek nasrining go'zal namunasi bo'lib, ungacha Yusuf xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari prologida, Rabg'uziy ijodida nasr namunalari uchrar edi. Ammo, "Boburnoma" bu borada o'zbek nasrining yutug'i, kashfiyoti sifatida vujudga keldi. Asarda tarixning Bobur yashab o'tgan davri voqelari Andijon, Samarqand, Xo'jand, Hirotdan boshlab Kobul va Agragacha, ya'ni O'rta Osiyodan boshlab Hindistongacha bo'lgan masofadagi 1494-1530- yillar voqealar haqqoniy ifodalangan. "Boburnoma"dagi voqealar bayoni aniq, ixcham va lo'nda, ta'sirchan, eng muhimmi, hayotiy haqiqatga mosligi bilan e'tiborlidir. Muallif voqealar bayonida tabiat tasviriga, ayrim joylar tavsifiga, alohida kishilarning ta'riflariga jiddiy ahamiyat beradi.

Mahoratlari yozuvchi Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" asari o'zbek adabiyotining eng sara tarixiy romani bo'lib, unda Movarounnahr sultanatining parchalanib ketishi, Temuriylar sulolasining inqirozi, hokimiyatga erishish ilinjida taxt talashib, bir-birlariga qilich ko'targan og'a-ini qismati aks ettirilgan fojialarning, Boburning ziddiyatli hayoti, faoliyati, markazlashgan rsatgan jasoratlari mohiron'ok 'hmatikolida chekkan za'yirik davlat tuzish yoozilgan. Romanning bir joyida Bobur: «Neki xatolik, neki gunoh qilgan bo'lsam, hammasining birlamchi sababi mening podshohligimdir», — deydi. Ko'rindiki, adib podshohlikni oqlab chiqmaydi; balki undagi ziddiyatlarni,adolatsizlikni yuzaga olib chiqadi.

«Yulduzli tunlar» romanida Boburning haqqoniy, to'laqonli, jonli va go'zal obrazi, shu bilan birga, Tohir, Fazliddin, Xonzodabegim, Nigorxonim, Xumoyun, Mohimbegim, malika Bayda, Shayxboniyxon, Xondamir kabi tarixiy va badiiy to'qima obrazlar gavdalantirilgan. Bular hammasi romanning g'oyaviy mazmunini, bosh qahramon Bobur obrazini ochishga bevosita xizmat qilgan. Yozuvchi Bobur xarakterini yaratishda obrazlarning hatti-harakati orqali davr

ijtimoiy hayoti va tarixiy shart-sharoitlarni, qahramon ma'naviyatini olib berishga alohida e'tibor beradi.

Romanning boshida Tohir, sevgilisi Robiya, tog'asi Fazliddin, Samarqand shohi Sulton Ahmad, Koshg'ar hukmdori Abubakr, Toshkent hukmdori Mahmudxon, Umarshayx va uning ikki o'g'li Bobur hamda Jahongir Mirzolar bilan tanishamiz. Bu ekspozitsiyadir. Hindistonda, Ibrohim Lodiyning onasi Boburga zahar berishi kulminatsiyadir. Boburning hayoti saqlab qolinadi, ammo u kasallikka chalinadi va toj-u taxtni o'g'li Humoyunga topshiradi. U Movarounnahrni yagona davlat qilish niyatiga erisha olmaydi, bu - yechim. "Yulduzli tunlar" romani kompozitsiyasi negizida ham asardagi g'oya va maqsadida ham ularning ifodasi bo'lgan Boburning ko'pqirrali va murakkab xarakteri turadi.

XX asr o'zbek adabiyotida buyuk shoir va podshoh Bobur obrazini yaratish sohasida katta ishlar qilingan, ajoyib asarlar yaratilgan. Bobur haqidagi bu badiiy asarlarimiz yosh avlodni ezgulik ruhida tarbiyalashga, O'zbekiston mustaqilligini qadrlashga va uni mustahkamlashga bevosita xizmat qiladi. Bu asarlarning tarbiyaviy-ma'rifiy va estetik ahamiyati hamda zamonaviyligi ana shunda.

Matyoqub Qo'shjonov "Yulduzli tunlar" haqidagi maqolasida "Pirimqul Qodirov Bobur obrazini tiklab, uni davr tafakkuri nuqtayi nazaridan izohlaganini" aytib, asar kompozitsiyasi, syujeti, ayniqsa, o'quvchini o'ziga jalb etadigan konflikti yanada kuchaytirilsa, voqealar ixcham bayon qilinsa yaxshiroq bo'lishini yozadi.

### **Adabiyotlar**

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. T.; Yulduzcha. 1990.
2. Pirimqul Qodirov. Yulduzli tunlar. T.; O'zbekiston, 1990.
3. Nuriddinov M. Boburiylar sulolasi. T.; Fan. 1994.
4. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)

## **"NAJHU-L-FARODIS" ASARINING MUALLIFI TO'G'RISIDA IZLANISHLAR**

**Z.Sulaymanov,  
O'zMU magisti**

XIV asrda o'zbek nasri taraqqiyoti yangi bosqichga ko'tarildi, bir qancha turkiy tilda diniy-didaktik asarlar yaratildi. Ana shunday asarlardan biri diniy-didaktik mavzuda yozilgan "Nahjul-farodis" ("Jannatlearning ochiq eshiklari") asaridir. Asar muallifining ismi – Ali ibn Mahmud. Muallifning al-Bulg'ari as-Saroyi al-Kardariy degan taxallusini olimlar Mahmudning Bulg'arda tug'ilib, Oltin O'rданing poytaxti bo'lgan Saroya umr o'tqazganligini aytadilar. Lekin, Kardariy degan taxallusga kelganda olimlarning fikrlari uchga bo'linadilar. Z.U.Tog'an, F. Ko'prulu, Y.Ekman kabi olimlar al-Kardariy degan taxallusni muallifning eski Xorazm diyoridagi Kardar shaharchasida bilim olganligiga bog'laydilar.<sup>189</sup> 1930-yilda Qirim nusxasini tayyorlagan Y.Kamol: «Курдер находится в Хорезме на востоке от Куне-Ургенч между современными Ене-Калем и Чимбаев; в прежнее время он считался известным городом» (4; 246), - deb, Mahmud ibn Alini Xorazm diyoridan bo'lgan desa, B.Yafarov: «Кэрд сүзе күп жирдә Болгар сүзе белән бәйләнеп йори. Ш.Мәржәниң «Мостафад әл-Әхбар» китабында Кэрд Болгар... исек алына, шулай ук Ленинградта Көнчыгышны өйренү институтында В 344 ишифрындагы кульязма эчендә Кэрд Болгарны мактаган фарсыча шигырь бар. Менә б

<sup>189</sup> Наджип Э. Регионы и этапы формирования тюркских письменных языков и литературу. Туркестан, 2007. 246 с.; Eckmann J. Nehcül-Feradis. Uştmahlarning açıq yolu /Cennetlerin açık yolu/. Ankara, 2004. v s.; Нуриева Ф. «Нахдж ал-фарадис» Махмуда ал-Булгари. Казань, 1999. 28 с.

мәгълүматлар Болгар илендә берәр авыл я шәһәр яки Болгар шәһәре тирәсенәгә район түгелме икән дигән фикергә китерә»<sup>190</sup>, - deb, Kardarning Bolgar hududidagi bir yer bo'lishi mumkinligini aytib o'tgan. Shundan keyin, taniqli turkshunos olim E. Najipning “Nahj-ul-farodis”ning Sank-Peterburg nusxasida: “Как известно, многие из казахских родов и племен входили тогда в состав Золотой Орды. Племена, входившие в состав «киши жуз» кочевали в непосредственной близости от культурных центров государства в низовьях Волги. «Киши жуз» в свою очередь распадался на 1) «Алим улы»; 2) «Бай улы»; 3) «Жети уру». «Жети уру» распадался на семь крупных родов, одним из которых и был род «Курдер». Следовательно, мы нашего автора можем по происхождения связать с родом Курдер. Тогда мы уточнили бы его биографию так: Махмуд бин Али родился в Булгаре, жил и творил в Сарае и происходил из рода Курдер”<sup>191</sup> - deb takidlaydi. Shuningdek, ayrim taskirallarda, xususan, Davlatshoh Samarqandiy “Tazkirat ush-shuarо” (“Shoirlar bo'stoni”) asarining Alisher Navoiyga bag'ishlangan qismida quyidagi «mulamma» (qit'a)ni keltiradi:

Turkiysin ko'rub qilurlar erdi tarku tavba ham,  
Gar tirik bo'lsalar erdi Lutfiy birlan Kardariy,  
Bovujudi forsi dar junbi she'ri komilash,  
Chist ash'ori Zahiru kist bor Anvari?<sup>192</sup>

Bu mulammadagi “Kardariy” taxallusli shoir hozirgacha bir qancha munozaralarga sabab bo'lib kelgan. Maqsud Shayxzoda “Tazkirachilik tarixidan”<sup>193</sup> maqolasida quyidagicha fikri aytgan edi: “Mazkur qit'ada zikr etilgan Kardariy Xorazm o'lkasining Kardar qishlog‘ida hijriy 761\milodiy 1359-1360 yilda vafot etgan Mahmud ibn Ali degan shaxs, “Nahjul-farodis” nomli diniy-axloqiy asar muallifidir. Umrining bir qismini Oltin O'rda poytaxti Saroy shahrida o'tqazgan. Asarning bir necha nusxalari saqlanib qolgan. Bu asarning Kardariy tirik vaqtida xorazmlik kotib ko'chirgan nusxasi Xorazm shevasi va adabiy lahjasining tarixini o'rganishda juda katta ahamiyatga egadir. Har holda Davlatshoh turkiy nazm ustasi deb ko'rsatgan Kardariy degan shoir ana shu Mahmud ibn Alidan boshqasi emas”. Nemis olimi N.Xofman ham Kardariy shaxsi haqida o'zining olti jildlik “Turk adabiyoti” kitobida ham ma'lumot bergen. Uning fikricha, “bu shoir...mashhur turkigo'y shoir Mahmud ibn Ali as-Saroyi Bulg'oriy Kardariydir. Kardar Xorazmdan bo'lgan. Davlatshoh Samarqandiy “Tazkirat ush-shuarо”sidagi qit'asida uni tilga olgan. Tarixda Kardariy taxallusli shoirlar bir emas, bir necha bo'lgan. Lekin uning turkiy tilda yozilgan “Nahjul-farodis” asari bizga ma'lumdir”.<sup>194</sup> Bu mulohozalardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, “Nahjul-farodis” asarining muallifi shoir Mahmud ibn Ali as-Saroyi Bulg'oriy Kardariydir. O'zbek adabiyotida asarni muallifi bilan birgalikda ayrim adabiy to'plamlarga kiritish kerakligini ta'kidlab o'tmoqchiman.

“Nahj-ul-farodis” bizning zamонимизга bir necha nusxada yetib kelgan. Tataristonning markazi Qozonda yetti (N.I.Lobochevskiy nomli kutubxonanining ilmiy nodir kitoblar va qo'lyozmalar bo'limida – 4; G.Ibragimov nomli Til va adabiyot va san'at instituti kutubxonasida – 2; Qozon mamlakatining pedagogika universitetida - 1), shuningdek, Ufa, Ulyanovsk va Astraxan shaharlarida bittadan nusxalari saqlanadi. Shu bilan birga Sank-Peterburgdagi Sharqshunoslik instituti arxivida “Nahj-ul-farodis”ning ikki nusxasi bor<sup>195</sup>.

Asarning dunyoga mashhur eng eski nusxasi – Istambuldagi Sulaymoniya kutubxonasining Yangi Jami bo'limining 879 nomerida saqlanadigan qo'lyozma nusxasidir. Bu qo'lyozmaning

<sup>190</sup> Нуриева Ф. «Нахдж ал-фарадис» Махмуда ал-Булгари. Казань, 1999. – 30б.

<sup>191</sup> Наджип Э. Культура и тюркоязычная литература мамлюкского Египта XIV века. Туркестан: Туран, 2004. – 248с.

<sup>192</sup> Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони. Тошкент, Faufur Fуломномидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1981, 189-бет.

<sup>193</sup> Навоийга армугон. Тошкент, 1968, 37-бет.

<sup>194</sup> Турк адабиёти. 1969, 103-109-бетлар.

<sup>195</sup> Мәхмуд әл-Булгари. Нэнжел-Фәрадис. Казан, 2002. – 56.

boshqa nusxalaridan farqi – birinchidan, ko'chirilish tarixi asar muallifi hali hayot vaqtida amalga oshirilgan bo'lsa, ikkinchidan, to'liq nusxada saqlanib qolgan (Bu nusxa 34×25 sm. Bichimda, har bir varoq 17 qatordan iborat bo'lib 222 varoq, ya'ni 444 betni tashkil qiladi). Quyuq qora siyoh bilan yozilgan, ayrim joylariga qizil rang bilan belgilangan bu nusxa muallif tarafidan yozilmagan bo'lsa ham, uning tirikligida ko'chirilgan. Nasx san'ati yozuvni bilan ko'chirilgan qo'lyozmaning so'ngida kotib (ko'chiruvchi): "Bu kitob tarix yetti yuz oltmissh birda, Ollohnning muqaddas oyi – Jumadul-ula" oyining oltinchi kuni (bizning yil hisobi bo'yicha 1360-yil) yakunlandi. Va bu kitobning muallifi yakshanba kuni o'tkinchi dunyodan mangulik dunyosiga otlandi", – deb, asar muallifining ikki-uch kundan keyin dunyodan o'tganligi haqida yozib qoldirgan. Bu qo'lyozma asosida turkshunos olim Y.Ekman Istanbul nusxasini Turkiyada 1956-yili tayyorlaydi. Shundan keyin ya'na bir necha marta nashr qilindi. Bu nusxa asosida keyingi nashrlaridan birini tayyorlagan Semin Tezgan kirish so'zida quyidagicha takidlaydi: "Janosh Ekman "Nahj-ul-farodis"ning jami nusxasining turkbosmasini tayyorlab nashr ettinganda (1956) kirish so'zida asarning ikkinchi jildini transkripsiysi bilan tayyorlayotgani haqida xabar beradi. Tarjimon qoralamaga yozgan matniga ko'ra bu ish 1960-yilda boshlanib, 1964-yilning 15-mayida tugallangan. Uning 1971-yilda vafotidan keyin, Parij nusxasidagi ba'zi farqlarni ko'rib chiqish va boshlang'ich bir qismini tozalagandan tashqari bu ish bilan shug'ullanish uchun imkoniyat topa olmaganga o'xshayxdı. Ekmandan bir yil o'tib "Nahj-ul-farodis" ustida ishlagan va matnining bir qismini 1969-1971-yillarda bazi matnlarini nashr etgan Ali Fehmi Karamanlio'gli ham vafot etadi"<sup>196</sup>. Bundan ko'rinish turubdiki asarning bizga ma'lum bo'limgan ya'na bir nechta nusxasi mavjud.

Shu bilan birga 1928-yilda Qirimda 1390-yilda Muhammad o'g'li Qosim tomoniddan ko'chirilgan ya'na bir nusxa topilgan. Bu nusxa haqida Yalta shahri muzeyida ishlagan Y.Kamol ma'lumot beradi. Lekin asar to'liq emas, 549 betli qo'lyozma yo'qolgan.

### **Adabiyotlar**

1. Наджип Э. Регионы и этапы формирования тюркских письменных языков и литератур. Туркестан, 2007. 246 с.; Eckmann J. Nehcül-Feradis. Uştmahlarning açıq yolu /Cennetlerin açık yolu/. Ankara, 2004. v s.; Нуриева Ф. «Нахдж ал-фарадис» Махмуда ал-Булгари. Казань, 1999. 28 с.
2. Нуриева Ф. «Нахдж ал-фарадис» Махмуда ал-Булгари. Казань, 1999. – 306.
3. Наджип Э. Культура и тюркоязычная литература мамлюкского Египта XIY века. Туркестан: Туран, 2004. – 248с.
4. Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони. Тошкент, Fafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1981, 189-бет.
5. Навоийга армуғон. Тошкент, 1968, 37-бет.
6. Турк адабиёти. 1969, 103-109-бетлар.
7. Мәхмұд әл-Болгари. Нәһжел-Фәрадис. Казан, 2002. – 56.
8. Nehcül feradis (Uştmahlarning açıq yolu). II metin. Çevriyası: Janos Eckmann, Yayınlayanlar: Semin Tezgan - Hamza Zülficar. TÜRK DIL KURUMI YAYINLARI : 518. Anqara

---

<sup>196</sup> Nehcül feradis (Uştmahlarning açıq yolu). II metin. Çevriyası: Janos Eckmann, Yayınlayanlar: Semin Tezgan - Hamza Zülficar. TÜRK DIL KURUMI YAYINLARI : 518. Anqara

## TASAVVUF ILMIDA ISHOQ OTANING O'RNI

**Z. Mo'minova,**  
*Turkologiya ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy xodimasi*

XIII-XIV asrlar adabiyoti tarixini chuqur tadqiq etmasdan qozoq xonligining shakllanish tarixini ochish mumkin emas, – deydi manbashunoslik ilmiga beqiyos hissa qo'shgan olim V.P.Yudin [3. 22 b.]. Qozog'iston tarixida XIV asr qiziqarli tarixiy voqealarga boy bo'lishi bilan bir qatorda, mo'g'ullarning turklashish jarayoni, turkiylarning tamomila musulmonlashishi oxiriga etgan davr hisoblanadi. Bu paytda turk-mo'g'ul xalqlari orasida ustivor bo'lgan Yassi qonuni Islom shariati bilan bog'langan, qozoq, qoraqalpoq, bashqurt, tatar yana boshqa xalqlarning mamlakati va etnik jarayoni davom etayotgan davr edi. O'rta asr tarixidagi bu o'zgarishlarning sababini faqatgina manbalarni tadqiq etish, undagi voqealarni ilmiy jihatdan tahlil etish natijasidagina aniqlash mumkinligini barcha tarixchilar bir ovozdan e'tirof etishadi. Qozog'istonning manbashunos olimlari S.K.Ibragimov, N.N.Mingulova, K.A.Pishulina, V.P.Yudin, M.K.Abusyeitova, A.K.Muminov, B.Ko'mekov o'rta asr arab, fors, turk tilidagi manbalarni tadqiq etish borasida ko'plab ishlarni amalga oshirishgan. SHunday bo'lsa ham o'rta asr tarixiga oid manbalar mukammal tadqiq etilgani yo'q. Bunday deyishimiz sababi, turk tilida yozilgan o'rta asr ko'hna yozma manbalar mukammal ilmiy doiraga kirib, sharqshunos, tarixchi, madaniyatshunos olimlar nazariga tushganicha yo'q. Manbashunoslik ilmining asl maqsadi – manbalarni topish, ularni tizimga solish, ulardagi tariximizga, madaniyatimizga bog'liq ma'lumotlarni ilmiy jihatdan tadqiq etish, ommaga etkazish deb bilsak, yuqorida zikr etilgan davrga oid manbalar yuzasidan keng qamrovli tadqiqot ishlari qanoatlanarli darajada olib borilmagan.

Qozog'iston tarixiga oid manbalarni tadqiq etuvchilar tiplar bo'yicha, mavzu, hududiy va davr, siyosiy, diniy yo'naliishlar bo'yicha, turiga qarab Xalokuxon, Temuriylar, Shayboniylar, Boburiylar, Safaviylar, Ashtarxoniyalar, Mangg'itiylar, Qo'qon, Chig'atoylar, va yana boshqa har xil manba turlariga bo'lib qaraladi. Bunday tizimlash tadqiqotchining ilmiy ishini anchagina yengillatishi rost. Ammo har sinfning o'ziga xos mavzusini, uslubini, yozuv turini, davrini, o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashda bir xillik yo'q. Masalan J.M.To'lebayeva ilmiy tadqiqot ishida Qozog'iston tarixidan ko'p ma'lumot beradigan «Tarixi Rashidiy»ning Bobur avlodi buyrug'i bilan yozilganligini e'tiborga olib Boburiylar davriga oid manba sifatida qarasa, taniqli sharqshunos, manbashunos V.Yudin, M.Abusyeitova bu asarni (forsiy tilda yozilsa ham) chig'atoycha manba sifatida qaraydi [2. 25 b; 3. -22 b.]. Olimlar «Tarixi Rashidiy»ni chig'atoycha manba turiga kiritishda lug'aviy, territoriyalik-davrlik xususiyatlarini emas, mavzu xususiyatlarini asos qilib olganga o'xshaydi. Bu o'rinda tarixiy asarni biron manba turiga kiritishda qanday xususiyatlarini asosga olish lozim degan savol tug'iladi.

Diniy-didaktik asarlar olimlar tarafidan hanuzgacha tasnif qilinmagan. Qo'limizda bor diniy asarlar mavzu, janriy jihatlari bo'yicha maqolot, manoqib, tabaqot, risolat, devon, noma (bayon-noma, vasiyatnoma, nasabnoma), fatvo deb bo'lib qarash ma'qulga o'xshaydi. Bu asarlarni mana shunday tasniflash vaqtida avvalo mavzusi bilan mazmuni asosga olinib, undan keyin lug'aviy, davriy, hududiy xususiyatlari inobatga olinishi kerak. Ssuningdek diniy asarlarni tasniflashga yetarli imkoniyat topamiz.

Maqolada asosiy tadqiq obyekti bo'lgan «Hadiyqot al-arifinni» (XIV asr)ni risola guruhiba kiritdik. Risola guruhiba kiruvchi asarlarga xos xususiyat: mahalliy o'lkada yoki ma'lum bir muhitda shakllangan diniy ilm, shunga oid aniq bir asardan parcha, unga sharh, hikoya, din vaki-lining xizmati, shogirdlari, ularning bevosita aloqasi bo'lgan tarixiy voqealar bilan o'z davridagi ijtimoiy-siyosiy hayot haqida muallifning shaxsiy fikri, o'z zamondagi ijtimoiy hayot, diniy

oqimlar haqidagi nuqtayi nazari bo'ladi. Risola guruhiga kira digan asarlardan shu yerdagi siyosiy-ijtimoiy hayotdagi ustun mafkurani, uning manbani, dinning ta'sirini, tarqalish masofasini, mashhur din vakillarining roli bilan hizmatini aniqlash mumkin. Shuningdek, mahalliy olimlar ning qo'li bilan chig'atoy tilida yozilgan o'rta asrga mansub asarlar arab, fors manbalarida uch-rayvermaydigan ichki hayotdan ko'p ma'lumotlar beradi. Undagi ma'lumotlar ba'zi jihatdan aniq bir mavzuni tadqiq etish borasida puxta bir xulosa chiqarishga imkoniyat beradi. Shu sababli maqola asosini XIV asrning so'nggi choragida chig'atoy tilida yozilgan «Hadiyat al-Arifin» manbasiga bag'ishladik.

Yassaviylik tariqatining tarixi, ilmi, etikasi, ruhoniy dunyoqarashi va xususiyatlari Husayn ibn Ali al-Voiz al-Koshifiyning «Rashaxat ul-ayn ul-hayot», Alisher Navoiyning «Nasoyim ul-maxabbat», Darvesh Ali Buzjaniyning «Rashaxat al-quds fi sharxi nafaxat al-uns» nomli asari, So'fi Muhammad Donishmandning «Manoqibi», Mahmud ibn Vali (Balxi)yning «Bahr al-asror», Olim-Shayx Azizonning «Lamaxat min nafaxat al-quds» kabi va yana boshqa asarlarda ham jamlangan. «Hadiyat Al-Arifin» – ulardan ancha ilgari yozilgan, ham Yassaviylik tariqatining yirik vakili qo'lidan chiqqan asar. O'rta Osiyodagi tasavvuf maktablar hizmatini tadqiq etgan olim B.Babajanov «Hadiyat al-Arifin» XIV asr so'nggi choragida yozilgan Yassaviy tariqati haqida mo'l ma'lumot beradigan eng ko'hna manba deb baho beradi [4. 239 b.]. Bu asarni o'rta asr turkiy madaniyati, qozoq xonligi shakllangan davrdagi xalq dunyoqarashi bilan diniy tamoyillar, islomlashish, turkiy xalqlarning ruxoni sardori – Xo'ja Ahmad YAssaviy shogirdlarining ta'siri bilan tarqalish masofasi haqida chig'atoy ulusining ichki ruhoniy hayoti haqidagi qimmatli manba deb baholashga loyiq.

«Hadiyqot al-arifin» muallifi – Isxoq xo'ja ibn Ismoil ota al-Qazg'urtiy at-Turkistoniy – O'rta Osiyoda madaniyat markazining biri bo'lgan Sayramda hayot kechirgan, shu o'ttada Islom dinini yoyishga kuch-g'ayratini sarflagan shaxs [5. 23 b.]. U o'z asarida tarix haqida emas, otasi Ismoil ota ilmi haqida yozishni maqsad etgan. Ammo undagi tarixiy voqealar XIII-XIV asrlarni o'z ichiga oladi.

O'rta asrdagi yozma manbalar chig'atoy bilan Jo'ji uluslarining islomlashishi bu davrlarda qanday holatda bo'lgani haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, ilmiy asarlarda ham turk-mo'g'ul xalqlari hayot tarzida amaldagi din bilan birga o'zga (islom, xristianlik, buddaviylik) dinlarga ham alohida hurmat bilan qaragani, u dinlardan siyosatda va diplomatiya sohasida qurol sifatida unumli foydalangani, xonlar din orqali Chingizzon ko'rinishini, uning naslini aniqlashga harakat qilganligi haqida ko'p yoziladi. O'rta asrdagi tarixiy asarlar bilan bir qatorda diniy yo'nalishdagi qo'lyozma manbalarda ham (risola, shajara, maqolat, manoqib) Chingizzon bilan uning avlodlarini tasvirlashga o'zgacha nazar qaratiladi. Saroy kotiblari, din ulamolari bo'lgan arab tarixchilari Jazariy, Birzaliy, Yuniniy, Kutubiy, Ibn Kasir kabilari o'z asarlarida mo'g'ul bosqinchiligiga, dushmanligiga jiddiy e'tibor berib, mo'g'ul xonlari bir taraflama, salbiy bo'yoqlarda, shafqatsiz suratda berilsa, Mug'ultoy, Abulg'ozi, Utemishhoji, Rashid ad-din asarlarida ular yangi davr boshchisi, ko'chmanchi xalq sardori sifatida tasvirlanadi. Chingizzon bilan uning avlodi (Jo'ji, Chig'atoy, Botu, Berka, O'zbekxon) har taraflama ijobiy suratda tasvirlanib, natijada mifologlik obrazlarga aylanadi, ba'zi xolatlarda turk-mo'g'ul ko'chmanchi xalqlari uchun ular faylasuf, siyosatdon, hatto din rahnamosiga aylangandek bo'ladi.

Chingizzon bilan uning avlodlari bosib olgan viloyatlarda mahalliy xalqdan chiqqan din vakillarining roli ortdi. Ayni paytda Xo'ja Ahmad Yassaviy tariqati vakillarining siyosiy-ijtimoiy hayotdagi faolligi ortdi. Abulg'ozi: «Hijriyning 615-yili (1218-y.) Chingiz xon sonsiz ko'p askar bilan otlanib, O'tror ustiga keldi... Chingizzon O'trordan otlanib, Buxoro tarafga kelayotganida, erta tongda banogoh Zarnuq qamaliga yo'liqdi. Zarnuq xalqi tevarak- atrofning dushman askari bilan to'lganini sezib, qal'aga bekinib, darvozani yopdi. Jahon podshohining oldida uning

donishmandlarining biri xojat (خواجہ xuāja) degan yozuvni Xajat o'qiganidek T.O'.) degan bir musulmon bor edi, uni elchi qilib, Zarnuq xalqiga yubordi» deb mahalliy din vakillaridan el-chilik ishlarida unumli foydalangani haqida xabar beradi [6, 86 b.].

Viloyatda Chingizzon davridayoq mahalliy din vakillarining ta'siri kuchayishiga bog'liq turkiy dunyoqarash bilan bog'langan maxsus Islomiy madaniyat, qadriyat, diniy prinsip o'rashadi va diniy e'tiqod erkinligi rivoj topa boshladi. Diniy e'tiqodi, tamoyili uchun Arab halifaligida Mansur al-Xalloj (922-y.q.b.), Ibn al-Arabi (1240-y.q.b.) kabi hech kim jazolangani yo'q, siyosiy surgun qilingani yo'q. Xalifat egaligidagi viloyatlardan din olimlari Mavarounnahrga ko'plab keldi. Bu haqda Ibn Arabshohnning «Amir Temur tarixi» asarida qiziqarli ma'lumotlar bor. Berke xon hukmronlik qilgan davrda (1258-1266-y.) viloyatda masjidlar bilan madrasalar qudirib, aylanasiga din olimlarini jamlab, musulmon mamlakatlari bilan aloqalar o'rnatib, Islom dinining erkin tarqalishiga sharoit yaratdi. O'zlarini erkin his etgan begona yurtlik olimlar mahalliy o'lkalarda shakllangan urf-odatga, diniy aqidalarga oz-moz taqlid qilib, qarshilik ham bildirganga o'xshayxdi. «Hadiqat al-Arifin»da yozilishicha, Nishopurdan kelgan bir necha olim Ismoil otani sinamoqchi bo'lib, mahalliy musulmonlar orasida shakllangan diniy tushunchalar haqida ber necha savol beradilar, qoniqarli javob olganlaridan keyin, ular Ismoil otaga qo'l berib, shogirdlikka qabul qilinganlari, Yassaviy tariqatiining yirik vakillariga aylanganlari haqida yoziladi. [1, №252, 72a]. Bu ma'lumotlar va Ismoil ota e'tirof etilgani haqidagi boshqa ma'lumotlar ham O'rta Osiyoda hukmron va barqaror bo'lgan turkiy madaniyatning, Yassaviy maktabining arab, fors olamida ham anchagina ta'siri bo'lganligini anglatadi.

Islom dini kelmasdan avval, turkiylarning qam, baxshi, o'yin kabi nomlar bilan ataladigan udumlari katta o'rin egallagan edi. Ilm sohiblari bo'lgan bu mahalliy din vakilari xalq orasida katta obro'ga ega edilar. Islom dini kirib kelgandan keyin bu toifa odamlarning o'rnini mutasavvuflar oldi. Ko'pruli so'zlariga qaraganda, turkiylar; dindorlar, she'rlar o'qiydigan bu davreshlarning ijodini ba'zida diniy muqaddaslik bergen ijodlarga o'xshatib qabul qilganlar va mana shu xolatda ularning darajalarini ota va bob darajasidagi darveshlar egallagan. Ustoz, murshid, pir, pirimug'on, bob, ota, xo'ja, eshon, Shayx darajalari Yassaviy dasturida ko'p uchraydigan darajalardir. Xo'ja Ahmad Yassaviyning birinchi ustozи mashhur Arslon boboda (yoki bobda) mana shu darajalar berilgan. Yassaviy silsilasida ota va xo'ja darajalari juda ko'p uchraydi. Yassaviy shayxlariga turkiylar tarafidan ota ismi berilganligi uchun shoir Atoiy ham Atoiy (Otalar avlodiga mansub) tahallusi qo'llangan.

«Hadiyqot al-arifin»ning muallifi Isxoq ota Yassaviy silsilasida maxsus o'rni bo'lgan muhim insondir. Darajasi «Hadiqat al-Arifin»da va «Rashaxat-i ayn-ul Hayot»da, shu bilan birga, Ko'prulining «Turk adabiyotida ilk mutasavviflar» asarida xo'ja, «Nasoyimul-muhabbat»da ota so'zi bilan ko'rsatilgan muallifning hayoti haqidagi manbalarda mufassal ma'lumotga duch kelamiz. Ko'pruli «Javohir-ul - Abror», «Rashaxat ayn-il Hayot» va «Tibyani-ul vasoil-ul haqayiq» kabi asarlarni manba sifatida Yassaviy silsilasiga bog'laydi. Isxoq ota, Zangi ota silsilasining vakili Said ota - Ismoil otaning o'g'li. Ismoil otaning o'n etti yoki o'n sakkiz o'g'li bo'lgan. Isxoq xo'ja mana shularning bittasi. Ahmad Yassaviyning muridi bo'lgan Ismoil ota bu dunyodan o'tayotganida o'zining o'rniga Isxoq xo'jani loyiq ko'rgan. Isxoq xo'ja otasi hayotlik chog'idayoq muridlar qo'l bergen Shayx edi. Otasining xalifasi, merosxo'ri va izbosari edi. Muridlariga va do'stlariga rahbarlik qilib, otasining zikrlarini va duolarini davom ettiradi. Muallifning otasi Ismoil ota Qazg'urtiy ekanligini matnda aytib ketilgan bir voqeaga bog'liq bayonlaydi: «Ibrohim Qazg'urtiy otaning o'g'li Ismoil xo'jadir». Ishoq xo'ja Qazg'urtiy Ispidjobda uzoq vaqt qolib, xalqqa rahbarlik qilishni o'ziga vazifa etib yukladi. Ko'prulining aytishi bo'yicha, u Ispijabda turkiylar orasida shuhrat qozondi, bu Shayx haqida afsonalar ko'p tarqalgan va ko'p aytilar edi. Isxoq

xo'janing bu yerga ko'chib, yuqori darajaga erishishi, tinchlikka bog'lanishi "Rashaxot ayn-il Hayot"da mufassal bayon qilingan.

Bu maqolaga xulosa qilar ekanmiz, Isxoq xo'ja Qazg'urtining «Hadiyat Al-Arifin» asarining XIV asrda yozilganligi aniqlandi. Uning tili asosan ko'hna turkiyadadir. Qo'lyozma sahifalarida arab tilida Qur'onidan oyatlar iqtibos sifatida keltirilgan. Shu bilan birga diniy-tasavvufiy terminlar ham berilgan.

Xulosa qilib aytganda, ilmiy doirada oz tadqiq etilgan «Hadiyat al-Arifin» ma'lumotlarini, qorong'u, noma'lum taraflarini ochish O'rta Osiyoda islomning tarqalishiga oid tarixiy masala-larga yangi nigoh bilan qarab tadqiq etish kerakligini ko'rsatadi.

### **Adabiyotlar**

1. Манба: Исхок хўжа ибн И smoил ота ал-Қазғурти ат-Туркистоний. «Ҳадиқат ал-'Арифин». Кўлёзма №11838, ӨзР ФА ШИ. Таш. №3 ф.
2. Исхок хўжа ибн И smoил ота ал-Қазғурти ат-Туркистоний. «Ҳадиқат ал-'арифин». Кўлёзма. ЎзР ФА ШИ фонд №3, инв. №2851 ва ф. №3, инв. № 252
3. Тайғарин С. Төл тарих, Ясауи ілімі, Абай мұралары – біздің ұлттық идеология-мызға айналуы керек // Ана тілі. 18 наурыз, 2011 жыл.
4. Кенжетай Д. Елбасы: Иасауи – біздің Конфуций. // Жас қазақ үні. 28 маусым, 2011 жыл.
5. Кенжетай Д. Қожа Ахмет Ясауи дүниетанымы. – Алматы: «Арыс» баспасы, 2008 жыл.
6. «Қожа Ахмет Ясауи мұрасымен ілімінің зерттелу мәселелері»: атты халықаралық конференция. – Алматы: «Арыс» баспасы, 2008. – 300 б.

### **BOBUR VA HAYDAR MIRZO NIGOHIRDA ABDURAHMON JOMIY IJODI**

*E.Hazratqulova,  
O'ZMU doktoranti*

Abdurahmon Jomiy ijodi bugungi kunda jahon adabiyotshunoslari<sup>197</sup> va o'zbek olimlari tomonidan munosib tadqiq etilmoqda. Jomiy ijodining dastlabki tadqiqotchisi Alisher Navoiydir. Uning «Majolisu-n-nafois», «Xamsatu-l-mutahayyirin» asarlari, devonlari debochalari hamda bir qator g'azallaridagi murojaatlar Abdurahmon Jomiyning adabiy biografiyasini o'rganishda nodir manba vazifasini o'taydi. Boburning adabiy tahlillarida ba'zi shoir, ijodkorlarning ijodiy qiyofasiga kengroq sahifa ajratilgan bo'lsa, ba'zi shoirlarning badiiy mahoratini qisqa jumla va ibora bilan baholashga harakat qilingan. Bunda shoirlarning to'liq adabiy merosi bilan tanishilganlik, boshqa tazkiralalar ma'lumotidan ilmiy foydalanish yoki og'zaki ma'lumotlarga tayanish kabi usullar qo'l kelgan. Abdurahmon Jomiy nomi esa «Boburnoma»ning sakkiz o'rnidagi tilga olinadi. Bobur uni asosan Mavlono Abdurahmon Jomiy va Mullo nomlari bilan ataydi. Yirik hajmdagi asarda buyuk mutassavuf shoir haqida ma'lumot siyrak ko'rinishda. Biroq shu murojaatlarning o'ziyoq Boburning Jomiyga bo'lgan munosabati haqida va bu munosabat orqali mutasavvufning Movarounnahr va Xuroson madaniy adabiy muhitidagi beqiyos roli to'g'risida konkret xulosalar chiqarishimizga yordam beradi. Hirot adabiy muhitini yoritar ekan, Bobur Abdurahmon Jomiyni shoirlarning sardaftari deya ataydi: «... bu jam'ning saromad va sardaftari Mavlono Abdurahmon Jomiy edi.»<sup>198</sup> Jomiy ijodini yoritilishda ma'lum bir asar aniq tahlilga tortilmaydi, biroq uning Hirot adabiy muhitidagi yuksak darajasi qisqa fikr va ba'zi badiiy lavhalar vositasida

<sup>197</sup> Холмўминов Ж. Жомий ва Европа. <https://www.researchgate.net/publication/337656121>.

<sup>198</sup> Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. Тошкент. Шарқ НМАК, 2002. 138-бет

namoyon bo'ladi. Jomiy ijodining salmog'i uning ma'naviy dunyosi bilan bilan qiyoslanadi: «...zohir va botin ulumida ul zamonda ul miqdon kishi yo'q edi. She'ri xud ma'lumdir. Mulla-ning janobi andin oliyroqdurkim, ta'rifqa ehtiyoji bo'lg'ay». Ko'p hollarda Jomiy bilan bir davrada ijod qilgan ijodkorlarning hikoyalari, tazkiralarida uning karomatlari, xokisor turmush tarzi va sufiy shoir ekanligiga e'tibor qaratiladi. Bobur o'zining qisqa mushohadasida esa uning tasavvuf ilmining yuksak bilimdoni hamda shu ma'naviy oqim talablariga qat'iy rioya qilib, kamolotga erishgan valiy zot gavdalantirgan. Boburning mazkur e'tirofi Abdurahmon Jomiyning *she'ri xud ma'lumligini ta'kidlash orqali tasavvuf ohanglarining o'sha davr nazm ixlosmandlari shuuriga chuqur singib ketganini va bu yo'nalishdagi adabiyotda Jomiy g'azallari ko'pchilikka suyukli ekanligini yana bir bor eslatmoqchi bo'lgan*. Davomida *mulloning janobi andin oliyroqdur* degan kuzatishidan ikki nozik adabiy-nazariy hodisa yuzaga chiqmoqda:

1. Shoirming shaxsiyati va ijodining badiiy qimmati o'rtasidagi mutanosiblik masalasi dolzarb ilmiy muammo sifatida qaralishi.

2. Jomiy g'azaliyotidan Boburning adabiyotshunos sifatida to'laqonli qoniqmaganligi (an'anaviy oshiqlik ohanglari, zamondosh shoirlarniki kabi odatiy motiv, badiiy san'atlar va mavzuning o'zgarish kasb etmasligi kabilar), biroq yuksak mutasavvuf maqomidagi valiy zot ta'rifini faqat ijodining bahosi bilan o'lchash kamlik qilishi, umuman ahli ilm orasida uning baland e'zozda ekanligi va ortiqcha maqtovga ehtiyoj qolmasligi. Bobur Abdurahmon Jomiyning badiiy ijodini bevosita boshqa shoirlarniki kabi tahlilga tortmagan bo'lsa-da, lekin uning insoniy qiyofasi va shoirona didiga doir chizgilar qoldirishga urinadi. Masalan, Shayxim Suhayliy ijodidan quyidagi baytni keltirish orqali uning uslubiga oid asosiy belgi bo'rtib yuzaga chiqadi:

Shabi g'am girdbodi oham az jo burd gardunro,

Furo' burd ajdahoi seli ashkam rub'i maskunro.

Bobur aynan mana shu baytni eshitib, unga kinoyali savol bergan quvnoq tabiatli Jomiyni eslaydi: «Mirzo, she'r aytasiz yo odam qo'rqtasiz?» Bobur Jomiyning yengil hajviy tanbehi ila Suhayliy ijodida mubolag'a san'atining o'ta bo'rtib qo'llanishi oqibatida san'atga xos joziba yo'-qolganini ko'rsatmoqchi bo'lgan. Mazkur adabiy davra manzarasidan Jomiyning ustodlik siyartida donishmandlik va zakiylik uyg'unlashgani ifodalanganiga guvoh bo'lmoqdamiz. Asarning boshqa voqelar fonida ham Jomiy siymosi bilan bog'liq tafsilotlar bor, lekin Boburning bu ijodkor siymosi haqidagi yakdil qarashi quyidagi jumlada umumlashadi: «g'oyatash xotirg'a kechtikim, bu muhaqqar ajzoda tayammun va tabarruk jihatidin alarning otlari mazkur va shammae sifatlaridin mastur bo'lg'ay». «Boburnoma» matnidan faqatgina Jomiy siymosi borasidagina uning mana shunday ehtirom aralash qattiq hayajonga guvoh bo'lmoqdamiz. Jomiy ijodi tahlili-dan tiyilishga ham aynan o'sha chuqur ehtirom sabab bo'lgan, bu hol muallifning pozitsiyasiga ta'sir etgan.

Haydar mirzoning «Tarixi Rashidiy» asarida markaziy obrazlar qatorida tasavvufiy timsollar bo'lib, ulardan biri Abdurahmon Jomiy siymosidir. Haydar mirzo tasviridan Bobur kabi uning ham Jomiy maslagiga xayrixohligi va ehtiromi yorqin bayon qilinadi. Lekin Haydar mirzo ruhiyatida Jomiyga nisbatan anchayin ixlosmandlik holati uning ko'plab mushohadalaridan ufurib turadi. Bu haqda adabiyotshunos olima K.Mullaxo'jayeva shunday yozadi: «muallifga bu zot makon va zamon jihatidangina emas, balki ruhan juda yaqin. Shu bois uning o'zi ham, asardagi boshqa siymolar ham Abdurahmon Jomiy shaxsini, uning falsafiy-ta'limiy fikrlarini tez-tez eslaydi, Mavlononing o'gitlarini kitobxonga havola etadi»<sup>199</sup>. Albatta, asardagi ma'lum shaxs ta'limotiga tez-tez murojaat etish muallifning aynan o'sha e'tiqoddan ma'naviy oziqlanganining belgisidir. «Tarixi Rashidiy»da Jomiyga munosabat ikki yo'nalishga ajragan holda namoyon

<sup>199</sup> Муллахўжаева К. «Тарихи Рашидий»да Абдураҳмон Жомийга муносабат. Муҳаммад Ҳайдар мирзонинг «Тарихи Рашидий» асарининг жаҳон маданияти тарихидаги ўрни халқaro илмий анжуман материаллари. Т., 2011. 35-бет.

bo'ladi: 1.Fors adabiyotining otashnafas sevimli shoiri va uning lirk merosi. 2.Ulug' mutasavvuf Shayx va uning yirik falsafiy ta'limoti (Mazkur faslda birinchi yo'naliш asosida kuzatishlar olib boramiz). Haydar mirzo Xuroson shoirlari qatorida Mullo Jomiyni birinchi bo'lib misol keltiradi, undan so'ng Navoiy haqida to'xtaladi. Haydar Mirzoning Jomiy shoirligiga bergan ilk ta'rif jumlavari Boburnikiga o'xshash: «ul shuarolareki, ul zamoni jannatnishonda bor erdilarki, Mavlono Abdurahmon Jomiyga o'xshash agar topmoqqa e'tiroz bo'lmasa erdi, loyiq bu erdikim, Xurosning avliyo va shuarolarining nechuk sardaftari erdilar. Bularning muborak otlarini har birlarig'a sardaftar qilib futulur erdi»<sup>1</sup>. Haydar Mirzoning Bobur ta'rifidan ta'sirlangani keyingi sahifalardagi fikrlarida ham yaqqol seziladi: «Hazrati Mavlono Abdurahmonning ash'orlari andoq mashhurdirkni, bu erda zikr qilmoqqa hojat yo'qtur.» Lekin Haydar mirzo Jomiyning mashhur bo'lman bir g'azalini keltiradiki, bu g'azal o'zining shakliy badiiy san'ati bilan o'zgacha xarakter kasb etadi. Unda shoirning ijodiy mahorati satrdan satrga tanlangan so'zlarning harflar bilan bog'liq holda namoyon bo'lgan:

Ruxi zard doram zi davri on dar,  
Zada dog'i dardam daruni dil ozar.

Chu tan kost go'i shabi furqati tu,  
Chu mahi nav ki boshad badinguna log'ar.

Xatat Xizru ja'di kajat mushki Tibat.  
Tanat simu la'li labat tungi shakkar.

Ba jannat naimi, shahdi muhabbat,  
Behishti muxallad nasibi muhaqqar.

Ba labho malihi, ba tal'at sabihi,  
Ba guftan fasihi, ba gisu muanbar<sup>2</sup>.

Haydar mirzoning sharhicha, bu g'azalning dastlabki baytidagi (arab imlosida) harflar alohida harflar bo'lib, boshqalari bilan birikmasligi, ikkinchi baytdagi so'zlar ikki harfdan, uchinchi baytdagi so'zlar uch harfdan iborat bo'lib, shu tariqa besh baytli g'azal yaratilgan. Haydar mirzo keltirgan g'azaldan Jomiyning badiiy san'atlar qo'llash borasida o'ziga xos ijodiy yangilikka intilgani ma'lum bo'ladi. Uning boshqa g'azallarida ham bu yangi badiiy san'at uch-raydimi, keyingi davr forsiyzabon ijodkorlarida bu san'atdan badiiy ta'sirlanish holati bo'lganmi, bugungi ilmiy tadqiqotchilar oldida Jomiy g'azaliyotining ana shunday nozik nuqtalariga e'tibor qaratish bilan bog'liq vazifalar bor.

Aytish mumkinki, «Boburnoma»da Abdurahmon Jomiy ijodi haqida bevosita alohida to'xtalmaganining boisi uning qo'shimcha qirralari va axloqiy kamoloti haqidagi ma'lumotlarga chuqur e'tibor qaratilgan; Bobur Jomiyning ma'naviy olamini uning ijodidan yuqori baholaydi hamda bu hol uning ijobiy e'tirofiga sazovor bo'lgan noyob shaxslar sirasidan ekanligini belgilaydi; Haydar Mirzoning «Tarixi Rashidiy» asarida Abdurahmon Jomiy shaxsiyati yuksak nuqtada tasvirlangan hamda bu holat uning mutasavvuf alloma ekanligi bilan bog'langan; Abdurahmon Jomiyning she'riyatida novatorlik belgilarining aks etishi haqidagi Haydar mirzoning adabiy ma'lumotlari bugungi kun adabiyotshunosligida o'rganilishi lozim bo'lgan masalalardan biridir.

<sup>1</sup> Мирзо Мухаммад Ҳайдар Аёзий. Тарихи Рашидий. О.Жалилов нашрга тайёрловчи. Т.: Ўзбекистон НМИУ. 2011. 282-бет/

<sup>2</sup> Ўша манба. 283-бет.

### **Adabiyotlar:**

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: Sharq, 2002.138-bet
2. Karomat Mullaxo'jayeva. "Tarixi Rashidiy"da Abdurahmon Jomiyga munosabat. Muhammad Haydar mirzoning «Tarixi Rashidiy» asarining jahon madaniyati tarixidagi o'rni xalqaro ilmiy anjuman materiallari. –T.,2011, 35-bet.
3. Ja'far Xolmo'minov, Jomiy va Yevropa  
<https://www.researchgate.net/publication/337656121>.

## **ABDULLA ORIPOV IJODIDA MILLIY RUHNING NAVOIYONA IFODASI**

**L.O ſarova,  
TDO TAU mustaqil izlanuvchisi**

Har qanday ijodkor mahoratining yuksalishi muayyan adabiy-estetik omillar bilan bog'liq holda kechadi. Buyuk salaflar ijod laboratoriyasidan saboq olish, milliy ruhning betakror ifodasiga erisha olish mazkur omillarning eng asosiyalaridandir. Zamona viy she'riyatimiz darg'alaridan hisoblangan Abdulla Oripov she'riyati takomilida Alisher Navoiy nazmiy an'analaridan olingan ana shunday ijodiy saboq ta'sirini sezish mumkin. Milliy ruh ifodasidagi o'zaro uyg'unlikda bu hol, ayniqsa, yaqqolroq seziladi. Abdulla Oripovning: "Men Navoiydan masalaning mohiyatiga kirishni, she'rni sehrli tayoqchaday o'ynatishni o'rgandim. U kishi mazmun ifodasining ustasi, she'r aytish mumkin, lekin she'rni mazmun bilan faqat Navoiy aytgan", degan e'tirofi ham ushbu fikrni tasdiqlaydi. Ikki buyuk shoir ijodidagi mushtarak va o'ziga xos xususiyatlarni tahlil etishga harakat qilamiz.

Abdulla Oripovning "Tanlangan asarlar" 7-jildidan o'rin olgan g'azallar ushbu mumtoz janring mukammal namunalaridan deyish mumkin. Mana bu matla' tahlili ham bu fikrni quvvatlaydi:

*Sochlaring yoymay turib  
Tushgan qorong'u tun emas,  
Tishlaringni ko'rmayin  
Tong ham oqargan kun emas<sup>200</sup>.*

Ushbu baytni tahlil etar ekan, professor Nurboy Jabborov: "Mumtoz she'riyatimizga xos husni matla'ning naqadar go'zal namunasi. Bunda tashbeh ham, tazod ham fikrning san'atkorona ifodasiga xizmat qilgan"<sup>201</sup>, deya baholaydi. Darhaqiqat, yuqoridagi baytda navoiyona poetik tasvirni hamda teran fikrning mukammal badiiy ifodasini kuzatish mumkin.

Abdulla Oripov g'azalining mazkur matla'sida Alisher Navoiyning "Favoyid ul-kibor" devonidan o'rin olgan 92-g'azalidagi mana bu baytga mutanosiblik kuzatiladi:

*Yuzung xurshididin ul tun topib xayli kavokib nur,  
Sochingning zulmati ul kecha tun rangini aylab doj.*

"Doj" so'zi "Navoiy asarlari lug'ati"da: "qorong'i, qorong'ilik; juda qorong'i kecha" tarzida izohlangan<sup>202</sup>. Ma'lum bo'ladiki, hazrat Alisher Navoiy baytning ikkinchi satrida tunning rangini yor sochining zulmati qorong'i qilganini ta'kidlamoqda. Abdulla Oripov baytida esa yor sochini yoygani bois tun qorong'u bo'lgani tasvirlangan. Ushbu obrazli ifoda mohiyat e'tibori bilan yaqin bo'lsa-da, Abdulla Oripov sochini yoygan yor obrazini o'quvchi ko'z o'ngida yaqqol

<sup>200</sup> Орипов А. Танланган асарлар. Фафур Фулом номидаги НМИУ. – Т.: 2013. – Б. 114.

<sup>201</sup> Жабборов Н. Замон, мезон, шеърият. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2015. – Б. 21.

<sup>202</sup> Навоий асарлари лугати (Тузувчилар: П.Шамсиев, С.Иброхимов). – Т.: Адабиёт ва санъат. 1972. – Б. 196.

namoyon etish orqali buyuk salafi an'anasini yangilagani va boyitganini sezish qiyin emas. Bu esa, o'z navbatida, shoirning individual poetik tafakkuri mahsuli ekanini ta'kidlash zarur.

Yuqorida matla'si keltirilgan g'azalning boshqa baytida Abdulla Oripov fikrni quyidagicha betakror ifodalaydi:

*Ikki chashmim jolasiga  
Boqmangiz hayron bo lib,  
Asli uldir ikki daryo,  
Sir emas, Jayhun emas.*

Ko'zdan tinimsiz oqqan yoshni jolaga qiyoslash an'anasi mumtoz she'riyatda mavjud. "Navodir ush-shabob" devonining 550-g'azalida hazrat Alisher Navoiy mana bu tarzda jozibali tasvir yaratadi:

*Yuzung shavqida ashkim ko 'zlar ichra jola bog 'lan mish,  
Yog 'in ul nav'kimdur bog 'lag 'ay abri bahor ichra.*

Ikkala baytning qiyosiy tahlili shundan dalolat beradiki, garchi buyuk salafi she'riyatidan ma'lum darajada ta'sirlanish holati sezilsa-da, Abdulla Oripov baytida fikr tashbehu istiora orqali ohorli ifodalangan. Alisher Navoiy g'azali hazaji musammani solim vaznida yozilgan bo'lsa, Abdulla Oripov fikrni ramali musammani mahzufda ifodalashni ma'qul ko'radi. Navoiy ko'zlar ichra bolani bahor buluti ichidagi yog'inga tashbeh etsa, nevara shogirdi ikki chashmidagi bolani ikki daryoga qiyoslaydi. Har ikki ijodkor she'rida milliy ruhning betakror ifodasi kuza-tiladi.

### Adabiyotlar

1. Oripov A. Tanlangan asarlar. G'afur G'ulom nomidagi NMIU. – T.: 2013.
2. Jabborov N. Zamon, mezon, she'riyat. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2015.
3. Navoiy asarlari lug'ati (Tuzuvchilar: P.SHamsiev, S.Ibrohimov). Adabiyot va san'at.

## ОСОБЕННОСТИ ИНТЕГРАЦИИ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ОБРАЗОВ И МИРООЩУЩЕНИЯ ПОЭТА В ЛИРИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ ПОЭЗИИ ЗУЛЬФИИ

*B.Гудзина, преп. БухГУ*

Творчество Зульфии, созданные ею традиции поэтической школы, играют важную роль в развитии узбекской поэзии. Зульфия была впечатлена традицией, начатой ее учителями, и нашла свой путь, стиль и лексику. Ее стихи обычно торжественны и искренни:

*Чуден мир, мечтой преображеный,  
Труд природы, труд людских веков,  
Ясно, благодарно отраженный  
В зеркалах прозрачных родников*

Символизм в творчестве многих поэтов того времени был доминирующим, и на позитивистское восприятие жизни в мире возникали противоречивые реакции. Символисты, которые просто не хотели описывать мир опыта, описывали его как фальшивую реальность, которая может быть понята только искусством, управляемым неким высшим законом. Они преследовали концепцию, выходящую за пределы понимания; они приижали важность самосовершенствования. В результате восстановление утраченного равновесия было омрачено необходимостью репатриации уникальности мира [3].

Как и в произведениях акмеизма в русской литературе, отношение Зульфии и других узбекских поэтов того времени к бытию стало более отчетливым, чем в символизме. Если

бы романтический аспект переходного феномена трансцендентного от объективных явлений реального времени, то реалисты подошли бы к реальному миру как к самостоятельной ценности. Зульфия сразу пошла по пути поэтов, которые опираются на эту программу и не хотят жить под влиянием прошлого. Зульфия полностью изменила эстетическое мышление. В свою очередь, новое философско-эстетическое сечение обеспечило развитие поэтического мира.

Для каждого из произведений Зульфии есть отличительные черты, характерные для той или иной точки зрения: общность поэтических инструментов, конкретизирующих ту или иную из этих идей и мотивов.

Художественное осмысление действительности у каждого поэта происходит в рамках определенной модели мировоззрения. В свою очередь, это мировоззрение определяет основные поэтико-эстетические направления, такие как авторская позиция, тип лирического героя, система лейтмотивов, статус слова, образное выражение и композиционно-методологическое своеобразие. В творчестве Зульфии есть несколько моделей видения и понимания мира. Это феноменологические, мифopoэтические и культурологические модели. Можно с уверенностью сказать, что каждая из них имела свое распространение в разные периоды творческого становления поэтессы [4].

В то же время творчество Зульфии создает общие идеино-логические связи, объединяющие поэтическую лирическую систему ее поэзии как сокровищницу знаков онтологической значимости жизни и вытекающего из нее существования (от эмоционального выражения сердечной жизни до глобальных ценностей цивилизации).

Художественная мысль Зульфии интегрируется в мир ее мироощущения, который имеет свои отличительные особенности в разные периоды ее жизни. Лирика Зульфии очень структурирована. Каждый поэтический сборник – это копия трогательной композиции определенного периода, которую мы стараемся иметь в виду каждый раз, когда соприкасаемся с удивительным миром ее поэтических откровений.

Годы, когда Зульфия начала писать стихи, были годами перемен для узбекской поэзии. До этого времени вся узбекская поэзия создавалась в своем ритме. В ней огромное значение придавалось концепции круга, когда конец смыкается с началом. Она проявляется на уровнях части и целого.

Естественно, что жизнь в XX столетии менялась, поэтому поддерживать такую систему было уже невозможно: в Узбекистан проникали западные влияния, с одной стороны, а с другой стороны, велик был фактор моды – поддерживая традиционную систему поэзии, узбекский поэт рисковал быть не понятым.

Первыми начали менять эту систему такие известные узбекские поэты, как Хамза Хакимзаде Ниязи, Чулпан Абдулхамид Сулейман угли, Абдурауф Фитрат. Продолжили эту «революцию форм» Хамид Алимджан, Уйгун и другие, перенимающие опыт мировых и русских мастеров литературы.

Зульфия понимала, что ее познания в поэзии недостаточны; она начала изучать классическую литературу и постигать законы художественного мышления. Помимо изучения богатого наследия узбекской литературы, она впервые прочитала на русском языке стихи Лермонтова, Некрасова, Пушкина, Фета, Тютчева [2].

Впоследствии, поэтесса рассматривала классическую поэзию как источник вдохновения и обращалась к гениальным поэтам в своих произведениях как к анонимному адресату. Влияние Лермонтова и Пушкина ощущается и в теме призыва и моральных качеств поэта, к которой Зульфия неоднократно обращалась в своих стихах:

*А ты, поэт, когда свой стих  
Ты в сердце создаешь,*

*Когда очистишь ты сперва  
Свои отборные слова  
От хлама и от сора, —  
Уверен ли, что мастерства  
Достигнешь так же скоро?*

В первых сборниках Зульфии восприятие мира питается двумя основными принципами – гармонией природного мира и осмыслиением внутренних кризисов. Представление о реалиях жизни поэта формировалось философскими тезисами об улучшении жизни людей. Эти идеи были направлены против «конформизма» символистов.

Дискуссия с символизмом обострила аксиологическое значение реального существования для последователей Зульфии. Категория «доступность» стала отправной точкой их философии. Они верили, что объективной вещью является не аномалия Вселенной, а живая материя человеческого бытия, живая сфера конкретного содержания.

Такое понимание существования индивида означает объективную причастность к повседневности. По той же причине жизненная позиция Зульфии вращается вокруг принципа «оживления» и «воскрешения» окружающей среды:

*Тюльпаны  
Тюльпаны, тюльпаны, —  
Повсюду тюльпаны,  
В тюльпанах вселенная вся:  
Вдали водопад заклубился багряный.  
Над самым ущельем вися.*

В результате, в ее поэзии мир вещей очеловечивается. По этой причине в большинстве работ Зульфии так или иначе присутствует человеческий облик, что может многое рассказать о личности поэтессы. Ее главный источник большой любви к миру – субъективное ощущение причастности ко всему, что есть во Вселенной:

*Бывал ли ты в ночном саду,  
Обрызганном луною?  
Земного мира красоту  
Постиг ли ты со мною?  
То дремлет в облаках луна,  
То внемлет веткам вишен,  
То скачет неуком она,  
И в речке топот слышен,  
То блещет зеркалом в пруду.  
Я встала над водою  
И встретилась в ночном саду —  
Лицом к лицу — с собою.*

Очевидно, что лирическая героиня чувствует себя тесно связанной с материальным миром. Она охватывает все – от «песни в руках» до любовного настроения, от влюбленных до «Луны и звезд». Лирическая героиня также демонстрирует свою способность привести все в гармонию:

*Захочу — с мечтой, подругой смелой,  
На вершине встречу синеву,  
А глядишь, мечта — как лебедь белый:  
С нею все моря переплыvu.*

Принятие реальных предметов в качестве отдельной ценности создало новый взгляд на эмоции в ее поэзии.

Такая тесная связь с окружающим миром, наполненная искренним чувством любви и уважения к природе и человеку, делает творчество Зульфии бесценным даром гениального мастера слова всем, кто прикасается к миру ее удивительно тонкой и чувственной поэзии.

### **Литература**

1. Зульфия. Избранное. – М.: Художественная литература, 1985. –383с.
2. Салиджанов Ю. Изучение творчества Зульфии в узбекском литературоведении // Преподавание языка и литературы, 2015. №2, – С. 17.
3. Топоров В.Н. Пространство культуры и встречи в нем // Восток–Запад. Исследования. Переводы. Публикации. – М., 1989. – С.7.
4. Умуррова Г.Х. Художественный мир и поэтическая школа Зульфии. // Автореферат диссертации доктора филологических наук (DSc). Самарканд, 2019.

## **SIZIF - YANGI SHAKLLANGAN ONG TIMSOLI**

*I.Saymuratova, GulDU katta o'qituvchi*

Badiiy adabiyot davr va jamiyat bilan birga ijtimoiy ong shakli sifatida tarixiy taraqqiyotda paydo bo'ladi hamda o'z rivojlanish bosqichlariga erishadi. Zamon va makon badiiy adabiyotga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Shu jumladan, adabiyot ham muhitga, jamiyat ong-u shuuriga ta'sir qiladi. Shu ma'noda bo'lsa kerakki, istiqlol davrida yaratilgan ayrim asarlarning o'qilishi va uqilishi murakkab jarayonni talab etadi. Bu jarayon esa aynan kitobxonidan ulkan adabiy tayyor-garlikni talab etadi. Istiqlol davri o'zbek romannavisligida o'z mavqeyiga ega, iste'dodli yozuvchi Xurshid Do'stmuhammadning "Donishmand Sizif" asari xuddi shunday asarlar sirasiga kiradi.

Yozuvchi ijodida G'arb adabiyoti an'analarini, aksariyat asarlarini esa modern uslubida yozilganligini ko'rish mumkin. Uning "Donishmand Sizif" romani yangicha yo'naliш va uslubda yozilgan bo'lib, yozuvchi bosh qahramon

xarakterini har tomonlama ochib berishda ichki monologdan samarali foydalangan. Badiiy adabiyotda ichki monologdan personaj ruhiyatini tasvirlash vositasi sifatida qo'llaniladi. "Ichki monolog - personajning moddiylashmagan, o'ziga qaratilgan va ichidagina kechuvchi nutqi, badiiy psixologizmning bevosita shakli. Sharqli ravishda inson ongida kechayotgan o'ylov (his etish) jarayoni sifatida qabul qilinadi"<sup>203</sup>.

Yunon mifologiyasida Sizif obrazining mavjudligi jahon adabiyoti tarixidan ma'lum. Shuningdek, adabiyotda Sizif mehnati, Sizif mashaqqati kabi terminlar va shu asosda yaratilgan adabiy manbalar bor. Sizif haqida yunon mutafakkirlari- Gomer, Esxil, Sofokl, Evripid, Kritiy, adiblar - Sartr, Jeyms Joys, Frans Kafka, Marsel Prust, Merli, Nikitin, Alber Kamyu, Nikolay Kun, Xurshid Do'stmuhammad, psichoanalitik - Erik Bern, musavvir - Vechellio Titsianning ijodida turli janrlarda asarlar yaratilgan. U haqida yaratilgan mavjud asarlarning deyarli barchasida birgina xususiyat yetakchilik qilgan, Sizif ma'bdular xudosi Zevsning qilmishlarini bilgani sabab bema'ni og'ir jazoga mahkum etilgan hamda turli qiyofa va xarakterlarda namoyon bo'lgan. Xurshid Do'stmuhammad Sizif mehnati va mashaqqatini zamonaviy ruhda yangicha usluba ifoda etdi.

Romanda isyonkor va kurashuvchan inson qismati tasvirlanadi. Sizif asarning bosh qahramoni, uning misolida odamzodning iztirobi, umidi, mashaqqatli umr yo'li qalamga olingan.

<sup>203</sup> Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. – Т.: Akademnashr, 2010. – Б. 126.

Roman qahramonlari sanoqli bo'lib, ular o'ziga xos ramziy xarakterga egaligi bilan ajralib turadi. Xurshid Do'stmuhammad mazkur romanini Alber Kamyuning "Sizif haqida asotir" nomli essesiga hamohang tarzda yozadi. Alber Kamyuning talqinida Sizif absurd qahramon. Absurd – bema'nilik degani. Adabiyotshunoslikka oid lug'atlarda bu atama deyarli uchramaydi. Absurdizm insoniyatning hayot ma'nosini topish yo'lidagi harakatlari zoye ketadi, chunki bunday ma'nuning o'zi mayjud emas, deb ta'kidlovchi falsafiy oqimdir. Adabiyotshunos olim Yo'Idosh Solijonov "Sizif va absurd" nomli maqolasida A.Kamyu o'zining "Sizif haqida asotir" essesida absurdning ma'no-mohiyatini to'laligicha ochib bergenini aytadi va quyidagilarni ta'kidlaydi: "Adib Sizif siyosida zolimlarga qarshi kurashuvchi proletar timsolini ko'radi. «Xudolarning proletariysi, ojiz bo'lsa-da, isyonkor Sizif, – deb yozadi Kamyu va o'zining tunganmas qayg'uli qismatini yaxshi biladi; bu haqda u pastlikka tushayotganda o'ylaydi». Kamyuning ifodalashicha, Sizif jahannamning mangu malayidir. Yozuvchi bu afsonadagi ramziy obraz hamda makon orqali real hayotga munosabat bildiradi. Uningcha, inson yashayotgan hayotning o'zi do'zax azobidan iboratdir. Odam bu hayotda qanday yashashni, kimga ishonishni, nimaga ko'ngil qo'yishni bilmaydi. «Shundan anglashiladiki, Sizif absurd qahramondir» degan xulosaga keladi Kamyu. Demak, bu ma'nisiz hayotda foydasiz urinish va ro'yobga chiqmaydigan umid bilan yashash absurdning falsafiy mohiyatini tashkil etar ekan"<sup>204</sup>.

Shu o'rinda bir savol tug'iladi: nima uchun yozuvchi aynan yunon mifologiyasidagi Sizif obraziga murojaat etdi? Bu qahramon Sharq adabiyotida yo'qimi? Har bir davr adabiyotining o'ziga xosligi bo'lganidek, Sharq adabiyotining ham G'arb adabiyotining ham o'ziga xos jihatlari bor. Bizningcha, yozuvchiga Sizif obrazi olamni anglatayotgan shaxs sifatida kerak bo'lgan. Xalq og'zaki ijodidagi qahramonlarimizda ko'p hollarda superqahramonlikni ko'rishimiz mumkin. Ularda shaxs emas, balki qahramonlik yetakchilik qilgan. Asosan ular o'zida ko'proq xalqning orzu-umidlari, armonlarini, qolaversa, ideallarini ifoda etgan. Masalan, Go'ro'g'li yoki Alpomish obrazlarini olib qaraydigan bo'lsak, ular o'tda yonmaydi, suvda cho'kmaydi, qilni qirq yorib, zumda tog'ni talqon etadi. Vaholanki, real hayotda shaxs bu holatda bo'lmaydi. Ayniqsa, yangi zamон ijtimoiylashgan davr kishisida bunday holat kuzatilmaydi. O'zini anglayotgan va olamni anglashga urinayotgan shaxs timsoli kerak bo'lgani uchun Sizif obraziga murojaat etilgan va unga milliylik ohori singdirilgan. Bu bilan yozuvchi o'zi aytmoqchi bo'lgan g'oyalarini va ko'zlagan badiiy niyatini amalga oshirgan.

Yozuvchi doimiy harakatdagi shaxs obrazini yaratdi, qahramon esa o'zida shakllangan yangi ong va irodani kashf etdi. G'oya nuqtayi nazaridan yozuvchi yangi fikrlayotgan ongli shaxs obrazini birinchi planga qo'ydi. Bu obrazni Sharqdan emas, aynan yunon mifologiyasidan olgalligining boisini asar g'oyasini keng miqyosda e'tirof etishi uchun Sizif obrazida imkoniyatlar ko'proq edi deyishimiz mumkin. Yana bir sababi butun adabiyot ahliga ma'lum bo'lgan bosh qahramon Sizif orqali yozuvchi o'z ijodiy niyatlarini singdira olish mas'uliyatini uddalagan.

### Adabiyotlar

1. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.: Akademnashr, 2010. – 126 b.
2. Solijonov Y. Sizif va absurd. Jahona dabiyoti. 2010. 1-sон.

---

<sup>204</sup> Солижонов Й. Сизиф ва абсурд // Жаҳон адабиёти. 2010. 1-сон.

## CHO'LPON SHE'RIYATIDA IJODKOR BADIY-ESTETIK IDEALI

*G. Murodova, O'zMU magisti*

XX asr o'zbek she'riyatida ijodkor badiy-estetik ideali istiqlol orzusi bilan uyg'unlashgani barchamizga ayon. Bu davr adabiyotida Vatan va millat taqdiri har qachongidan ham jiddiyoq tarzda qalamga olindi. Ona yurtni istibdod iskanjasidan ozod ko'rish orzusining badiy talqini she'riyatda yetakchilik qildi. Yangi o'zbek she'riyatida Abdulhamid Cho'lponning o'rni alohida. Ulug' ma'rifatparvar milliy istiqlol haqidagi orzularini ramz va timsollar tiliga ko'chirdi. Shu o'rinda akademik Naim Karimovning Cho'lpon ijodiga quyidagicha baho bergenliklarini ta'kidlashni joiz deb bildik: "Cho'lpon butun umrini xalqimizning mustamlakachilik kishanlaridan xalos bo'lib, emin-erkin yashashi va milliy taraqqiyot yo'lliga chiqib olishiga bag'ishlagan, milliy adabiyotimizni yuksak dovonga olib chiqqan ulug' shoir, yozuvchi, dramaturg, adabiyotshunos va san'atshunos olim edi"<sup>205</sup>

Cho'lpon o'z she'rlarida millat erki va manfaatlarini tasvirlashda badiiy obrazlardan ko'plab foydalanadi. Adabiyotshunos Dilmurod Quronov ta'kidlaganidek: "Badiiy obraz borliqning (undagi narsa, hodisa va h.k.) badiiy asardagi aksi. Biroq badiiy obraz oddiygina aksi emas, yo'q, u borliqning san'atkor ko'zi bilan ko'rilgan va ideal asosida qayta ishlangan aksidir. Bu aksda borliqning ko'plab tanish izlarini topasiz, biroq bu endi biz bilgan borliqning aynan o'zi emas, balki tamoman yangi mavjudlik – badiiy borliqdir".<sup>206</sup> Demak, Cho'lpon ham o'zi angalagan mohiyatni badiiy obraz vositasida o'quvchiga yetkazishni maqsad qiladi.

Millat va vatan erki mavzusini yoritishda u murojaat qilgan obrazlardan biri bu kishan obrazidir. Shoir tasavvuridagi erkinlik va ozodlikka erishish yo'lida o'zini kishanlangandek his qiladi. U kishanni millatlarni, xalqlarni mustamlaka zulmi ostida tutgan qurol sifatida tasvirlaydi. Shoir "Qo'zg'olish" she'rida:

Ay! Bo'ynimga kishan solib halokatga sudragan,

Ko'zlarining zaharlatib o'ynatmagin, bas endi! – deya xalqlarni tutqunlikda tutgan mustamlakachi kuchlarga o'z nafratini bildiradi va bu kishanlar abadiy emasligini, kishan ham oxir-oqibat zanglashi va bo'shashishi mumkin ekanligini aytib, ayniqsa, xalqning qonida ozodlik istagida qo'zg'alish yuz bersa, bu kishanlar, albatta, uzelishi muqarrarligini ta'kidlaydi:

Kishanlaring zang bosgandir, sergak bo'lkim, uzilur;

Tomirimda qo'zg'olishning, vahshiy qoni gupurdi.<sup>207</sup>

Adabiyotshunos olim Nurboy Jabborov Cho'lpon ijodida tasvirga olingen kishan timsoliga e'tibor qaratar ekan, shunday yozadi: "Kishan – istibdod iskanjasidagi yurt timsoli. Cho'lpon eng faol qo'llagan bu timsol orzudan ko'ra ko'proq armonni ifodalagan. Zero, kishan va ozodlik birgalikda mavjud bo'la olmaydi. Ulardan birining borligi o'z-o'zidan ikkinchisini inkor etadi. Vujud ham mayli, ko'ngil kishanlangan bo'lsa-chi? Tabiiyki, fofia bundan ham ortiq bo'lmas"<sup>208</sup>

Shoir navbatdagi she'rida kishanga bevosita murojaat etadi va uzoq vaqt kishanning tutqunida qolib, so'ng uning sovuq temir barmoqlaridan halos bo'lgan bo'lsa-da, lekin hamon uning mudhish quchog'i xalqlar tarixida qonli dog' bo'lib qolishini aytadi:

Kishan gavdamdagi izlar, bugun ham bitgani yo'qdir!

Temir barmoqlaringning dog'i, butkul ketgani yo'qdir!

Na mudhish, na sovuq – manhus, na qizg'onmas quchog'ing bor!

Bashar tarixining har sahfasida qonli dog'ing bor!

<sup>205</sup>. Каримов Н. Чўлпон ҳақида сўз / Чўлпон. Асарлар. 1-жилд, Т.: Академнашр, 2016. 10-бет.

<sup>206</sup> Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. T: Fan, 67-b

<sup>207</sup> Чўлпон. Асарлар. Уч жилдлик. Жилд I. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1994. – 59-б.

<sup>208</sup> Жабборов Н. Истиклолга эврилган орзу // Гулистон. 2017. 1-сон. 26-бет

Mumtoz she'riyatning aruz vaznida mahorat bilan yozilgan bu she'rning keyingi baytlarida kishandan qolgan izlar butun borliqni zahar aylagani, undan qolgan dog' hanuzgacha bitmagani holatida, lirik qahramon aynan shu dog' tufayli undan butkul qutulish kerakligini anglaydi.

Kishan, gavdamdagi dog'ing hanuz ham bitgani yo'qdir,

Faqat, butkul qutulmoqqa umidim endi ortiqdir!..

Mustamlakachi davlat mahalliy xalqni doimiy ravishda o'z nazorati ostida tutib turishga intilib, mahalliy xalqni – turkistonliklarni hech qachon o'ziga teng ko'rmay, o'zini bu yurtning yakka-yu yolg'iz xo'jası deb bilib, uning xalqini xizmatkor deb hisoblashda davom etar ekan, bu yo'lida hech tolmay, muttasil harakat olib borgan. Cho'lpon xalqning erkini cheklashga doimiy uringan rus hokimiyatining bu harakatlarini "Chiqadirgan quyoshni" "Etak bilan to'smoq uchun tirish"moq deya baholaydi o'zining "Tortishuv tongi" she'rida va ularga: "Kishanlarni yasovchi "ustalar", deb murojaat qiladi.

Biz navbatda to'xtalmoqchi bo'lgan obraz yulduz obrazi bo'lib, kishan obrazidan farqli ravishda u yulduzga ijobiylik nuqtai nazaridan yondashadi va ozodlik yo'lida uni yo'l boshlovchi deb hisoblaydi:

Uzoq... og'ir yo'lga chiqqan yo'lchimen,

Bu yo'llarda qilog'uzim\* (yetakchi, yo'l boshlovchi) yulduzdir.

Men yurtimining pok istakli kuchimen,

U yulduzning tugalishi kunduzdir.

Cho'lpon o'z hayot yo'lini yo'llarda tasvirlaganini ko'rishimiz mumkin. U ana shu yo'llarda buyuk maqsad bilan boradi. Maqsadi ulug', hatto yo'llarda uchragan dengizlardan-da ulug'roq. Har bir hodisaga vatan va millatning manfaati nuqtai nazaridan yondashgan Cho'lponning maqsadi, albatta, yurtining erkinligi orzusi va bu yo'lida u o'zini yolg'iz ko'rmaydi.

### Adabiyotlar

1. Чўлпон. Асарлар. 1-жилд. – Т.: Akademnashr, 2016.
2. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Т.: Fan. 2008.
3. Жабборов Н. Истиқлолга эврилган орзу // Гулистан, 2017. 1-сон.

## QISSALARDA MILLAT MA'NAVIYATINING BADIY IFODASI

*A.Eshniyazova,  
TDTU o'qituvchisi*

Mustaqillik davri adabiyoti rivojiga o'z qissalari bilan munosib ulushini qo'shgan Normurod Norqobil asarlarida tabiat va inson munosabatlarining badiiy talqini, insonning o'zligiga, taqdiriga, diyonatga munosabati ziddiyatli ruhiy holatlarga bog'lab tasvirlangan. Har bir yaratilgan badiiy asarda yozuvchining estetik ideali, aytmoqchi bo'lgan gaplari, badiiy pafosi qahramonlar obrazida aks etadi. F.Dostoyevskiy o'z xatlarida shunday yozgan edi: "Butun asar davomida harakat qiluvchi qahramonlarning har biri yozuvchining sochilib ketgan "men"laridir. Ularning har biri o'zida yozuvchining dardini, niyatini, armonini tashiydi"<sup>209</sup>.

N.Norqobil yaratgan qissalarda qishloq odamlari hayoti, tog'liklar tabiatini, ularning tabiatga munosabati, tabiiy tuyg'ulari tasviri bilan qorishiq holda ifodalangan. N.Norqobil qissalarida tabiat va hayvonot olamining chuqur bilimdoni va bu olam sinoatini teran anglab etgan yozuvchi sifatida gavdalananadi. Uning barcha qissalari mavzu va qahramonlar tanlanishiga ko'ra rangbarang, har bir qissada yozuvchining yangi qirralarini kashf qilish mumkin. Uning qissalarida

<sup>209</sup> Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – М.: 1972. – С. 301.

insoniyat va tabiat uyg‘unligi, hayvonot olamining turfaligi, yovvoyi tabiatning ko‘z ilg‘amas tomonlari, hayvonlarning ichki olami, inson va hayvon munosabatlari nozik tovlanishlari bilan o‘zbekona mehr-oqibat, tantilik qorishiq holatda tasvirlanadi. Qissalarida tabiat va inson munosabatlarining goh chigal, goh o‘yga toldiruvchi badiiy talqini insonning o‘zligiga, taqdiriga, diyonatga munosabati ziddiyatlari ruhiy holat dinamikasi asosida aks ettiradi. N.Norqobil nabolot, jamodot va hayvonot olamining shaydosi, mohir tasvirchisi. Yozuvchining “Ovul oralagan bo‘ri”, “Tog‘u toshlarda”, “Tog‘ odami”, “Belbog”, “Adadsiz azob”, “Oqbo‘yin”, “Qoyalar ham yig‘laydi” qissalarida tog‘ tabiatni va tog‘ odamlarining hayoti o‘z aksini topadi. Uning qahramonlari tog‘day mag‘rur va viqorli, bir-biriga o‘xshamaydigan tog‘ polvonlari: Husan polvon (“Oriyat”), Bozor polvon (“Sariq gul”), Ernazar polvon (“Qoyalar ham yig‘laydi”). Lekin ularni o‘zaro birlashtirib turadigan xususiyatlar ko‘p. Ular savodsizgina, qo‘polgina, gapning o‘ngu tersiga qarab o‘tirmasdan gapirib qo‘yaqoladigan bo‘lsa ham, har biri tog‘day salobatli va ulug‘-vor asrlik toshlarga, mangu qoyalarga o‘xshaydi. Ular chayir, pishiq, bahaybat, ayni vaqtida ko‘ngli nozik, g‘ururi baland, millat, elat, qavm sha’ni uchun jon berishga tayyor kishilar.

N.Norqobil qissalarida insoniyat va tabiat uyg‘unligi, hayvonot olamining turfaligi, yovvoyi tabiatning ko‘z ilg‘amas tomonlari, hayvonlarning ichki dunyosi, inson va hayvon munosabatlari nozik tovlanishlari bilan o‘zbekona mehr-oqibat, tantilik qorishiq holatda aks etadi. “G‘animlar” qissasida Yoldor bo‘ri egasi o‘smir Safar vafot etganda fig‘on chekadi, Tolmas bobo vafot etgach esa qabriston uning qadrondon maskaniga aylanadi. “Adadsiz azob” qissasida Oqquyruq Nodir cholni yuz beradigan ofatdan ogohlantiradi, egasining so‘nggi nafasida yonida bo‘ladi, ayriliq azobiga dosh berolmaydi. “Ovul oralagan bo‘ri” qissasida esa hayvonlar o‘rtasidagi mehr-oqibat, sadoqat insonlarga namuna bo‘larli darajada ekanligini kuzatamiz. Cho‘ngkalla o‘z juftini qutqarish yo‘lida barcha to‘sqliarni engib o‘tishga tirishadi. “Tog‘u toshlarda” qissasida Pahmoq va Panji sayoq, “G‘animlarda” Yoldor bo‘ri va Sarvar o‘rtasidagi ichki nizolarning inson va tabiat mutanosibligining, insonning tabiat ustidan o‘z hukmronligini o‘tkazish payida bo‘lishi va hukmronlik nashidasining do’stona mehrga aylanishi (Sarvar va Yoldor) yoki insonni fojiaga olib kelishi mumkinligini (Panji sayoq va Pahmoq) ishonarli tasvirlaydi.

“Qoyalar ham yig‘laydi” qissasida tog‘ odamlarining xarakter xususiyatlari, tog‘liklarga xos oriyat, g‘urur, milliy qadr-qimmat tushunchalari o‘zgacha badiiy talqinini topgan. Asarning bosh qahramoni Ernazar polvon butun umr davralarda bel ushslashib kurash tushib kelgan, kurash tushganda ham halol va tantilik, mardlikni e’tiqodga aylantirgan. U yashashda, odamlarga bo‘lgan munosabatda bundan boshqa yo‘lni tan olmaydi. Ernazar polvonning hayotda o‘z aqidasi, qarashlari bor; o‘g‘il bola polvon bo‘lishi kerak, xushro‘y bolalarni jini sevmaydi. “Ul deganlari xarsangtoshday dag‘al bo‘lsa ekan, qizbetdan polvon chiqarmidi”, deb o‘ylaydi.

Yozuvchi Ernazar polvon xarakteriga xos xususiyatlarini kashf etib boradi. “Qishloqda yolg‘iz ugina o‘zini daraxtgina, farzandlarini esa shoxlarga qiyoslardi. Shoxlar deganda o‘g‘illarini nazarda tutardi, qizlarini esa loaqal novdaga arzitmasdi. U qiz tomondagi nevaralarini ko‘pda o‘ziga yaqin olavermas, ularni o‘zga daraxt butoqlari deb hisoblaydi”<sup>210</sup>. Halollik, mardlik – polvonning hayotiy aqidasi. U o‘z hovlisini Vatan, o‘zini esa shu Vatanning yo‘riqchisi deb biladi. Ernazar polvon o‘z oilasini sog‘lom chinorga qiyoslaydi. U chinorning hamma shoxlari bekam-u ko‘st to‘g‘ri bo‘lishini, har bir odamning hayotdagini asosiy shiori ma’naviy poklik bo‘lishini istaydi. Polvon – e’tiqodini turmushiga emas, balki hayotini e’tiqodiga moslab yashaydigan inson. Yozuvchining mahorati shundaki, qahramonni yashayotgan zamindan uzib qo‘ymaydi. Bugunning bag‘rida yashayotgan inson qanchalar o‘ziga xos va kuchli bo‘lmasin, bugunning nafasini his etib turishga majburligi asarda ishonarli ko‘rsatib berilgan. Otaning

<sup>210</sup> Норқобил Н. Тоғдаги ёлғиз одам. Қиссалар ва ҳикоялар. – Т.: О‘zbekiston, 2011. – Б. 194 .

o'g'illaridan ko'ngli to'q, chunki u farzandlariga harom luqma yedirmagan. Ammo hayot har doim bir tekis, to'la to'kis kechmaydi. Polvon o'z naslida ota falsafasiga qarshi chiqadigan, uning qarashlarini, tutumlarini eskilik sarqiti deb biladigan, haromdan hazar qilmaydigan, otaga qo'l ko'tarishga qodir, farzand voyaga yetganini kech anglaydi. Ernazar polvon quvonchu shodliklari, dardlariga mangu qoyalar, tog'lar hamnafas, hamdard edi. Yozuvchining topilmasi otaga qo'l ko'targan, oqpadar bo'lgan farzandni tog'lar, qoyalar kechirmaydi. O'g'il ota yuziga oyoq qo'ydi, otaning hayotiy e'tiqodini toptadi. Nobakor o'g'il otaga qo'l ko'tardi. Polvon hayotiy aqidasida bir lahzalik shubhaga berildi. Bu uning otalik o'kinchi edi. O'g'ilning gunohiga mangu toshlar larzaga keldi va u toshlar orasida halok bo'ldi. O'g'ilning gunohini, otaning so'ngsiz iztirobini tog'lar o'z bag'riga yashirdi.

Qissa voqealari Ernazar polvon tilidan gapiriladi, uning xayol prizmasidan o'tadi. Yuz bergen voqe va jarayonlarni polvon nigohi va qarashlari orqali kuzatamiz. Qissada sadoqatli do'st, Ernazar mergan dardlariga sherik va malham bo'la oluvchi G'aybulla mergan obrazi, o'z manfaati yo'lida qishloq doshlarini cho'lga quvishga qodir Sami rais (u keyin Sami cho'loqqa aylanadi), mard va tanti Turkman polvon, ota orini olishga qodir Ko'char polvon va ota aqidasiga qarshi, yengil hayotga oshufta farzand O'sar polvon obrazlari asarda mahorat bilan yaratilgan. O'sarning tog' ko'chkisi tufayli toshlar tagida qolib halok bo'lishida ramziy ma'no bor. Otaga qo'l ko'tarib, oqpadar nomini olgan o'g'ilning harakatlari xuddi tog' ko'chkisiga o'xshaydi. Adabiyotshunos olim A.Rasulov "Mening nazarimda, O'sarni urib yiqitgan tosh boyaga g'azab alangasida qovrilib, yurak bag'ri o'rtanib turganida Ernazar polvon jon jahdi bilan pastga uloqtirgan "kalladay tosh" bo'lib tuyulaveradi"<sup>211</sup>. Yozuvchi tanti polvonni qoyaga mengzaydi.

N.Norqobil o'z qissalarida tanti, sodda, g'ururi baland polvonlar hayotiy aqidasi, maslagi hayot deb atalmish sahnaga mos tushavermasligi, ular bilmaydigan, hatto tushunmaydigan sahna ortida hayot borligini anglash va anglatish yo'lidagi iztiroblarini tasvirlaydi. Buyuk qoyalarni tabiiy ofatlar yemirishi, yig'latishi mumkinligini Ernazar polvon obrazida yaratadi. Adib qissalarida "qizil ip" bu o'zbek millatiga xos oriyat, jo'mardlik, tantilik sifatlaridir. O'z iztirobu dardlariga tabiatdan malham izlab topayotgan qahramon kechinmalarini aks ettirish bilan ijodkor qissachilikka yangicha ohang olib kirdi.

## MEHMET AKIF ERSOYNING "SAFAHOT" ASARINING YOZILISH TARIXI VA UNGA ASOS BO'LGAN VOQEALAR

*H.Boltaboyeva,  
TDSHU o'qituvchisi*

Mehmet Akif Ersoy XX asr boshlarida Istanbulda yuz berayotgan siyosiy va madaniy o'zgarishlar davrida o'z mamlakatidan yiroqda xizmat safarida bo'lsa ham undan ajralib qolmadı. Ayniqsa, 1908-yilgi mashrutiyat (Konstitusiya) talabi bilan chiqqan "Ganj turklar" harakati va madaniy hayotdagi tub o'zgarishlarda faol ishtirok etdi. 1910-yillardan "Sirot ul-mustaqim" gazetasining noshiri sifatida ko'pla maqolalar e'lon qildi va shoirning onlab she'rlari ham na shu matbuot vositasi orqali ellarga tanildi. 1912-yilda gazetaning 183-sonidan e'tiboran "Safahot" asari doimiy suratda bo'silib turdi va unga turk jamiyatining eng ilg'or vakillari, adiblar, jurnalistlar, madaniyat va fan arboblari o'z munosabatini bildirdilar. Chunki bu davr ayrim manbalarda yozilganidek, ota qizin, munozara va tahlikalarga boy davr edi.

<sup>211</sup> Расулов А. Бадиийлик безавол янгилик. – Т.: Шарқ НМАК, 2007. – Б. 135.

1876-yilning 31-avgustida taxtga o'tirgan Abdulhamid II taxtga o'tirishdan oldin xalqning kayfiyatini ma'qullaganday bo'lib, yangi konstitutsiya (qonun-i asosiy) loyihasini tayyorlagan Midhat Posho va uning tarafdarlarini qo'llab-qo'ltilqlagan, 1876-yilning 23-dekabrida konstitutsiya e'lon qilinishida qarshilik qilmagan edi. Bu qonun-i asosiydagi yangilikka ko'ra, Ovrupodagi kabi, oyon va mebuson (ya'ni senatorlar va millatvakillari)dan iborat ikki palatali majlis podshoh faoliyatini nazorat ostida tutishi kerak edi. Yangi konstitutsiya uchun harakat boshlangandan buyon davlatning idora etilishiga xalqning ishtirokini ham ta'minlash masalasi tortishilgan, naridan beri tashkil qilinishi kerak bo'lgan, "sho'ro" va "mashvarat" yo'llari ham tavsiya etilgan edi.

Abdulhamid II kuchli tahsil olmagan, lekin zako darajasini, ayniqsa haqiqiy saviyasini va dunyoqarashlarini bildirmaslikda juda mohir edi. U Midhat Poshoning xalq o'rtasidagi katta obro'yini hisobga olib, rayosatga tayinlagan, ammo ichida Abdulazizning taxtdan yiqitilishida Midhat Posho bosh rol o'ynaganini unutmas, bir kun o'zini ham yiqitishi mumkin degan gumon bilan uni taxtdan yiroqlashtirishni o'ylab yurardi. 1877-yil 5-fevralda Midhat Poshoni to'satdan saroya chaqirib, noaniq sabablar bilan chetelga chiqarib yuborilishiga erishdi. Abdulhamid yangi konstitutsiyaga bo'ysunishni istamas edi. Bu paytda Usmonli imperatorligi Bolqonlarda katta muvaffaqiyatsizliklarga duchor bo'ldi, rus chorizmining harbiy kuchlari Dunaydan o'tib, Istanbul etaklarigacha yetib keldi. Shunda Abdulhamid II bu ishlarga parlament aybdor, men xohlaganimday harakat qilolmadim, degan bahona bilan 1878-yili parlamentni muhlatsiz ta'tilga chiqarib yubordi, davlat parlamentsiz eski tanzimat yo'liga o'tib oldi.

Abulhamid II 30 yil davom etgan hukmdorligi vaqtida tashqi siyosatda nihoyatda ehtiyyotkorlik yo'lini tutdi, Usmonli imperiyasi isyon ko'targan yurtlarga oz-ozdan yon berib, yildan yilga kichrayib bordi, ichki siyosatda esa har qanday g'alayonu siyosiy harakatlarni bostirib nisbiy tinchlik-barqarorlikka erishib, yurtda obodonchilik va madaniyat ishlarini rivojlantirishga harakat qildi: temir yo'l, pochta, telegraf tashkilotlari qurdirdi, ayni chog'da o'z huquqlarini kengaytirib istibdodni orttirdi. Shu tariqa imperiyada tanazzul chuqur ildiz ota bordi.

"Bir tarafdan moliyaviy yetishmovchiliklar va har turli hurriyatlarning tahdid va shartlari, davlatning chet mamlakatlar qarshisida o'z viqorini himoya qilish kuchiga ega emasligi, vaqtibeqaqt yuz berib turgan ichki isyonlarning takrorlari, yangi-yangi muxtoriyat va istiqlol talablari va buyuk davlatlarning bunday vaqtlardan darhol foylalanishlari, davlatning butunlay parchalanishiga yo'l ochuvchi haq-huquq talablarining bitmas-tuganmasligi bo'rgan sari halq tabaqlarida norozilik uyg'otayotgan va yashirin muxolif tashkilotlar tug'ilishiga sabab bo'layotgan edi."<sup>212</sup>

1889-yilda Ittihad va Taraqqiy (Birlik va Taraqqiyot), Yosh Usmonlilar kabi jamiyatlar qurildi va ular Abdulhamiddan maktablarga, matbuot va nashriyotlarga diqqat qaratishni talab qila boshladilar. Podshoh bunga javoban Ittihad va Taraqqiyiga nisbatan shiddatli ta'qibni oshirgandan so'ng, jamiyatlar yashirin faoliyatga o'tdi, bir qismi chet ellarda, bir qismi ichkarida shiddatli faoliyatga kirishib, mashrutiyatni tiklash uchun kurasha boshladi.

Nihoyat 1908-yil 23-iyulda Usmonli imperiyasida ikkinchi marta mashrutiyat e'lon qilindi. Ittihad va Taraqqiy Jamiyatni Mashrutiyat e'lonidan keyin mamlakatda shariatga mos hurriyat yaratishni, tanazzuldan boshi chiqmayotgan vatanni falokatlardan qutqarajagini, armiyani va hokimiyatni, ta'lim-tarbiya sohasini va madrasalarni isloh etajagini va'da qilayotgan edi. Mehmed Akif ana shunday bir tarixiy sharoitda maydonga chiqqan, Ittihad va Taraqqiy Jamiyatiga a'zo bo'lgan edi.

1908-yil 27-avgust kuni Istanbulda "Sirot-i mustaqim" nomli haftalik gazeta bosilib chiqdi. Muassisleri prof. Abululoh Zaynalobidin va huquqshunos, hofiz Ashraf Adib, bosh muharriri esa

<sup>212</sup> Islom Ansiklopedisi. Ankara, 1984. 1-jild. S.79.

Mehmed Akif Erso'y edi. Gazeta falsafa, adabiyot, huquqiy ilmlardan bahs yuritar, formati 20x28,5 santimetr bo'lib, har soni 16 sahifadan iborat edi.

"Safahot" tarkibiga kirgan asarlarning yozilish davri haqida so'z yuritilganda, ularning ayrimlari shoirning ilk maktabdalik davrlarida boshlanganini kitob mundarijasidan sezamiz. Biroq undagi asosiy voqealar 1908-1933 yillarni o'z ichiga olishini mutaxassislar qayd etishgan.

Uning nashr etilishining o'zi bir tarix. Chunki bu ko'pjildli qomusiy asarning tola nashr etilishi qariyb 20 yilga yaqin vaqtini o'zi ichiga qamrab olgan. Yetti kitobdan iborat asarning 1-kitobi 1911-1914 yillar orasida nashr etildi. Ikkinci kitob esa 1917-1924-yillarni o'z ichiga oladi. Keyin esa qolgan kitoblari ham ketma-ket nashr etildi. Ma'lumki, shoir 1925-yildan keyin Misrda yashagan. Shuning uchun ham uning keyingi kitoblari nashr etildi.

Nashr jarayonida quyidagi nomlarda nashr bo'lganini kuzatamiz:

1. Safahot. 1911, 1918 va 1928.
2. Sulaymoniya kursisida. 1912, 1916, 1918 va 1928-yillarda qayta nashr etilgan.
3. Haqning saslari. 1913, 1918 va 1928-yillarda nashr bo'lgan.
4. Fotiq kurslarida. 1914, 1924-yillarda bosilgan.
5. Xotiralar. 1917, 1918 va 1928-yillarda bosilgan.
6. Osim. 1924, 1928-yillarda bosilgan.
7. Soyalar. 1933-yilda chop etilgan.

Ko'rindiki, bu murakkab syujethli asarning nashr etilish tarixi ham alohida organilishga muhtojdir.

"Safahot" asarining mundarijasiga e'tibor qaratsak, uning tarkibi 108 ta she'rdan iborat. Ularning janr xususiyatlari ko'ra masnaviy (manzuma), qit'a va to'rtliklardan iborat. Asarning umumiy hajmi 11.420 misradan iborat.

### **Adabiyotlar**

1. Ersoy Mehmet Akif. Safahat, Istanbul, 1987. s.600.
2. Ersoy Mehmet Akif, Safahat, Ankara, 2008, 544 sf.
3. Ersoy Mehmet Akif Ersoy. Fikri ve Sanat Vakfi // [www.mehmetakifersoy.com](http://www.mehmetakifersoy.com)
4. Mehmet Akif Ersoy'un Aile Mektuplari. Mehmet Akif Ersoy Universitesi Yayınlari, 2010.
5. A manoglu E. Mehmet Akif'in Milli Micadele Dinemindeki Edebi Faaliyetleri uzerine Bir inceleme / Mehmet Akif Ersoy Sempozyumu Bildiriler Kitabi Mehmet Akif Ersoy Universitesi, 2008.
6. Ogur E. Asim'da Egitim Degerle. Mehmet Akif Ersoy Sempozumu Bildiriler Kitabi Mehmet Akif Ersoy Universitesi, 2008.
7. Fevziye Abdullah Tansel. Mehmet Akif. Hayati ve Eserleri. Istanbul: Irfan Yayınlari, 1973, 291 sf.

## **ФОРМЫ МИФА И ОБРАЗ ГЛАВНОГО ГЕРОЯ В РОМАНЕ ТИМУРА ПУЛАТОВА «ЧЕРЕПАХА ТАРАЗИ»**

**Ж.Буранова,  
преп. Каршинского ГУ**

В современной мировой литературе рубежа XX-XXI веков писатели старались обратиться к неомифологизации, при которой философская насыщенность произведения, позволяющая рассматривать пласт частных проблем как общемировые, общебытийные, обеспечивается за счет создания авторских неомифов посредством художественной

реинтерпретации в современном контексте классических мифов (сюжетов, мотивов, образов, символов и т.д.). К числу таких писателей можно отнести известного писателя Тимура Пулатова, проза которого оставила заметный след в современной культуре. Он представитель этнического сообщества и в то же время является видным писателем «двухязычного поколения». Роман писателя «Черепаха Тарази» получил наибольшую известность и признание в мировой литературе.

«Черепаха Тарази» полон различного рода мифических сюжетов, образов и элементов. Основным мифическим образом мы можем назвать бывшего судью Бессаза, перевоплощение которого берёт свои корни из древнего мифа. Вопросы «вечности» и «природных законов» лежат в основе романа. В произведении звучит мысль о том, что мы должны «слушать голос природы, в котором скрыта мудрость и гармония» [2, 537]. Сюжет романа – процесс становления Бессаза черепахой и эксперимент Тарази, который на короткий срок вернул человеческий облик Бессазу. С первых страниц романа, мы понимаем, что речь пойдёт о загадочном событии, произшедшем в городе, ныне засыпанном песками. Главный герой романа – средневековой учёный Тарази. «Тарази был бухарцем, в нем наравне уживалось все самое противоположное – бесстрастная холодноватость и легкая возбудимость из-за пустяка, житейской мелочи, простодушие и хитроумие, презрение к мишуре и аскетизм – и желание блеснуть в чем-нибудь из ряда вон, чтобы ошарашить окружающих» [1,3].

Появление на окраине маленького городка чудовищной черепахи потревожило всех жителей, включая Денгиз-хана. Эмир поручает тестудологу Тарази увезти черепаху. Сам же Денгиз-хан, как и свои жители очень боялся ее. При этом Тарази размышлял: Наверное, здесь и до сих пор черепаха почитается прародительницей рода» [1,20]. (Здесь автор обращается к мифу о черепахе. Образ черепахи связан, прежде всего, с процессом сотворения Земли. Однако гораздо чаще она выступает в роли держателя Земли. Например, классический образ черепахи на поверхности воды, на спине которой стоят три слона. Уже на их спинах покоятся тело земли).

«Боже! – вскрикнул Тарази, увидев черепаху, дородную, королевскую черепаху размером с человека среднего роста» [1,25]. Черепаха во многом удивляла Тарази. У нее были поводки наподобие человека: «хорошо видела в темноте», тяжело и отчаянно вздыхала, была умна, умела притворяться, она была из породы «... что не душит змей, не глотает крыс, питается лишь травой и листьями, и сам вид крови приводит ее в ужас».

Метаморфоза, т.е. превращение Бессаза в черепаху, понадобилась автору для того, чтобы показать то, как человек обладает непредсказуемыми высокими качествами, от которых животное ограничено (в момент превращения Бессаза в черепаху), а также бессилие человека перед законами природы (неудачный эксперимент Тарази, в котором он пытался вернуть в своё прежнее состояние Бессаза). Превращение Бессаза в черепаху также нам напоминает мотив восточной притчи о перевоплощении плутоватого торговца в черепаху. В тот момент, когда Кумыш приблизив к уводившему черепаху, Тарази вымолвил: «Это же Али-Ташбаккол. – Мне сказали, что он ваш раб...слуга. – Словом, он теперь ваша собственность, и будьте добры, верните мой долг. А он мне задолжал десть монет золотом» [1,29].

Тарази больше, чем кто-либо, отдал алхимии, затораньше всех понял, что занятие это бесплодное, спорил с коллегами во дворе эмира бухарского, пытался доказать, но за то, что сеял смуту в умах ученых и сомнения в душах казнохранителей, был изгнан из родного города на десять лет, чтобы мог он вернуться уже умудренным, верующим, не знающим сомнения» [1, 38]. Размышления над жизнью, выражавшиеся в литературных сочинениях Тарази, и научный поиск представляют собой две ипостаси единого целого – стимула его

существования. Поиски ученым формулы превращения ведутся как для себя, чтобы утолить постоянную жаждупознания природы, и для людей, чтобы возвращать их к нормальной человеческой жизни. В результате экспериментов, Бессазнакакое-то время сновастановится человеком и признается в своих злодеяниях, но не сможет преодолеть в себе темное «звериное» начало. Бессаз вновь костенеет, покрываютсяпанцирем и теряет свои человеческие черты. Неуловимаяприродапревращения – общественное зло – мешает ученному. ЧерепашийскладхарактераБессаза берет свое, и человек в страхе перед миром, даже не делая попытки осмыслить его, сновазабивается в панцирьчерепахи. Характер молодого чиновника, социальнаясреда, в которой он живет, а самоеглавное, внутренняя потребность к существованиюна уровне инстинктов, без особой надобности в мыслительном аппарате – вот что сновазаставитБессазастьчерепахой. Тарази не доводит до успешного финала свой опыт. Он терпит поражение. – «Но в чем ошибка? Одно дело, если зверем его сделалипадение, продажничество, нравственный порок... Другое – если это заложено в роду... – Пока мне трудно... Но думаю, что духовнаяпорчаускорила порчу физическую...» [1, 166]. ТаковдиагнозтестудологаТарази. Если образБессаза стоит ближе к образамсказочным (в силу своего превращения), то образтестудолога совершенно реалистичен. Он похож наобразы людей эпохи Средневековья, несших людям огонь знаний и искусства. Тарази живет в то время, когда творческие люди интересовались многим, и никакихграниц между физиками и лириками не было. Люди, подобные Тарази, были способны на многое – сделать открытие или же создатьпрекрасное произведение искусства. Но мыслитель бесконечно одинок. Причины этому разные. Его отшельничество и от незаурядногоума, и от крайнего бескорыстия, и от нетерпения к любой несвободе – как к социальному конформизму, так и к религиозным догмам. У данного восточного просветителя за всю полную странствий жизнь остается всего один ученик и соратникАрмон. Но ученик очень молод, к тому же его высокопоставленный отец не одобряет занятиясынатестудологией, всячески стремится помешать сыну. Тарази – творческаянатура, отдающийся своему делу до конца, терпящий лишения из-за постоянной жаждызнаний, ведь он «вечный странник, ищущий истину». Лишь только алхимики средневековья собиралидануважения, потому что обещалиреальную выгоду.

Тарази велик своей добротой и человечностью, а не знанием формулы «танасуха». Он понимает, что причина его трагедиинаходится в неразрешимом противоречии. Можно придатьпресмыкающемуся облик человека, но при существующем положении вещей нельзя добиться стабильностиданногооблика. Это будет всего лишь «двуногое без перьев, а не Человек». [3, 90] Тарази уходит, оставив свои попытки, он уходит с мыслью о конце тестудологии, которая со временем забудется людьми. Но ошибка его, совершенная во имя любви к людям, может помочь другим ученым в установкеморально-нравственных критериев своей работы. Ибо любаятварь хоть изредка, хоть на миг испытывает тоску – извечную тоску всех ее сородичей по человеческому. Как Тарази сказал Армону однажды: «что все дело его жизни может оказаться одной большой ошибкой, которой нет оправдания. Будет горько, смертельно обидно, но не страшно. И это мужество перед лицом судьбы и помогает ему верить и жить...» [1, 54]

В романе Тимура Пулатова «ЧерепахаТарази» мы наблюдаем тесное переплетение реального и условно-мифологического, гротеска с жизнеподобием. Бочаровутверждает, что произведения Пулатова отмечены явным смещением в аллегоричность, условность, «но условность, которая не нарушает жизненные пропорции, не заменяетреальные фигуры эманацией, а как бы опрощает жизненный материал, чтобы подчеркнуть философскую мысль автора» [5, 531]. Романписателяпогружаетнас в давниевремена, обстановка его ирреальна. Но Пулатов не уходит от современности. Вопросы «вечности» и «природных

законов» лежат в основе романа. В романе звучит мысль о том, что мы должны «слушать голос природы, в котором скрыта мудрость и гармония» [2, 537].

Более значительным моментом в романе считается вставная новелла – произведение, написанное Тарази «На приёме у господа». Это произведение имеет философскую, мифологическую основу. Герой, стоя в очереди, чтобы попасть к господу и просить у него разрешения жить в родном городе. Но в коридоре царил такой беспорядок и несправедливость, что, случайно, не выдержав вылетел дух из тела героя: «И тут случилось великое освобождение... Как будто что-то щелкнуло в моей голове, как бы открылся замок, и дух мой как ядро вылетел из ниши. Сам же так и остался стоять в нише с разинутым ртом. Как посторонний наблюдатель, – и теперь моё прежнее «Я» состояло как бы из двух «Я».«Я» – главного, витающего над коридорам освобожденного духа с энергичным именем Я-Это-Да, и прежнего моего тела притворяющегося просителем с этаким вялым именем Я-Так-Себе, по-прежнему в страхе приросшего в нише»[1, 34]. Я-Это-Да, витая в коридоре, совершил много беспорядков. Но самым острым моментом в произведении Тарази был его отношение к господу: «Особенно поразил Хальхали образ огромного поля, покрытого снегом, и две маленькие фигурки вдали, видимо самого господа и женщины... «Господь и женщина... блудница! Пусть мне язык отрежут, я не могу его выговорить!» кричал Хальхали» [1, 36]. Этот приём (раздвоение героя) автору понадобился для того, чтобы всесторонне показать атмосферу эмирского управления, несправедливость, царящую в то время.

Любое философское произведение – это история души или раздумья о жизни, о ее смысле, вопросы бытия и проблемы взаимоотношений человека с окружающим миром. Справедливозамечено, что настоящая проза вообще не может не быть философичной. Проблемы, которые ставит писатель – вне временные, сопряжены с экзистенциальным кругом вопросов. В творчестве Т. Пулатова мы видим не только трансляцию самобытности другого мира, но общечеловечность вопросов, поднимаемых писателем, которые вызывают интерес любого читателя.

Одним из ярких примеров обращения писателя к древним мифам можно увидеть в образе прикованного трупа на скале. Во многом он напоминает нам древнегреческого бога Прометея. «Итак, я заявляю: тщательное расследование, – начал было Бессаз... – показало... мною достоверно установлено, что прикованный был казнен за воровство и безнравственность. Этот злобный мушрик украл огонь, чтобы поклоняться костру...» [1, 105]. Так же как к предшественнику, к прикованному трупу постоянно прилетал орёл и уносил кусок его печени. Стечением времени эта печень возобновлялась, и в следующий раз прилетал к скале другой орёл. Вместе с тем, прикованный труп держал в руке камышовую трубку, которую судья считал украденным. Его воровство сходно с прометеевским украденным огнём.

Таким образом, в романе Тимура Пулатова «Черепаха Тарази» многие формы мифа. При помощи которых, автор стремился раскрыть внутренний мир человека, показать состояние общества и государства. В образе главного героя Тарази мы видим сильную личность, которая во имя свободы, познания в науке и добра к людям переживает разные приключения.

### **Литература**

1. Пулатов Т. Черепаха Тарази. – М.: Советский писатель, 1995.
2. Бочаров А. Превращение жизни. Послесловие // Пулатов Т.К. Владения: Роман, повести, рассказы. – Кишинев, 1986.
3. Вестник КазНУ. Серия филологическая. №3 (161). 2016 Особенности образной структуры прозы Тимура Пулатова.

## ALISHER NAVOIYNING “NASOYIMU-L-MUHABBAT” ASARIDA NAJMIDDIN KUBRO USTOZLARI XUSUSIDA

*U.Ametova,  
O'zMU tadqiqotchisi*

Mutafakkir Alisher Navoiyning “Nasoyimu-l-muhabbat” asari valiyalar hayotiga oid ma'lumotlardan jamlangan tazkiradir. Asar piri komili Abdurahmon Jomiyning “Nafohat ul-uns” tazkirasida yaratilgani ma'lum. Shu bois tazkira avvalida tasavvufga oid ba'zi nazariy jihatlarning yoritilishi ham tabiiy. Garchi “Nafohatu-l-uns”dagi kabi tasavvufga oid qarashlarga atroflicha, keng izoh berilmagan bo'lsa-da, tanlangan misol va baytlar nafaqat tasavvuf, balki adabiyot xususida ham babs-munozaralar qilishga imkon yaratadi. Ko'pgina Shayxlarning ilk bor tazkiraga kiritilishi ham alohida e'tiborga molik. Va ularning aksariyati vatanimizda tavallud topib, tariqatga kirgan shaxsiyatlar ekanligi ham bu asarga bo'lgan qiziqishni oshiradi. Shuningdek, Navoiyning tasavvuf ilmidan chuqur xabardor ekanligi, naqshbandiylik tariqati maktabining bir muridi bo'lganligi bois tanlagan ma'lumotlari tasavvufdagi ma'lum bir masalani yoritishga asos bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, yassaviylik, kubraviylik, naqshbandiylik tariqati vakillarining hayotiga oid berilgan ma'lumotlar jamlansa, mazkur tariqatlarning o'ziga xos jihatlari haqida yaxlit bir tasavvur paydo qilishi shubhasiz.

Ma'lumki, mutasavvif Alisher Navoiyning Najmuddin Kubro shaxsiyati va kubroviylik tariqati odob-arkonlariga muhabbat cheksiz bo'lgan. Bu holat uning nafaqat asarlarida Najmuddin Kubro nomi qayta-qayta tilga olinishi yoxud ustoz va xalifalariga oid ma'lumotlarning keltirilishida, balki asarlarida irfoniy g'oya va obrazlar uyg'unligida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Mana shunday asarlaridan biri, shubhasiz, “Nasoyim ul-muhabbat”dir.

Tazkirada, avvalo, Shayxi valitarosh Najmuddin Kubroning ustozlari: Shayx Ammor Yosir (q.r.), Shayx Ro'zbehoni Kabir Misriy (r.t.), Shayx Ismoil Qasriy (q.r.)lar haqida ma'lumot beriladi. Va ular haqida to'xtalganda, asosiy e'tiborni Najmuddin Kubroning ulardan tahsil olganligi hamda tariqatning ma'lum bir odob-arkonini bajarishdagi ma'rifati haqida bahs yuritadi. Tazkirada, avvalo, Shayx Ammor Yosir (q.r.) nomi zikr etiladi va kubraviylik tariqatida *xilvat* asosiy vazifalardan ekanligi ma'lum bo'ladi. Bu esa Kubro hazratlarining shaxsiy xilvat hayoti bilan chambarchas bog'liqdir. Xilvatga kirgan solik, birinchi navbatda, niyatida xolis va to'g'ri bo'lmos'i kerak. Ilk xilvatidagi niyat qusurligi, ya'ni shuhrat orzusi bo'lganligi bois komil murshid Shayx Ammor Najmuddin Kubroni qayta xilvatga kiritadi. Bu haqda “Nasoyim”da o'qiyimiz: “Shayx dedikim, avval niyating tashihin qil, andin so'ngra xilvatqa kir! Aning botinining nurining partavi ko'nglumga tushdi, kitoblarimni vaqf qildim va liboslarimni fuqarog'a ulashdim, bir jubbardin o'zgakim kiyib erdim: Va dedimkim, bu xilvatxona mening qabrimdur va bu jubba kafanim, manga yana tashqari chiqmoqning imkon yo'qdur... Shayx manga boqdi va dediki, kirgil, niyatni durust qilding. Chun kirdim, xilvat itmomi dast berdi. Shayxning himmati yumnidin futuhot eshiklari yuzumga ochildi”<sup>5</sup>. Navoiy bu ma'lumotni Shayxning o'z asari “Favoyih ul-jamol”dan olinganidan xabar beradiki, tazkira muallifi Kubro asarlaridan bevosita xabardor bo'lgan. Shu bois uning shaxsiyati, tariqatidagi odobu arkonlar haqida aniq manbalar asosida ma'lumot keltiradi. Shayx Ro'zbehon Misriy haqidagi ma'lumotlar ham Najmuddin Kubro ma'naviy yo'lchiligidagi bir ma'lumot bilan bog'liq: “...Va Shayx Najmuddin Kubro aning suhbatig'a etibdur va anda riyozatqa mashg'ul bo'lubdur va xilvat o'l turubdur. Va Shayx Ro'zbehoni Kabir alarni quyavliqqa qabul qilib, alarg'a Shayxning qizidin ikki o'g'ul bo'lubdur”<sup>6</sup>. Ma'lum bo'lmoqdaki, ko'pgina tariqat namoyandalari kabi Shayx Ro'zbehon Kabir muridlari Najmuddin Kubroni kuyovlikka qabul qiladilar.

Haq yo'lidagi soliklar bir necha ustozlardan ilm o'rganganlar. Biroq irodat xirqasi, albatta, bir ustozdan kiyilgan. Najmuddin Kubroning irodat xirqasi nisbati Shayx Ismoil Qasriyga tegishli ekani ham tazkirada aytilib, ushbu silsila to'liq beriladi: "Va Shayx Najmuddin Kubro q. s. aning suhabatig'a etibdur va aning iligidin xirqa kiyibdur. Va ul Muhammad Monkildin va ul Muhammad b. Dovud al-ma'ruf b. Nodim ul-fuqarodin va ul Abulabbos Idrisdin va ul Abulqosim Ramazondin va ul Abu Ya'qub Tabariyдин va ul Abu Abdulloh b. Usmondin va ul Abu Ya'qub Nahrajuriydin va ul Abu Ya'qub Susiydin va ul Abdulvohid b. Zayddin va ul Kumayl b. Ziyoddin q. t. a. va ul amir ul-mo'minin Ali b. Abu Tolib (r. t.)din va alar Hazrat Risolat (s.a.v.)din"<sup>7</sup>. Tariqatda murshidlar silsilasi aosan Hazrati Abubakr Siddiq va Hazrati Ali (r.a.) orqali Payg'ambarimiz (s.a.v.)ga ulangan. Ushbu silsiladan kubraviylik tariqati, asosan, jahriylik zikrini ado etgan va Hazrat Aliga bog'langanligiga guvoh bo'lamiz.

Tazkirada Najmuddin Kubrodek shaxsiyat va kubraviylik kabi o'z mustahkam ma'naviy tajribalariga ega tariqatning paydo bo'lishidagi murshidlarning beqiyos o'rni ko'rsatilishi barobarida kubraviylik vakillarining tariqat hayotiga oid lavhalar ham keltiriladi. Bu bilan tasavvufiy hayot haqida yanada to'liqroq, kubraviylik tariqatining odob-arkonlari to'g'risida yanada aniqroq xulosalarga ega bo'lamiz. Kubraviylik tariqati vakillarining aksariyati Shayxlari kabi etuk ijodkorlar bo'lishgani ma'lum. Ular ham tasavvuf haqida ilmiy-nazariy, ham badiiy-irfoniy asarlar meros qoldirishgan. Tazkirani sinchiklab mutolaa qilgan o'quvchi muallif ularning ko'philigidan xabardor ekanligini fahmlaydi. Masalan, Majduddin Bag'dodiy (q.s.)ning "Tuhfat ul-bararah", Shayx Najmuddin Roziy al-Ma'ruf b. Doya (q.s.)ning "Mirsodu-l-ibod" va "Bahr ul-haqoyiq", Shayx Sa'duddin Hummuyiy (q.s.) ning "Mahbub", "Sajanalu-l-arvoh" va hokazo risolalari tilga olinadi. Tariqatdagi turli tarbiya usullari, ustoz va tolibning o'zaro munosabati haqida qiziqarli voqealar bayoni keltiriladiki, bu ham murshidning, ham muridning ma'rifatidan xabar beradi. Shuningdek, Shayxlarning she'rlaridan parchalar ham ularning ma'naviy hollari haqida taassurot uyg'otadi. Masalan, kubraviylik xalifalaridan murakkab taqdir egasi, ilmu ma'rifat dengiziga g'arq bo'lgan Majididdin Bag'dodiy to'g'risidagi ma'lumotlarga e'tibor qarataylik. Latif suratli va hay'atli murid Shayx Majididdin Bag'dodiyni Shayx mutavazzo xizmatiga buyuradi. Buni eshitgan tabiba onasi norozi bo'lib, bu xizmatni ado etish uchun unga o'ntacha qul yuborishini aytganda, Shayx shunday javob qiladi: "...anga aytingki, men eshitibmenki, tib ilmin bilursem, sendin bu so'z ajabdur. Agar sening o'g'lungg'a safroviy isitma tashvish bersa, men doru ul qullarg'a bersam, ul sihhat toparmu? Ul javob topmadidi. Bu nav' tarbiyatkim, Hazrat Shayx q. s. Shayx Majdudding'a bunyod qildilar. Bir necha vaqtin so'ngrakim, riyozatlar tortib suluklar qildi, oliy marotib hosil qilib, buyuk maqomlarg'a qadam qo'ydi"<sup>8</sup>. Ko'rinish turibdiki, tariqat amaliy jarayon. U bevosita har bir Haq solikning o'zi bosib o'tadigan yo'ldir. Shundagina qalb salomatligiga erishiladi. Maqomdan maqomga o'tiladi.

Ma'lumki, Najmuddin Kubro xalifalari murshidi komilning haqiqiy izdoshlari sifatida aksar ruboiy janrida ijod qilgan. Navoiy ham bir mutasavvif shoir o'laroq ularning ijodlaridan tazkirada namunalar keltiradi. Quyidagi ruboiy Sayfiddin Boxarziyning Shayxiga bo'lgan muhabbati va u zotning duosiyu, karomati bilan sultonlar xizmatida bo'lgan hol bayonlaridir:

*Harchand gohida ishqdan begonaman.*

*Ofiyat bilan oshnoyu hamxonaman.*

*Nogoh bir parichehrani ko'rib qolsam,*

*Barchasidin kechib, bir devonaman<sup>9</sup>.*

Orif zotlar bir lahza bo'lsin Alloh ishqidan begona bo'lishmagan. Tariqatda ildamlash muhabbat tufaylidir. O'zlikdan kechib, o'zlikka etishda ham ishq birlamchidir. Ular Haq oshiqlaridir. Ularning maqsadi Allohning diydori, tavhid zavqu shavqidir. Tavhid asrori haqida: "Biridir U, lekin sen bilgan bir emas, ikkinchisi bo'limgan birdir U. Agar o'zingdan kechib, uni

bilmoqchi bo'lsang, biror dalilu hujjat Uni bildirolmaydi...” – deydi Xoja Abulvafoiy Xorazmiy. Nafsni uzlusiz tarbiyalash orqali Tavhidga, haqiqatlar haqiqatiga erishiladi. Solikda tajallilar dunyoga keladi. Abulvafo Xorazmiyning ruboiylarida ham borliqni Yaratganning tajallisi sifatida qarash fikri aks etadi:

*Haqning ba'zi botil zuhurotlari borki,  
Kim ularni inkor etsa, johildir.  
Butun borlnqda haqdan boshqasini ko'rgan —  
Haqiqatlar haqiqatidan g'ofildir<sup>10</sup>.*

Qalb tasfiyasida yuqori maqomlarga ko'tarilgan va amaliy natijalari haqida kitoblar yozgan Najmuddin Doya ham ruboiylar yozgani ma'lum. “Nasoyim ul-muhabbat”da ham bunga guvoh bo'lamiz:

*Gar sham'da men kabi judolik dog'i bor,  
Yig'iyu yonish bilan oshnoligi bor.  
Sham'ning sarrishtasi mening sarrishtamdin yaxshiroq,  
Chunki uning boshida yorug'ligi bor<sup>11</sup>.*

Orif ijodkorlarning har bir satrida irfoniy-falsafiy mazmun borki, ularning tahlil va talqini, albatta, tasavvufiy istilohlar haqida etarli bilimga ega bo'lishni talab etadi. Mazkur ruboiyda ham tariqat ijodkorlariga xos malomatiylikni ko'ramiz. Ayriliqdan yonayotgan shamning muhabbat, hijronu iztirobidan yonishi o'zining ohu nolasidan ustun ekanligini aytib, o'z holiga malomat qiladi. Zero, shamning yonishi atrofga ziyo tarqatmoqda. Mana shunday oshiqona hasrat, orifona mushohada bilan yo'g'rilgan tazkiradagi ruboiylardan biri Shayx Raziyuddin Ali Lolo G'aznaviy (q.s.) qalamiga mansubdir:

*Jon minglab ko'ngullar bilan giriftoringdur,  
Ko'ngul ham minglab jonlar bilan xaridoringdur.  
Diydoring orzusida yurgan talabgorlarning  
na uyqusi, na qarori bordir<sup>12</sup>.*

Valiy zotlarning ko'ngil xaridori, shubhasiz, Allohnинг diydori bo'lgan. Bu talab yo'lida na uyqusi, na qarori yo'qligi ularning hikmatga yo'g'rilgan ruboiydagи bayonlaridan ham oshkor bo'lmoqda. Shayx Raziyuddin Ali Lolo ham Shayxning o'ziga xos riyozat yo'lini bosib o'tgan xalifalaridandir. Uning Najmuddin Kubroga murid bo'lishi ko'rgan solih tushi sababli ekanligi tazkirada bayon qilinadi: "...kecha voqe'ada ko'rdiki, bir shotu qo'yubdurlar, osmong'acha. Va birav bu shotu boshida turubdur. Va el bir-bir aning qoshig'a kelurlar va ul bularning iligin tutub, osmong'acha eltur. Va bu ilig tutub eltgан kishi bu kishining iligin anga berur va ul iligin tutgan kishini osmong'a eltur. Shayx Ali Lolo ham bordi va aning ham iligin tutub, ul kishi iligiga berdilar va osmong'a chiqardi"<sup>13</sup>. Bu tushni eshitgan otasi o'g'lining qalb qulfi ochilishi mana shu zot tufayli ekanligini ta'bir qiladi. Shu bois Ali Lolo bu Shayxni yurtma-yurt izlaydi. Navoiy aytganidek, “yuz yigirma to'rt Shayxi komili mukammaldin xirqa” oladi. Turkistonda Xoja Ahmad Yassaviy (q.s.) xonaqohida xilvatda o'tirganida Xorazmdan kelgan kishidan Najmuddin Kubroning ta'rifini eshitadi. Va qish bo'lishiga qaramay Xorazmga kelib, Shayx huzurida sulukka mashg'ul bo'ladi. Najmuddin Kubro murshid va xalifalari haqida “Nasoyim ul-muhabbat”da Navoiy alohida o'rin ajratgani ma'lum. O'zi ham buni e'tirof etib shunday deydi: “Hazrat Shayxqa muridlar ko'p erdilar, ammo alardin nechasi jahonda yagona va zamonda muqtado va farzona erdilar. Andoqli, Shayx Majduddin Bag'dodiy va Shayx Sa'duddin Humuyiy va Bobo Kamol Jandiy va Shayx Rozuddin Ali Lolo va Shayx Sayfuddin Boxarziy va Shayx Najmuddin Roziy va Shayx Jamoluddin Giliy r. t. Va ba'zi debdurlarki, Mavlono Bahouddin valadki, Hazrat Mavlono Jaloluddin Rumiq q. s.ning validi bo'lg'ay, ham alardindur”<sup>14</sup>.

Muallif ularni nafaqat tasavvuf namoyandasi, valiy zot, balki yuksak iqtidorga ega qalam sohibi, ijodkor sifatidagi qirralariga ham e'tibor qaratadi. Va ularning ijodlaridan bir necha namunalar keltiradi. Vatandoshimiz Najmuddin Kubro va uning izdoshlari hayoti va ijodini o'rganish tasavvufni anglashga, irfoniy adabiyotning g'oya, obraz va timsollarini kashf etishga yordam beradi. Ularning badiiy-irfoniy she'riyatini to'plash esa tasavvufiy adabiyotimizning boyishiga sabab bo'ladi. Bunda Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasi asosiy manbalardandir.

### **Adabiyotlar**

1. Alisher Navoiy. TAT. 10-jild. Toshkent, G'.G'ulom nomidagi nashriyot, 2013.

## **XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA NAVOIY "XAMSA"SI TADQIQI**

*F.Yaxyoyev,  
O'ZMU magistranti*

Hazrat Alisher Navoiy mahoratlari va yetuk lirik shoir bo'lish bilan bir qatorda, buyuk epik – dostonnavis ijodkordir. Lirik poeziyada katta muvaffaqiyatlarga erishgan shoir, yuksak iqtidor va ko'p yillik tajribalari natijasida umrboqiy epic asarlar yaratdi. Uning "Xamsa"si nafaqat turkiy til dunyosida, balki jahon adabiyotida ham o'lmas adabiy obida bo'ldi. Navoiy o'z asari bilan ozarbayjon shoiri va mutafakkir Nizomiy Ganjaviy boshlab bergen xamsachilik an'analarida tub burilish yasay oldi.

"Xamsa" yozish og'ir va mashaqqatli jarayon edi. Navoiy oldida turgan ish esa, ikki hissa murakkabroq edi. Buning sababi bir tomondan, o'zidan avval bu sohada nom chiqargan ijodkorlarning asarlari bilan bahslasha oladigan, adabiyot maydonida o'z o'rniga ega "Xamsa" asarini yaratish bo'lsa, ikkinchi tomondan esa bu asar "unitilayotgan" turk tilishida yozilishi edi. Xamsachilik ananasini murakkab jarayon ekanligini va bu sohada qalam tebratib ko'rgan ijodkorlar ham anchani tashkil etishini o'z asarlarida yozib qoldirgan. Xususan, "Majolisu-n-nafois" da bir necha zamondoshlarining "Xamsa"ga yoki uning ayrim dostonlariga ergashib asarlar yaratganini yozib qoldiradi. Masalan, Mavlono Ashraf "Xamsa" yoza boshlagan, lekin uni tugatolmagan; Ali Ohiy "Xamsa" ga mos bir necha doston yozgan, Mavlono Kotibiy "Xamsa" sini oxiriga yetka-zolmagan, Mavlono Faseh Rumiy Nizomiyning "Mahzan ul-asror" iga ergashib doston yaratgan, Xoja Hasan Hizrshoh "Layli va Majnun" ga javoban "Zayd va Zaynab" dostonini yozganini e'tirof etib o'tadi. Bu ro'yxat anchagina uzun, ammo bu shoirlarning birortasi mukammal xamsa yaratishga, Nizomiy va Xusrav Dehlaviylarning qatoridan munosib o'rin olish sharafiga ega bo'lisholmadi. Navoiy ustoz xamsanavislarning yuksak san'atkorigini e'tirof qiladi va sharaflaydi, ularning adabiy tajribasidan ta'lim oladi. Dostonlarining muqaddima qismida Nizomiy va Xusrav Dehlaviya hamda o'zi bilan deyarli bir davrda yashab ijod qilgan, xamsa yaratgan Abdurahmon Jomiya bag'ishlab maxsus boblar ajratadi, ularni ustoz darajasiga ko'tarib, ulug'laydi. Navoiy shunday yozadi:

Yo'ldasa bu yo'lda Nizomiy yo'lum,  
Qo'ldasa Xusrav bila Jomiy qo'lum<sup>213</sup>.  
Va bu ulug' ijodkorlardan madad tilaydi.

O'zbek adabiyotshunosligida Navoiy "Xamsa" sini tadqiq etuvchi olimlar, izlanuvchi tadqiqotchilar xamsashunoslik mifikatini vujudga keltirdilar. 1939-yilda yirik adabiyotshunos Olim Sharafiddinovning "Alisher Navoiy" nomli ilmiy-ommabop asari nashr etildi. Bu asarda Navoiy shaxsiyati, ijodi: lirik, epic asarlariga to'xtalib o'tilgan. Xususan, Navoiy "Xamsa" si haqida so'z

<sup>213</sup> Алишер Навоий, Хамса, - Ташкент.: 1960, 456-бет

yuritib, mutafakkirdan avval yaratilgan xamsalar va ularning bu sohadagi asarlaridan Navoiy “Xamsa” sining farqli jihatlariga to‘xtalib o‘tadi. Qolaversa, “Xamsa” ning tarkibiga kiruvchi dostonlarni ham birin-ketin sharhlaydi.

1940-yilda nashr etilgan “Родонаачальник узбекской литературы” to‘plamida E.E.Bertels-ning “Layli va Majnun”, Hamid Olimjonning “Farhod va Shirin” dostonlariga bag‘ishlab yozilgan maqolalarini o‘z ichiga olgan edi. Shu yillarda S.Ayniy “Xamsa” ni nashrga tayyorladi va nashr ettirdi. Bu orqali o‘zbek kitobxonlari Navoiy asarlaridan bahramand bo‘ldi. XX asrning 50-60-yillarda Navoiy asarlarining matnini yaratish va asarlarini ommalashtirish ishlari jadallik bilan kechdi. Adabiyotshunos Porso Shamsiyev boshchiligidagi Navoiy “Xamsa”<sup>214</sup> si nashr etildi.

Shundan so‘ng birin-ketin Navoiy “Xamsa” si bilan bog‘liq asarlar yaratila boshlandi. Adabiyotshunos olim To‘xtasin Jalolovning “Xamsa” talqinlari” (1962), A.Hayitmetovning “Hayrat ul-abror” ning nasriy tavsifi” (1974), Sodir Erkinovning “Navoiy “Farhod va Shirin”i va uning qiyosiy tahlili” (1971), A.Qayumovning “Saddi Iskandariy” (1975) asari va boshqa kitoblar yaratildi, nashr etildi.

Alisher Navoiygacha o‘zbek adabiyotida epik asarlar juda kam edi, shoir o‘z “Xamsa” si bilan o‘zbek epik adabiyotini mislsiz boyitdi. Yozuvchi va taniqli olim Oybek hazrat Navoiy “Xamsa” si va uning tarkibidagi dostonlarga mufassal to‘xtalib o‘tadi. Xususan, “Hayrat ul-abror” “Xamsa” dagi boshqa dostonlardan ajralib turadi, - deydi Oybek<sup>215</sup>. Bu doston axloq, odobga doir masalalarni ko‘rsatadigan ta’limiy xarakterdadir. Asarda ijodkor inson va uning hayoti qanday bo‘lishi kerak? U nimalardan saqlanishi kerak? Kabi savollarga Navoiy o‘z asarida chuqur hayot falsafasi va o‘zining to‘plagan tajribalari, fikrlariga suyanib javob beradi. Shoir talqin etmoqchi bo‘lgan fikrlarni, oddiy turmushdagi misollar bilan izohlaydi, yanada aniqlashtiradi. Qolaversa Oybek Navoiyning ayrim maqolotlaridan misollar keltirib, din va tariqat pardasi ortida xalqni talovchi iflos, munofiq, johil shayx ham voizlarni, soxta olimlarni, hiylakor muftiyarlarni, olchoq, aldamchi yozuvchilarini va hokazolarni qattiq tanqid qilgan o‘rinlarini ko‘rsatib beradi.

Oybek “Xamsa” ning ikkinchi “Farhod va Shirin” dostoniga to‘xtalib o‘tar ekan, bu dostonning asosi ishq ekanligini ta’kidlaydi. Lekin Farhodning Shirinka bo‘lgan afsonaviy, ishqiy hikoyasining inkishofida Navoiy muhim ijtimoiy, hayotiy, insoniyat taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan masalalarni hal qilishga tirishadi. Dostonda boshidan-oxirigacha o‘tkazilgan tub fikr ma’naviy ozodlikka, axloqiy kamolotga erishuv, bunga to‘sinqinlik qiluvchi qora kuchlar bilan kurash, o‘z orzulari oldida toj-taxtdan, hayot lazzatidan, hatto o‘z umridan ham kechishga iroda sohibi bo‘lishdir, - deya asarni yuksak e’tirof etadi. Shu bilan bir qatorda Navoiy “Xamsa” sining boshqa dostonlariga ham to‘xtalib, dostonlarning mavzu ko‘lami, fikriy mundarijasi, obrazlar orqali tashilayotgan ma’nolarga o‘z munosabatini bildiradi. Oybek o‘z maqolasining so‘ngida turkona lutf bilan go‘zal asar yaratgan Navoiy dahosiga taxsinlar aytadi.

Alisher Navoiy “Xamsa” si haqida tadqiqot olib brogan navoiyshunos va xamsashunos olma Suyma G`aniyevadir. Olma o‘zining “Alisher Navoiy”<sup>216</sup>, nomli kitobida “Xamsa” asari tarkibidagi dostonlarga mufassal to‘xtalib o‘tadi. Navoiy bu dostonlari orqali nima demoq-chilagini, dostonlar tashiyotgan ma’nolarni ochishga, tahlil qilishga harakat qiladi. Xususan, olma “Hayrat ul-abror” dostoni haqida so‘z yuritib, Navoiy Hirot taxtining vorisi hisoblangan shahzoda Badiuzzamon mirzoga alohida bobda nasihatlar bilan murojaat qilgan o‘rnlarni keltiradi va bu orqali Navoiy o‘z idealidagi shoh haqidagi orzularini bayon qilganini yozadi.

<sup>214</sup> Алишер Навоий, Хамса. - Тошкент, ЎзССР ФА нашриёти, 1960

<sup>215</sup> Ойбек. Муқаммал асарлар тўплами. 13-том. Тошкент: Фан, 1979.

<sup>216</sup> Фаниева С. Алишер Навоий. – Т.: Фан, 1968.

“Xamsa”ni tashkil qiluvchi bu besh doston ulug‘ shoir tomonidan alalabadga o‘rnatib ketilgan besh bebaho haykal bo‘lib, ularning har biri o‘zining salobati va nafosati, viqori va nurafshonligi, jilosi va zavqbaxshligi bilan hali qancha-qancha avlodlarni hayratga soladi, ularning qalb-u aqliga beo‘lchov ma’naviy oziq baxsh etadi. Dostonlarda ifodalangan umuminsoniy orzular, go‘zallik madhlari, qayd etilgan haqiqatlar umumbashariy ahamiyatga egadir. Bu g‘oyalar asar yaratilgan davrda ham, bugungi kunda ham, bizdan keyin ham yangicha ahamiyat kasb etaveradi.

Alisher Navoiy o‘z “Xamsa” siga axloqiylik baxsh etayotganda, axloqiy tamoyillarini birortasini ham nazardan chetda qoldirmaydi. Uadolat masalasi bo‘ladimi, odob, ta’lim-tarbiya muammosi bo‘ladimi, ijtimoiy-siyosiy fikrlar bo‘ladimi barchasiga Navoiy to‘xtalib o‘tishga harakat qilgan va bu mavzular doirasida o‘z qarashlarini bayon etgan. Navoiy o‘z axloqiy qarashlarini bevosita yaxshi fazilatlarni kuylash orqali ifoda etish bilan birga yomon illatlarini ko‘rsatish bilan ham o‘z fikrlarini bayon etadi. Yaxshiliklarni targ‘ib etishda Navoiy insoniylikni olg‘a suradi, ya’ni uning fikricha inson faqat yaxshiliklar bilan o‘z nomini oqlashi, yomonliklar esa, insoniylikdan yiroqlashtirishi ta’kidlanadi.

Axloqiylik jihatidan yaxshi sifatlarga erishish masalasini Navoiy e’tiqodga olib borib taqaydi. Uning fikricha, imonli kishi barcha yaxshilik-lari ma’lum ma’noda o‘zida mujassamlashtirgan bo‘ladi. Muammolarning ham shu nuqtai-nazardan turib yechilishini maqsadga muvofiq, deya ta’kidlaydi. Navoiy asarlaridagi axloqqa doir fikrlar xoh amaliy axloqqa, xoh nazarriyasiga taalluqli bo‘lsin, ular ulkan bir davr axloqiy qarashlari-ning bir ko‘rinishi sifatida doimo tadqiq va tatbiqqa loyiqdir. Barcha davrlar uchun birdek ahamiyatli bo‘lgan Navoiyning qarashlari, shu bilan birga o‘z davri axloqiy manzarasini tasavvur qilishimizga yordam beradi.

### **Adabiyotlar**

1. Алишер Навоий. Хамса. - Тошкент, ЎзССР ФА нашриёти, 1960
2. Ойбек. Муқаммал асарлар тўплами. Ўн учинчи том. Тошкент: Фан, 1979.
3. Фаниева С. Алишер Навоий. – Т.: Фан, 1968.

### **ALISHER NAVOIY “HAYRATU-L-ABROR” DOSTONI OLIM SHARAFIDDINOV TALQINIDA**

*M.Ataniyazova,  
Qoraqalpoq DU katta o‘qituvchisi*

*Annotatsiya:* Ushbu ilmiy maqola Alisher Navoiy qalamiga mansub “Hayratu-l-abror” dostonining Olim Sharafiddinov tomonidan o‘rganilishi masalasiga bag‘ishlanadi. Unda “Xamsa”ning birinchi dostoniga xos bo‘lgan xususiyatlar, doston strukturasi, g‘oyaviy-badiiy olami haqida adabiyotshunos qarashlari tahlil etiladi. Shu bilan birga xamsanavislik an’anasi bilan bog‘liq ayrim masalalarga e’tibor qaratiladi.

*Kalit so‘zlar:* Sharq adabiyoti, “Xamsa”, an’alar, doston janri, masnaviy, adabiyotshunoslik, Olim Sharafiddinov, talqin, yangi davr.

Bugungi kunlarga qadar badiiy ijod olamida xamsanavislik singari mazmun va strukturaviy jihatlardan keng qamrovli adabiy hodisaga duch kelinmaydi. Sharq-islom madaniyati tarixida mavjud bo‘lgan qissachilik, tafsirchilik kabi sohalardan keyin badiiy tafakkur dunyosida masnaviy shakllarida yuzaga kelgan asarlar olam va odam muammolarini taftish etish borasida niyatda katta yutuq hisoblanadi. Ayniqsa, Sharq adabiyotida xamsa-beshlik an’ana sifatida vujudga

kelishi bilan badiiy-estetik tafakkur, falsafiy-axloqiy qarashlar hamda ijtimoiy-hayotiy masalalar negizida ulkan o'zgarishlar yuzaga keladi. Natijada hayotni tushunish, dunyoga boshqacha nuqtai nazar bilan boqish, insonni koinot markazi sifatida anglash, ko'ngil va ruh erkinligini his etish tuyg'udan voqelikka aylanadi. Ayni vaqtida "Xamsa" an'ana va yangilik bo'lib, turli shakllarda, uslublarda insoniyat ma'naviy-estetik va ruhoniy-hissiy ehtiyojlarini tom ma'noda qanoatlantirib keldi. Gap shundaki, XX asrning dolg'ali o'tgan birinchi choragi tugab ikkinchi choragi boshlanishida mana shu an'analarga munosabatda murakkab holat kuzatiladi. Asr boshida yuz bergen tala-to'plar, va ayniqsa, sho'rolar davrining ilk qadamlari, hech bir qadriyatni tan olmaydigan manfur siyosatning kirdikorlari mumtoz an'analarni ham o'z zug'umiga oldi. Biroq shunday qaltis vaziyatda ham adabiyot ilmi hayotdan butunlay chetda qolmadni, asl voqelik va ilm haqiqatini zamoniga moslashtirib bo'lsa-da, aytishga harakat qildi. Sharq mumtoz adabiyoti haqida gap ketganda ko'z o'ngimizga dastavval hazrat Alisher Navoiy fenomeni keladi, uning dostonlari va she'riyati namoyon bo'ladi. O'zbek adabiyoti kabi adabiyotshunosligi va badiiy-estetik qarashlari taraqqiyoti ham shu ulug' siymo bilan bog'liqdir. Shu bilan birgalikda XV asr jahon adabiy-falsafiy tafakkuri yuksalishida Alisher Navoiy muhim o'rinni tutadi. Alisher Navoiy tavallud sanasining 500 yilligi arafalarida navoiyshunoslik xalqaro miqyos kasb etadi. Sobiq ittifoq davri adabiyot ilmining taniqli namoyondalaridan Sadriddin Ayniy, Evgeniy Eduardovich Bertels, Abdurahmon Sa'diy, Oybek, Hamid Olimjon, Maqsud Shayxzoda, Izzat Sultonovlar bu buyuk shoir haqida alohida tadqiqotlar yaratdilar. Shular safida adabiyotshunos Olim Sharafiddinov nomi ham faxr bilan tilga olinadi. E'tiborli tomoni shundaki, ushbu navoiyshunoslik borasida yaratilgan tadqiqotlarda xamsachilik va Alisher Navoiy "Xamsa"si talqinlari etakchilik qiladi. Jumladan, adabiyotshunos Olim (Saidolim) Sharafiddinov ilmiy izlanishlari mahsuli bo'lgan "Alisher Navoiy" monografiyasining ham asosiy qismi mana shu masalaga bag'ishlanadi. Olim dastlab xamsa an'anasi haqida muxtasar fikr yuritadi, keyin esa Alisher Navoiy "Xamsa" asariga kirgan dostonlar to'g'risida alohida so'z yuritadi. Bu usul boshqa navoiyshunos va xamsashunoslар tadqiqot yo'nalishlarini takrorlamaydi. Masalan, Sadriddin Ayniy "Alisher Navoiy"[5], Izzat Sulton "Navoiyning qalb daftari"[6] asarlarida shoir dostonlari alohida sarlavha va bo'limlarda tadqiq etilmaydi, balki bir faslda atroflicha ochib beriladi. Xuddi shunday "Hayrat-ul abror" dostoni ham aynan shu nomdag'i sarlavhada tahlil qilinadi. Keyinchalik navoiyshunoslik taraqqiyoti davomida Alisher Navoiyning har bir dostoni haqida maxsus tadqiqotlar vujudga keladi. Xususan, akademik A.Qayumov har bir dostonga bag'ishlangan alohida monografiyalar yarattdi. Olim SHarafiddinov xamsa-beshlik haqida so'z yuritganda Nizomiy Ganjaviy faoliyatiga urg'u beradi. U masnaviy-dostonchilikda Nizomiy Ganjaviy ko'rsatgan yuksak mahoratni olqishlaydi va xamsachilik an'anasi asoschisi sifatida "Sharq adabiyotini balandga ko'targanligini" ta'kidlaydi. "Nizomiydan so'ng, - deydi u, "Panj ganj", "Xamsa" nomi berilgan bu beshta doston shoirlar orasida keng rag'bat qozondi. Shoirlar o'z kuchlarini sinash uchun Nizomiy "Xamsa"sigi ergashib, "Xamsa"lar yaratdilar. Shoir Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiylar yaratib qoldirgan "Hasht behisht" va "Haft avrang"lar xamsachilik tarixida yuksak san'at asarlari hisoblanadi"[3.104]. Adabiyotshunos Alisher Navoiy ham ana shu an'anani davom ettirib, o'zbek tilida "original va o'lmas" asar ijod etganligini qayd etadi. SHuningdek, olim xamsachilik qoidalarini haqida hozirgi kunlarda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan diqqatga sazavor fikr-mulohazalarni o'rtaga tashlaydi. Uning e'tiroficha, "Nizomiy besh dostoni bilan "Xamsa" yaratish qat'iy bir tus olgan", "Adabiyot nazariyotchilar... "Xamsa" yozishning bir qancha qoidalarini ilgari surgan", "shoir asl mavzuga kirishmasdan oldin bir qancha ta'rif va tavsiflarni o'z ichiga olgan umumiy bir muqaddima – "debocha" yozishi... debocha tavhid, munojot, na't, me'roj ta'rifi, zamon podshohi madhi, so'z va so'z egalari ta'rifi, o'g'liga nasihat, kitob nazmining sababi kabi boblardan iborat bo'lishi kerak edi" [O'sha

manba.104]. Bu xamsachilik qoidalarida birinchi masala bo'lsa, ikkinchidan, keyingi davrlarda xamsa janriga xos umumiy ta'riflar ham vujudga keldiki, unda g'oyaviy-badiiy jihatlardan o'zaro bog'langan dostonlar silsilasi ana shu beshlik janrini tashkil etishi qayd etiladi. Shu ma'noda Olim Sharafiddinov ham boshqa xamsashunoslar singari avvalo Alisher Navoiy "Xamsa"si tarkibiga e'tibor qaratadi. Unda xamsa-beshliklar birinchi dostoni ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-didaktik masalalarni o'z ichiga olgan hamda yagona syujet liniyasiga ega bo'limgan asar bilan boshlanishi zarurligi ham shu an'ana qonuniyati ekanligi uqtiriladi. Shu nuqtayi nazardan olim e'tiroficha, "Hayrat-ul abror" o'ziga xos falsafiy-didaktik doston bo'lib, zamonasining turli ijtimoiy-siyosiy masalalarini va shoirning ijtimoiy-axloq to'g'risidagi qarashlarini, muhokamalarini ifodalaydi"[O'sha manba.105]. Diqqatga sazavorligi shundaki, Sharqda bu tip falsafiy-axloqiy muammolar talqiniga bag'ishlangan asarlar silsilasi xamsachilik bilan birga alohida an'ana sifatida keng tarqalgan edi. Olim Sharafiddinov ulardan Sanoiy qalamiga mansub "Hadiyatul-haqiqat"ni, Nizomiyning "Maxzanul-asror"ini, Dehlaviyning "Matlaul-anvor"ini, Jomiyuning "Tuhfatul-ahror"larini tilga olib o'tadi. Ushbu asarlar kompozitsiyasida "Hayrat-ul abror" kabi an'ana mavjud edi. Adabiyotshunos doston poetik strukturasiga yaxlit tarzda izoh beradi. Jumladan, u "doston umumiy traditsion muqaddima bilan boshlanadi. Bu muqaddima: hamd, to'rt munojot, besh na't, Nizomiy va Xusrav Dehlaviy madhi, Jomiy madhi, so'z ta'rifi, so'z va mazmun masalasi, Sulton Husayn madhi, ko'ngil ta'rifi, uch hayrat, Bahovaddin Naqshband madhi kabi bo'limlarni o'z ichiga oladi. Shoir bularning bir qismida diniy qoidalar to'g'risida so'zlaydi va o'z davrida rasmiy diniy ta'limot tusini olgan va so'fizmning bir tarmog'i bo'lgan naqshbandiylikka munosabatini bayon qiladi. Ayniqsa, munojot va hayratlar olamning paydo bo'lishi, insonning yaratilishi, uning erda tutgan o'rni singari falsafiy masalalarga bag'ishlangandir. Ularda Navoiy so'fizmning dunyoga panteistik qarash konsepsiyasini beradi, "vujudi mutlaq", "husni mutlaq", "adam", "fano" terminlarining mazmunini obrazli ravishda ifodalaydi", - deydi [O'sha manba.105]. Bundan ko'rindaniki, Alisher Navoiy "Xamsa"sigi kiruvchi dostonlar Sharq-islom falsafasi, tasavvuf ta'limoti uchun ulkan epik manba ekanligi ilk navoiyshunoslikka ham ma'lum edi. Ayni e'tiroflarda masalaga xolis yondashilgan bo'lsa-da, biroz vaqt o'tib sho'ro davrida bu haqiqatlar unutiladi, xamsa dostonlari oddiy sarguzasht asarlar sifatida talqin etiladi. Natijada olam va odam mohiyatini nihoyat darajada chuqur aks ettirgan bu dostonlar poetikasi oddiy sharhdan iborat bo'lib qoladi. Shu ma'noda adabiyotshunos fikrlari terandir. U "konsepsiya binoan (doston mohiyati nazarda tutilgan – ta'kid bizniki M.Ataniyazova), olami hodisot yuzaga kelmasdan avval mavhum "vujudi mutlaq" mavjud edi. U ayni zamonda husni mutlaq ham bo'lib, uning husni go'yo oyna edi. Sonsiz-sanoqsiz jilvasi bo'lgan bu husnning aksi olami hodisotni yuzaga chiqargan edi. Shuning uchun ashyolar olamining har biri "vujudi mutlaq" ko'zgusi va undan hissa. Bular orasida inson eng yuqori va mukammali bo'lib, o'zining aqli va idrok qobiliyati bilan ajralib turadi", - deydi [O'sha manba.105]. Ayni shu masalalarda, ya'ni olam va odam mohiyatini Sharq tasavvuf falsafasi asosida anglashda olim to'g'ri pozitsiya egalaydi. Bu holat bir tomondan "Hayrat-ul abror" mazmuniga ham yo'l ochadi. "Biroq – adabiyotshunos, bu masalada ham Navoiy shariat dogmalariga, so'fizm mistikasiga qarama-qarshi boruvchi fikrlarni ilgari suradi"[O'sha manba.105], - degan fikrda islom va tasavvuf g'oyalarini xaspo'shlovchi sho'ro mafkurasi irodasini namoyon etadi. Aslida "yangicha hayot va qarashlar" ma'nosida qabul qilingan bu mafkura shariat va tariqatning ma'naviy mukammal inson g'oyasiga butkul zid edi. Shu bois "nafsga qarshi kurashuvi (o'zlikni o'ldirishi), tarki dunyo qilishi, dunyoning huzur-halovatlaridan voz kechishi, o'limdan burun o'zini halok etishi" davr adabiyotshunosligida bo'lgani kabi Olim Sharafiddinov qarashlarida ham muntazam ravishda ta'kidlanadi. Bu komillikdagi bir ichki ehtiyoj, ruhoniy mashq, nafs va dunyo kirdikorlaridan saqlanish, ruh va ko'ngil oromini ta'minlash uchun o'ziga xos tadbir ekanligi e'tibordan chetda

qoladi. Shunday o'rnlarda yangi davr o'zbek adabiyotshunosligi bir qator yo'qotishlarga uchraganligi ko'rindi. Hatto, Alisher Navoiy ham "o'z zamonidagi diniy-tasavvufiy ta'limotlar ta'siridan qutulib ketmagan edi" [O'sha manba.106] degan yanglish xulosalarga olib keladi. Dunyo hayotida ham, insoniyat jamiyatida ham ma'naviy komillikning birdan-bir to'g'ri yo'li mana shu mumtoz zotlar va asarlar tayangan manbalar ekanligi ma'lum muddat xotiradan ko'tariladi. Shu ma'noda mumtoz siymolar va asarlar, xususan, "Hayrat-ul abror" haqida yangi sho'ro davri ilk qarashlari bilan bugungi kun nuqtai nazarlari jiddiy farqlanadi. Olim Sharafiddinovning "Hayratu-l-abror" haqidagi qarashlarida ham murakkabliklar va ziddiyatlar ko'zga tashlanadi. Olim dastlab doston mohiyatini haqqoniy baholaydi va keyinroq ayrim o'rnlarda hatto o'z fikrlariga qarshi mulohazalar yuritadi. Bu holat olimning Alisher Navoiy va umuman mumtoz adabiyotni chuqur tushunganini, biroq zamona zayliga ko'ra bor haqiqatlarni aytishga imkonni bo'lmasligini ko'rsatadi. Olim Sharafiddinov doston haqida o'z qarashlarini aytib olish uchun ham ba'zi holatlarda "qizil mafkura"ga yon bosishga majbur bo'ladi. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, Alisher Navoiy "Xamsa"si o'zbek adabiy tanqidi fani uchun manba sanaladi. Bu jihat ham Olim Sharafiddinov e'tiboridan chetda qolmaydi. U "Hayrat-ul abror"dan ayni masalalarga doir muhim fikr-mulohazalarini e'tirof etadi. Masalan, shoirning "fasohat ahllari toji" Nizomiy, "qalami bilan Hind o'lkasini ziynatlagan" Xusrav Dehlaviy, "so'zining qasri shunday baland ko'tarilganki, unga falak kamand sololmaydigan" Jomiy tavsiflarini yoki badiiy so'z ta'rifidagi "so'z – ko'ngil qutichasi ichidagi javhardir" kabi mulohazalariga munosabat bildiradi. U bulardan tashqari badiiy shakl va mazmun haqida gapirib, "san'at asarining surati (shakli) qanday bo'lmasin, asli mazmun ekanini qayd etadi", "shakl va mazmun birligini e'tirof etadi" [O'sha manba.107] va hazrat Alisher Navoiyning bu boradagi qimmatli she'riy misralarini keltiradi:

Nazmda ham asl anga ma'ni durur,  
Bo'lsun aning surati harne durur.  
Nazmki ma'ni anga marg'ub emas,  
Ahli maoni qoshida xo'b emas...

Bundan tashqari olim Alisher Navoiyning temuriy shoh-sultonlarga bag'ishlangan madhlarini xotirlash bilan "Hayratu-l-abror" asari ijtimoiy maqomga egaligini eslatadi. Olim Sharafiddinov dostonni muqaddimadan so'ng asosiy mavzuni ichiga olgan yigirma maqolotda tahlil etadi. "Shoir – deydi u, bu maqolotlarda podshohlar, ruhoniylar,adolat, muruvvat va saxiylik, odob va kamtarlik, qanoat, insof, vafo, bir-biriga yordam berish, ishq, rostgo'ylik, ilm va olimlar, qalam va kotiblar, xalqqa xizmat qiluvchilar, mehnatkashlar, johillar, mayxo'rlar, xudbinlar, firibgarlar, xoinlar, dunyoviylik, bahor, hayotni sevish va boshqalar to'g'risida so'zlaydi" [O'sha manba.108]. Doston dastlabki maqolotlarida turli tabaqalarga oid qarashlarini bayon etgan bo'lsa, uchinchi maqolotda shoh va uning amir, beklarini tanqid qiladi, to'rtinchı maqolotda riyokor shayxlar, beshinchi maqolot saxiylik va baxillik, oltinchi maqolot kamtarlik, hayo to'g'risida, ettinchi maqolot qanoat va ta'magirlilik, sakkizinchi maqolot vafo va do'stlik, to'qqizinchi maqolot ishq, o'ninchı maqolot rostlik va to'g'rilik, o'n birinchi maqolot ilm va olimlar, johillar va nodonlar, o'n ikkinchi maqolot qalam va qalam ahli, o'n uchinchi maqolot xalqqa manfaat etkazuvchilar, o'n to'rtinchi maqolot kajraftor falakning jafokorligi, o'n beshinchi maqolot mayxo'rlik, o'n oltinchi maqolot takabburlik, xudbinlik, o'n yettinchi maqolot umr fasllari, o'n sakkizinchi maqolot falak g'amxonasi, umr vafosizligidan shikoyat, o'n to'qqizinchisi vatan madhi, yigirmanchi maqolot shahzodaga nasihatga bag'ishlanadi. Olim Sharafiddinov bu kabi mazmunan alohida asar darajasida bo'lgan maqolotlar haqida atroflicha mulohazalar yuritadi. Ushbu maqolotlarda bayon etilgan fikr-qarashlar umuminsoniy va hayotning doimiy masalalariga tegishli bo'lgani uchun ham ular tahlilida olim o'zini erkin his etadi. Bu talqinlarda

adabiyotshunosning sobiq mafkura tazyiqidan ozorlanib fikr yuritishi sezilmaydi. Shuningdek, olim beshinchı maqolotda keltirilgan “Hotam Toy” va sakkizinchı maqolatdagi “Ikki vafoli yor” hikoyatlarini o’zgacha ruh bilan tadqiq qiladi. Olim Sharafiddinov “Hayratu-l-abror” haqidagi qarashlarini xulosalab, “Biz bu erda “Hayrat-ul abror”ning badiiy xususiyatlarini keng tahlil etish niyatida bo’lmaqanimiz uchun yuqoridagi izohlar bilan chegaralanamiz. Shuning o’ziyoq axloqiy, didaktik, ijtimoiy, falsafiy mavzularni qamrab olgan mazkur dostonning turmush hodisalarini chuqur obrazlarda aks ettirgan, fikriy teranlikni yuksak poetik iboralar va rang-barang vositalarda ifodalagan badiiy asar ekanidan dololat beradi” [O’sha manba,118], - deydi. Adabiyotshunos Olim Sharafiddinovning ushbu fikrlari ilmiy maqolaga xulosa bo’lishi mumkin edi, biroq “Hayrat-ul abror” dostoni poetikasi bilan bog’liq qarashlar davomiyligini e’tirof etish lozimdir. Olim ko’proq dostonga xos struktura, janriy-mazmuniy o’ziga xoslik, an’anaviylik, maqolotlar g’oyasi kabi masalalarni taftish etishga harakat qiladi. Bu o’z vaqtı adabiy-estetik qarashlari uchun ham, keyingi navoiyshunoslik ilmi taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyatga ega edi. Shu ma’noda bu qarashlar yangi navoiyshunoslik ilk bosqichlarda ham ancha samara-larga erishganligini tasdiqlaydi.

### **Adabiyotlar**

1. Rasulov A. Nurli nigoh // Jalon adabiyoti. 2004, 6-son. B. 155-160.
2. Sharafiddinov O. Tanlangan asarlar / Mas’ul muharrir: H.Yoqubov. – Toshkent: Fan, 1978. - 304 b.
3. Ayniy S. Asarlar. 8 tomlik. – T.: G’afur G’ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1967. – 420 b.
4. Sulton I. Navoiyning qalb daftari. – T., G’afur G’ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1969. – 416 b.
5. Navoiy A. Qomusiy lug’at. 1-jild. – Toshkent: Sharq, 2016. – 536 b.

## **JADIDCHILIK HARAKATINING MA’RIFATCHILIK FAOLIYATI**

*E.Jabborov,  
Termiz DU o’qituvchisi*

Amerikalik islomshunos Frans Rouzentalning fikricha, G’apb va Sharq bahramand bo’lgan bilim manbayi yagona bo’lib, aslida ular bir daraxtning turli shoxlaridir: ular o’rtasida ko’zga tashlanuvchi farqlar esa ayni bir xil rangli to’q yoki och tovlanishidan iborat. [3.33]

Biroq shu qadar yuksak tamaddunlarni boshdan kechirgan mintaqalar XIX asrga kelib nega Ovro’pa bilan qiyoslab bo’lmaydigan ahvolga tushib qoldi? Ma’lumki, uyg’onish davri gu-manizmi iroda erkinligiga yo’l ochdi va inson aql-zakovatiga ishonch uyg’otdi, shu bilan birga odamzotning o’ziga behad bino qo’yganini ham ko’rsatdi.

Ilmiy anglash borasida erishilgan yutuqlar borib-borib sanoatning gurkirab rivojlanishiga, tovar ishlab chiqarishning boshqarib bo’lmaydigan darajada avj olishiga sabab bo’ldi: jo’g’rofiy kashfiyotlar esa yangi hududlarni zo’ravonlarcha bosib olishga, mustamlakalarning aksariyatini xom ashyo manbalariga aylantirishga imkon yaratdi. G’arbda tabiiy fan va texnologiya, dinni chetga surib, oliy qadriyatlar darajasiga ko’tarildi. XX asr boshlariga kelib, ilmiy kashfiyotlar va texnik ixtiolar oqimi qudratli tus oldi. Masalan, birgina 1908-yilda ularning soni 862 mingtaga etgan: [4.71] Turli manfaatlar yuzasidan G’apb bilan to’qnash kelgan Osiyo davlatlarining iqtisodiy va texnologik jihatdan ancha orqada qolib ketgani oshkor bo’ldi.

Insoniyat shunday yuksalish bosqichlarini boshidan kechirganki, ular turli madaniyatlarning o'zaro hamkorligi natijasida vujudga kelgan. Dunyoning ikkiga - "Nasorolar Ovro'pasi" va "Musulmonlar Sharqiga" bo'linishi esa, har ikkala taraf madaniyatiga juda kuchli ta'sir ko'rsatdi. Taniqli ingliz adibi Kipling bu ikki madaniyat o'rtasidagi tafovutni bo'rttirib, ular "necha asr o'tsa ham chatishib ketishi amrimahol", – degan edi. Lekin bu xulosani, ne baxtki, tarix inkor etdi. Shu bilan birga, mazkur ikki madaniyat fenomenining o'ziga xos jihatlari tarixiy taraqqiyot jarayonida yaqqol namoyon bo'lди.

Sharq, xususan, Markaziy Osiyo X-XIV asrlarda kuchli madaniy yuksalishni boshidan kechirib, keyinchalik o'rnini G'arbga bo'shatib berdi. G'arb esa Sharqning ilmiy muvaffaqiyatlarini o'zlashtirib, uyg'onish davriga qadam qo'ydi. G'arbda musulmonlarda va umuman, Sharqdan xavfsirash, qo'rqish o'rniga zavqlanish, tasannolar aytish kayfiyati shakllandi. Aynan, ana shunday kayfiyat natijasi o'laroq, Gyote o'zini "Sheroz bulbuli Xoja Hofizning asiri" deb atagan edi. U Hofiz ijodi timsolida Sharq she'riyatini e'zozlagan, Hatto "G'arb va Sharq devoni" she'rlar turkumini yaratgan. Undan avval Dante "Ilohiy komediya" asarida insoniyat daholari sirasida Ibn Sino nomini tilga olib o'tgan. Umuman, Ovro'pa Sharq ilm-fanini, xususan, O'rta Osiyo mutafakkirlarining nazariy ta'limotini nihoyatda qadrlab, sinchiklab o'rgangan va shu tariqa ma'rifiylashib borgan. Aynan ana shunday sabablar oqibatida bir paytlar Sohibqiron Amir Temur qalamravida bo'lgan qudratli saltanat hududi Rossiya imperiyasini mustamlakasiga aylandi. [7.54-55]

O'rta Osiyoning bu tarixiy nohaqlikka nisbatan javobi milliy va madaniy yuksalish, ozodlik va mustaqillik uchun nihoyatda keng qamrovli ijtimoiy harakatga kirishishdan iborat bo'lди. Ovro'paliklarning pragmatizmi va hayratiga Turonzaminda shakllangan insoniy fazilatlar; o'zaro mehr-oqibat, hamjihatlik, o'zni tiyish, sabru qanoat kabi sifatlar qarshi turar edi. Ana shunday sharoitda jadidlar "Haq olinur, berilmas" degan da'vatni shior qilib chiqdilar.

Shunday qilib, jadidchilik harakati Turkistondagi yangi ma'naviy-ijtimoiy yuksalishning timsoliga aylandi. Bu jarayonni Ovro'padagi XVIII asr ma'rifatchiligi bilan qiyoslash mumkin. O'sha davrda Monteske, Russo, Didro, Volter singari daho adiblar etishib chiqqan, ularning g'oyalari buyuk fransuz inqilobini hozirlagan edi.

Jadidlarning nazariy qarashlarida ikkita muhim xususiyat ko'zga tashlanadi: mustahkam irsiy ildiz hamda Sharq va G'arb ma'rifatchilari, faylasuflarning nazariy merosini egallashga intilish. Ular mamlakatni taraqqiyot yo'liga olib chiqishning garovi G'arb va Sharq madaniyatlarini uyg'unlashtirib, xalqning ko'zini ochish deb bilgan. Mahmudxo'ja Behbudiy "Tarix va jug'rofiya" asarida bunday deb yozgan edi: "Dunyoga ishonmoq uchun, komil va odil bo'lmoq tarixni o'qimoq va bilmoq kerak. Podshoyu vazir, hukumat odamlari va siyosiy kishilar uchun tarix o'qimoq kerak. Past qolgan va taraqqiy qilgan xalqlarni, jahongir bo'lgan davlat yo'nopadid (mustamlaka) bo'lgan hukumatlarni bilmoq uchun tarix o'qimok kerak... musulmonlik qanday ko'paydi va taraqqiy etdi, aloxal na uchun musulmonlar tanazzul etdilar? Buni bilmoq uchun tarix o'qimok kerak. Xulosa: diniy dunyodan boxabar bo'lmoqni xoqlaydurgan har kim uchun tarix o'qimoq kerak. Chunki har narsa va shuning asli va nasli tarixdan bilinur". [5.156]

XVII va XVIII asr ma'rifatparvar faylasuflari ta'riflaganidek, dahlsiz huquqlar Xudo tomonidan berilgan tabiiy huquqlar fuqarolar jamiyatni barpo etilishi bilan barpo bo'lmaydi na jamiyat, na hukumat ularni tortib ham ololmaydi, "musodara" ham eta olmaydi. Yangi davr Ovro'pa ma'naviy muhitiga xos qarama-qarshiliklar kurashi keyin ham davom etadi. XVIII asr fransuz ma'rifatchiligi zaminida shakllangan ateizm yo'nalishi Gelvetsiy (1715-1771), Golbax (1723-1789), Didro (1713-1784) qarashlaridan olmon klassik falsafasiga o'tib, Feyerbax (1804-1872) orqali K.Marks va F.Engelsning murosasiz sinfiy kurash targ'ibiga qaratilgan kommunistik utopiyasiga olib keldi.

Islom mintaqqa ma’naviyatida bunday ziddiyatlari holat yuz bergan emas. Alisher Navoiy va Mirzo Bedil talqinlaridagi Tavhid ta’limoti ma’rifatchilik va irfon bosqichlarida ba’zan ko’zga tashlanadigan ziddiyatlari o’rnlarni yengib o’tib, oliy uyg‘unlikka erisha bildi. Elni ozod qilishni Feruz va Furqatlar ma’rifatda ko’rgan bo’lsalar, Muhammad Ali eshon kabilalar xalqni bevosita jihodga chorladilar. Muqimiy tasviridagi “tanobchilar”, “maskovchi boydarlar” xalqni talashda mustamlakachilar bilan musobaqa qilishgan bo’lishsa, Buxoro amiri jadidlarni qatag‘on qilishda bolsheviklarga o’rnak ko’rsatdi. XVIII-XIX asrlar o’lkamizda ta’lim tizimi xam turg‘unlikka yuz tutganliklarini inkor etib bo’lmaydi.

Turkiston o’lkasi xalqlarining milliy mustaqilligi uchun kurashi ikki yo’nalishda kechdi. Birinchisi, qurolli kurash, qo’zg‘olonlar yo’li edi. Ikkinchisi - madaniy-ma’rifiy yo’nalish bo’lib, bu yo’lning asosiy maqsadi, xalq madaniy- ma’rifiy saviyasini oshirish, milliy iqtisodni yangi izlardan yuksaltirish yo’li bilan, vaqt kelganda, nihoyatda qudratli harbiy-siyosiy mavqega ega bo’lgan Rossiya hukumati bilan kelishuv murosayi madora usullarini qo’llab, Ovro’paning ilg‘or idora usullarini o’zlashtirib, millatning haqiqiy ozodligini ta’minalash edi. Bu ikki yo’l ba’zan bir-biri bilan yaqinlashar, ba’zan o’zaro ziddiyatga kirishar, ammo amalda bir-birini to’ldirib, quvvatlab boruvchi yo’nalishlar edi.

Ma’rifatchilik yo’li Ahmad Donish, Furqat, Feruz XIX asr ikkinchi yarmida faoliyat ko’rsatgan yurt ulug‘lari tashabbusi bilan boshlanib, XX asr boshida jadidchilik harakatida yorqin namoyon bo’ldi.

Har ikki yo’nalish ham XIX asrning oxirida kichikroq ko’lamlarda boshlangan bo’lsa, XX asr ikkinchi o’n yilligidan butun mintaqada yalpi rivoj topib, Milliy uyg‘onish harakati darajasiga ko’tarildi. Bir tarafdan, Turkiya, Misr, Eron, Xitoy kabi Sharq mamlakatlaridagi yangilanish to’lqini, ikkinchi tarafdan, Rossiya va Kavkazorti o’lka musulmonlarining ta’sirida Turkistonda yangi davr nafasi shiddat bilan ufura boshladi. Mahalliy ishbilarmonlar Ovro’pa bilan savdosotiqni keng yo’lga qo’ydilar, yangicha tusdagi ishlab chiqarish korxonalari paxta tozalash, yog‘zavodlari qurila boshlandi. Bank tizimi joriy etildi. 1884-yilda Bog‘chasaroyda nashr etilayotgan “Tarjumon” gazetasiga Turkistondan 200 kishi obuna bo’ldi, o’sha yillarda Toshkentda Saidg‘ani Saidazimboy, Sharifxo’ja qozi, Muhiddinxo’ja qozi kabi ilg‘or fikrli kishilar mahalliy bolalar uchun yangicha (rus-tuzem atalmish) maktablar ochilishiga homiylik qildilar.

1901-yildan Qo’qon va Toshkentda, 1903-yildan Samarqandda Gaspirali Ismoilbek ishlab chiqqan “Usuli jadid” (yoki usuli savtiya, ya’ni savod chiqarishning tovush tizimi) asosidagi yangicha maktablar ish boshladilar. Mahmudjo’da Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abduqodir Shakuriy, Siddiqiy Ajziy, Ashurali Zohiri, Lutfilla Olimiy kabi ma’rifat fidoyilari sifatida maydonga kirib keldi.

Yangicha tizimdagi maktablar uchun Ismoilbekning “Xo’jai sibyon” («Bolalar muallimi») asaridan ibrat olib, Saidrasul Saidaziziy “Ustodi avval”, Munavvarqori “Adibi avval”, Abdulla Avloniy “Birinchi muallim”, “Ikkinch muallim” kabi o’quv qo’llanmalarini yaratdilar. Behbudiy, Fitrat, Ashurali Zohiri hisob, jo’g’rofiya, adabiyot, tarix fanlaridan darslik yoza boshladilar.

1906-yildan “Taraqqiy”, “Xurshid”, 1914-yildan “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg‘ona” va boshqa qator gazetalar, 1913-yildan muntazam ravishda Behbudiy muharrirligida “Oyina” jurnali nashr etila boshlandi. Yangi ma’rifatchilar tomonidan Buxoroda 1908-yildan “Tarbiyat ul-atfol”, Toshkentda 1911-yilda “Turon” jamiyati tuzildi. Shu yili yangicha tafakkurli islom ulamosi, mufti Behbudiy yangi davr o’zbek adabiyoti tarixida birinchi bo’lib, “Padarkush yoxud o’qimagan bolaning holi” milliy fojeasini yaratdi, 1914-yilda Samarqand va Toshkentda bu ibratli tomosha sahma yuzini ko’rdi. Teatr tomoshasi yangi davr ma’rifatchilarini tomonidan xalq ma’rifatini yuksaltirishning eng samarali usuli - ibrat maktabi sifatida hayotga keng joriy etila boshlandi. 1914-1916-yillar orasida undan oshiq dramatik asarlar Samarqand, Toshkent, Qo’qon

shaharlaridagi teatr truppalari tomonidan sahnaga qo'yildi. Hoji Mu'in, Abdulla Avloniy, Hamza, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon kabi yangi-yangi dramaturglar bu ishga bosh qo'shdilar.

Turkistonda Milliy Uyg'onish harakatining ulug' yetakchisi va bayroqdori bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy faqat birinchi dramaturg bo'libgina qolmay, milliy teatr san'ati nazariyasining ham ilk asoschilaridan hisoblanadi. U o'z vaqtida Saidahmad Vasliy, Fazlulvahob qori kabi teatr san'atini shar'an harom deb isbot qilmoqchi bo'lgan eski ulamolarning chiqishlariga javoban islomiy manbalarga tayanib, teatr san'atining "Darsxonai ibrat" va shar'an savob ekanligini isbot qilib berdi.

1916-ylgacha, asosan, ma'rifatchilik yo'nalishida faoliyat ko'rsatgan jadidlar 1916-1922 yillarda zamon talabidan kelib chiqib, siyosiy hayotda ham etakchi maqomga ko'tarildi. A.Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon, So'fizoda, Hamza Hakimzoda va boshqalar yaratgan ajoyib asarlar xalqimizning boqiy mulkiga aylangan bo'lsa, Munavvarqori, G'ozi Yunus, Salimxon Tillaxonov, Ubaydulla Asadullaxo'jaev, Zaki Validiy To'g'on, Nosirxon To'ra, Sadriddin Maxsum, To'raqul Jonuzoqovlarning siyosiy-ma'rifiy faoliyatları Vatan mustaqilligi va xalq ma'rifati yo'lidagi fidokorlik timsoli bo'lib qoldi. [6.31]

### **Adabiyotlar**

1. Alimova D. Haqiqatning tutash manzili // Tafakkur. 2000. 2-son. B. 54-55.
2. Данте А. О народной речи. М.: Искусство, 1962. В. 49.
3. Ziyomuhamedov B. Ma'rifikat asoslari. T.: Chinor ENK, 1998. B. 31.
4. История зарубежной литературы XVIII века. Страны Европы и США. Изд. МГУ, 1984. С.158.
5. Роузенталь Ф. Торжество знания. Концепция знаний в средневековом исламе. М.: Наука, 1978, с. 33.
6. Сорокин П. Человек. Цивилизация. Общество. 1992, с. 71.
7. Qosimov B. Maslakdoshlar: Behbudiy, Ajziy, Fitrat. T.: Sharq NMAK, 1994. B. 156.

## **MUSTAQILLIK DAVRIDA ALISHER NAVOIY "XAMSA" SIGA MUNOSABAT MASALASI**

*Inagamova D., O'ZMU tadqiqotchisi*

XV asr badiiy adabiyotini yuksak bosqichga ko'targan, turkiy til va adabiyotning yuksalish tendensiyasiga yakun yasagan buyuk shoir Alisher Navoiydir. Buyuk Navoiyning adabiy ijodi va san'at, ilm, fanga qilgan xizmati, siyosiy faoliyati, qisqacha aytganda, bu ulug' Amirning ijtimoiy-madaniy o'rni va roli temuriylar davrida O'rta Osiyo tarixi, balki butun musulmon Sharqining tarixiy-madaniy vaziyati bilan anglashiladi. Navoiyning har tomonlama boy ijodini va bu ijodni sug'organ adabiy fikrni, manbalarni to'la o'rganish uchun u yashagan tarixiy sharoitni ham o'rganish zarur. Chunki adib asarlari mana shu tarixiy davrning mahsulidir.

Shoir "Xamsa" yozish orzusiga ancha vaqt erisha olmadi. Shoir taxminan yigirma olti yoshida ustodi Sayyid Hasan Ardasherga yozgan xatida (mashhur masnaviy 152 baytdan iborat) bu buyuk asarni yarata olishiga ko'zi etgani, bunga qattiq ehtiyoj sezgani, ammo bu orzuga etishish imkonidan mahrum ekanini bayon etadi. Ijodiy kuchga to'lgan shoir "Xamsa"day buyuk asarni qisqa muddatda yarata olishiga ishonadi, ammo buning uchun sharoit yo'qligini afsus bilan qayd etadi. Mutaxassislarning fikricha, "Xamsa" yaratish fikri Navoiyga 1460-yillarda kelgan bo'lsa, zamonasining muhim ijtimoiy masalalariga bag'ishlangan maktub-masnaviy (Sayyid Hasan Ardasherga yo'llangan maktub) 1467-yil Samarqandda yozilgan, - deb yozadi.

Abdurashid Abdug'afurov. [1] O'z qadrdon va sirdosh kishisiga yozilgan, bildirilgan fikr qanday yo'llar bilan bo'lmasin, ko'pchilik ziyolilarga va qalam ahliga ma'lum bo'ladi. Buni ayrimlar shoirona lof, quruq da'vo (gazof) deb qaraganlar, kinoya-ta'na qiluvchilar ham topilgan. O'zini uyalib, noqulay ahvolda sezgan shoir shunday yozadi:

Qilib yod "da'voyu lofim"ni ham,  
Sog'inib burun der "gazofim"ni ham.  
Uyatqa solib bo'yla holat meni,  
Halok aylabon, bal, xijolat meni.  
Gahi yuzlanib ul so'zumdin uyot  
So'zimdin demaykim, o'zumdin uyot [2].

Bizningcha, o'ziga katta talabchanlik bilan yondashgan Alisher Navoiy "Xamsa" yaratish uchun faqat yuksak shoirlig iqtidori va xamsachilik an'analariga suyanishning o'zi kifoya qilmasligini biladi. Asar yozishga kirishishdan oldin tarixni o'rganish, ma'lumotlar to'plash, boshqa ijodkorlarning "ko'zi tushmagan"larni saralash lozim, deydi adib.

Qilib ko'nglumni bu andisha shaydo,  
Tavorix sari ayladim har sari paydo.

"San'atning bosh maqsadi inson haqida haqiqatni aytmoq, oddiy so'z bilan bayon qilib bo'lmaydigan haqiqatni aytmoq", - deb yozgan L.N.Tolstoy. Inson ma'rifatda farishtadan buyuk, ammo jaholatda devdan tuban ketishi mumkin bo'lgan ziddiyatli mavjudotdir. Inson shaxsi bilan bog'liq barcha murakkab jarayon va holatlarni favqulotda bir yo'sinda ko'rsata olish qudratiga ega. Shunday vazifani ado etish oson ish emasligi o'z-o'zidan ayon, albatta. "Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandas, millatimizning g'ururi, sha'nusha sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir. Ta'bir joiz bo'lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so'zlovchi biron-bir inson yo'qliki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va etiqod bilan qaramasa.

Jahon xalqlari badiiy tafakkuri tarixida umumbashariy ahamiyatga molik ijtimoiy, siyosiy, axloqiy va hayotiy masalalarni yuksak gumanistik ruh, estetik did va badiiylik darajasida hal qiluvchi obidalar anchagina. Ana shunday badiiy yodgorliklar qatorida, Sharq Renessansi davrining mahsuli bo'l mish xamsa yozish an'anasi ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri Navoiyning g'oyaviy-badiiy jihatdan yaxlit poemalar turkumidan iborat "Xamsa"sining ham alohida o'rni bor.

Ilmiy ishimizning dolzarbli shundaki, u milliy mentalitetimizni anglashga yordam beradi. Hozirda xalqimizning ma'naviy qadriyatlarini tiklash va milliy o'zlikni anglash masalasi muhim. Davlatimizning bugungi kundagi siyosatida bu taraqqiyotning muhim sharti qilib qo'yilgan.

Alisher Navoiy o'z davrining ajoyib yorqin siymosi edi. Adib, olim, tarixchi, tanqidchi, tilchi, adabiyot nazariyotchisi, siyosiy arbob, xattot, musiqashunos bo'lgan Alisher Navoiy o'z davrining eng ma'rifatli kishisi bo'lgan.

Alisher Navoiyning fenomenal san'atkorlik kuch-qudratini o'zida namoyish ettirgan, boqiy umr kechirayotgan "Xamsa" go'zal g'oyaviy-badiiy qatlamdan iborat. U o'z arxitektonikasining ko'p hollarda yangiliqi, janr tarkibining rang-barangligi bilan ham alohida bir g'oyaviy-poetik olamdir. Masnaviyda, klassik poemalarga xos aruz bahrlarida yozilgan dostonlar strukturasida biz alvon-alvon go'zal she'riy hikoyalar, nomalar, dialog va monologlar, pand-nasihatlar, ijtimoiy-falsafiy qarashlarni ham uchratamiz. Alisher Navoiy o'z qobiliyatini, butun bilimlarini, butun ijodiyotini xalqqa, Vatanga xizmat qilish uchun bag'ishlaydi. Navoiyga qadar shoirlar ijodida 2 ta obrazni ko'rар edik. Bular: oshiq va ma'shuqa. Endi Navoiy ijodidan boshlab yana 3-obraz kirib keladi. Bu – Ona Vatan va unga muhabbat.

Navoiy "Xamsa"si haqqoniy shuhrat bilan birga egizak tug'ilgan asar. "Xamsa" Navoiy ijodining duri gavhari sanaladi. Alisher Navoiy ulkan lirik shoирgina bo'lib qolmay, balki shu bilan birga buyuk epik shoир - dostonnavis hamdir. Navoiy o'z lirik va epik asarlari bilan mislsiz katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Navoiy "Xamsa"si o'zbek klassik adabiyotining cho'qqisi va jahon adabiyotining o'lmas obidalaridan biri bo'ldi. Qirg'izlar o'z "Manas"i, hindlar "Ramayana", greklar o'z "Iliada"si bilan insoniyatning badiiy rivojiga hissa qo'shgan bo'lsa, Alisher Navoiy "Xamsa" asari ham insoniyat badiiy tafakkurining o'lmas durdona asaridir.

Buyuk Navoiyning adabiy ijodi va san'at, ilm, fanga qilgan xizmati, siyosiy faoliyati, qisqacha aytganda, bu ulug' Amirning ijtimoiy-madaniy o'rni va roli temuriylar davrida O'rta Osiyo tarixi, balki, butun musulmon sharqining tarixiy-madaniy vaziyati bilan anglashiladi. Navoiyning har tomonlama boy ijodini va bu ijodni sug'organ adabiy fikrni, manbalarni to'la o'rganish uchun u yashagan tarixiy sharoitni ham o'rganish zarur. Chunki adib asarlari mana shu tarixiy davrning mahsulidir.

XV asr badiiy adabiyotini yuksak bosqichga ko'targan, u adabiyotning yuksalish tendensiya-siga yakun yasagan buyuk shoир Alisher Navoiydir.

"Xamsa" Navoiyning butun hayot mahsulidir, garchi u qisqa vaqtida yaratilgan bo'lsa-da. Navoiy o'zining "Xamsa" asarini XV asrda yaratdi. Alisher Navoiyning "Xamsa" yozish an'anasidagi ulkan hissasi shundan iboratki, u o'ziga qadar mavjud bo'lgan xamsa tiplaridan xamsataynning xususiyatlarini takomillashtirdi, Nizomiy, Xusrav Dehlaviy "panj ganj" va "Xamsa"lari an'analarini ham shakl, ham mazmun jihatdan yuqori pog'onaga ko'tardi. Shunday qilib, Navoiy o'z asari bilan birinchi tipdagi xamsachilik an'anasini yakunladi. Bu o'z-o'zidan sodir bo'lgan emas, albatta. Navoiy xamstaynga murojaat etar ekan, uning barcha xususiyatlarini chuqur o'rganish bilan qanoatlanib qolmay, ana shu an'anani yanada mukammallashtirish, uni yangi-yangi qirralar bilan boyitishni ham nazarda tutgan edi. Alisher Navoiy "Xamsa"si eski o'zbek tilida yozilgani va turkiy xalqlar badiiy xazinasini boyitgani bilangina emas, balki o'zining gumanistik mazmunini, sayqallangan shakliy xususiyatlari bilan ham Sharqdagi "Xamsa" yozish an'anasi ning nodir namunalardan biriga aylanib qoldi. Xuddi ana shu nuqtayi nazardan forsigo'y Abduraxmon Jomiyning birinchilardan bo'lib bu asarga yuqori baho berganining boisi ham ana shunda. Navoiy faoliyati va merosini o'rganish uning o'zi hayot davridayoq boshlandi. Bu qu-yidagi manbalardir:

1. Navoiyning o'z asarlari.
2. Navoiy "Xamsa"sini o'z zamondoshlari tomonidan o'rganilishi.

Adabiy asarning qiymati, o'qishli va o'qishli emasligi birinchi navbatda uning qanday uslub bilan yozilishiga bog'liq. Alisher Navoiy asarlari besh asrdan buyon xalqimiz tomonidan sevib o'qib kelinayotgan ekan, demak, bu asarlar yaxshi uslub bilan insonga farah bag'ishlaydigan shakl va ohanglarda yaratilgan. Xoh uning she'r va dostonlari bo'lsin, xoh tarixiy asarlari bo'lsin, ularni o'qigan har qanday kitobxon ulardan ma'naviy ozuqa oladi, rohatlanadi. Uslub haqida Abduqodir Hayitmetov shunday deydi: "Uslub tilshunoslik va adabiyotshunoslik bilan tutash muammo bo'lib, biz bu o'rinda Navoiy "Xamsa"sining birinchi dostoni "Hayratu-l-abror" uslubi bo'yicha o'rtoqlashamiz Abduqodir Hayitmetov ushbu asarni ilmiy tahlil qilar ekan pandnomma mazmunidagi asar bo'lib, uning asosiy qismini o'z davrining diniy, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy masalalari talqin etilgan 20 ta maqolat tashkil etadi. Abduqodir Hayitmetov ushbu asarni ilmiy tahlil etib, buyuk adabiy an'anaga ko'ra, Navoiy asosiy boblar – maqolatlarga kirishishdan oldin, asarning yuzaga kelishi bilan bog'liq masalalarga, undan yaratishdan ko'zlagan maqsad-larga, ularni yoritish bilan aloqador adabiy an'analarga, bunda unga ustozlik qilgan va qilayotgan ijodkorlarga to'xtalib o'tgan.

Ustozlarini shunday yuksak qadrlagan Navoiy o'z ijodida ham ularga ahamiyat berib ergashdi, ularning adabiy an'analarini to'la egallashga va yanada rivojlantirishga harakat qildi. "Muhokamatu-l-lug'atayn" asarida Navoiy "Hayratu-l-abror" dostonining yozilishi tarixiga to'xtalib "Avvalkim, "Hayratu-l-abror" bog'ida tab'im gullar ochibdur, Shayx Nizomiy ruhi "Maxzanu-l-asror"idan boshimg'a durlar sochibdur", - deb yozgan edi.

Nizomiy dostonining yuzaga kelishida "Tuhfat ul-ahror" dostoni ham katta ijobiy ahamiyatga ega bo'lganligini maxsus ta'kidlab o'tgan Navoiy yaratgan "Xamsa" dostonlarining har birida o'z davri ma'naviyati, ijtimoiy-siyosiy turmushi uchun zarur bo'lgan mavzular bo'yicha o'z mulohazalarini bayon qilar ekan, uning diqqat e'tibori, fikrlari jamiyat hayotini, undagi zidiyatlarni jiddiy ko'zdan kechirishga, mavjud tuzumni takomillashtirishga, inson tarbiyasini yuqori bosqichga ko'tarishga, Islomni mustahkamlashga, odamlar o'rtasida do'stlik, birodarlik munosabatlarini o'rganishga qaratilgan,-deb ta'kidlaydi. Navoiy niyati pok, maqsadi insonni komillik qiyofasida ko'rish. A.Hayitmetov shundan so'ng Navoiy fikri va imon-e'tiqod tuyg'usini mustahkamligi haqida uning quyidagi so'zlarni keltiradi:

Kimki jahon ahlida inson erur,  
Bilki nishoni anga imon erur.

Qur'on asosida Navoiy imonning oltita belgisi bor-deydi va uning birinchi bosh belgisi Haqni, ya'ni Olloho ni tanishdan iborat:

Oltidin avvalig'iki maqsur erur,  
Bilmak erur Haqniki, mavjud erur.

Ma'lumki, badiiy adabiyotda bitmas-tuganmas ma'rifiy, axloqiy-ma'naviy, badiiy-estetik imkoniyatlar mavjud bo'lib, ular shaxsning shakllanishi, takomili va kamolga etishuvida juda katta ta'sir ko'rsata oladi. Hozirgi vaqtgacha Alisher Navoiy "Xamsa" asarini ilmiy nuqtayi nazardan o'rganilib, bir qancha ishlar amalga oshirilgan. Navoiyshunoslikning alohida bir sohasi bo'lib xamsashunoslik ajralib chiqdi. Alisher Navoiyning "Xamsa" asarini o'rganish va tahlil qilishni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan ilmiy ishlarning muayyan bir tizim holiga keltirilmaganligi bu mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Alisher Navoiyning "Xamsa" asari bugungi kunga qadar qator tadqiqotlarning obyekti bo'lgan. Ayniqsa, bu asarni umumfilologik jihatdan keng tekshirilganligini e'tirof etish kerak. Navoiy ijodiga, uning "Xamsa" asariga qiziqish uning o'zi yashab o'tgan davrdan, ya'ni 15 asr dan boshlandi. XX asrga kelib ham bu asar qimmati oshsa oshdi, ammo kamaymadi. U juda ko'p olim va ziyolilarning diqqatini o'ziga tortdi. XX asr navoiyshunoslarning (xamsashunoslarining) qilgan yangiliklarini, ilmiy ishlarini, jamlab ko'rsatib berish bizning ilmiy ishimizning maqsadini tashkil etadi. Mazkur tadqiqot ishi yaxlit monografik xarakterda bo'lib, hozirga qadar qilingan ilmiy-tadqiqot ishlaridan shu xususiyati bilan ajralib turadi.

Alisher Navoiy "Xamsa" asari bo'yicha XX asrda o'zbek navoiyshunoslida qilingan ilmiy ishlarini jamlab ko'rsatib berish tadqiqotning asosiy maqsadidir.

O'zbek epik poeziyasining cho'qqisi hisoblangan Alisher Navoiy "Xamsa" si bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy ishlar Istiqlol yillarda alohida kamol topganini kuzatish mumkin.

## ABDULLA ORIPOV ADABIY-ESTETIK IDEALI IFODASIDA AYOL OBRAZINING O'RNI

*O.Abdulhakimova,  
ToshDO'TAU doktaranti*

Ayol obrazi o'zbek adabiyotidagi an'anaviy obrazlardan biridir. Deyarli barcha ijod ahli ayol obraziga murojaat qiladi. Demakki, ayol obraziga alohida e'tibor va murojaat Abdulla Oripov ijodining muhim xususiyatlaridan biri deyish mumkin. Shoir she'riyatida ayol mavzusi shunchaki mavzuligicha qolib ketmaydi, aksincha, obraz darajasiga ko'tariladi va an'anaviy obrazlardan biri bo'lgan bu obrazga murojaat jarayonida shoirning yuksak novatorligi bo'y ko'rsatadi. Uning "Ayol"she'rida sadoqat, vafo, bardosh va matonat kabi insoniy tuyg'ular tasvirlanadi:

Nazokat paytimas, yaqinroq keling,  
Buyuk zot qoshida aylangiz salom.  
Shu sodiq bevaga sajdalar qiling,  
Shu sodiq bevaga sajdalar qiling.

Yuqoridagi baytlar tahliliga e'tibor qaratgan adabiyotshunos olim, akademik Matyoqub Qo'shjonov shunday fikrlarni bayon qiladi: "Abdulla Oripovning "Ayol" she'rining mazmuni oddiy: Ikkinci jahon urushi janglarida yorini yo'qotib hayotda yakka qadam tashlayotgan oddiy bir ayolning ulug'ver qiyofasi tasviri, ayol boshiga qaramasdan u chidam, matonatda kami yo'q. Buning ustiga sadoqat bobida u tengsiz. Shoir "sodiq beva"ga "sajda va ehtirom etish"ni qat'iy talab qiladi".<sup>217</sup>

Shoir ijodida ayol obrazi mehr, poklik, muhabbat, ezgulik, o'tmish va kelajak timsoliga aylanib ketadi. Ijodkor ayol obrazida xalqning o'tmishini, kelajagini ko'radi. Jumladan olis Xyustonda turib o'zbek ayoli qismatini, kecha va bugunini yodga oladi. "Yangi asr mo'jizalari" she'rida bu haqda shunday yozadi:

O'tgan davrlarning asoratlari  
Ko'zikkan yaraday bitib ketgaydir.  
Inshoolloh, eng oliv murodlar sari  
O'zbek ayoli ham borib yetgaydir.

Demakki, shoir nazdida ayol qalbida olis moziyning jarohatlari va kelajak quyoshining porloq nurlari mujassam. Shul bois Abdulla Oripov ijodida ayol obrazi olis o'tmish va porloq kelajak timsolidir. Chindan-da, shoir ta'kidlaganidek, ayol *kelajak* timsolidir. Chunki har bir ayol, har bir ona beshikda ertangi kunni, porloq kelajakni, Hazrati insonni ulg'aytiradi. Shul bois shoir nazdida ayol nafaqat kelajak, balki tiriklik, hayot timsolidir. Ko'rinish turganidek ayol obrazi biz bilgan va o'ylaganimizdan ham kengroq ma'no-mazmunga ega. Abdulla Oripovning "Haj daftari" tarkibiga kiruvchi "Ona" she'rida ana shu ma'no-mazmun yanada oydinlashadi. Ayol obrazi shoir ijodida yana bir pog'ona balandlaydi:

Qavmimni ranjitib qo'ymayin, ammo  
Tobut yasab kelgan er zoti doim.  
Onalar bag'riga faqat beshik jo,  
Hayotbaxsh allalar aytgan, muloyim.

Ayol farzandga hayot baxsh etadi, unga hayotbaxsh allalar aytib voyaga yetkazadi. Shuning uchun ham ayol o'z-o'zidan *hayotning, tiriklikning* timsoliga aylanadi. Zakiy ijodkor buni yaxshi angraydi va shu sabab ayol obrazini tiriklik, hayot timsoli bilan uyg'unlashtiradi.

Hamma inson uzoqroq yashashni istaydi, hamma inson hayotni sevadi. Demakki, hamma hayot timsoli bo'lmish ayolnida sevadi, unga talpinadi. Ayol suyukli yor bo'lib, sirdosh opa-

<sup>217</sup> Кўшжонов М. Таңланган асарлар. "Sharq"нашиёти. Т-2018.287 б.

singil bo‘lib, mehridaryo ona bo‘lib insoniyatni o‘ziga chorlayveradi. Chunki ayol – ona mehri o‘ziga xos va betakrordir. Bu mehrning qiyosi va takrori yo‘q. Qancha izlamang dunyodagi hech bir mehr ona mehr-u muhabbatiga teng kelolmaydi. Bu haqda shoir “Armon” she’rida shunday yozadi:

Aytolsaydim men unga  
Ko‘hna dunyoga kelib,  
Menga qancha shodlik-u  
Qancha g‘am tekkalnigin.  
Ezgulikni jahonda  
Axtarma qancha yelib,  
Faqat ona mehrining  
Betakror ekanligin.

Shu jihatdan Abdulla Oripov ijodida ayol bu – *hayot*, ayol bu – *kelajak* va eng muhimi ayol – *vatan* demakdir. Shul bois shoir ijodida ayol obraziga ulkan ma’no yuklatiladi. Ijodkor o‘z she’rlarida o‘zbek ayolining umumlashma obrazini yaratar ekan, uni eng avvalo, Vatan tushunchasi bilan bog‘laydi. Har bir o‘zbek ayoli o‘z vatanini sevishini, qalbida Vatan mehri bilan yashashini istaydi. Muallif o‘z qiziga qarata shunday deydi:

Jajji farzandlaring o‘zi bir davlat,  
Halol jufting bilan davroningni sur.  
Deyman, ona qizim, qalbingda faqat  
Hech qachon so‘nmasin Vatan degan nur.

Shoirning ushbu o‘gitlari xuddi butun o‘zbek qizlariga, ayollariga qarata aytigandek jarang sochadi, qalbimizni to‘lqinlantiradi. Buyuk ijodkorning ayolni o‘ziga xos, takrorlanmas obraz darajasiga ko‘tarishi bizni hayratga solish barobarida, qalbimizni to‘lqinlantiradi va shu bilan bir qatorda har bir o‘zbek ayoli zimmasiga ulkan masuliyat yuklaydi.

Hech ikkilanmay aytishimiz mumkinki, Abdulla Oripov she’riyatidagi ayol obrazi dunyo adabiyotidagi barcha ayollar obrazi uchun ibrat maktabi vazifasini o‘tay oladi va qalbimizda cheksiz faxr tuygg‘usini uyg‘otadi.

### **Adabiyotlar**

1. Орипов А. Танланган асарлар. Биринчи жилд. Т.: Faafur Fулом номидаги нашриёт, 2000.
2. Орипов А. Адолат кўзгуси, Т.: Адолат, 2005.
3. Кўшжонов М. Танланган асарлар. Т.: Sharq, 2018.

## **ALISHER NAVOIY VA MUHAMMAD FUZULIY: LAYLI VA MAJNUN SIYMOSIGA CHIZGILAR**

*Yu.Abdulhakimova,  
ToshDO‘TAU doktaranti*

Sharq, jumladan o‘zbek mumtoz adabiyotining taraqqiyot xususiyatlari tamomila o‘ziga xos. Bu xususiyat undagi an’ana va yangilikning namoyon bo‘lish usullarida, ayniqsa, yaqqlorq ko‘rinadi. Xamsachilik an’anasi buning isbotidir. Ma’lumki, “Xamsa”da har besh dostonning joylashish tartibi, syujet liniyasi, obrazlar tizimi qat’iy an’anaga asoslanadi. Ijodkorming salohiyati ana shu an’anadan chiqmagan holda, shu negizda yangilik yarata olishiga ko‘ra belgilanadi. Bu – benihoya murakkab ijodiy jarayon. Shuning uchun ham xamsachilikda yuksak e’tirofga sazovor bo‘lganlar sanoqli: Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy.

“Xamsa”ning ayrim dostonlari borasida ham, ta’bir joiz bo‘lsa, “ijodiy musobaqa” kuzatiladi. “Layli va Majnun” syujeti asosida Alisher Navoiy va Muhammad Fuzuliy ijod qilgan dostonlarning qiyosiy tahlili bu hodisani “ichdan” kuzatish imkonini beradi. Navoiy va Fuzuliy “Layli va Majnun”ining o‘zaro muqoyasasi ikki buyuk shoirning ijod laboratoriyasiga kirish, ularning mazkur syujetga yondashuvidagi o‘ziga xoslikni anglash, ikki mutafakkir ijodiy metodidagi mushtarak va farqli jihatlarni aniqlash imkonini beradi.

Hazrat Navoiy shu mazmundagi arab afsonalari bilan, Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviyning ayni syujetdagi asarlari, shuningdek, Ashrafning “Layli va Majnun”i bilan yaqindan tanishadi. Boy ijodiy tajriba to‘plagach, o‘z oldiga aniq maqsad qo‘yadi. Bu maqsad “Layli va Madnun”da quyidagicha ifodalangan:

Men xastaki bu raqamni chektim,  
Tahriri uchun qalamni chektim.  
Yozmoqda bu ishqijovidona,  
Maqsudim emas edi fasona.  
Mazmunig‘a bo‘ldi ruh mayli,  
Afsona edi aning tufayli.  
Lekin chu raqamg‘a keldi mazmun,  
Afsona anga libosi mavzun...<sup>218</sup>

Dostondan keltirilgan ushbu iqtibosni navoiyshunos Natan Mallaev quyidagicha izohlaydi: “Navoiy o‘z dostonida Layli va Majnun haqidagi afsona va rivoyatlardan foydalanadi. Biroq uning maqsadi “afsona” so‘zlash emas, balki “mazmun”dir. Afsona asarning qobig‘i, uning “mavzun libosi”dir”<sup>219</sup>.

Fuzuliy dostoni muqaddimasida muallifning niyati ulug‘ ustozni maqsadiga mutanosib ekani quyidagicha izhor etilgan:

Dehqoni hadiqai hikoyat,  
Sarrofi javohiri rivoyat.  
Ma’ni chamaninda gul dikanda,  
So‘z rishtasiga guhar chekanda.  
Qilmish bu ravishda nuktodonlik,  
Gulrezligu guharfishonliq<sup>220</sup>.

<sup>218</sup> Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун. Муқаммал асарлар тўплами. Йигирма жилдлик. Т.: Фан, 1992, Б.310.

<sup>219</sup> Маллаева Н. Сўз санъатининг гултожи. Т.: Адабиёт ва санъат, 1991, 69-бет.

<sup>220</sup> Мухаммад Фузулий. Лайли ва Мажнун. Асарлар. Икки жилдлик. Т.: Бадиий адабиёт, Б.

Ya’ni Fuzuliy rivoyatlardagi javohirlarni ajratib olish, “ma’ni chamaniga gul tikish”, “so‘z rishtasiga guhar chekish” niyatini o‘z oldiga qo‘yadi. SHuning uchun ham u turkiy tilda Alisher Navoiy “Layli va Majnun”iga eng munosib javob yoza oldi. SHu bois uning ushyuu syujet asosidagi dostoni yuksak darajada e’tirof etildi, muallifga katta shuhrat keltirdi.

Fuzuliyning “Layli va Majnun”i so‘z san’atining nafisligi va ohorini to‘laqonli namoyon etgani bilan katta ahamiyatga ega. Alisher Navoiy kabi Muhammad Fuzuliy ham “Layli va Majnun”ni aruzda, hazaj bahrining musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf (ruknlari: mafu’lu mafoilun fauvlun – – V / V – V – / V – –) vaznida yozgan. Shu bois doston mazmuni mutolaa qiluvchining qalbiga kuy kabi oqib kiradi, shuurga hayrat bag‘ishlaydi, ko‘ngillarga titroq soladi.

Fuzuliy dostoni Navoiy “Layli va Majnun”idan kompozitsiya jihatidan birmuncha farq qiladi. Jumladan, ulug‘ ozarbayjon shoiri dostonni hazrat Alisher Navoiy kabi masnaviy janrida bitgan bo‘lsa-da, biroq o‘rni-o‘rni bilan boshqa janrlarga – g‘azal, murabba’, ruboiy, soqiynoma kabi she’riy shakllarga ham murojaat etadi. Bu uslub, birinchidan, dostondagi badiiy tasvirning ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilgan bo‘lsa, ikkinchidan, yangi she’riy shaklga o‘tilishi orqali o‘quvchining fikr o‘zanini masalaning mohiyatini yanada chuqurroq anglash sari burib yuboradi. Uchinchidan, o‘quvchining asar qahramoni ahvoli ruhiyasini yaqqolroq his etishiga yordam beradi. Asar kompozitsiyasining bu tarzda tuzilishi Fuzuliyning o‘ziga xos ijodiy metodi talablaridan kelib chiqqan, deyish mumkin. Qolaversa, shoир yashagan davr dostonchiligi ana’analari ham shunday yo‘l tutishni taqozo etgan bo‘lishi haqiqatga yaqin.

Har ikkala dostonda ifoda ta’sirchanligini ta’minlashga xizmat qiluvchi badiiy tasvir vositalaridan mahorat bilan foydalanilgan. Bu hol, o‘z navbatida, har ikki doston badiiyatining mukammalligini ta’minlagan, syujetning ta’sir kuchini oshirgan.

Ma’lumki, mumtoz adabiy an’anaga ko‘ra, har qanday asar muqaddimasi, hatto aksar hollarda undagi muayyan bob va fasllar ham Alloh taologa hamd va payg‘ambar alayhissalomga na’t bilan boshlangan. Hamd va na’tlar zohiran asar mazmuniga bevosita bog‘liq emasdek ko‘rinsa ham, aslida doston syujet liniyasining muhim jihatlarini o‘zida mujassam etadi. Birgina misol. Har ikki dostonda Laylining Majnunga bitgan maktubi o‘ziga xos badiiy talqin etilgan. Har ikki maktub Allohga ham bilan boshlanadi. Jumladan, hazrat Alisher Navoiy dostonidagi Layli maktubida fikrlar mana bunday izhor etiladi:

Ul Tengri oti bila bu manshur -  
Kim, berdi ko‘ngulga ishqdin nur.  
Urg‘och mayi ishqning salosi,  
Odamg‘a etishdi ibtilosi.  
Bir jur’aki chekti ul jigarxun,  
Mast o‘ldi, ne mast, balki majnun (1, 194).

Ya’ni hazrat Navoiy Tangri taoloni ko‘ngillarga ishq nurini ato etgan ulug‘ zot sifatida madh etadi. Ishqning Odam Atodan meros ekaniga urg‘u beradi. Ishq mayidan bir ho‘plam (jur‘a) ichgan Odam Atoning mastu mustag‘raq bo‘lgani buning isboti ekanini aytadi.

Fuzuliy dostonidagi Layli maktubida Tangri taolo madhi o‘ziga xos ekani bilan alohida ajralib turadi:

Bu tarz ila kilki o‘ldi jori  
Kim, avvali noma; nomi bori.  
Me’mori binoyi aqdu payvand,  
Vahhobi atoyi molu farzand.  
Izhori vujud edan adamdan,  
Ijodi hudus edan qadamdan (3, 10).

Ya’ni buyuk shoир YAratganning ikki jins orasidagi aqdu payvandning (nikoh aqdi nazarda utilgan – Yu.A.) me’mori, molu farzandni ato etguvchi ekani vasfiga urg‘u beradi. Odam

farzandlarini yo‘qdan bor qilguvchi ham, hodisalarni ijod etguvchi ham Tangri taolo ekanini ta’kidlaydi.

Alisher Navoiy Layli tilidan Majnunning ta’rifini keltirar ekan, Majnun holidan tashvishda bo‘lgan Laylining yoridan arazlagani holatini teran mazmun va go‘zal badiiy shakl uyg‘unligida mana bu tarzda tasvirlaydi:

Ey ishq o‘tida xasim, nechuksen,  
Ey bedilu bekasim, nechuksen?  
Mundog‘ dog‘i dedilar fasona -  
Kim, Navfal ila bo‘lub yagona.  
Chun hajlasi sori ko‘z solibsen  
Qo‘lmoqqa qizini ko‘z solibsen.  
Yovar sanga Haq taborak o‘lsun,  
Bu xayr ishing muborak o‘lsun (1,199-200)

Fuzuliy dostonida esa, Layli Majnunga o‘z holidan xabar beradi. Ammo dostonning shakli uning mazmuniga ham ta’sir qiladi. Masalan, Laylining tilidan murabba’ keltiriladi, “Tamomiyi suxan”, ya’ni so‘z so‘ngida Layli maktubini olgan Majnunning ahvoli ruhiyasi mana bu tarzda tasvirlanadi:

Majnuna chu noma o‘ldi vosil,  
Dur ko‘rdi aqiqina muqobil.  
Mafhumdan etdi kasbi maqsud,  
Layli tarafindin o‘ldi xushnud (3, 118)

Alisher Navoiy va Muhammad Fuzuliy “Layli va Majnun” dostonlarini qiyosiy o‘rganish, shubhasiz, muhim ilmiy-nazariy xulosalarga olib keladi. Ikki buyuk shoir dostonlaridagi badiiy talqinining o‘ziga xosligi, Fuzuliy hazrat Navoiy an’alarini munosib davom ettirgani holda, uni rivojlantirgani, “Layli va Majnun”dagi obrazlar tasvirini yanada takomillashtirgani haqidagi to‘xtamlar buning isbotidir. Bu boradagi ilmiy kuzatishlarni yanada chuqurlashtirish, tahlil doirasini kengaytirish galdeg'i vazifalardandir.

# MUNDARIJA

## PROFESSOR YORMAT TOJIYEV – OLIM, PEDAGOG VA MURABBIY

H.Boltaboyev. O‘zbek filologiyasining takomillashuvi jarayonida universitet tilshunosligining o‘rni.....	3
Yo.Tojiyev. Ayyub g‘ulomov – grammatika bilimdoni.....	6
R.Sayfullayeva. Ustoz hayoti — olam.....	8
Z.Xolmanova. Ustoz ibrati.....	11
R.Mahmudov. Rapqonlik tilshunos olim.....	13
J.Abdullayev. Yormat Tojiyev va o‘zbek tilida morfemaning mohiyati, maqomi masalasi.....	15
H.Hamroyeva, T.Butunboyeva. Professor Yormat Tojiyevning ilmiy maktabi.....	18

## NAZARIY VA AMALIY TILSHUNOSLIK MASALALARI

N.Rahmonov. Til “men” va olam birlashadigan muhitdir.....	21
Timur Kocaoğlu (Temur Xo‘ja o‘gli). Turkologiyada e’tibordan chetda qolgan Abdurauf Fitratning “Qutadg‘u bilig” matni nashri (1928).....	27
M.,Qurbanova. O‘zbek tilining xalqaro miqyosda mavqeyini oshirish muammolari.....	33
M.Ескеева, У.Мусабекова. Древние топонимы тюркских языков.....	35
Oynur O‘z O‘zjon. O‘zbek tilining turkiyada targ‘iboti.....	40
A.Berdialiev. O‘zbek tili affiks morfemalarining paydo bo‘lish yo’llari haqida.....	43
S.Nurmatov. Sonlarning rivojlanishiga doir ba’zi nazariy qarashlar xususida (hind-oriy tillariga oid sonlar misolida).....	46
M.Ahmedova. O‘zbek terminologiyasi masalalari.....	48
B.Mengliyev, Sh.Xamroyeva. Morfoanalizator tuzishda axborot bazasi va tahlil dasturlarining amaliy ahamiyati.....	50
O‘Islamov. Til – millatning borligi va birligining bosh belgisi.....	52
M.Abdurahmanova. Korpus lingvistikasining shakllanish taraqqiyoti.....	55
A.Uralov. Morfemaning lisoniy o‘rni.....	57
I.Ermatov. Onomasiologik terminologiyada giperonim-giponimik munosabatlar.....	58
F.Abdujabbarova. “Cheksiz” so‘zining chegarasi bormi?.....	61
B.Suyunov. O‘zbek tilida terminlar pragmatikasi va uni takomillashtirish masalasi.....	63
Н.Бекмухамедова. Рекламный текст – как явление социокультурного характера...65 Х.Сагдуллаева. Подготовка специалистов в неязыковом вузе посредством чтения профессионально-ориентированных текстов на русском языке (РКИ).....67	65
S.Xolmirzaeva. Til bor ekan – millat bor.....	69
X.Бабарахимова. Старославянизмы, встречающиеся в историко-лингвистическом источнике XVII века «Вести-куранты».....	70
Z.Tohirov. Davlat va davlat tili ajralmasdir.....	72
A.Ahrorov. Nutqiy akt voqeylanishida maqollarning tutgan o‘rni masalasi.....	74
З. Р. Джираева. Культурные концепты в узбекской языковой картине мира.....	76
S.Israilova. Badiiy matnda rang bildiruvchi leksemalar pragmatikasi.....	79
A.Rahmanova, M. Akramjonova. Korpus lingvistikasi: mazmuni va mohiyati.....	82
Sh.Atamuradov. Kommunikativ to‘sinq lingvopragmatik muammo sifatida.....	84
Z.Kasimova. “Realiya” tushunchasi va uning tilshunoslikda o‘rganilishi.....	86
L.Nigmatova, I.Kozieva. O‘zbek tili maxsus korpuslarida madaniyat kategoriyalari ifodasi.....	89
N.Xamrayev. Davriy nashrlar rivojida o‘zbek tilining beqiyosligi.....	92
L.Abdulkasimova. Arab va o‘zbek tillaridagi jinoyat huquqiga oid terminlarning solishtirma-qiyosiy tahlili.....	95

<i>Sh.Xudayqulova.</i> Aksiologik leksikaning umummilliy xarakteri.....	98
<i>U.Burieva.</i> Incomplete statements in the actual division of the text.....	101
<i>D.Nasriyeva.</i> Areal lingvistika, lingvistik geografiya va dialektologiya.....	103
<i>D.Fattaxova, N.Sayfullayev.</i> Terminlar – tilimizning boyligi.....	105
<i>N.Rasulova.</i> O'zbek tilidagi gastronomiyaga oid barqaror birikmalar.....	107
<i>N.Xaitbayeva.</i> Ontogenezda yozma nutqning shakllanishi va rivojalanishi.....	109
<i>D.Ro'zimatova.</i> Tibbiy terminlarni qo'llashda shifokor nutq madaniyat.....	111
<i>M.Abdurahmanova, U.Buxorova.</i> Til va nutq.....	113
<i>S.Israilova.</i> Sifat so'z turkumining o'rganilishi.....	115
<i>N.Qidirboyeva.</i> Badiiy matnda rang bildiruvchi leksemalarga xos konnotativ ma'nolar.....	117
<i>D.Amirova.</i> Ona tili – millat ruhi.....	119
<i>M.Ahmedova.</i> O'zbek terminologiyasi masalalari.....	122
<i>N.Kudratxodjayeva.</i> O'zbek tilining rivojlanishida terminlarning o'rni.....	123
<i>O.Usmonova, Z.Usmonova.</i> Alisher Navoiy asarlarida til va nutq masalalari.....	125
<i>F.Topildiyeva</i> Davlat tili va o'zbek huquqiy atamashunosligi tizimini o'rganishning ahamiyati.....	127
<i>M.Shamsiyeva.</i> Bola nutqi rivojlanishining zamonaviy nazariyalari.....	129

## **O'ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O'QITISH METODIKASI**

<i>N.Alavutdinova.</i> O'zbek tilshunosligining shakllanish va taraqqiyotini davrlashtirishni o'qitishga oid metodik qarashlar.....	131
<i>G.S.Keldiyorova.</i> O'zbek tili darslarida zid ma'noli so'zlarning o'qitimishi.....	132
<i>Д.Фаттахова, Ф.Топилдиева.</i> О методике обучения средствам речевой выразительности узбекского языка.....	135
<i>A.Ubaydullaev.</i> "Matnshunoslik" fanidan mustaqil ishlarni tashkil etish.....	137
<i>N.Inogamova.</i> O'zbek tilini o'qitish metodikasida innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning samarasi xususida.....	140
<i>N.Egamberdiyeva.</i> Ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati.....	143
<i>G.Muxamedjanova, N.Musulmanova.</i> O'zbek tilini o'qitishda aktlaridan foydalanish imkoniyatlari.....	145
<i>I.Nigmatova, S.Sharipov.</i> Maktabgacha yoshdagи bolalar va boshlang'ich sinf o'quvchilarini uchun yaratilgan lug'atlarda til va madaniyat uyg'unligi muammosi.....	146
<i>F.Mamatova.</i> Interaction of language and culture as an actual issue of sociolinguistics.....	149
<i>Sh.Abdullayeva, S.Nazarova.</i> Ona tili darslarida yozma savodxonlikni oshirishda "orfografik estafeta" metodidan foydalanish usullari.....	150
<i>Sh.Toshmirzayeva, S.Majidova.</i> Qachongacha "aylanib o'tamiz" (til ta'limidagi savodxonlik muammolari).....	153
<i>R.Mahmudov.</i> O'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilarini tayyorlash muammolari.....	155
<i>Ж.Темирова.</i> Проблемы современного состояния детской игросферы.....	157
<i>F.Abdujabbarova.</i> Shavkat Rahmonning "Sulaymon tog'i etagida o'yaganlarim" she'rini o'rganish usullari.....	158
<i>Sh.Egamova, O.Danabekov.</i> Eski o'zbek yozuvi darslarida interfaol metodlardan foydalanish usullari.....	162

## **MUMTOZ VA ZAMONAVIY ADABIYOT MUAMMOLARI**

<i>J.Mahmudov.</i> Ahmad Tabibiyning axloqiy-ma'rifiy qarashlari.....	168
<i>M.Hojimatov.</i> Milliy o'zlikni anglashning ilmiy-nazariy asoslari yaratilishida adabiy aloqalarning o'rni.....	172
<i>M.Mamatqulov.</i> Sayqaliyning "Bahrom va Gulandom" dostonida irsol ul-masal san'ati.....	176
<i>Sh.Hojieva.</i> Cho'lpon ijodida folklorizm motivlarining ifodalanishi.....	178
<i>D.To'raeva.</i> Ijodiy jarayonda qahramon masalasi.....	180
<i>M.Kurbanova.</i> Особенности лирики как выражителя души.....	182
<i>D.Azimova.</i> Oybekning "Davrim jarohati" dostoni xususida.....	185
<i>D.Kazakbayeva.</i> Yusuf Amiriij ijodida tarji'band janri.....	187
<i>N.Pardayeva.</i> Anbar Otinning "Risolayi falsafayi siyohon" asari haqida.....	191
<i>M.Sharipova.</i> Shayboniy she'riyatida talmeh san'ati.....	193
<i>Sh.Hoijiyeva, N.O'rinooyeva.</i> O'zbek nasrida Bobur timsoli.....	195
<i>Z.Sulaymanov.</i> "Najhu-l-farodis" asarining muallifi to'g'risida izlanishlar.....	196
<i>Z.Mo'minova.</i> Tasavvuf ilmida isxoq otaning o'rni.....	199
<i>E.Hazratqulova.</i> Bobur va Haydar Mirzo nigohida Abdurahmon Jomiy ijodi.....	202
<i>L.O'sarova.</i> Cho'lpon she'riyatida ijodkor badiiy-estetik ideali.....	205
<i>B.Гудзина.</i> Особенности интеграции художественных образов и мироощущения поэта в лирической системе поэзии Зульфии.....	206
<i>I.Saymuratova.</i> Sizif – yangi shakllangan ong timsoli.....	209
<i>G.Murodova</i> Abdulla Oripob ijodida milliy ruhning navoiyona ifodasi.....	211
<i>A.Eshniyazova.</i> Qissalarda millat ma'naviyatining badiiy ifodasi.....	212
<i>H.Boltaboyeva.</i> Mehmet Akif Ersoyning "Safahot" asarining yozilish tarixi va unga asos bo'lgan voqealar.....	214
<i>Ж.Буранова.</i> Формы мифа и образ главного героя в романе Тимура Пулатова «Черепаха Тарази».....	216
<i>U.Ametova.</i> Alisher Navoiyning "Nasoyimu-l-muhabbat" asarida Najmiddin Kubro ustozari xususida.....	220
<i>F.Yaxyoyev.</i> XX asrning ikkinchi yarmida Navoiy "Xamsa"si tadqiqi.....	223
<i>M.Ataniyazova.</i> Alisher Navoiy "Hayratu-l-abror" dostoni Olim Sharafiddinov talqinida.....	225
<i>E.Jabborov.</i> Jadidchilik harakatining ma'rifatchilik faoliyati.....	229
<i>D.Inagamova.</i> Mustaqillik davrida Alisher Navoiy "Xamsa"sigi munosabat masalasi	232
<i>O.Abdulhakimova.</i> Abdulla Oripov adabiy-estetik ideali ifodasida ayol obrazining o'rni.....	236
<i>Yu.Abdulhakimova.</i> Alisher Navoiy va Muhammad Fuzuliy: Layli va Majnun siy whole chizgilar.....	238

*Ilmiy-ommabop nashr*

**“Filologik ta’limni takomillashtirish muammolari”**

**Respublika ilmiy-amaliy anjumani  
MATERIALLARI**

Nashriyot muharriri: Ilhom Yo‘ldashev  
Musahhiha: Sarvinoz Musaxo‘jayeva  
Texnik muharrir: Behzod Boltaboyev

«MUMTOZ SO‘Z»  
oilaviy korxonasi  
nashriyoti

Manzil: Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 69.  
Тел.: 71 247-08-56

Bosishga ruxsat etildi 01.12.2020  
Qog‘oz bichimi 60x84 1/16. Ofset qog‘izi.  
Times New Roman garniturası. Hisob-nashriyot tabog‘i 15,0.  
Shartli bosma tabog‘i 15,25. Adadi 100  
Bahosi kelishilgan narxda

«MUMTOZ SO‘Z»  
oilaviy korxonaning  
matbaa bo‘limida chop etildi.  
Manzil: Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 69.  
Тел.: 99 847-12-12

---